

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA

O‘ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2025-yil 27-mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA O‘ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

materiallari to‘plami

2025-yil 27-mart

Toshkent – 2025

Tahrir hay’ati: i.f.d., prof. S.E.Elmirzayev, i.f.d., prof. I.M.Alimardonov, i.f.d., prof. D.R.Abdikarimova, i.f.d., dots. J.P.Tursunov, PhD N.Raxmonov, PhD M.T.Ibodullaeva, M.M.Yaqubov

Taqrizchilar: i.f.d., prof. D.X.Suyunov,
i.f.d. prof. J.H.Ataniyazov

«Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston bank-moliya tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 661 bet.

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonidagi vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 490-son buyrug‘iga asosan 2025-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tomonidan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston bank-moliya tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari o‘rin olgan

To‘plamda konferensiya natijalari yashil moliyalashtirish instrumentlari muomalasini rivojlantirish masalalari, xalqaro moliya institutlari tomonidan loyihalarga yashil investitsiyalar yo‘naltirish masalalari, tijorat banklari tomonidan yashil kreditlash amaliyoti tahlili, yashil soliqqa tortish masalalari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratishda yashil sertifikatlashni samarali tashkil etish yo‘llari, yashil byudjetlashtirish amaliyotidagi ustuvor jihatlar, yashil kreditlar va obligatsiyalar, yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standantlarini qo‘llash istiqbollarini hisobga olgan holda ilmiy asoslagan taklif va amaliy tavsiyalar o‘z aksini topgan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari ma’suldir.

© BMA, 2025

KIRISH

Global miqyosdagi iqlim o‘zgarishlari jahon iqtisodiyotida yashil rivojlanishni taqozo qilmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish esa bank-moliya tizimining faol qo‘llab-quvvatlashi asosida amalga oshirilishi ma’lum haqiqat. O‘z navbatida yashil bank-moliya tizimining rivojlanishi yashil iqtisodiyot ravnaqi uchun o‘ziga xos ekotizim yaratilishiga ham xizmat qiladi. Keltirilayotgan jihatlardan kelib chiqqan holda respublikamizda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan respublikamizda 2025 yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”, deya e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinda va bugungi kunda ijrosi ta’minlanmoqda.

2025 yildan boshlab quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag‘larini jalb etish choralari ko‘rilmoqda:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan — bosqichma-bosqich 200 million yevrogacha;

Jahon bankidan — energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million AQSh dollari;

Global yashil o‘sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko‘magi doirasida — O‘zbekiston-Koreya o‘rtasida «yashil hamkorlik»ni kuchaytirish uchun 6,5 million AQSh dollari;

Jahon bankining «iCRAFT» loyihasi doirasida — 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million AQSh dollari;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan — sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevro;

Shuningdek 2025 yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” ekanligidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 490-son buyrug‘iga asosan 2025-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tomonidan “**Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston bank-moliya tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari**” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Konferensiyada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-amaliy ma’ruzalar va tezislar muhokama qilindi:

1. Yashil moliya bozori instrumentlarini rivojlantirish istiqbollari;
2. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari ro‘lini oshirish masalalari;
3. Barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish.

4. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash imkoniyatlari.

Ilmiy-amaliy konferensiya ishida oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilar hamda iqtidorli talabalar, vazirlik, idora, korxona va tashkilotlarning rahbar xodimlari va mutaxassislari ishtirok etishdi.

Konferensiyada yashil moliyalashtirish instrumentlari muomalasini rivojlantirish masalalari, xalqaro moliya institutlari tomonidan loyihalarga yashil investitsiyalar yo‘naltirish masalalari, tijorat banklari tomonidan yashil kreditlash amaliyoti tahlili, yashil soliqqa tortish masalalari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratishda yashil sertifikatlashni samarali tashkil etish yo‘llari, yashil byudjetlashtirish amaliyotidagi ustuvor jihatlar, yashil kreditlar va obligatsiyalar, yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standantlarini qo‘llash istiqbollari kabilar atroflicha muhokama qilindi va tegishli takliflar ishlab chiqildi.

ИҚЛИМ МУАММОЛАРИ ВА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ

Элмирзаев Самариддин Эшқувватович
Банк-молия академияси кафедра мудири, и.ф.д., проф.

Дунё аҳолиси 8 миллиарддан ошган ўсишда давом этмоқда. Бирлашган миллиатлар ташкилотининг дунё аҳолиси 2050 йилда 9,7 миллиардга, 2100 йилга бориб эса 11 миллиардга етиши борасидаги прогнозлари мавжуд. Натижада эса ресурслар ҳажми тобора камайиб бораётган бир вақтда иқтисодиётнинг бош муаммоси ҳисобланган эҳтиёжларнинг мунтазам ўсишда давом этаётганлиги, яъни иқтисодиётнинг бош муаммоси кўлами тобора кенгайиб бормоқда. Бунга ҳамоҳанг тарзда жаҳондаги иқлим ўзгаришлари билан боғлиқ муаммолар доираси ҳам кенгайишда давом этмоқда. Натижада бошқа томондан озиқ-овқат хавфсизлиги билан боғлиқ муаммолар кўлами ҳам кенгаймоқда.

Ўзбекистонда ҳам аҳоли сонининг мунтазам ўсиб бораётганлиги, сув танқислиги билан боғлиқ ҳолда қишлоқ хўжалиги соҳаларида муаммоли ҳолатлар юзага келаётганлиги, натижада гўшт, картошка, ёғ маҳсулотлари, шакар маҳсулотлари кабилар импортининг мунтазам ошиб бораётганлиги, энергетик коллапсларга йўл қўймаслик кабилар мамлакатимизда ҳам яшил иқтисодиётга ўтиш жараёнини тобора жадаллаштиришни талаб қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги маълумотларига кўра “2030 йилга бориб Ўзбекистонга 7 миллиард куб метр сув етишмайди”[1]. Германиянинг Statista таҳлилий статистика компанияси прогнозларига 2040 йилга бориб дунёнинг 44 та мамлакатида экстремал даражада юқори (>80) даражада сув танқислиги кузатилади. Афсуски бу рўйхатда Марказий Осиё давлатлари ҳам мавжуд[2].

Келтирилган жиҳатлар боис халқаро ташкилотлар ва алоҳида ҳукуматлар томонидан иқлим ўзгаришларига қарши фаол амалий ишлар бошлаб юборилган бўлса, бошқа томондан иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларини яшил иқтисодиётга йўналтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Айнан яшил иқтисодиёт ресурс тежамкорлигига имкон бериш билан бирга аҳоли ўсиши фонида ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш билан бирга турмуш фаровонлиги юксалишига ҳам хизмат қилади.

Бу борада иқтисодиётнинг муҳим бўғини ҳисобланган энергетика тизимини яшил иқтисодиёт принциплари асосида ривожлантириш глобал миқёсда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу боисдан Ўзбекистон Республикаси Перзеидентининг 2023 йил 16 февралдаги “2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-57 сонли Қарори ҳам муҳим амалий қадамлардан бўлди. Миллий “иқтисодиётимизда энергия

[1] https://miit.uz/oz/news/suv-resurslarini-boshqarish-va-qishloq-xojaligini-barqaror-rivojlantirish-ikkinchi-toshkent-xalqaro-investitsiya-forumining-mavzularidan-biriga-aylandi
[2] https://www.statista.com/chart/26140/water-stress-projections-global/

сарфи бошқа давлатлардан 2 баробар юқори”[3] бўлиб турган бир вақтда яшил энергияга ўтишнинг зарурлигини тақозо этмоқда.

Қайта тикланувчи энергияга жадал тарзда ўтиш иқтисодиёт ва жамият учун икки томонлама самара келтиради. “Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиш, истеъмолчиларни муқобил энергияга ўтказиш ва энергия тежамкор технологияларни жорий қилиш орқали 2023 йилда қўшимча 5 миллиард киловатт-соат электр энергияси ишлаб чиқариш ва 4,8 миллиард метр куб табиий газни иқтисод қилиш”[4] имконини беради. Натижада бир томондан табиий газ тежаш имконияти ортса, иккинчи томондан ҳавога карбонат ангидрид гази чиқарилиши камаяди.

Энди бевосита яшил энергияга ўтишни молиялаштириш масаласига тўхталиб ўтсак, ушбу мақсадларга жами 15,4 миллиард АҚШ доллари миқдоридаги маблағларни йўналтириш кутилмоқда. Бунда молиялаштириш манбалари қуйидагича (1-расм).



1-расм. Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиш, истеъмолчиларни муқобил энергияга ўтказиш ва энергия тежамкор технологияларни жорий қилишни молиялаштириш манбалари, млрд АҚШ долларида[5]

Келтирилган 1-расмдан аён бўлмоқдаки, қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиш, истеъмолчиларни муқобил энергияга ўтказиш ва энергия тежамкор технологияларни жорий қилишни молиялаштиришда давлат-хусусий шериклик доирасида хусусий инвесторлар маблағлари йўналтириладиган барча маблағларнинг 87 фоизини ташкил этиши кутилмоқда. Бундан ҳам хусусий бизнес ютади, ҳам давлат.

Шунингдек, тижорат банкларининг 1,1 миллиард долларлик кредит маблағлари, 610 миллион долларлик корхоналарнинг ўз маблағлари, 150 миллион долларлик хорижий молиявий ташкилотлар маблағлари ва давлат бюджетидан 100 миллион долларлик маблағлар яшил энергетика мақсадларида йўналтирилиши белгиланган. Алоҳида қайд этиш керакки,

[3] https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn
[4] https://lex.uz/uz/docs/6385716
[5] https://lex.uz/uz/docs/6385716

бунда давлат бюджети маблағлари бюджет ташкилотларининг яшил энергияга ўтиши учун йўналтирилади.

2023 йилда давлат-хусусий шериклик асосида йирик қувватли қуёш ва шамол электр станцияларини қуриш бўйича 27 лойиҳа амалга оширилиши кутилмоқда. Шунингдек, 2023 йилда давлат-хусусий шериклик асосида йирик қувватли қуёш ва шамол электр станцияларини электр узатиш тармоқларига улаш бўйича лойиҳаларнинг манзилли рўйхати ҳам тасдиқланган. Бунда Давлат-хусусий шериклик асосида қуёш ва фото электр станцияларини қуриш ва ишга тушириш борасидаги лойиҳаларни амалга ошириш учун хорижий компаниялар, хусусан Франция, Хитой, Швейцария, Бирлашган Араб Амирлиги, Саудия Арабистони кабилар компаниялари билан ҳамкорлик йўлга қўйилганлигини алоҳида таъкиллаш лозим (1-жадвал).

1-жадвал

Masdar (БАА) ва ACWA Power (Саудия Арабистони) компаниялари томонидан давлат-хусусий шериклик асосида амалга оширилаётган лойиҳалар таҳлили[6]

Станция жойлашуви	Лойиҳа қиймати, млн АҚШ долларида	Ишга тушириш муддати	Станция қуввати, МВт	
			Жами	2023 йил ишга туширилади ган қисм
Masdar (БАА)				
Самарқанд вилояти Каттақўрғон тумани ФЭС	150	1 навбати — 2023 йил декабрь; тўлиқ — 2024 йил май	220	100
Жиззах вилояти Ғаллаорол тумани ФЭС	150		220	100
Сурхондарё вилояти Шеробод тумани ФЭС	260	1 навбати — 2023 йил декабрь; тўлиқ — 2024 йил октябрь	457	100
Навоий вилояти Томди тумани ШЭС	600	1 навбати — 2023 йил декабрь; тўлиқ — 2025 йил август	500	50
ACWA Power (Саудия Арабистони)				
Бухоро вилояти Пешку тумани ШЭС	600	1 навбати — 2024 йил декабрь; тўлиқ — 2025 йил май	500	-
Бухоро вилояти Ғиждувон тумани ШЭС	600	1 навбати — 2024 йил декабрь; тўлиқ — 2025 йил май	500	-
Қорақалпоғистон Республикаси Қораўзак тумани ШЭС	107	1 навбати — 2025 йил май; тўлиқ — 2024 йил август	100	-

Бугунги кунда Бирлашган Араб Амирлигининг Masdar компанияси томонидан 1,16 миллиард АҚШ долларига тенг 4 та лойиҳа давлат-хусусий

[6] https://lex.uz/uz/docs/6385716

шериклик шартлари асосида амалга ошириб келинмоқда. Мазкур лойиҳаларнинг биринчи навбати жорий 2023 йил декабрда ишга тушиши кутилмоқда. Саудия Арабистонининг ACWA Power компанияси томонидан эса 1,307 миллиард АҚШ долларига тенг 3 та лойиҳа ҳам худди шундай шартлар асосида амалга ошириб келинмоқда. Бунда ишлаб чиқарилган электр энергияси давлат томонидан кафолатли сотиб олиниши белгиланганлигини алоҳида қайд этиб ўтишишимиз лозим.

Masdar компанияси Ўзбекистондаги лойиҳаларни амалга ошириш учун халқаро молия институтларидан кредит маблағлари жалб қилиб келмоқда (2-жадвал).

2-жадвал

Masdar компанияси томонидан Самарқанд (220 MVt), Жиззах (220 MVt), Сурхондарё (457 MVt) вилоятларида қуёш фото электр стацияларини қуриш лойиҳалари бўйича олинган кредит маблағлари

№	Молиялаштираётган банк	Молиялаштириш ҳажми, млн АҚШ долларида
1.	Осиё инфратузилма инвестиция банки	83,6
2.	Европа инвестиция банки	83,6
3.	Европа тикланиш ва тараққиёт банки	205
4.	Осиё тараққиёт банки	102
	Учта лойиҳа бўйича жами	**474,2**

Ўзбекистонда амалга ошириладиган лойиҳалар учун маблағлар Masdar компанияси томонидан халқаро молия институтларидан жалб қилинаётганлигини таъкидлашимиз лозим. Бунда Ўзбекистон томонининг мажбурияти давлат-хусусий шериклик нуқтаи назаридан кафолатла сотиб олишни ўзида намоён қилади.

Мамлакатимизда тижорат банклари томонидан ҳам қуёш панеллари сотиб олиш учун фаол тарзда кредитлар ажратилмоқда. Лекин етказиб бериш бўйича рақобатнинг чегараланганлиги энергия таърифларининг ўсиши шароитида ҳам аҳоли ва бизнеснинг фаол тарзда қўёш панелларига ўтишларига тўсқинлик қилмоқда.

Бугунги кун амалиётида яшил иқтисодиётга ўтишда яшил кредитлардан ташқари яшил молиялаштиришнинг бошқа кўплаб инструментлари ҳам қўлланилмоқда. Жумладан, яшил ва кўк облигациялар, яшил суғурта, яшил бюджети, яшил сукук кабилар шулар жумласидандир. 2022 йилда яшил облигациялар эмиссияси 1 триллион АҚШ долларидан ошган бўлса, 2025 йилда 5 триллион АҚШ долларига етиши кутилмоқда. Мамлакатимизда ҳам бу борада амалий ишларни бошлаш лозим. Ўзбекистонда яшил энергетика лойиҳаларини амалга ошираётган Саудия Арабистонининг ACWA Power компанияси ҳам бу борада 2021 йилда 747 миллион АҚШ доллари миқдори эквивалентида сукук эмиссия қилганлигини алоҳида қайд этилганлигини таъкидлаш лозим. Шунингдек яшил иқтисодиётни молиялаштиришда суверен ва корпоратив сукук билан бир вақтда хорижий мамлакатларда суверен яшил сукук ва корпоратив яшил сукук муваффақиятли жойлаштиришдан фаол фойдаланилмоқда.

Энергия ислоҳотини жадаллаштириш, бунда энергиядан тежаб фойдаланишга рағбатлантирувчи механизмларни жорий этиш лозим. Мамлакатимизда энергия сарфи кескин юқори шароитда тезкор амортизацияга ҳам рухсат беришимиз лозим. Чунки технологияларнинг мунтазам янгиланиб бориши бир томондан самарадорликни оширса, иккинчи томондан энергия сарфини камайтиради. Бу борада Сингапурнинг технологик ва яшил тараққиёти ҳар томонлама ўрганишга арзигулик.

Умуман, яшил молиялаштириш кўламини ошириш яшил иқтисодиётга ўтишнинг жадаллашувига хизмат қилади. Шу боисдан ҳам юқоридагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

ҚАЙТА ТИКЛАНАДИГАН ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИНИ ЯРАТИШДА «ЯШИЛ» СЕРТИФИКАТЛАРНИНГ ЎРНИ

Носиров Эгамқул Исмоилович
ТДИУ кафедра мудири, и.ф.н., проф.

Охирги йилларда қайта тикланадиган энергия (ҚТЭ)ни яратиш глобал миқёсдаги трендлардан бирига айланди. ҚТЭ манбалари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ҳукуматларга бир пайтнинг ўзида мамлакат энергия хавфсизлигини таъминлаш, электр энергиясини ишлаб чиқаришда инновацион технологияларни қўллаш орқали атроф-муҳитга зарарли чиқиндилар чиқаришни камайтириш ҳамда саноат тармоқларида рақобатбардошликни ошириш орқали энергетика сиёсатидаги устувор мақсадларга эришишга ёрдам бермоқда.

«World Energy Investment»нинг йиллик ҳисобот маълумотларига кўра, Жаҳон миқёсида 2024 йилда энергетика соҳасига киритилган инвестициялар ҳажми биринчи марта 3 трлн АҚШ долларидан ошиши кутилмоқда. Шундан, 2 трлн АҚШ доллари тоза энергия технологиялари ва инфратузилмасига йўналтирилади. 2023 йилда шамол ва қуёш фотоэлектрик қурилмаларига инвестиция қилинган ҳар бир доллар ўн йил аввал худди шу технологияларга сарфланган бир долларга қараганда 2,5 баравар кўп энергия ишлаб чиқарган. Глобал миқёсда тоза энергия ва қазиб олинадиган ёқилғиларга 2015 йилда инвестициялар киритилиши тахминан 2:1 нисбатни ташкил этган бўлса, 2024 йилда бу нисбат 10:1 га етиши кутилмоқда. [1].

Кейинги йилларда барқарор энергетика тизимига ўтишни қўллаб-қувватлаш воситаси сифатида «яшил» сертификатлардан дунёнинг кўплаб мамлакатларида фойдаланилмоқда. Мамлакатлар ҳукуматлари ҚТЭ учун сертификатлар бозорини шакллантириш орқали «тоза» энергия ишлаб чиқарилишини қўллаб-қувватлашмоқда.

«Яшил» сертификат концепцияси дастлаб 1990 йилларда АҚШда юзага келди. АҚШ энергетика корхоналари, экология ташкилотлари ва тартибга солувчи органлар ўзаро келишув асосида ҚТЭ манбаларига бозор механизмларини жорий қилиш таклифини ишлаб чиқишди. Бундай ҳатти-

ҳаракатлар мамлакат энергетика хавфсизлигини ошириш ва атроф-муҳитга иссиқхона газлари чиқарилишини камайтиришга қаратилган эди. Биринчи «яшил» сертификатлар дастури АҚШнинг Калифорния штатида 1996 йилда ишга туширилди. Шундан сўнг, Техас ва Пенсилвания штатларида ҳам бундай дастурлар амалга оширилди. АҚШда «яшил» сертификатлар дастури муваффақиятли йўлга қўйилгандан сўнг, Европа давлатларида ҳам бундай дастурга қизиқиш ортди. Тез орада, Европада қайта тикланадиган энергиянинг келиб чиқиши кафолатланган (REGO) ёки келиб чиқиши кафолатланган (GO) деб ном олган сертификатлар дастури ишга туширилди.

Моҳиятига кўра, ҚТЭ манбаларини ишлаб чиқарадиган компаниялар ишлаб чиқарилган бир бирлик электр энергияси учун тегишли сертификатга эга бўлади. Бундай компаниялар ҚТЭ манбаларини ишлаб чиқарганлиги учун олинган сертификатларни ўзлари хоҳлаган иқтисодиёт субъектларига сотиши мумкин бўлади.

«Тоза» энергия ишлаб чиқарувчи компаниялар «яшил» сертификатларни сотиши орқали қўшимча даромадларга эга бўлиши мумкин. Бу эса, «яшил» технологияларга инвестиция киритилишини янада рағбатлантиради.

«Яшил» сертификатларни чиқариш, рўйхатдан ўтказиш ҳамда улар билан олди-сотди қилишнинг бир қанча босқичлари мавжуд:

1. ҚТЭ манбаларини ишлаб чиқарадиган компания «яшил» сертификатлаш дастуридан рўйхатдан ўтиши керак. Кўп ҳолатларда бундай ишни давлат агентликлари ёки бошқа ташкилотлар амалга оширади.

2. Компания ҚТЭ манбаларини ҳақиқатда яратганлигини асослаши керак. Бунинг учун сертификатлаш бўйича миллий органга I-REC[7] стандартлари асосида тайёрланган ҳисобот ёки электр энергияси ишлаб чиқарилиши бўйича ҳисоблагич кўрсаткичларига асосланган маълумотлар тақдим этилади.

3. Ҳар бир мамлакатда «яшил» сертификатни тақдим этиш юзасидан ваколатли орган белгиланади ва мазкур орган I-REC бўйича миллий реестрни юритади. Давлат органи ҚТЭни ишлаб чиқарувчи компанияга унинг томонидан ишлаб чиқарилган ва бозорга тақдим этилган ҚТЭнинг кВт/соат ҳажмидан келиб чиққан ҳолда сертификат тақдим этади. Шундан сўнг, жараённи миллий даражада тартибга солувчи давлат органи ёки компания I-REC Standardга чиқарилган сертификатлар сони, уларга бўлган эгалик ҳуқуқининг ҳисоби ҳамда сертификатлардан фойдаланиш юзасидан ҳисобот топширади.

4. «Яшил» сертификатларни олгандан сўнг, ҚТЭни ишлаб чиқарувчи компания бундай сертификатларни тўғридан-тўғри, биржа ёки воситачилар орқали бошқа иқтисодиёт субъектларига сотиш имкониятига эга бўлади. Одатда, «яшил» сертификатлар ўз углерод изларини йўқотиш истагида бўлган

[7] Изоҳ: International Renewable Energy Certificate, яъни қайта тикланадиган энергия яратганликни тасдиқловчи халқаро сертификат. I-REC Standart - халқаро нотижорат ташкилоти ҳисобланади ва БМТнинг Қайта тикланадиган энергия бўйича Халқаро агентлиги билан ҳамкорликда фаолият кўрсатади. I-REC тизимида 50 дан ортиқ мамлакат ва 19 та аккредитациядан ўтган эмитентлар иштирок этади. Мазкур ташкилот томонидан тақдим этилган «яшил» сертификатлар бутун дунёда амал қилади.

ижтимоий масъулиятли компаниялар томонидан сотиб олинади. Бундай компаниялар шу йўл орқали ҚТЭ лойиҳалари амалга оширилишини қўллаб-қувватлайди.

5. «Яшил» сертификатларни сотиб олган компания амалга оширилган битимга оид маълумотларни сертификатлаш ва ҳисобни юритишга масъул бўлган миллий органга юборади. Ўз навбатида, мазкур орган «тоза» электр энергиясига эгалик қилиш ҳуқуқини янги ва бир пайтнинг ўзида охирги эгасининг номига қайд қилади. Шундан сўнг, мазкур компания расмий равишда фаолиятига оид углерод изларини қисқартирган ёки йўқотган ҳисобланади.

6. Инвесторлар фойда олиш мақсадида бўш пул маблағларини «яшил» сертификатларни сотиб олишга йўналтиришлари мумкин. Кўп ҳолларда «яшил» сертификатлар биржаларда олди-сотди қилинади.

Иқтисодиёт субъектларининг «яшил» сертификатларни сотиб олиш билан боғлиқ ҳатти-ҳаракатлари негизида компаниянинг углерод изларини йўқотиш тамойили ётади. Масалан, компания ўтган бир йил мобайнида фаолият кўрсатиши натижасида жами истеъмол қилинган «қора» электр энергияси ҳажми(МВт/соат)га мос бўлган «яшил» сертификатларни сотиб олиши орқали компания ўтган йилги фаолияти бўйича ўз углерод изларини тўлиқ йўқотган ҳисобланади. «Яшил» сертификатлар бозорида сертификатлар билан олди-сотди қилиш жараёни қуйидаги расмда келтирилган (1-расмга қаранг).



1-расм. «Яшил» сертификатлар бозорида сертификатлар билан олди-сотди қилиш жараёни[8]

Мисол учун, 2020 йил январ ойида Microsoft компанияси 2030 йилга бориб углерод газлари чиқарилиши бўйича салбий кўрсаткичга ўтиш режасини эълон қилди. Компания ташкил этилган 1975 йилдан хозирги пайтга қадар компаниянинг углерод чиқиндилари бўйича оқибатларини бартараф этишни ўз зиммасига олди. Шунингдек, Иқлим инновациялари жамғармасига

[8] Муаллиф томонидан хориж тажрибасини ўрганиш асосида тузилди.

1 млрд АҚШ доллари миқдорида инвестициялар киритишини маълум қилди [6].

«Яшил» сертификатлар айрим давлатларда кам углеродли сертификатлар, бошқа бир қатор давлатларда эса, қайта тикланадиган энергия сертификатлари (REC, Renewable Energy Certificate) сифатида юритилади. «Яшил» сертификатлар - электр энергияси ишлаб чиқарилиши ҚТЭ манбаларига асосланганлигини тасдиқловчи электрон ҳужжат ҳисобланади. Бироқ, бундай сертификатлар амалда электр энергиясини ишлаб чиқарувчи томонидан истеъмолчига етказиб берилишини англатмайди. «Яшил» сертификатлар унинг якуний эгасига ҚТЭ манбаларидан фойдаланган ҳолда яратилган электр энергиясининг маълум бир қисмини сотиб олганлигини тасдиқлайди.

Муомалага чиқариладиган ҳар бир «яшил» сертификат ўзига хос алоҳида рақамга эга бўлади. Махсус реестрда барча сертификатларнинг ҳисоби юритилади. Шунингдек, «яшил» сертификатда электр энергияси ишлаб чиқарувчисининг номи, ишлаб чиқарилган жойи, қачон ва қандай манбалар ҳисобига ишлаб чиқарилганлиги тўғрисида қўшимча маълумотлар ҳам келтирилади. Шуниси яҳамиятлики, «яшил» сертификатлар қимматли қоғозлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари билан тартибга солинмайди. Қоида тариқасида, 1 дона «яшил» сертификат ҚТЭ манбалари, хусусан, қуёш, шамол, сув, денгиз тўлқинлари, биоёқилғи энергиясидан фойдаланган ҳолда яратилган 1 МВт/соат электр энергиясига тўғри келади. «Яшил» сертификатлар нархи бозордаги талаб ва таклифга қараб шаклланади ва улар аниқ белгиланган номинал қийматга эга эмас. Бордию, бирор бир мамлакатда «яшил» сертификатлар бозори мавжуд бўлмаса, сертификатлар нархи ҚТЭ манбалари баҳосидан келиб чиққан ҳолда сотувчи ва сотиб олувчи ўртасида тузиладиган шартнома орқали белгиланади.

АҚШда «яшил» сертификатлар бозори ҳар бир штатда қабул қилинган қоидалар билан тартибга солинади. Кўпчилик штатларда ҚТЭ манбалари учун портфел стандартлари амал қилади. Бунда ҚТЭ манбаларидан фойдаланиш бўйича ҳар бир штат ўзининг ҳудудий мақсадли кўрсаткичларини жорий қилинади. Қўшма штатлар энергия истеъмолчилари ўз ишлаб чиқариш фаолияти учун ҚТЭ манбаларини сотиб олиш имконига эга бўлмаса, улар «яшил» сертификатлар бозоридан бундай турдаги сертификатларни сотиб олишлари мумкин. АҚШнинг Массачусетс, Коннектикут ва Ню-Жерси штатларида «яшил» сертификатлар бозорида юқори фаоллик кузатилади. «Яшил» сертификатлаш Green-e, ресурс ечимлари Маркази, Шимолий-Америка қайта тикланадиган энергия манбалари реестри каби бир қанча мустақил ташкилотлар томонидан амалга оширилади.

Европа Иттифоқида «яшил» сертификатлар юқорида қайд этиб ўтилганидек, келиб чиқиши кафолатланган (GO) сертификатлар деб аталади. Европа давлатларида қабул қилинган «яшил» сертификатлар бозори фаолият тартиби АҚШ амал қиладиган тартибга ўхшаш ҳисобланади. Бунда, Европа Иттифоқига аъзо бўлган ҳар бир давлатнинг ихтисослашган миллий органи GO сертификатларини чиқариш ҳуқуқига эга бўлади. Норвегия, Швеция, Италия, Испания, Нидерландия каби Европа Иттифоқи мамлакатларида келиб

чиқиши кафолатланган (GO) сертификатлар юқорида қайд этиб ўтилган мамлакатлар энергетика биржаларида савдо қилинади.

Европа Иттифоқида «яшил», яъни келиб чиқиши кафолатланган (GO) сертификатлар нархи 2022 йилнинг иккинчи ярмида 1 МВт/соат электр энергияси учун 2 евродан 10 еврогача ошиб, ҚТЭ хусусиятларига қараб сертификатлар баҳоси 6-9 евро атрофида барқарорлашди [7].

«Precedence Research» аналитик компанияси маълумотларига кўра, қайта тикланадиган энергия сертификатларининг глобал бозори 2023 йилда 12,72 млрд АҚШ долларига баҳоланди. Глобал миқёсда REC бозори 2033 йилга бориб 136,35 млрд АҚШ долларига етиши кутилмоқда [8].

Бундай прогноз натижаларига кўра, келажакада дунё миқёсида турли хил энергия ресурсларига бўлган талабнинг янада ошиши, ҳукуматлар томонидан компанияларга ҚТЭ манбаларидан фойдаланиш бўйича талабнинг кучайиши билан боғлиқ давлат сиёсати таъсирида глобал «яшил» сертификатлар бозори юқори суръатларда ўсиши тахмин қилинмоқда.

Мамлакатимизнинг 2030 йилгача «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва «яшил» ўсишни таъминлаш бўйича мақсадли кўрсаткичларида ҚТЭ манбаларининг электр энергиясини ишлаб чиқариш умумий ҳажмидаги улушини 2030 йилга бориб 30 фоизга етказиш кўзда тутилган. Бундан хулоса қиладиган бўлсак, ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимизда ҚТЭ манбалари яратилишини рағбатлантириш мақсадида «яшил сертификатлар» билан савдо тизимини яратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

1. Охирги ўн йилда дунёнинг кўплаб мамлакатлари барқарор энергетика тизимига ўтишни қўллаб-қувватлаш воситаси сифатида «яшил» сертификатлардан фойдаланилмоқда. Мамлакатлар ҳукуматлари ҚТЭ учун сертификатлар бозорини шакллантириш орқали «тоза» энергия ишлаб чиқарилишини қўллаб-қувватлашмоқда.

2. Иқтисодиёт субъектларининг «яшил» сертификатларни сотиб олиш билан боғлиқ ҳатти-ҳаракатлари негизида компаниянинг углерод изларини йўқотиш тамойили ётади. Одатда, «яшил» сертификатлар атроф-муҳитга кўп зарарли газлар чиқарувчи компаниялар ёки ижтимоий масъулиятли компаниялар томонидан сотиб олинади.

3. Мамлакатда қайта тикланадиган энергия ресурслари ишлаб чиқарилишини рағбатлантириш, «яшил» технологиялар ва «яшил» инфратузилма лойиҳаларини молиялаштиришга маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг муқобил манбаси сифатида «яшил сертификатлар» савдо тизимини яратиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2024/overview-and-key-findings

2. https://blogs.microsoft.com/blog/2020/01/16/microsoft-will-be-carbon-negative-by-2030/?culture=ru-ru&country=ru

3. https://recs.org/download/?file=REC23030_annual-report-2022-FINAL.pdf&file_type=documents
4. https://www.precedenceresearch.com/renewable-energy-certificate-market

ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИДАГИ МУАММОЛАР

Турсунов Жахонгир Пулатович
Банк-молия академияси кафедра мудири, и.ф.д., проф.

Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг энг муҳим жиҳатлари уларнинг тўлақонли ҳаёт кечиришини таъминлаш ҳамда харид қобилиятини пасайиб кетишини олдини олиш, инфляция жараёнларидан ҳимоя қилиш, шунингдек аҳолининг даромадлар бўйича фарқланиш даражасини камайтириш ҳисобланади. Ушбу мақсадларга эришиш учун давлатлар томонидан пенсия таъминоти соҳасида пенсиялар миқдорини ошириб бориш амалиётидан кенг фойдаланилади.

Халқаро меҳнат ташкилоти (ILO, 2018) маълумотларига кўра, кўпгина паст даромадли мамлакатларда кексаликда ижтимоий ҳимояланиш даражаси ҳақиқатда пастлигича қолмоқда. Бу мамлакатларда белгиланган пенсия ёшига етган фуқароларнинг 20 фоиздан камроғи пенсиялар билан таъминланган бўлса, қолган катта қисми бошқа даромад манбаларини излашга мажбур бўлишмоқда. Умуман дунё бўйича пенсия ёшидаги аҳолининг 68 фоизи пенсия ва ижтимоий нафақалар билан таъминланган.

Бугунги кунда дунё мамлакатларининг олдида турган энг муҳим вазифа бугунги глобал ўзгаришлар шароитида аҳолини ижтимоий рисклардан ҳимоя қилиш ҳисобланади. Агарда аҳоли ижтимоий ҳимоя билан қамраб олинмаса нималарга олиб келишини қўйидаги расмда кўришимиз мумкин.



1-расм. Ижтимоий ҳимояланмаган ҳаёт қандай оқибатларга олиб келади? (Ҳаракатсизликнинг нархи қанча?)

Ижтимоий ҳимоя тизимига ўзининг салбий таъсирини кўрсатаётган яна бир омиллардан бири бу аҳолининг кексайиб бораётганлигини кўрсатишимиз мумкин. Бу ҳам ижтимоий рисклардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда аҳолининг ёш таркибидаги ўзгаришлар, меҳнатга лаёқатли аҳолига нисбатан кексаларнинг улуши ошиб бораётганлиги турли даражада иқтисодий-ижтимоий ривожланган дунё мамлакатларининг катта қисмини қамраб олмоқда. Ҳозирда “кекса” давлатлар гуруҳига (65 ёш ва ундан кекса фуқаролар аҳоли улушининг 14 фоиздан ортиғини ташкил этаётган) 54 та давлат, қариётган (65 ёшдан кекса одамлар аҳоли улушининг 7-14 фоизгача ташкил этган) давлатлар эса 42 та бўлиб, 2950-йилга келиб, биринчи гуруҳдаги давлатлар сони 111 та, иккинчи гуруҳдаги давлатлар сони 36 га (дунё аҳолисининг 87 фоизи) етиши кутилмоқда. Ушбу жараёнларнинг кўлами ва тезлиги эса кексаларнинг таъминоти (пенсия, ижтимоий нафақалар, тиббий харажатлар ва бошқа ижтимоий таъминот харажатлари) билан боғлиқ бўлган бир қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда.



2-расм. Дунёда аҳолининг кексайиши бўйича БМТнинг узоқ муддатли прогнози (демографик боғлиқлик коэффициентлари 65+/ (15-64))

Аҳоли ёш таркибининг кескин ўзгариши, бунда кекса ёшдагиларнинг улуши йилдан-йилга ортиб бориш тенденцияси ҳар бир давлатда турли даража ва суръатларда бўлса-да, меҳнат бозори, тиббий ва ижтимоий хизматлар кўрсатиш, давлат молиявий ресурсларининг ижтимоий-иқтисодий соҳаларга тақсимланишида сезиларли асоратлар кечмоқда. “Ҳозирда дунёда ўртача умр кўриш ёши 1990 йилдаги 65,4 ёшдан 2022 йилда 72,7 ёшга етди ва сўнгги йиллардаги тадқиқотларга кўра 2050 йилга бориб 76,7 ёшга етади”[9]. “Европа ва шимолий Америкада эса бу кўрсаткич 78 ёшдан ошди, умумий аҳолининг ўртача ёши мос равишда 42 ва 35 ёшни ташкил қилмоқда. Сўнгги 10-15 йил ичида меҳнат бозорида 55 ёш ва ундан юқори бўлган аҳоли қатлами улуши сезиларли тарзда ошди. Америка, Осиё, Тинч Океани ва Европа ҳудудларида уларнинг улуши умумий иш кучининг 15-17 фоизини ташкил этган”[10].

Иқтисодий ривожланган мамлакатларда аҳоли таркибида кексаларнинг улуши умумий аҳолига нисбатан юқори эканлигидан ташқари, уларнинг эҳтиёжлари таркиби ва ҳажми ҳам турличадир. Жумладан, аҳоли жон бошига нисбатини кўрадиган бўлсак, “Швецияда 65 ёшга етган фуқаронинг эҳтиёжлари учун харажати, тиббий хизматлар, шунингдек, узоқ муддатли тиббий парваришни қўшиб ҳисоблаганда 30-49 ёшдаги аҳоли ўртача ойлик даромадининг 50 фоизига тенгдир. 80 ёшга етган шведларда эса бу кўрсаткич 80 фоизгача етади, 90 ёшда эса 130 фоизни ташкил этади. Шунингдек, 85 ёшдан ошган кексаларнинг эҳтиёжлари учун сарфланадиган маблағларнинг аҳоли жон бошига нисбатан энг юқори кўрсаткичи ҳозирда АҚШ, Япония ва Финляндияда қайд этилган. Ривожланаётган давлатларда эса аҳоли ёш гуруҳларининг аҳоли жон бошига нисбатан даромадлар улушида сезиларли фарқ кузатилмайди. Хитойда аҳоли жон бошига истеъмол даромадининг энг

[9] http://www.macrotrnds.net/countries/WLD/World/life-expectancy>World (дата обращения 05.04.2022).
[10] Pension at a glance 2021. OECD and G20 indicators (2021): OECD — Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en

юқори улуши 30-49 ёшдаги ишчилар орасида бўлиб (60 фоиз), 25 ёшгача бўлган ёшлар орасида эса аҳоли жон бошига истеъмол харажатлари ҳам юқоридир. Бошқа ёш гуруҳлари, жумладан, кекса ёш қатламининг ҳам эҳтиёж ҳаражатлари ушбу базавий кўрсаткичнинг 30-35 фоизини ташкил этади. Уругвай ва Жанубий Кореяда ҳам юқоридаги кўрсаткичлар қайд этилган”[11].

65 ёш ва ундан юқори ёшдаги фуқаролар харажатларининг иқтисодий таъминот манбалари тизими ҳатто ижтимоий - иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари бир-бирига яқин, аммо турли моделларга асосланган ижтимоий таъминот ва суғурта тизими мавжуд мамлакатларда ҳам турличадир. “Австрия мисолида кўришимиз мумкинки, классик тақсимотга асосланган пенсия тизимида 85 фоиз харажатларни давлат трансфертлари, 10 фоизини хусусий жамғармалар ва 5 фоизини бандликдан келган даромад ташкил этади. Швецияда эса ижтимоий трансфертлар улуши 90 фоиздан ошиқ, Германияда эса трансферлар 58 фоизни ташкил этиб, пенсионернинг ўзига тегишли жамғармалар 40 фоизга тенг. Буюк Британияда ушбу икки асосий даромад манбаи мос равишда 45 фоиз ва 50 фоизни ташкил қилса, ғарбий Европа давлатларида бандлик улуши 2-3 фоизга тенг. Иқтисодий ривожланган давлатларда (Хитой, Жанубий Корея, Лотин Америкаси давлатлари) ижтимоий давла харажатларининг 50 фоизи давлат трансфертларидан қопланади”[12].

Давлат трансфертлари учун ажратиладиган маблағлар тегишли солиқ тушумларидан амалга оширилади. Кўпгин давлатларда пенсионерлар учун даромад солиғи ундирилади ва улар учун махсус имтиёзли қоидалар қўлланилади. “ИҲТТ доирасидаги 10 та давлатда пенсионерлардан ундириладиган даромад солиғи миқдори ишловчи фуқароларники билан бир хил, ғарбий Европадаги қатор давлатларда эса (Дания, Швеция, Исландия) пенсия солиқ тўлови ишловчилар тўлайдиган даромад солиғидан юқоридир. Шу билан бир қаторда пенсионерлардан солиқ ундириш бутунлай бекор қилинган ҳолатлар ҳам мавжуд. Кўп ҳолларда солиқ имтиёзлари суғурта бадалларига ҳам жорий этилади, одатда пенсионерлар пенсия бадалларини тўламайдилар ва ишсизлик суғуртасида иштирок этмайдилар, лекин тиббий суғуртада қатнашадилар. Қатор давлатларда эса пенсионерлар маълум бир ижтимоий мақсадларга мўлжалланган “бирдамлик” тизимини молиялаштиришда иштирок этадилар. Ўртача ҳисобда ИҲТТ давлатларида тўлиқ суғурта стажи билан пенсияга чиққан пенсионерлар даромадининг 10 фоизини тўғри солиқлар кўринишида тўлайдилар. Ўртача ойлик иш ҳақи олиб ишловчи фуқаролар учун солиқ ва тўловлар ойлик иш ҳақининг 26 фоизини ташкил этади”[13].

[11] Cylus J., Figuera J., Normand Ch. (2019). Will population ageing spell the end of the welfare state? A review of evidence and policy option. — Copenhagen: WHO Regional office for Europe.
[12] Уша манба.
[13] Pension at a glance 2021. OECD and G20 indicators (2021): OECD — Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en

Шундай экан бугунги глобал ўзгаришлар шароитида ижтимоий ҳимоя тизимига жиддий эътибор қаратиш давлатлар олдидаги ҳар кунгиданда муҳимроқ ҳам ижтимоий ҳам сиёсий долзарб масала ҳисобланади.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЕРИЛАДИГАН СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАР

Нурматов Шерзод Рустамович
Солиқ қўмитаси бошқарма бошлиғи ўринбосари, PhD

Яшил иқтисодиёт — бу барқарор ўсишни таъминлаш ва экологик барқарорликни сақлашга қаратилган иқтисодий моделдир. Ушбу модельда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, барқарор энергия манбаларига ўтиш ва углерод чиқиндиларини камайтириш асосий мақсадлардан ҳисобланади. Яшил иқтисодиётни ривожлантириш ва барқарорликка эришиш учун давлатлар кўпинча солиқ имтиёзлари ва субсидияларни тадбиқ этадилар. Бу имтиёзлар яшил технологияларни рағбатлантириш, қайта тикланувчи энергия манбаларини қўллаб-қувватлаш ва атроф-муҳитга таъсирни камайтиришга ёрдам беради [1].

Яшил иқтисодиётга солиқ имтиёзлари эса экологик тоза фаолиятни рағбатлантириш ва атроф-муҳитга таъсирни камайтириш мақсадида давлат томонидан бериладиган молиявий имтиёзлардир. Ушбу имтиёзлар фақат иқтисодий фаолиятни эмас, балки экологик ижобий натижаларни ҳам кўзда тутади. Солиқ имтиёзлари экологик фаолиятларни рағбатлантириш ва бу соҳадаги инвестицияларни жалб қилиш учун муҳим восита ҳисобланади [2].

Солиқ кодекси ва бошқа норматив-хуқуқий ҳужжатлар билан 2025 йил 1 январга қадар бўлган ҳолатга яшил иқтисодиётни қўллаб қувватлашга, яъни қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланувчиларга тақдим этилган солиқ имтиёзларини кўриб чиқсак.

Солиқ кодексининг 304-моддаси 21-бандига асосан қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишга асосланган генерация объектларининг “яшил энергия” сертификатлари савдосидан тушган даромадлари фойда солиғини ҳисоблашда ҳисобга олинмайдиган даромадлар ҳисобланади.

Шунингдек 414 ва 428-моддаларининг тегишинча 2 ва 1-бандларига асосан қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини (номинал қуввати 0,1 МВт ва ундан ортиқ бўлган) ўрнатганлик учун қайта тикланувчи энергия манбаларидан энергия ишлаб чиқарувчилар, улар фойдаланишга жорий этилган пайтдан эътиборан ўн йил муддатга юридик шахслар мол-мулк ва ер солиғидан озод этилади.

Солиқ кодекси 421 ва 436-моддаларинин тегишли равишта 4 ва 7-бандларига асосан эса энергия ресурсларининг амалдаги тармоқларидан тўлиқ узиб қўйилган турар жойларда қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланувчи шахслар қайта тикланадиган энергия манбалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил муддатга жисмоний шахслар мол-мулк ва ер солиғидан озод этилади.

Мазкур имтиёзлар энергия ресурсларининг амалдаги тармоқларидан тўлиқ узиб қўйилган ҳолда қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида энергия таъминоти ташкилотлари томонидан берилган маълумотнома асосида тақдим этилади [3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 февралдаги “2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-57-сон қарори қабул қилинди. Мазкур қарорнинг 9-банди билан:

а) умумий қуввати 100 кВтгача бўлган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатган ва улардан фойдаланувчи шахслар, улар фойдаланишга топширилган кундан эътиборан уч йил муддатга, қуйидаги солиқларни тўлашдан озод этилади:

ушбу қурилмалар бўйича — юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқни, алоҳида турувчи қурилмалар билан банд бўлган ер участкалари бўйича — юридик шахслардан олинадиган ер солиғини, электр энергиясини умумий тармоққа сотишдан олинган фойда бўйича — фойда солиғини;

уй-жой фондининг кўчмас мулк объектлари бўйича жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи ва жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғини.

Агар қурилмалар ўрнатилаётган қуёш панеллари қувватининг 25 фоизидан кам бўлмаган қувватни ташкил этадиган электр энергиясини сақлаш тизими билан ўрнатилган бўлса, ушбу кичик бандда назарда тутилган солиқ имтиёзлари улар фойдаланишга топширилган кундан бошлаб ўн йил муддатга қўлланилади.

Ушбу кичик бандда белгиланган солиқ имтиёзлари жисмоний шахсларга улар томонидан умумий қуввати 1 кВтдан ортиқ бўлган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмалари ўрнатилганда ҳар бир объект бўйича бир маротаба қўлланилади.

Бунда солиқ имтиёзларининг йиллик миқдори жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи бўйича — базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан, жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи бўйича эса — базавий ҳисоблаш миқдоридан ошмаслиги лозим [4].

Президентимизнинг мазкур қарорлари ижроси юзасидан 2024 йил 24 декабрдаги ЎРҚ-1014-сонли Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан Солиқ кодексига қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланувчилар билан боғлиқ бўлган бир нечта ўзгартиришлар киритилди [5].

Солиқ кодексининг 337-моддаси 10-1-банд билан тўлдирилиб, унга кўра умумий қуввати 100 кВтгача бўлган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланган ҳолда умумий тармоққа электр энергиясини реализация қилишдан олинган фойдага нисбатан фойда солиғи бўйича 0 фоизлик ставка белгиланди.

Мазкур 0 фоиз миқдоридаги солиқ ставкаси қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил мобайнида, қуёш панелларининг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган

қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил мобайнида қўлланилади.

Юридик шахслар мол-мулк солиғи бўйича умумий қуввати қуйидагича бўлган қайта тикланувчи энергия манбалари **қурилмалари**:

100 кВтгача бўлган - қайта тикланувчи энергия манбалари **қурилмалари** фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил муддатга, қуёш панелларининг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга;

100 кВт ва ундан ортиқ бўлган - улар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга.

Юридик шахслар ер солиғи бўйича хам қайта тикланувчи энергия манбаларининг умумий қуввати юқоридаги каби бўлган алоҳида турувчи қурилмалари билан банд бўлган ер участкалари худди шундай тартибда имтиёзга эга бўладилар.

Жисмоний шахслар мол-мулк ва ер солиғи бўйича эса уй-жой фондининг кўчмас мулк объектларида умумий қуввати 100 кВтгача бўлган қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланувчи шахслар учун солиқ суммаси қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил давомида, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса мазкур панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил давомида **базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан ошмайдиган суммага** камайтирилади.

Ушбу имтиёз энергия таъминоти ташкилоти томонидан жисмоний шахснинг қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиши тўғрисида берилган маълумотномага асосан уй-жой фондининг битта кўчмас мулк объектига нисбатан фақат бир маротаба тақдим этилади ва жисмоний шахс томонидан умумий қуввати 1 кВтдан ортиқ бўлган қайта тикланувчи энергия қурилмалари ўрнатилган тақдирда қўлланилади.

Шу ўринда бир жиҳатга эътибор қаратиш лозим. Солиқ кодексининг 411-моддасига асосан юридик шахслар мол-мулк солиғи объекти бўлиб кўчмас мулк ҳисобланади. Мол-мулк солиғига берилаётган имтиёзлар эса қайта тикланувчи энергия манбалари **қурилмаларига берилган.** Бу эса ўз навбатида қонунчилик ҳужжатларидаги номутаносиблик ҳисобланиб, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланувчиларга имтиёзлардан фойдаланиш имкониятларини чекламоқда.

1-жадвал

Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланувчилар томонидан 2023-2024 йилларда фойдаланилган солиқ имтиёзлари таҳлили

№	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат	Фойдаланилган солиқ имтиёзлари суммаси *(млн.сўмда)*	
		2023 йил	**2024 йил**
1.	ПҚ-57-сон қарорга асосан	1 792,5	4 465,7
2.	Солиқ кодексига (414 ва 428-м.) асосан	31 482,8	58 152,3

1-жадвал маълумотларини кўриб чиқадиган бўлсак, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланувчиларнинг солиқ имтиёзлари фойдаланиши ўсиб бориш тенденсиясига эга эканлиги кўрамиз.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 февралдаги "2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-57-сон қарори билан фойдаланилган солиқ имтиёзлари 2023 йилда 1 792,5 млн.сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилда 4 465,7 млн.сўмни ташкил этган. Солиқ кодексининг 414 ва 428-моддаларига асосан имтиёзлардан фойдаланиш эса, 2023 йилда 31 482,8 млн.сўмни, 2024 йилда эса 58 152,3 млн.сўмни ташкил этган.

Имтиёзлардан фойдаланиш даражасининг йилдан-йилга ошиб бориши бу албатта яхши кўрсаткич, бироқ юқорида келтириб ўтилган имтиёзлардан фойдаланиш бўйича норматив-ҳуқуқий хужжатлардаги номутаносибликлар бартараф этилган тақдирда яшил иқтисодиётни қўллаб қувватлашга, қайта тикланувчи энергия манбалари фойдаланувчиларга солиқ имтиёзларидан фойдаланишга кенгроқ имкониятлар тақдим этилган хамда солиқ имтиёзлардан фойдаланиш хажми амалдагидан кўпроқни ташкил этган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мартинес, К. (2020). *The Role of Green Economy in Sustainable Development*. Environmental Journal, 15(3), 34-45.

2. Хасанова, Н. (2019). *Tax Benefits for Green Technologies in Central Asia*. Тошкент: Экологик тадқиқотлар институти.

3. Солиқ кодекси (2025). ЎРҚ-599-сон Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 304, 414, 421, 428 ва 436-моддалар.

4. Қарор (2023). Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-57-сон қарори.

5. Қонун (2024). ЎРҚ-1014-сон Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 3-моддаси.

KORXONALARDA KREDITORLIK QARZLARINI BOSHQARISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Qurbonov Javlonbek Jurabekovich

Har bir xo’jalik yurituvchi sub’yektlar doimiy ravishda investitsion jozibadorligini oshirishga harakat qiladi. Bu masala ushbu sub’ektlar investitsiya jalb qilishni rejalashtiradimi yoki yo’q, baribir dolzarbligicha qoladi. Bu masalani ijobiy hal qilishda moliyaviy munosabatlarning barcha yo’nalishlariga katta e’tibor qaratiladi. Bunda asosiy e’tibor qaratiladilishi lozim bo’lgan masalalardan biri kreditorlik qarzlarini samarli boshqarish bo’lib hisoblanadi.

Kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish har qanday korxona uchun muhim moliyaviy strategic yo’nalishlardan biri bo’lib hisoblanadi. Ushbu boshqaruv tizimi orqali korxona o‘zining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish, mol yetkazib beruvchilar bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish va operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa kelgusida korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida kreditorlik qarzlarini boshqarish qanday ijobiy natijalar olib kelishi xususida alohida to’xtalib o’tamiz:

1. Kreditorlik qarzlarining miqdori va muddatlari optimallashadi. Kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish natijasida korxona o‘zining qarz miqdorini optimal darajada ushlab turadi va to‘lov muddatlarini rejalashtirish orqali moliyaviy yuklamani kamaytiradi. Bu esa korxonaning likvidlik darajasini oshirishga yordam beradi. Optimal muddatda qarzlarni boshqarish nafaqat to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi, balki mavjud mablag‘larni samarali taqsimlashga ham imkon yaratadi. Agar korxona qarzlarini uzish muddati va miqdorini rejalashtirmasa, bu uning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Qarzlarning optimal miqdorini aniqlash uchun korxonalar moliyaviy hisobotlarni muntazam tahlil qilib borishi, naqd pul oqimlarini kuzatib borishi va qarzlarning qoplanish muddatlarini oldindan rejalashtirishi lozim. To‘g‘ri rejalashtirilgan qarz miqdori biznesning uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlaydi va moliyaviy xavflarni minimallashtiradi.

2. Kreditorlar oldida ishonch ortadi. Kreditorlar o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshiradigan va moliyaviy majburiyatlarini bajara oladigan korxonalar bilan ishlashga moyil bo‘ladilar. Kreditorlik qarzlarini to‘g‘ri boshqarish natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligi oshadi va kreditorlar tomonidan ishonch qozoniladi. Ishonchli mijozlar sifatida tan olinadigan korxonalar ko‘pincha imtiyozli shartlar asosida moliyaviy resurslarga ega bo‘lishlari mumkin. Masalan, ular istalgan vaqtda mol yetkazib beruvchilardan xoxlagan miqdorda va xoxlagan muddatlarda qarzga xom-ashyolarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa bozor sharoitad erishilishi mumkin bo’lgan ulkan ijobiy natijalardan biri bo’lib hisoblanadi. Chunki normal sharoitda hech kim birovga qarzga tovar berishni xoxlamaydi. Shu sababli, kreditorlik qarzlarini boshqarishda moliyaviy intizomga rioya qilish va aniq strategiya ishlab chiqish zarur. Bunday sharoitlarni ta’minlagan korxonalarning investitsion jozibadorligi ham ortib boradi deb hisoblaymiz.

3. Muqobil kreditorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyati yaratiladi. Kreditorlik qarzlarini boshqarish natijasida korxonalar mol yetkazib beruvchilar orasida ishonchga va obro’yga ega bo’ladi. Bu esa korxonaga qarzga xom-ashyo va

materiallarni qarzga bera oladigan mol yetkazib beruvchilar ko’payadi. Bu esa alternativ moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Bunday natijaga erishgan korxonalar qarzga xom-oshyolarni xarid qilish bo’yicha tender savdolarini ham qiyinchiliksiz amalga oshira olishlari mumkin, deb o’ylaymiz.

4. Moliyaviy shaffoflik va ochiqlikni ta’minlanadi. Kreditorlik qarzlaridan unumli foydalanish uchun albatta moliyaviy shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash lozimdir. Mol yetkazib beruvchilarga olingan resurlar uchun to’lovlarni qanchadir kunda amalga oshirishimiz mumkinligini aniq ma’lumotlar bilan asoslab berolmasak, to’lov manbalarini ko’rsata olmasak kreditorlik qarzlarini shakllantirishda qator muammolarga duch kelamiz. Shu sababli, ma’lumotlar oshkoraligi va shaffofligini ta’minlash nafaqat kerditorlar bilan, balkim kelgusidagi yangi investorlar bilan ham hamkorlikni to’g’ri yo’lga qo’yishga zamin yaratiladi.

5. To‘lovga layoqatsizlik riski pasaytiriladi. Kreditorlik qarzlarini to‘g‘ri boshqarish natijasida korxona o‘zining moliyaviy oqimlarini samarali rejalashtira oladi. Bu esa to‘lovga layoqatsizlik xavfini kamaytirishga va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. To‘lovga layoqatsizlik – bu korxona majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatni oldini olish uchun moliyaviy rejalashtirish muhim rol o‘ynaydi. Agar korxona o‘zining qarzlarini optimal boshqarmasa, u likvidlik yetishmovchiligi muammosiga duch kelishi mumkin. Shu sababli, to‘lovga layoqatlilik darajasini saqlab qolish uchun moliyaviy intizomni mustahkamlash va pul oqimlarini samarali boshqarish lozim. Bunday holatlar korxonalarning investitsion jozibadorligini ta’minlashga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

6. Mol yetkazib beruvchilar bilan imtiyozli shartlar bo‘yicha bitimlarga erishiladi. Ishonchli va o‘z vaqtida to‘lov qiluvchi korxonalar mol yetkazib beruvchilar bilan imtiyozli shartlar asosida bitimlar tuzish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa narxlarni pasaytirish, uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish va mol yetkazib berish zanjirini barqarorlashtirishga yordam beradi. Korxonalar uchun uzoq muddatli va ishonchli yetkazib beruvchilar bilan ishlash katta ahamiyatga ega.

7. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini ushlab turish ta’minlanadi. Kompaniyaning samarali faoliyati uchun uning moliyaviy balansini saqlash juda muhimdir. Chunki, debitorlik qarzlari va kreditorlik qarzlarining o‘zaro muvozanatga ega bo‘lishi, korxonalarning o’z resurslaridan to’liq foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Debitorlik qarzlarining ko‘payib ketishi korxona oborotidan mablag’lar chiqib ketishiga olib kelsa, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi esa korxonaning moliyaviy mustaqilligiga xavf solishi, mablag’lar rentabelligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham ushbu ikki turdagi qarzlarning optimal nisbatini ta’minlash orqali korxona pul oqimlarini barqaror ushlab turishi, moliyaviy risklarni kamaytirishi va likvidlikni yaxshilashi mumkin. Bu esa korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga zamin yaratadi.

8. Pul oqimlarini boshqarish samaradorligi oshadi. Kreditorlik qarzlarini samarali rejalashtirish va boshqarish orqali korxona pul oqimlarini yaxshiroq nazorat qilishi mumkin bo‘ladi. Kreditorlik qarzlarining to‘lov muddati, shartlari va hajmini oldindan rejalashtirish va nazorat qilish kompaniyaga mavjud resurslarni yanada oqilona taqsimlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, aylanma mablag‘larning

yetishmovchiligi yoki vaqtinchalik likvidlik tanqisligi holatlarida muhim ahamiyatga ega. Pul oqimlarini samarali boshqarish orqali korxona o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshiradi, qo‘shimcha moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi va faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi. Bu esa kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay, investitsion jozibadorligini ham mustahkamlaydi.

9. Kreditorlik qarzlariga real baho berishga erishiladi. Kreditorlik qarzlarini muntazam ravishda tahlil qilish va baholash korxonaga o‘zining haqiqiy moliyaviy ahvolini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Buning natijasida kompaniya qaysi majburiyatlar ustuvorligini, qaysi qarzlarni qayta ko‘rib chiqish yoki qayta muzokara qilish zarurligini aniq belgilashi mumkin. Kreditorlik qarzlariga real va obyektiv baho berish orqali kompaniya moliyaviy strategiyalarini aniqlashtiradi, qarz yuklamasini optimallashtiradi hamda qarz majburiyatlarini boshqarish bo‘yicha samarali rejalar ishlab chiqadi. Bu esa kompaniya moliyaviy barqarorligini ta’minlash va uzoq muddatli rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Kreditorlik qarzlarini boshqarish orqali erishiladigan yuqorida to’xtalib o’tilgan natijalar korxonalarning moliyaviy mustahkamligini ta’minlash bilan birga, ularning investitsion jozibadorligini ham oshirishga xizmat qiladi. Investorlarga moliyaviy shaffoflik va barqarorlik ko‘rsatkichlarini taqdim etish natijasida korxona qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, kreditorlik qarzlarini boshqarish nafaqat qisqa muddatli moliyaviy barqarorlik, balki uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun ham muhim omil ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЯШИЛ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ИСТИҚБОЛИ

Хошимов Собир Муртазаевич
ТДИУ доценти, PhD

Яшил иқтисодиёт деганда иқтисодий фаолиятни амалга оширишнинг асосий замонавий босқичи тушунилади. Ўзбекистонннинг яшил иқтисодиёт тамойилларига босқичма-босқич ўтиши мамлакатнинг инновацион ривожланишига сезиларли ҳисса қўшади, аммо барқарор иқтисодий ривожланиш мақсадларига эришиш учун бундай ўзгаришларга фақат ўз тажрибаларига таяниш кифоя қилмайди. Мазкур соҳа тадқиқоти яшил иқтисодиётдаги халқаро тажрибани таҳлил қилишни талаб қилади. Экологик вазиятни яхшилашга ҳисса қўшадиган янги технологияларни ривожлантириш масалалари доимий равишда Ўзбекистон ҳукумати кун тартибидаги асосий масалага айланиб бормоқда.

Ҳозирги шароитда, айниқса, атроф-муҳит ва биохилма-хилликни сақлаш, шунингдек, қулай ижтимоий шароитларни сақлаш учун муҳим бўлган “Зарарли саноат” корхоналарига яшил инвестицияларга ўтиш муҳим ҳисобланади. Саноатнинг атроф-муҳитга етказадиган зарарининг катта қисми

бундай компанияларнинг тегишли соҳалардаги ишлаб чиқариш фаолияти билан боғлиқ. Яшил лойиҳаларни амалга ошириш, қоида тариқасида, катта инвестиция харажатлари ва хатарларнинг янги турларини ўз ичига олади, бу эса компанияларга бундай лойиҳаларга инвестиция ресурсларини жалб қилишни қийинлаштиради.

“Яшил иқтисодиёт - бу келажакда шахсларнинг фаровонлигини оширишга қодир бўлган товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш, тақсимлаш, ўзаро алмашиниш, истеъмол қилиш; келажак авлодлар учун атроф-муҳитни энг яхши тарзда сақлаб қолишдир[14].

“Яшил иқтисодиёт модели тарафдорларининг таъкидлашича, ҳозирги вақтда фаолият юритаётган иқтисодий модел жамият ва атроф-муҳит учун зарарли ҳамда нобарқарор ҳисобланади, бу мунтазам содир бўлаётган инқирозлар билан тасдиқланиши мумкин”[15].

Яшил технологияларсиз яшил иқтисодиёт тамойилларига ўтиш мумкин эмас, бу технологияларга: муқобил энергия манбаларига асосланган энергия, энергия самарадорлиги; электр энергиясини бошқариш тизимлари; “яшил” транспорт; шунингдек, атроф-муҳитга чиқариладиган ташланмалар ва чиқиндиларни бошқаришни киритиш мумкин. Яшил иқтисодиёт қуйидаги йўналишларни қамраб олади: 1) яшил технологияларга, экологияга инвестицияларнинг ўсиши; 2) янги иш ўринларини шакллантириш, шунингдек, иқтисодиётнинг яшил секторида иш ўринлари сифатини яхшилаш имкониятларини яратиш; 3) маҳсулот бирлигига ҳисобланадиган энергия ҳажмлари ва ишлатиладиган ресурсларни камайтиришга интилиш; 4) экологик вазиятни яхшилаш; 5) атмосферага зарарли моддалар чиқариш ҳажмини камайтириш; 6) ёпиқ циклли иқтисодиётни шакллантириш; 7) мавжуд ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланиш.

Яшил иқтисодиётга тегишли меъёрий-ҳуқуқий базани шакллантирмасдан, шунингдек, яшил иқтисодиёт ва яшил инвестициялар тамойилларига ўтишни рағбатлантирадиган самарали давлат дастурларисиз муваффақиятли ўтиш мумкин эмас. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019 - 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4477 сонли ҳамда 2022 йил 2 декабрдаги “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-436 сонли қарорлари қабул қилинди.

“Яшил инвестициялар мазмунан ижтимоий масъулиятли инвестицияларнинг кичик турларидан биридир. Биринчи бундай сармоя 1758 йилда бошланиб, диний ташкилотлар ўз аъзоларига гиёҳванд моддалар, спиртли ичимликлар, тамаки маҳсулотлари ва қимор ўйинлари билан шуғулланишни таъқиқлаган. Бундан ташқари, ушбу даврда биринчи маротаба

[14] Александрова М.А., Григорьева Г.Ю., Долгов С.Ф. «Зеленая» экономика как инвестиция в будущее // StudNet. — 2020. — №12. — С. 1.

[15] Булгакова Ю.В. Особенности реализации концепции зеленой экономики в России // Общество: политика, экономика, право. 2020. №12. С. 3.

барча жинс ва ирқлар учун тенг ҳуқуқлилик, пасифизм ва атроф-муҳитга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш масалалари кўтарилган, қайсики бу ҳолат ижтимоий масъулиятли инвестицияларни фаол ривожланишига олиб келган”[16]. “Дастлаб, бундай инвестициялар 1980 йиллардан бошлаб бутун Европа ва АҚШ ҳудудларига тарқала бошлади. Бу давр мобайнида ижтимоий масъулиятли инвестициялар бозори ҳажми сезиларли даражада ўсди, бу эса барча ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларга сармоя киритадиган биринчи инвестиция фондларининг пайдо бўлишига олиб келди”[17].

Илмий адабиётларда “яшил инвестициялар” атамасини тушунишга оид турли хил фикрлар мавжуд. “Яшил” инвестициялаш жараёни хорижий мамлакатларда, айниқса Хитойда энг ривожланган. Шундан келиб чиқиб, “Хитойлик мутахассисларнинг таъриф билдиришича: яшил инвестициялар – бу атроф-муҳитни ҳимоя қилиш билан боғлиқ мақсадли лойиҳаларга капитални тақсимлаш фаолиятидир”[18].

Яшил инвестициялар концепциясини кўриб чиқишда ESG (Enviromental, Social, Governance) экологик, ижтимоий, бошқарув омилларини ҳисобга олиш тизимида ифодаланган корпоратив секторни ўзгартиришнинг замонавий парадигмасини эслатиб ўтиш керак. ESG-трансформация тушунчаси барқарорлик тамойилларига асосланади. ESGнинг учта компоненти атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, бизнеснинг ижтимоий хусусиятлари (масалан, иш шароитлари ва хавфсизлиги, ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматлар сифати, ходимлар учун тиббий хизматлардан фойдаланиш имконияти) билан боғлиқ йўналиш бўлиб, шунингдек, компания бошқарувининг энг яхши амалий тажрибалари ва сифатини (буларга бизнес юритиш этикаси, бошқарувни мукофотлаш механизми, ирқий ва гендер бетарафлиги) ўз ичига олади. Шундай қилиб, юқори ESG рейтингини олишни истаган компания юқоридаги ҳар бир соҳада, шу жумладан яшил инвестициялар орқали атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳаларида энг яхши стандартларга жавоб бериши керак.

Умуман олганда, яшил молия тизими ва унда ишлатиладиган молиявий воситаларни тўртта секторда таснифлаш мумкин. Яшил молиянинг биринчи сектори чакана молия ҳисоблиб, ушбу секторга яшил ипотека ва яшил кредитларларни мисол келтириш мумкин.

Яшил молиялаштиришнинг иккинчи сектори инвестицияларни молиялаштириш бўлиб, у яшил лойиҳаларни молиялаштириш ва яшил секъюритизацияни ўз ичига олади. Секъюритизация ҳодисаси қўшимча хавфларни камайтириш ва яшил кредитлар портфелининг талаб қилинадиган рентабеллиги манбаи бўлиши мумкин.

Яшил молиянинг учинчи сектори суғурта ҳисобланиб, у ўз ичига углерод ва яшил суғурта каби воситаларни олади.

---

[16] Канунникова К.И. Формирование «зеленой» экономики в России // Скиф. — 2021. — №5 (57). — С. 5.

[17] *Спиридонова А.В. Экологическое инвестирование в Российской Федерации: теоретико-правовой подход // Вестник ЮУрГУ. Серия: Право. — 2020. — № 1. — С. 4.*

[18] См.: Du H. S., Zhan B., Xu J., Yang X. The influencing mechanism of multi-factors on green investments: A hybrid analysis // Journal of cleaner production. 2019. Vol. 239. P. 118—119 ; Sun H., Wan Y., Zhang L., Zhou Zh. Evolutionary game of the green investment in a twoechelon supply chain under a government subsidy mechanism // Journal of cleaner production. 2019. Vol. 235. P. 1316—1317.

Тўртинчи сектор - активларни бошқариш. Бунга яшил ва углерод облигациялари, углерод ва экология фондлари ва атроф-муҳитга қарши инвестиция фондлари каби воситалар киради.

Бугунги кунда яшил инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш учун қуйидаги манбалар молиявий ресурсларидан фойдаланилади: бюджет маблағлари (асосан, давлат бюджетидан субсидия ажратиш орқали имтиёзлар бериш ёки тўғридан-тўғри молиялаштириш); корхоналарнинг ўз маблағлари; ҳалқаро молиявий институтлар маблағлари ва грант дастурлари; кредит ресурслари; хорижий инвестициялар ва бошқа маблағлар. Бугунги кунда яшил инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш манбалари етарлича диверсификация қилинмаган. Яшил инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришнинг муқобил усуллари сифатида лизинг молиялаштириш, яшил облигациялар, синдикатланган кредитлар, шунингдек, краудфандингни мисол келтириш мумкин.

Юқорида билдирилган фикр ва мулоҳазалардан келиб чиқиб, яшил инвестицияларнинг яшил иқтисодиётни ривожлантиришдаги аҳамияти юзасидан қуйидаги хулосаларга келиш мумкин: биринчидан, яшил инвестициялар – бу яшил иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида экологик тоза ва ресурстежамкор лойиҳаларга сармоя киритишдир. Иккинчидан, яшил инвестициялар мамлакатни барқарор ривожланиш мақсадларини амалга ошириш дастурлари доирасида амалга оширилади. Учинчидан, қайта тикланадиган энергия манбаларини кучайтириш мақсадида шу соҳага хорижий инвестицияларни кўпроқ жалб қилиш (Қуёш, шамол, гидроэнергетика ва бошқа муқобил энергетика лойиҳаларини амалга оширишни давом эттириш). Тўртинчидан, қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий базани ривожлантириш (яшил технологияларни, шу жумладан “яшил” молиялаштириш механизмларини ва хусусий секторни рағбатлантиришни қўллаб-қувватлашга қаратилган қонунчилик, меъёрий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва такомиллаштиришни давом эттириш). Бешинчидан, инвестициялар учун қулай шарт-шароитлар яратиш, кафолат механизмларини ишлаб чиқиш ва солиқ имтиёзларини бериш орқали яшил лойиҳаларга хусусий сектор инвестицияларини рағбатлантириш. Олтинчидан, илмий-тадқиқот ва инновацияларни ривожлантириш (яшил технологиялар соҳасидаги илмий-тадқиқот ва ишланмаларни, шунингдек, олимлар, мутахассислар ва тадбиркорлар ўртасида тажриба ва илғор тажриба алмашиш учун форумлар ва платформаларни қўллаб-қувватлаш).

«ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА» КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ «ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО УНИВЕРСИТЕТА» НА РЫНКЕ

Лямкина Виктория Александровна,
Начальник отдела международного сотрудничества
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, PhD

В условиях динамической трансформации социально-экономической парадигмы, характеризующейся акцентуацией на принципах устойчивого развития и парадигме «зеленой экономики», концепция «предпринимательский университет» выступает в качестве стратегического императива для модернизации системы высшего образования. Интеграция образовательной, научно-исследовательской и инновационно-предпринимательской деятельности рассматривается как необходимая детерминанта адаптации высших учебных заведений к современным вызовам и требованиям, а также как ключевой фактор повышения их конкурентоспособности на рынке образовательных услуг.

Ключевым фактором успешной имплементации данной концепции является оптимизация механизмов управления высшим образовательным учреждением, основанная на применении комплекса научно-методологических подходов, учитывающих императивы устойчивого развития и принципы «зеленой экономики». В условиях жесткой конкуренции на рынке образовательных услуг, высшие образовательные учреждения, демонстрирующие прогрессивный подход к экологической устойчивости, получают значительное конкурентное преимущество.

В экономической литературе концепция «зеленой экономики» получила широкое распространение, в частности, благодаря разработкам Программы ООН по окружающей среде (UNEP). В соответствии с дефиницией UNEP, «зеленая экономика» способствует повышению уровня благосостояния и социальной справедливости, одновременно минимизируя экологические риски и дефицит ресурсов [4]. Это определение становится основополагающим для формирования образовательных программ нового поколения, отвечающих требованиям времени и потребностям рынка труда.

Исследования Е.Н. Александровой и С.А. Дарбинян подчеркивают ключевую роль экологически чистых технологий и ресурсосбережения в обеспечении устойчивого развития [1]. И.А. Морозова, А.И. Сметанина и А.С. Сметанин акцентируют внимание на значимости внедрения цифровых технологий для повышения экологической устойчивости [3]. Р.И. Нуримбетов и Н.А. Ходжаева рассматривают «зеленую экономику» как хозяйственную деятельность, способствующую улучшению качества жизни и состояния окружающей среды наряду с модернизацией и повышением эффективности производства [5]. Н.М. Фоменко и В.В. Шукель указывают на необходимость внедрения многоуровневых систем управления, ориентированных на реализацию экологических мероприятий в рамках стратегического планирования [6]. Данные исследования формируют научную базу для разработки инновационных образовательных продуктов, ориентированных на рынок «зеленых» технологий и устойчивого развития.

В рамках данного научного исследования применялись методы аналитического и сравнительного анализа, а также традиционный описательный метод. Теоретико-методологической основой исследования послужили работы ведущих ученых, исследующих вопросы экологической устойчивости и их влияние на трансформацию высших образовательных

учреждений. К числу этих исследователей относятся Е.Н. Александрова, С.А. Дарбинян, И.Е. Никулина, Р. И. Нуримбетов, Н.А. Ходжаева, Н.М. Фоменко, В.В. Шукель, И.А. Морозова, А.И. Сметанина, А.С. Сметанин и другие.

Современная научная литература уделяет повышенное внимание вопросам экологической безопасности, признавая необходимость кооперации между бизнес-структурами и обществом в решении социально-экономических проблем [6]. Совершенствование механизмов управления высшим образовательным учреждением в рамках концепции «предпринимательский университет» основывается на принципах системности, процессного управления, инновационности и ориентации на заинтересованные стороны, обеспечивая комплексный и адаптивный подход к развитию высшего образовательного учреждения [2]. При этом, акцентируется экологическая составляющая и вклад высшего образовательного учреждения в формирование «зеленой экономики». Внедрение новых технологий и концепций предоставляет высшим образовательным учреждениям возможность оптимизации производственных процессов и интеграции экологических аспектов в свою деятельность, что может способствовать повышению эффективности и конкурентоспособности. В условиях глобализации рынка образовательных услуг, высшие образовательные учреждения, активно внедряющие принципы «зеленой экономики», получают возможность привлекать лучших студентов и преподавателей со всего мира.

Результаты научных исследований убедительно свидетельствуют о том, что экологическая устойчивость является не только критически важным фактором сохранения биоразнообразия и природных ресурсов, но и оказывает значительное влияние на экономическое процветание и социальное благополучие общества. Высшие учебные заведения, ориентированные на достижение экологической устойчивости, признают необходимость интеграции принципов устойчивого развития в свою стратегию и операционную деятельность. Инвестиции в экологическую устойчивость становятся инвестициями в будущее университета, обеспечивая ему стабильный поток абитуриентов, высококвалифицированных кадров и устойчивое финансовое положение на рынке образовательных услуг.

В контексте вышеизложенного, совершенствование системы управления высшим образовательным учреждением в рамках концепции «предпринимательский университет» и ее адаптация к принципам «зеленой экономики» требует применения комплексного подхода и современных научно-методологических инструментов, учитывающих экологические аспекты деятельности высшего образовательного учреждения. Использование адаптированных методов стратегического анализа, таких как SWOT и PESTLE-анализ, позволяет учитывать значимые экологические факторы, воздействующие на деятельность высшего образовательного учреждения, и разрабатывать эффективные стратегии, направленные на повышение экологической устойчивости и вклад в развитие «зеленой экономики».

Таким образом, успешная реализация концепции «предпринимательский университет» в контексте «зеленой экономики»

способствует трансформации высших образовательных учреждений в институты нового типа, способные не только обеспечивать качественное образование и генерировать инновации, но и активно участвовать в решении актуальных экологических проблем и формировании устойчивого будущего. Это, в свою очередь, обуславливает повышение конкурентоспособности высшего образовательного учреждения на международной арене, укрепление его позиций в глобальном образовательном пространстве и формирование у выпускников профессиональных компетенций, востребованных на рынке труда в «зеленой» экономике. В конечном счете, это обеспечит подготовку поколения специалистов, обладающих необходимыми знаниями и навыками для эффективной работы в условиях формирующейся парадигмы устойчивого развития.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Александрова Е.Н., Дарбинян С.А. Направления внедрения экологического менеджмента в российской экономике на основе зарубежного опыта // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2023. № 4–1 (79). С. 176–180.
2. Лямкина В.А. Процесс развития и управления предпринимательскими университетами в условиях инновационной экономики // Green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects: Collection of materials of the international scientific-practical conference «Green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects», April 24, 2024 - T.: Science and Innovation, 2024. – Pp.408-412.
3. Морозова И.А., Сметанина А.И., Сметанин А.С. Менеджмент устойчивого развития бизнеса на основе принципов социальной и экологической ответственности в контексте цифровой трансформации // Экономика и управление. 2023. Т. 29. № 1. С. 54–65.
4. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др.: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.
5. Нуримбетов Р., Ходжаева Н. Перспективы и предпосылки развития зеленой экономики в Республике Узбекистан // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. Issue – 3 № 4 (2022). - С. 5–10.
6. Фоменко Н.М., Шукель В.В. Особенности и этапы внедрения системы управления устойчивым развитием организации // Московский экономический журнал. 2023. Т. 8. № 10. С. 496–506.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA KAPITAL BOZORI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Sardor Omonov
TDIU dotsent v.b., PhD

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi atrof-muhitni saqlash bilan birga iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga imkon yaratmoqda. “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi”[19]. Yashil iqtisodiyot resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashga asoslanadi. Yangi energiya manbalariga, masalan, quyosh va shamol energiyasiga o‘tish ekologik toza sanoatni rivojlantiradi. Bu nafaqat tabiatni himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlashga ham yordam beradi. Yashil iqtisodiyotda energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish asosiy omillar hisoblanadi. Bu jarayon yangi ish o‘rinlarini yaratishga va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga turtki beradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish global ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Shuningdek, bu yerda ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o‘tish kelajak avlodlar uchun barqaror va sog‘lom yashash muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni ekologik va iqtisodiy barqarorlikni birlashtirishni maqsad qiladi. Bu jarayonda kapital bozori muhim rol o‘ynaydi, chunki u iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitni himoya qilishni uyg‘unlashtiradi. Kapital bozori orqali yashil loyihalar uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb qilish mumkin, bu esa ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni ta’minlashda, kapital bozori xususiy va davlat sektorlarini birlashtirib, barqaror iqtisodiy tizimlarni yaratadi. Yashil obligatsiyalar va yashil fondlar kabi moliyaviy asboblar investorlarni ekologik toza loyihalarga sarmoya kiritishga undaydi. Ushbu turdagi investitsiyalar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kapital bozori ekologik risklarni baholash va yashil iqtisodiyotning istiqbollarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali banklar va moliyaviy institutlar ekologik barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Bunday investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yashil kreditlar va soliq imtiyozlari taklif etiladi. Kapital bozori orqali yashil loyihalarni moliyalashtirish va ularni keng miqyosda amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o‘zida ta’minlashga yordam beradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyati moliyaviy resurslar bilan bog‘liq bo‘lib, kapital bozori bu jarayonni tezlashtiradi. Yashil moliya va kapital bozori orqali ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini ekologik jihatdan oqilona yo‘naltirish mumkin. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning strategik maqsadi iqtisodiyotni ekologik xavf-xatarlardan himoya qilishdir, bunda kapital bozori ajralmas rol o‘ynaydi. Kapital bozori ekologik toza innovatsiyalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi.

[19] D.Erkinov, U. Kadirov. Yashil iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari. // Scholar, Vol. 1, issue 13, 2023.

Shuningdek, u barqaror investitsiyalarni rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘sish va ekologik rivojlanishni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Kapital bozori yashil loyihalarga jalb etiladigan resurslarni ta’minlaydi va bu orqali ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kapital bozori innovatsiyalarni amalga oshirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun muhim vositadir. Kapital bozori orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish, nafaqat mamlakatlar uchun, balki global miqyosda ham iqlimni himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, kapital bozori yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlashda ajralmas va samarali vosita sifatida ishlaydi.

Yashil fondlar ham kapital bozorining muhim instrumenti bo‘lib, ular ekologik toza investitsiyalarni jalb qilishda yordam beradi. Yashil fondlar orqali investorlar o‘z sarmoyalarini ekologik mas’uliyatli loyihalarga yo‘naltirishi mumkin. ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari ham kapital bozorining muhim qismini tashkil etadi, chunki ular investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik mas’uliyatini baholash imkonini beradi. ESG asosida yaratilgan fondlar va sarmoyaviy vositalar, investorlar uchun barqaror va ekologik jihatdan toza loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, yashil kreditlar va yashil sarmoya jamg‘armalari kapital bozorining samarali instrumentlari hisoblanadi. Yashil kreditlar orqali banklar va moliyaviy institutlar ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishi mumkin. Yashil sarmoya jamg‘armalari esa uzoq muddatli ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar yaratadi. Kapital bozorida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun hukumatlar tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalar ham muhim instrumentlardir. Bu imtiyozlar ekologik loyihalarga jalb qilishni osonlashtiradi va moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Yashil sarmoya vositalari va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlar ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliya tashkilotlari, masalan, Jahon banki, yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali global miqyosda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Yashil kapital bozori orqali ekologik xavflarni baholash va ularni moliyaviy jihatdan tahlil qilish mumkin, bu esa yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiradi. Kapital bozorining moliyaviy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar, fondlar va kreditlar, ekologik rivojlanish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida kapital bozorining moliyaviy instrumentlarini takomillashtirish, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Kapital bozorida mavjud bo‘lgan barcha yashil moliyaviy vositalar, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularni ekologik toza investitsiyalarga sarmoya kiritishga undaydi. Shunday qilib, kapital bozorining moliyaviy instrumentlari yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ajralmas rol o‘ynaydi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kapital bozorining ahamiyatini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni uyg‘unlashtirish uchun muhimdir. Birinchi navbatda, yashil obligatsiyalarni rivojlantirish va kengaytirish orqali kapital bozorini ekologik loyihalarga jalb qilish zarur. Yashil obligatsiyalar investorlarga iqlimni himoya qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga

yordam beradi. Kapital bozorida yashil fondlar va yashil investitsiya vositalarini yaratish orqali ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga hissa qo‘shiladi. ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarini joriy etish, kapital bozorida yashil loyihalarning ahamiyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Davlatlar tomonidan yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun rag‘batlantirish mexanizmlarini taklif etish, masalan, yashil kreditlar va soliq imtiyozlari, investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Moliyaviy institutlar va banklar ekologik toza texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etishlari lozim, bu esa kapital bozorining yashil iqtisodiyotga moslashishiga yordam beradi. Yashil investitsiyalarni rivojlantirish uchun yangi moliyaviy asboblarni yaratish, masalan, yashil sarmoyaviy jamg‘armalar, kapital bozorining samaradorligini oshiradi. Kapital bozorida yashil aktivlarni yaratish va ularni kengaytirish, investorlar uchun uzoq muddatli foyda taqdim etishga yordam beradi. Bu esa yashil iqtisodiyotga o‘tishning tezlashishiga turtki bo‘ladi. Moliya institutlarining ekologik xavflarni baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, yashil loyihalar uchun sarmoyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Kapital bozorining yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi roli, shuningdek, ekologik toza ishlab chiqarish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalarni rag‘batlantirishdan iborat. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun kapital bozorining shaffofligini oshirish kerak. Bu bozorni ekologik jihatdan mas’uliyatli sarmoyalar bilan boyitish, investorlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyati uchun kapital bozorida barqaror moliyaviy mexanizmlar, sarmoya kiritishning ekologik omillari va investorlar uchun o‘zgaruvchan risklarni aniqlash muhimdir. Yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, kapital bozorining yashil iqtisodiyotga moslashishiga imkon yaratadi va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Kapital bozorida ekologik xavflarni baholash va ular asosida sarmoya qarorlarini qabul qilish, yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyatini oshiradi. Shuningdek, kapital bozorida yashil loyihalarni rag‘batlantirish orqali davlatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash mumkin. Kapital bozorining ekologik toza investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashi, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni birlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kapital bozorining ahamiyatini oshirish, global miqyosda ekologik muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda yashil iqtisodiyotga o‘tish kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, yashil obligatsiyalar va moliyalashtirish vositalarini kengaytirish lozim. Kapital bozorida yashil obligatsiyalar va boshqa ekologik barqaror moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish orqali atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari oshiriladi;

Ikkinchidan, ESG investitsiyalar va fond bozoridagi barqaror kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarur. Kapital bozori orqali ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan korxonalarga investitsiyalar jalb qilish ularga imtiyozli sharoitlar yaratish va barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi;

Uchinchidan, yashil kompaniyalarning fond bozoriga chiqishini rag‘batlantirishga e’tibor qaratish lozim. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda ekologik tamoyillarga amal qiluvchi kompaniyalar va startaplarni kapital bozoriga integratsiyalash orqali ularning moliyaviy resurslarga ega bo‘lishiga erishish mumkin;

To‘rtinchidan, xalqaro kapital bozorlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq. Global yashil investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tezlashtiriladi va barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi.

QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL MOLIYALASHTIRISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Aliqulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li
TDIU dotsenti, PhD

Jahon miqyosida ekologik muammolarning chuqurlashishi, iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta’siri va tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish oqibatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasi atrof-muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, global issiqxona gazlari chiqindilarining sezilarli qismini tashkil qiladi, suv va tuproq resurslarining jadal ekspluatatsiyasi, agrotexnologiyalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi esa ekologik muvozanatni buzilishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Shu sababli, barqaror qishloq xo‘jaligini shakllantirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va yashil investitsiyalarni jalb qilish bugungi kundagi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Yashil moliyalashtirish bu — atrof-muhitni himoya qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish maqsadida qishloq xo‘jaligi, sanoat va infratuzilma sohalariga yo‘naltirilgan moliyaviy vositalar majmuasidir. Xalqaro tajribada yashil moliyalashtirish instrumentlari orqali fermerlar, agroklasterlar va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun ekologik barqaror texnologiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashilmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli moliya institutlari yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun grantlar, imtiyozli kreditlar, texnik yordam va subsidiyalar ajratmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida organik qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uchun subsidiyalar tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, fermer xo‘jaliklari uglerod chiqindilarini kamaytirish, suv resurslarini tejash va bioturfa muhitni saqlash sharti bilan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadi. Xitoyda esa yashil obligatsiyalar bozori rivojlangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishda ekotexnologiyalarning keng joriy etilishi kuzatilmoqda. AQSh va Kanada singari rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi faoliyatini sug‘urtalash va ekologik risklarni kamaytirish uchun maxsus yashil sug‘urta dasturlari amaliyotga tatbiq etilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat qishloq xo‘jaligida ekologik omillarni hisobga olgan holda barqaror

moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish bo‘yicha so‘nggi yillarda muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslarini tejashga qaratilgan zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik doirasida qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish yo‘nalishida moliyaviy resurslarni jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki tomonidan O‘zbekistonda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va organik dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha grant va kredit liniyalari ajratilgan.

Qishloq xo‘jaligi dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish va bandlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, an’anaviy qishloq xo‘jaligi amaliyotlari ko‘pincha atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi: tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va issiqxona gazlari emissiyasining ortishi kabi muammolarga olib keladi. Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishlari sharoitida qishloq xo‘jaligi faoliyati bir tomondan iqlim o‘zgarishi ta’siriga juda ta’sirchan bo‘lsa, boshqa tomondan global parnik gazlar emissiyasining taxminan 24 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston va boshqa O‘rta Osiyo mamlakatlari uchun qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bu mintaqa allaqachon iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini – qurg‘oqchilik davomiyligining ortishi, suv tanqisligi, haroratning ko‘tarilishi va boshqa ekstrim ob-havo hodisalarining ko‘payishi kabi – his qilmoqda. Bundan tashqari, O‘rta Osiyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligini suv resurslarining kamayishi, tuproq sho‘rlanishi, cho‘llanish kabi ekologik muammolar tahdid qilmoqda. Bu sharoitda qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq aholisining turmush darajasini oshirish uchun ham muhim vositaga aylanadi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligida yashil moliyalashtirishdan foydalanishning asosiy maqsadlari[20]

So‘nggi o‘n yillikda dunyo bo‘ylab qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish bo‘yicha muhim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ko‘plab mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida turli moliyaviy mexanizmlar, dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqmoqda va amalga oshirmoqda. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor, xalqaro moliya institutlari, nodavlat tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar faol ishtirok etmoqda.

Yashil moliyalashtirish qishloq xo‘jaligida barqarorlik va ekologik muvozanatni ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Dunyo miqyosida turli mamlakatlar qishloq xo‘jaligida yashil moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etib, ekologik toza texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishgan(1-jadval).

Jumladan, AQSh qishloq xo‘jaligi moliyalashtirishida ekologik jihatlarga katta e’tibor qaratadi. AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi (USDA) orqali bir qator dasturlar amalga oshiriladi. “Environmental Quality Incentives Program” (EQIP) fermerlarga suv resurslarini saqlash, tuproq eroziyasini kamaytirish va boshqa ekologik loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy yordam beradi. Bu dastur doirasida yillik 1,75 milliard dollar miqdorida mablag‘ ajratiladi, fermerlar loyihaiga bog‘liq ravishda xarajatlarning 75% gacha qoplanishi mumkin[21].

1-jadval

[20] Muallif tomonidan tayyorlangan.

[21] United States Department of Agriculture (USDA). (2022). "Environmental Quality Incentives Program". https://www.nrcs.usda.gov/programs-initiatives/eqip-environmental-quality-incentives

Qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlili[22]

Mamlakat	Yashil moliyalashtirish usuli	Muhim jihatlari	Natijalar
AQSH	Ekologik subsidiyalar, yashil sug‘urta va ekologik kreditlar	Fermerlarga ekologik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar va sug‘urta dasturlari taqdim etiladi.	Fermerlarning 80% sug‘urta dasturlaridan foydalanadi, subsidiyalar yildan-yilga oshmoqda.
Yevropa Ittifoqi	Yashil obligatsiyalar, yashil subsidiyalar va iqlim o‘zgarishiga moslashish dasturlari	Fermerlar ekologik loyihalar uchun maxsus yashil obligatsiyalar chiqarishi mumkin, subsidiya tizimi mavjud.	2030-yilga qadar uglerod neytralligiga erishish rejalashtirilgan, yashil obligatsiyalar bozori yiliga 50 mlrd yevro yoki undan ortiq mablag‘ jalb qilmoqda.
Xitoy	Yashil bank tizimi, ekologik kreditlar va agrotexnologik moliyalashtirish	Maxsus yashil kreditlar ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.	Xitoyning yashil bank tizimi 1,2 trln dollardan ortiq mablag‘ ajratgan, suvni tejash texnologiyalari sug‘orish samaradorligini 40% ga oshirgan.
Braziliya	O‘rmon resurslarini moliyalashtirish, yashil kreditlar va biologik xilma-xillikni himoya qilish dasturi	Amazon o‘rmonlarini saqlab qolish uchun moliyaviy rag‘batlantirish va ekologik barqaror qishloq xo‘jaligi kreditlari ajratiladi.	Amazon o‘rmonlarini noqonuniy kesish 35% ga kamaydi, ekologik mahsulotlar eksporti 20% ga oshdi.

“Conservation Stewardship Program” (CSP) fermerlarga o‘z yerlarida atrof-muhitni muhofaza qiluvchi amaliyotlarni qo‘llaganligi uchun to‘lovlar taqdim etadi. Dastur uchun 2019-2023-yillar mobaynida 3,5 milliard dollar ajratilgan. Fermerlar loyihaga qarab har gektar uchun o‘rtacha 18 dollardan to‘lov olishlari mumkin. Dastur ayniqsa tuproq sog‘ligi, suv sifati va qushlar yashash muhitini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtiradi.

AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi 2021-yilda e’lon qilingan “Climate-Smart Agriculture and Forestry Strategy” doirasida fermerlar uchun karbon bozorlariga kirishni osonlashtirmoqda. Karbon kreditlari fermerlarga qo‘shimcha daromad manbai bo‘lishi mumkin. Shu maqsadda 2022-yilda “Partnerships for Climate-Smart Commodities” dasturi orqali 3,1 milliard dollar ajratilgan, bu mablag‘ karbon kreditlari bozorida ishtirok etuvchi fermerlarni qo‘llab-quvvatlaydi[23].

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi qishloq xo‘jaligining yashil moliyalashtirishida global yetakchi hisoblanadi. 2020-yilda ishlab chiqilgan “Ferma dan dasturxongacha” (Farm to Fork) strategiyasi YI “Yashil kelishuv” (Green Deal) ning asosiy tarkibiy qismi sifatida qishloq xo‘jaligi sektorida muayyan maqsadlarni belgilab berdi. Bu strategiya 2030-yilgacha qishloq xo‘jaligida pestitsidlar ishlatilishini 50% kamaytirish, kimyoviy o‘g‘itlar ishlatilishini 20% kamaytirish, antibiotiklar ishlatilishini 50% kamaytirish va organik dehqonchilik maydonlarini 25% gacha oshirishni maqsad qilgan[24]. YI Umumiy qishloq xo‘jaligi siyosati (CAP) 2021-2027-yillar uchun 387 milliard yevro byudjetga ega bo‘lib, buning kamida 40% iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashga yo‘naltirilgan. CAP doirasida fermerlarga

[22] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[23] United States Department of Agriculture (USDA). (2021). "Climate-Smart Agriculture and Forestry Strategy". https://www.usda.gov/climate-solutions
[24] European Commission. (2020). "Farm to Fork Strategy – for a fair, healthy and environmentally-friendly food system". https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/farm-fork-strategy_en

“Ekologik sxemalar” (Eco-schemes) orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar taqdim etiladi. Bunday to‘lovlarni olish uchun fermerlar iqlim va atrof-muhit uchun foydali bo‘lgan amaliyotlarni qo‘llashlari kerak: organik dehqonchilik, agroekologiya, aniq dehqonchilik usullari, karbon dehqonchiligi va agroforestry (o‘rmon-qishloq xo‘jaligi). Yevropa Investitsiya Banki (EIB) 2021-2025-yillar mobaynida “Climate Bank Roadmap” doirasida iqlim va ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun 1 trillion yevro sarflashni rejalashtirmoqda. Bu mablag‘larning bir qismi qishloq xo‘jaligidagi yashil investitsiyalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Masalan, ushbu reja doirasida Fransiyaning Crédit Agricole banki bilan hamkorlikda 1 milliard yevrolik “Qishloq xo‘jaligi va iqlim fondi” tashkil etilgan, bu fond iqlimga chidamli innovatsion qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

2021-yilda YI tomonidan tashkil etilgan “InvestEU” dasturi doirasida barqaror qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va bioekonomikani rivojlantirish uchun 26.2 milliard yevrolik kredit kafolatlari ajratilgan. Bu dastur orqali ayniqsa kichik va o‘rta biznes sub’ektlari, startaplar va yosh fermerlar o‘z loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dastur riskli deb hisoblangan, ammo ekologik jihatdan ahamiyatli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan.

Yaponiya hukumati 2021-yilda “Green Food System Strategy” (MeaDRI) strategiyasini ishlab chiqdi. Bu strategiya 2050-yilgacha Yaponiya qishloq xo‘jaligida karbon neytrallikka erishish, kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlar ishlatilishini 50% ga kamaytirish hamda organik dehqonchilik maydonlarini 25% ga oshirishni maqsad qilgan. Strategiyani amalga oshirish uchun mutlaqo yangi moliyalashtirish mexanizmlari yaratilmoqda. Yaponiyaning “Japan Finance Corporation” (JFC) yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalariga imtiyozli kreditlar beradi. JFC tomonidan “Environmental Super Loan” dasturi doirasida suv va energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar uchun 0,2-0,3% miqdoridagi foiz stavkasi subsidiyasi beriladi, natijada kredit oluvchilar o‘rtacha 1,5-2% foiz stavkasi bilan kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladi[25].

Xitoy 2016-yildan buyon “Yashil qishloq xo‘jaligi” milliy dasturini amalga oshirmoqda. Bu dastur doirasida 2020-2025-yillar uchun 2,3 trillion yuan (358 milliard dollar) mablag‘ ajratilgan. Dasturning asosiy yo‘nalishlari tuproq sog‘ligini saqlash, suv resurslarini boshqarish, organik dehqonchilik, pestitsidlar va o‘g‘itlardan samarali foydalanishdir. Xitoy Qishloq xo‘jaligi banki orqali fermerlarga yashil kredit liniyalari taqdim etadi. Bu kredit liniyalari orqali 2020-2022-yillarda 2,5 trillion yuan (390 milliard dollar) miqdorida yashil kreditlar ajratilgan. Yashil fermer xo‘jaliklari odatda o‘rtacha bozor stavkasidan 1,5% past foiz stavkasida kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kredit olish jarayoni soddalashtirilib, ko‘pgina hujjatlar talablari bekor qilingan.

Hindiston hukumati soliq imtiyozlari orqali yashil texnologiyalarni joriy etishni ham rag‘batlantiryapti. Jumladan, tomchilatib sug‘orish tizimlari, quyosh energiyasiga asoslangan nasoslar va boshqa resurs tejamkor texnologiyalarni xarid qilish uchun 100% soliq chegirmalari taqdim etiladi. Bundan tashqari, organik

[25] Japan Finance Corporation. (2022). "Environmental Super Loan Program Annual Report". https://www.jfc.go.jp/n/english/

dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi fermerlar uchun 5-yil davomida daromad solig‘idan ozod qilish imtiyozi mavjud[26].

Braziliya “Low Carbon Agriculture” (ABC) dasturi orqali qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu dastur uchun 2022-2023-yillarda 2,5 milliard dollar ajratilgan. Dasturning asosiy yo‘nalishlari no‘lsurish, o‘rmon-qishloq xo‘jaligi tizimlari, degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash kabi iqlimga do‘stona amaliyotlardir. ABC dasturi orqali fermerlar yillik 5,5-7% foiz stavkasi bilan kredit olish imkoniyatiga ega (o‘rtacha bozor stavkasi 12-14%). Kreditlar muddati 12 yilgacha, 8 yilgacha imtiyozli davr bilan beriladi. Bu imtiyozli shartlar fermerlarga uzoq muddatli yashil investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi[27]. Braziliya Milliy Taraqqiyot Banki (BNDES) “BNDES Finem - Meio Ambiente” dasturi orqali yashil qishloq xo‘jaligi loyihalarini moliyalashtiradi. 2020-2022-yillar orasida bu dastur orqali 50 million dollardan ortiq kreditlar ajratilgan. Asosiy moliyalashtirish yo‘nalishlari suv resurslarini samarali boshqarish, qayta tiklanadigan energiya va organik ishlab chiqarishdir[28].

Jahon banki qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish bo‘yicha dunyoning eng yirik donorlaridan biri hisoblanadi. Bank “Climate-Smart Agriculture” dasturi orqali 2023-yilgacha 5 milliard dollarlik mablag‘lar ajratgan. Bu dastur 30 dan ortiq mamlakatlarda 60 dan ortiq loyihalar orqali amalga oshirilgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko‘ra, har bir dollar investitsiya climate-smart qishloq xo‘jaligiga 1.7-2.8 dollar miqdorida qaytim keltiradi. Jahon banki “Global Agriculture and Food Security Program” (GAFSP) orqali yashil qishloq xo‘jaligi loyihalarini moliyalashtiradi. 2010-yildan buyon bu dastur orqali 1.7 milliard dollar mablag‘ ajratilgan, 45 mamlakatda 16 million kichik fermerlar dastur imkoniyatlaridan foydalangan[29]. GAFSP asosan grant shaklidagi moliyalashtirishni taqdim etib, kichik fermerlar va iqlim jihatidan zaif hududlarga yordam beradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish bo‘yicha keng qamrovli mexanizmlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, quyidagi chora-tadbirlar O‘zbekiston uchun ham samarali bo‘lishi mumkin:

“O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish milliy strategiyasi”ni ishlab chiqish. Bu strategiya Yevropa Ittifoqining “Farm to Fork” yoki Yaponiyaning “Green Food System Strategy” kabi strategiyalar tajribasidan foydalangan holda 2030-2040-yillarga mo‘ljallangan, aniq maqsad va ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Yashil qishloq xo‘jaligining sertifikatsiya tizimini rivojlantirish. Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda “Yashil fermer xo‘jaligi” sertifikatsiyasi joriy etilib, bu sertifikatga ega bo‘lgan fermerlar imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim.

---

[26] Ministry of Agriculture and Farmers Welfare, Government of India. (2022). "National Mission for Sustainable Agriculture". https://nmsa.dac.gov.in/

[27] Ministério da Agricultura, Pecuária e Abastecimento, Brazil. (2021). "Plano ABC+: Adaptação, Baixa Emissão de Carbono e Agricultura". https://www.gov.br/agricultura/pt-br/assuntos/sustentabilidade/plano-abc

[28] Banco Nacional de Desenvolvimento Econômico e Social (BNDES). (2022). "BNDES Finem - Meio Ambiente". https://www.bndes.gov.br/wps/portal/site/home/financiamento/produto/bndes-finem-meio-ambiente

[29] World Bank. (2022). "Global Agriculture and Food Security Program". https://www.gafspfund.org/

“Agrobank” va boshqa tijorat banklari orqali yashil kredit liniyalarini ochish. Bu kreditlar o‘rtacha bozor stavkalaridan 3-5% past bo‘lishi va qaytarish muddati 7-10 yilgacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga yashil qishloq xo‘jaligi kreditlarini berish uchun maxsus qayta moliyalashtirish liniyalarini ochish va foiz stavkasini 2-3% ga pasaytirish.

Yashil qishloq xo‘jaligi uchun kredit kafolat fondini tashkil etish. Bu fond AQSH tajribasidan kelib chiqqan holda, fermerlarning yashil kreditlari uchun 50-70% gacha kafolat berishi va xatarlarni kamaytirishi mumkin.

Tijorat banklari uchun yashil kreditlar portfelini kengaytirish bo‘yicha rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish. Masalan, bank portfelining kamida 15-20% ini yashil qishloq xo‘jaligi kreditlariga yo‘naltirgan banklarga soliq imtiyozlarini joriy etish.

Agar bu mexanizmlar O‘zbekistonda samarali qo‘llansa, yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik bo‘yicha muhim natijalarga erishish mumkin.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Мадина РАХМЕДОВА
PhD, доцент ТГЭУ

Глобальное внедрение инструментов зеленого финансирования осуществляется на протяжении более 15 лет и непосредственно коррелирует с реализацией целей Парижского климатического соглашения, направленных на снижение выбросов парниковых газов в атмосферу. Кроме того, развитие зеленого финансирования тесно связано с достижением Целей устойчивого развития ООН, включая обеспечение доступа к чистой и доступной энергии, формирование устойчивых городов и сообществ, принятие мер по борьбе с изменением климата, рациональное использование океанических ресурсов, а также сохранение и устойчивое управление наземными экосистемами.

В Узбекистане разработан и принят ряд законодательных актов, направленных на регулирование и продвижение зелёной экономики. К ключевым документам относятся:

1. Программа по переходу на «зелёную» экономику и обеспечению «зелёного» роста в Республике Узбекистан до 2030 года: утверждена Постановлением Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПП-436[30]. Эта программа определяет цели, задачи и приоритетные направления для обеспечения устойчивого развития и экологической безопасности страны до 2030 года.
2. Концепция перехода на «зелёную» экономику и обеспечения энергосбережения в отраслях промышленности: является приложением к вышеупомянутому постановлению и направлена на повышение

[30] www.lex.uz

энергоэффективности и внедрение экологически чистых технологий в промышленном секторе.

3. План действий по переходу на «зелёную» экономику и обеспечению «зелёного» роста в Республике Узбекистан до 2030 года: содержит конкретные мероприятия и шаги для реализации намеченных целей в области зелёной экономики.

Кроме того, в 2019 году была утверждена Стратегия перехода Республики Узбекистан на «зелёную» экономику на период 2019–2030 годов, которая служит основой для разработки и реализации вышеупомянутых программ и планов.

Зелёная экономика – это модель экономического развития, направленная на снижение негативного воздействия на окружающую среду, эффективное использование природных ресурсов и обеспечение социального благополучия. Она объединяет экономический рост и экологическую устойчивость, стремясь минимизировать углеродный след, загрязнение и разрушение экосистем.

Основные цели зеленого развития тесно взаимосвязаны с тремя ключевыми аспектами устойчивого развития, которые включают экономическое, экологическое и социальное измерения.

- Экономический аспект предполагает обеспечение стабильного и долгосрочного экономического роста, а также формирование энергоэффективной системы, ориентированной на широкомасштабное использование возобновляемых источников энергии.
- Экологическое измерение направлено на минимизацию негативного воздействия на окружающую среду, включая сокращение выбросов парниковых газов и других загрязняющих веществ, снижение уровня техногенных рисков, связанных с функционированием энергетической инфраструктуры.
- Социальная составляющая акцентирует внимание на создании новых высококачественных и стабильных рабочих мест, улучшении условий жизнедеятельности населения и повышении общего качества жизни.

Таким образом, зеленое развитие представляет собой комплексный подход, обеспечивающий гармонизацию экономических интересов, экологической безопасности и социального благополучия.

В рамках теории «зеленой» экономики выделяются десять взаимосвязанных принципов, охватывающих её ключевые аспекты:

1. Приоритет потребительской ценности и качества – основополагающий принцип, ориентированный на удовлетворение реальных потребностей конечного потребителя с учетом экологической устойчивости. Материальные ресурсы рассматриваются исключительно как средство для обеспечения этих потребностей, а финансовая система должна функционировать в качестве инструмента товарооборота, а не накопления капитала.

2. Следование природным процессам – экономика должна адаптироваться к естественным экосистемным потокам, используя

возобновляемые ресурсы и поддерживая биорегиональный баланс. В перспективе социально-экономические границы будут соотноситься с природными экосистемными структурами.

3. Принцип замкнутого цикла (нулевых отходов) – все побочные продукты производства должны становиться ресурсами для новых процессов, формируя замкнутые производственно-потребительские системы.

4. Эффективность и многофункциональность – структурное взаимодействие различных элементов экономики должно быть интегрированным, минимизируя фрагментацию и избыточное разделение функций.

5. Принцип оптимального масштаба – даже маломасштабные воздействия способны оказывать значительное влияние на макроэкономические и экологические процессы, поэтому при принятии решений важно учитывать их кумулятивный эффект.

6. Принцип биоразнообразия – устойчивость экономических и экологических систем обеспечивается за счет их биологического, территориального, социального и культурного разнообразия.

7. Самоорганизация и адаптивное управление – сложные системы должны опираться на децентрализованное управление, построенное по принципу иерархий, формируемых снизу вверх, с акцентом на значимость локальных экономических и экологических структур.

8. Участие и демократизация экономических процессов – обеспечение более широкого вовлечения граждан в принятие решений и управление ресурсами на местном уровне.

9. Человеческий капитал и инновационное развитие – креативность и технологическое совершенствование являются ключевыми драйверами зеленой экономики, обеспечивая синергетическое развитие экономических, социальных и экологических аспектов.

10. Рациональное проектирование искусственной среды – эффективное использование пространственных ресурсов, интеграция природных и антропогенных компонентов посредством многофункционального и экологически ориентированного дизайна.

Эти принципы формируют основу зеленой экономики, способствуя устойчивому развитию за счет баланса экономических, социальных и экологических интересов.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «Об охране природы» от 9 декабря 1992 года, № 754-XII.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зелёную» экономику на период 2019—2030 годов» от 4 октября 2019 года, № ПП-4477.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики

Узбекистан на «зелёную» экономику до 2030 года» от 2 декабря 2022 года, № ПП-436.

4. «Зелёная экономика: Теория и практика»/ Под ред. А.В. Бобылёва и Л.С. Петровой. — М.: Издательство МГУ, 2018. Коллективная монография, посвящённая теоретическим основам и практическим аспектам зелёной экономики.

5. «Экологическая экономика: Принципы и приложения» / Г. Дэйли, Дж. Фарли. — М.: Весь мир, 2019. Книга, рассматривающая основы экологической экономики и её связь с зелёной экономикой.

KORXONALARNING INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

Shayakubov Shaxzod Shakabilovich
TDIU katta o'qituvchisi

Jahonda innovatsiyalar – iqtisodiy o‘zgarishlar va rivojlanishning asosiy omili, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi kuchdir. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish va innovatsiya faoliyatini jadallashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining asosiy strategik maqsadiga aylangan bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda tobora yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiya faoliyatining, xususan, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, patentlar, venchur va startaplar, texnologik jihatdan murakkab tovarlarni eksport-import qilish, xizmatlar, yangi korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni yo‘naltirish kabilarning rivojlanishi jahon iqtisodiyotining transformasiyalashuviga olib keldi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va biznes hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha jadal islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025 yillarda amalga oshirishda innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institusional mexanizmlarini takomillashtirish, kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishni ta’minlash, yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalarni yaratishning g‘oyadan yakuniy iste'molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta’minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish, yaratilgan kapitalni “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarga qayta yo‘naltirish tizimini shakllantirish kabi chora-tadbirlar belgilandi. “2026 yilga kelib, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari sonini 4 baravarga oshirish, ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish, hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar sonini 183 tagacha

oshirish”[31] singari ustuvor vazifalar korxonalarning investisiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish, bu borada tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

Korxonalar innovatsiya faoliyati zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror o‘sishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Innovatsiya faoliyati korxonaning bozor talablariga moslashishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi(1-rasm).



1-rasm. Korxonalar innovatsiya faoliyati: xususiyatlari va muhim belgilari[32]

Korxonalarning innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda yangi g‘oyalar va texnologiyalar joriy etib borish, risk va noaniqlikni hisobga olish, doimiy investitsiyalar jalb qilib borish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining izchil yo‘lga qo‘yish va uhsbu jarayonlarning uzoq muddatga mo‘ljallanganligi asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Korxonalarning innovatsiya faoliyatini rivojlantirishdagi muhim belgilari sifatida yangi maxsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, innovatsiyaga asoslangan raqobatbardoshlikni va samaradorlikni oshirib borish, ekologik barqarorlikka e’tiborni qaratish, va xalqaro talablarga asoslangan intellektual mulkni himoya usullarni tadbiq qilishni ko‘rsatishimiz mumkin.

O‘zbekiston xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratishi va innovatsion

[31] PF-165-son 06.07.2022. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

[32] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

startaplar uchun xalqaro grantlar va kreditlarni jalb qilish tizimini yaxshilashi lozim.

Texnologik taraqqiyot va ilmiy izlanishlarning iqtisodiyotdagi roli tobora ortib borayotgan sharoitda mamlakatlarning innovatsion salohiyati va ularning dunyo bozorlarida tutgan o‘rni Global Innovatsiya Indeksi (GII) orqali baholanadi. Ushbu indeks davlatlarning innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va joriy etish darajasini ko‘rsatib, ularning iqtisodiy va ilmiy-texnologik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy mezonlardan biri sifatida qabul qilinadi.

O‘zbekiston ham innovatsion taraqqiyot yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutlarini rivojlantirish, startap ekotizimini shakllantirish va xususiy sektorning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, mamlakatning GII reytingida past o‘rinlarni egallashi O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.



2-rasm. Global innovatsiya indeksida rivojlangan va MDH mamlakatlarining o‘rni[33]

Global innovatsiya indeksining joriy yilgi reytingida eng yuqori o‘rinda Shveysariya (67,5 ball). Ushbu mamlakat innovatsion ekotizimi, ilmiy tadqiqot va texnologik rivojlanishda yuqori natijalarga erishgan. Shvetsiya (64,5 ball), AQSh (62,4 ball), Singapur (61,2 ball) va Birlashgan Qirollik (61,0 ball) – Innovatsiya va texnologik rivojlanish bo‘yicha yetakchi davlatlar. Ular ilmiy-tadqiqot faoliyatiga katta sarmoya kiritishi va innovatsion mahsulotlar yaratishi bilan ajralib turadi. Janubiy Koreya (60,9 ball) – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida katta yutuqlarga ega bo‘lgan mamlakat. Bu mamlakatlarning yuqori innovatsion indeksi ulardagi ilmiy-tadqiqot institutlarining rivojlanganligi, xususiy sektor va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, startap ekotizimining mustahkamligidan dalolat beradi. Ular doimiy ravishda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. O‘zbekiston 133 ta davlat orasida 82-

[33]https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/assets/67729/2000%20Global%20Innovati on%20Index%202024_WEB3lite.pdf

o‘rinni egalladi. Indeksda mamlakatlar 4 ta daromad guruhiga bo‘lingan (yuqori daromad, yuqori-o‘rta daromad, quyi-o‘rta daromad va past daromad), O‘zbekiston o‘z guruhida (quyi-o‘rta daromad) 38 ta davlat ichida 10-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston mintaqalar bo‘yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o‘rinni egalladi. Reytingning 2024-yilgi hisobotida O‘zbekiston Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar subindeksida o‘tgan yilga nisbatan 1 pog‘onaga o‘sib 71-o‘rinni egalladi va Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar subindeksida 91-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston shuningdek reytingda Infratuzilma (+3), Biznesni rivojlantirish (+7) yo‘nalishlarida o‘z o‘rnini o‘tgan yilga nisbatan yaxshiladi. Indeks 78 ta tarkibiy indikatordan tashkil topgan bo‘lib, joriy yilda ulardan 40 tasi o‘tgan yilga nisbatan yaxshilangan, 13 tasi o‘zgarmagan, 23 tasi pasaygan va 2 tasi ma’lumot mavjud emasligi uchun o‘rni aniqlanmagan. Grafikning oxirgi qismida O‘zbekiston (24,7 ball), Qirg‘iziston (20,4 ball), Tojikiston (18,6 ball) joylashgan. Bu davlatlarda innovatsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar yetarlicha emas. Buning asosiy sabablari quydagilardan iborat:

- ilmiy-tadqiqot faoliyatining sustligi;
- ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar yetarlicha rivojlanmagan yoki ularning amaliy innovatsiyalar yaratish imkoniyati cheklangan;
- xususiy sektorning past ishtiroki;
- ko‘pgina tadbirkorlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga tayyor emas.
- texnologik infratuzilmaning zaifligi;
- zamonaviy laboratoriyalar va texnologik parklarning yetishmovchiligi;
- davlat qo‘llab-quvvatlovining cheklanganligi;
- hukumat tomonidan innovatsion startaplar va ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish hajmi yetarlicha katta emas.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida innovatsiyalar yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, **innovatsiyalarga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori bevosita iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari bilan bog‘liq**. Masalan, **AQShda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga YaIMning 2,8 foizi, Germaniyada 2,9 foizi, Janubiy Koreyada esa 4,3 foizi sarflanadi**, O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich atigi **0,8 foiz** darajasida qolmoqda.

Mamlakatimizda innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, **korxonalar tomonidan innovatsiyalarga ajratilayotgan mablag‘lar yetarli darajada emas**. Ayniqsa, **davlat ulushiga ega xo‘jalik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish samaradorligi pastligi iqtisodiy rivojlanishga sezilarli to‘siq bo‘lib qolmoqda**. Shu sababli, **korxonalar innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish** dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Organilgan va hamda olib borilgan tadqiqiotlar asosida xulosa qiladigan bo’lsam men quyidagi ilmiy yangiliklarimni keltirib o’tsam bo’ladi:

1. ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida foyda solig‘ini to‘laguncha qadar foydaning 10 foizgacha miqdoridagi

ajratmalari hisobidan korxonalarning alohida hisob raqamida shakllantiriladigan Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etishning maqsadga muvofiq ekanligi bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenting 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishida foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soxada, shu jumladan qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta’minlash va rag‘batlantirish borasida ijobiy natijalarga erishilgan. Shuningdek, 2023 yilda 636,9 million so‘m miqdoridagi mablag‘larni Innovatsion rivojlanish va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga maqsadli yo’naltirishga asos bo‘lgan;

2. har yili ilmiy hajmdor mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion korxonalarda raqobatbardosh yangi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish loyihalariga davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag‘larning 10 foizini yo‘naltirish haqidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta’minlashga xizmat qilgan;

3. innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda innovatsion, startap, tijoratlashtirishga tayyorlash, tijoratlashtirish hamda texnologiyalar transferi loyihalarini davlat ilmiy dasturlari doirasida byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda yangilik, yangi mahsulot, yangi texnologiyalar va ilgari amaliyotga tatbiq etilmagan faoliyatlarning taraqqiyotiga xizmat qilgan, shuningdek O‘zbekistonning Global innovatsiyalar indeksi reytingida o‘rni mustahkamlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligiga erishilgan;

4. davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga ajratiladigan kredit summasining 75 foizigacha miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kafillik taqdim etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi PF-213-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ishlab chiqilishida foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlarni kengaytirish,

infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaratib berish orqali aholi bandligini ta’minlash xamda hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish imkoni yaratilgan.

OILAVIY KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISH

Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
TDIU dotsent v.b., PhD

Oilaviy biznes jahon miqyosda o‘z kapitali va qarz manbalarini ta’minlash uchun moliyaviy rejalarni ishlab chiqish bilan boshlanadi. Oilaviy korxonalar uchun kapital xarajatlarini minimallashtiradigan optimal moliyaviy tuzilmani tahlil qiladi. Keyin biz global bozorlarda kapitalni jalb qilishda firma amal qilishi mumkin bo‘lgan muqobil yo‘llarni va xorijiy sho‘ba korxonalarni moliyalashtirishning muqobil strategiyalari va taktikalarini o‘rganamiz.

“Bugungi kunda oilaviy biznes moliyasini rivojlantirish asosida quyidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal qilinmoqda:



1-rasm. oilaviy biznes moliyasini rivojlantirish asosida amalga oshirilayotgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar[34]

Mamlakatimizda oilaviy biznesni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash balki aholining turmush farovonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Aholining ish bilan bandligini taminlash va turmush farovonligini oshirishda oilaviy biznes moliyasini rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga egadir.

[34] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu boisdan ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida boshlab oilaviy biznes faoliyati erkinligi kafolatlarini yaratish, xususiy mulk, oilaviy biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy biznes moliyasini rivojlanishida ularning huquqlarini himoya qilish borasida qonunchilikni mustahkamlash, bozor infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Oilaviy korxonalarni ro‘yxatga olish, ixtiyoriy ravishda faoliyatini yopish va tugatish, shuningdek, biznes faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanish huquqini beradigan litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonlari soddalashtirilib, tartibga solinmoqda. Belgilangan soliq stavkalari esa sezilarli darajada kamaytirilmoqda, ayrim jarima turlari esa bekor qilindi. Oilaviy biznesda davlatning aralashuvini cheklashga doir ishlar davom etmoqda, biznes sub’ektlariga esa nisbatan har qanday sanksiyalar faqat sud qarori bilan qo‘llanishi ustidan monitoringlar olib borilmoqda. Moliya, soliq hamda statistika hisobotlarining barcha shakl va muddatlari qisqartirildi.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun yetarli darajada qulay imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsada, lekin iqtisodiyotda hali ham uning ulushi dunyoning rivojlangan mamlakatlari darajasi miqdoridan past bo‘lib, bu sohada yechimini kutayotgan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy muammolar talaygina.

Ana shunday muammolardan biri oilaviy biznesning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish, uning rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish hisoblanadi.

Hayotiy tajriba sifatida oilaviy biznes va tadbirkorlik ko‘lamidagi ishlab chiqarish ham o‘z afzalliklariga ega ekanligini tasdiqlamoqda. “Oilaviy biznes faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar tovar va xizmatlarni aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bozorlarga chiqarilmoqda, aholining ish bilan bandligini taminlanib, daromad manbai ortib bormoqda”[35]. Shuningdek ishlab topilgan daromadlari asosida ichki iste’mol tovarlar kengaymoqda, minitexnika va texnologiyalarning rivojlanishiga va shu tufayli fan-texnika taraqqiyotiga turtki bo‘ldi. Oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarning tirishqoqligi va mehnatga jiddiy, mas’uliyatli munosabatda bo‘lishliklari sababli oilaviy korxonalarda mehnat unumdorligining nisbatan yuqoriligi, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va bozordagi raqobatga bardosh bera olish imkoniyati keng ekanligi, keng miqdordagi investitsiyalarni talab etilmasligi, mahalliy bozorga yoki yirik oilaviy korxonalarga ishlashi, shu sababli bozorga tez moslashishi, tovarlarni nisbatan arzon sotib, halol daromadga ega bo‘lishi, yangidan-yangi daromad manbalarini izlab topishga, buning uchun esa innovatsiyalarga moyilligi nisbatan yuqori bo‘ladi. Shu sababli mamlakatimizda bugungi kunda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash, oilaviy biznes moliyasini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga molik hisoblanadi.

[35] https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37659429

Oilaviy biznes oilaning o‘ziga mos xususiyatlariga ega bo‘lsada, ular, boshqa kompaniyalar singari, tez-tez o‘sish uchun mablag‘ izlaydilar. Oila a’zolarining kelajagi, oilaviy tadbirkorlikning mustaqilligini saqlab qolish va oila birligini saqlash oilaviy tadbirkorlikning o‘sishi va uning barcha a’zolari uchun yetarli foyda keltira olish qobiliyatiga bog‘liq. Oilaviy biznes daromadi hisobiga kun kechirayotganlar soni avloddan-avlodga oshib bormoqda. Oilaning kelajagi va uning birligi boshqa kompaniyalarga nisbatan oilaviy biznesning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolishi ehtimoldan xoli emas, bu esa o‘sish uchun qo‘shimcha bosimni keltirib chiqaradi.

Daromadni oshirish va o‘sishni tezlashtirish uchun biznes kuchli moliyalashtirishni talab qiladi. Global moliyaviy inqirozdan keyin oilaviy biznesga kapital kiritish har doim ham oson emas va boshqa moliyalashtirish turlarini topish ayniqsa oilaviy biznes uchun juda qiyin bo‘lishi mumkin. Oilaviy biznes va boshqa kompaniyalar o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, ko‘pchilik oilaviy korxonalar o‘z kompaniyalari ustidan nazoratni qo‘llab-quvvatlashni muvaffaqiyatning asosiy omili deb bilishadi, bu esa moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada cheklashi mumkin.

“Ba’zi oilaviy bizneslar xususiy kapital yoki korporativ strategik sheriklarga murojaat qilishlari mumkin, ammo bunday moliyalashtirish imkoniyatlari oilaviy biznes egasining nazoratini cheklaydi yoki kamaytiradi”[36]. Oilaviy biznesning ko‘pchilik egalik huquqini saqlab qolishga bo‘lgan bunday kuchli istagi yuqori daromadli shaxslarga hamkorlik orqali moliyalashtirishdagi tafovutni bartaraf etishda rol o‘ynash imkoniyatini yaratadi.

PROSPECTS OF USING SCORING MODEL IN CORPORATE LOANS IN UZBEKISTAN

Alisher Asatullaev
Researcher of The Banking and Finance Academy

Scoring (derived from English - scoring) means "calculation of points" and evaluation of points in decision-making. For banks, scoring is primarily a method of risk assessment and, on this basis, a statistical assessment of the client's loan repayment prospects. The second is the automation of the decision-making process. Scoring means working with the client at all stages.

Scoring is a system of evaluating a potential borrower based on his socio-demographic characteristics based on the client's credit history. Scoring is a risk assessment technology in the lending process. The scoring decision includes the construction of a mathematical model of the credit organization's risk assessment, a risk management tool and the automation and accounting of business processes in credit decision-making and lending.

[36] http://lib.rosdiplom.ru/library/prosmotr.aspx?id=498259

The first scoring cards appeared in the USA in the 1940s. It is scored by experts based on no more than 10 descriptive indicators.

In 1941, in connection with the departure of bank expert-analysts to the front in the United States, the use of scoring methods in bank credit activities began to be widely used. David Duran tried to apply Fisher's "good" and "bad" classification "to plants" to bank loans.

The first software-based application of scoring was in the 1950s, when Diners Club's "Dine and Sign" card-based software system was used to evaluate and issue bank loans.

So credit scoring was formed for the first time on the basis of the system program of credit cards. Through the scoring program and method, not only the risk level of the loan given to the client, but also the undiscovered laws of the client's behavior can be evaluated.

Currently, scoring methods are conducted in 2 different ways through Microsoft Office Excel and other special software.

Today, there are 3 companies in the US that have their own national credit scoring system for evaluating customers. They are:

Fair, Isaac & Company (FICO). Its owners are Billa Fea and Erla Isaacs. They are the people who created their own system in 1956 for evaluating the creditworthiness of customers using statistical models. At the same time, these are the people who created the credit score in the world scoring system.

WellsFargo. In 1997, they fully introduced the credit scoring system into banking practice.

Franklin&CrandCompany tried to create a credit scoring system that could be used by every bank and their customers.

The scoring model of commercial banks can be organized in the following three ways (Figure 1).



Figure 1. Methods of organization of scoring model of commercial banks

The descriptive

1) Retrospective data on repayment of loans.
2) Method of using credit by the borrower.
3) Duration of the client's credit history.
4) Periodicity of the application for borrowing by the applicant.
5) Consumer loan package (Combination)

6) Assessment of the client's creditworthiness depends on the type of loan requested by the applicant.

The David Duran credit scoring model has become widespread in banking practice. According to it, it can be widely used in lending to individuals and determining their risk.

Scoring is divided into several types according to the direction of performance of assigned tasks (Fig. 2).



Figure 2. Types of scoring according to tasks

- Application scoring (scoring of the applicant) – the likelihood of the new client repaying the loan is assessed;
- Behavioral scoring (ethical scoring) - the client's risk level is calculated on the basis of available moral information;
- Collection scoring (scoring of overdue debts) – it is determined when and what measures should be taken for those who have not paid the loan;
- Fraud scoring – the probability that a new client is not a fraud is estimated;
- Response scoring (challenge scoring) – the consumer's reaction to the offer made to him by the bank is evaluated;
- Attrition scoring - the possibility of using the product in the future or switching to another supplier is evaluated.

Today, there are several types of scoring programs (Figure 3).

1) Behavioral - the optimal limit assigned to the client through his credit card, changes in his ability to pay and prospects are determined. Such scoring is also called "moral scoring".

2) Collection - provides an opportunity to fully work with clients with overdue debts or loans described as “unsatisfactory” by collection agencies.

3) Application - is a type of actual scoring that works with customers who have applied for a loan.

4) Fraud - allows you to identify untrustworthy customers and trace their level of fraud.

In general banking practice, credit scoring serves two functions:

- creation of scoring models - models for assessing creditworthiness;
- creating a scoring system for decision-making.

The following situations are observed when creating scoring models in banks:

- business processes are established and regulated, only the integration of analytical components of the scoring system is required.
- when business processes are about to stand up, it is necessary to maximally introduce and fully support credit application processes.

In conclusion, it should be noted that scoring model must be created efficiently by commercial banks to decrease risks in corporate loans.

MOLIYA TIZIMIDA YASHIL INSTRUMENTLARNI QO‘LLASHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Z.E.Beknazarov
TDIU professori
Sh.D.Olimov
TDIU talabasi

Dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar jiddiy darajada kuchayib bormoqda. Atmosferaga chiqariladigan karbon emissiyalari, tabiiy boyliklarning nooqil foydalanilishi va biosferaning buzilishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan moliya tizimida yangi yo‘nalish – "yashil moliya" joriy etildi. Yashil moliya – bu ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan maxsus moliya vositalari va mezonlar majmuasidir. Ushbu maqolada yashil moliya tizimining mohiyati, uning moliya sektoridagi roli, mavjud muammolari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Yashil moliya – bu zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion yondashuv bo‘lib, u moliya tizimini iqlim o'zgarishi va tabiat resurslarining saqlanishiga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu instrumentlar asosan quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: yashil obligatsiyalar, yashil investitsiyalar, yashil kreditlar va ekologik sug'urta. Har bir ushbu instrumentning tafsilotlari, ahamiyati va ularni qo'llashdagi ustunliklar hamda muammolari quyida batafsil tahlil qilinadi.

Yashil obligatsiyalar – bu ekologik loyihalarga sarf etish uchun chiqariladigan maxsus moliyaviy vositalardir. Bu instrumentlar energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv resurslarini tejash va boshqa ekologik dasturlarga mablag' jalb qilish uchun ishlatiladi. Misol tariqasida, yashil obligatsiyalar orqali qurilgan shamol elektr stantsiyalari yoki quyosh paneli loyihalari ko'rsatilishi mumkin. Bunday obligatsiyalar an'anaviy obligatsiyalar bilan bir xil mezonlarga ega bo'lishiga qaramay, ularda alohida maqsad mavjud: ekologik barqarorlikka erishish.

S&P yashil obligatsiya indeksi tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil obligatsiyalar bozori hozirda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Masalan, 2022-yilda dunyo miqyosida yashil obligatsiyalar emissiyasi 500 milliard AQSh dollarni tashkil etdi.

Bundan tashqari, global jihatdan yashil obligatsiyalar bozori hajmi 156 milliard dollar yoki global umumiy emissiyalar sonining 53,8 foizini tashkil etadi.

Yashil investitsiyalar – bu ekologik barqarorlikka erishishga qaratilgan investitsion portfelni anglatadi. Misol tariqasida, qayta tiklanuvchi energiya, biologik xilma-xillikni saqlash, ifloslantiruvchi sanoatni kamaytirish kabi sohalarga mablag' sarflash keltirilishi mumkin. Yashil investitsiyalar davlat korxonalari, xususiy kompaniyalar va investorlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu investitsiyalar yordamida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ekologik balansni saqlash uchun mo'ljallangan loyihalar mablag' bilan ta'minlanadi.

Yashil investitsiyalar rentabelligi va risklari haqidagi ma'lumotlar hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yashil loyihalar uzun muddatda an'anaviy investitsiyalarga nisbatan barqaror daromad keltirishi mumkin. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bozori o'sib borayotganligi sababli, bunday investitsiyalar tez-tez afzallikka ega bo'ladi.

Yashil kreditlar – banklar tomonidan ekologik loyihalarga ajratiladigan arzonroq va afzal shartlar bilan beriladigan kreditlardir. Bu kreditlar energiya samaradorligini oshirish, suv tejash texnologiyalari, ekologik transport vositalari va boshqa ekologik yo'nalishlar uchun ishlatiladi. Yashil kreditlar afzalligi shundaki, ularning foizi an'anaviy kreditlarga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin, chunki ular ekologik barqarorlikka qaratilgan.

Ekologik sug'urta – tabiiy ofatlar va ekologik risklarga qarshi sug'urta polislarini o'z ichiga oladi. Ushbu sug'urtalar tabiat ofatlari va iqlim o'zgarishining salbiy ta'siridan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Masalan, suv toshqinlari, quruqlik va shamol holatlari kabi tabiiy ofatlarga qarshi sug'urta polislarini amalga oshirish mumkin. Ekologik sug'urta yordamida korxona va fuqarolar o'z mulklarini va bizneslarini himoyalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yashil moliya instrumentlarining moliya tizimidagi roli juda katta va quyidagi ustunliklarga ega:

1. Ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan mablag'larni jalb qilish Yashil obligatsiyalar va yashil investitsiyalar orqali ekologik loyihalarga katta miqdorda mablag' jalb qilish mumkin. Bu esa energiya samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va boshqa ekologik dasturlarni amalga oshirishga imkon beradi;
2. Investitsion faoliyatni ekologik barqarorlikka moslashtirish Investitsion portfelni yashil sohalarga qaratish orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin. Bu esa butun dunyo miqyosida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning muhim omilidir;
3. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Yashil moliya instrumentlari orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun zarur mablag'lar taqdim etiladi. Masalan, yashil obligatsiyalar yordamida qurilgan shamol elektr stantsiyalari atmosferaga chiqariladigan karbon emissiyalarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Biroq, yashil moliya tizimida ba'zi muammolar ham mavjud:

1. Yashil loyihalar uchun standartlashtirilgan mezonlar va auditorlik talablarining yetishmasligi. Hozirgi paytda yashil obligatsiyalar va boshqa yashil moliya instrumentlariga oid standartlashtirilgan mezonlar yetarli emas. Natijada, ba'zi loyihalar "yashil" deb hisoblanib, ammo haqiqatan ham ekologik foyda keltirmaydi;
2. Yashil investitsiyalarning rentabelligi va risklari to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emasligi. Yashil loyihalar uchun investitsiya qilishda rentabelligi va risklari to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas. Bu esa investorlarni qo'rqitishi mumkin;
3. Davlat va xususiy sektor orasidagi hamkorlikning zaifligi. Yashil moliya tizimining rivojlanishida davlat va xususiy sektor orasidagi hamkorlikning zaifligi muammo tug'diradi. Davlat rag'batlantirishlari va xususiy sektorni jalb qilishda kamchiliklar mavjud.

Natijada, yashil moliya hozirda global miqyosda asta-sekin rivojlanmoqda, ammo uning potensiali juda katta. Masalan, Bloomberg New Energy Finance (BNEF) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'ylab yashil obligatsiyalar hajmi 500 milliard AQSh dollarni tashkil etdi. Bu raqam har yili o'sib bormoqda.

Yashil moliya tizimining kelajagi juda yorqin. Standartlashtirish, davlat rag'batlantirishlari, xususiy sektor jalb qilinishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi bilan yashil moliya tizimi yanada rivojlanadi va butun dunyo miqyosida ekologik muammolarni hal qilishga ulkan hissa qo'shadi. Shuningdek, yashil moliya instrumentlari orqali ekologik barqarorlikka erishish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va tabiat resurslarini saqlash mumkin bo'ladi.

Yashil moliya tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar berilishi mumkin:

1. Yashil standartlar va auditorlik tizimini joriy etish. Yashil loyihalar uchun niq va standartlashtirilgan mezonlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikda auditorlik va monitoring tizimini joriy etish zarur.
2. Davlat tomonidan rag'batlantirish. Yashil investitsiyalar va yashil obligatsiyalar uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalarni taqdim etish loyihalarni rag'batlantiradi.
3. Xususiy sektorni jalb qilish. Xususiy kompaniyalar va investorlarni yashil moliyaga jalb qilish uchun marketing choralari va ommaviy axborot kampaniyalari olib borilishi kerak.
4. Ta'lim va malakani oshirish. Moliya institutlari va universitetlarda yashil moliya haqida ta'lim kurslari va dasturlarini joriy etish, mutaxassislarni tayyorlash zarur.
5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Yashil moliya sohasida xalqaro tashkilotlar, davlatlar va kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash kerak.

Yashil moliya – bu zamonaviy ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. U moliya tizimini ekologik barqarorlikka moslashtirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol

o'ynaydi. Hozirda yashil moliya tizimida ba'zi muammolar mavjud bo'lsa-da, uning kelajagi juda yorqin. Standartlashtirish, davlat rag'batlantirishlari, xususiy sektor jalb qilinishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi bilan yashil moliya tizimi yanada rivojlanadi va butun dunyo miqyosida ekologik muammolarni hal qilishga ulkan hissa qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Musaev, A. (2021). *Yashil iqtisodiyot va uning moliyaviy asoslari* . Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti.

2. Xolmirzaev, Sh. (2022). *Ekologik barqarorlik uchun yashil investitsiyalar* . Samarqand: "Zamon" nashriyoti.

3. Rahimov, F. (2020). *Moliya tizimida yashil obligatsiyalar roli* . Toshkent: "O'zbekiston milliy universiteti" nashriyoti.

4. Abdullaev, M. (2021). *Iqlim o'zgarishi va uni moliyaviy mexanizmlar orqali bartaraf etish usullari* . Andijon: "Ilm-fan" nashriyoti.

5. Yo'ldoshev, Z. (2023). *Yashil moliya: nazariya va amaliyot* . Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.

6. Olimov, R. (2022). *Sustainable finance: global va mahalliy tajribalar* . Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq" nashriyoti.

7. Mirzayev, B. (2021). *Yashil investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi* . Namangan: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.

O‘ZBEKISTONDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BARQAROR INVESTITSIYA FONDLARI VA YASHIL MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHI

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
Bank-moliya akademiyasi kafedra mudiri, i.f.d, professor
Bakirov Sanjar Davlatovich
Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga oid talablar ortib bormoqda. Bu tendensiya O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning moliya tizimi va investitsiya strategiyalarida yangi yondashuvlarni talab qiladi. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida barqaror investitsiyalarni rivojlantirish, ayniqsa, yashil moliya bozori, bu jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Quyidagi moliyaviy instrumentlar O‘zbekistonda ESG tamoyillari asosida rivojlanmoqda:

1. Yashil obligatsiyalar – Ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqarilayotgan obligatsiyalar.
2. Barqaror investitsiya fondlari – ESG tamoyillariga amal qiluvchi fondlar.
3. Yashil kreditlar – Atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan loyihalar uchun ajratilgan kreditlar.

Yashil obligatsiyalar va xususiy sektor tashabbuslari.

2023-yilda O‘zbekiston London fond birjasida o‘zining birinchi yashil suveren obligatsiyalarini chiqjarib, 4,25 trillion so‘mlik mablag‘ni jalb qildi.

1-jadval

Suveren yashil obligatsiyalarning asosiy ko‘rsatkichlari [1]

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
Emissiya hajmi	4,25 trillion so‘m
Yashil loyihalar ulushi	70%
Muddat	5 yil
Yillik foiz stavkasi	5,375%

Shuningdek, 2023-yil dekabr oyida “SAIPRO GROUP” MChJ O‘zbekiston Respublikasi To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi va AIFC Yashil moliya markazi ko‘magida birinchi korporativ yashil obligatsiyalarni joylashtirish oprqali 5(foiz) yillik to‘lov muddati bilan 4 000 000 (to‘rt million) AQSh dollari ekvivalentida mablag‘ jalb qildi.[2]

Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar.

O‘zbekiston ESG bozorining rivojlanishida xalqaro moliyaviy institutlarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat quyidagi yirik xalqaro tashkilotlar va fondlar bilan hamkorlik qilmoqda:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) yirik xususiy mahalliy kreditor Hamkorbankga yangi mablag‘lar taqdim etish orqali O‘zbekiston yashil moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilamoqda va yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirmoqda.

YeTTBning O‘zbekistondagi “Yashil iqtisodiyot moliyalashtirish dasturi II” doirasidagi 10 million AQSh dollarigacha bo‘lgan krediti Hamkorbankga butun mamlakat bo‘ylab kompaniyalar va uy xo‘jaliklariga energiya samaradorligini oshirish kreditlarini kengaytirish imkonini berdi, ular o‘z navbatida mablag‘larni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirish maqsadida yo‘naltirgan.[3]

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) – O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirish uchun sarmoya kiritmoqda. Bankning 2022-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, OTB 150 mln AQSh dollari miqdorida kredit ajratgan.[4]

Manbaga ko‘ra, “yashil rivojlanish” doirasida OTB O‘zbekistonda yashil renovatsiya kreditlarini kengaytirishga yordam beradigan 150 mln dollarlik kreditni ma’qullagan, shu bilan birga, mamlakatdagi tijorat kreditorlariga arzon uy kreditlari berishni davom ettirish uchun mablag‘ni ko‘paytirishga yordam beradi. O‘zbekistonda qarz oluvchilar yashil renovatsiya kreditlaridan isitish va sovutish tizimlarini ta’mirlash yoki o‘rnatish, quyosh panellarini o‘rnatish, suv izolyatsiyasini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish uchun foydalanishlari mumkin.

2025-yil 3-fevralda Franklin Templeton kompaniyasining investitsiya bo‘yicha mutaxassis, Templeton Global Investments kompaniyasi O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan Investitsiyalarni boshqarish kelishuvi (IBK) imzolanganligini e’lon qildi. IBK shartlariga ko‘ra, Toshkent shahrida joylashgan Franklin Resources Inc. kompaniyasining to‘laqonli bilvosita sho‘ba korxonasi

bo‘lgan Franklin Templeton Asset Management xorijiy mas'uliyati cheklangan korxonasi O‘zbekiston Milliy investitsiya jamg‘armasining ishonchli vakili va menejeri etib tayinlangan.[5]

O‘zbekiston Milliy Investitsiya Fondi davlatga tegishli 18 ta korxonada kam ulushlarga ega bo‘ladi, va Franklin Templeton bu korxonalarning qiymatini taxminan 1,5 mlrd AQSh dollariga teng deb baholamoqda.

Ushbu strategik hamkorlik O‘zbekistonning asosiy davlat korxonalarida yanada mustahkam imkoniyatlarni yaratish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, kapital bozorlarini mustahkamlash va iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotni rag‘batlantirish uchun korporativ qiymatni maksimal darajada oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dasturidagi muhim qadamdir.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) – O‘zbekiston bilan hamkorlikda “Yashil iqtisodiyot” dasturini ishlab chiqmoqda. UNDP tomonidan ajratilgan mablag‘ asosan ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilmoqda.

2025-yilning 17-yanvar kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” munosabati bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda, Global ekologik fond moliyalashtirilishida amalga oshirilayotgan ikkita xalqaro loyihani ishga tushirishga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Ikki loyihaning birgalikdagi byudjeti 2030-yilgacha taxminan 6,5 mln dollarni tashkil qiladi.

Ana shunday loyihalardan biri “Biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha Milliy strategiya va harakatlar rejasini va 7-Milliy hisobotini yangilashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks dastur” bo‘lib, jahonning 69 davlatida, jumladan, O‘zbekistonda ham amalga oshirilayotgan global loyihaning bir qismidir. U biologik xilma-xillik milliy strategiyalari va harakat rejalarini hamda 7-Milliy hisobotni tayyorlashda mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu loyihani amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda Global bioxilma-xillik asoslari va uning asosida ishlab chiqilgan yangi milliy maqsadlarga muvofiq yangilangan Milliy strategiya va Harakatlar rejasini tayyorlash kutilmoqda.

Shunday qilib, ushbu loyiha bioxilma-xillikni muhofaza qilish, saqlash va tiklash sohasida uzoq muddatli davlat siyosatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu barcha tomonlar: davlat tashkilotlari, biznes hamjamiyatlari va jamoatchilikning faol hamkorligini talab qiladi.

Ikkinchi yirik loyiha – “O‘zbekistonning yuqori qiymatga ega landshaftlarini muhofaza qilish va qayta tiklash bo‘yicha kompleks boshqaruv” loyihasi puxta ishlab chiqilgan va inklyuziv siyosat orqali ekotizimlarni tiklash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ekotizimlarni tiklash jarayonlarida innovatsiyalarni qo‘llash, va bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha samarali va barqaror moliyalashtirishni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishga qaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirishdagi asosiy hamkorlardan biri 2024-yilda Toshkentda mintaqaviy vakolatxonasi rasman ochilgan Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqidir. Loyihaning tajriba hududlari G‘arbiy Tyan-Shan, Nurota tizmasi va Qo‘gitang landshaftlari hisoblanadi.[6]

Xalqaro hamkorlik tufayli O‘zbekiston ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hajmini oshirish va yashil obligatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

O‘zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirgan holda ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalarni rivojlantirishda katta qadam tashlandi. Davlat va xususiy sektor ishtiroki bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Kelgusida, O‘zbekistonning ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalarini rivojlantirish uchun

1. Tartibga soluvchi qonunlarning takomillashtirilishi – ESG bozorini mustahkamlash uchun huquqiy bazani rivojlantirish.

2. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish – Yashil obligatsiyalar va investitsiya fondlariga ko‘proq xususiy kompaniyalarni jalb qilish.

3. Texnologik yangiliklar – Atrof-muhitga mos texnologiyalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekistan Issues First Ever Green Sovereign Eurobonds Worth 4.25 Trillion UZS on the London Stock Exchange | United Nations Development Programme

2. https://aifc.kz/news/saipro-group-llc-issued-the-first-corporate-green-bonds-in-the-republic-of-uzbekistan

3. https://www.ebrd.com/home/news-and-events/news/2023/ebrd-provides-funds-to-promote-green-investment-in-uzbekistan.html

4. https://en.trend.az/casia/uzbekistan/3688752.html

5. https://www.ftinstitutionalemea.com/press-releases/templeton-global-investments-appointed-trustee-and-manager-of-the-national-investment-fund-of-uzbekistan

6. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ozbekistonda-atrof-muhitni-muhofaza-qilish-va-yashil-iqtisodiyot-yilini-yangi-yashil-tashabbuslar-bilan-boshlaymiz

MILLIY KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR AMALIYOTINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Sardor Omonov
TDIU dotsent v.b., PhD

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kapital bozorining moliyaviy instrumentlari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ekologik barqarorlikka erishishda zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni ta’minlashga yordam beradi. “Bugungi kun amaliyotida yashil iqtisodiyotga o‘tishda yashil kreditlardan tashqari yashil moliyalashtirishning boshqa ko‘plab instrumentlari ham qo‘llanilmoqda. Jumladan, yashil va ko‘k obligatsiyalar, yashil sug‘urta, yashil budjeti, yashil sukuk kabilar shular

jumlasidandir”[37]. Birinchi navbatda, yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar orqali davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalar ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kapitalni jalb qilishlari mumkin. Ushbu obligatsiyalar investorlarni iqlimni himoya qilish va ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashishga sarmoya kiritishga undaydi. Yashil obligatsiyalarni ishlatish imkoniyatlari yashil iqtisodiyotga o‘tishda katta ahamiyatga ega, chunki ular ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan kapitalni ta’minlashga yordam beradi. Yashil obligatsiyalar orqali iqlimni himoya qilish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu obligatsiyalar davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalar uchun ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar ajratadi.

Yashil obligatsiyalarni chiqarish orqali investorlarga barqaror va ekologik mas’uliyatli loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyati beriladi. Shuningdek, bu obligatsiyalar orqali ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashishda moliyaviy yordam olish mumkin. Kapital bozorida yashil obligatsiyalarni chiqarish, ekologik barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi va ularning samarali ishlashi uchun monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Yashil obligatsiyalarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularning foydalari va ijtimoiy ta’sirini baholash muhim ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalarni ishlab chiqish jarayonida shaffoflik va ishonchli hisobotlar tizimi yaratish investorlarning ishonchini oshiradi. Yashil obligatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalarni ekologik mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Shuningdek, davlatlar tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali yashil obligatsiyalarga sarmoya kiritish jozibador bo‘ladi. Yashil obligatsiyalar orqali yangi energiya texnologiyalarini joriy etish va atrof-muhitni himoya qilishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ular, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan ko‘plab investitsiyalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Yashil obligatsiyalarni chiqarish, ayniqsa, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Yashil obligatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitni himoya qilishni birlashtirish mumkin. Yashil obligatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy institutlar va banklar uchun yangi biznes imkoniyatlari yaratadi. Bu obligatsiyalarni ishlab chiqish jarayonida innovatsion yondashuvlar, masalan, davlat-xususiy sherikliklar va hamkorlik, sarmoya kiritishni oshiradi. Yashil obligatsiyalarni chiqarish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan ekologik loyihalar amalga oshiriladi. Bularning barchasi yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim qadamlar hisoblanadi.

Yashil investorlar kapital bozoriga ekologik barqarorlik tamoyillarini olib kiradi. Ular yashil obligatsiyalar va ESG fondlari orqali barqaror moliyalashtirish manbalarini yaratadi. Bu esa investorlar iqlim o‘zgarishiga moslashgan

[37] N.Raxmonqulova. Yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari. // International Journal of Economy and Innovation, Gospodarka i Innowacje, Volume 54, 2024.

kompaniyalar rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ularning sarmoyalari bozor ishtirokchilarini ekologik innovatsiyalarga yo‘naltiradi.

Yashil investorlar ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan investitsiya faoliyatini olib boruvchi sarmoyadorlardir. Ular atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalar, ekologik toza texnologiyalar va barqaror rivojlanishga harakat qilayotgan kompaniyalarga kapitalni yo‘naltiradi. Yashil investorlarning kapital bozoridagi roli bir qator jihatlarda namoyon bo’ladi (1-rasm).



1-rasm. Yashil investorlarning kapital bozoridagi roli[38]

Ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza transport kabi sohalarga sarmoya kiritishni nazarda tutadi. Barqaror investitsiya fondlari yaratish esa yashil obligatsiyalar va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos keladigan fondlar orqali kapital bozorida faoliyat yuritishni ta’minlashga xizmat qiladi. Risklarni kamaytirish ekologik risklarni inobatga olgan holda uzoq muddatli foyda olishni ko‘zlagan holda investitsiyalarni boshqarish masalalarini inobatga oladi.

Yashil investitsiya vositalari barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ular atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni kamaytirishga yo‘naltirilgan. Yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun muhim vositalardan biridir. ESG fondlari barqaror kompaniyalarga sarmoya kiritish orqali ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni oshiradi. Yashil investitsiyalar uzoq muddatli foyda va kam xavf bilan tavsiflanadi. Ular qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantiradi. Yashil aksiyalar investorlarni ekologik jihatdan barqaror bizneslarga jalb etadi. Bu investitsiyalar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Yashil venchur kapitali innovatsion ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishga yordam beradi. Umuman olganda yashil investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlashga xizmat qiladi.

[38] Muallif ishlanmasi

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Shomurodova Shokira Shavkat qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi

Bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo‘lgan tadbirkorlik har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Mustaqillikdan so‘ng O‘ zbekiston iqtisodiyotni tubdan isloh qilish va bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lini tanladi. Ushbu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Tadbirkorlik iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, aholi daromadlarini oshiradi hamda raqobat muhitini shakllantiradi. Shu bois O‘ zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlarini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lib, u mamlakat yalpi ichki mahsulotining oshishi, bandlik darajasining ko‘tarilishi va aholi farovonligining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko‘ rsatadiki, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning asosiy qismini kichik biznes va xususiy sektor tashkil etadi. O‘zbekistonda ham mustaqillikdan so‘ng tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

1. Mustaqillikning dastlabki bosqichi (1991–2000-yillar)

1991-yilda mustaqillikka erishgan O‘zbekiston sobiq markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o‘tish jarayonini boshladi. Bu davrda iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgartirish, xususiy mulkchilikni joriy etish va tadbirkorlik uchun huquqiy asos yaratish asosiy vazifa bo‘ldi.

Mazkur bosqichda:

- Davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni boshlandi;
- “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi;
- Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tartiblari joriy etildi.

Shu bilan birga, yuqori inflyatsiya darajasi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi tadbirkorlik rivojiga ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirdi. Biroq aynan shu davr tadbirkorlikning huquqiy va institutsional poydevorini yaratdi.

2. Barqarorlashuv va tarkibiy o‘zgarishlar bosqichi (2000–2016-yillar)

2000-yillarga kelib mamlakat iqtisodiyotida nisbiy barqarorlik ta’minlandi. Ushbu davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- Soliq tizimini soddalashtirish va yagona soliq to‘lovi joriy etilishi;
- Bank kreditlari ajratish mexanizmlarining kengaytirilishi;
- Qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish;
- Xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish.

Natijada kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi va yangi ish o‘ rinlari yaratishda asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

3. Liberallashtirish va faol islohotlar bosqichi (2017–2020-yillar)

2017-yildan boshlab mamlakatda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar bilan xarakterlanadi.

Ushbu bosqichning muhim jihatlari:

- Valyuta bozorining erkinlashtirilishi;
- Tadbirkorlik subyektlarini tekshirish tartibining qisqartirilishi;
- Davlat xizmatlarining “yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatilishi;
- Soliq siyosatining liberallashtirilishi;
- Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengaytirilishi.

Mazkur islohotlar natijasida biznes yuritish muhiti sezilarli darajada yaxshilandi va xorijiy investitsiyalar oqimi oshdi.

4. Raqamli va innovatsion rivojlanish bosqichi (2020-yildan hozirgacha)

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Elektron tijorat, startap loyihalar, IT xizmatlari va onlayn platformalar soni ortib bormoqda.

Asosiy tendensiyalar:

- Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi;
- IT-parklar va texnoparklar tashkil etilishi;
- Yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari;
- Kredit va subsidiyalar ajratish tizimining kengaytirilishi.

Pandemiya sharoitida tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rsatildi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim omil bo‘ldi.

Tadbirkorlik rivojlanishining muammolari va istiqbollari

Bugungi kunda tadbirkorlik rivojiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim omillar ham mavjud: infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayrim hududlarda byurokratik to‘siqlar va malakali kadrlar tanqisligi.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish;
- Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish;
- Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- Raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy o‘sish bo‘yicha qo‘shimcha manbalar yaratilishiga, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ma’lum darajada bartaraf etilishiga, ishchi kuchi ish bilan ta’minlanishiga, milliy boylik ortishiga, aholi turmush darajasi yuksalishiga, pirovard natijada o‘rta mulkdorlar sinfi ko'payishiga olib keladi. O‘zbekistonda tadbirkorlik rivoji mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi kuchiga aylandi. Dastlabki huquqiy asos yaratish davridan tortib, liberallashtirish va raqamli transformatsiya bosqichigacha bo‘lgan jarayonlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili bo‘lib xizmat qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ish joylariga talab yuqori bo‘lgan davlatimiz uchun eng kam xarajat sarflab, yangi ish o‘rinlarini ochish, mahalliy bozorlarimizni mahsulotlar bilan to‘ldirish, aholi daromadlarini o‘ stirish va davlat budjetiga soliq tushumlari tushishi manbalaridan biri bo‘lib qoladi. Kelgusida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion faoliyatni rag‘ batlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichlariga ko‘ tarilishi mumkin.

МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ ВА ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Жумаев Самариддин Зиядуллаевич
“Деҳқонобод калий заводи” АЖ Бош ҳисобчиси

Молиявий бошқарув мамлакатнинг иқтисодий тараққиётида ва унинг ривожланишида катта роль ўйнайди. Мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти учун зарур бўлган молиявий ресурсларни соғломлаштиришга

қаратилган муносабатлар тизимини такомиллаштириши ва бу ресурслардан самарали ҳамда оқилона фойдаланиш устидан назоратни олиб бориши молиявий бошқарув деб юритилади.

Молиявий бошқарув тизими мураккаб жараён бўлиб, унда бошқариладиган (объектлар) ва бошқарадиган (субъектлар)дан иборатдир. Молиявий бошқарувнинг объектлари сифатида молиявий муносабатларнинг турли кўринишлари тақисмлаш ва қайта тақсимлаш жараёнларини ўз ичига олса, молиявий бошқарувнинг субъектлари уни бошқарувчи сифатида намоён бўлади. Бугунги кунда иқтисодий ривожланишни таъминлаш учун молиявий тузилмалар фаолиятини самарали ташкил этиш мақсадида қатор ислоҳатлар ўтказилмоқда. Жумладан, молиявий бошқарувнинг замонавий стандарт ва усулларини жорий этиш, уларнинг функция ва вазифаларини бажарилиши, давлат бюджети тақчиллигини олдини олиш, бюджет даромадларини оширишда тизимли ишлар ташкил этилди.

Молиявий бошқарув орқали компания қийматининг ошиши асосон фойда олишнинг ошишиш ва ундан самарали фойдаланиш механизмида намаён бўлади.

Молиявий бошқарув - бу алоҳида иқтисодий тузилмаларнинг молиявий фаолиятини онгли равишда бошқариш жараёни бўлиб, унинг асосий мақсади самарадорликни ошириш ҳисобланади.

Молиявий бошқарув корхона фаолиятининг барча босқичларида молиявий ресурсларни тўплаш ва улардан оқилона фойдаланиш бўйича илмий асосланган ва амалга оширилган қарорлар қабул қилишга қаратилган ташкилотнинг умумий фаолиятидир. Унинг устувор вазифаси – бу барқарор молиявий ҳолатга ва узоқ муддатга мўлжалланган молиявий натижаларга эришиш асосида ташкилотнинг молиявий хавфсизлигини таъминлашдир.

Молиявий бошқарув ташкилотнинг иқтисодий ва молиявий фаолиятини бошқариш тизимининг муҳим қисмидир. Унинг фаолият доираси асосан молиявий оқимларнинг кирим ва чиқимини шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш жараёнида юзага келадиган молиявий жараёнларни қамраб олади.

Молиявий бошқарувнинг асосий инструментлари асосан пул маблағлари, унинг ёрдамида молиявий ресурсларнинг тақсимланиши ва қайта тақсимланиши ҳамда уларнинг айланиши аниқланади, шунингдек ташкилотнинг молиявий натижалар ва унинг молиявий ҳолати барқарорлиги баҳоланади.

Корхона молиясини самарали бошқариш учун муайян принципларга асосланган замонавий бошқарув тизимидан фойдаланиш зарур.

Биринчидан, иқтисодий самарадорлик принципи асосида компанияда молиявий бошқарув тизимини етарли даражада ушлаб турилиши ва қандайдир даромад (даромад) билан қопланиши керак бўлган харажатларни ўз ичига олиши;

Иккинчидан, корхонанинг стратегик ривожланиш мақсадларида унинг ўз маблағлар манбалари таркибида қарз маблағлари миқдорини ошириш бўлади. Ушбу стратегия турли иқтисодий рискларни камайтиришни талаб

қилади ва корхонанинг ўз капиталига эътибор қаратиши ҳамда доимий харажатларни камайтиришга ҳаракат қилишини таъминлашди.

Учинчидан, юқори бошқарув динамикаси (мослашувчанлик) - молиявий менежер ташқи муҳитда (сиёсат, иқтисодиёт, бозор тизими) содир бўлаётган ўзгаришларга жуда тез муносабатда бўлиши ва вазиятга мос келадиган молиявий бошқарув усуллари ва моделларини қўллаши керак.

Тўртинчидан, корхона молиясини бошқаришда у ёки бу самарали бошқарув қарорини қабул қилишда фаолиятнинг турли соҳаларида иқтисодий ўсишни таъминлашини ҳисобга олиши керак.

Ривожланган мамлакатларда иқтисодий ресурслардан оқилона фойдаланиш, аҳоли даромадларини ошириш, товар-пул муносабатларини самарали ташкил этиш, молиявий ресурсларини тақсимлаш ва уларни қайта тақсимлаш жараёнлари молиявий бошқарув тизими ҳисобланади.

Жамият тараққиётининг турли босқичларида марказлаштирилган ва марказлаштирилмаган пул фондларининг шакллантирилиши, тақсимланиши ва фойдаланилишига оид иқтисодий муносабатларни ўрганган молия фани иқтисодчи-олимлар томонидан амалга оширилган тадқиқотлар таъсирида шаклланди. Иқтисодчи-олимлар томонидан молияга оид ишлаб чиқилган назарий қарашлар молиявий қонунчилик ва давлат фискал сиёсатининг асоси эканлиги билан изоҳланади.

Юқоридагилар асосида хулоса қилиб айтиш мумкинки, молия бошқарув тизимисиз давлат иқтисодиётини такомиллаштириш ва уни ривожлантириш имкони йўқ. Давлат молиясини бошқариш давлатнинг иқтисодий ва ижтимоий-сиёсатини олиб бориш орқали амалга оширилади. Бунда асосан маблағларнинг етарли бўлиши, маблағлар мақсадли ва самарали сарфланиши, маблағлар харажатлари натижали бўлиши лозим. Шунингдек, Давлат молия сиёсати солиқ-бюджет сиёсати ва монетар (пул агрегатлари) сиёсатни бирлаштирган ҳолда жорий қилиш орқали амалга оширилади. Молия тизимининг асосий бўғини бўлган бюджет даромадларини ошириш харажатлар натижадорлигига эришиш, тегишли соҳаларни молиялаштиришнинг янги турларини жорий этиш орқали бюджет самарадорлигини ошишига хизмат қилади.

Бундан ташқари мамлакатимиз иқтисодиётда молия бозорини шаклланиши ва унинг устувор йўналишларининг кенг жорий этиш, бунинг натижасида капитал ва фонд бозорлари инструменларини ошириш ҳисобига миллий иққтисодиётнинг ривожланиши, аҳоли даромадларининг кўпайиши, корхона ва корпорацияларнинг эса қўшимча маблағлар жалб этишига замин яратади. Бунда иқтисодий муносабатлар нафақат пул, балки бошқа турдаги молиявий инструментлар, жумладан, қимматли қоғозлар орқали ҳам савдо қилиш имкониятини яратади.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYA MAHSULOTI – “YASHIL SUKUK”NI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Muhiddin Bektemirov

Islom moliya sanoati jadallik bilan rivojlanib bormoqda. “Islamic Finance Global Market Report 2025” ma’lumotlariga ko’ra, Islom moliya bozori hajmi 2024 yilda 7,99 milliard AQSH dollaridan 2025 yilda 8,94 milliard AQSH dollarigacha o‘sishi hamda va yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati (CAGR) 11,9% bo‘lishi kutilmoqda[39].

Albatta, bunday o’sish bir qator omillarga asoslanadi, xususan, Islom moliyasiga muvofiq moliyaviy mahsulot va xizmatlarga talabning ortishi, xatarlarni taqsimlash tamoyillarining moliyalashtirish jarayonida muhim o‘rin egallashi, islomiy bank xizmatlariga kiritilayotgan sarmoyalar ko‘payishi, ESG (atrof-muhit, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv) tamoyillariga asoslangan moliyaviy aktivlarning ommalashishi, fintex (moliyaviy texnologiyalar) integratsiyasining kengayishi, Sukuk (islomiy qimmatli qog’ozlar) bozorining jadallashuvi kabilar bunga misol bo’la oladi.

Shu o’rinda, Sukuk, ya’ni an’anaviy obligatsiyalarga muqobil instrument bo’lgan islomiy qimmatli qog’ozlar nima, degan savol bo’lishi mumkin. AAOIFI xalqaro standartlariga ko’ra, Sukuk – bu bir xil qiymatdagi sertifikatlar bo’lib, ma’lum bir investitsion faoliyat yoki ma’lum bir loyihadagi aktivlarga umumiy holda egalik qilish, xizmatlardan foydalanish, moddiy aktivlarga egalik qilish va foydalanish kabi huquqlarni o’zida mujassam etadi[40].

Soddaroq qilib aytganda, sukuklar oddiy aksiya va obligatsiyalarning ayrim jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan islom qimmatli qog‘ozi hisoblanadi. Sukuk chiqaruvchi uni sarmoyadorlarga sotadi va undan tushgan pul mablag‘larini ma’lum bir loyihani moliyalashtirishga yo‘naltiradi. Sarmoyador va sukuk chiqaruvchi (emitent) ushbu loyiha foydasidan manfaatdor hisoblanadi va sof foyda avvaldan belgilangan ulushda taqsimlanadi.

“Sukuk” tushunchasiga jahonning turli olimlari o‘zlarining ta’riflarini berishgan. Islom moliyasining mashhur olimlaridan Muhammad Taqiy Usmoniy sukuk va uning xususiyatlarini yoritib beruvchi quyidagi mulohazalarni bildirgan[41]:

– bir investor kuchi yetmaydigan katta loyihalarni moliyalashtirishning qulay usullaridan biri;

– investitsiyalarni yo‘naltirish va likvidliligi sabab zarur holda investitsiyani qaytarib olish uchun qulay vosita, shu orqali ikkilamchi bozor ham rivojlanadi;

– banklar va islom moliya muassasalari uchun likvidlikni boshqarishning yaxshi usuli;

– boyliklarni taqsimlashning adolatli vositasi, chunki u sarmoyadorlarga tadbirkorlik faoliyati foydasidan teng ulushda manfaat olish imkonini beradi.

Taniqli olim Ibrahim Varde sukuklar shariat tamoyillariga muvofiq keluvchi investitsiya sertifikatlari deyish mumkin, deb aytgan[42].

---

[39] https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/islamic-finance-global-market-report

[40] www.aaoifi.com

[41] Usmani, Muhammad Taqi. “Sukuk and their contemporary applications. (2007)” Translated from the original Arabic by Sheikh Yusuf Talal DeLorenzo, AAOIFI Shari’a Council meeting, Saudi Arabia. p2

[42] Warde, Ibrahim, 2011, Islamic finance bankruptcy, financial distress and debt restructuring: A short report, (Harvard Law School, Cambridge). p3.

Rossiyalik iqtisodchi olim G.Gafurova talqiniga ko‘ra, sukuklar moliya tizimida an’anaviy obligatsiyalar o‘rnini to‘ldirish uchun ishlab chiqilgan vosita bo‘lganligi uchun uning mazmunida “islom obligatsiyasi” tushunchasidan foydalanishni asoslaydi. Rasmiy jihatdan sukukni to‘laqonli obligatsiya deb atash mumkin emas. Uning an’anaviy obligatsiyalardan farqlari bor[43]. Umuman, sukuklarni obligatsiya sifatida ta’riflash uning mohiyatini yetarli darajada yoritib bera olmaydi. Chunki obligatsiya tushunchasi qarz uchun haq to‘lash tasavvurini uyg‘otadi va bu riboni anglatadi. Natijada esa, sukuk mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi.

Sukuk chiqaruvchi muassasa sukuk sertifikatlarini sarmoyadorlar guruhiga sotadi va undan tushgan mablag‘larni biror mulk (aktiv)ni sotib olishga yoki ma’lum bir loyihani amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Shunday qilib sukuk – ko‘pgina sarmoyadorlar tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda o‘z egasining (ya’ni sukuk sertifikatini sotib olgan tomonning) umumiy loyiha sarmoyasidagi hissasini va olinadigan foyda yoki zararda sarmoyadorning ulushini ifoda etuvchi hujjat hisoblanadi.

Tarixan, sukuklar rivojlanishi uchun bir qancha bosqichlarni bosib o’tgan. Quyidagi 1-rasmda VII asrdan hozirgi kunimizgacha Sukukning rivojlanishidagi 5 ta bosqich va ulardagi asosiy xususiyatlar keltirib o’tilgan.

[43] Гафурова Г.Т. Сукук в системе исламского финансирования. // Вестник АГТУ. Экономика. 2011. №2 С90.



1-rasm. Sukukning rivojlanish tendensiyasi[44]

Sukuklar iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab olishi mumkin. Agar sukuk chiqarish uchun asos bo'layotgan loyiha "yashil iqtisodiyot" bilan bevosita bog'liq bo'lsa, bunday sukuklar "yashil sukuklar" deb nomlanadi. Boshqacha aytganda, Yashil sukuk – bu qayta tiklanadigan energiya va boshqa ekologik aktivlarga investitsiyalar kiritishdir. Quyosh, shamol va biogaz energiyasini yaratish, elektrmobillar ishlab chiqarish kabi ekologik yo'nalishlar yashil sukukning aktivlaridir.

Tabiiy boyliklarni tejash, xavfsiz ekologiyani ta'minlash va qayta tiklanadigan energiya resurslarini yaratish orqali insonlarning talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bugungi kunning dolzarb mavzulariga aylanib bo'lgan[45].

[44] Muallif tomonidan tayyorlandi
[45] https://kun.uz/58004341

Dunyo bo’ylab yashil sukuklarni chiqarishga bo’lgan qiziqish yuqori suratlarda oshib bormoqda. Xususan, yashil sukuklar emissiyasi 2024-yilning dastlabki to‘qqiz oyida 11,9 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 18% ga ko‘pdir[46].

O‘zbekistonda ham yashil sukuklarni chiqarish bo‘yicha yetarli darajada imkoniyatlar mavjud. Xususan, mamlakatda yilning 250-300 kuni quyoshlidir. Bu esa aholi va ishlab chiqaruvchilarni doimiy ravishda energiya bilan ta’minlash imkonini beradi. Quyosh panellaridan iborat hududlar tashkillashtirish bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishda esa aynan yashil sukuklardan foydalanish mumkin. Shuningdek, doimiy shamol esib turadigan hududlarda shamoldan quvvat olish, qoramol, go‘sht va sut yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi yirik fermalarda biogaz ishlab chiqarish, elektrda harakatlanuvchi transport vositalari ishlab chiqarish bilan bog‘liq yirik loyihalarni ham budjet mablag‘lari hisobidan emas, sukuklar chiqarish hisobiga moliyalashtirish mumkin. Albatta, bu xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ham yordam beradi.

Shuningdek, yashil sukuklardan O‘zbekiston sharoitida chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish, Orolbo‘yi muammolarini hal qilish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish, qishloq joylarida toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, oqava suvlar infratuzilmasini yangilash loyihalarida foydalanish mumkin.

Mamlakatimizda ham islomiy qimmatli qog’ozlar – sukuk bozorini rivojlantirish ustida ishlar 2019 yilda boshlangan bo’lib, hozirgi kunga qadar bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi:

2019 yil 9-aprelda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi direktori Otabek Nazirov Islom taraqqiyot bankining Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD) «Sukuk va kapital bozori» dasturi rahbari Tariq Malaik bilan islom moliyasi mahsulotlari, shu jumladan sukukni O‘zbekistonda ham tatbiq etish imkoniyatlari to‘g‘risida suhbat uyushtirgan edi[47].

2020 yil 20-iyunda taniqli Bloomberg nashrida «O‘zbekiston «yashil» obligatsiyalar bozorini egallashni rejalashtirmoqda» sarlavhasi ostida maqola chop etildi[48].

2020 yil 16-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, BMT Taraqqiyot dasturi hamda Islom taraqqiyot banki yurtimizda «yashil» sukuk chiqarish bo‘yicha o‘zaro shartnoma (Statement of Intent) imzoladilar[49].

2020 yil 12-oktyabrda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog‘ozlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori loyihasi ommaviy muhokamaga joylashtirildi[50].

---

[46] https://www.zawya.com/en/economy/islamic-reports/green-and-sustainability-sukuk-update-crossing-borders-ptk5zhrq?utm_source

[47] https://t.me/CMDAuz/56

[48] https://www.bloomberg.com/news/articles/2020-06-29/bond-market-newbie-aims-big-with-plans-for-islamic-green-debt

[49] https://t.me/CMDAuz/399

[50] https://regulation.gov.uz/uz/document/23150

2021 yil 3-aprelda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma’lum qilishicha, islom moliyasi tamoyillari asosida sukukni, xossatan, «yashil» sukukni amaliyotga joriy etish maqsadida Islom taraqqiyot banki va BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan agentlikka mos ravishda 220 ming va 100 ming AQSH dollari miqdorida grantlar ajratildi[51].

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son farmonida “Kapital bozoridagi taklifni oshirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida:

mavjud obligatsiya turlarini ipoteka qimmatli qog‘ozlari va «Sukuk» obligatsiyalari kabi yangi turlarini joriy etish orqali diversifikatsiya qilish” bandi kiritildi.

2024 yil 17-18-oktyabrda Toshkentda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (Agentlik), Islom taraqqiyot banki, BMT TD hamda Istanbul Xususiy sektorni rivojlantirish xalqaro markazi (ICPSD) hamkorligida tashkil etilgan O‘zbekistonda islom moliyasi va sukuk/yashil sukuk bo‘yicha ikki kunlik trening tashkil qilindi[52]. Ushbu treningda ishtirokchilarga islom moliyasi va sukuk/yashil sukuk sohasidagi asosiy tushunchalar, ilg‘or xalqaro tajribalar va so‘nggi ishlanmalar, sukuk va yashil sukukning o‘ziga xos xususiyatlari, sukukning turlari, ularning asosiy shartnomalari, tuzilmalari taqdim etildi, O‘zbekistonda sukuk chiqarish bo‘yicha meyoriy-huquqiy bazani yaratish istiqbollari, uning xalqaro tamoyillar va standartlarga muvofiqligi, tashqi ekspertiza va hisobotlarning ahamiyati muhokama qilindi.

Xulosa qilib aytganda, yashil sukuk atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan islomiy obligatsiya bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotiga bir qancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida uning asosiy foydalari keltirilgan:

1. Barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash

Yashil sukuk mablag‘lari ekologik toza energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish va barqaror transport loyihalariga yo‘naltiriladi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

Global investitsiya bozorida barqaror moliyaviy vositalarga talab ortib bormoqda. Yashil sukuk chiqarish orqali mamlakat o‘ziga xalqaro investitsiyalarni jalb qilishi va kapital oqimini oshirishi mumkin.

3. Atrof-muhit muhofazasini rag‘batlantirish

Yashil sukuk faqatgina barqaror va ekologik loyihalar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgani sababli, u ifloslanishni kamaytirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va yashil texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Bandlikni oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish

Ekologik loyihalar, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya inshootlari, yashil infratuzilmalar va ekologik innovatsiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

---

[51] https://telegra.ph/AGENTSTVO-PO-RAZVITIYU-RYNKA-KAPITALA-PODPISALO-SOGLASHENIE-S-ISLAMSKIM-BANKOM-RAZVITIYA-I-PROON-PO-VNEDRENIYU-CENNYH-BUMAG-SUKU-04-02

[52] https://napp.uz/oz/news/islom-moliyasi-va-sukuk-yashil-sukuk-trening

5. Moliyaviy bozorni diversifikatsiya qilish

Yashil sukuk an’anaviy moliyalashtirish vositalariga nisbatan muqobil bo‘lib, moliyaviy bozorni diversifikatsiya qiladi va iqtisodiy tizimga barqarorlik olib keladi.

7. Davlat byudjeti yukini kamaytirish

Hukumatlar yashil infratuzilma va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun budjet mablag‘lariga to‘liq tayanmasdan, xususiy investorlar va xalqaro moliyaviy institutlarning mablag‘laridan foydalanishi mumkin.

8. Kichik va o‘rta biznes (KOB) rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash

Yashil sukuk orqali moliyalashtiriladigan loyihalar ko‘pincha kichik va o‘rta korxonalar uchun imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, ekologik innovatsiyalar va barqaror biznes modellarni qo‘llab-quvvatlash orqali KOB rivojlanadi.

Yashil sukuk mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli barqarorlik, ekologik tozalik va moliyaviy inklyuzivlikni olib kiradi. U iqtisodiy o‘sish bilan birga, atrof-muhit muhofazasiga ham hissa qo‘shuvchi vosita bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab davlatlar tomonidan qo‘llanilmoqda.

АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ

Зулфикарова Дилфуза Гуломжановна
Наманган муҳандислик-технология институти таянч докторанти

Тадбиркорлик субъектлари, хусусан аёллар тадбиркорлиги маълум бир иқтисодий-молиявий ва бошқа омиллар таъсирида шаклланади. Фикримизча, булар бир ёки бир нечта кўрсаткичларга таъсир этувчи ички ва ташқи элементлардир. Уларни даражаларига кўра омиллар биринчи, иккинчи, учинчи тартибли омиллар мавжуд бўлиб, улар бир-биридан фарқ қилади. Иқтисодий таҳлилда самарадорликни ошишига таъсир қилувчи омилларни турли мезонларга кўра таснифланади. Демак, улар умумий бўлиб, бир қатор кўрсаткичларга таъсирини ўтказади. Кўпгина омилларнинг хусусияти алоҳида кўрсаткичлар ўртасида мавжуд бўлган муносабатлар ва ўзаро шартлилик билан изоҳланади.

В.Ю.Глебов[53] фикрига қараганда, ишлаб чиқаришнинг самаралилигига таъсир этувчи асосий омил бу ички омиллардир. Аниқланишича, корхона самарадорлигига таъсир этувчи миқдорий қийматларнинг 85 фоизи ички омилларга, атига 15 фоизи ташқи омиллар ҳиссасига тўғри келади. Ички ва ташқи омиллар биргаликда натижадорликни мужассам этувчи муҳими, яхлит бир тизимни юзага келтиради. Ташқи омиллар ички омилларнинг самарадорликка таъсирини кучайтириши ёки аксинча сусайтириши мумкин. Ички омиллар ҳам ҳудди шу каби ташқи омилларнинг самарадорликка таъсирини кучли ёки сустлигини аниқлайди. Бозор иқтисодиёти тамойиллари шароитида ички ва ташқи омиллар тизимидаги муносабатларнинг

[53] Курносова Е.А. Основные факторы повышения эффективности предприятий легкой промышленности // Вестник Самарского государственного университета. Серия «Экономика и управление». 2015. № 9/1 (131). С. 130–136

ривожланиши ишлаб чиқаришга ижобий таъсир этиши саноат ҳамкорлигининг янги шаклларининг пайдо бўлишига туртки бўлади.

Ички омиллар асосан ишлаб чиқаришнинг самарали ишлашини таъминловчи асосий таъсир куч ҳисобланади ҳамда корхона томонидан бошқарилади. Бошқарув хусусиятига кўра иккига бўлинади: асосий бўлган ва асосий бўлмаган. Ташқи омиллар эса кам назорат қилинади ёки умуман назорат қилинмайди. Асосий ички омиллар корхона фаолияти натижаларини назарий жиҳатдан аниқлайдиган омиллардир. Асосий бўлмаган ички омиллар эса умумлаштирувчи кўрсаткичларга таъсир қилса ҳам, кўриб чиқилаётган кўрсаткичнинг мазмун-моҳиятига бевосита боғлиқ бўлмайди. Масалан, корхонада иқтисодий ва технологик интизомнинг бузилиши бунга мисол бўла олади. Ташқи омиллар корхона фаолиятига таъкидланганидек нисбатан боғлиқ бўлиб, корхонанинг ишлаб чиқариш, яъни моддий ва молиявий ресурслардан унумли фойдаланиш даражасини миқдорий жиҳатдан белгилайди[54].

Аёллар тадбиркорлигига таъсир этувчи омиллар, таркиби қуйидаги гуруҳларга бўлинди (1-жадвал).

1-жадвал

Аёллар тадбиркорлик фаолиятига таъсир этувчи омиллар[55]

Т/Р	Омиллар	Таркиби
1	Ички омиллар	- Тадбиркор аёлнинг ёши; - Маълумоти; - Бизнес юритишда янги ғояларни қўллаш; - Тадбиркор аёлларнинг бошқарув қобилияти; - Шахсий фазилатлари; - Тадбиркор аёллар корхоналарининг техник-технологик таъминланганлик ҳолати; - Мавжуд меҳнат шароитлари;
2	Ташқи омиллар	- Географик жойлашуви; - Атрофда шаклланган бозор муҳити; - Маҳаллий бозорда рақобатнинг мавжудлиги; - Тадбиркор аёлларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш; - Давлатнинг молиявий, иқтисодий ва солиқ сиёсати; - Молиялаштириш ва кредит олишнинг қулайлик даражаси; - Аёллар тадбиркорлигига нисбатан турли стереотипларнинг мавжудлиги;

Аёллар тадбиркорлигининг ривожланишига таъсир этувчи омилларнинг даражаси қай ҳолатда эканлигини аниқлаш мақсадида фаолият билан бевосита ва билвосита боғлиқ бўлган муассаса, ташкилот, олий таълим, тадбиркор аёллардан иборат тажриба ўтказувчи гуруҳлар ўртасида сўровнома ўтказилди. Бунда омилларнинг тадқиқот объектига таъсир этишининг аниқлик даражаси қай ҳолатда эканлигини методологик жиҳатдан бир неча субомилларга бўлган

[54] Курносова Е.А. Основные факторы повышения эффективности предприятий легкой промышленности // Вестник Самарского государственного университета. Серия «Экономика и управление». 2015. № 9/1 (131). С. 130–136

[55] Тадқиқот кузатуви натижалари асосида муаллиф ишланмаси

ҳолда ўргандик. Олий таълим муассасалари ўртасида ўтказилган сўровнома саволларига белгиланган балларни жамлаб гуруҳлаштирган ҳолда таҳлил қилдик. Таҳлил натижаларини қуйидаги жадвалда кузатиш мумкин (2-жадвал).

2- жадвал

Аёллар тадбиркорлигига таъсир этувчи омилларнинг гуруҳланиши[56]

Гуруҳлар	Омиллар тартиби	Омилларнинг таркиби
1	1, 6, 10	- География жойлашуви; - Аёл тадбиркорларнинг шахсий фазилатлари; - Давлатнинг умумий молиявий, иқтисодий ва солиқ сиёсати;
2	8, 9, 14	- Маҳаллий бозорларда рақобатнинг мавжудлиги; - Тадбиркор аёлларнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши; - Тадбиркор аёлларга нисбатан турли стереотипларнинг мавжудлиги;
3	5, 7, 11	- Тадбиркор аёлларнинг бошқарув қобилияти; - Туманда шаклланган бозор муҳити
4	2, 4, 12, 13	- Тадбиркор аёллар таркибида ёшлар улуши даражаси; - Бизнес юритишда янги ғояларнинг қўлланилиши; - Тадбиркор аёллар корхоналарида техник-технологик таъминланганлик ҳолати даражаси; - Корхоналардаги мавжуд меҳнат шароитлари;
5	3	- Маълумоти.

Жадвал маълумотларига таянган ҳолда шуни таъкидлаш жоизки, улар аёллар тадбиркорлигига энг юқори таъсир қилувчи омиллар, булар географик жойлашуви, аёл тадбиркорларнинг шахсий фазилатлари ҳамда давлат томонидан олиб борилаётган молиявий, иқтисодий ва солиқ сиёсати деб баҳолашган. Навбатдаги омил маҳаллий бозорларда рақобатнинг мавжудлиги, тадбиркор аёлларнинг давлат томонидан қонун, қарор, фармон ва бошқа меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар билан қўллаб-қувватланиши, тадбиркор аёлларга нисбатан турли стереотипларнинг мавжудлиги каби омиллар эканлигига алоҳида урғу беришган. Энг қуйи таъсир этувчи омил тадбиркор аёллар таркибида ёшлар улуши даражаси, бизнес юритишда янги ғояларнинг қўлланилиши, тадбиркор аёллар корхоналарида техник-технологик таъминланганлик ҳолати даражаси ҳамда корхоналардаги мавжуд меҳнат шароитлари деб респондентлар жавоб беришган. Уларнинг баҳолаган балларидан шундай хулосага келиш мумкинки, тадбиркор аёллар ўз бизнесларини ташкил этиш ва ривожлантириш учун аввало, уларга қулай шарт-шароитга эга бўлган манзил ва маконнинг мавжуд бўлиши керак. Албатта тадбиркорлик фаолиятини мазкур йўналиш бўйича ривожланаётган ҳудудлар танлаб олинади. Уларнинг фикрича, тадбиркор аёллар геонрафик

[56] Олий таълим муассасалари экспертлари билан олиб борилган сўровнома натижалари асосида муаллиф ишланмаси

манзилига кўра жойлашган, ўзининг ижобий шахсий фазилатларига эга бўлиши, тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қуватловчи, тартибга солувчи давлатнинг кучли сиёсатининг мавжуд бўлиши энг асосий таъсир этувчи омиллар ҳисобланади. Сўнгги йилларда тадбиркор аёлларимиз учун кенг шарт-шароит, имкониятлар яратилди. Уларнинг конституцион ҳуқуқлари, бурчлари ва имкониятлари, тадбиркорлик фаолиятига давлат ва нодавлат ташкилотларининг рухсатсиз аралашувига чек қўйилди. Давлатимизнинг янги таҳрирдаги асосий қонуни Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда бир қатор қонун ва қонуности ҳужжатларида мустаҳкамлаб белгилаб қўйилган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, тадбиркорлик субъектлари, хусусан аёллар тадбиркорлиги маълум бир иқтисодий-молиявий ва бошқа омиллар таъсирида шаклланади. Фикримизча, булар бир ёки бир нечта кўрсаткичларга таъсир этувчи ички ва ташқи элементлардир. Уларни даражаларига кўра омиллар биринчи, иккинчи, учинчи тартибли омиллар мавжуд бўлиб, улар бир-биридан фарқ қилади. Иқтисодий таҳлилда самарадорликни ошишига таъсир қилувчи омилларни турли мезонларга кўра таснифланади. Демак, улар умумий бўлиб, бир қатор кўрсаткичларга таъсирини ўтказади. Кўпгина омилларнинг хусусияти алоҳида кўрсаткичлар ўртасида мавжуд бўлган муносабатлар ва ўзаро шартлилик билан изоҳланади. Тадқиқот натижалари аёллар тадбиркорлигини самарали ташкил этиш ва ривожлантириш учун уларнинг шахсий фазилатлари, инфратузилмалар етарли даражада ривожланган ҳудуд ҳамда давлатнинг уларнинг тадбиркорлик фаолиятларини ҳар томонлама қўллаб-кувватлаши зарурлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.03.2019 йилда қабул қилинган “Аёлларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4235 сонли Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 13.10.2020 йилда қабул қилинган “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4862 сонли Қарори.

3. Курносова Е.А. Основные факторы повышения эффективности предприятий легкой промышленности // Вестник Самарского государственного университета. Серия «Экономика и управление». 2015. № 9/1 (131). С. 130–136

4. Уткина Н. Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России // Женщина в российском обществе. 2017. №1(82). С. 17–27

5. Московцева Л. В. Социально-экономические условия женского предпринимательства в российском малом и среднем бизнесе // ФЭС: Финансы. Экономика. 2011. №8. С. 12–14.

6. Гильманова Г. Х. Женское предпринимательство: основные факторы и мотивационные установки // Неравновесный подход в анализе экономики: теория и практика: материалы все российской научно-практической конференции / под общ. ред. Р. М. Зиязетдинова. Уфа: Башкирский государстве. 2006. С. 230—233.

7. Калабихина И.Е. Факторы домохозяйства и занятость женщин. В сборнике: Экономика домашних хозяйств. Москва, 1997. С. 134-176.

8. Норсун Т.А. Развитие женского предпринимательства на современном этапе. Вестник Забайкальского государственного университета, 2016 г. С. 107-113.

9. Самедова Э.Р. Развитие женского предпринимательства в Азербайджане. Российское предпринимательство. Издательство Креативная экономика. Том 18, № 9, май 2017 г. С. – 1495.

10. Семенова Ю.А. Женское предпринимательство в современном российском обществе: особенности и перспективы. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Социология. Политология. Издательство: Саратовский национальный исследовательский государственный университет имени Н. Г. Чернышевского (Саратов), Том 14, №2, 2014 г. С. 17-19.

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Choriyev Sherzod Abdurasulovich
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Insoniyat so'ngi yigirma yillikda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilmaxillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi singari juda ko'plab dolzarb hisoblangan muammolarga duch kela boshladi. Ushbu tizimli global muammolarning barchasi uzviy bog'liq bo'lganligi bois, ularni alohida hal etib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ushbu muammolarga ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan yondoshgan holatda yechim izlashni taqazo etadi. Shu boisdan oxirgi yillarda "yashil iqtisodiyot", "yashil budjetlashtirish" kabi iboralarni ko'p bora eshitib kelmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori bilan "O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlari belgilandi.

Mazkur Qarorga ko'ra 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan bo'lib, "2030 yilgacha

O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash” dasturi qabul qilindi.

Mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazish doirasida avvalgi amalga oshirilgan qator ilmiy izlanishlar natijalari o‘rganib chiqildi. Jumladan M.A. Guryeva o‘zining tadqiqotlarida “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirshda bir qator muammolarni keltirib, ularning yechimlari sifatida atrof – muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatganlik uchun jarimalarni joriy etish, zaxarli moddalarni chiqarishni kamaytirish, atrof-muhitga yetkazilgan zararni tiklash amaliyotini joriy etish zarurligini aytib o‘tgan. Mazkur chora – tadbirlarni amalga oshirish aholi farovonligi va yashash sifatini oshirishga olib keladi. Yashil iqtisodiyot insonlarni sof ekologik xizmatlar va mahsulotlardan foydalanishiga yordam beradi [Guryeva M. 2015].

1-jadval

Surxondaryo viloyatida 2024 yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili

T/r	Tumanlar nomi	Tomchilatib sug’orish	Yomg’irlatib sug’orish	Diskret sug’orish	Yerlarni lazer tekislash	Plyonka to’shab sug’orish
1	Angor	1125	88	1000	4762	450
2	Bandixon	273	22	76	3300	270
3	Boysun	-			200	60
4	Denov	695	214	24	4750	645
5	Jarqo’rg’on	544	-	366	4900	570
6	Qiziriq	379	-	384	6700	30
7	Qumqo’rg’on	476	55		3925	360
8	Muzrabot	470	411	20	5500	420
9	Oltinsoy	156	75	50	3491	210
10	Sariosiyo	182	80		2804	255
11	Termiz	187	100	56	2643	285
12	Uzun	181	99		2455	375
13	Sherobod	796	16	112	8200	420
14	Sho’rchi	356	524	465	3200	540
	Jami	**5820**	**1684**	**2554**	**56830**	**4890**

Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma’lumoti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarorining ijrosi yuzasidan Surxondaryo viloyatida ko’pgina loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan:

1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish loyihasi bo’yicha. Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 2030-yilga qadar 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish maqsad qilib olingan. Shu jumladan viloyatda hozirda **5820 gektar** yer maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalari, **1684 gektar** yer

maydonlarida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalari qo‘llanilgan. Bundan tashqari yerlarda suv sarfini yanada kamaytirish, suvdan oqilona foydalanish maqsadida **56830 gektar** yer maydonlarida lazerli tekislash ishlari olib borilgan.

2.Yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish loyihasi bo’yicha.

Viloyatning shahar va tumanlarida yashil maydonlarni kengaytirish maqsadida 2024-yilda **6593 ming tup** ko‘chat ekildi. *(yillik rejaga nisbatan 3 foizga ko‘p).*

2-jadval

Surxondaryo viloyatida 2024 yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar to’g’risida ma’lumot

T/R	Tumanlar nomi	Reja	Amalda	Foizda
1	Bandixon tumani Angor tumani	347.9 388.2	387.0 412.0	111.2 106.1
3	Sherobod tumani	438.4	440.0	100.4
4	Sho'rchi tumani	421.6	446.7	106.0
5	Uzun tumani	491.8	511.3	104.0
6	Termiz tumani	420.3	423.4	100.8
7	Sariosiyo tumani	501.9	510.1	101.6
8	Qiziriq tumani	374.0	378.2	101.1
9	Qumqo'rg'on tumani	500.7	501.7	100.2
10	Jarqo'rg'on tumani	545.0	550.1	100.9
11	Denov tumani	519.6	546.7	105.2
12	Muzrabot tumani	384.4	393.0	102.2
13	Boysun tumani	375.3	380.6	101.4
14	Oltinsoy tumani	434.0	451.1	103.9
15	Termiz shahri	258.2	262.2	101.5
	JAMI	**6401.3**	**6593.87**	**103.0**

Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma’lumoti

Barqaror rivojlanishga o‘tish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish davrida o‘zgartirish va harakatlanish mexanizmlarini tahlil qilish Yevropa tajribasining mamlakatimiz uchun ayniqsa ahamiyatli bo‘lgan tomonlarini aniqlashga imkon beradi, bu tajribalar jarayonida foydalaniladi.

O‘zbekiston “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni va “yashil” o‘sishni ta’minlashda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun quyidagi maqsadlarni amalga oshirishi lozim:

– Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

– Milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

– Davlat budjeti xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashga o’tish;

– “Yashil” soliqqa tortish paketini ishlab chiqish;

– Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish loyihasini amaliyotga zudlik bilan joriy qilish;

_ Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmida salmog’ini ko’paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari. https://president.uz/uz/lists/view/4633

3. Guryeva, M.A. va Naymushina D.V. (2015). «Zelenaya ekonomika» v Rossii. Teoriya i praktika obshestvennogo razvitiya, №7. B 58-59.

4. Bunevich, K. G. va Gorbacheva, T. A. (2022). «ZELENIYE» TENDENSII V RAZVITII MIROVOY FINANSOVOY SISTEMI. Vestnik Moskovskogo universiteta imeni SYU Vitte. Seriya 1: Ekonomika i upravleniye, №1, B. 52-60.

5. Muminova E. (2023). Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida // Iqtisodiyot va moliya №1.B. 16-22

ENERGETIKA SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Dilafruz Yuldosheva
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Hech kimga sir emas, har qanday mamlakat iqtisodiyotida yoqilg‘i-energetika kompleksi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompleksni transformatsiya qilish bo‘yicha tub o‘zgarishlarni amalga oshirmay turib aholini ishonchli va sifatli yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’minlab bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati energetika sohasida kontseptual o‘zgarishlarga yo‘naltirilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohada davlat nazoratini qisqartirish, kompaniyalarni xususiylashtirish, xususiy sektor ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va sohada raqobatni rag‘batlantirish maqsadida elektr energetikasi sohasida normativ-huquqiy baza yangilandi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Eski Elektr energetika to‘g‘risidagi Qonun 2009-yilda qabul qilingan bo‘lib, bu qonun mohiyatan eski hisoblanib bugungi kun talablariga to‘liq javob bermagan. Shuningdek, yangi qayta tiklanuvchi generatsiya quvvatlarining ishga tushishi, generatsiya va taqsimlashda xususiy investitsiyalarni jalb qilish, elektr energiyasi bozori regulyatori, bozor munosabatlarini tartibga solish kabi islohotlar Qonunning avvalgi tahririda mavjud bo‘lmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
PF-166-son Farmoniga asosan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiyasi tasdiqlandi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi – energetika bozori regulyatori tashkil etildi hamda elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish va sotish funksiyasini bajaruvchi “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Shuningdek mazkur Farmonga muvofiq, 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) ishlab chiqilgan. Konsepsiyaning asosiy maqsadi shaffof va raqobatli elektr energiyasi bozorini yaratish, elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilishning muvozanatini ta’minlash, xususiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish hamda elektr energiyasining adolatli narx va tariflarda sotilishini ta’minlashdan iborat.

Bugunga kelib, Hukumat tomonidan belgilangan yuqori subsidiyalar yordamida elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlarini past darajada ushlab turishga erishilmoqda, biroq bu vaziyat ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, daromadlarining yetkazib berish xarajatlarini qoplamaydigan darajada pasayishiga olib kelgan.

Tahliliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, belgilangan past narxlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning energiya samaradorligini oshirishga va energiyani tejashga qaratilgan sa’y-harakatlariga to‘sqinlik qilmoqda va sohadagi xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-fevraldagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga asosan 2024-yilda neft-gaz va energetika sohalariga 12 trln ajratilgan. Xususan, ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash va joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun xarajatlar - 9,5trln so‘m, elektr energiyasini xarid qilish va sotish narxlari o‘rtasidagi salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun xarajatlar 2,5 trln so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga asosan 2025- yilda ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash va joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun xarajatlariga 7 trln, elektr energiyasini xarid qilish va sotish narxlari o‘rtasidagi salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun xarajatlarga - 500 mlrd so‘m ajratilishi belgilandi.

Ushbu vaziyatni o‘zgartirish maqsadida Hukumat, tariflarni asta-sekin o‘zgartirish orqali, elektr energiyasi narxlarini sarf-xarajatlarga muvofiqlashtirishni ko‘zda tutuvchi islohotlarni amalga oshirishni boshladi.

Tarif siyosati islohotlari doirasida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-sonli qarori bilan 2024-2025-yillarda yoqilg‘i-energetika resurslari

yangi narxlari tasdiqlandi. Yoqilg‘i-energetika resurslari narxlari so‘nggi martta 2019-yil avgust oyida qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib besh yildan buyon energiya resurslari narxlari o‘zgartirilmagan. Ushbu davr mobaynida inflyatsiya darajasi 66 foizni tashkil etgan. Aholiga elektr energiyasi uchun belgilangan tariflar uning tannarxiga nisbatan 3,4 barobar past narxlarda belgilangan. 2024-yilda elektr energiyasining tannarxi qariyb 1 000 so‘mni, tabiiy gaz esa 2 000 so‘mni tashkil etgan. Narxlarga oid takliflarni ishlab chiqishda, birinchi navbatda aholini qat’iy ijtimoiy himoya qilish, ayniqsa ehtiyojmand oilalarga narx ta’sirini yumshatish ustuvor vazifa sifatida qo‘yildi. Buning uchun elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanishda “bazaviy me’yor” mexanizmi joriy qilindi. Bazaviy me’yorlar doirasida barcha uchun energoresurslar narxlari tannarxdan past, bazaviy me’yorlardan oshgan iste’mol uchun esa nisbatan yuqori belgilandi. Bunda elektr energiyasi uchun bir oyda – 200 kVt-soat, tabiiy gaz bo‘yicha isitish mavsumida – 500 metr kub, boshqa paytlarda – 100 metr kubni tashkil qiladi. Hisob kitoblarga ko‘ra elektr energiyasidan foydalanishda joriy etilgan bazaviy me’yor – 60 foiz oilalarni qamrab olishi, tabiiy gazdan foydalanishda joriy etilgan bazaviy me’yor esa isitish mavsumida – 66 foiz, isitish mavsumidan tashqari davrda – 77 foiz oilalarni qamrab olishi aniqlandi. Shu bilan birga, ishlatilgan energoresurslarning hajmidan kelib chiqib, bazaviy me’yor uchun belgilangan tariflarga o‘suvchi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi. Narx islohotlari doirasida, davlat byudjetidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga manzilli yordam ko‘rsatilishi belgilandi. 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan 1,1 mln oilaga 291,3 mlrd dollar ajratildi.

Shu bilan birgalikda Jahon banki bilan birgalikda Elektr energiyasi va tabiiy gaz tariflarini shakllantirishning yangi metodologiyasi ishlab chiqildi. Yangi metodologiyaning amaldagi metodologiyadan asosiy farqi bu tariflarni hisob-kitob qilishda “RAB” (Ragulatory Asset Base – aktivlarni tartibga solinadigan bazasi) modelidan foydalaniladi.

RAB modelida uzoq muddatli tariflar o‘rnatilib, unda shakllantirilgan tariflar sohaga investitsiya kiritishni rag‘batlantiradi. Bunda, korxonaning foydasi investitsiya kiritishiga (aktivlariga) qarab oshib boradi va o‘z navbatida investorlarning sohaga kirib kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, energetika sohasida narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlarini joriy qilishga asoslangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil etilishi energetika sohasida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, sohaga xorijiy va xususiy investitsiyalar kirib kelish imkonini yaratadi.

OILAVIY BIZNES MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBALARI

Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
TDIU dotsent v.b., PhD

Iqtisodiy va siyosiy tizim sifatida kapitalizmning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, oilaviy biznes ishlab chiqarish kichik, o‘rta va yirik oilaviy korxonalarr

orqali moliyaviy faoliyatni o‘z ichiga olgan ko‘plab xususiy mulkdorlar tomonidan shakllantiriladi. Ma’lum darajada kapitalizm oilaviy kapitalizm sifatida tan olingan, chunki oilalarning biznesdagi yuqori ishtiroki, oilaviy biznes rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda eng keng tarqalgan tashkilot shaklidir. Milliy kontekstlarda oilaviy firmalarning tarqalishiga oid ushbu stilize qilingan faktlar iqtisodiy tarix bo‘yicha qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi ularni milliy kontekstda joylashtirishning afzalliklari va kamchiliklari haqida. va hududiy ishlab chiqarish tuzilmalari.

Oilaviy korxonalar AQSHning rivojlangan mintaqalarida va iqtisodiy mustahkamlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda joylashgan bo‘lsada, ular Germaniya va Italiyada muhim o‘yinchilardir, odatda ular Yevropaning eng sanoat mamlakatlari hisoblanadi. Misol uchun, Italiya sanoat sektori oilaviy firmalarning ko‘pligi bilan tavsiflanadi va Germaniya kontekstida kichik va o‘rta firmalar, ularning aksariyati oilaga tegishli va boshqariladi, mintaqaviy biznesning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiyot, ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lanadigan barcha xodimlarning 60% ish bilan ta’minlangan.

Bundan tashqari, biz oilaviy firmalar va mintaqaviy kontekst o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni tahlil qilamiz va oilaviy firmalar sifatsiz institutlarga ega bo‘lgan hududlarda haddan tashqari ko‘pligi haqidagi dalillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlamasakda, biz oilaviy firmalar o‘rtasidagi umumiy munosabatlarni aniqlaymiz hamda mintaqaviy raqobatbardoshlik (ya’ni, mahsuldorlik, eksport va innovatsiyalar) moliyaviy boshqaruvning barqarorligi tahlil qilinadi.

Biz tadqiqot tahlilimizni Avstriya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyadagi oilaviy firmalarning ishlab chiqarish ahamiyatini tasvirlashdan boshlaymiz. 1-rasmda ushbu yettita Yevropa davlatining ishlab chiqarish tuzilmalarida ularning tarqalishi ko‘rsatilgan. Ushbu dalillar oilaviy firmalarning tarqalishi milliy kontekstlarda tarqalganligini ko‘rsatadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi oilaviy firmalarning eng past ulushi Vengriya (56%) va Frantsiyada (58%), eng yuqori ulush esa Germaniya (84%) va Avstriyada (82%). Bizning birinchi xulosamiz shundan iboratki, oilaviy firmalar Yevropa ishlab chiqarish tuzilmalarida eng muhim iqtisodiy ishtirokchilar bo‘lsa ham, ular Yevropa mamlakatlari bo‘ylab notekis taqsimlangan.

Yevropaning yettita davlatining har birida oilaviy firmalarning mintaqaviy taqsimotini ko‘rsatish uchun yuqoridagi 1-rasmda oilaviy firmalarning mintaqalar bo‘yicha mintaqaviy ulushi ko‘rsatilgan, bu ularning nafaqat mamlakatlar bo‘yicha notekis taqsimlanganligini, balki milliy geografik kontekstda mintaqalar bo‘yicha ham notekis taqsimlanganligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Oilaviy firmalarning subsanoat tarmoqlari va mamlakat bo‘yicha ulushi[57]

Sektor	Avstriya	Fransiya	Germaniya	Vengriya	Italiya	Ispaniya	Buyuk Britaniya
Asosiy metallar va tayyor metall buyumlar	0,87	0,58	0,88	0,56	0,79	0,80	0,68

[57] Family Business and Regional Development

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki	0,85	0,62	0,87	0,55	0,72	0,79	0,67
Kauchuk va plastmassa buyumlar	0,75	0,58	0,86	0,61	0,74	0,80	0,57
To‘qimachilik, yog‘och va qog‘oz mahsulotlari	0,78	0,58	0,84	0,49	0,78	0,79	0,66
Boshqa nomdagi boshqa ishlab chiqarishlar	0,91	0,55	0,82	0,64	0,79	0,78	0,68
Kimyoviy, kimyoviy mahsulotlar va sun'iy tolalar	0,62	0,52	0,70	0,31	0,72	0,66	0,50
Transport uskunalari	0,53	0,53	0,75	0,81	0,72	0,62	0,56
Yog‘och va yog‘och mahsulotlari	0,98	0,72	0,91	0,95	0,82	0,77	0,78
Qayta ishlangan neft mahsulotlari va yadro yoqilg‘isi	-	0,67	0,57	-	0,71	-	0,34
Teri va boshqa metall bo‘lmagan mineral mahsulotlar	0,75	0,51	0,77	0,43	0,73	0,76	0,53
Mashina va asbob-uskunalar boshqa nomga tegishli.	0,77	0,55	0,85	0,52	0,70	0,69	0,67

Oila firmalarining sanoat tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishini batafsil ko‘rib chiqsak, yuqoridagi 1-jadvalda tahlil qilingan Yevropa mamlakatlari va 11 ta subsanoat sektorlari bo‘yicha oilaviy firmalarning ulushi ko‘rsatilgan. Butun namunani hisobga olgan holda, ular yog‘och va yog‘och mahsulotlari subsanoat sektorida yuqori darajada namoyon bo‘ladi, ammo koks, qayta ishlangan neft mahsulotlari va yadro yoqilg‘isi sektorida kamroq ifodalanadi. Farqlarni tushuntirish uchun biz har bir mamlakat oilaviy firmalarni o‘ziga jalb qiladigan muayyan tarmoqlarda turli raqobatdosh ustunliklarga ega ekanligini taxmin qilamiz. Nihoyat, muayyan sanoat tarmoqlarida oilaviy firmalarning mavjudligi mahalliy biznes oilalariga yordam beradigan davlat siyosatining natijasi bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Germaniyada oilaviy firmalarning kimyo va kimyo mahsulotlari sektoridagi ulushi mamlakatdagi eng yiriklaridan biri bo‘lib, oilalarning biznesda uzoq davom etgan an’analariga ega - Fransiya yoki Vengriyaga qaraganda yuqori. Ushbu empirik dalil milliy raqobat ustunliklari, mintaqaviy yo‘lga bog‘liqlik va faol davlat siyosati oilaviy firmalarning mintaqaviy tarqalishi bilan qanday bog‘liqligini yaxshiroq tushunish uchun keyingi tadqiqotlarni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, kelajakdagi tadqiqotlar har bir mamlakatda oilaviy firmalarning mintaqaviy taqsimoti alohida hududiy xususiyatlar va tarmoqlar bilan qanday bog‘liqligini o‘rganishi kerak.

Butun namunani inobatga olgan holda, oilaviy firmalar kutilganidek, an'anaviy tarmoqlarda keng tarqalgan, chunki oilalar o‘z bizneslariga olib kelishi mumkin bo‘lgan kapital, inson kapitali va ijtimoiy kapital va boshqalar. Bundan tashqari, ixtisoslashgan tarmoqlarda oilaviy firmalarning mavjudligi ham yuqori. Boshqa tomondan, oilaviy firmalar investitsiyalarni moliyalashtirish (ya’ni, foydani qayta investitsiya qilish va o‘z faoliyatini xavf ostiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan tashqi investorlardan qochishga asoslangan) tufayli kamroq raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarida tarqalish darajasi pasayadi.

Bundan tashqari, yuqori texnologiyali sektorlarda oilaviy firmalarning kam bo‘lishi oilaviy firmalar yuqori dinamik tarmoqlarni boshqarishga unchalik tayyor emasligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi, chunki bu sektorlardagi firmalar oila ishtiroki natijasida hosil bo‘ladigan raqobatbardosh ustunliklarni talab qiladi.

THE CONCEPT OF DEVELOPMENT OF THE GREEN ECONOMY AND ITS ESSENCE WORLDWIDE

Yuldasheva Madina Tohir qizi
PhD student of Tashkent State University of Economics

The efficient utilization of natural resources, ensuring ecological balance, and improving the standard of living of the population are among the most critical objectives in advancing the global economy. The increasing relevance of implementing green economy principles is no coincidence, as modern sustainable development encompasses closely interrelated processes such as environmental preservation, addressing ecological challenges, enhancing economic potential, and ensuring societal well-being.

Uzbekistan has also taken significant steps towards integrating green economy principles in collaboration with various international organizations and institutions. The country actively partners with entities such as the United Nations (UN), the World Bank, the Asian Development Bank (ADB), the Global Green Growth Institute (GGGI), the United Nations Development Program (UNDP), the World Health Organization (WHO), and the Food and Agriculture Organization (FAO), among others, to implement a range of projects. Additionally, within the framework of the "Roadmap" strategy, Uzbekistan has established priority objectives for 2030, including: Reducing greenhouse gas emissions; Improving energy efficiency; Promoting sustainable water resource management; Increasing environmental awareness in agriculture; Improving waste management practices.[58].

In economic literature, the modern concept of the green economy is described as an economic model that aims to enhance human well-being and social equity while minimizing the negative environmental impact of industrial development. The green economy concept is closely linked to the circular economy, which differentiates it from traditional industrial economic models by emphasizing resource efficiency, waste reduction, and sustainable environmental management.

According to economist Begüm Özkaynak, “There is a just and equitable relationship between ecology, climate change and the green economy. The integration of the green economy with the principles of environmental justice, environmental governance and environmental justice provides a comprehensive and political perspective for the transition to a greener economy. By combining the ideas of ecological economics, political ecology and social movements, environmental

[58]UNEP, Green Economy Reports: A Preview, 2010, p. 4-5

justice offers strategic opportunities for setting transparent and achievable goals at the local and global levels [59]. ”

The concept of a green economy has been analyzed not only by Western scientists, but also by a number of CIS economists in their scientific research. According to the views of Russian economists SN Bobyleva, PA Kiryushina, OV Kudryavtseva, “A green economy is a means of achieving sustainable development, based on equality, intergenerational justice, which protects biodiversity and ecosystems, reduces poverty, ensures well-being, social protection and access to basic services, improves governance and strives for the rule of law. It is a democratic, equitable decision-making system, accountable for results, transparent and sustainable, and uses an integrated approach to decision-making”[60].

According to Boris Porfiryev, a significantly narrower interpretation of the green economy can be understood as the production and use of technologies, as well as the control and reduction of pollutant emissions. This, in turn, not only requires energy and renewable energy resource-saving technologies, but also increases the importance of renewable energy [61].

The green economy, not only the research of foreign scientists, but also the research of our own scientists is of great importance. Our domestic economists M.T.Askarova, J.J.Jamolov and X.S.Khadjayev define the concept of green economy as follows: “The concept of green economy encompasses scientific ideas in economic disciplines such as economy focused on saving renewable energy resources, ecological economics, environmental economics, green policy, theory of international economic relations, modernization of the economy, and innovative economics.”

According to Vakhobov, “Unlike environmental economics or ecological economics, the “green economy” is of more practical importance and relates to renewable energy sectors (energy, innovation, agriculture, etc.). In addition, from a macroeconomic perspective, the transition to a “green economy” is explained as increasing economic efficiency, increasing national wealth, increasing renewable resources, and reducing environmental risks”[62].

[59]Begum Özkaynak. Environmental justice, climate justice, and the green economy, in Handbook of Green Economics, 2019

[60]Bobylyov S. N. Ustoychivoe razvitie: paradigm dlya budushchego // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnoshenia. 2017. T. 61. No. 3. S. 107–113.

[61]Porfirev B.N. "Green" economy: reality, perspective and predely rosta // Nauchnye trudy Volnogo ekonomicheskogo obshchestva Rossii. 2012. T. 160. S. 14-37.

[62]A.V. Vakhabov, Sh.Kh. Khazhibakiev and others. Green Economy: Textbook. -Tashkent.: "Universitet", 2020. -262 p. (14 p.).



Figure 1. Key concepts specific to a green economic system.

The green economy, in turn, includes the circular economy, i.e. a model of organizing the economic system on the principle of repeated circulation through waste-free production and efficient use of resources, and green finance, i.e. investment and financial mechanisms aimed at protecting the environment and supporting sustainable development. The main goal of the green economy is to achieve sustainable economic growth and ecological balance, which is mainly achieved through taxes, subsidies, and innovative technologies. The circular economy, on the other hand, is aimed at the maximum rational or reuse of existing resources and minimizing waste, while making effective use of recycling and waste-free production technologies. Green finance, on the other hand, provides financial support for projects in this direction and uses instruments such as green bonds, loans,



or investments.

Figure 2. Approaches of international financial organizations to the green economy.

Uzbekistan is a party to many international conventions, protocols, agreements and memoranda of understanding in the field of environmental protection and sustainable development. Uzbekistan has adopted 16 Sustainable Development Goals by 2030 and its position in the global ranking of environmental and human development is steadily improving. In 2023, Uzbekistan ranked 69th out of 166 countries in terms of progress in achieving all 17 MDGs [63]. Uzbekistan has

[63]Sachs, J. et al., 2023. *Sustainable Development Report 2023: Implementing the SDG Stimulus* , SDSN. United States of America. Retrieved from https://coilink.org/20.500.12592/0tpj28 on 14 Feb 2025. COI: 20.500.12592/0tpj28 .

renewed and strengthened its commitments on greenhouse gas emissions within the framework of the Paris Agreement. The country has strategies and programs to ensure the health of the population and access to clean water. At the regional level, Uzbekistan is working with other countries of Central Asia to expand cooperation in the use and introduction of modern energy and resource-saving technologies with low greenhouse gas emissions to support development. Uzbekistan is widely integrating initiatives and projects in the field of environmental protection and sustainable development, contributing to the social, ecological, and economic development of the country.

Table 1.

Important UN initiatives to support the transition to a green economy [64].

Agreement	Year	Member Countries
Paris agreement	2015	196 countries (all UN member states) countries , Europe Union and others)
Kyoto Protocol	1997	192 countries (USA member it's not)
Rio+20 Summit (Earth Summit)	2012	191 countries (UN member states) countries + others)

The Kyoto Protocol was adopted in 1997 and sets binding targets for industrialized countries to reduce greenhouse gases. Under this protocol, 37 industrialized or developing countries have obligations to reduce the specified gases for developed countries. Through this mechanism, a price is set for each ton of carbon emissions and emissions are traded nationally and internationally. One of the main features of the protocol is that it includes the setting of specific gas reduction targets for each country.

The Paris Agreement was signed in 2015 and has been ratified by 196 countries. The agreement commits each participating country to reducing its emissions. Each country has a period of 5 years to develop their plans, known as their "Nationally Determined Contributions" (NDCs). In these plans, each country sets out specific targets and measures to reduce its carbon emissions.

The Rio Conference (Rio+20) was held in Rio de Janeiro, Brazil, from 20 to 22 June 2012. This conference provided an opportunity to assess the international community's progress in implementing development strategies, to identify the next steps and to make new decisions. The conference was timely, as multifaceted international challenges such as economic, social and environmental issues were emerging. For example, the need to address issues such as food, water, energy, oceans, agriculture and natural disasters was reiterated. Two main themes were identified for the Rio+20 conference: a green economy and an institutional framework for sustainable development. The conference was the subject of much discussion in the run-up to the conference.

Therefore, the following important aspects can be highlighted as a scientific conclusion: In implementing a green economy, tax rates, tax breaks, subsidies, and grants adopted by the state should serve two main purposes: first, to encourage

[64]Collected by the author

enterprises that use resources rationally, and second, to create a mechanism to increase motivation (or limit them) for producers that cause environmental damage. Through this “reward and punishment” approach, economic entities will be more interested in practical changes. In order to mitigate the alarming situation related to environmental pollution, greenhouse gas emissions and excessive use of natural resources, special taxes should be introduced. For example, carbon taxes, group environmental taxes or differentiated charges for waste would be effective in this regard. However, this policy can only be effective if the funds from the revenues are directed to specific purposes, that is, to finance "green projects".

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSIYA MUHITINING AHAMIYATI

Baykuziyeva Sabohatxon
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Investitsiya muhiti iqtisodiyotga chet el kapitalini jalb etishda, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va raqobatbardosh muhitni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Qulay va samarali investitsiya muhiti xorijiy investorlar uchun ishonchli sharoitlarni ta’minlab, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu jarayonlarni shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi. Elektron platformalar yordamida investitsion loyihalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, monitoring qilish va shartnomalarni avtomatlashtirish investorlar uchun qulaylik yaratadi. Xususan, elektron xizmatlar orqali investitsiyalarni boshqarish va hujjat aylanishini tezlashtirish xorijiy kapitalni jalb qilish jarayonini soddalashtiradi.

Investitsion muhitni shakllantirishda mahalliy infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yo‘l va transport infratuzilmasini yaxshilash, sanoat zonalarini barpo etish va energetika loyihalarini moliyalashtirish talab etiladi. Ushbu loyihalar xorijiy investorlar uchun iqtisodiy jihatdan jozibador muhit yaratadi va ularga o‘z mablag‘larini samarali kiritish imkonini beradi.

Mahalliy korxonalarni xorijiy investitsiyalar jarayoniga jalb etish orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish mumkin. Xorijiy investorlar bilan hamkorlikda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga zamonaviy texnologiyalar va moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi. Buning natijasida mahalliy iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratiladi va barqaror o‘sishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitining ahamiyati beqiyosdir. Qulay investitsiya sharoitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyoti barqaror o‘sishga erishadi. Shu tariqa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro maydonda mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishi, xususiy sektor esa o‘z resurslari va tajribasidan foydalanib, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishi lozim. Ushbu hamkorlik investitsion loyihalarni samarali amalga oshirish va mahalliy iqtisodiyotga sezilarli hissa qo‘shish imkonini beradi.

Investitsiya muhitining barqarorligini ta’minlash uchun shaffoflik va huquqiy kafolatlar muhimdir. Investorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga ishonchli biznes sharoitlarini ta’minlash uchun qonunchilikni takomillashtirish zarur. Xususan, investitsion kelishuvlarning bajarilishini nazorat qilish va investorlar uchun huquqiy xavfsizlikni ta’minlash orqali investitsion muhitni yaxshilash mumkin.

Ekologik tamoyillarni xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Yashil energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik infratuzilma sohalariga investitsiyalarni yo‘naltirish nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Xorijiy investorlar uchun ekologik loyihalar jozibador bo‘lib, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Tahliliy yondashuvlar orqali investitsion muhitni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Har bir hudud va soha uchun individual tahlil va rejalashtirish orqali investitsion loyihalarning samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa xorijiy investorlarning mahalliy imkoniyatlardan to‘liq foydalanishini ta’minlaydi va ular uchun o‘z mablag‘larini yo‘naltirishda ishonchli asos yaratadi.

Fuqarolarni investitsion jarayonlarga jalb qilish va ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish orqali investitsion loyihalarning ijtimoiy qabul qilinish darajasini oshirish mumkin. Maxsus platformalar orqali fuqarolarga investitsiyalar haqida ma’lumot berish va ularning ishtirokini ta’minlash xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu esa jamiyatning davlat va investorlar faoliyatiga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda milliy brendni targ‘ib qilish strategiyasi ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati, investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlari va qulay shart-sharoitlari haqida xalqaro darajada ma’lumot tarqatish xorijiy investorlarni jalb etishning muhim vositasidir. Milliy va xalqaro ko‘rgazmalar, sammitlar va forumlarda mamlakatning investitsion imkoniyatlarini taqdim etish bu jarayonni jadallashtiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini yanada samarali qilish uchun infratuzilmani rivojlantirish muhimdir. Transport, energetika, aloqa va logistika sohalaridagi infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish investorlarga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatadi va ularning sarmoya kiritish istagini kuchaytiradi. Ayniqsa, yirik transport yo‘llari, erkin iqtisodiy zonalar va logistika markazlarini rivojlantirish xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, investitsion muhitni yaxshilash uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Investorlarga soliq bo‘yicha yengilliklar taqdim etish, ular uchun ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish va subsidiyalar joriy qilish orqali xorijiy kapitalni mamlakatga jalb etishning

samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu choralar nafaqat investorlar uchun qulaylik yaratadi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mehnat resurslarining sifatini oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Mahalliy ishchi kuchining malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali sarmoyadorlar uchun ijobiy sharoit yaratish mumkin. Bu nafaqat xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytiradi, balki mahalliy aholining bandligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy investorlar uchun xavfsizlik va siyosiy barqarorlik muhim mezonlardan biridir. Mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, qonunchilik tizimining barqaror ishlashi va xalqaro miqyosdagi imidjni yaxshilash xorijiy investorlar ishonchini kuchaytiradi. Shu ma’noda, xalqaro reytinglar va indekslarda mamlakatning pozitsiyasini yaxshilash xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda regional hamkorlik va integratsiya loyihalari muhim o‘rin tutadi. Qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, erkin savdo shartnomalarini imzolash va mintaqaviy bozorlarni kengaytirish orqali mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish mumkin. Bu nafaqat sarmoya oqimini kuchaytiradi, balki mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fuqarolar va mahalliy jamoatchilikni investitsiya jarayonlariga jalb qilish, shuningdek, sarmoya kiritilgan loyihalarning ijtimoiy ta’sirini oshirish ham dolzarbdir. Xorijiy investitsiyalar orqali ijtimoiy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida amalga oshirilayotgan dasturlar, mahalliy aholi hayot sifatini oshiradi va investorlar uchun ijobiy imidj yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakatning barqaror rivojlanishi va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega. Investitsion muhitni yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va siyosiy barqarorlikni ta’minlash orqali xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish mumkin. Ushbu choralar iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashib, mamlakatning global iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlaydi.

Manbalar ro’yxati

1. Narzullayeva, O. Q., & Toshmurodov, T. A. "Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati."

2. Hoshimov, J. R. "Investitsion muhit jozibadorligini oshirishda Xitoy va Singapur tajribasi."

3. Umrzaqov, X. A. "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda va tashqi savdoni rivojlantirishda mahalliy hokimliklarning faoliyati samaradorligini oshirish."

4. Alimbayeva, S. "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari." *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 1(11-12), DOI: 10.55439/GED/vol1_iss11-12/a477.

5. Sobirov, I. A. "Hududlarda investitsion faollikni oshirish va samarali boshqarish xususiyatlari." Toshkent moliya instituti, 2016.
6. Shadibekova, D. "Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsion loyihalarni boshqarishni asosiy jihatlari." Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, 2(7), DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss7-pp158-166.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI: LOYIHA JAMOALARINING MOTIVATSIYASI VA ISH SAMARADORLIGI

Toshtemirova Sa‘diya Shuxratovna
Bank-moliya akademiya tinglovchisi

Inson resurslarini boshqarish (HRM) tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat xodimlarning ish faoliyatini nazorat qilish, balki ularning motivatsiyasini oshirish, o‘zaro muloqotni yaxshilash va jamoaning umumiy muvaffaqiyatini ta'minlashni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, loyiha jamoalari kabi kichik va ko‘p hollarda bir-biriga bog‘liq guruhlar samarali ishlash uchun to‘g‘ri boshqaruv va kommunikatsiya tizimlariga muhtoj. Inson resurslarini boshqarish, ayniqsa, yaxshi tashkil etilgan muloqot orqali, jamoaning motivatsiyasini oshirib, ish samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Ushbu tezisda inson resurslarini boshqarishda muloqotning ahamiyati, loyiha jamoalarining motivatsiyasiga va ularning ish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Bu orqali HRM jarayonlarining jamoalar o‘rtasidagi motivatsiya va samarali ishlashni qanday shakllantirishi va rivojlantirishi tushuntiriladi. Inson resurslarini boshqarish (HRM) — bu tashkilotdagi xodimlarning karyera yo‘lini boshqarish, ularning mahoratini oshirish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta’minlash jarayonidir. HRMning asosiy maqsadi, tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun xodimlarning yuqori samaradorligini ta’minlashdir. Inson resurslarini boshqarish nafaqat xodimlarning kadrlar sohasidagi masalalarni hal qilish, balki ularning motivatsiyasini oshirish, jamoalar o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish va ish faoliyatini optimallashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Muloqot — bu axborot almashish jarayoni bo‘lib, tashkilot ichidagi barcha bo‘limlar, xodimlar va rahbariyat o‘rtasida o‘zaro tushunishni va hamkorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Samarali muloqot tashkilotdagi barcha darajalarda axborot oqimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga yordam beradi, bu esa jamoaning faoliyatini boshqarish va muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ochiq va samarali muloqot, jamoa o‘rtasida ishonchni oshiradi, bu esa umumiy ish sifatini va motivatsiyani yaxshilashga xizmat qiladi. Muloqot boshqaruvchilar va xodimlar o‘rtasida muvaffaqiyatli hamkorlikni o‘rnatadi, tashkilotning maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

Motivatsiya — bu xodimlarning maqsadlarga erishishga intilishlari, o‘z vazifalarini samarali bajarish uchun ichki va tashqi omillardir. Motivatsiya

tushunchasi ikki asosiy turga bo‘linadi: -Ichki motivatsiya: Bu xodimlarning o‘z qadriyatlariga asoslangan ichki ehtiyojlari va maqsadlari. Ichki motivatsiya yuqori bo‘lgan xodimlar o‘z ishlarini hayajon bilan bajaradilar, chunki ular uchun ishning o‘zi qadrlidir. -Tashqi motivatsiya: Tashqi mukofotlar, bonuslar, rag‘batlar orqali xodimlarning ish faoliyatini rag‘batlantirish. Tashqi motivatsiya ko‘pincha maqsadlarga erishish uchun qo‘shimcha turtki bo‘lib xizmat qiladi. Motivatsiyaning o‘zgarishi tashkilotdagi ish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Yaxshi motivatsiyalangan xodimlar o‘z vazifalarini yuqori darajada bajaradilar, samaradorlik ortadi, vaqtni tejash va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Samarali muloqot nafaqat xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, balki ularning ishga bo‘lgan ishtiyoqini ham kuchaytiradi. Boshqaruvchilarning aniq, ochiq va muntazam muloqoti xodimlarga o‘z vazifalarini tushuntirishda yordam beradi, ularni ishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Boshqaruvchilar tomonidan ko‘rsatilgan to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar va rag‘batlantirish jarayonlari xodimlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rahbarlar jamoa ishlashida muloqot va motivatsiya jarayonlarini samarali boshqarishlari kerak. Rahbarlar o‘z jamoasiga aniq vazifalar belgilab, zarur axborot va resurslarni taqdim etishlari, shuningdek, xodimlarning fikrlarini tinglashlari va ularga kerakli maslahatlar berishlari zarur. Samarali boshqaruv xodimlar va jamoalar o‘rtasida ishonchni yaratadi, motivatsiya va ish samaradorligini oshiradi.

Loyiha jamoalarida samarali muloqot o‘rnatish uchun bir nechta usullar mavjud:

-Muntazam yig‘ilishlar: Jamoa a’zolarining fikrlarini erkin ifodalash, muammolarni tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

-Elektron pochta va ichki kommunikatsiya tizimlari: Bu vositalar jamoa a’zolarining tezkor va samarali axborot almashishlariga yordam beradi.

-Jamoa platformalari (masalan, Slack, Microsoft Teams): Bu platformalar orqali jamoa a’zolari o‘rtasida axborot almashish, muammolarni hal qilish va vazifalarni bajarish samarali amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar yordamida muloqotning samaradorligini oshirish mumkin. Masofaviy ish jarayonlari uchun texnologiyalar (masalan, Zoom, Google Meet) va jamoa platformalarini qo‘llash orqali jamoa o‘rtasidagi axborot almashish yanada samarali bo‘ladi. Ochiq va shaffof muloqot muhitini yaratish, xodimlarga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini beradi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va jamoaning samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Xodimlarning o‘z ishlarini yaxshiroq tushunishi va o‘zgarishlarga moslashishlari uchun bu muhit juda muhimdir.

Loyiha jamoasining muvaffaqiyati faqatgina rahbarning samarali boshqaruvi bilan emas, balki jamoa o‘rtasidagi yaxshi tashkil etilgan muloqot orqali ham ta’minlanadi. Jamoa a’zolari o‘rtasida samarali muloqot mavjud bo‘lsa, ular o‘z vazifalarini aniq va samarali bajaradilar, bu esa umumiy ish samaradorligini oshiradi. Motivatsiya va muloqot bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir.

Inson resurslarini boshqarish jarayoni tashkilotlarning umumiy muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi. Samarali muloqot va yuqori motivatsiya tashkilotda ishlovchi jamoalar samaradorligini oshirib, tashkilotning

raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Yaxshi tashkil etilgan muloqot tizimlari, boshqaruvchilarning samarali rahbarligi va xodimlarning motivatsiyasi o‘rtasidagi muvozanat, tashkilotning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Armstrong, M. (2006). A Handbook of Human Resource Management Practice. Kogan Page.
2. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2017). Organizational Behavior. Pearson Education.
3. Goleman, D. (1998). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
4. Herzberg, F. (1968). One More Time: How Do You Motivate Employees? Harvard Business Review.
5. Kotter, J. P. (1996). Leading Change. Harvard Business Press.
6. Yukl, G. (2010). Leadership in Organizations. Pearson.
7. Hackman, J. R., & Oldham, G. R. (1976). Motivation through the Design of Work: Test of a Theory. Organizational Behavior and Human Performance.
8. Northouse, P. G. (2018). Leadership: Theory and Practice. Sage publications.
9. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396.
10. Luthans, F. (2005). Organizational Behavior. McGraw-Hill.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ENERGETIKA SOHASIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISH VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rustamova Shoxista
Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik barqarorlikni ta’minlash va tabiiy resurslarni oqilona ishlatishni ko‘zda tutadigan iqtisodiy model bo‘lib, unda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik xavfsiz texnologiyalar va ustuvor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

O‘zbekistonda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va YaIMning energiya sig‘imini kamaytirish bo‘yicha ulkan rejalarni amalga oshirish davom etmoqda. Kelgusi yillarda ham mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratgan holda energetika tizimini tubdan qayta qurish amalga oshirilishi kutilmoqda. Asosiy yo‘nalishlardan biri quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. Milliy dastur doirasida 2030-yilga borib mamlakat elektr energiyasining kamida 40 foizi qayta tiklanadigan energiya

manbalaridan ishlab chiqarilishi kerak. 2025-yilda yangi quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan, bu esa energetika tizimining quvvatini sezilarli darajada oshiradi.

Respublikadagi boshqa viloyatlar bilan bir qatorda, “Energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada kengaytirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 11-sentabrdagi F-PF-139-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Surxondaryo viloyatida xorijiy investitsiyalarni energetika sohasiga jalb etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-yanvardagi PQ-85-son qaroriga asosan, Sherobod tumanida 2022-yilda BAAning “Masdar” kompaniyasi tomonidan umumiy qiymati 260 mln. dollarga teng bo‘lgan, quvvati 457 MVt bo‘lgan fotoelektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasi boshlanib, 2023-yil yakunida 1-bosqich ishga tushirilib, 100 MVt bo‘lgan foto elektr stansiya faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2024-yilning iyun oyida 357 MVt bo‘lgan fotoelektr stansiyaning 2-bosqichi ishga tushirilib, stansiyaning umumiy quvvati 457 MVtga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PQ-5193-son qaroriga asosan Angor tumanida Niderlandiyaning “Stone City EnergyB.V” kompaniyasi tomonidan qiymati 1,2 mlrd. dollarlik 1560 MVtli issiqlik elektr stansiyasini barpo etish loyihasi 2022-yilda boshlangan. Loyiha 2027-yilda to‘liq ishga tushirilishi hisobiga viloyatdagi sanoat korxonalari hamda 500 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi, qo‘shni Afg‘onistonga yiliga kamida 3 mld kVt soat elektr energiyasini eksport qilish imkoniyatini beradi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda. O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oqibatida suv tanqisligi muammosiga duch kelmoqda. Buning oldini oldini olish maqsadida Surxondaryo viloyatida:

- Sariosiyo tumani To‘palang daryosida 25 MVtli “Kishtut GES” stansiyasini 2024 – 2028-yillarda ishga tushirish;Sariosiyo tumani To‘palang daryosida 16 MVtli “Zarchop-3 mikro GES” stansiyasini 2024 – 2027-yillarda ishga tushirish;
- Jarqo‘rg‘on tumanida “NR Enerji” MCHJ tomonidan umumiy qiymati 250,0 mln. dollarlik 220 MVtlik kogeneratsiya usulida ko‘mirdan elektr energiyasi hamda sintetik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasini 2024 – 2027-yillarda ishga tushirish rejalashtirilgan.

2025-yilda suv xo‘jaligi kompleksini chuqur isloh qilish boshlanadi, xususan:

- Yomg‘ir va zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy yetish;
- Suv resurslarini boshqarishni avtomatlashtirish;
- Suv yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida sug‘orish kanallarini modernizatsiya qilish;
- Suv ekotizimlarini tiklash va Orolbo‘yi hududini muhofaza qilish dasturlarini ishga tushirish.

Ayni paytda keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish dasturi amalga oshirilmoqda. 2025 yilda o‘rmon maydonlarini kengaytirish davom etadi, bu ayniqsa cho‘llanishga qarshi kurash sharoitida dolzarbdir. Chang bo‘ronlari ta’sirini kamaytirish va hududlardagi ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beradigan yangi himoya o‘rmon zonalari yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 26-martdagi 156-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni 1-bandining a qismiga ko‘ra, Davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘larning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Mening bog‘im” loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Surxondaryo viloyatida joriy yilda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi buyurtmachiligida “Mening bog‘im” loyihasi bo‘yicha viloyatning barcha tumanlarida mavjud, g‘olib bo‘lgan takliflar soni 15 tani tashkil etib, 3 mlrd 750 ming mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

“Yashil energiya” platformasi orqali 706 ta yuridik iste’molchilar bilan o‘z extiyojidan tashqari ishlab chiqargan elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyundagi 247-sonli qaroriga asosan belgilangan tarifning 80 foizi miqdorida (720 so‘mdan) shartnoma imzolanib 5 451 973 kV.soat elektr energyasi tarmoqqa qabul qilib, 1,85 mlrd.so‘m mablag‘ iste’molchilarga to‘lab berildi.

Soliq mobil ilovasi “Quyoshli xonadon” xizmati orqali 910 ta aholi xonadonlari Soliq qo‘mitasidan subsidiya olish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qaroriga asosan har bir kilovatt-soatiga Davlat budjetidan 1 000 so‘mdan subsidiya olish uchun ikki tomonlama shartnoma imzolangan bo‘lib, 239 277 ming so‘m subsidiya ajratildi.

2024-yilda Surxondaryo viloyatida 1653 ta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari, tadbirkorlik subyektlari hamda ko‘p qavatli turar joylarga 40,3 mVt quyosh panellari o‘rnatish reja-topshirig‘i belgilangan. Shundan, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga 7,2 mVt, 674 ta tadbirkorlik subyektlariga 19,8 mVt, Aholi xonadonlariga 996 ta 12,6 mVt hamda 24 ta ko‘p qavatli turar joy binolarining tom qismiga 0,5 mVt quyosh panellarini o‘rnatish reja topshiriqlari berilgan.

Amalda bugungi kunga qadar 2 881 ta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari, tadbirkorlik subyektlari hamda ko‘p qavatli turar joylarga 38,2 mVt quyosh panellari o‘rnatilgan. Shundan, 837 ta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga 8,4 mVt, 384 ta tadbirkorlik subyektlariga 23,1 mVt hamda 65 ta ko‘p qavatli turar joy binolarining tom qismiga 0,490 mVt quyosh panellarini o‘rnatildi.

Muammolar

1. Yashil iqtisodiyoni rivojlantirish uchun moliyalashtiruvchi sifatida tashkilotlarni aniqlashtirish.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohasida eskirgan texnologiyalarning ulushi yuqori ekanligi.

3. Quyosh panellarini aholi uy joylariga o‘rnatishni targ‘ib qilish hamda tizimli ishlarni olib borish.

Rivojlantirish Yo‘llari

1. Yashil iqtisodiyoni rivojlantirish uchun moliyalashtiruvchi sifatida tashkilotlarni aniqlashtirish: Tijorat banklari ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) standartlarini joriy etish orqali yashil iqtisodiyotga hissa qo‘sha oladi. Masalan, banklar yoki kredit tashkilotlari yashil loyihalarni moliyalashtirishda ESG mezonlariga asoslanadi.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohasida eskirgan texnologiyalarning ulushi yuqori ekanligi. Qishloq xo‘jaligida samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar ro‘yxatini shakllantirish hamda ularini sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlarga aylantirish choralarini ko‘rish ko‘kalamzorlashtirish uchun asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Yirik va o‘rta sanoat korxonalaridagi barcha eskirgan texnologiyalarni zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarga almashtirish orqali energiya tejamkorligi oshiriladi. Ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etishni jadallashtirish aholini ish bilan ta’minlanishi hamda tovar diversifikatsiyasiga yuqori ta\sir qiladi.

3. Quyosh panellarini aholi uy joylariga o‘rnatishni targ‘ib qilish hamda tizimli ishlarni olib borish. Ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, trendlarni rivojlantirish va ma’rifiatni oshirish, yashil iqtisodiyotga qiziqishni oshiriladi. Kompaniyalar hamda xususiy shaxslarning ekologik prinsiplarga amal qilishini rag‘batlantirish uchun ma’rifiy ishlarni olib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar orqali yashil iqtisodiyotda bank moliya tizimining samaradorligi oshirilishi va ekologiyani saqlashdagi rolini kuchaytirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 26-martdagi 156-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni
Braziliyaning Porto Alegre shahri tashabbusli byudjet (Participatory Budgeting, PB) amaliyotining vatani hisoblanadi. 1989-yilda ushbu model joriy etilgan bo‘lib, u mahalliy fuqarolarning davlat byudjeti taqsimotida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan edi. Porto Alegre modeli dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qo‘llanilgan bo‘lib, shahar boshqaruvi va jamoatchilik hamkorligi bo‘yicha eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri sifatida e’tirof etiladi. 1980-yillarning oxirida Braziliyada iqtisodiy tengsizlik va korrupsiya muammolari keskinlashgan edi. Davlat byudjeti ko‘pincha aholining ehtiyojlarini inobatga olmagan holda taqsimlanardi. Porto Alegre shahrida 1989-yilda hokimiyatga kelgan demokratik hukumat bu muammolarni hal qilish maqsadida tashabbusli byudjet tizimini joriy etdi. Bu modelning asosiy maqsadi – fuqarolarni mahalliy byudjetni rejalashtirish va taqsimlash jarayoniga jalb qilish orqali shaffoflikni oshirish va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq moliyalashtirishni ta’minlash edi. Porto Alegre modelida fuqarolar shahar infratuzilmasi va ijtimoiy xizmatlar uchun ajratiladigan mablag‘larni belgilashda ishtirok etadilar. Jarayon quyidagi bosqichlarni o ‘z ichiga

oladi. Xususan, dastlab mahalliy yig‘ilishlar (Assemblies) tashkillashtiriladi. Har yili shahar bo‘ylab mahalliy yig‘ilishlar o‘tkaziladi, unda fuqarolar o‘z ehtiyoj va takliflarini bildiradilar. Mahallalar aholisi o‘z hududlari uchun eng muhim bo‘lgan loyihalarni ilgari suradi (yo‘llarni ta’mirlash, maktablarni ta’mirlash, suv ta’minoti, sog‘liqni saqlash va h.k.). Navbatdagi bosqichda esa hududiy prioritetlarni belgilanadi. Har bir tuman o‘z ehtiyojlarini tanlaydi va loyihalarni belgilaydi. Ochiq muhokamalar asosida eng dolzarb masalalar bo‘yicha takliflar shakllantiriladi. Shundan so‘ng, delegatlar saylovi o‘tkaziladi. Fuqarolar o‘z vakillarini saylaydilar. Ushbu vakillar keyingi bosqichlarda muhim qarorlar qabul qiladigan organlarga kiradi. Delegatlar shahar kengashi va hukumat bilan muzokaralar olib boradi. loyiha tanlash va moliyalashtirish bosqichida delegatlar tomonidan tanlangan loyihalar shahar byudjeti doirasida moliyalashtiriladi. Loyiha ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatiladi. So‘nggi bosqich monitoring va nazorat. Loyiha bajarilishi boshlanganidan keyin fuqarolar uning natijalarini kuzatib boradi.

Agar loyiha sifatsiz bajarilsa, jamoatchilik tomonidan e’tiroz bildirish imkoniyati mavjud. Porto Alegre tajribasi o‘zining samaradorligi bilan jahon hamjamiyatining e’tiborini tortgan. Uning eng muhim natijalari sifatida quyidagilarni aytish mumkin. Shahar infratuzilmasi yaxshilanishi – Yo‘llar, maktablar, suv va elektr ta’minoti kabi asosiy infratuzilma loyihalari aholining talablariga mos ravishda moliyalashtirildi. Korrupsiyaning kamayishi – Shaffof oliyaviy tizim natijasida byudjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi sezilarli darajada pasaydi. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki oshdi – Aholi o‘z huquq va imkoniyatlarini anglab, shaharni boshqarishda faol qatnasha boshladi. Ijtimoiy tengsizlik kamaydi – Past daromadli hududlar uchun ko‘proq investitsiya ajratilib, ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga harakat qilindi. Jamoatchilik ishonchi oshdi – Davlat va jamiyat o‘rtasida ochiqlik mustahkamlanib, aholi hukumatga ishonch bildirishga boshladi.

Har qanday tizim kabi, Porto Alegre modelining ham ba’zi qiyinchiliklari mavjud. Xususan, ko‘p vaqt talab etishi – Butun jarayon yil davomida davom etgani sababli tezkor qarorlar qabul qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Barcha fuqarolar ishtirok etmasligi – Ayrim guruhlarning (ayollar, nogironlar, qishloq aholisining) ishtiroki kamroq bo‘lishi kuzatilgan. Mahalliy byudjet yetarli emasligi – Aholining talablariga nisbatan moliyaviy resurslar cheklangan bo‘lishi mumkin. Porto Alegre modeli tashabbusli byudjet amaliyotining eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri bo‘lib, u shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyani kamaytirish va fuqarolar ishtirokini oshirishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu tajriba dunyo bo‘ylab keng tarqalib, turli davlatlar uni o‘z sharoitlariga moslashtirishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston ham oxirgi yillarda “Ochiq byudjet” platformasi orqali fuqarolar ishtirokini oshirishga harakat qilmoqda. Porto Alegre tajribasi biz uchun foydali bo‘lib, uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish mumkin.

Shuningdek, Polsha davlatining tajribasini ham keltirib o‘tish mumkin. Polsha hukumati tashabbusli byudjetni 2010-yildan boshlab joriy eta boshlagan va hozirda mamlakatning 200 dan ortiq shaharlarida ushbu tizim samarali ishlamoqda. Polsha modeli quyidagi xususiyatlarga ega: Mahalliy darajada boshqaruv – Har bir tuman

o‘ziga xos ehtiyojlarni inobatga olib, fuqarolarga ovoz berish huquqini beradi. Elektron ovoz berish tizimi – Aholi onlayn platformalar orqali loyihalarga ovoz berishi mumkin. Davlat va jamoatchilik hamkorligi – Hukumat tashabbusli byudjetni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus jamg‘armalar tashkil qilgan. Polsha tajribasi fuqarolar ishtirokini oshirish orqali davlat boshqaruvining samaradorligini kuchaytirgan va shahar infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilgan.

Buyuk Britaniya – “Ochiq Byudjet” Yondashuvi.

Buyuk Britaniya tashabbusli byudjet tizimini 2000-yildan boshlab mahalliy boshqaruv organlari orqali joriy eta boshladi. Mamlakatda bu tizim quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: Jamiyat bilan hamkorlik – Mahalliy kengashlar fuqarolar bilan ochiq muloqot o‘tkazib, eng muhim loyihalarni aniqlaydi. Davlat byudjeti shaffofligi – Barcha mablag‘lar va loyihalar bo‘yicha batafsil ma’lumotlar internetda e’lon qilinadi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash – Mobil ilovalar orqali fuqarolarga loyiha tanlash va ovoz berish imkoniyati yaratilgan. Buyuk Britaniyaning bu tajribasi mahalliy aholining davlat byudjeti taqsimotida ishtirok etish darajasini oshirib, mahalliy xizmatlarning sifatini yaxshilashga yordam berdi.

AQSh – Nyu-Yorkdagi Tashabbusli Byudjet Tajribasi.

AQShning yirik shaharlari, jumladan, Nyu-York 2011-yildan boshlab tashabbusli byudjet amaliyotini joriy etgan. Bu tajribaning asosiy jihatlari quyidagicha: Fuqarolar tomonidan loyihalarning taklif etilishi – Mahalliy aholi sog‘liqni saqlash, ta’lim va transport kabi yo‘nalishlarda o‘z takliflarini bildiradi. Davlat mablag‘lari shaffofligi – Har bir loyiha uchun qancha mablag‘ sarflanayotgani internet orqali kuzatiladi. Ko‘ngillilar ishtiroki – Jamoatchilik nazorati fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu model orqali Nyu-York aholisi shaharning muammolarini hal qilishda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Janubiy Koreya – Raqamli Texnologiyalar Asosida Tashabbusli Byudjet:

Janubiy Koreyada tashabbusli byudjet tizimi zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Seul shahri bu borada quyidagi innovatsiyalarni tatbiq qilgan: Onlayn platformalar – Fuqarolar o‘z loyihalarini elektron shaklda taklif etadi va ovoz beradi. Sun’iy intellekt yordami – Davlat idoralari loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda sun’iy intellektdan foydalanadi. Real vaqtda monitoring – Barcha loyihalar maxsus dasturlar orqali real vaqtda kuzatiladi. Janubiy Koreyaning raqamli tashabbusli byudjet modeli davlat xizmatlarini tezkor va shaffof qilishga katta hissa qo‘shmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli byudjet tizimi fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta’minlash va byudjet mablag‘larining samarali taqsimlanishiga yordam beradi. Porto Alegre modeli kabi klassik usullardan tortib, Janubiy Koreyaning raqamli yondashuvigacha bo‘lgan turli xil tajribalar mavjud. Har bir mamlakat o‘ziga xos sharoit va ehtiyojlarni inobatga olgan holda ushbu tizimni joriy etmoqda.

O‘zbekiston ham oxirgi yillarda tashabbusli byudjet tizimini joriy etish bo‘yicha katta qadamlar tashlamoqda. “Ochiq byudjet” platformasi orqali aholiga o‘z takliflarini bildirish va loyihalarga ovoz berish imkoniyati yaratilgan. Kelgusida jahon tajribasidan o‘rganilgan eng yaxshi usullarni qo‘llash orqali mamlakatimizda

bu tizimning samaradorligi yanada oshirilishi mumkin. Tashabbusli byudjet faqat moliyaviy boshqaruv mexanizmi bo‘lib qolmay, balki fuqarolarning jamiyatdagi faolligini oshirish, davlat va jamiyat o‘rtasida ochiqlikni ta’minlash va korrupsiyani kamaytirish vositasi ham hisoblanadi. Shu bois O‘zbekiston uchun jahon tajribasini chuqur o‘rganish va milliy modelni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cabannes, Y. (2004). Participatory Budgeting: Conceptual Framework and Analysis of its Contribution to Urban Governance and the Millennium Development Goals. Environment and Urbanization, 16(1), 27–46.
2. Wampler, B. (2007). A Guide to Participatory Budgeting. International Budget Partnership.
3. Sintomer, Y., Herzberg, C., & Röcke, A. (2012). Participatory Budgeting in Europe: Potentials and Challenges. International Journal of Urban and Regional Research, 36(1), 164–178.
4. Kudłacz, M., & Bukowski, M. (2019). Participatory Budgeting in Poland: Democratic Innovation or Political Strategy? Journal of Public Policy, 39(3), 573-597.
5. Polsha hukumati rasmiy sayti: https://www.gov.pl/ (Tashabbusli byudjet haqida hujjatlar va ko‘rsatmalar).
6. Porto Alegre shahar ma’muriyati rasmiy sayti: https://www2.portoalegre.rs.gov.br/ (Porto Alegre modeli bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar).
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Ochiq Byudjet: Fuqarolarning Tashabbuslari. https://openbudget.uz.
8. World Bank. (2019). Engaging Citizens for Better Development Results. Washington, D.C.: World Bank Group.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY MOLIYA MAHSULOTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Kariyeva Munis Dilshodovna
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Yashil iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolli global muommolarga yechim topishda muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyot-ekologik barqarorlik bilan iqtisodiy o‘sish integratsiyasiga yo‘naltirilgan tabiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muhitga jiddiy zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, yani resurlarni samarali boshqarish – tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash bilan birga, atrof muhitga zarar yetkazmaydigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda

ijtimoiy adolat va farovonlik tamoyillari asosida jamiyat a’zolari uchun sog‘lom muhit yaratib, yangi ish o‘rinlarini tashkil etishni qo‘llab quvvatlaydi.

Atrof muhitning ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi iqtisodiy barqarorlik va inson farovonligiga jiddiy xavf soladi. Ananaviy yashil iqtisodiyot bu muommolarni bozor mexanizmlari orqali hal etish imkoniyatini bersa, islomiy moliya bu borada axloqiy va diniy yo‘ndoshuvni o‘z ichiga olgan muqobil yaxlit modelni taklif etadi. Zero, islomiy moliya tamoyillari yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan, mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishida natijalarga erishishi uchun samarali usuldir.

Ma’lumki, islomiy moliya shariat qoidalariga asoslangan moliya tizimi (Muhammad Usmoniy Taqiy, 2023) bo‘lib, unga ko‘ra inson yerdagi resurslarning muhofazasiga mas’ul bo‘lishi bilan birga, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Islomiy moliyada isrofgarchilik va ortiqcha sarf xarajat man etilishini inobatga olgan holda, atrof muhitga, jamiyatga zarar yetkazuvchi har qanday iqtisodiy faoliyat ta’qiqlangan. Ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiyot esa ayni islomiy moliya tamoyillari bilan uyg‘unlikda masulyatli iqtisodiy faoliyatni aks ettiradi.

1-jadval

Islomiy moliya va yashil iqtisodiyotning o‘xshash mezonlari

T/r	Mezonlar	Islomiy moliya	Yashil iqtisodiyot
1.	Barqarorlik	Moliyaviy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi	Ekologik va iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab quvvatlaydi
2.	Zarar yetkazishni ta’qiqlash	Atrof muhitga jamiyatga iqtisodiy zarar ta’qiqlanadi	Atrof muhitga zarar yetkazadigan faoliyatni kamaytirishni talab etadi
3.	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	Isrofgarchilik va ortiqcha sarf xarajat ta’qiqlanadi	Tabiiy resurslardan samarali foydalanish muhim sanaladi
4.	Tavakkalchilik	Haddan tashqari tavakkalchilik (noaniqlik) va spekulatsiya ta’qiqlanadi	Haddan tashqari havfli va zararli loyihalar cheklanadi
5.	Adolat va tenglik	Ijtimoiy adolat va moliyaviy tenglik ta’minlashga qaratilgan	Ekologik adolat va resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga asoslanadi
6.	Masulyatli investitsiya	Halol faoliyatni moliyalashtiradi	Atrof muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni moliyalashtiradi

Muallif nuqtayi nazari

Jahon iqtisodiyoti iqlim o‘zgarishi va resurslarning kamayib borishi muommolariga javob sifatida barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tmoqda (UNEP, 2021). Yashil iqtisodiyot ulushining o‘sishini moliyalashtirish katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab etadi va islomiy moliya tizimi ekologik barqarorlikka mos keluvchi bir qancha vositalarni taklif etadi. Xususan, yashil sukuk, islomiy bank xizmatlari orqali moliyalashtirish (murobaha, mushoraka, ijara bitimlari) va vaqf, zakot mablag‘lari (Ahmed& Mohieldin, 2019) yordamida barqaror va foizsiz moliyalashtirish mehanizmlarini taqdim etib, atrof muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi (Elasrag, 2017).

Yashil sukuk islomiy aktivga asoslangan va foizdan xoli mahsus obligatsiya turi hisoblanib, ekologik va barqaror loyihalarini rivojlantirishni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Bunday obligatsiyalar qayta tiklanadigan energiya, ekologik

trasport, chiqindini qayta ishlash va suvni boshqarish infratuzilmasi kabi loyihalar uchun mablag‘ jalb qilishga imkon beradi. Yashil sukuk bozorida Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari yetakchi ulushga ega hisoblanadi. Dunyodagi ilk yashil sukuk Malayziyada 2017-yil chiqarilgan bo‘lib, 60 milliard AQSH dollarlik mablag‘lar qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo‘naltirilgan (Securities Comission Malaysia, 2020). Keyinchalik Indoneziya 2018-yilda 1,25 milliard AQSH dollarlik global yashil sukuk chiqarib yetakchi davlatga aylandi. Yashil sukuk orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirishning bir necha afzalliklari sifatida, foizsiz moliyalashtirish va real aktivga asoslanganlik global investorlarni qiziqishi ortishiga sabab bo‘ladi(OECD, 2021).

Shuningdek, ko‘plab islomiy banklar yashil iqtisodiyotga mos keluvchi mushoraka (hamkorlik asosida sarmoya) va murobaha (ustama haq evaziga ekologiya loyihalarni moliyalashtirish), ijara (ekologik texnologiyalarni ijaraga berish orqali) kabi mexanizmlardan foydalangan holda yashil texnologiyalar, ekologik startaplar va uglerod chiqindilarini kamaytirish loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Murobaha mahsuloti orqali quyosh panellarini sotib olish va sotish amaliyotlari, mushoraka mahsuloti asosida esa shamol elektr stansiyalarini qurish ishlari hamda ekologik transport vositalarini ijara bitimi asosida moliyalashtirish orqali sanoat va infratuzilmani barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Masalan, Malayziya islomiy banklari tomonidan 2019-yilda quyosh energiyasi loyihalarini moliyalashtirish uchun 200 million AQSH dollari ajratgan bo‘lsa, Bilashgan Arab Amirliklari islomiy banklari yashil energiya va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga 1 milliard AQSH dollarlik moliyalashtirish liniyalarini taqdim etdi. Islomiy bank xizmatlari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish global bozorda dastlabki bosqichda bo‘lsada, yashil sukuklarga muqobil sifatida katta salohiyatga ega (LSEG, 2023).

Islomiy jamg‘arma hisoblangan vaqf fondi mablag‘lari xam jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalaniladigan, ijtimoiy va ekologik loyihalarni moliyalashtirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Tarixiy nuqtayi nazardan, vaqf fondi mablag‘lari sog‘liqni saqlash, talim va jamiyat infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda esa vaqf fondi mablag‘larini ekologik barqarorlikni taminlash uchun yo‘naltirilgan loyihalarni ham moliyalashtiradi. Jumladan, Malayziyada “O‘rmon vaqfi” loyihasi doirasida yirik daraxt ekish dasturlari amalga oshirilgan, Misr va Turkiyada vaqf mablag‘lari yordamida quduq va suv omborlari qurilgan. Shu bilan birga, vaqf fondi mablag‘lari asosida ekologik ma’rifiy loyihalar, ekologik ta’lim dasturlari doirasida grantlar ajratilgan. Zakot mablag‘lari orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga erishish imkoniyati bir qator davlatlarda o‘z aksini topgan. Misol tariqasida, Saudiya Arabistoni va Malayziyada zakot fondi mablag‘lari yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanmoqda.

Islomiy mikromoliyalashtirish orqali qishloq joylardagi ekologik biznes loyihalar qo‘llab quvvatlash yashil iqtisodyotni mikromoliya loyihalar doirasida ham rivojlanish imkoniyatini kengaytiradi. Jumladan, Indoneziya, Sudan, Bangladesh kabi davlatlarda mikromoliyaviy institutlar orqali qishloq xo‘jaligi uchun ekologik investitsiyalar jalb qilinadi

Yuqoridagi keng imkoniyatlarga qaramasdan, bugungi kunda islomiy moliyaning ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi integratsiyasi ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday qiyinchiliklar sirasiga ekologik barqarorlikni taminlash uchun shariat standartlarining (shariatga muvofiqlik) mavjud emasligi, bozor xabardorligini yetishmasligi, global moliya tizimi bilan cheklangan integratsiyasi kabi omillarni yashil iqtisodiyotni islomiy moliya mahsulotlari asosida moliyalashtirishga to‘siq bo‘ladi. Muhim jihati shuki, ekologik loyihalari islomiy moliya vositalari orqali moliyalashtirishda shariatga muvofiqlik alohida ahamiyatga ega. Shunga qaramasdan, barqaror moliyaga global qiziqish islomiy moliyaning rolini kengaytirishsh uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa sifatida shuni takidlash joizki, islomiy moliya mahsulotlari nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki ekologik barqarorlikka erishish uchun mos va axloqiy yo‘ndashuvni taqdim etadi. Yashil sukuk, islomiy bank xizmatlari orqali moliyalashtirish, zakot va vaqf fondi mablag‘lari, shuningdek islomiy mikromoliyalash dasturlari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim moliyaviy mehanizm hisoblanadi. Bu esa uzoq muddatli barqaror investitsiyalarni qo‘llab quvvatlaydi. Ushbu vositalarni kengaytirish global ekologik muammolarga samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmed, H. va Mohieldin, M. (2019). Sustainable development goals and the role of islamic finance. World bank.

2. Elasrag, H. (2017) Towards a new role of the Institution of Waqf.

3. IFSB (2021) Islamic financial services industry stability report. Islamic Financial Services Board.

4.LSEG. (2023). Islamic Finance ESG Outlook . Islamic Finance Council

5. Muhammad Usmoniy Taqiy(2023) Islom moliyasiga kirish

6. OECD. (2021) Public-private partnerships for sustainability. OECD publishing

7. Securities Commission Malaysia. (2020). Green sukuk issuance: Market trends and regulatory developments.

8. UNEP. (2021) Financing sustainable development: The role of islamic finance. United Nations Environment Programme.

9. World bank.(2020) . Green sukuk: Financing sustainable development.

YASHIL IQTISODIYOT VA XALQARO YASHIL MOLIYA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi
TDIU talabasi

So‘nggi yillarda global ekologik muammolar, jumladan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi dunyo iqtisodiyotining barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida

yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil moliya bozori investitsiyalarni ekologik jihatdan barqaror loyihalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy rivojlanishga yangi sur’at bag‘ishlamoqda. Yashil obligatsiyalar, barqaror investitsiyalar va ekologik kreditlash kabi moliyaviy instrumentlar barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday instrumentlar orqali korxonalar va davlatlar uglerod neytralligiga erishish hamda ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning global tendensiyalari va xalqaro yashil moliya bozori dinamikasi tahlil qilinadi. Xususan, jahon miqyosidagi yetakchi mamlakatlarning yashil moliya siyosati, moliyaviy instrumentlarning samaradorligi va istiqbollari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot yashil iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash va O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha

Yashil iqtisodiyot va xalqaro yashil moliya bozori bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar oxirgi yillarda jadal rivojlanib, ushbu yo‘nalish global iqtisodiy muhitning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Turli manbalarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, yashil moliyaviy instrumentlar va ularning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha turli nazariy yondashuvlar ilgari surilgan.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi dastlab David Pearce, Anil Markandya va Edward Barbier tomonidan "Blueprint for a Green Economy" (1989) kitobida shakllantirilgan bo‘lib, unda ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratilgan [1]. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan nashr etilgan "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication" (2011) hisobotida esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha global strategiyalar ko‘rib chiqilgan [2]. Ushbu manbalarda yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va barqaror ishlab chiqarishni rag‘batlantirish vositasi sifatida baholangan.

Xalqaro yashil moliya bozori va yashil investitsiyalar bo‘yicha tadqiqotlar Simon Zadek va Cassie Flynn tomonidan "South-Originating Green Finance: Exploring the Potential” (2013) tadqiqotida keng yoritilgan bo‘lib, unda yashil moliyaning iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi tahlil qilingan [3]. So‘nggi yillarda, Jahon banki “The State and Trends of Carbon Pricing” (2021) hisobotida yashil moliyaviy instrumentlarning rivojlanishi rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratishi mumkinligini ta’kidlagan [4].

O‘zbekiston kontekstida yashil iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, Mirzayev Behruz (2023) o‘zining "O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari: muammolar va yechimlar" tadqiqotida yashil moliyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga integratsiyasi, mavjud muammolar va istiqbollarini tahlil qilgan [5]. Shu bilan birga, O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy bankining “Moliyaviy barqarorlik sharhi” (2023) hisobotida mamlakatda yashil kreditlar va barqaror moliyaviy tizimni shakllantirish istiqbollari muhokama qilingan [6].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar yashil iqtisodiyot va yashil moliyaviy instrumentlarning global va milliy darajada rivojlanishi bo‘yicha muhim ilmiy asoslar taqdim etgan. Biroq, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari uchun moslashtirilgan strategik yondashuvlar, yashil moliya bozorining rivojlanish xususiyatlari va uning iqtisodiy samaradorligini baholashga oid tadqiqotlar yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu maqolada yashil iqtisodiyot va yashil moliya bozori bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish bilan birga, O‘zbekiston iqtisodiyotida ularning rivojlanish istiqbollari va strategiyalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Ushbu ilmiy maqola yashil iqtisodiyot va xalqaro yashil moliya bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotda iqtisodiy, statistik va taqqoslash metodlari qo‘llanildi. Mazkur metodologik yondashuv global yashil iqtisodiyot tendensiyalarini aniqlash, xalqaro yashil moliya bozori dinamikasini baholash va O‘zbekiston iqtisodiyotiga integratsiya imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot va yashil moliya bozori bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (Jahon banki, IMF, OECD, UNEP va boshqalar) hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu metod yashil iqtisodiyot tamoyillarini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyot va xalqaro yashil moliya bozori hozirgi global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining amaliyotga tatbiq etilishi dunyo bo‘ylab jadallashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Frankfurt Maktabining “Global Trends in Renewable Energy Investment 2020” (2020) hisobotiga ko`ra, qayta tiklanadigan energiya manbalariga global investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib, 2019-yilda 282,2 milliard AQSh dollorni tashkil etgan [7]. Shuningdek, ko‘plab rivojlangan davlatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tishni jadallashtirmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi "Green Deal" strategiyasi asosida 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishishni maqsad qilgan [8].

Yashil moliya bozori oxirgi o‘n yillikda jadal rivojlanib, dunyo bo‘ylab ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biriga aylangan. Shuningdek, global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2022-yilga kelib 487,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa 2015-yildagi hajmdan ancha yuqori bo`lib, yashil obligatsiyalar bozorining sezilarli o`sishini ko`rsatadi [9]. Xalqaro yashil moliyaviy instrumentlar esa bir nechta asosiy yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

1. Yashil obligatsiyalar – bu instrumentlar asosan davlatlar va korporatsiyalar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Masalan, AQShning "Green Bonds" dasturi orqali qayta tiklanadigan energiya va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalariga milliardlab dollar sarmoya yo‘naltirilmoqda.

2. Barqaror kreditlash – bank sektorida ekologik barqaror loyihalarga kredit ajratish hajmi ortib bormoqda.

3. Iqlim bo‘yicha investitsiyalar – investorlar korporativ ijtimoiy javobgarlikni e’tiborga olib, faqat ekologik mezonlarga mos loyihalarga sarmoya kiritish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarining rivojlanishi davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” ushbu jarayonning huquqiy asosini belgilab berdi. Jumladan, Respublikada quyosh va shamol energetikasi loyihalari borasida Navoiy va Buxoro viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari barpo etilgan [10]. Shuningdek, yashil obligatsiyalar bozori shakllanish bosqichida ya’ni 2022-yilda O‘zbekiston Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorlikda ilk yashil obligatsiyalar chiqarish bo‘yicha ishlarni boshlagan hamda O‘zbekiston ekologik turizm va organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda [11].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot va yashil moliya bozori global va milliy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Yuqoridagi tahlillar esa O‘zbekiston yashil iqtisodiyot va xalqaro yashil moliya bozoriga integratsiyalashish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, ushbu jarayonni jadallashtirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikka erishish mumkinni ko`rsatmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot va xalqaro yashil moliya bozori bugungi global iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynamoqda. Dunyo miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, yashil obligatsiyalar bozorining kengayishi va ekologik barqaror iqtisodiy modellarni rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, yashil moliyaviy instrumentlar xalqaro miqyosda nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish vositasi sifatida ham o‘z ahamiyatini oshirmoqda.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tahlil qilinganda, mamlakatda bu borada muayyan yutuqlarga erishilganligi aniqlangan. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik turizmni rivojlantirish, yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish va davlatning strategik yondashuvi ushbu yo‘nalishdagi muhim bosqichlar hisoblanadi. Biroq, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va xalqaro tajribadan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish;
- Barqaror energetik infratuzilmani kengaytirish;
- Yashil iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va ta’lim dasturlarini kengaytirish;
- Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston yashil iqtisodiyot va yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish orqali xalqaro iqtisodiy integratsiyada o‘z mavqeini mustahkamlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://books.google.co.uz/books/about/Blueprint_for_a_Green_Economy.html?id=jMTupDDeWZ8C&redir_esc=y
2. https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy-pathways-sustainable-development-and-poverty-eradication-10?utm_source
3. Simon Zadek, Cassie Flynn “South-Originating Green Finance: Exploring the Potential” November 2013. Pp-21.
4. https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/7d8bfbd4-ee50-51d7-ac80-f3e28623311d?utm_source
5. https://www.researchgate.net/publication/375940939_O%27ZBEKISTON_RESPUBLIKASINI_YASHIL_IQTISODIYOTGA_O%27TISH_ISTIQBOLLARI_MUAMMOLAR_VA_YECHIMLAR
6. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Moliyviy barqarorlik sharhi” hisoboti, 2023-yil I yarim yillik, Oktabr 2023
7. Frankfurt School, FS-UNEP Collaborating Centre for Climate & Sustainable Energy Finance “Global Trends in Renewable Energy Investment 2020”, 2020. Pp-79
8. https://climate.ec.europa.eu/eu-action/climate-strategies-targets/2050-long-term-strategy_en?utm_source
9. Arifjanova Yayraxon Usmonxo’jayevna “Aksiyadorlik jamiyatlarini obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari” So`ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7-jild 6-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.06.2024. 190
10. https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/27/karmana/?utm_source
11. https://kun.uz/36962192?q=%2Fuz%2F36962192&utm_source

TA’LIM INFRATUZILMASINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: INKLYUZIV MAKTABLAR MISOLIDA

Yakubova Samira Sabitdjanovna
Bank-moliya akademiyasi, PhD
Djo’rayeva Moxinur Shuxrat qizi
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

So‘nggi yillarda global iqtisodiy jarayonlarda yashil iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish muhim masalaga aylanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, energiya samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishga intilish barcha sohalarni, jumladan, ta’lim infratuzilmasini isloh qilishga undamoqda. Jahon miqyosidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida ekologik innovatsiyalarni

joriy etish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi, balki o‘quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi "O‘zbekiston – 2030" dasturi doirasida yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos infratuzilmani rivojlantirish va ta’lim muassasalarida energiya samaradorligi loyihalarini amalga oshirishni maqsad qilgan. Hozirda butun mamlakat bo‘ylab inklyuziv ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy qadamlar qo‘yilmoqda. Biroq, bu jarayon hali to‘liq shakllanmagan. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligining 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, ko‘plab inklyuziv maktablarda ekologik infratuzilma va energiya tejamkor texnologiyalar yetishmaydi, bu esa o‘quvchilar uchun xavfsiz va qulay ta’lim muhitini yaratishga to‘sqinlik qilmoqda.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, yashil infratuzilmaga ega inklyuziv maktablar an’anaviy maktablarga nisbatan quyidagi muhim afzalliklarga ega:

o Atrof-muhitga ijobiy ta’sir – qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalardan foydalanish orqali uglerod izini kamaytiradi.

o Ta’lim sifati yaxshilanadi – tabiiy yorug‘lik, toza havo va ekologik materiallar o‘quvchilarning salomatligini mustahkamlash bilan birga, dars jarayonida ularning diqqatini jamlashiga yordam beradi.

o Iqtisodiy samaradorlik – vaqt o‘tishi bilan operatsion xarajatlar qisqaradi, natijada moliyaviy resurslar samarali taqsimlanadi.

Ushbu tadqiqot yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida inklyuziv ta’lim infratuzilmasini shakllantirish zaruriyatini ilmiy asoslash, xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda O‘zbekistonda ushbu modelni joriy etish imkoniyatlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot davomida moliyalashtirish mexanizmlari, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar o‘rganiladi.

1. Yashil infratuzilmadan foydalangan inklyuziv maktablarning ahamiyati va afzalliklari.

So‘nggi yillarda ta’lim infratuzilmasining ekologik barqarorligi va inklyuzivligi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar ortib bormoqda. BMT (2022) hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab maktablarning 30% dan ortig‘i energiya samaradorligi mezonlariga javob bermaydi, va 40% o‘quvchi ekologik jihatdan nosog‘lom sharoitda tahsil oladi. OECD (2023) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ekologik standartlarga javob beruvchi ta’lim infratuzilmasi o‘quvchilarning akademik natijalarini 15–20% ga yaxshilaydi va sog‘liq bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra dars qoldirish holatlarini 30% ga kamaytiradi.

O‘zbekiston "O‘zbekiston – 2030" dasturi doirasida yashil iqtisodiyotga o‘tish va ta’lim infratuzilmasini ekologik modelga moslashtirishni strategik maqsad sifatida belgilagan. Biroq, hozirgi inklyuziv maktablarning moddiy-texnik infratuzilmasi hali yetarli darajada rivojlanmagan. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, mavjud inklyuziv maktablarning 70% dan ortig‘i qayta qurish va modernizatsiya qilishga muhtoj, shu jumladan energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqaror infratuzilmaga ega maktablar uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi. Masalan:
✔ Germaniya (2019–2023): 100 dan ortiq maktablar yashil obligatsiyalar orqali

moliyalashtirildi. Natijada, har bir maktabda elektr energiyasi iste'moli 40% ga kamaydi, yillik operatsion xarajatlar esa 20% ga optimallashtirildi (*European Union, 2023*).

✔ AQSh (Kaliforniya): "Green Schools Initiative" dasturi maktablarni ekologik barqaror infratuzilma bilan ta'minlashga yordam berdi, natijada o'quvchilarning akademik natijalari o'rtacha 20% ga oshdi (*UNESCO, 2022*).

✔ Finlyandiya: 500 million yevrolik davlat-xususiy sheriklik (PPP) investitsiyasi yashil maktablarga yo'naltirildi, natijada o'quvchilar orasida sog'liq bilan bog'liq kasalliklar 25% ga kamaydi (*World Bank, 2023*).

Shu tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda yashil infratuzilmaga ega inklyuziv maktablarni rivojlantirish quyidagilarga yordam beradi:

o Ekologik barqarorlik – energiya samarador texnologiyalardan foydalanish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish.

o Ijtimoiy samaradorlik – ta'lim muhiti sifatini yaxshilash va o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash.

o Iqtisodiy samaradorlik – davlat budjeti mablag'larini samarali taqsimlash va uzoq muddatli energiya xarajatlarini qisqartirish.

2. Yashil energiya texnologiyalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish.

Ta'lim sohasida energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribalar muvaffaqiyatli joriy etilgan. International Renewable Energy Agency (IRENA, 2023) hisobotiga ko'ra, quyosh panellari va energiya tejamkor isitish tizimlari bilan jihozlangan maktablar elektr energiyasi sarfini 30–50% ga qisqartirishi mumkin.

Masalan, Hindistonda quyosh panellari bilan jihozlangan maktablarda elektr xarajatlari 35% ga kamaygan, va 10 yil ichida investitsiya to'liq o'zini oqlagan (*IRENA, 2023*). Singapurda yashil maktablar tashkil etilishi CO_2 chiqindilarini 45% ga kamaytirgan, ekologik sharoitni sezilarli darajada yaxshilagan (*World Bank, 2022*).

O'zbekiston quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha dunyodagi eng istiqbolli 10 ta davlat qatorida ekanini inobatga olsak, quyosh panellari, tabiiy shamollatish tizimlari va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish shart.

3. Yashil infratuzilmani moliyalashtirish va barqaror investitsiyalarni ta'minlash

Har qanday infratuzilma loyihasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun barqaror moliyaviy mexanizmlar talab etiladi. OECD (2023) tadqiqotlariga ko'ra, yashil infratuzilmani moliyalashtirishning eng samarali usullari quyidagilardan iborat:

o Yashil obligatsiyalar – uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish.

o Davlat-xususiy sheriklik (PPP) – xususiy sektorni ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilish.

o Xalqaro moliyaviy yordam olish – Jahon Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD), va Global Green Growth Institute (GGGI) kabi tashkilotlardan grant va kreditlar jalb qilish.

Masalan, Finlyandiyada yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirilgan maktablar 12 yil ichida investitsiyani to‘liq qoplagan va davlat xarajatlarini 30% ga kamaytirgan (*European Union, 2023*). O‘zbekistonda EBRD 2023-yilda yashil loyihalar uchun 100 million dollar ajratgan, ammo bu mablag‘lar hali ham inklyuziv ta’lim infratuzilmasi rivojlanishiga yetarlicha yo‘naltirilmagan (*EBRD, 2023*).

Shu sababli, yashil obligatsiyalar, xalqaro grantlar va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni kengaytirish O‘zbekistonda ta’lim infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida inklyuziv ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- Energiya samaradorligi – Germaniyada yashil texnologiyalar joriy qilingan maktablarda energiya iste’moli 40% ga kamaygan. O‘zbekistonda ham quyosh panellari, energiya samarador isitish tizimlari va tabiiy yoritish texnologiyalarini joriy etish orqali inklyuziv maktablarda yiliga kamida 30% energiya tejash mumkin.
- O‘quvchilar salomatligi – Kanada va Finlyandiyada yashil maktablar o‘quvchilarning diqqat-e’tibori va sog‘lig‘ini yaxshilagani aniqlangan.
- Moliyaviy barqarorlik – Jahon Banki hisob-kitoblariga ko‘ra, yashil maktablarga sarmoya 10-15 yil ichida to‘liq o‘zini qoplaydi.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston ta’lim tizimining ekologik barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** (2025). *"O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon*.
2. **UNESCO.** (2023). *Green Schools and Sustainable Education Development*.
3. **OECD.** (2022). *Financing Sustainable Education Infrastructure*.
4. **World Bank.** (2023). *Public-Private Partnerships in Inclusive Education*.
5. **European Union**. (2023). *Energy Efficiency in Educational Facilities: Case Studies*.
6. **Uzbekistan Green Economy Development Plan.** (2024–2030).
7. **Global Green Growth Institute.** (2023). *Green Investment for Sustainable Development*.
8. **International Energy Agency.** (2022). *The Role of Renewable Energy in Educational Infrastructure*.
9. **United Nations (BMT).** (2022). *Education for Sustainable Development: Policies and Practices*. UNESCO Publishing.
10. **OECD.** (2023). *Green Infrastructure for Inclusive Education*. Paris: OECD Publishing.
11. **International Energy Agency (IEA).** (2022). *The Role of Renewable Energy in Educational Infrastructure*. Cambridge: IEA Research Reports.
12. **European Union.** (2023). *Energy Efficiency in Educational Facilities: Case Studies*. Brussels: EU Commission Reports.
13. **World Bank.** (2023). *Public-Private Partnerships in Inclusive Education*. Washington, DC: World Bank Group.

14. **Global Green Growth Institute (GGGI).** (2023). *Sustainable Infrastructure for Future Education*. Seoul: GGGI Reports.
15. **International Renewable Energy Agency (IRENA).** (2023). *Renewable Energy in Educational Institutions*. Abu Dhabi: IRENA Research Reports.
16. **European Union.** (2023). *Investment Strategies for Green Schools*. Brussels: EU Commission Reports.
17. **OECD**. (2023). *Financing Sustainable Education Infrastructure*. Paris: OECD Publishing.
18. **European Bank for Reconstruction and Development (EBRD).** (2023). *Green Bonds and Climate Financing in Central Asia*. London: EBRD Reports.

YASHIL MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sadullayeva Mohinur G‘ayratjon qizi
Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

R.Zhang va boshqalar yashil obligatsiya orqali kapital jalb qilishning uchta asosiy jihatiga e’tibor qaratgan. “Birinchidan, kompaniya yashil moliyalashtirish siyosatini qabul qilganda tartibga solish talablariga javob berish uchun ko‘proq tegishli ma’lumotlarni oshkor qilishi kerak. Natijada, yashil moliyalashtirish investorlar va obligatsiyalar emitentlari o‘rtasidagi ma’lumotlar assimetriyasini kamaytirishi mumkin. Ikkinchidan, agar kompaniya yashil moliyalashtirish siyosatini qabul qilsa, kompaniya ko‘proq tahlilchilar va investorlarni jalb qilishi mumkin. Buning natijasida, kompaniya o‘zining fond bozoridagi likvidligini oshiradi va jalb qilinadigan kapital bahosini pasaytiradi. Uchinchidan, kompaniya yashil moliyalashtirish siyosati orqali kompaniya faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirishi mumkin”[65]. Mazkur jihatlar bugungi kunda yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanib borayotganligining sababini tushunishga yordam beradi.

C.Garcia va boshqalar ta’kidlashicha, “birinchi yashil obligatsiyalar 2007-yilda Yevropa investitsiya banki tomonidan chiqarilgan. Biroq, yashil obligatsiyalar bozori 2014-yilgacha rivojlanmadi. Ushbu o‘sishning asosiy omillaridan biri Xalqaro kapital bozori assotsiatsiyasi (ICMA) tomonidan yozilgan Yashil obligatsiya prinsiplarining (GBP) o‘sha yili nashr etilishi edi. Garchi emitentlar uchun ixtiyoriy qo‘llanma bo‘lsada, ular halollikni ta’minlaydigan va investorlarning ishonchini oshiradigan bir qator eng yaxshi amaliyot tavsiyalarini taklif qiladi. Bundan tashqari, 2015-yilda Parij kelishuvining imzolanishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) yashil

[65] R.Zhang, Ya.Li, Y.Li. Green bond issuance and corporate cost of capital. // Pacific-Basin Finance Journal, Volume 69, October 2021. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0927538X21001335

obligatsiyalar chiqarishga sezilarli turtki berdi”[66]. Demak, tartibga soluvchi regulyatorlar tomonidan o‘z vaqtida zaruriy mexanizmlarning ishlab chiqilishi yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanishiga yordam bermoqda.

B.Mamatov ta’kidlashicha, “rivojlanib borayotgan yashil investitsiyalar bozoridan kapital jalb qilish maqsadida yashil obligatsiyalar emissiyasi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarga erishishga bo‘lgan intilishining navbatdagi tasdig‘i bo‘lib, atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish orqali sezilarli va aniq o‘sishga qaratilgan investitsiya jalb qilish dastagi sifatida mamlakat iqtisodiyotiga kapital jalb qilishning muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qilishi mumkin”.

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi.Yashil iqtisodiyotda bandlik va daromadning o‘sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalar orqali ta’minlanadi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning tamoyillari [67]

Yashil iqtisodiyot jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda ekan uning asosiy tamoyillari nimadan iborat ekanligini bilib olishimiz zarurdir. Yashil iqtisodiyotning beshta tamoyili mavjuddir.

Hisobot shuni ko‘rsatadiki, 2022 yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) 12 foizga kamaydi va investitsiya siyosati va kapital bozori tendentsiyalari SDGga, xususan, toza energiyaga investitsiyalarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi.

Unda ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga har yili taxminan 1,7 trillion AQSh dollari miqdorida investitsiyalarga muhtoj, ammo 2022 yilda toza energiyaga atigi 544 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilingan.

[66] C.J.García, B.Herrero, J.L.Miralles-Quirós, M.M.Mirallles-Quirós. Exploring the determinants of corporate green bond issuance and its environmental implication: The role of corporate board. // Technological Forecasting and Social Change, Volume 189, April 2023. – p.3. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162523000641

[67] G’ulomova Sh.B. Iqtisodiyotning yangi yo’nalishlaridan biri- yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari https://doi.org/10.5281/zenodo.13922855

2015 yildan beri qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar qariyb uch baravar ko‘paygan bo‘lsa-da, mablag‘ning katta qismi rivojlangan mamlakatlarga yo‘naltirildi.

Hisobot rivojlanayotgan mamlakatlarni toza energiyaga o‘tish uchun sezilarli darajada ko‘proq sarmoya jalb qilish imkonini berish uchun ularni zudlik bilan qo‘llab-quvvatlashga chaqiradi.

U barcha uchun barqaror energiyani ta’minlash uchun moliyalashtirish mexanizmlaridan tortib investitsiya siyosatigacha bo‘lgan ustuvor harakatlarni belgilab beruvchi ixcham hujjatni taklif qiladi.

2021-yilda kuchli o‘sishdan so‘ng, global to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 2022-yilda 12 foizga qisqarib, 1,3 trillion dollarni tashkil etdi, bu asosan bir-biriga zid bo‘lgan global inqirozlar–Ukrainadagi urush, oziq-ovqat va energiya narxlarining yuqoriligi va davlat qarzining o‘sishi bilan bog‘liq.

Bu pasayish asosan rivojlangan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sezildi, ularda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 37 foizga qisqarib, 378 milliard dollarni tashkil qildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga oqim 4% ga o‘sdi - notekis bo‘lsa-da, bir necha yirik rivojlanayotgan mamlakatlar sarmoyaning katta qismini jalb qildi, eng kam rivojlangan mamlakatlarga oqim esa kamaydi.

Ijobiy tomoni shundaki, yashil maydon investitsiya loyihasi e’lonlari 2022 yilda 15 foizga o‘sdi va aksariyat hududlar va tarmoqlarda o‘sdi[68].

So‘nggi yillarda sukuk bozori uchun foydali bo‘lgan tendensiya atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) bilan bog‘liq yo‘nalishlarda chiqarilgan sukukka bo‘lgan qiziqishning ortishidir. Quyidagi gistogrammada yashil sukuklar bo‘yicha eng yetakchi davlatlarni ko‘rish mumkin.

Ushbu davrga kelib, 2023-yilning birinchi to‘qqiz oyi davomida chiqarilgan ESG sukukning eng katta ulushi banklar hissasiga to‘g‘ri kelgan, bu umumiy emissiyaning 27% ini tashkil etdi. Ularning aksariyati Saudiya Arabistoni va BAAda joylashgan.

Malayziya kapital bozori subyektlariga barqaror rivojlanish sukuklarini yashil va ijtimoiy sukuk shaklida chiqarish imkonini bergan. 2017-yilda Malayziya dunyodagi birinchi yashil sukukni yirik quyosh fotoelektr stansiyalari qurilishini moliyalashtirish uchun chiqargan. (Malaysia Kapital bozori, 2024).

[68] UNCTAD, FDI/MNE database (https://unctad.org/fdistatistics). ma’lumotlari https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023



2-rasm. 2023-yil, 3-chorak holatiga ko‘ra, yashil va barqaror sukukning mamlakatlar bo‘yicha jami emissiyasi[69]

Malayziya 2050-yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini nolga yaqinlashtirish rejasini tuzib chiqdi. Bu maqsad hukumatning bir qancha qarorlari, jumladan 2030-yilga qadar sanoatning yangi bosh rejasi milliy qayta tiklanadigan energiya resurslarini kengroq yo‘lga qo‘yishga asoslangan. Unga ko‘ra, 2022-yil holati bo‘yicha, Malayziyaning qayta tiklanadigan energiya quvvati 25% bo‘lib, bu 9856 megavattni tashkil qilgan. Hukumat 2050-yilga kelib 1,2 trillion ringgitdan 1,3 trillion ringgitgacha bo‘lgan potensial investitsiyalarni loyihalashtirib, YaIMga taxminan 220 milliard ringgit hissa qo‘shishi va 310000 ga yaqin yashil ish o‘rinlarini yaratishi taxmin qilingan.

“Yashil iqtisodiyot”, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta’minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyotga” o‘tish iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Islom moliya instrumentlarining yanada rivojlanishiga va ekologiyani asrashga qaratilgan ishlarning kengroq yoyilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Zhang, Ya.Li, Y.Li. Green bond issuance and corporate cost of capital. // Pacific-Basin Finance Journal, Volume 69, October 2021. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0927538X21001335

Банк-молия академияси тингловчиси

Ўзбекистон Республикаси иқтисодий ислоҳатлар сиёсатини ривожлантира бориб, ўзининг ташқи иқтисодий фаолиятида истиқболли имкониятларини очадиган Жаҳон Савдо Ташкилотига *(ЖСТ)* аъзо бўлишга фаол интилмоқда. Замонавий шароитда ЖСТга аъзолик - жаҳон иқтисодиёти интеграциялашувига интилаётган ҳар қандай мамлакат учун муҳим қадамдир. Шу билан бирга, мамлакат барқарор ривожланиш, шу жумладан яшил иқтисодиётга ўтиш чораларини кўриб чиқмоқда. Ушбу икки жараён ўзаро боғлиқ: глобал савдо занжирларига интеграция экологик стандартларга риоя қилишни талаб қилади ва барқарор ривожланиш тамойилларини жорий этиш маҳсулотларнинг жаҳон бозорида рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Ушбу тезисда ЖСТга аъзоликнинг Ўзбекистон иқтисодиётига, айниқса яшил технологиялар ва экология нуқтаи назаридан таъсири кўриб чиқилган. Шу билан бирга, мамлакат барқарор ишлаб чиқариш усулларига ўтиш, қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланиш ва атроф-муҳит ифлосланишини камайтиришни ўз ичига олган яшил иқтисодиётни ривожлантиришга интилмоқда.

Ушбу тезисда Ўзбекистон Республикасининг ЖСТга аъзолиги унинг ташқи савдосига ва яшил иқтисодиётнинг ривожланишига қандай таъсир қилиши мумкинлигини кўриб чиқиш, шунингдек, ушбу жараённинг мумкин бўлган асосий афзалликлари ва муаммоларини аниқлашдан иборат.

Ўзбекистон Республикасининг ЖСТга аъзо бўлиш фаолияти 1994 йилдан бошланган, бироқ иқтисодий ислоҳотлар ва мамлакат савдо сиёсатидаги ўзгаришлар туфайли жараён кечиктирилди. Сўнгги йилларда бу жараён янада кучайди, чунки ташкилотга аъзолик янги бозорларга чиқиш имкониятини очади, тариф тўсиқларини камайтиради ва мамлакатнинг инвестицион жозибадорлигини оширади. Шу билан бирга ЖСТга аъзо бўлиш Қонунчилик ва савдо стандартларини халқаро нормалар билан уйғунлаштиришни талаб қилади, бу мураккаб, аммо зарур жараён.

Ўзбекистон учун ЖСТга аъзо бўлишнинг асосий афзалликлари:

- Ташқи савдони соддалаштириш ва тариф тўсиқларини камайтириш.
- Ўзбекистон товарларининг жаҳон бозорида рақобатбардошлигини ошириш.
- Шаффоф савдо қоидалари орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш.
- Савдо низоларини ҳал қилиш механизмларига кириш.
- Ўзбекистон Республикаси энергетик хавфсизлигини таъминлаш мақсадида экологик “яшил энергия” сиёсатини олға суриш платформасини яратиш.

Бироқ, Ўзбекистон учун ЖСТга аъзо бўлишнинг маълум хавфлар ҳам мавжуд:

- Маҳаллий ишлаб чиқарувчилар учун рақобатнинг кучайиши.
- Қатъий халқаро стандартларга мослашиш зарурати.
- Янги савдо шароитларига ўтишда мумкин бўлган қисқа муддатли иқтисодий қийинчиликлар.
- ЖСТга аъзо бўлиш Ўзбекистонга янги имкониятлар яратади, аммо бу муҳим иқтисодий мослашувни ҳам талаб қилади.

Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланишнинг устувор йўналиши сифатида Яшил иқтисодиёт атроф-муҳитга салбий таъсирни камайтиришни ва шу билан бирга иқтисодий ўсишни оширишни ўз ичига олади. Бу, айниқса, Ўзбекистон учун жуда муҳим, чунки мамлакат сув танқислиги, ҳавонинг ифлосланиши ва иқлим ўзгариши муаммоларига дуч келмоқда. Яшил иқтисодиётнинг асосий йўналишлари:

- Қайта тикланадиган энергия манбаларини ривожлантириш (қуёш ва шамол энергияси).
- Саноатда энергия тежайдиган технологияларни жорий этиш.
- Чиқиндиларни бошқаришнинг замонавий усуллари.
- Қишлоқ хўжалиги экологияси муаммолари.
- Ичимлик суви таъминоти ва тежамкорлик муаммолари.
- Ҳаво тозалиги назорати ва ифлосланиш факторларини аниқлаш.
- Кишилик жамиятида экологик онгни шакллантириш, тарғибот қилиш ва кенг кўламда ривожлантириш.

ЖСТга қўшилиш ва яшил иқтисодиётнинг ривожланиши ўзаро боғлиқдир. ЖСТга аъзолик халқаро экологик стандартларга мувофиқлигини англатади. Ташкилотга аъзолик Ўзбекистонни экологик хавфсиз технологияларни жорий этишни рағбатлантирадиган экологик хавфсизликнинг халқаро стандартларига риоя қилишга мажбур қилади. Яъни иссиқхона газлари чиқиндиларини камайтириш, экологик тоза технологияларга ўтиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш киради.

Шунингдек ЖСТ, мамлакатларни ушбу талабларга мослашишда қўллаб-қувватлаш механизмларини тақдим этади. ЖСТ Ўзбекистон Республикасининг яшил иқтисодиётига таъсири жуда катта, яъни ЖСТга қўшилиш юқори экологик стандартларни талаб қиладиган ривожланган мамлакатлар бозорларига киришни оширади. Бу эса Республикамизга

кирадиган инвеститциялар хажмини оширилишига ва шу билан экспортни ўсишига олиб келади. Шу ўринда бу экологик тоза ишлаб чиқаришни жорий этиш учун имтиёзлар яратади.

ЖСТ экологик тоза товарлар савдосини қўллаб-қувватлайди, бу эса халқаро стандартларга мувофиқ сертификатланган Ўзбекистон маҳсулотларини экспорт қилиш имкониятини яратади. Бу айниқса, қишлоқ хўжалиги, тўқимачилик саноати ва органик маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун жуда муҳимдир.

Стандартларни уйғунлаштириш муаммолари Ўзбекистон халқаро экологик стандартларга мослашиш заруратини туғдиради, бу еса корхоналарни модернизация қилишга олиб келади.

Қайта тикланадиган энергетикани ривожлантириш: қулай савдо шароитлари қуёш ва шамол энергиясига инвестицияларни жалб қилиш имконини беради. Шундай қилиб, ЖСТ га аъзо бўлиш Ўзбекистон маҳсулотларининг рақобатбардошлигини ошириш билан бирга барқарор ривожланишга ўтишнинг катализаторига айланиши мумкин.

Ўзбекистоннинг ЖСТга аъзолиги ташқи савдо ва яшил иқтисодиётни ривожлантириш учун янги истиқболларни очиб беради. Ўзбекистоннинг ЖСТга аъзо бўлиш жараёни жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув йўлидаги жуда муҳим қадамдир. Бу глобал бозорларга киришни таъминлайди, инвестицияларни жалб қилади ва илғор экологик стандартларни амалга оширишга ёрдам беради. Шу билан бирга, халқаро экологик стандартлар мамлакатнинг барқарор ривожланишига ҳисса қўшадиган яшил иқтисодиётнинг ривожланишини рағбатлантиради.

Аммо мамлакат бир қатор муаммоларга дуч келиши мумкин, жумладан, ўз саноатини модернизация қилиш ва халқаро талабларга мослашиш зарурати. Агар Ўзбекистон Республикаси ЖСТга аъзоликнинг афзалликларидан самарали фойдалана олса ва шу билан бирга экологик ислоҳотларни амалга оширса, бу узоқ муддатли иқтисодий ўсишга ва аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилашга олиб келади. Жаҳон иқтисодиётига муваффақиятли қўшилиш ва яшил иқтисодиётни ривожлантириш учун Ўзбекистон қонунчиликни ислоҳ қилиш, барқарор технологияларга инвестицияларни жалб қилиш ва бизнеснинг экологик масъулиятини ошириш бўйича фаол иш олиб бориши керак. Узоқ муддатли истиқболда ушбу чора-тадбирлар рақобатбардош, экологик тоза ва барқарор иқтисодиётни яратади. Хулоса қилиб айтиб ўтиш жоизки, Ўзбекистоннинг ЖСТга аъзо бўлиши – Жаҳон цивилизация жараёнига қўйилган муҳим қадамдир.

ANALYSIS OF THE FACTORS THAT MAKE A COMPANY FINANCIALLY APPEALING AND HOW THEY IMPACT ITS INVESTMENT PROSPECTS

Tuganbekova Nursuluv Erkinbek kyzy
Senior Lecturer of KIMYO International University

To optimize investment choices and ensure the greatest return, the concept of *investment attractiveness* is crucial. This relatively recent addition to economic literature is primarily used to assess and characterize potential investments, facilitate comparisons through ratings, and analyze various business processes. Despite its growing importance, a review of existing interpretations reveals a lack of a universally accepted definition for this key economic category. The concept can be thought of as a holistic assessment of a company's potential to generate value and attract capital.

Specifically, the investment attractiveness of an enterprise represents the complex network of economic relationships among various business entities, all focused on achieving effective growth and maintaining a competitive edge. This attractiveness isn't merely a subjective feeling; it's evaluated using a comprehensive set of indicators that reflect the efficiency and effectiveness of various aspects of the enterprise's operations. These indicators fall into two main categories:

- Formal Indicators: These are objective, data-driven metrics derived from the company's financial reporting. They typically include measures of profitability (e.g., return on equity, profit margins), solvency (e.g., debt-to-equity ratio), liquidity (e.g., current ratio), and efficiency (e.g., asset turnover). These metrics provide a snapshot of the company's financial health and performance.
- Informal Indicators: These indicators, which often lack a definitive set of underlying data, rely on qualitative assessments and expert judgment. They consider factors like management quality, industry trends, market position, brand reputation, technological innovation, corporate governance, and regulatory environment. These factors, although less quantifiable, are essential for providing a complete picture of an enterprise's long-term prospects.

The interplay between these formal and informal indicators helps potential investors assess the risks and rewards associated with an investment, ultimately allowing them to make informed decisions about the allocation of capital. Therefore, a robust evaluation of investment attractiveness is a key element of successful investment strategy.

Similarly, the investment attractiveness of an enterprise reflects the extent to which it meets the diverse needs and interests of potential investors in financial, operational, organizational and other important areas. This level of satisfaction can be determined and assessed by analyzing relevant indicators, including a comprehensive overall assessment. Investments themselves cover a wide range of assets, from cash and securities to technology, equipment, intellectual property, and loans, which are used in entrepreneurial ventures and other activities for profit and positive social impact.

Investment activity encompasses both the act of investing itself and the series of actions undertaken to realize those investments. When investments are directed towards creating or expanding a company's fixed assets, they take the form of capital expenditures. Building on these definitions, we can infer that an enterprise's investment attractiveness is primarily its capacity to generate commercial or other interest from potential investors. This includes the company's ability to effectively manage ("accept") and strategically utilize investments to achieve significant

improvements. These improvements might include enhanced product quality, increased production output, expanded market share, or other advancements that ultimately boost the company's bottom line: net profit.

One widely held perspective equates investment attractiveness with the perceived worthiness of investing in a particular enterprise. This worthiness hinges on various factors that characterize the entity's operations. While accurate, this definition lacks specificity and doesn't provide a clear framework for assessing investment attractiveness in a practical and measurable way. It describes what investment attractiveness is linked to but not how to evaluate it.

A more precise economic interpretation of investment attractiveness is offered by L. Valinurova and O. Kazakova, who define it as the collective set of objective characteristics, attributes, resources, and opportunities that drive potential investor demand. This definition is broader, accommodating the interests of all stakeholders involved in the investment process.

Other perspectives exist as well, including those of L. Gilyarovskaya, V. Vlasova, and E. Krylov, among others. These viewpoints frame investment attractiveness as an evaluation of how effectively a company utilizes both its own capital (equity) and borrowed funds. They emphasize the analysis of solvency and liquidity, focusing on the composition of equity and debt, how these funds are allocated across different assets, and the overall efficiency of their use.

Alternatively, assessing investment attractiveness in terms of return and risk suggests that it hinges on the presence of a significant income or economic benefit derived from investing funds, while maintaining a minimal level of risk.

Ultimately, regardless of the specific definition favored by an expert or analyst, the term "investment attractiveness" is most often employed to evaluate the viability of investing in a particular target, to select among competing investment opportunities, and to determine the most efficient allocation of resources.

It's important to emphasize that determining investment attractiveness aims to create objective and focused information that supports well-informed investment decisions. Therefore, when approaching its assessment, a distinction should be made between "level of economic development" and "investment attractiveness." While the former describes an object's current state using a range of economic indicators, the latter goes further by characterizing the object's overall condition, its potential for future development, its profitability, and its growth prospects. Investment attractiveness considers not just where the company *is*, but where it's *going*.

The specific set of indicators selected to assess investment attractiveness depends on various factors, including the nature of the company's business, its creditworthiness, and its overall commercial reputation. The primary objective of assessing investment attractiveness isn't simply to determine the enterprise's current situation. Instead, it's to evaluate the risk associated with a potential investment. To address this objective, investment practice utilizes a systematic set of indicators specifically designed to gauge an enterprise's investment attractiveness. This system helps quantify and compare different investment opportunities based on their perceived risk and potential reward.

Evaluating an enterprise's investment attractiveness is crucially important for economic entities. Potential investors pay close attention to this assessment, examining and comparing a company's performance not just for a single year, but over a period of at least 3-5 years to gain a more comprehensive understanding of its operations and trends. Furthermore, to accurately gauge investment attractiveness, investors analyze the enterprise within the context of its industry, comparing it to other companies in the same sector rather than viewing it as an isolated entity. This allows for a more informed perspective on its relative strengths and weaknesses.

M.I. Bakanov and A.D. Sheremet emphasize that a key internal driver of investment attractiveness is the enterprise's financial health. This manifests itself in the enterprise's solvency—its ability to meet its financial obligations. This includes fulfilling payment obligations to suppliers for equipment and materials as stipulated in business contracts, repaying loans, compensating employees, and meeting its tax obligations to the government. Financial health directly influences the company's competitiveness and its potential for successful business partnerships. Additionally, market-based indicators related to the company's shares, such as market value, liquidity, and trading volume, are also intrinsically linked to its financial condition. Finally, the financial health of the company directly impacts the dividend income received by shareholders and shapes its overall dividend policy.

High Investment Attractiveness: These are organizations where investment is highly recommended. They offer either high profitability with moderate risk or low profitability with very low risk.

Average Investment Attractiveness: Investing in these entities can be profitable, but the return on investment is unlikely to be substantial. They typically involve a moderate level of both risk and reward.

Low Investment Attractiveness: These organizations offer a lower risk-to-reward ratio, not promising high profits but providing a higher assurance of recouping the initial investment.

Unattractive Investment: Investing in organizations with this level of investment attractiveness is generally not recommended. Such investments are unlikely to generate profit and carry a significant risk of losing the invested capital.

In both global and domestic financial practices, one common method for determining an enterprise's investment attractiveness involves analyzing its financial statements. This analysis entails calculating a set of indicators, the specific selection of which depends on the investor's objectives and priorities. This financial statement analysis provides a data-driven foundation for assessing the risk-return profile of the enterprise.

While financial statement analysis provides a quick method for investors to assess the viability of a potential investment and determine the current financial standing of an enterprise, it falls short of answering crucial questions necessary for making well-informed decisions. It presents a snapshot in time but doesn't necessarily reveal future potential or risks.

When evaluating investment attractiveness, investors should carefully consider the following factors, among others:

- The competence and experience of the management team.
- The existence of a unique and compelling business model, a clearly defined development strategy, and a detailed business plan.
- The presence of sustainable competitive advantages that position the company for market leadership.
- The potential for significant revenue growth.
- The degree of financial transparency, commitment to ethical corporate governance, and overall transparency in business practices.
- A clear ownership structure that safeguards shareholders' investments.
- The potential for achieving high returns on invested capital.
- This list represents only a portion of the information required for a thorough evaluation. To reliably and effectively assess investment attractiveness, a comprehensive examination covering all areas of the enterprise is essential.

A key component of assessing investment attractiveness is evaluating the enterprise's financial condition, which reflects the availability, allocation, and utilization of its financial resources. Analyzing the financial condition helps pinpoint areas needing improvement and highlights both the strengths and weaknesses of the company's financial position.

Expert assessment is particularly valuable in these situations; however, it's not always consistently applied. Ideally, expert assessment should be an integral part of a comprehensive evaluation of an enterprise's investment attractiveness, providing valuable insights beyond what can be gleaned from financial statements alone.

REFERENCES

1. Dunning, J. H. (1998). Location and the multinational enterprise: A neglected factor? *Journal of International Business Studies, 29*(1), 45-66. (Classic work on location-specific advantages)
2. Porter, M. E. (1985). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press. (Porter's framework provides a foundation for understanding competitive forces that affect investment decisions)
3. Root, F. R. (1994). *Entry strategies for international markets*. Lexington Books. (Provides a general overview of the FDI entry mode decision, highlighting many of the factors of invesment attractiveness).
4. Bevan, A. A., & Estrin, S. (2004). Explaining foreign direct investment into central and eastern Europe: Does EU enlargement matter?. *Transnational Corporations, 13*(1), 71-94. (Empirical study on determinants of FDI in transition economies.)
5. Jensen, G. R. (2008). An introduction to investment attractiveness. *The Journal of Private Equity, 11*(2), 1-6. (A broad overview of the main concepts of investment attractiveness)

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TASHKILOTNING TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMAT KO‘RSATISHINI TAKOMILLASHTIRISH

Sauxanov Janibek Kazievich
QQDU «Iqtisodiyot» kafedrasi professori
Paluanov Salamatbay Amangeldievich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

Logistika xizmatlari, axborot tizimlari va infratuzilma (resurslar) tizimning uchta tarkibiy qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Logistik tizimdagi uchta asosiy komponentlarning o‘zaro ta’siri quyidagicha talqin qilinadi. Logistika xizmatlari materiallar va mahsulotlarning manbalardan ishlab chiqarish orqali iste’molchilarga o‘tishini, shuningdek, ular bilan bog‘liq chiqindilar va teskari oqimlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ular tashkilot xizmatlarining o‘z kuchlari bilan amalga oshiriladigan harakatlarni (masalan, ishlab chiqaruvchi zavodda zaxiralarni saqlash yoki nazorat qilish) va tashqi xizmat ko‘rsatuvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, logistika menejerlari transport tizimining ishlashini yaxshi bilishlari kerak. Masalan, transport tashuvlari tarkibida transport xarajatlari 29,40%, menejment 11,00%, buyurtmani rasmiylashtirish 5,50%, inventar 17,40%, omborga joylashtirish 17,00%, qadoqlash 11,90%, tashish 7,8% ni tashkil etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va mintaqalarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan har qanday ishlab chiqarish va tarqatish kompaniyasida tashish narxi har doim xarajatlarning muhim moddasi hisoblanadi. Mahsulot qancha arzon bo‘lsa, mahsulot tannarxida transportirovka shuncha ko‘p foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, hatto nisbatan kichik, foiz hisobida, tejash juda katta miqdordagi pulga aylanadi.

Tashish logistika xarajatlari summasining uchdan bir qismini egallaydi va transport tizimlari butun logistika tizimining samaradorligiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tashish ishlab chiqarishdan boshlab, yakuniy iste’molchilarga yetkazib berishgacha, shuningdek, qaytarishni amalga oshirish uchun zarur. Faqatgina har bir komponent o‘rtasidagi yaxshi muvofiqlashtirish maksimal foyda keltiradi.

Transport tizimlarini shakllantirish tashish tannarxini pasaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, harakatlanuvchi tarkib aylanmasini sezilarli darajada kamaytiradi va umuman korxonaning rentabelligini oshiradi. Ehtimol, o‘z transport tuzilmalarini yaratish qaysidir ma’noda o‘zini oqlaydi.

Yirik transport bo‘linmalarini tashkil etish moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslari ko‘rinishida katta xarajatlarni talab qiladi. Aslida, bunday kompaniyalarning yuk tashishi ularning tuzilishi va boshqaruvini murakkablashtiradigan nospetsifik biznes turi hisoblanadi. Bundan tashqari, ma’lum bo‘lishicha, transport jarayoni yangi tashuvchilarga noma’lum bo‘lgan ma’lum o‘ziga xos xavf-xatarlarga ega faoliyat turi hisoblanadi.

"Kompaniyaning transport-logistika tizimi - bu kompaniya tarkibiga kiruvchi, yuk oqimi harakatini tezkor boshqaradigan va boshqa oqimlar (axborot va moliyaviy) parametrlariga ta’sir ko‘rsatadigan tuzilmalar to‘plamidir".

1-jadval.

Asosiy transport turlari kesimida turli transport turlarini baholash transport turini tanlashga ta’sir etuvchi omillar

Transport turlari	Transport turini tanlashga ta’sir etuvchi omillar					
	Yetkazib berish vaqti	Jo‘natish chastotasi	Yukni yetkazib berish jadvaliga rioya qilishning ishonchliligi	Turli yuklarni tashish qobiliyati	yukni istalgan joyga yetkazib berish qobiliyati	Tashish narxi
Temir yo‘l	3	4	3	2	2	3
Suv	4	5	4	1	4	1
Avtomobil	2	2	2	3	1	4
Quvurli transport	5	1	1	5	5	2
Havo yo‘llari transport	1	3	5	4	3	5

Transport logistika tizimining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1) Butun transport tarmog‘idan oqilona foydalanishni yaratish uchun barcha transport turlaridan alohida va boshqalar bilan birgalikda foydalanishning samarali sohalarini aniqlashni o‘z ichiga olgan holda, ularni ishlab chiqarish joyidan boshlab iste’mol qilish joyigacha bo‘lgan yuk harakatining butun yo‘lida transport ishlarining barcha turlarini umumiy rejalashtirish, kompleks ishlatish va muvofiqlashtirish.

2) Turli sohalardagi tizimlarning o‘zaro ta’sirining sinergetik (tizimli) samarasidan foydalangan holda transport jarayonini ishlab chiqarish va omborxona jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati ko‘rsatkichlarini va korxona bo‘linmalari ishini rejalashtirish va muvofiqlashtirishni yaxshilaydigan transport vositalari turlarini birlashtirish.

Qabul qilingan tanlovning to‘g‘riligi turli xil transport vositalarida tashish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni tahlil qilishga asoslangan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan tasdiqlanishi kerak.

Transport logistika tizimining samaradorligi barcha xarajatlarning belgilangan darajasida tizimning ishlash sifati darajasini belgilovchi ko‘rsatkichdir.

Logistik transport tizimining ishlash samaradorligini baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tizimning maqsadi va unga erishish vositalari bilan o‘zaro bog‘liqligini belgilash;

- elementlarning o‘zaro ta’siri samaradorligini tekshirish, "tor" joylarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

- ushbu tizim uchun talab qilinadigan resurslarni aniqlash;
- boshqaruv organlari funksiyalari, samaradorligi va tuzilmasini aniqlash;
- tizimning samaradorlik mezonlarini aniqlash;
- boshqaruv ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Transport logistika tizimining ishlash tamoyillari quyidagicha:
- ratsionallik;
- kelishilganlik;
- teskari aloqa;
- tizimli yondashuv.

Transport logistika tizimining samaradorligi va unumdorligi quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi:
- samaradorlik;
- tejamkorlik;
- rentabellik;
- unumdorlik.

Avtomobil transporti an’anaviy ravishda qisqa masofalarga tashish uchun ishlatiladi. Asosiy afzalliklaridan biri - yuqori manevrchanlik. Avtomobil transporti yordamida yukni "eshikdan eshikkacha" zarur darajadagi shoshilinchlik bilan yetkazib berish mumkin. Ushbu transport turi yetkazib berishning muntazamligini, shuningdek, kichik partiyalar bilan yetkazib berish imkoniyatini ta’minlaydi. Bu yerda boshqa turlarga nisbatan tovarni o‘rashga uncha qattiq bo‘lmagan talablar qo‘yiladi. Avtomobil transportining asosiy kamchiligi tashish tannarxining nisbatan yuqoriligi bo‘lib, ular uchun to‘lov odatda avtomobilning maksimal yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha olinadi. Ushbu transport turining boshqa kamchiliklariga, shuningdek, yukni tushirishning shoshilinchligi, yukni o‘g‘irlash va avtotransportni olib qochish imkoniyati, yuk ko‘tarish qobiliyatining nisbatan pastligi kiradi. Avtomobil transporti ekologik jihatdan noqulay, bu ham uni qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Keng ma’noda logistika tizimini ko‘rib chiqish yordam berishi mumkin.turli sohalardagi afzalliklarni yengish uchun ularni birlashtirish hozirgi kamchiliklar Boshqa tomondan, transport tizimlari sharhi quyidagilarni beradi: logistika zanjirlarida transportning roli haqida aniqroq tushuncha.

Logistika kelgusi o‘n yilliklarda ham jadal rivojlanadi va logistika konsepsiyalari ko‘proq sohalarda qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Borisova V.V. Ekonomicheskaya logistika : uchebnik dlya vuzov. Standart tretyego pokoleniya / V.V. Borisova, I.D. Afanasenko. - SPb. : Piter, 2016. 432 s.
2. Volgin, V. V. Logistika priyemki i otgruzki tovarov : prakticheskoye posobiye / V. V. Volgin. – M. : Dashkov i Kº, 2015. 457 s.
3. Volgin, V. V. Logistika xraneniya tovarov : prakticheskoye posobiye / V. V. Volgin. – M. : LitRes, 2017. 410 s.

4. Richards G. 2011, Warehouse management: a complete guide to improving efficiency and minimizing costs in the modern warehouse. Kogan Page Limited, London. 324 p.
5. Taylor S.Y. 2001, Just-in-Time, in the book Handbook of logistics and supply-chain management, edited by Brewer, A.M., Button, K.J. & Hensher, D.A., Pergamon, Amsterdam. pp. 213-224

YASHIL MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Shavkatov Behruz Rustam o‘g‘li
TDIU talabasi

Yashil moliya bozori hozirgi kunda juda dolzarb bo‘lib, global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ko‘plab davlatlar uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha majburiyat olgan. Masalan, Parij kelishuvi doirasida qabul qilingan maqsadlar yashil moliyaviy vositalarning (yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar) rivojlanishiga turtki bermoqda. Bugungi kunda yashil moliyalashtirish bank sektori doirasida institutlar, chora-tadbirlar va vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi dunyoda ijtimoiy va ekologik landshaftni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashdir.Yashil moliyalashtirishni joriy etishning asosiy muammosi yashil iqtisodiy modelga o‘tish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu model eskirgan chiziqli ishlab chiqarish-iste’mol qilish tizimidan resurslarning qayta tiklanishiga asoslangan yopiq tsiklli iqtisodiyotga o‘tishni talab qiladi.Ushbu o‘tish jarayoni uchun mas'uliyat davlat, jamiyat va biznes – iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari – zimmasiga yuklanadi. O‘z navbatida, moliyaviy institutlar barqaror va ekologik toza faoliyat yuritishni istagan mas'uliyatli biznesga yordam beruvchi moliyaviy vositalarni ishlab chiqadi.

O‘zbekistonda yaqin kelajakda xususiylashtirilishi rejalashtirilgan banklar va davlat korxonalari mamlakatning birinchi an’anaviy korporativ obligatsiyalar chiqarish va SQBning (O‘zsanoatqurilishbank) birinchi yashil obligatsiyasi bo‘yicha to‘plangan tajribaga tayanishlari lozim. 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan Bank tizimini isloh qilish strategiyasiga (O‘zbekiston hukumati, 2020) muvofiq, kelgusi yillarda xususiylashtirilishi rejalashtirilgan yirik davlat banklari va korxonalari yashil o‘tishga moslashishi kerak [1].Ular o‘z transformatsiya jarayonlarini moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, O‘zbekistondagi birinchi korporativ obligatsiyalarni chiqargan davlatga qarashli avtomobil ishlab chiqaruvchi "UzAuto Motors" yashil obligatsiya chiqarish orqali mamlakat ichida elektrotransport ishlab chiqarishni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Hukumat transport sektorini yashil o‘tishga moslashtirish bo‘yicha elektrotransport ishlab chiqarishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. O‘zbekistonda yashil moliya bozorini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishga va ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Buning uchun davlat

siyosati, xalqaro investitsiyalar, yashil kreditlash va obligatsiyalar bozori, shuningdek, korporativ sektor ishtirokida tizimli yondashuv zarur.

J.Stiglitz o‘zining **"Addressing Climate Change through Price and Non-Price Interventions" (2019)** asarida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda narx va narxdan tashqari choralarni tahlil qiladi. U iqtisodiyotning "ikkinchi darajali" xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha joy va vaqtlarda yagona uglerod narxini belgilash tavsiyasidan chetga chiqadi.

R.Engle **matnli tahlil** usulidan foydalanib, **iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq yangiliklarni** baholash uchun maxsus indeks yaratadi. Bu indeks global moliyaviy bozorlarning iqlim yangiliklariga qay tarzda javob berishini tushunishga yordam beradi [2].

S.M.Mirzayev o‘zining “Yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanishi va O‘zbekiston uchun saboqlar" maqolasida yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi va O‘zbekiston uchun ushbu bozordan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan saboqlarni ko‘rsatadi.

Yashil moliya bozori statistikasi uning rivojlanish darajasini baholash, samaradorligini oshirish va kelajakdagi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Yashil moliya bozoriga oid statistik ma’lumotlar uning rivojlanishini nazorat qilish, investitsiya jalb qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar ushbu statistik ma’lumotlardan samarali foydalanib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida aniq va samarali qarorlar qabul qilishlari mumkin.

2023 yilda OTB iqlimni moliyalashtirish uchun 10,747 million dollar ajratdi. Ushbu jami mablag‘dan 6 168 million dollar (57,4 foiz) iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga va 4 578 million dollar (42,6 foiz) iqlim o‘zgarishiga moslashishga hissa qo‘shishi kutilmoqda. OTB o‘z mablag‘lari hisobidan 9 864 million dollar, tashqi resurslar hisobidan 883 million dollar mablag‘ ajratdi [3].



1-rasm. 2019-2023-yillar oralig‘ida Osiyo taraqqiyot bankining tarmoqlar majburiyatlari asosidagi moliyasi statistikasi [3].

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda iqlim moliyasining yumshatuv majburiyati asosida yo‘naltirgan mablag‘i 6 mlrd 168 mln dollarni, moslashuv

majburiyati asosida yo‘naltirishga esa 4 mlrd 578 mln dollarni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yilga nisbatan yumshatish majburiyatida 144,1 % ga, moslashuv majburiyatida esa 161,7 % o‘sgan.



2-rasm. Osiyo taraqqiyot bankining moliyaviy vositalar kesimidagi iqlim moliyasi 2023-yildagi tahlili [3].

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki moliyaviy instrumentlarning eng katta qismi kredit mablag‘lariga 10 mlrd 267 mln 300 ming dollar (95,5%) to‘g‘ri kelmoqda. Grand mablag‘lari esa 332 million 400 ming dollar (3,1%) va texnik yordam mablag‘lari 106 million 100 ming dollarni (1,4%) tashkil qildi.

Yashil moliya bozori barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan moliyaviy mexanizmdir. Uning rivojlanish istiqbollari quyidagilarga asoslanadi:

1. Huquqiy va institutsional asosni mustahkamlash – davlat tomonidan yashil obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarni rag‘batlantirish.

2. Investitsiyalar hajmini oshirish – xususiy sektor va xalqaro moliya institutlarining ekologik loyihalarga jalb etilishini kuchaytirish.

3. Texnologik rivojlanish – innovatsion yechimlar orqali yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish.

Ushbu omillar yashil moliya bozorining barqaror o‘sishini ta’minlab, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmoni. 12.05.2020-yil.

2. R.Engle “Hedging Climate Change News”. “The Review of Financial Studies” journal. 2020

3. https://data.adb.org/dashboard/climate-change-financing-adb - Osiyo taraqqiyot bankining iqlim moliyasi statistikasi ma’lumotlari sayti.

www.lex.uz- O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari bazasi rasmiy sayti.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Палуанов Саламатбай Амангелдиевич
соискатель Каракалпакского государственного университета

Инвестиции в транспорт признаны стратегическими наряду с такими капиталовложениями в сферы деятельности, как образование, здравоохранение, охрана окружающей среды и новые технологии. Транспорт обслуживает практически все виды международных экономических отношений. По своей сути транспортные операции начинают и завершают процесс реализации внешнеторговой сделки, затраты на транспортировку продукции непосредственно учитываются и включаются в цену товара или проявляются в ней в косвенном виде.

Транспорт - это средство, высвобождающее природные, интеллектуально-технологические и трудовые ресурсы из мест, где они приносят мало пользы, и перемещающее их в места, где их польза может быть реализована в большей степени. Точно так же транспорт обеспечивает доступ к ресурсам и позволяет получить эффект, который до этого не мог быть реализован. Таким образом, транспорт освобождает естественные ресурсы от их географической ограниченности и делает их непосредственно доступными. Поэтому транспорт можно определить как средство удовлетворения растущих потребностей человечества посредством перемещения товаров и людей.

Крупные компании расширяют географию проведения маркетинговых исследований потенциальных рынков сырья и сбыта своих товаров. Они все чаще стремятся к внедрению глобальных логистических концепций товародвижения с целью обеспечения конкурентного преимущества посредством повышения производительности, эффективности и дифференциации. При практическом рассмотрении данного вопроса логистические менеджеры сталкиваются с необходимостью выполнения большого объема работ, связанного с разработкой основополагающей концепции, планированием и реализацией таких логистических инициатив, которые стали бы эффективными в глобальном масштабе.

Можно выделить следующие основные движущие силы глобализации в логистике:

- ✓ экономический рост;
- ✓ перспективы развития мировых рынков;
- ✓ регионализация;
- ✓ глобальная конкуренция;
- ✓ экспансия технологий;
- ✓ дерегулирование транспорта;

✓ развитие логистической инфраструктуры.

Как свидетельствует мировой опыт, стабильный рост международной торговли обеспечили следующие факторы:

❖ углубление международного разделения труда и интернационализация производства;

❖ НТР, способствующая обновлению основного капитала, созданию новых отраслей экономики, ускоряющая реконструирование старых;

❖ активная деятельность транснациональных корпораций на мировом рынке;

❖ либерализация международной торговли;

❖ развитие процессов торгово-экономической интеграции: устранение региональных барьеров, формирование общих рынков и зон свободной торговли;

❖ обретение политической независимости бывшими колониальными странами и выделение из их числа «новых индустриальных стран», ориентированных на внешний рынок.

К транспортно-логистическим функциям, выполняемым международными экспедиторами в русле глобальных каналов и систем, могут быть отнесены:

− квотирование грузовых отправок. Определение единиц поддержания запасов или трансакционных единиц в международных операциях транспортировки и грузопереработки;

− резервирование (букование) грузовых мест и грузовместимости транспортных средств;

− подготовка коммерческих и таможенных документов;

− получение экспортных лицензий;

− осуществление экспортного декларирования для грузоотправителей; подготовка сертификатов, ветеринарных и других свидетельств;

− подготовка и получение консульских инвойсов;

− подготовка товарно-транспортных документов, погрузка, разгрузка, проверка отгрузочных документов, взвешивание, упаковка и другие операции;

− страхование;

− оплата за перевозки, расчеты с клиентами;

− получение приходных документов;

− представление документов в банк или экспедирование их в заданный пункт назначения;

− предоставление складских услуг в порту, грузовом терминале;

− осуществление интермодальных перевозок;

− предоставление собственных транспортных средств, трейлеров, контейнеров;

− сбор и получение денег для грузоотправителей, а также другие операции.

Логистические мероприятия, осуществляемые на уровне глобальных межнациональных рынков, казалось бы, подчиняется тем же законам, что и логистические действия внутринационального масштаба. Но, вместе с тем,

мировой рынок ставит перед транспортно-логистическими стратегиями товародвижения особые задачи. Рассмотрим наиболее, важные из них.

Во-первых, функциональный цикл глобальной логистики более продолжителен в силу больших расстояний, которые необходимо преодолеть и большего числа посредников.

Во-вторых, сами логистические операции в мировом масштабе становятся сложнее вследствие большего разнообразия предлагаемой продукции, предназначенных для хранения партий и запасов в целом, с которыми приходится иметь дело. Конечный успех иными словами требует более обширной документации, большего числа необходимых складских мощностей и, одновременно, менее подверженной внешнему воздействию системы логистических услуг.

В-третьих, на глобальном уровне повышаются требования к информационным системам, так как возрастает потребность в протяженных каналах связи и поддержании гибкости логистических процессов.

В-четвертых, на мировом рынке необходимы глобальные производственные, логистические и маркетинговые альянсы, создание и развитие которых также представляется сложной задачей. Такие объединения открывают компаниям доступ к сведениям об особенностях местных рынков и обеспечивают экономию операционных издержек, однако установление глобальных партнерских отношений и управление ими требуют значительных усилий. По нашему мнению, созданию таких союзов должно способствовать развитие интегрированных распределительных и транспортных сетей.

Перечисленные задачи увеличивают потребность в транспортно-логистическом менеджменте стратегии товародвижения. Дело в том, что для решения этих задач необходимы чувствительность к запросам мирового товарного рынка и учет более разнообразных альтернатив.

Таким образом, глобальные транспортно-логистические операции и стратегии товародвижении позволяют компаниям добиться рыночного роста, значительной экономии за счет масштабов деятельности и повышения прибыльности. Давая оценку современной тенденции развития данных процессов, следует отметить, что в целом на мировом рынке роль стратегий товародвижения усиливается. В следующей главе дадим оценку глобальных товаропроводящих сетей с учетом эффективности внешнеторговой деятельности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-94 от 14 июня 2023 года «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере транспорта в рамках административной реформы»
2. Omirbayevich, Utepbergenov Allambergen. "PERSPECTIVE DIRECTIONS OF INCREASING EFFICIENCY IN THE TRANSPORT SECTOR." SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 7.1 (2024): 107-110. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ytc8R4QAAAAJ&citation_for_view=ytc8R4QAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

3. Turdieva, G. O., A. Utepbergenov, and G. Bekimbetova. "DEVELOPMENT OF PERIODIC COST ACCOUNTING IN BUSINESS ENTITIES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL ACCOUNTING." STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD 3.2 (2024): 19-22. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ytc8R4QAAAAJ&citation_for_view=ytc8R4QAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
4. Qodirov, T. U. U., Yusufxonov, Z. Y. O. G. L., & Sharapova, S. R. Q. (2021). ЎЗБКИСТОНДА TRANSPORT-LOGISTIKA KLASTERLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(6), 305-312.
5. Совет железнодорожного транспорта. Официальный сайт Совета железнодорожного транспорта СНГ, / http://www.sovetgt.org.

INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ULARNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASIDAGI O‘RNI

Nargiza Davletova
Bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Abdulla Ibragimov
Bank moliya akademiyasi dotsenti (PhD) va i.f.d. (DSc)

Barchamizga ma‘lumki 2019 yilda yurtimizda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” qabul qilinib, ushbu jarayonlarni 2030 yilgacha yakunlash maqsad qilib olingan. Shu sababli ham har bir sohani rivojlantirishda bevosita ushbu strategiyada ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi shart va zarurdir. Xususan, bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida katta ahamiyatga ega faktorlardan biri bo‘lib, investitsiyalarni jalb qilish, xususan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri ekanligi hech kimga sir emas.

Shu sababli ham yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan[71].

Mazkur qarorda belgilangan vazifalarning ijrosi esa mamlakat miqyosida, xususan har bir hudud kesimida investitsion muhitni yaxshilash, mavjud sharoitlarni yanada takomillashtirish, investitsion muhitga ta’sir etuvchi barcha omillarni ijobiy tomonga o‘zgartirish borasida samarali ish tashkil etishni talab etadi.

[71] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-sonli qarori

Albatta buning uchun dastavval investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhitni takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlab olib, mamlakatimizning “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” bilan mutanosib ravishda rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun esa, quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, investitsion muhitni belgilovchi asosiy omillardan biri bu albatta mamlakatdagi **huquqiy tizim**ning barqarorligni ta‘minlashdir. Investorlar sarmoya kiritishda o‘zlarining huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi aniq huquqiy normalar mavjudligiga katta ahamiyat qaratishadi.

Investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishda huquqiy tartib-taomillarning shaffofligi, qonun ustuvorligi va mulkni himoya qilish kafolatlariga rioya qilish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli huquqiy barqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga kapitalning sezilarli oqimi kuzatiladi. Biroq, huquqiy tizimni takomillashtirish doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot” strategiyasida ko’rsatib o’tilgan vazifalarga zid bo‘lgan huquqiy normalarni joriy etilishini oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, investorlar **infratuzilma**ning rivojlanish darajasini biznes yuritish samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy element sifatida ko‘rishadi. Shu sababli yuqorida sanab o‘tilganidek, bu boradagi yana bir muhim omil - infratuzilmani, jumladan, transport, energetika va raqamli tarmoqlarni rivojlantirish hisoblanadi. Zamonaviy transport tizimlariga kirish, ishonchli elektr ta’minoti va raqamli aloqa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Biroq, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini infrastrukturani rivojlantirish orqali amalga oshirish uchun asosiy e‘tibor iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini kamaytirishga qaratilishi zarur. Bunda tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda zamonaviy innovatsion yechimlarni tatbiq etish ustuvor vazifa etib belgilab olinishi lozim.

Uchinchidan, investorlarni jalb qilishdagi yana bir muhim jihat - **malakali ishchi kuchi**ning mavjudligidir. Kompaniyalar o‘z ixtiyorida zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ishlashga qodir yuqori malakali mutaxassislarga ega bo‘lishga intiladi. Ta‘lim tizimini rivojlantirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uzoq muddatli investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi.

Bu borada ham “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”da tegishli topshiriqlar ko‘zda tutilgan. Misol uchun, ta‘lim tizimiga investitsiyalar kiritish orqali ilg‘or xorijiy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni yangi darajaga olib chiqush orqali mehnat bozori uchun zarur kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish rejalashtirilgan.

To‘rtinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik, jumladan, past inflyatsiya, milliy valyuta barqarorligi va mutanosib soliq siyosati ham xuddi shunday muhim jihatdir. Iqtisodiy noaniqlik va valyuta kurslarining keskin o‘zgarishi investitsion jozibadorlikka salbiy ta‘sir qiladi, chunki investorlar kapitalning mumkin bo‘lgan yo‘qotishlari bilan bog‘liq potensial risklarni baholaydilar. Shu munosabat bilan

investitsiyalarni jalb qilishda bashorat qilinadigan makroiqtisodiy muhit va oqilona soliq tizimini tartibga solishni ta‘minlovchi mamlakatlar ustunlikka ega.

Shuni inobatga olib, “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish orqali **makroiqtisodiy** maqsadlarga erishish belgilab qo‘yilgan.

Beshinchidan, investitsion muhitni shakllantirishda **davlat boshqaruvi samaradorligi** ham katta rol o‘ynaydi. Shaffof va tushunarli ma‘muriy tartib-qoidalarning mavjudligi, byurokratik to‘siqlarning kamayishi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi investorlar tomonidan ishonch darajasini oshirmoqda. Korrupsiya va ma‘muriy to‘siqlar investitsiyalarni jalb qilishda jiddiy to‘siqdir, shuning uchun ularni minimallashtirish davlat organlari uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi yuqori darajada bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sish va investitsiya faolligining yaxshi ko‘rsatkichlarini namoyish etadi. Biroq, ushbu vazifalarning ijrosini ta‘minlash borasida ham “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlarni inobatga olish talab etiladi.

Oltinchidan, sarmoyani jalb qilish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish - bu **investitsion imtiyozlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashdir**. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grant dasturlari iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlarini rag‘batlantirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Xususan, yuqori texnologiyali sohaga yo‘naltirilgan investorlarga imtiyozlar berish innovatsion rivojlanishga ko‘maklashmoqda va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, davlat kafolatlari va investitsiyalarni sug‘urtalash mexanizmlari potensial risklarni kamaytirish va biznes muhitining jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Shu sababli strategiyada **“Yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun** fiskal siyosatdan foydalanish va davlat tomonidan «yashil» iqtisodiyotning barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

Yettinchidan, investitsion muhitni shakllantirishda **moliyaviy qulaylik** ham muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan bank tizimi, foydalanish mumkin bo‘lgan kredit resurslari va venchur moliyalashtirish tadbirkorlikni faol rivojlantirish va tashqi kapitalni jalb qilishga yordam beradi.

Albatta, samarali moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlarga chiqish imkonini berishi hech kimga sir emas.

Bu borada strategiyaning 21- bandida **«Yashil» investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, xususan:**

– “yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish;

– “yashil” fondlar, energiya tejamkorligi maxsus fondlari va boshqa xuddi shunday mexanizmlar yaratish;

Устойчивое развитие предполагает баланс между экономическим ростом, социальной справедливостью и экологической устойчивостью. В этом контексте зелёная экономика и социальное предпринимательство играют важную роль, способствуя решению экологических и социальных проблем. Зелёная экономика направлена на снижение экологических рисков и эффективное использование ресурсов, тогда как социальное предпринимательство фокусируется на решении социальных проблем через инновационные бизнес-модели.

Для проведения сравнительного анализа использованы следующие источники: Индекс зелёного роста (Green Growth Index, GGI), который оценивает эффективность стран в достижении устойчивого развития, включая использование ресурсов, защиту природного капитала, зелёные экономические возможности и социальную инклюзию [1]. Данные о распространении социального предпринимательства, основанные на международных исследованиях и опросах, анализирующих уровень развития социальных предприятий в разных странах [2].

Индекс зелёного роста что это такое?-согласно данным Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан, страны, такие как Швеция, Дания, Чехия и Германия, демонстрируют высокие показатели зелёного роста. В то же время африканские страны, такие как Зимбабве, Алжир, Нигерия и Нигер, имеют более низкие показатели. Среди стран СНГ наиболее высокие показатели зафиксированы в Грузии, а в Центрально-Азиатском регионе — в Кыргызстане. Узбекистан занимает 33-е место среди стран Азии [3]. Международные исследования показывают, что Великобритания и США являются лидерами в области социального предпринимательства, что связано с наличием законодательного статуса для социальных предприятий. Высокие показатели также отмечаются в Италии, Словении, странах Скандинавии, Южной Корее, Малайзии, Индии и Бангладеш [4]. В 2019 году Канада, Австралия, Франция, Бельгия, Сингапур, Дания, Нидерланды, Финляндия, Индонезия и Чили вошли в десятку стран с лучшими условиями для социальных предпринимателей [5].



[1] Ташкентский филиал Российского Экономического Университета имени Г.В. Плеханова. (2024). Зелёная экономика: обеспечение безопасного и устойчивого будущего. Доступно по ссылке: https://reu.uz/novosti/zelenaja-jekonomika-obespechenie-bezopasnogo-i-ustojchivogo-budushhego

Интеграция зелёной экономики и социального предпринимательства показывает что внедрение принципов зелёной экономики становится центральным элементом стратегий устойчивого роста в различных интеграционных объединениях. Например, в Евразийском экономическом союзе (ЕАЭС) зелёная трансформация поддерживается Концепцией внедрения принципов зелёной экономики, разработанной Евразийской экономической комиссией [6]. Этот документ предлагает унифицированный подход к экологии и предотвращает «климатические барьеры» [7]. Зелёная экономика и социальное предпринимательство — это два ключевых направления устойчивого развития. Их интеграция может привести к значительным позитивным изменениям в обществе, однако на этом пути также возникают определённые вызовы.

Возможности интеграции зелёной экономики и социального предпринимательства.

Улучшение экологической обстановки-Социальные предприятия, ориентированные на зелёные технологии, могут способствовать

- Сокращению выбросов углекислого газа за счёт использования возобновляемых источников энергии.
- Уменьшению отходов благодаря переработке и повторному использованию ресурсов.
- Развитию экологически чистого сельского хозяйства (органические фермы, аквапоника и т. д.).

Создание новых рабочих мест

- Зелёная экономика открывает возможности для трудоустройства в сферах:
- Возобновляемой энергетики (солнечные батареи, ветроэлектростанции).

- Эко-строительства (энергоэффективные здания).
- Производства и переработки вторсырья.

Многие из этих рабочих мест могут быть созданы для уязвимых групп населения, что является одной из целей социального предпринимательства.

Снижение социального неравенства

- Зелёные социальные предприятия могут решать проблемы бедности, предлагая доступные и устойчивые продукты и услуги, например:
- Недорогие солнечные панели для сельских районов без доступа к электричеству.
- Эко-дома с низким потреблением энергии для малоимущих семей.
- Доступ к чистой воде через инновационные фильтрационные системы.

Развитие ответственного потребления и производства

- Социальные предприниматели могут способствовать формированию у людей экологически осознанного поведения, внедряя концепции:
- Zero Waste (нулевые отходы).
- Медленной моды (sustainable fashion).
- Локального производства и потребления.

Вызовы и проблемы интеграции показывают что зелёные социальные предприятия часто сталкиваются с нехваткой средств, так как:

1. Инвесторы ожидают быстрой прибыли, а устойчивые проекты окупаются дольше.
2. Технологии для зелёного производства требуют значительных стартовых вложений.
3. Не всегда доступны государственные субсидии и гранты.

Законодательные барьеры

1. Во многих странах отсутствует чёткое регулирование в области зелёного социального предпринимательства, что приводит к:
2. Недостаточной поддержке со стороны государства.
3. Высоким налогам и бюрократическим сложностям.
4. Отсутствию стимулирующих программ для бизнеса.

Следуещая проблема недостаточная осведомлённость населения. Потребители не всегда понимают важность экологически чистых продуктов и услуг, что снижает спрос.

Решением может стать активное продвижение принципов ответственного потребления через:		
Образовательные кампании.	Гражданские инициативы	Взаимодействие с общественными организациями.



Глобальный институт зеленого роста (GGGI) помог Узбекистану привлечь $1 млрд зеленого финансирования, сообщило Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата РУз.

Интеграция зелёной экономики и социального предпринимательства открывает большие перспективы для устойчивого развития, создавая экологически чистые рабочие места, уменьшая социальное неравенство и снижая негативное воздействие на природу. Однако этот процесс требует продуманной государственной политики, поддержки бизнеса и осведомлённости общества.

Для успешной реализации необходимы:

✓ Специальные гранты и инвестиционные программы для зелёных социальных предприятий.

✓ Упрощение юридических и налоговых процедур.

✓ Образовательные инициативы для формирования культуры ответственного потребления.

Таким образом, зелёное социальное предпринимательство может стать не просто экономическим трендом, а ключевым фактором устойчивого будущего.

Сравнительный анализ показывает, что успешное внедрение зелёной экономики и развитие социального предпринимательства зависят от комплексного подхода, включающего государственную поддержку, законодательные инициативы и активное участие гражданского общества. Страны, демонстрирующие высокие показатели в этих областях, обеспечивают более устойчивое и инклюзивное развитие, способствуя достижению целей устойчивого развития.

Список литературы

1. Global Green Growth Institute (GGGI). (2023). Green Growth Index 2023: Measuring sustainable development progress. Доступно по ссылке: https://gggi.org/green-growth-index-2023

2. OECD. (2022). Social Entrepreneurship and Innovation: International Trends and Policy Recommendations. Paris: OECD Publishing.

3.Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. (2022). Анализ глобальных показателей «зелёной» экономики. Доступно по ссылке: https://mineconomy.gov.uz/ru/info/4480

4. Thompson Reuters Foundation. (2019). Best Countries for Social Entrepreneurs Report. Доступно по ссылке: https://www.trust.org/contentAsset/raw-data

5. Wikipedia. (2023). Социальное предпринимательство в мире. Доступно по ссылке: https://ru.wikipedia.org/wiki/Социальное_предпринимательство

6. Евразийская экономическая комиссия (ЕЭК). (2021). Концепция развития зелёной экономики в странах ЕАЭС. Доступно по ссылке: https://eec.eaeunion.org

7. Akchabar News. (2024). Эксперты высоко оценили продвижение зелёной экономики и устойчивого роста в ЕАЭС. Доступно по ссылке: https://www.akchabar.kg/ru/news/eksperti-visoko-otsenili-prodvizhenie-zelyonoj-ekonomiki

ANALYSIS OF THE CURRENT SITUATION OF CUSTOMS MANAGEMENT IN THE CUSTOMS COMMITTEE

Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna
Independent researcher, Kimyo International University in Tashkent
Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich
Professor of the of Banking and Finance Academy

According to the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Customs Service" [1], customs authorities are one of the key bodies ensuring economic security and are considered law enforcement agencies. The system, which is one of the main pillars of the country's economy, involves the customs control of goods and vehicles moving across the customs border. Customs authorities prevent the smuggling of various prohibited items such as narcotic drugs, psychotropic substances, weapons, explosives, religious literature, as well as radioactive, biological, and chemical weapons and materials used in their production. They also ensure that goods are not brought across the border in quantities exceeding the established norms without paying customs duties, and they carry out activities aimed at applying tariffs and non-tariff measures appropriately in accordance with state interests for imported goods in external economic activity, while ensuring the timely and full collection of customs duties.

The subject of customs management involves the organization of managerial (organizational-managerial, organizational-economic) relations that arise in the process of implementing customs operations, as well as the components of the management system of customs authorities, such as management forms, structure, processes, and mechanisms for improvement. Therefore, this paragraph analyzes all aspects related to management in the Customs Committee of the Republic of Uzbekistan, under the Ministry of Economy and Finance.

It should be noted that there is a unified centralized management system of customs authorities, which is divided into the following sub-system elements:

- Central office of the Customs Committee of the Republic of Uzbekistan;
- Departments of the Customs Committee for the Republic of Karakalpakstan, regions, and Tashkent city;
- Specialized customs complex "Tashkent-AERO" (equal to a territorial department);
- customs posts;
- Customs Institute of the Customs Committee of the Republic of Uzbekistan;
- Central Customs Laboratory;
- National Cynological Center.

In terms of management form, a vertical-hierarchical management system based on strict subordination to higher authorities is implemented in the national customs system. Each lower-level system participant is monitored and controlled by the higher structures.

This form of management is intended for continuous self-development and environmental impact during the performance of tasks assigned to customs authorities.

In terms of organizational structure, the customs authorities are represented by their structural elements, the subordination order among them, and the distribution of powers and tasks.

Notably, the organizational structure of customs authorities is hierarchical, bureaucratic, and mechanistic in nature. It includes:

- High-level service distribution;
- Development of hierarchical management;
- Chain of command;
- Professional ethics and moral norms for customs officers;
- Rules for selecting personnel based on professional and personal qualities.

According to Russian researcher Yu.N. Samolaev [2], the organizational-structural and management form of customs authorities is shaped according to the tasks they are assigned. Based on this researcher’s observations, it can be concluded that the effectiveness of the tasks carried out by customs authorities is directly related to the management processes used or the correct establishment of customs management.

To fully express the customs management system in the national context, it is appropriate to consider the task distribution and accountability from the lowest level of the hierarchy. During the research, the lowest part of the hierarchical ladder, that is, the lower link, was determined to be customs posts, the middle link was the regional customs departments, and the upper link was the central office of the Customs Committee. Additionally, structures such as the National Cynology Center, the Customs Institute, and the Central Customs Laboratory, which are directly managed by the central apparatus, are considered separate structures. Their activities are analyzed as distinct management systems.

1. Bottom link: customs posts – Services are divided into the following types according to their location, processes, and characteristics:

1.1. Border customs posts. Border customs posts are also divided into 4 types according to their areas of activity. However, their organizational and structural form is similar. Since customs posts are exactly the same in terms of the tasks they perform, their standard organizational structure is approved as the same in accordance with Appendix 4 to the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-3665 dated April 12, 2018. The total limited number of employees at border customs posts is 8-221. Today, the limited number of states allocated for all border customs posts is 2,245.

1.1.1. Car border customs posts – These are customs posts located at border crossings with neighboring countries, and are the customs authorities that conduct customs control over passengers and their hand luggage, light and heavy vehicles, motorcycles, motor vehicles and buses, as well as the goods transported in them.

1.1.2. Railway border customs posts – Customs authorities are responsible for customs control of passengers traveling by rail, their hand luggage, and baggage, as well as foreign trade goods transported by rail.

1.1.3. Airport Customs Border Posts – These are customs authorities responsible for customs control of passengers and their hand luggage, baggage, as well as foreign trade goods transported by air through international airports.

1.1.4. "River Port" Customs Border Post – These are customs authorities responsible for customs control of passengers and their hand luggage, baggage, as well as foreign trade goods transported by sea transport through the Amu Darya River, along the border area with neighboring Afghanistan.

1.2. Foreign Economic Activity Customs Posts – These are customs posts responsible for customs control of foreign trade goods moving in export and import directions. Their model organizational structure has been approved in accordance with Annex 5 of the Decree No. 3665 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 12, 2018. The total number of staff units for the foreign economic activity customs posts is set between 3 and 42 persons. Currently, the total number of allocated staff for all customs border posts is 434.

1.3. Remote Electronic Declaration Customs Posts – These customs posts are established to prevent corruption by limiting face-to-face interactions between entrepreneurs and customs officers during the customs clearance process, and to process Customs cargo declarations. Their model organizational structure has been approved in accordance with Annex 5a of the Decree No. 3665 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 12, 2018. The total number of staff units for the remote electronic declaration customs posts is set between 6 and 116 persons. Currently, the total number of allocated staff for all customs border posts is 300.

It is important to emphasize that the state of customs management varies depending on the number of employees serving at customs posts and the volume of their work. Specifically, customs posts are divided into those of the second, first, and extra categories, based on the volume of work and the number of passengers, goods, and vehicles passing through them. Naturally, their salaries also differ according to these levels:

1. Customs Border Posts::

- Extra category customs posts total 16, with staff numbers ranging from 39 to 205;

- First-category customs posts total 16, with staff numbers ranging from 16 to 60;

- Second-category customs posts total 20, with staff numbers ranging from 8 to 24.

2. Foreign Economic Activity Customs Posts:

- Extra category customs posts total 6, with staff numbers ranging from 14 to 40;

- First-category customs posts total 22, with staff numbers ranging from 3 to 14;

- Second-category customs posts total 20, with staff numbers ranging from 3 to 6.

3. The total number of centralized e-declaration customs posts is 15, all of which are non-category customs posts.

2. Mid-Level: Regional Customs Departments - These are structures that exercise general control over customs posts located on their territory, and they employ from 35 to 77 employees in the following areas:

- Customs control and clearance organization department;
- Revenue and customs statistics department;
- Currency control department;
- Goods classification group;
- Anti-smuggling department;
- Customs audit department;
- Department of Inquiry and Administrative Practice;
- Military mobilization, combat readiness, and security department;
- Finance and economics department;
- Material-technical supply department;
- Capital construction department;
- Information and communication technology and cybersecurity department;
- Human resources development and management department;
- Organizational supervision, service activities analysis, and evaluation department;
- Personal security department;
- Public relations and media department;
- Legal department;
- First department.

At this point, each customs post at the lower level is directly subordinated to the relevant regional leader at the mid-level. However, the potential for interference in their activities from any structure within the regional customs department adds complexity to the operations, compared to other state institutions.

3. The upper level, that is, the Central Office of the Customs Committee, consists of the chairman of the committee and his 4 deputies (including 1 1st deputy) and the central departments of the structures listed in the middle level, according to the form of accountability, they submit the reports of the lower level to the structures

of the middle level, and they, in turn, submit the reports to the appropriate departments of the upper level .

Over the more than 30 years of development of the Customs Committee, while customs management has been sufficiently established, the existence of a number of problematic situations calls for the development of appropriate measures to address them. The following issues can be highlighted as key challenges:

First, while the activities of customs authorities are rapidly being digitized, there is no system in place for training management personnel for the "digital customs".

It is worth noting that customs personnel have been trained at the Customs College from 1998 to 2002, and from 2003 onwards, they have been trained in bachelor's and master's programs at the Customs Institute. The Institute's Faculty of Retraining and Professional Development organizes short-term courses for personnel specializing in border control and foreign economic activity. Additionally, retraining and professional development programs for personnel working in specific fields are carried out at higher education institutions of other law enforcement agencies and state bodies. For example:

- Personnel for personal security structures – at the Academy of the State Security Service;
- Investigators – at the Law Enforcement Academy;
- Programmers – at foreign countries' centers for training programmers and so on.

For senior staff, professional education (hard skills) is provided in the fields of border control and foreign economic activity in the retraining and professional development courses. However, courses focused on improving "soft skills" such as leadership capabilities have not been implemented.

Secondly, the performance evaluation system of management personnel has not been introduced.

By the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-122 dated April 27, 2022 “On additional measures to further improve customs administration” [3], a system of motivating customs officers by assessing their activities based on ratings (KPI) was introduced. This system assesses the performance of all customs officers based on relevant criteria and assigns appropriate bonuses. However, there is no performance assessment system for senior officials responsible for managing customs affairs.

It is important to note that, according to the Cabinet of Ministers' Decision No. 463, dated July 31, 2024, on the "Measures to organize the evaluation of the performance of the leaders and their deputies of the republican and local executive authorities, as well as economic associations, based on the most important performance indicators," [4] the performance of leadership personnel in customs authorities, along with ministries, committees, agencies, inspections, state-owned companies, societies, and unions, will be evaluated through the “samaradorlik.uz” platform starting from January 15, 2025, by the Agency for the Development of Public Service.

Third, there is no transparent system for appointing employees to management positions.

According to the level of positions, senior officials in customs bodies are divided into the nomenclatures of the head of the territorial customs department, the Chairman of the Customs Committee, and the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.

According to the Regulation on "Service in the State Customs Service of the Republic of Uzbekistan," approved by Annex 9 of the Presidential Decree No. PF-3665, dated April 12, 2018, on the "Organization of the Activity of the State Customs Service of the Republic of Uzbekistan" [5], the list of positions included in the nomenclature of the Presidential Administration is defined by legislation, as well as the list of positions included in the nomenclature of the Chairman of the Customs Committee and heads of authorized customs authorities, which is approved by the order of the Chairman of the Customs Committee.

Furthermore, it is established that employees can be appointed to higher positions through promotion or rewarding procedures, and employees holding managerial positions may be transferred to an equal position or another structural unit after serving in their current position for three years as part of a rotation process. However, there are no clear criteria for appointing employees to higher or managerial positions.

In conclusion, the fact that the state of customs management in the national customs system has not been sufficiently studied and analyzed has resulted in the presence of incompetent personnel among those performing managerial functions.

List of references:

1. https://lex.uz/docs/4000640
2. Samolaev Yu.N. Public and general management. Chast 2. Tamojennyy management. Uchebnoe posobie. Izd. 2 dopolnennoe. - M.: MABiU, 2010. - 132 p.
3. https://lex.uz/docs/5998615
4. https://lex.uz/ru/docs/7044948
5. https://lex.uz/docs/3680599#4462974

XALQARO TASHKILOTLARNING YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Raimjanova Madina Asrarovna
TDIU professori, i.f.n.

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, ekologik inqiroz, tabiiy resurslarning tugab borishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalarga aylangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, oxirgi yuz yil davomida global harorat 1.1 daraja Selsiyga oshgan, okean sathi har yili 3.7 millimetrga ko‘tarilmoqda va hozirda 1 million hayvon va o‘simlik turlari yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida [1]. Bu vaziyatda insoniyat an’anaviy «qoramtir» iqtisodiyot modelidan, ya’ni cheklangan tabiiy

resurslarni haddan tashqari iste’mol qilish va ekologik oqibatlarni hisobga olmasdan rivojlanishdan yashil iqtisodiyot modeliga o‘tishga majbur bo‘lmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolatni ta’minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan iqtisodiy model hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar esa bu jarayonda yetakchi rol o‘ynab, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari, me’yoriy hujjatlar, moliyaviy mexanizmlar va texnik yordam ko‘rsatish orqali mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda [2].

Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimining qabul qilinishi (2015) va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining belgilanishi (2030-yilgacha) global yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirdi. Parij bitimiga ko‘ra, 197 dan ortiq mamlakatlar global haroratning ko‘tarilishini 2 daraja Selsiydan past darajada, imkon qadar 1.5 daraja Selsiy darajasida saqlab qolish majburiyatini oldilar [3]. Bu maqsadlarga erishish uchun mamlakatlar karbonat chiqindilari miqdorini kamaytirishga yo‘naltirilgan milliy dasturlarni (NDC - Nationally Determined Contributions) ishlab chiqdilar. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari esa global hamjamiyatning 17 ta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi, ularning ko‘pchiligi bevosita yashil iqtisodiyot bilan bog‘liq, masalan, «Arzon va toza energiya» (7-maqsad), «Barqaror shaharlar va aholi punktlari» (11-maqsad), «Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish» (12-maqsad), «Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash» (13-maqsad) va boshqalar [4]. Bu global majburiyatlar doirasida xalqaro tashkilotlar mamlakatlarni yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qo‘llab-quvvatlash, zarur texnik va moliyaviy yordam ko‘rsatish, tajriba almashish va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xalqaro tashkilotlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun nihoyatda muhim. Chunki bu davlatlar ko‘pincha yashil texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarga, texnologiyalarga va tajribaga ega emaslar. Masalan, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun har yili 1.3 trillion dollardan ortiq investitsiya talab etiladi [5]. Bu mablag‘larni safarbar etish, samarali yo‘naltirish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash uchun esa xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan institutsional mexanizmlar, moliyaviy instrumentlar va texnik yordam dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar global va mintaqaviy hamkorlik platformalarini yaratish, yashil texnologiyalarni transfer qilish, mamlakatlar o‘rtasida tajriba almashish va birgalikda ekologik muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan vositalarni taqdim etadi [6].

Yashil iqtisodiyotga o‘tish global iqtisodiy tuzilmani chuqur o‘zgartirish va transformatsiya qilishni talab etadi. Bu jarayonda davlatlar va xususiy sektor vakillari o‘rtasida kuchli hamkorlik, innovatsion yechimlar va tizimli yondashuvlar zarur. Xalqaro tashkilotlar ana shu faoliyatni muvofiqlashtiruvchi, yo‘naltirivchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Masalan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish

natijasida 2030-yilgacha global iqtisodiyotda 24 million yangi ish o‘rni yaratilishi mumkin [7]. Bir vaqtning o‘zida, an’anaviy sektorlarda ish o‘rinlari qisqarishi ham kutilmoqda. Bu jarayonni adolatli boshqarish, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish va jamiyatning barcha qatlamlarini yangi iqtisodiy modelga tayyorlash uchun xalqaro tashkilotlar ko‘plab dasturlar va mexanizmlarni ishlab chiqmoqdalar. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyot sohasidagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirib, ularni boshqa mamlakatlarga tarqatish, yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini monitoring qilish va mamlakatlarning yashil rivojlanish sohasidagi yutuqlarini baholash uchun metodologiyalarni ishlab chiqish orqali ham muhim vositachi rolini o‘ynamoqda [8].

COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi global iqtisodiy inqiroz ko‘plab mamlakatlarni iqtisodiy tiklash dasturlarini ishlab chiqishga majbur qildi. Bu vaziyat yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun noyob imkoniyat yaratdi va xalqaro tashkilotlar «yashil tiklanish» (Green Recovery) g‘oyasini faol ilgari surmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi o‘zining “NextGenerationEU” dasturida 750 milliard yevroning 30 foizini iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashga yo‘naltirmoqda [9]. Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki kabi tashkilotlar esa mamlakatlarni iqtisodiy tiklanish paytida ekologik jihatlarni hisobga olishga va “yashil chiqish” (green exit) strategiyalarini ishlab chiqishga undamoqda. Shuningdek, BMT tizimi tashkilotlari, mintaqaviy rivojlanish banklari va ikkitamonlama donorlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, texnik yordam ko‘rsatish va moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirmoqda [10]. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlarning rolini o‘rganish, ularning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi strategiyalari, vositalari va mexanizmlarini tahlil qilish hamda ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur mavzu bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

1-jadval

Xalqaro moliya institutlarining yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlari[76]

Moliya instituti	**Yashil moliyalashtirish instrumenti**	**Moliyalashtirish hajmi**	**Ustuvor yo‘nalishlar**	**Alohida dasturlar**
Jahon banki guruhi[11]	Yashil obligatsiyalar, Iqlim investitsiya fondi, Carbon Partnership Facility	2021-2025 yillar uchun 200 mlrd dollar	Qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi, suv resurslari	Energy Sector Management Assistance Program (ESMAP)
Xalqaro valyuta fondi (IMF)[12]	Yashil iqlim fondi, Technical Assistance on Climate Change	50 mlrd dollar (2020-2025)	Iqlim o‘zgarishiga moslashish, fiskal siyosatni «yashillashtirish»	Climate Change Policy Assessments (CCPAs)
Osiyo taraqqiyot banki (ADB) [13]	Osiyo iqlim fondi, Yashil obligatsiyalar, Suv	80 mlrd dollar (2019-2030)	Iqlimga chidamli shaharlar, «toza» energiya, suv	ASEAN Catalytic Green

[76] Muallif tomonidan tayyorlangan.

	moliyalashtirish kemakchiligi		resurslari	Finance Facility
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)[14]	Yashil iqtisodiyotga o‘tish dasturi (GET)	40 mlrd yevro (2021-2025)	Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, resurs samaradorligi	Green Cities Programme
Islom taraqqiyot banki (IsDB)[15]	Yashil sukuk, Iqlim o‘zgarishiga moslashish fondi	5 mlrd dollar (2020-2025)	Chiqindisiz iqtisodiyot, suv resurslari, «aqlli» qishloq xo‘jaligi	Climate Change Adaptation Facility

Xalqaro moliya institutlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim strategik rol o‘ynamoqda. Jadvalda ko‘rsatilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Jahon banki guruhi, Xalqaro valyuta fondi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda Islom taraqqiyot banki (IsDB) kabi yirik xalqaro moliya tashkilotlari yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun salmoqli moliyaviy resurslarni safarbar etmoqda. Umumiy hisobda bu moliya institutlari yaqin 5-10 yil ichida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun 375 milliard dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltirishni rejalashtirgan. Bu resurslar asosan yashil obligatsiyalar, iqlim investitsiya fondlari, yashil sukuk va boshqa innovatsion moliyaviy instrumentlar orqali yo‘naltirilmoqda. Mazkur institutlar nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar etish, balki yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur bo‘lgan dasturlar, strategiyalar va yo‘l xaritalarini ishlab chiqishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Xalqaro moliya institutlarining yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlari bir nechta ustuvor yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lib, ular orasida qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi, suv resurslari, iqlimga chidamli shaharlar va «aqlli» qishloq xo‘jaligi kabi sohalar alohida ahamiyatga ega. Har bir xalqaro moliya instituti o‘zining mintaqaviy va institutsional xususiyatlariga mos ravishda ustuvor yo‘nalishlarni belgilagan. Masalan, Jahon banki guruhi asosan qayta tiklanuvchi energetika va energiya samaradorligi loyihalariga e’tibor qaratsa, Osiyo taraqqiyot banki iqlimga chidamli shaharlar va «toza» energiyaga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirmoqda. Islom taraqqiyot banki esa o‘zining yashil sukuk instrumentlari orqali chiqindisiz iqtisodiyot va suv resurslari boshqarish loyihalarini moliyalashtirmoqda. Bu institutlar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturlar, masalan Energy Sector Management Assistance Program (Jahon banki), Climate Change Policy Assessments (IMF), ASEAN Catalytic Green Finance Facility (ADB), Green Cities Programme (EBRD) va Climate Change Adaptation Facility (IsDB) yashil moliyalashtirishni samarali va maqsadli yo‘naltirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro moliya institutlarining yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, global miqyosda yashil transformatsiya jarayoni tezlashib bormoqda, biroq bu jarayonda rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun ko‘proq moliyaviy resurslar va texnik ko‘mak zarur. Ushbu institutlarning moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada oshib borayotgan bo‘lsa-da, BMTning Atrof-muhit dasturi ma’lumotlariga ko‘ra, global

yashil transformatsiya uchun yiliga 4-5 trillion dollar atrofida investitsiya talab etiladi. Bu esa mavjud moliyalashtirish hajmi bilan talab o‘rtasida katta farq borligini ko‘rsatadi. Shu bois, xalqaro moliya institutlari nafaqat o‘z resurslarini ko‘paytirishlari, balki innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish, xususiy sektorni jalb qilish, milliy moliyaviy tizimlarning «yashillanishini» qo‘llab-quvvatlash orqali samaradorlikni oshirishlari zarur. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarga bu institutlarning moliyaviy va texnik ko‘magidan samarali foydalanish, ularning dastur va mexanizmlarini milliy iqtisodiy transformatsiya jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha tizimli strategiya ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations. (2023). «Climate Change 2023: Synthesis Report». Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC).
2. UNEP. (2022). «Green Economy Report: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication». United Nations Environment Programme.
3. UNFCCC. (2015). «Paris Agreement». United Nations Framework Convention on Climate Change.
4. United Nations. (2015). «Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development». Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015.
5. UNEP. (2023). «Global Trends in Renewable Energy Investment 2023». United Nations Environment Programme.
6. World Bank. (2023). «The Global Green Economy: Opportunities and Challenges for Developing Countries». World Bank Group.
7. OECD. (2023). «Employment Implications of Green Growth: Linking jobs, growth, and green policies». Organisation for Economic Co-operation and Development.
8. UNEP. (2022). «Measuring Progress: The Green Economy Progress Measurement Framework». United Nations Environment Programme.
9. European Commission. (2023). «NextGenerationEU: Green Recovery Tracker». European Union.
10. IMF. (2023). «Greening the Recovery: Policies for Sustainable Growth». International Monetary Fund.
11. World Bank. (2023). *Climate Finance Report 2022-2023*. World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/topic/climatechange/publication/climate-finance-report-2022-2023
12. IMF. (2022). *Green Finance and Climate Policy*. International Monetary Fund. https://www.imf.org/en/Topics/climate-change/green-finance
13. ADB. (2023). *Green Finance and Climate Change Action Plan 2019-2030*. Asian Development Bank. https://www.adb.org/publications/green-finance-climate-change-action-plan-2019-2030
14. EBRD. (2022). *Green Economy Transition Approach 2021-2025*. European Bank for Reconstruction and Development. https://www.ebrd.com/what-we-do/get
15. IsDB. (2022). *Green Sukuk Framework*. Islamic Development Bank.

https://www.isdb.org/publications/green-sukuk-framework

MOLIYA TIZIMIDA YASHIL INSTRUMENTLAR QO‘LLANILISHINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM doktoranti (DSc)

So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi ekologik muammolar tobora dolzarb bo‘lib bormoqdaki, bu muammolarni hal etishda moliya tizimi maydonga chiqmoqda. Chunki moliya sohasi yashil texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash va ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqdim etadi. Bunda yashil instrumentlar, jumladan yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil fondlar va boshqa moliyaviy vositalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, yashil instrumentlarning samarali qo‘llanilishi soliq siyosatining qo‘llab-quvvatlashini talab etadi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi yashil instrumentlarga soliq imtiyozlari va preferensiyalarni qo‘llashning aniq qoidalarini belgilaydi va bu investorlar uchun yashil loyihalarning moliyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyatini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Zero, tadqiqotimiz natijalari yashil moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha siyosatni takomillashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilishi tayin.

Moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyatini ochib berishda 1-jadvalga e’tibor qaratish lozim.

1-jadval.

Moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyati[77]

[77] Muallif ishlanmasi

Ahamiyat jihati	Ta'rifi	Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining roli	Natijalar
Investitsiya jozibadorligini oshirish	Yashil loyihalarni investorlar uchun moliyaviy jihatdan qiziqarli qilish	Yashil instrumentlarga soliq imtiyozlarini qo'llash qoidalarini aniq belgilash	Yashil investitsiyalarni jalb qilishning ortishi, kapital oqimining ko'payishi
Soliq imtiyozlarining samaradorligini ta'minlash	Davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlaridan maqsadli va samarali foydalanish	Yashil loyihalarga berilgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish, suiiste'molliklarning oldini olish	Soliq imtiyozlaridan faqat haqiqiy yashil loyihalar foydalanishi, davlat resurslaridan oqilona foydalanish
Yashil loyihalarni standartlashtirish	Yashil loyihalarni baholash va soliq imtiyozlarini qo'llash uchun umumiy mezonlar yaratish	Yashil loyihalarni taqqoslashni osonlashtirish, investorlar uchun qaror qabul qilishni soddalashtirish	Yashil loyihalarning shaffofligi va ishonchliligi, yashil investitsiyalar bozorining rivojlanishi
Soliq tushumlariga ta'sirini baholash	Yashil instrumentlarga soliq imtiyozlarini qo'llashning davlat budjetiga ta'sirini aniqlash	Soliq siyosatini rejalashtirish, yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur resurslarni aniqlash	Davlat budjetining barqarorligi, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun resurslarni ta'minlash
Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish	Yashil investitsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish	Xalqaro standartlarga muvofiq soliq qoidalarini ishlab chiqish	Yashil kapitalni jalb qilish, transchegaraviy moliyalashtirishni osonlashtirish
Davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash	Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish	Ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish	Barqaror iqtisodiy o'sish, atrof-muhit holatining yaxshilanishi

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar yashil instrumentlar orqali moliyaviy tizimni rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining muhimligini aniq va ixcham tarzda namoyish etadi. Xususan, investitsion jozibadorlikni oshirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi yashil instrumentlarga soliq imtiyozlari va preferensiyalarni qo‘llashning aniq qoidalarini taklif etsa, buning natijasi yashil investitsalar jalb qilinishining ortishiga va kapital oqimining ko’payishiga olib keladi.

Shuningdek, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi yashil instrumentlar va loyihalarni standartlashtirishga yordam beradi. Bu yashil loyihalarni baholash va soliq imtiyozlarini qo‘llash uchun umumiy mezonlar va standartlar yaratish imkonini taqdim etib, yashil loyihalarning shaffof va ishonchliligini ortiradi. Qolaversa, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi yashil instrumentlarga soliq imtiyozlarini qo‘llashning davlat budjeti soliq tushumlariga ta'sirini baholash imkonini ham beradi. Bu yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni aniqlash degani demakdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi lozimki, bu yashil investitsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yashil kapitalni jalb qilish imkonini taqdim etadi. Buning natijasi esa yashil loyihalarni transchegaraviy moliyalashtirishni osonlashtirib yashil investitsiyalar bozorini integratsiyalashga yordam bersa, metodologiyaning yashil instrumentlarni moliyaviy rag'batlantirish orqali ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni va energiya samaradorligini oshirishni rag'batlantirishi davlatning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga asosiy dastak vazifasini o’taydi.

Yuqoridagi fikrlar natijasida xulosa beradigan bo’lsak, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishning muhim elementidir. U investorlar uchun yashil loyihalarning jozibadorligini oshiradi, soliq imtiyozlarining samaradorligini ta'minlaydi, yashil loyihalarni standartlashtiradi, soliq tushumlariga ta'sirini baholashga yordam beradi, xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun aniq, shaffof va samarali soliq bazasini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Qolaversa, moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyatini yanada oshirish uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Soliq kodeksida yashil instrumentlar va loyihalar tushunchalarini aniq belgilash, yashil instrumentlar ro‘yxatini shakllantirish va uni muntazam ravishda yangilab turish lozim. Albatta, bu investorlar va loyiha tashabbuskorlari uchun soliq imtiyozlarining shartlari va qo‘llanilish tartibi tushunarli bo‘lishini ta’minlab beradi;

2. Soliq imtiyozlarining miqdorini loyihaning ekologik ta'siriga qarab belgilash kerakki, eng yuqori ekologik samara beradigan loyihalarga ko‘proq soliq imtiyozlari berish yo’li bilan. Zero, bu yuqori ekologik samara beradigan loyihalarni rag‘batlantirish va yashil investitsiyalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

3. Yashil obligatsiyalardan olingan daromadga soliq imtiyozlari berish yohud ularga investitsiya qilish xarajatlarini soliqdan chegirib tashlash imkoniyatini joriy etish lozim. Bu ishdan ko’zlangan maqsad esa yashil obligatsiyalarga talabni oshirish va yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilishdir;

4. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarga soliq solishni kengaytirish va ekologik soliqlar tizimini soddalashtirishda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirish lozim.

Ushbu takliflar moliya tizimida yashil instrumentlar qo‘llanilishini rivojlantirishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyatini yanada oshirishga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Smith, Adam. The Wealth of Nations. Oxford, England: Bibliomania.com Ltd, 2002.

2. Ricardo, David, 1772-1823. On the Principles of Political Economy and Taxation. London : John Murray, 1817.

3. Mill, John Stuart. Principles of Political Economy. editeds by Laughlin, J. New York, (1884)

4. Tversky, A., Kahneman, D. Advances in prospect theory: Cumulative representation of uncertainty. J Risk Uncertainty 5, 297–323 (1992). https://doi.org/10.1007/BF00122574)

5. Musgrave, R.A. (1959) The Theory of Public Finance. McGraw Hill, New York.

6. Gruber, Jonathan. Public Finance and Public Policy. New York, NY: Worth Publishers, 20052004.

7. Sally Jones, Shelley Rhoades-Catanach, Sandra Callaghan., "Principles of Taxation for Business and Investment Planning" - 704 pages, Hardcover., Published April 7, 2023.
8. Xalikchayeva, S. (2021). O ‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA MAVJUD SOLIQLAR BAZASINI ANIQLASH TARTIBI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING XUSUSIYATLARI. Iqtisodiyot va ta’lim, (5), 255-260.

ESG TAMOYILLARINING INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI STRATEGIK ROLI: MOLIYA BOZORI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Raxmanov Sharof Diyorovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida investitsion muhit jozibadorligini ta’minlash har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ular ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ish o‘rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, investitsion muhit jozibadorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar va usullarni qo‘llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda global investitsion muhitda muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. An’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (daromadlilik, rentabellik, likvidlik) bilan bir qatorda, investitsion qarorlarni qabul qilishda atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini hisobga olish zaruriyati ortib bormoqda. Bu omillar “ESG” (Environmental, Social, Governance)[78] tamoyillari deb nomlanib, investitsiya obyektlari faoliyatini yanada kengroq va kompleks baholash imkonini beradi. ESG tamoyillari zamonaviy biznes faoliyatining barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan falsafa va amaliyot hisoblanadi. Ushbu tamoyillarga ko‘ra, kompaniyalar o‘z faoliyatida nafaqat moliyaviy natijalar, balki ekologik mas’uliyat, ijtimoiy adolat va korporativ boshqaruv samaradorligi kabi jihatlarga ham e’tibor qaratishlari lozim. ESG tamoyillarining asosiy g‘oyasi shundaki, kompaniyalar o‘z faoliyatining barcha manfaatdor tomonlarga – aktsiyadorlar, xodimlar, hamkorlar, jamoatchilik va kelajak avlodlarga ta’sirini hisobga olgan holda ishlashlari kerak.

ESG konsepsiyasi o‘zining nisbatan yangi yondashuv bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda global investitsion qarorlarni qabul qilishda tobora muhim o‘rin tutmoqda. Global Sustainable Investment Alliance[79] (GSIA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hajmi 35 trillion AQSH dollaridan oshib ketdi, bu esa global investitsiya aktivlarining taxminan uchdan bir qismini tashkil etadi.

Investitsion muhit jozibadorligini oshirishda ESG tamoyillarining o‘rni va ahamiyati bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, ESG talablariga rioya qilish investorlar uchun kompaniyaning barqaror rivojlanish strategiyasiga ega ekanligini

[78] https://corporatefinanceinstitute.com/resources/esg/esg-environmental-social-governance/
[79] https://www.gsi-alliance.org/

va uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Bu esa investitsion qarorlarni qabul qilishda, ayniqsa institutsional investorlar uchun muhim jihatdir.

ESG tamoyillarining “E” (Environmental) komponenti ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etmoqda, shu bois atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli yondashuv investorlar uchun kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. “S” (Social) komponenti ijtimoiy mas'uliyat, mehnat sharoitlari, xilma-xillik va teng imkoniyatlar, jamiyatga hissa qo‘shish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Kompaniyalarning ijtimoiy sohadagi faoliyati ularning obro‘siga, xodimlar sadoqatiga va mijozlar e’tiboriga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida biznes barqarorligini ta’minlovchi omillardan biridir. “G” (Governance) komponenti korporativ boshqaruv samaradorligi, shaffoflik, aktsionerlar huquqlari va korupsiyaga qarshi kurash kabi masalalarni qamrab oladi. Samarali korporativ boshqaruv tizimi investorlar uchun kompaniyaning ishonchliligini va o‘z mablag‘larini oqilona boshqarishini kafolatlovchi omil hisoblanadi.

ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati nafaqat axloqiy jihatlar, balki amaliy va moliyaviy natijalar bilan ham bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillariga rioya qiluvchi kompaniyalar ko‘pincha yuqori moliyaviy natijalarni ko‘rsatadi. Masalan, Morgan Stanley tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, “ESG tamoyillariga e’tibor qaratgan kompaniyalar 2004-2018-yillarda o‘rtacha 6,9% yillik daromad ko‘rsatgan bo‘lsa, ESG omillariga kam e’tibor qaratgan kompaniyalar esa 1,3% yillik daromad ko‘rsatgan”[80]. ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi yana bir muhim jihati – bu risk boshqaruviga ta’sir ko‘rsatishidir. ESG omillarini tahlil qilish investorlar uchun kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv bilan bog‘liq risklarini baholash imkonini beradi. Bu esa investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi roli milliy iqtisodiyotlar va kompaniyalar uchun ham muhim. Zamonaviy sharoitda ESG tamoyillariga rioya qilish xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. ESG tamoyillariga rioya qiluvchi kompaniyalar xalqaro investorlar uchun jozibadorroq bo‘lib, global kapital bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Global investitsion bozorda ESG tamoyillarining ahamiyati ortib borishi bilan bir qatorda, ESG hisoboti standartlari ham rivojlanmoqda. Bugungi kunda Global Reporting Initiative[81] (GRI), Sustainability Accounting Standards Board[82] (SASB), Task Force on Climate-related Financial Disclosures[83] (TCFD) kabi standartlar mavjud bo‘lib, ular kompaniyalarning ESG faoliyatini baholash va taqqoslash imkonini beradi. ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati shundaki, ular an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarni

[80] chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.morganstanley.com/im/publication/insights/investment-insights/ii_esgandthesustainabilityofcompetitiveadvantage_us.pdf

[81] https://www.globalreporting.org/

[82] https://sasb.ifrs.org/

[83] https://www.fsb-tcfd.org/

to‘ldiradi va kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi omillarni hisobga olish imkonini beradi. Bugungi kunda ESG tamoyillarini hisobga olmaydigan kompaniyalar uchun bir qator risklari mavjud: investorlar qiziqishining pasayishi, obro‘ning yomonlashuvi, qonun hujjatlarining qattiq talablari va boshqalar.

ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati faqat kompaniyalar uchun emas, balki mamlakatlar uchun ham muhimdir. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar ESG tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash va joriy etish bo‘yicha maxsus dasturlar va strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotlarning global investitsion bozordagi jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. ESG tamoyillarining investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati turli manfaatdor tomonlar uchun turlicha bo‘lishi mumkin. Investorlar uchun ESG tamoyillari kompaniyaning barqarorligini va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini beradi. Kompaniyalar uchun ESG tamoyillari investorlar qiziqishini oshirish va kapitalni jalb qilish imkoniyatini beradi. Jamiyat uchun ESG tamoyillari esa ijtimoiy va ekologik masalalarni hal etishga hissa qo‘shadi. Shu sababli, moliya bozori orqali ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalarni rag‘batlantirish va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda milliy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. O‘zbekistonda ESG tamoyillarining rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, xalqaro investitsiyalar hajmining oshishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTONNING YANGI SAVDO SHARTNOMALARIGA QO‘SHILISHIDAGI IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Toshpulatova Malika Ulug‘bek qizi
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat olib bormoqda. Dunyo va mintaqadagi tezkor o‘zgarishlar sharoitida mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasi xalqaro hamkorlikni kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida bojxona to‘lovlarini kamaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va xalqaro savdo shartnomalariga qo‘shilish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro savdo shartnomalariga qo‘shilish mamlakat uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro savdo shartnomalariga qo‘shilishi bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Bir tomondan, Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish, yangi iqtisodiy shartnomalarga qo‘shilish va bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport hajmini oshirish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish uchun muhim turtki bo‘lishi mumkin. Xalqaro me’yorlarga moslashish xorijiy investorlar uchun ham jozibador muhit yaratadi.

Boshqa tomondan, savdo shartnomalariga qo‘shilish natijasida ichki bozorni himoya qilish mexanizmlarining zaiflashishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli tashqi raqobatga duch kelishi va iqtisodiy mustaqillikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, bojxona to‘lovlarining pasayishi import tovarlarining ko‘payishiga sabab bo‘lib, ayrim sanoat tarmoqlarining zaiflashishiga olib kelishi ehtimoli bor. Ushbu masala O‘zbekiston iqtisodiy strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, JSTga qo‘shilgan ayrim davlatlar iqtisodiy yutuqlarga erishgan bo‘lsa, boshqalari ishlab chiqarish va bandlik sohasida qiyinchiliklarga duch kelgan. Shu bois, O‘zbekiston uchun eng optimal yo‘l – bosqichma-bosqich integratsiya va ichki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali xalqaro savdo shartnomalaridan maksimal darajada foyda olishdir.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining bir nechta maqsadlarida ham davlatimizning iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish, keng qamrovli strategik sheriklik aloqalarini kengaytirish, JSTga a’zo bo‘lish kabi muhim masalalari alohida ta’kidlangan. Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni vazifa qilib olgan:

– Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish;

– Barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib boorish;

– Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish;

– Milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, me’yor va bitimlariga moslashtirish;

– Yiliga kamida 10 ta xorijiy davlat bilan bozorga kirish muzokaralarini yakunlash;

– Jahon savdo tashkilotiga a’zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo‘yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a’zo bo‘lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish[84].

2024-yilning o‘zida davlatimiz rahbari ishtirokida 10 dan oshiq davlatlar bilan ikki tomonlama Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha muhim kelishuvlar, strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatildi[85].

Hozirda davlatimiz iqtisodiy faoliyatidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bu O‘zbekistonni Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lishidir. O‘zbekiston prezidentining JST masalalari bo‘yicha maxsus vakili Azizbek Urunov bergan ma’lumotiga ko‘ra davlatimiz 18 ta davlat bilan JSTga a’zo bo’lish bo’yicha muzokaralarni yakunlagan, ulardan 14 tasi bilan bozorga kirish bo’yicha muzokaralarni yakunlash to’g’risida protokollarni imzoladi. Shuningdek 2024 yil

[84] https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156
[85] https://gov.uz/oz/mfa/news/view/16999

yakuniga qadar ikkita eng yirik global savdo egalari – AQSh[86] va Xitoy[87] bilan muzokalaralarni ham yakunladi[88].

Jahon savdo tashkiloti – umuman olganda, bir adolatli savdo tizimi. JSTga a'zo bo'lganlar va a'zo bo'lmaganlar orasida tengsizlik bor. JSTga kirish – O'zbekistonga boshqa, avvalo rivojlangan va tez rivojlanayotgan mamlakatlar bilan adolatli va teng paritet shart-sharoitlarda savdo qilish huquqini beradi. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi va ko'p tomonlama savdo bitimlarida faol ishtirok etishi uning iqtisodiy o'sishi va savdo diversifikatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Biroq, uning integratsiyalashuv harakatlarini optimallashtirish uchun tarif to'siqlari, tartibga solish va infratuzilmaviy cheklovlar kabi muammolarni hal qilish kerak.

Jahon savo tashkilotiga qo'shilishning bir qator afzaliklari bor, shu bilan birga ba'zi xavflari ham mavjud. Quyidagi 1- va 2- rasmda JSTga a'zo bo'lishning imkoniyatlarini hamda xavflarini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. JSTga a'zo bo'lishning afzaliklari[89]

Savdo shartnomalari va kelishuvlar O'zbekistonga katta bozorlarga imtiyozli kirish imkonini beradi. Masalan, JSTga a'zo bo'lish mamlakatga kamsitilmaydigan savdo siyosatidan, eksport hajmini oshirishdan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb qilishdan foyda olish imkonini beradi.

Savdoni erkinlashtirish noan'anaviy tarmoqlarni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi va xomashyo eksportiga tayangan O'zbekiston iqtisodiyoti sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatining kengaytirilishidan foyda ko'rishi mumkin.

Savdo bitimlariga a'zolik ko'pincha iqtisodiy barqarorlik va shaffoflikdan dalolat beradi, bu esa O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun jozibador manzilga aylantiradi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ko'payishi ish o'rinlari yaratish, texnologiyalar transferi va infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.

---

[86] https://kun.uz/93366409. AQSh O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatladi
[87] https://kun.uz/93366409. O'zbekiston Xitoy bilan JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni yakunladi
[88] O'zbekiston 18 davlat bilan JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni yakunladi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz
[89] Muallif ishlanmasi

Xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish O‘zbekistondan o‘z iqtisodiy siyosati va me’yoriy-huquqiy bazalarini jahon andozalari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bu jarayon huquqiy tuzilmalarni takomillashtirish, boshqaruvni yaxshilash va savdoni osonlashtirish choralarini kuchaytirishga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni global raqobatga ochish xorijiy firmalar bilan raqobatlasha oladigan mahalliy korxonalar uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Tarixan savdo to‘siqlari bilan himoyalangan tarmoqlar erkinlashtirilgan savdo muhitida jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin.

JST kabi kasaba uyushmalarining talablariga javob berish murakkab va qimmatga tushishi mumkin bo‘lgan jiddiy siyosat islohotlarini talab qiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash hukumat resurslarini qiyinlashtirishi va muhim institutsional o‘zgarishlarni talab qilishi mumkin.

Jahon bozorlariga kengroq integratsiyalashuv O‘zbekistonni tashqi iqtisodiy zarbalarga duchor qilishi mumkin. Masalan, agar geosiyosiy keskinliklar yoki iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelsa, muayyan sheriklar bilan savdo shartnomalariga tayanish zaifliklarga olib kelishi mumkin.



2-rasm. JSTga a’zo bo‘lishning xavflari[90]

Xalqaro shartnomalarga a’zolik ko‘pincha O‘zbekistonning mustaqil iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin bo‘lgan majburiyatlar bilan birga keladi.

Hozirgi kunda jahon savdosining 98 foizi[91] unga (JST) a’zo 166 ta mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi, a’zo bo‘lgan davlatlarning iqtisodiyotida JSTga a’zolikdan so‘ng ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston iqtisodiyotiga yaqin bo‘lgan ayrim davlatlarning qiyosiy tahlilini ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

Xorijiy davlatlarning JSTga a’zo bo‘lish tajribasi[92]

Mamlakat	**JSTga qo‘shilish yili**	**Erishilgan foydalar**	**Duch kelgan muammolar**
Qozog‘iston	2015	Savdo munosabatlarining	Xomashyo eksportiga

[90] Muallif ishlanmasi
[91] https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm
[92] www.wto.org ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

		yaxshilanishi, investitsiya o‘sishi	bog‘liqlik
Qirg‘iziston	1998	Savdoni liberallashtirish, mintaqaviy integratsiya	Raqobatga dosh berish qiyinligi, zaif ichki sanoat
Tojikiston	2013	Xalqaro savdo o‘sishi, global bozorga kirish imkoniyati	JST qoidalariga moslashish, cheklangan institutsional salohiyat
Vetnam	2007	Eksport yo‘naltirilgan o‘sish, iqtisodiy diversifikatsiya	JST qoidalariga moslashishda dastlabki qiyinchiliklar
Gruziya	2000	Savdo ochiqligi, xorijiy investitsiyalar oqimi	Cheklangan sanoat salohiyati, kuchli raqobat
Kambodja	2004	To‘qimachilik eksporti o‘sishi, xorijiy investitsiyalar ko‘payishi	Regulyativ talablarga rioya qilish muammolari

O‘zbekiston a’zolikdagi xavflarni kamaytirishi uchun quyidagi tavsiyalarni aytib o‘tmoqchimiz:

– Mahalliy sanoatni qo‘llab-quvvatlagan holda savdo siyosatini bosqichma-bosqich liberallashtirish;

– Xalqaro standartlarga moslashish uchun institutlar va me’yoriy-huquqiy bazalarni mustahkamlash;

– Muayyan savdo sheriklariga qaramlikni kamaytirish uchun eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish;

– Savdo integratsiyasiga strategik yondashuvni qo‘llash orqali O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy barqarorligi va suverenitetini himoya qilgan holda globallashuv afzalliklaridan foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning xalqaro savdo shartnomalariga qo‘shilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynashi mumkin. Bu jarayon yangi bozorlarni ochish, eksport hajmini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy hamkorlik texnologik innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, ushbu integratsiya jarayoni muayyan xavflarni ham keltirib chiqaradi. Katta global bozorlar bilan raqobatlashish mahalliy sanoat uchun qiyinchilik tug‘dirishi, ayrim sohalarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, tashqi iqtisodiy bog‘liqlikning ortishi milliy iqtisodiy siyosatning mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli bor. Shu sababli, O‘zbekiston xalqaro savdo tizimiga qo‘shilish jarayonida bosqichma-bosqich va puxta o‘ylangan strategiyani qo‘llashi lozim. Bu esa xalqaro hamkorlikdan maksimal foyda olish bilan birga ichki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. lex.uz/ru/docs/-6600413
2. https://www.wto.org/ Jahon savdo tashkilotining rasmiy veb-sayti
3. https://gov.uz/mfa. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi portal

4. https://kun.uz/93366409. AQSh O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishini qo‘llab-quvvatladi
5. https://kun.uz/93366409. O‘zbekiston Xitoy bilan JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni yakunladi
6. O‘zbekiston 18 davlat bilan JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni yakunladi – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz

TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI KO‘RSATKICHLARNING NAZARIY ASOSLARI

‘g‘li
mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiy tizimda moliyaviy vositachilik, kapital taqsimoti va pul aylanishining markaziy institutlaridan biri sifatida faoliyat yuritadi. Banklarning samarali faoliyati milliy iqtisodiyot barqarorligi va moliyaviy tizim sog‘lomligining muhim indikatoridir. Shu bois banklar samaradorligini o‘lchash doimo ilmiy va amaliy muhokamalarning markazida bo‘lib kelgan.

Tijorat banklari faoliyatida samaradorlikni o‘lchashga bo‘lgan ehtiyoj XX asr boshlarida, bank sektorining institutsional shakllanish davrida yuzaga keldi. Dastlabki yondashuvlar oddiy moliyaviy ko‘rsatkichlar – foyda, balans o‘sishi, kapital hajmiga asoslangan bo‘lsa-da, bu usullar bank faoliyatining murakkabligini to‘liq qamrab olmagan. 1960–1980 yillar oralig‘ida bank ish faoliyatini tahlil qilishda murakkabroq yondashuvlar – masalan, kirish-chiqish (input-output) asosidagi iqtisodiy samaradorlik tahlillari rivojlandi. Bu davrda banklar xodim soni, filiallar, kreditlar va depozitlar hajmi, operatsion xarajatlar kabi ko‘rsatkichlarga e'tibor qaratgan. Aynan shu yondashuv zamonaviy samaradorlik metodikalarining poydevorini tashkil etdi[1].

Bugungi kunda ham keng qo‘llanilayotgan rentabellik ko‘rsatkichlari – ROA (Return on Assets) va ROE (Return on Equity) – tijorat banklarining eng asosiy moliyaviy indikatorlari hisoblanadi. ROA – bu sof foydaning jami aktivlarga nisbati bo‘lib, bank aktivlaridan qanday darajada daromad olinayotganini ifodalaydi. U bank boshqaruvi tomonidan resurslardan qanchalik oqilona foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Masalan, 1,5% ROA ga ega bank 1 dollar aktivdan 1,5 sent foyda olishga muvaffaq bo‘lgan. ROE esa sof foydaning bank kapitaliga nisbati bo‘lib, bu bank egalarining investitsiyalaridan olgan daromad darajasini ifodalaydi. Yuqori ROE darajasi investorlar uchun bankning jozibadorligini anglatadi. Shu bilan birga, haddan tashqari yuqori ROE risklar oshib borayotganini ham ko‘rsatishi mumkin.

Net Interest Margin (NIM) – bu bankning asosiy daromad manbai hisoblangan foizli faoliyatining samaradorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir. U bankning foizli aktivlardan (masalan, kreditlar) olgan daromadlari bilan foizli majburiyatlar (depozitlar, qarzlar) bo‘yicha to‘lagan xarajatlari o‘rtasidagi farqni bildiradi va bu farq umumiy daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatan hisoblanadi. Agar bank kreditlar bo‘yicha 10% daromad olsa, lekin depozitlar uchun 6% to‘lasa, u holda NIM 4% atrofida bo‘ladi. NIM qanchalik yuqori bo‘lsa, bankning foizli faoliyati

shunchalik foydali va raqobatbardosh hisoblanadi. Biroq, NIM ko‘rsatkichi makroiqtisodiy sharoitlar, inflyatsiya, pul-kredit siyosati va bozordagi raqobat darajasiga ham kuchli bog‘liq[2].

Cost-to-Income Ratio (CIR) – bu bankning operatsion xarajatlari daromadlariga nisbatan samaradorligini o‘lchovchi muhim ko‘rsatkichdir. U quyidagicha hisoblanadi: (Operatsion xarajatlar / Jami operatsion daromad) x 100%. Masalan, CIR 50% bo‘lsa, bu har 1 so‘m daromad olish uchun bank 50 tiyin xarajat qilayotganini bildiradi. Ko‘rsatkich qanchalik past bo‘lsa, bank faoliyati shunchalik tejamkor va samarali yuritilmoqda, degan xulosa chiqariladi. Zamonaviy banklar texnologik yechimlar yordamida xarajatlarni qisqartirishga, raqamli bank xizmatlari orqali CIRni kamaytirishga harakat qilmoqda. Shu sababli CIR bank boshqaruv samaradorligi uchun eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Data Envelopment Analysis (DEA) – bu samaradorlikni baholovchi matematik dasturlash usuli bo‘lib, 1978 yilda Charnes, Cooper va Rhodes tomonidan ishlab chiqilgan. DEA bir vaqtning o‘zida bir nechta kirish (masalan, xodimlar soni, filiallar, operatsion xarajatlar) va chiqish (foyda, kreditlar hajmi, daromad) ko‘rsatkichlarini solishtirishga imkon beradi. Bu usul bilan banklarning nisbiy samaradorligi aniqlanadi va har bir bank uchun “ideal samarali model”ga nisbatan baho beriladi. DEA ayniqsa ko‘p bank ishtirok etadigan, regulyatorlar va tadqiqotchilar olib boradigan tahlillarda qo‘llaniladi. Uning afzalligi – moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasdan, faoliyatning turli jihatlarini baholay olishi[3].

Stochastic Frontier Analysis (SFA) – statistik model asosida yaratilgan samaradorlik tahlil usuli bo‘lib, tasodifiy xatolar va omadsizlik omillarini hisobga oladi. Bu yondashuv bank samaradorligi faqat ichki boshqaruvdan emas, balki tashqi omillardan ham ta’sirlanishini e’tiborga oladi. SFA modeli yordamida iqtisodiy samaradorlik chegarasi aniqlanadi va har bir bank shu chegaraga nisbatan o‘z pozitsiyasini aniqlaydi. SFA va DEA o‘rtasidagi asosiy farq – SFA statistik asosga ega va xatolik darajasini baholaydi, DEA esa deterministik yondashuvdir. Iqtisodiy tadqiqotlar uchun bu model banklar samaradorligining chuqur tahlilini ta’minlaydi[5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Berger, A.N., & Humphrey, D.B. (1997). *Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research*. *Journal of Banking & Finance*, 21(11–12), 1273–1309. https://doi.org/10.1016/S0378-4266(97)00010-1

2. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). *Financial Institutions Management*. McGraw-Hill Education.

3. Charnes, A., Cooper, W. W., & Rhodes, E. (1978). *Measuring the efficiency of decision-making units*. European Journal of Operational Research.

4. Fare, R., Grosskopf, S., & Lovell, C.A.K. (1985). *The Measurement of Efficiency of Production.* Kluwer-Nijhoff Publishing.

5. Jondrow, J., Lovell, C.A.K., Materov, I.S., & Schmidt, P. (1982). *On the estimation of technical inefficiency in the stochastic frontier production function model*. *Journal of Econometrics*, 19(2–3), 233–238.

RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Sabirova Lobar Baxramovna
Renessans ta’lim universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Raqamli texnologiyalar va zamonaviy bank xizmatlari bugungi globallashgan iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bank xizmatlarining tezkor, qulay va xavfsiz amalga oshirilishini ta'minlab, iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Mobil banking, elektron hamyonlar, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslangan moliyaviy xizmatlar zamonaviy bank sohasida keng qo‘llanilmoqda.

Biroq, rivojlanayotgan davlatlarda bu jarayon ancha sust kechmoqda. Masalan, Jahon Banki hisobotlariga ko‘ra, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda aholining sezilarli qismi hali ham bank xizmatlaridan foydalana olmaydi. Bu esa moliyaviy inklyuziyaning pastligi va iqtisodiy tengsizlik muammolarini yuzaga keltiradi. Rivojlanayotgan davlatlarda raqamli bank xizmatlarining sust rivojlanishiga bir qancha sabablar keltirishimiz mumkin. Xususan:

✓ Rivojlanayotgan davlatlarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma yetarli darajada emas. Internet va mobil aloqa tarmoqlari rivojlanmagan yoki qimmat bo‘lgani sababli ko‘plab aholi qatlamlari raqamli bank xizmatlaridan foydalana olmaydi.

✓ Ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi sababli ular zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu esa bank tizimiga ishonchsizlik va naqd pul muomalasiga haddan tashqari bog'liqlikni kuchaytiradi.

✓ Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish uchun barqaror huquqiy muhit talab etiladi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy texnologiyalar (fintech) va raqamli to‘lov tizimlariga oid qonunchilik sust rivojlangan yoki mavjud bo‘lsa ham, ularning amaliy ijrosi qiyin kechadi.

✓ Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘pincha bank tizimi yetarlicha rivojlanmagan yoki aholining unga bo‘lgan ishonchi past bo‘ladi. Banklar tomonidan taklif etilayotgan raqamli xizmatlar texnik jihatdan mukammal bo‘lmaganligi, xavfsizlik tizimining sustligi yoki foydalanuvchilar uchun noqulayligi sababli ko‘plab odamlar bank xizmatlaridan voz kechadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda raqamli bank xizmatlarining sust rivojlanishiga bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy bank xizmatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi iqtisodiy o‘sish sur'atlarini sekinlashtiradi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaganligi sababli ular o‘z bizneslarini kengaytirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Moliyaviy inklyuziyaning pastligi. Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi aholining katta

qismini bank tizimidan tashqarida qoldiradi. Bu esa kambag'allik darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.

Noformal iqtisodiyotning kengayishi. Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi sababli ko‘plab odamlar noformal iqtisodiyotga murojaat qilishadi. Bu esa soliqlar yig'ilishini pasaytiradi va davlat byudjetiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Davlatda raqamli bank xizmatlarining sust rivojlanishga qaratilga quyidagi chora tadbirlarni taklif qilamiz.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish. Hukumat va xususiy sektor hamkorligida internet va mobil tarmoqlar infratuzilmasini yaxshilash, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish lozim.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan moliyaviy ta’lim dasturlarini amalga oshirish orqali aholining raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirish kerak.

Qonunchilikni mustahkamlash. Moliyaviy texnologiyalar va raqamli to‘lov tizimlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur.

Bank tizimining ishonchliligini oshirish. Bank tizimini mustahkamlash, raqamli xizmatlar xavfsizligini ta’minlash va foydalanuvchilarga qulay interfeyslar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini oshirish. Davlat tomonidan fintech kompaniyalari uchun qulay muhit yaratish va bank sohasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini jadallashtirish mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlarda raqamli texnologiyalar va zamonaviy bank xizmatlarining sust rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Buning oldini olish uchun infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, huquqiy bazani takomillashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish zarur. Agar mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilsa, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy xizmatlarning kengayishi va iqtisodiy barqarorlikning oshishi mumkin bo‘ladi.

BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDA OLIMLARNING ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

Qo‘shbaqov Aybek Shovqiyevich
Tashkent davlat iqtisodiyot university mustaqil tadqiqotchisi

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotga ta’sir samaradorligini oshirish masalasi ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etilishi lozim, chunki kredit resurslari mamlakatdagi investitsion faollikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kreditlash jarayoni samarali tashkil etilgan taqdirda, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kuzatiladi. Biroq, tijorat banklari kredit siyosatini rejalashtirish va boshqarishda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni, inflyatsiya darajasini, likvidlik muammolarini hamda moliyaviy risklarni hisobga olishi zarur.

Shuning uchun, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish orqali xalqaro tajribalar va zamonaviy bank amaliyotlarini tahlil qilish iqtisodiyotni moliyalashtirishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar kreditlashning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Xususan, kredit mablag‘larining real sektorga yo‘naltirilish darajasi, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish strategiyalari hamda bank tizimidagi muammolar bo‘yicha empirik tadqiqotlar olib borish muhimdir. Rivojlangan davlatlarning tajribasiga asoslanib, tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirish orqali iqtisodiy barqarorlik va investitsion faollikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, tijorat banklari kreditlarining iqtisodiyotga ta’sir samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliyotga tatbiq etiladigan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

Ratnawati (2020) tadqiqotida moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o‘sish, kambag‘allik, daromad tengsizligi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri Osiyo mamlakatlari misolida tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, muallif moliyaviy inklyuziyaning ahamiyatini ta'kidlab, uning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi, kambag‘allikni kamaytirishi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rolь o‘ynashini ko‘rsatadi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyati aholi va biznes sub'ektlariga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investisiyalarni oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish imkonini berishi qayd etilgan. Empirik tahlil natijalari Osiyo mamlakatlari bo‘yicha 2005-2018 yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslanib, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, moliyaviy inklyuziya yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatgan, kambag‘allik darajasini kamaytirishga yordam bergan va daromad tengsizligini qisqartirishga hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, muallif moliyaviy inklyuziyaning moliyaviy barqarorlikka ta'siri murakkab ekanligini ta'kidlaydi, chunki beparvolik bilan amalga oshirilgan inklyuziv moliyaviy siyosat moliyaviy risklarni oshirishi mumkin. Ushbu tadqiqot kelgusi izlanishlar uchun moliyaviy inklyuziyani tartibga solish va samarali boshqarish mexanizmlarini yanada chuqurroq o‘rganishni taklif etadi.

Van, Vo, Nguyen va Vo (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro miqyosda tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdagi rolini turli mexanizmlar orqali tushuntiradilar. Ular moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyati biznes sub'ektlari va yakka shaxslarga investisiya qilish, kredit olish, moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, moliyaviy inklyuziya kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Empirik tahlil natijalari 2000-2017 yillar davomida 100 ta davlat bo‘yicha olingan ma'lumotlarga asoslangan. Mualliflar moliyaviy inklyuziyaning yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishiga ta'sirini o‘rganish uchun dinamik panel ma'lumotlar usullaridan foydalanganlar. Natijalarga ko‘ra, moliyaviy inklyuziyaning o‘sishi

iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi tasdiqlangan. Ayniqsa, moliyaviy infratuzilmasi rivojlangan davlatlarda bu ta'sir kuchliroq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, mualliflar moliyaviy inklyuziya siyosatlari samaradorligini oshirish uchun moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Ning, Cherian, Sial, Álvarez-Otero, Comite va Zia-Ud-Din (2023) tadqiqotida yashil obligasiyalar (green bonds)ning barqaror yashil moliyalashtirish, energetika samaradorligi investisiyalari va iqtisodiy o‘sishga ta'siri o‘rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar yashil obligasiyalarning yangi moliyaviy instrument sifatida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Yashil obligasiyalar ekologiyani muhofaza qilish va ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish maqsadida investisiyalarni jalb qilishning samarali vositasi bo‘lib, moliyaviy resurslarni ekologik barqaror loyihalarga yo‘naltirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yashil moliyalashtirishning global iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini tushuntirish uchun yashil obligasiyalar va ularga bog‘liq iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan. Empirik tahlil natijalari 1990-2021 yillar davomidagi 50 ta davlatning ma'lumotlariga asoslangan. Tadqiqot natijalari yashil obligasiyalar bilan moliyalashtiriladigan ekologik loyihalarning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini aniqlagan. Energiya samaradorligini oshirish uchun sarmoyalarni jalb qilish yashil obligasiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, empirik tahlillar yashil obligasiyalarining ekologik barqarorlikka va moliyaviy tizimdagi o‘zgarishlarga ta'sir qilishda katta potensialga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mualliflar kelgusi tadqiqotlar uchun yashil moliyalashtirishning samaradorligi va uning taraqqiyot yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘proq amaliyot va nazariy tadqiqotlarni olib borishni taklif qiladilar.

Emara va El Said (2021) tadqiqotida moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik va bu jarayonda boshqaruvning roli ko‘rib chiqilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini va boshqaruvning samaradorligi moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Moliyaviy inklyuziyaning rivojlanishi, aholining turli qatlamlariga qarz berish, omonatlar va sug‘urta xizmatlariga kirish imkonini berib, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga yordam beradi. Shuningdek, davlat boshqaruvi va moliyaviy institutlarning samarali faoliyati iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rolь o‘ynaydi. Empirik tahlil natijalari Mena mintaqasidagi 2000-2019 yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslangan. Mualliflar moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikni aniqlaganlar. Boshqaruvning sifatini baholash uchun davlat boshqaruvi indeksi va moliyaviy inklyuziya indeksi orqali olingan natijalarga ko‘ra, yaxshi boshqaruvga ega mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o‘sishga ta'siri kuchliroq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, empirik natijalar davlat boshqaruvi me'yorlarini yaxshilash orqali moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Guru va Yadav (2019) tadqiqotida BRICS mamlakatlarida moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik panel ma'lumotlarini tahlil qilish orqali o‘rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdagi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydilar. Moliyaviy bozorlar va moliyaviy institutlarning rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirib, ishlab chiqarish, sarmoyalarni jalb qilish va biznes sub'ektlarining investisiya qilish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Shuningdek, mualliflar iqtisodiy o‘sishga moliyaviy xizmatlarning kirish darajasi, kreditlar, omonatlar va moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligi salmoqli ta'sir ko‘rsatishini ham ko‘rsatadilar. Empirik tahlil natijalari BRICS mamlakatlari uchun 1996-2016 yillar davomida olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlar tahlili natijalari moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini aniqlagan. Natijalarga ko‘ra, moliyaviy chegaralar va infratuzilmaning rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta'minlagan. Shu bilan birga, empirik tahlillar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o‘sishga ta'siri har bir BRICS davlatida turlicha bo‘lib, mamlakatlardagi moliyaviy infratuzilma darajasi va iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Mualliflar kelgusi tadqiqotlar uchun moliyaviy rivojlanishning har bir mamlakatdagi iqtisodiy o‘sishga ta'sirini chuqurroq tahlil qilishni taklif etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ratnawati, K. (2020). The impact of financial inclusion on economic growth, poverty, income inequality, and financial stability in Asia. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, *7*(10), 73-85.
2. Van, L. T. H., Vo, A. T., Nguyen, N. T., & Vo, D. H. (2021). Financial inclusion and economic growth: An international evidence. *Emerging Markets Finance and Trade*, *57*(1), 239-263.
3. Ning, Y., Cherian, J., Sial, M. S., Álvarez-Otero, S., Comite, U., & Zia-Ud-Din, M. (2023). Green bond as a new determinant of sustainable green financing, energy efficiency investment, and economic growth: a global perspective. *Environmental Science and Pollution Research*, *30*(22), 61324-61339.
4. Emara, N., & El Said, A. (2021). Financial inclusion and economic growth: The role of governance in selected MENA countries. *International Review of Economics & Finance*, *75*, 34-54.
5. Guru, B. K., & Yadav, I. S. (2019). Financial development and economic growth: panel evidence from BRICS. *Journal of Economics, Finance and Administrative Science*, *24*(47), 113-126.

TASHQI SAVDONI KREDITLASH AHAMIYATI BORASIDA OLIMLARNING ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

Tashqi savdoni moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish iqtisodiy barqarorlik va global integratsiya jarayonlarini chuqur tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro savdo operatsiyalarini moliyalashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish natijasida eksport-import faoliyatining samaradorligini

oshirish, valyuta tavakkalchiliklarini boshqarish va kredit-moliya instrumentlaridan optimal foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi. Bundan tashqari, moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi kichik va o‘rta biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar savdo balansining barqarorligini ta’minlash, xalqaro hisob-kitob tizimlarini takomillashtirish hamda moliyaviy vositalar va institutsional tuzilmalarning integratsiyasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois, tashqi savdoni moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar nafaqat amaliy jihatdan foydali, balki iqtisodiy taraqqiyotning fundamental asoslarini shakllantirish uchun ham muhimdir.

Akgündüz, Kal va Torun (2018) ilmiy ishida subsidiyalangan eksport kreditlarining milliy iqtisodiyot va xalqaro savdoga ta’siri tahlil qilinib, iqtisodiy siyosat va moliyaviy mexanizmlarni chuqur tushunishga ilmiy-nazariy asos yaratilgan. Ushbu tadqiqotda mualliflar xalqaro savdoda hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan moliyaviy vositalarning samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratgan. Ular David Ricardo va Heckscher-Ohlin kabi klassik va zamonaviy savdo nazariyalariga tayanib, eksportni rag‘batlantirish mexanizmlari qanday ishlashi va iqtisodiyotga qanday ta’sir qilishini tushuntiradilar. Ayniqsa, kredit bozorlaridagi asimmetrik axborot muammosi va likvidlik cheklovlari nazariyalari asosida moliyaviy resurslarning kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan kreditlar bozor kutilmalarini qanday o‘zgartirishi va korxonalar investitsion qarorlar qabul qilishda qanday omillar muhim ekani haqidagi ilmiy qarashlar ham tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Metodologik jihatdan, mualliflar kvantitativ tahlil yondashuvini qo‘llagan holda, eksport kreditlari bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni empirik usullarda tahlil qilganlar. Tadqiqotda difference-in-differences (DiD) modeli yordamida kredit olgan va olmagan korxonalar o‘rtasidagi farqlar baholangan. Bundan tashqari, instrumental o‘zgaruvchilar (IV) yondashuvi qo‘llanib, moliyaviy yordamning eksport natijalariga ta’siri aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, subsidiyalangan kreditlar, ayniqsa, likvidlik muammolari bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalar uchun eksport hajmini oshirishda sezilarli darajada samarali bo‘ladi. Biroq, ushbu ta’sir yirik kompaniyalarda nisbatan kamroq kuzatiladi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni anglatadiki, hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan moliyaviy mexanizmlar cheklangan resurslarga ega firmalar uchun eksport faoliyatini kuchaytirishda muhim vosita bo‘lsa-da, umuman savdo hajmini oshirishda boshqa iqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etadi[1].

Divljak (2013) ilmiy ishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan eksport kreditlari asosidagi moliyalashtirishning huquqiy va institutsional jihatlari Serbiya davlati misolida o‘rganilgan. Tadqiqotda xalqaro savdoni rivojlantirishda davlat ishtirokining o‘rni, ayniqsa, moliyaviy yordam vositalari orqali eksport hajmini oshirish strategiyalari muhokama qilingan. Muallif Serbiyaning milliy va xalqaro me’yoriy-huquqiy bazalar asosida eksport kreditlari bilan bog‘liq qoidalar, standartlar va normativ hujjatlarni tahlil qilib, davlat tomonidan subsidiyalangan

moliyalashtirish tizimining samaradorligiga e’tibor qaratgan. Xususan, Jahon savdo tashkiloti (WTO) va Yevropa Ittifoqining eksport kreditlari bo‘yicha qo‘llagan cheklovlari va rag‘batlantiruvchi mexanizmlari o‘rganilgan. Shu bilan birga, Serbiyada davlat tomonidan taqdim etiladigan eksport kreditlarining bozorga ta’siri, xususiy sektor bilan o‘zaro aloqasi va xalqaro savdo sharoitlarida barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati batafsil yoritilgan.

Metodologik jihatdan, tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil va taqqoslash usullari qo‘llanilib, Serbiya eksport kreditlarini tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba bilan qiyoslangan. Muallif huquqiy-institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholash uchun qiyosiy huquqiy tahlil (comparative legal analysis) yondashuviga tayanib, Serbiyada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan moliyalashtirish tizimining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Serbiyada davlat tomonidan qo‘llaniladigan eksport kreditlari, agar aniq huquqiy-institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlangan bo‘lsa, xalqaro savdo barqarorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Biroq, huquqiy cheklovlar va xalqaro savdo qoidalariga moslashish zarurati bu tizimning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ham ta’kidlangan. Shu boisdan, Serbiya hukumatining xususiy sektor bilan hamkorligini kuchaytirish, xalqaro me’yorlarga rioya qilish va bozor sharoitlariga moslashuvchan yondashuvni qo‘llash muhim ekani xulosa qilingan[2].

Paravisini, Rappoport va Schnabl (2023) ilmiy ishida bank kreditlashining ixtisoslashuvi va uning eksport qiluvchi korxonalar faoliyatiga ta’siri Peru davlati misolida empirik jihatdan o‘rganilgan. Mualliflar banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini xalqaro savdo nuqtayi nazaridan baholab, ayniqsa, eksport qiluvchi firmalarga taqdim etiladigan kreditlarning xususiyatlari va samaradorligiga e’tibor qaratganlar. Tadqiqotda moliyaviy bozorlar nazariyalari, xususan, banklarning kredit ajratishdagi ixtisoslashuvi va asimmetrik axborot muammosi asos sifatida keltirilgan. Mualliflar eksport faoliyati yuqori bo‘lgan firmalar ko‘proq maxsus moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj sezishini va shu sababli ixtisoslashgan kredit beruvchi banklarning mavjudligi muhim omil ekanini ta’kidlaydilar. Shuningdek, ushbu yondashuv xalqaro bozorga chiqish va savdoni kengaytirishda bank-mijoz munosabatlarining ahamiyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Metodologik jihatdan, mualliflar Peru bank sektori va eksport qiluvchi firmalarning katta hajmdagi ma’lumotlarini tahlil qilganlar. Tadqiqotda difference-in-differences (DiD) modeli qo‘llanilib, eksport qiluvchi firmalar va ichki bozorga yo‘naltirilgan firmalar o‘rtasidagi kreditlash shartlari taqqoslangan. Bundan tashqari, instrumental o‘zgaruvchilar (IV) usuli orqali banklarning ixtisoslashuvi va firmalarning eksport hajmi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqasi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Peruda eksportga yo‘naltirilgan firmalar ixtisoslashgan kredit beruvchi banklar bilan hamkorlik qilganida ularning eksport hajmi oshadi va moliyaviy tavakkalchiliklari kamayadi. Biroq, umumiy tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan kreditlar eksport hajmiga unchalik katta ta’sir ko‘rsatmaydi. Ushbu natijalar xalqaro savdo va moliyaviy bozorlarning uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi

hamda eksport qiluvchi firmalarni moliyalashtirishda ixtisoslashgan bank xizmatlarining ahamiyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi[3].

Motta (2020) ilmiy ishida kichik va o‘rta biznes (SME) korxonalarining mehnat unumdorligi tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan qanday bog‘liqligi tahlil qilingan. Muallif moliyaviy bozorlar va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi aloqani chuqur o‘rganib, kichik biznes subyektlarining tashqi moliyalashtirishga erishish imkoniyatlari cheklangan taqdirda ularning samaradorligi qanday o‘zgarishini baholagan. Tadqiqotda kapital bozorlarining nomukammalligi, kredit bozorlaridagi asimmetrik axborot muammosi hamda korxonalarning investitsion loyihalarining sifati nazariy asos sifatida keltirilgan. Muallifning asosiy farazi shundan iboratki, agar kichik va o‘rta biznes yetarli darajada moliyalashtirilmasa, ularning mehnat unumdorligi pasayishi mumkin, lekin bu ta’sir loyiha sifatiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin. Yaxshi biznes loyihalarga ega firmalar, hatto cheklangan moliyalashtirish sharoitida ham, o‘z samaradorligini saqlab qolishi yoki hatto oshirishi mumkin.

Metodologik jihatdan, muallif Braziliya davlati misolida empiric tadqiqot o‘tkazgan. Tadqiqotda kichik va o‘rta biznes korxonalarining moliyalashtirish imkoniyatlari va ularning mehnat unumdorligi haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Instrumental o‘zgaruvchilar (IV) usuli va difference-in-differences (DiD) modeli yordamida moliyalashtirish cheklovlari va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqasi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik va o‘rta biznes korxonalarining mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir qiladi, biroq bu ta’sir loyiha sifatiga bog‘liq. Yuqori sifatli biznes loyihalariga ega firmalar moliyaviy resurslar cheklangan bo‘lsa ham, unumdorlikni nisbatan yuqori darajada saqlab qolishi mumkin. Biroq, past sifatli loyihalarga ega firmalar uchun moliyaviy cheklovlar ancha katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natijalar kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda loyiha sifatiga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi[4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akgündüz, Y. E., Kal, S. H., & Torun, H. (2018). Do subsidised export loans increase exports?. *The World Economy*, *41*(8), 2200-2215.
2. Divljak, D. (2013). Legal-institutional framework of export loan based financing with public support. *Zbornik Radova*, *47*, 223.
3. Paravisini, D., Rappoport, V., & Schnabl, P. (2023). Specialization in bank lending: Evidence from exporting firms. *The Journal of Finance*, *78*(4), 2049-2085.
4. Motta, V. (2020). Lack of access to external finance and SME labor productivity: does project quality matter?. *Small Business Economics*, *54*(1), 119-134.

TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI BARQARORLIGINI TA’MINLASH BORASIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Allaberganov Sirojali Saxatovich
Tashkent International University bo‘lim boshlig‘i
mustaqil tadqiqotchi

Oxirgi yillarda tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, raqamli bank xizmatlari riskiga va qulayligiga hamda raqamli bank tizimi rivojlanishida bank depozitlari mustahkamligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda tijorat banklarisiz iqtisodiyotning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda banklarning resurs bazasining mustahkamligini ta'minlash va bunda depozit operasiyalarining o‘rni borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy ishimizning ushbu paragrafida biz ayrim ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Vuong, Tung, Giao, Dat va Quan (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqot, Vetnamning tijorat banklaridagi shaxsiy mijozlar tomonidan omonatlar jamg‘armasiga qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan. Mualliflar, omonatlar depozitlariga bo‘lgan talabning shaxsiy mijozlar, iqtisodiy va moliyaviy omillar tomonidan qanday shakllanishi va qanday turli omillar mijozlarning omonatga qaror berishini aniqlashga harakat qilishgan. Ushbu tadqiqotda mijozlarning omonatga bo‘lgan munosabatini tahlil qilish orqali, banklar uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yordam berish maqsadi qo‘yilgan. Mualliflar, depozitlarga bo‘lgan qarorlar mijozlarning moliyaviy holati, shaxsiy ehtiyojlari va turli reklamaviy usullar bilan bog‘liq omillarga asoslanishini o‘rganishga harakat qilishgan.

Carapella va Flemming (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda markaziy bank raqamli valyutasining (CBDC) barcha yo‘nalishlariga oid adabiyotlar umumlashtirilgan. Mualliflar, CBDC'ning iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy ta'sirlarini chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan. Maqolada CBDCning ishlash mexanizmlari, turlari va uning moliyaviy tizimga qo‘shgan hissasi, shuningdek, markaziy banklar uchun uning ahamiyati va xavf-xatarlari yoritilgan. Avtorlar, CBDC'ning joriy etilishi faqat mamlakatlar va iqtisodiy tizimlar uchun yangicha imkoniyatlar yaratish bilan birga, yangi ko‘plab soha va mamlakatlarning raqamli valyutaga o‘tish yo‘llaridagi muammolar va barerlarni ham kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotda joriy etilgan CBDC loyihalarining tahlili orqali, ularning moliyaviy barqarorlikka, iqtisodiy o‘sishga va axborot xavfsizligiga bo‘lgan ta'sirlari haqida keng ma'lumotlar beriladi.

Tadqiqotda avtorlar CBDC'ning ahamiyati va uning ijobiy hamda salbiy tomonlarini ko‘rsatish bilan birga, raqamli valyuta muammolariga, moliyaviy tizimning barqarorligiga ta'siri haqidagi tadqiqotlarni xam yo‘naltirishgan. CBDC’ning samaradorligini baholash uchun avtorlar turli mamlakatlardagi mavjud pilot loyihalarining natijalari va nazariy tadqiqotlardan foydalangan. Ushbu maqolada, CBDCning davlatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilishi, moliyaviy tizimdagi an'anaviy banklarning roli va ularning raqamli valyutaga munosabati hamda global iqtisodiyotning kelajagiga qo‘sha oladigan yo‘nalishlar bo‘yicha aniq fikrlar beriladi.

Metodologik jihatdan mualliflar bank samaradorligini baholash uchun ma’lumot envelopment tahlili (DEA) va stoxastik chegaraviy tahlil (SFA) kabi empirik usullardan foydalanadilar. Tadqiqotda 2005–2020 yillar oralig‘idagi xalqaro banklarning panel ma’lumotlari asosida muammoli kreditlar va bank samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar darajasining oshishi bank samaradorligini pasaytiradi, chunki banklar yo‘qotishlarni qoplash uchun qo‘shimcha resurslar ajratishga majbur bo‘ladilar, bu esa ularning kreditlash qobiliyatini cheklaydi. Shuningdek, yuqori darajadagi muammoli kreditlarga ega banklarning operatsion samaradorligi pastroq

bo‘lib, ularning kapital yetarliligi va daromadliligiga salbiy ta’sir qilishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari bank menejerlari va moliyaviy regulyatorlar uchun muhim bo‘lib, NPLlarni samarali boshqarish va bank tizimining barqarorligini oshirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Radivojević, Cvijanović, Sekulic, Pavlovic, Jovic va Maksimović (2019) o‘z tadqiqotlarida muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni statistik mexanika va iqtisodiy modellashtirish usullari yordamida baholaydilar. Ushbu tadqiqot NPLlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi makroiqtisodiy va bank sektori omillarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, moliyaviy barqarorlik va kredit xavfi nazariyalari asosida olib borilgan. Mualliflar iqtisodiy sikllarning turli bosqichlarida muammoli kreditlarning qanday o‘zgarishini va global moliyaviy sharoitlarning NPLlarga ta’sirini empirik jihatdan tahlil qiladilar. Tadqiqotda kredit portfelining sifati, iqtisodiy o‘sish sur’ati, ishsizlik darajasi va foiz stavkalari kabi omillar muammoli kreditlarning shakllanishida qanday rol o‘ynashi o‘rganiladi. Bundan tashqari, banklarning kreditlash siyosati va regulyativ muhitining ahamiyati ham chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasiga ko‘ra, mualliflar muammoli kreditlarning asosiy determinantlarini baholash uchun ekonometrik modellashtirishga asoslangan yondashuvdan foydalanadilar. Xususan, ular panel regressiya, vaqt qatorlari tahlili va fizikada qo‘llaniladigan statistik mexanika usullarini birlashtirgan innovatsion yondashuvni qo‘llaydilar. 2000–2018 yillar oralig‘idagi yirik xalqaro banklarning ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlillar natijasida mualliflar NPLlarning ortishiga ishsizlikning ko‘payishi va iqtisodiy pasayish kabi omillar kuchli ta’sir qilishini aniqladilar. Shuningdek, foiz stavkalarining keskin oshishi va likvidlik yetishmovchiligi bank sektorida muammoli kreditlar darajasining ko‘tarilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimini barqarorlashtirish va kredit risklarini kamaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Ofria va Mucciardi (2022) o‘z tadqiqotlarida Yevropa mamlakatlarida muammoli kreditlar (NPL) darajasiga hukumatning samaradorligi va iqtisodiy boshqaruv omillarining ta’sirini tahlil qiladilar. Ular iqtisodiy siyosatning barqarorligi, davlat boshqaruvi sifati va moliyaviy tartibga solish choralari bank tizimining sog‘lomligi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu tadqiqot moliyaviy barqarorlik nazariyasi va davlat rolini tushuntiruvchi institutlar iqtisodiyoti yondashuviga asoslanib, hukumatning noto‘g‘ri siyosiy qarorlari muammoli kreditlarning ortishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Mualliflar byurokratik sustkashlik, korrupsiya darajasi va moliyaviy institutlarning samaradorligi kredit portfelining sifati bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, samarali davlat boshqaruvi va barqaror iqtisodiy siyosat bank sektorining sog‘lomligini saqlab qolishga yordam beradi, aks holda esa muammoli kreditlar darajasi oshib boradi.

Metodologik jihatdan, mualliflar Yevropa mamlakatlaridagi NPLlarning hududiy taqsimotini baholash uchun fazoviy econometrik yondashuvdan foydalanadilar. Ular 2005–2020 yillar oralig‘idagi makroiqtisodiy ma’lumotlar va

bank ko‘rsatkichlarini o‘rganib, hukumat faoliyatining moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholaydilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi kuchli bo‘lgan mamlakatlarda muammoli kreditlar darajasi pastroq bo‘lib, bank tizimi barqarorroq ishlaydi. Aksincha, siyosiy beqarorlik, regulyativ tartiblarning zaifligi va iqtisodiy inqiroz davrlarida NPLlarning ortishi kuzatiladi. Bundan tashqari, mualliflar Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqaviy bog‘liqlikni ham tahlil qilib, bir mamlakatdagi davlat boshqaruvi sifatining pasayishi qo‘shni mamlakatlar bank sektoriga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlaydilar. Tadqiqot natijalari moliyaviy regulyatorlar va siyosatchilar uchun muhim bo‘lib, davlat boshqaruvi va bank sektorining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. García-Lamarca, M. (2022). *Non-performing loans, non-performing people: Life and struggle with mortgage debt in Spain* (Vol. 53). University of Georgia Press.
2. Phung, Q. T., Van Vu, H., & Tran, H. P. (2022). Do non-performing loans impact bank efficiency?. *Finance Research Letters*, *46*, 102393.
3. Radivojević, N., Cvijanović, D., Sekulic, D., Pavlovic, D., Jovic, S., & Maksimović, G. (2019). Econometric model of non-performing loans determinants. *Physica A: Statistical Mechanics and its Applications*, *520*, 481-488.
4. Ofria, F., & Mucciardi, M. (2022). Government failures and non-performing loans in European countries: a spatial approach. *Journal of Economic Studies*, *49*(5), 876-887.

O‘ZBEKISTONDA AHOLI JON BOSHIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI

Qo‘shbaqov Aybek Shovqiyevich
Tashkent davlat iqtisodiyot university
mustaqil tadqiqotchisi

Asosiy vositalarga investitsiya kiritish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish imkonini beradi. Korxonalar yangi texnologiyalar va zamonaviy uskunalarga sarmoya kiritish orqali mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmini oshirishlari mumkin. Bu nafaqat korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsiyalar tufayli mehnat unumdorligi ortib, ishlab chiqarish jarayonlari samaraliroq bo‘ladi, bu esa yalpi ichki mahsulotning (YaIM) barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, asosiy vositalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholi daromadlari va yashash sifatini yaxshilashga yordam beradi. Infratuzilmaning rivojlanishi, jumladan, transport, energetika va axborot-kommunikatsiya tizimlariga sarmoya kiritish boshqa tarmoqlarning ham o‘sishiga

turtki beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish esa resurslardan samarali foydalanish imkonini berib, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu sababli, asosiy vositalarga investitsiya kiritish nafaqat joriy iqtisodiy o‘sishga, balki mamlakatning kelajakdagi raqobatbardoshligi va rivojlanishiga ham muhim hissa qo‘shadi.

2010-yildan 2023-yilgacha aholi jon boshiga asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmi 583,2 ming so‘mdan 9778,8 ming so‘mgacha oshgan. Bu davrda ko‘rsatkich 16 barobar o‘sgan bo‘lib, mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining tezlashganini hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalarning sezilarli darajada ortganini ko‘rsatadi. Bu holat iqtisodiy faoliyatning ko‘payishi va investitsiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir qilganidan dalolat beradi.



1-rasm. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zgarish dinamikasi[95]

2010-2016-yillar oralig‘i: 2010-yildan 2016-yilgacha aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi nisbatan barqaror sur’atlar bilan o‘sib, har yili o‘rtacha 15-20% atrofida oshgan. Bu davrda iqtisodiyotning asosan qishloq xo‘jaligi, energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ustunlik qilgan. Shu bilan birga, 2016-yilda investitsiyalar hajmining 1608,6 ming so‘mga yetishi mamlakatda iqtisodiy islohotlarning boshlanishidan darak beradi.

2017-2020-yillar oralig‘i: Ushbu davrda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o‘sgan. Ayniqsa, 2018-yilda 3769,6 ming so‘m ko‘rsatkich qayd etilib, bu 2017-yilga nisbatan 69,2% o‘sishni anglatadi. Bu yillarda yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi investitsiyalarning aholi farovonligiga bevosita ta’sirini kuchaytirdi. 2020-yilda esa

[95] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

investitsiyalar hajmi 6140,3 ming so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati 5,2% bilan nisbatan past bo‘lgan. Bu COVID-19 pandemiyasi ta’sirida iqtisodiy faollikning vaqtincha susaygani bilan bog‘liq.

2021-2023-yillar oralig‘i: So‘nggi yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o‘sishda davom etgan. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 9778,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 30,9% o‘sish qayd etilgan. Bu mamlakatda yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining davom ettirilgani, shuningdek, aholini qamrab olgan investitsiya dasturlarining kengaygani bilan bog‘liq. Ushbu yillardagi yuqori o‘sish sur’atlari O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

2016-yildan 2023-yilgacha aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1608,6 ming so‘mdan 9778,8 ming so‘mgacha o‘sdi, bu esa 507,9 foiz oshishni anglatadi. Bu yillar davomida O‘zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, infratuzilma loyihalarining kengayishi va xususiy sektor faoliyatining kuchayishi natijasida investitsiyalar sezilarli darajada oshgan. Bu o‘zgarishlar investitsiya muhiti va iqtisodiy islohotlar samaradorligidan dalolat beradi.

2016-yilda jon boshiga Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiyalar hajmi 2094,1 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 6514,1 ming so‘mga yetib, 211,1 foiz oshdi. Bu mintaqada sanoatni rivojlantirish, energetika infratuzilmasi va turizmni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘istonda uzoq muddatli barqaror o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda.

Andijon viloyatida investitsiyalar 2016-yildan 2023-yilgacha 745,3 ming so‘mdan 5549,8 ming so‘mgacha o‘sdi (644,6 foiz). Viloyatda yengil sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha qilingan ishlar hamda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bu o‘sishga hissa qo‘shdi. Buxoro viloyatida 2016-yilda 3237,6 ming so‘m bo‘lgan investitsiyalar 2023-yilda 15309,4 ming so‘mga yetdi, ya’ni 372,9 foiz o‘sdi. Bu yillarda Buxoroda neft-gaz sanoati, transport infratuzilmasi va turizm sohalariga katta e’tibor qaratilgan.

Jizzax viloyatida investitsiyalar 2016-yildan 2023-yilgacha 1125,1 ming so‘mdan 10037,4 ming so‘mgacha o‘sib, 792,1 foiz oshdi. Jizzax erkin iqtisodiy zonasi orqali sanoat va logistika sohalariga qaratilgan e’tibor o‘z natijasini bermoqda. Qashqadaryo viloyatida investitsiyalar hajmi 2016-yildan 2023-yilgacha 2389,2 ming so‘mdan 6002,6 ming so‘mgacha oshib, 151,2 foiz o‘sishni qayd etdi. Hududda gaz va neft qazib olish sohalaridagi loyihalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Navoiy viloyatida 2016-yilda jon boshiga investitsiyalar hajmi 3168,2 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 24778,1 ming so‘mga yetib, 682,1 foiz oshdi. Bu viloyatda tog‘-kon sanoati va energetika infratuzilmasi bo‘yicha amalga oshirilgan yirik loyihalar o‘z samarasini berdi. Namangan viloyatida 2016-yilda 1074,8 ming so‘m bo‘lgan investitsiyalar 2023-yilda 6339,5 ming so‘mga yetib, 489,8 foiz oshdi. Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qilingan sa’y-harakatlar bu natijaga erishishda muhim bo‘ldi.

Samarqandda investitsiyalar hajmi 2016-yildan 2023-yilgacha 1001,6 ming so‘mdan 6176,9 ming so‘mgacha oshib, 516,7 foiz o‘sdi. Bu viloyatda turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan strategik loyihalar iqtisodiy rivojlanishga turtki bo‘ldi. Sirdaryo viloyatida jon boshiga investitsiyalar 2016-yildan 2023-yilgacha 1660,3 ming so‘mdan 17532,1 ming so‘mgacha oshib, 956,0 foiz o‘sdi. Bu viloyatda elektr energiyasi ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohalarida amalga oshirilgan loyihalar katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Toshkent viloyatida 2016-yilda jon boshiga investitsiyalar hajmi 1507,5 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 15784,2 ming so‘mga yetib, 947,0 foiz oshdi. Hududda sanoat va logistika markazlari tashkil etilishi investitsiyalarni jalb qilishda muhim o‘rin tutdi. Toshkent shahrida 2016-yilda 3848,1 ming so‘m bo‘lgan investitsiyalar 2023-yilda 23725,7 ming so‘mga yetib, 516,6 foiz o‘sdi. Poytaxtda zamonaviy infratuzilma va biznes markazlari qurilishi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.[96]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibrahim, M., & Alagidede, P. (2018). Effect of financial development on economic growth in sub-Saharan Africa. *Journal of Policy Modeling*, *40*(6), 1104-1125.

2. Asteriou, D., & Spanos, K. (2019). The relationship between financial development and economic growth during the recent crisis: Evidence from the EU. *Finance Research Letters*, *28*, 238-245.

3. Bist, J. P. (2018). Financial development and economic growth: Evidence from a panel of 16 African and non-African low-income countries. *Cogent Economics & Finance*, *6*(1), 1449780.

4. Younsi, M., & Bechtini, M. (2020). Economic growth, financial development, and income inequality in BRICS countries: does Kuznets' inverted U-shaped curve exist?. *Journal of the Knowledge Economy*, *11*(2), 721-742.

5. Opoku, E. E. O., Ibrahim, M., & Sare, Y. A. (2019). The causal relationship between financial development and economic growth in Africa. *International Review of Applied Economics*, *33*(6), 789-812.

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMINIDA DEPOZITLARNING O‘ZGARISH TENDENTSIYASI

Allaberganov Sirojali Saxatovich
Xalqaro Nordik University mustaqil tadqiqotchisi

Depozitlar tijorat banklarining asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo‘lib, ular orqali banklar o‘z faoliyatini yuritish va turli moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Depozit mablag‘lari bank aktiv operatsiyalarining asosini tashkil etadi va bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Xususan, depozitlar

[96] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

tijorat banklari tomonidan kreditlash faoliyatining kengaytirilishiga xizmat qiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan banklarga qo‘yilgan depozitlar kredit shaklida iqtisodiyotga qaytariladi. Bu mablag‘lar sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltirilishi orqali iqtisodiy o‘sishga turtki beradi. Banklar ushbu jarayon orqali tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, iste’mol kreditlarini ajratish hamda ipoteka kreditlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tijorat banklari faoliyatining dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi ushbu ma’lumotlar tahlili O‘zbekiston moliyaviy sektorida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. 2020–2025 yillar davomida bank tizimi ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, bu davlat tomonidan qabul qilingan moliyaviy islohotlar natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ayniqsa, tijorat banklari aktivlarining 2020-yildagi 272,7 trillion so‘mdan 2025-yilga kelib 769,3 trillion so‘mgacha ortishi ushbu sektorning barqaror rivojlanayotganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu o‘sish bank tizimidagi kapital yetarliligi, aktiv sifatining yaxshilanishi hamda bank tizimining iqtisodiyotda tutgan o‘rni mustahkamlanayotganini bildiradi.



	1/1/2020	1/1/2021	1/1/2022	1/1/2023	1/1/2024	1/1/2025
Tijorat banklari aktivlari	272.7	366.1	444.9	556.7	652.2	769.3
Tijorat banklari majburiyatlari	221.7	307.8	374.0	477.2	555.1	654.5
Tijorat banklari kreditlari	211.6	277.0	326.4	390.0	471.4	533.1
Tijorat banklari depozitlari	91.0	114.7	156.2	216.7	241.7	308.7

1-rasm. O‘zbekiston bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi[97] (trln so‘mda).

Tijorat banklari majburiyatlari ham ushbu davrda izchil ravishda ortib borgan bo‘lib, 2020-yilda 221,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu

[97] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ko‘rsatkich 654,5 trillion so‘mga yetgan. Bu esa bank tizimiga bo‘lgan ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi. Majburiyatlarning o‘sishi depozit bazasining kengayishi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning rivojlanishi hamda ichki kapital bozorlarida yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, 2023-yildan boshlab mamlakatda bank sektorida majburiyatlarni diversifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilgan.

Kreditlash hajmi ham sezilarli darajada o‘sib, 2020-yilda 211,6 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 533,1 trillion so‘mgacha yetgan. Bu esa real sektorni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash strategiyasi natijasi bo‘lib, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning oshirilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Kreditlash siyosatini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar jumlasiga foiz stavkalarini erkinlashtirish, kreditlar portfelining sifatini yaxshilash va tijorat banklarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirish kabi chora-tadbirlar kiradi. Bunday yondashuv mamlakatda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Bank tizimidagi yana bir muhim indikator – tijorat banklarining depozitlari 2020-yilda 91 trillion so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 308,7 trillion so‘mga yetgan. Depozit bazasining bunday o‘sishi aholining bank tizimiga ishonchini oshirayotganidan darak beradi. Ushbu o‘sish davlat tomonidan amalga oshirilgan bank islohotlari, xususan, depozitlarni sug‘urtalash tizimini kuchaytirish, banklarning likvidlik holatini mustahkamlash va jismoniy shaxslarning depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarini oshirish natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda raqamli bank xizmatlarini keng joriy etish natijasida mijozlarning bank tizimiga jalb qilinishi yanada ortgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning bank tizimida 2020–2025 yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida moliyaviy barqarorlik mustahkamlangan, tijorat banklarining roli kuchaygan va iqtisodiy o‘sish uchun muhim zamin yaratilgan. Kreditlash hajmining oshishi real sektorni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, depozit bazasining o‘sishi bank tizimiga bo‘lgan ishonchning ortayotganidan dalolat beradi. Tijorat banklari aktivlarining sezilarli ravishda ortishi esa mamlakatning bank sektori investitsiyalar uchun jozibadorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Kelgusi yillarda bank tizimining yanada rivojlanishi uchun xususiy kapital ishtirokini oshirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.



2-rasm. Tijorat banklari balans passivining holati[98]

Tijorat banklarining majburiyatlari va kapital tarkibi bo‘yicha ushbu grafik moliya sektorining barqarorligi va ishonchliligini tahlil qilish uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. 2020–2025 yillar davomida tijorat banklarining depozitlari, boshqa majburiyatlari va umumiy kapitali tarkibiy nisbatining o‘zgarish tendensiyalari kuzatilgan. Ushbu davr mobaynida depozitlarning majburiyatlar tarkibidagi ulushi sezilarli darajada ortgan bo‘lib, bu bank tizimiga bo‘lgan ishonchning oshganligini bildiradi. Xususan, 2020-yilda tijorat banklari majburiyatlarining **29,2%** qismini depozitlar tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich **47,2%** ga yetgan. Depozitlarning umumiy majburiyatlardagi ulushi **18% ga oshgan**, bu esa aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortganligini va depozit siyosatini rag‘batlantirish choralari samara berganligini ko‘rsatadi. Banklar tomonidan foiz stavkalarining maqbullashtirilishi va depozit kafolatlari kuchaytirilgani ushbu tendensiyaning asosiy sabablaridan biri bo‘ldi.

Majburiyatlar tarkibida boshqa manbalardan jalb qilingan mablag‘larning ulushi ham muhim o‘rin tutadi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, boshqa majburiyatlar nisbati sezilarli darajada yuqori bo‘lib, ularning ulushi 2020–2023 yillar davomida barqaror darajada saqlanib qolgan. Bu xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kuchayganligini va banklarning tashqi qarz vositalaridan faol foydalanayotganligini anglatadi. O‘zbekiston bank sektorida tashqi investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar natijasida, banklar o‘z kapital yetarliligini oshirish hamda likvidlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

[98] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Depozitlar ulushining ortib borishi aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini aks ettiradi. 2020-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda depozitlar ulushi bosqichma-bosqich oshib borgan, bu esa bank tizimining barqarorligini ta’minlash va ichki iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynagan. Xususan, oxirgi yillarda raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi va qulay depozit shartlarining taklif qilinishi bank tizimiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi.

Fikrimizcha, 2020–2025 yillar davomida tijorat banklarining majburiyatlar va kapital tarkibidagi muvozanatli o‘zgarishlar mamlakat bank tizimidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan. Depozit bazasining kengayishi, kapital yetarliligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek, xalqaro moliya bozorlaridan jalb qilingan mablag‘lar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Kelgusida bank tizimidagi islohotlarni davom ettirish uchun tijorat banklarining likvidligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish kabi chora-tadbirlarni yanada rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dong, J., Yin, L., Liu, X., Hu, M., Li, X., & Liu, L. (2020). Impact of internet finance on the performance of commercial banks in China. *International Review of Financial Analysis*, *72*, 101579.
2. Banke, N. K., & Yitayaw, M. K. (2022). Deposit mobilization and its determinants: evidence from commercial banks in Ethiopia. *Future Business Journal*, *8*(1), 32.
3. Legass, H. A., Shikur, A. A., & Ahmed, O. M. (2021). Determinants of commercial banks deposit growth evidence from ethiopian commercial banks. *Journal of Finance and Accounting*, *9*(6), 207-215.
4. Koroleva, E., Jigeer, S., Miao, A., & Skhvediani, A. (2021). Determinants affecting profitability of state-owned commercial banks: Case study of China. *Risks*, *9*(8), 150.
5. Farkasdi, S., Septiawan, B., & Alghifari, E. S. (2021). Determinants of commercial banks profitability: Evidence from germany. *JRAK*, *13*(2), 82-88.

RAQAMLI BANKLARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Алимов Бахтиёр Муродович

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби мустақил тадқиқотчиси

Raqamli banklar nafaqat bank xizmatlarini, balki butun moliyaviy sektorni o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi, mobil ilovalar va sun’iy intellekt kabi yangi imkoniyatlar banklarning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘z navbatida, bu o‘zgarishlar mijozlar uchun xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib, raqamli banklarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Ushbu maqolada raqamli banklarning rivojlanish tendentsiyalari va ularning moliyaviy tizimdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Raqamli banklar bank tizimining muhim qismlariga aylangan va ularning rivojlanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. 1980-yillarda internetning ommalashishi bilan banklar o‘zlarining oddiy xizmatlarini onlayn formatda taqdim eta boshladilar. Dastlabki bosqichlarda bu faqatgina onlayn hisoblar va to‘lovlarni amalga oshirishni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, hozirda raqamli banklar keng miqyosda moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni onlayn tarzda taqdim etishga o‘tgan. 2000-yillardan boshlab, raqamli banklar ko‘proq xalqaro miqyosda ishlashni boshladi va mobil bank xizmatlari ko‘rsatilgan. Hozirgi kunda esa raqamli banklar, masalan, internetga to‘liq bog‘langan moliyaviy xizmatlar, bulutli texnologiyalar va raqamli to‘lov tizimlarini taklif qilishda davom etmoqda.

Raqamli banklarning o‘sishiga bir qator omillar sabab bo‘lgan. Ular orasida internetning keng tarqalishi, mobil texnologiyalarning rivojlanishi, mijozlarning onlayn xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji va, albatta, bank sektoridagi raqobatni keltirish kabi omillar muhim rol o‘ynagan. Mobil texnologiyalar orqali mijozlar o‘z hisoblarini har doim va har joyda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Shuningdek, texnologik yangiliklar va fintech kompaniyalarining rivoji banklar uchun yangi xizmatlarni yaratishga va mavjud tizimlarni takomillashtirishga imkon yaratdi.

Raqamli banklar mijozlarning zamonaviy ehtiyojlarini qondirishda katta o‘rin tutadi. Mijozlar tezkor, qulay va xavfsiz xizmatlarga bo‘lgan talabni ko‘rsatmoqda. Shu sababli, raqamli banklar mobil ilovalar, onlayn bank xizmatlari va raqamli to‘lov tizimlarini taqdim etish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga intilmoqda. Mobil ilovalar va raqamli to‘lov tizimlari mijozlarga nafaqat zamonaviy xizmatlar, balki ularni tez va samarali tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli banklar mijozlarga faqatgina bank xizmatlarini taqdim etish bilan cheklanmay, ular tomonidan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ham raqamli tarzda integratsiya qilishadi. Bu, xususan, kreditlar, depozitlar, sug‘urtalar va investitsiya xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, yangi raqamli banklar ko‘pincha fintech kompaniyalari bilan hamkorlikda yangi xizmatlar yaratadilar. Bunday integratsiya banklarga xizmatlarini yanada diversifikatsiya qilish va mijozlarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Mobil banking tizimlari raqamli banklarning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Mobil ilovalar orqali mijozlar istalgan joydan va vaqtdan qat’i nazar bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Mobil ilovalar yordamida to‘lovlarni amalga oshirish, balansni tekshirish, moliyaviy operatsiyalarni boshqarish va boshqa ko‘plab xizmatlar mavjud. Raqamli banklarning mobil platformalari mijozlar bilan bevosita aloqada bo‘lishni ta’minlab, ularning ehtiyojlarini tezkor va samarali tarzda qondirish imkonini yaratadi.

Raqamli banklarning rivojlanishi bilan birga xavfsizlik masalalari ham dolzarb bo‘lmoqda. Kiberhujumlar va ma'lumotlarni yo‘qotishning oldini olish uchun banklar zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy qilmoqda. Biometrik autentifikatsiya, ikki faktorli autentifikatsiya, shifrlash tizimlari kabi texnologiyalar banklarning mijozlar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, banklar kiberxavfsizlik protokollarini takomillashtirishi va ma'lumotlarni

himoya qilish uchun doimiy ravishda yangi texnologiyalarni joriy etishda davom etmoqda.

Raqamli banklarning rivojlanishida raqamli to‘lov tizimlari ham katta rol o‘ynaydi. Bu tizimlar orqali mijozlar nafaqat o‘z hisoblaridan pul o‘tkazish imkoniyatiga ega, balki xalqaro to‘lovlarni amalga oshirish ham juda osonlashadi. To‘lovlarni tez va xavfsiz amalga oshirish uchun raqamli banklar o‘z tizimlariga yangi to‘lov metodlarini joriy etadi. Shuningdek, raqamli to‘lov tizimlari mijozlarga vaqt va mablag‘ni tejash imkonini beradi.

Fintech kompaniyalari bilan raqamli banklar o‘rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. Fintech startaplari o‘zlarining innovatsion texnologiyalari bilan raqamli banklarga yordam berayotgan bo‘lsa, raqamli banklar esa ularga moliyaviy resurslar va keng tarmoq imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Bu hamkorlik yangi mahsulotlarni tez va samarali yaratishga yordam bermoqda. Fintechlar yangi moliyaviy texnologiyalarni taqdim etishda davom etmoqda, raqamli banklar esa ularni amaliyotga tatbiq etmoqda.

Raqamli banklar an'anaviy banklardan farq qiladi. Ular to‘liq raqamli platformalarga asoslangan bo‘lib, mijozlar uchun onlayn xizmatlar va mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatishadi. An'anaviy banklar esa hali ham jismoniy filiallarga tayanib ishlashadi. Bu farqlar banklarga o‘z xizmatlarini tez va samarali tarzda taklif etishda raqobat ustunligini beradi. Raqamli banklar o‘zlarining avtomatlashtirilgan jarayonlari va minimal infrastrukturasi yordamida xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega.

Raqamli banklarning rivojlanishiga ba'zi to‘siqlar mavjud. Xususan, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, kadrlarning malakasizligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, davlatning normativ talablar va regulyatorlarning cheklovlari rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin. Rivojlanayotgan davlatlarda ushbu to‘siqlar yanada muhim ahamiyatga ega. Biroq, banklar ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqishda davom etmoqda.

Raqamli banklar iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Onlayn platformalar orqali mijozlar soni va ularning operatsiyalarini avtomatlashtirish banklar xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, raqamli banklar xizmatlarining tezligi va aniqligi ularning raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zlarining xizmatlarini onlayn tarzda taklif etayotgan raqamli banklar ko‘proq mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Raqamli banklarning rivojlanishi, ayniqsa, qishloq va chekka hududlardagi odamlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu hududlardagi aholining bank xizmatlariga kirish imkoniyati cheklangan, lekin raqamli banklar mobil ilovalar va internet orqali ularga xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy inklyuziya darajasini oshiradi.

Raqamli banklarning rivojlanishi global iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli banklar nafaqat o‘z mamlakatidagi, balki xalqaro miqyosda ham moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Xalqaro to‘lovlar, valyuta ayirboshlash va boshqa moliyaviy operatsiyalarni onlayn tarzda amalga oshirish banklarning samaradorligini oshiradi.

Raqamli banklar faoliyatini tartibga solish uchun davlat regulyatorlari tomonidan maxsus qonunlar va normativlar ishlab chiqilmoqda. Raqamli banklar faoliyatini to‘liq qamrab olish uchun yangi qonunchilik va regulyatorlik asoslari zarur. Bu jarayon bir tomondan banklarning faoliyatini xavfsizroq qiladi, ikkinchi tomondan esa ularga o‘sish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli banklarning kelajagi juda porloq ko‘rinadi. Texnologiyaning rivojlanishi va mijozlarning talabining o‘sishi bilan raqamli banklar yanada ko‘proq xizmatlarni taklif etishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar (big data) va bulutli texnologiyalarni yanada chuqurroq joriy etish bilan banklar xizmatlarini yaxshilashda va raqobatbardosh bo‘lishga olib keladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bátiz-Lazo B., Wood D. An historical appraisal of information technology in commercial banking //Electronic Markets. – 2002. – Т. 12. – №. 3. – С. 192-205.

2. Batiz-Lazo B., Del Angel G. A. The Ascent of Plastic Money: International Adoption of the Bank Credit Card, 1950–1975 //Business history review. – 2018. – т. 92. – №. 3. – с. 509-533.

3. Melikov O. рақамли банк технологиялари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда улардан самарали фойдаланиш йўллари //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.

4. Ashta A. Biot-Paquerot G. FinTech evolution: Strategic value management issues in a fast changing industry // Briefings in entrepreneurial finance. Volume 27, Issue 4. July 2018. – 301-311 p.

5. Cavus N. Chingoka D.N.C. Information technology in the banking sector: Review of mobile banking // Global journal of information technology. Number 5(2), 2015. – 62-70 p.

6. Cano M.D., Domenech-Asensi G. A security energy-efficient m-banking application for mobile devices // The journal of systems and software. Number 84, 2011. – 1899-1909 p.

7. Sharma A., Kansal A. Technological infovations in banking sector: impact, behaviour and services // International journal of information & computation technology. Volume 4, Number 9, 2014. – 886 p.

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Saidov Elyor Ilxomovich
Tashkent davlat iqtisodiyot university
mustaqil tadqiqotchisi

Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirish borasidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar banklarning umumiy moliyaviy faoliyatini yaxshilash va xavflarni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Kredit portfeli samaradorligini oshirish masalasi banklarning rentabelligi va barqarorligini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar bir nechta

yondashuvlarni ko‘rib chiqadi, jumladan, kredit portfelini diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, va kredit risklarini samarali boshqarish. Diversifikatsiya banklarga turli sektorlardagi xavflarni kamaytirishga va bir necha sohalarda barqaror daromad olishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar va big data analizlari yordamida kredit portfeli samaradorligini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkoniyatlari yaratildi. Kredit risklarini boshqarish usullari, masalan, qarzlarni qaytarish ehtimoli bo‘yicha prognozlar va tahliliy modellar, banklarga kredit portfelini to‘g‘ri boshqarish va kreditlar bo‘yicha zararlarni kamaytirishga imkon beradi.

Kredit portfeli samaradorligini oshirish uchun ilmiy yondashuvlar faqatgina nazariy jihatlarni o‘rganib chiqish bilan cheklanmaydi, balki banklarning amaliy faoliyatida qo‘llaniladigan metodologiyalarni ham takomillashtirishga qaratilgan. Masalan, kredit risklarini baholashda qo‘llaniladigan statistik modellardan foydalanish, qarz oluvchilarni tahlil qilish va prognozlash, portfel diversifikatsiyasini o‘rganish, va kreditlarni qaytarishda yuzaga keladigan xatoliklarni minimallashtirish kabi yondashuvlar banklarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunday ilmiy-nazariy yondashuvlar banklarning o‘sishiga va iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Shuningdek, kredit portfeli samaradorligini oshirishda muvaffaqiyatli usullarni qo‘llash, banklarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishi, ularning mijozlarga xizmat ko‘rsatishda ishonchni ta’minlashi va iqtisodiyotda barqaror o‘sishni ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

Venugopalning (2024) ilmiy ishlarida Hindistonning davlat, eski xususiy va yangi xususiy sektor banklari o‘rtasida kredit portfellarini boshqarish va samaradorlikni tahlil qilishga diqqat qaratilgan. Ilmiy ishda ilmiy-nazariy asosda banklar samaradorligini va ularning kredit portfellarini boshqarish strategiyalarini o‘rganadi. Tadqiqotda kredit portfelini boshqarishning bank samaradorligiga ta’siri haqida mavjud nazariyalarni ko‘rib chiqish orqali, samarali kredit boshqaruvining banklarning rentabelligi va barqarorligini oshirishi mumkinligi tasdiqlanadi. Yazar, shuningdek, bank samaradorligini baholashda iqtisodiy nazariyalar va moliyaviy tahlil metodologiyalaridan foydalanadi. Ushbu maqola, banklar samaradorligini ta’minlash uchun kredit risklarini boshqarish, kapitalni optimallashtirish va likvidlikni saqlash muhimligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotda bank samaradorligini tahlil qilishda kompleks iqtisodiy va statistik metodlardan foydalanilgan. Tadqiqotda Hindistonning uch xil bank sektoridagi (davlat, eski xususiy, yangi xususiy) banklar o‘rtasida o‘zaro taqqoslash amalga oshirilgan. Kredit portfellarini boshqarish usullari va bank samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda regresyon tahlili va boshqa statistik metodlar qo‘llanilgan. Ilmiy ishda olingan natijalarga ko‘ra, yangi xususiy sektor banklari samaradorlikda eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, kredit risklarini boshqarishda yanada ilg‘or yondashuvlarni qo‘llaganligi aniqlangan. Shuningdek, eski xususiy va davlat banklari o‘rtasida kredit portfellarini boshqarish va samaradorlikda farqlar mavjudligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari, kredit portfellarini samarali boshqarish orqali banklar samaradorligini oshirish, shu bilan birga iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Huynh va Dang (2021) tadqiqotlarida biznes modellari va bozor kuchlarining kredit portfelining diversifikatsiyasi va banklarning moliyaviy natijalariga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi, banklarning kredit portfellarini diversifikatsiya qilish orqali daromadlarni oshirish, xatarlarni kamaytirish va barqarorlikni ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganadi. Diversifikatsiya jarayoni banklarning risklarni samarali boshqarish va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda shuningdek, biznes modellarining, ya’ni an’anaviy va raqamli banklar o‘rtasidagi farqlar va bozor kuchlarining, masalan, markazlashgan yoki raqobatbardosh bozorlarda ishlashning diversifikatsiya jarayoniga ta’siri yoritilgan.

Ilmiy ishda kredit portfellarining diversifikatsiyasining bank daromadlariga ta’sirini o‘rganish uchun empirik tahlil usullari qo‘llanilgan. Tadqiqotda davlat va xususiy banklar o‘rtasida kredit portfellarini diversifikatsiya qilish jarayonidagi farqlar taqqoslanib, ularning daromadlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, bozor kuchlari va biznes modellari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun regressiya analizlari amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, biznes modellaridagi farqlar va bozor kuchlari, ayniqsa raqamli texnologiyalarni joriy etgan banklar uchun, kredit portfelining diversifikatsiyasini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida, banklarning daromadlari va umumiy samaradorligini oshiradi. Tadqiqot, shuningdek, bozorning markazlashgan yoki raqobatbardosh tuzilmalari bo‘yicha har xil turlaridagi banklar o‘rtasida diversifikatsiya strategiyalarining farqlanishini ta’kidlaydi.

Ding va Sickles (2018) ishlarida AQSh banklarining samaradorligi, kapital tuzilmasi va portfel xavfi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi, banklar samaradorligini baholashda "frontier efficiency" metodologiyasining qo‘llanilishiga asoslanadi. Bu yondashuv orqali banklar faoliyatining eng yuqori samaradorlik nuqtalari tahlil qilinadi. Ishda kapital tuzilmasining, ya’ni bankning aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatning, hamda portfel xavfining samaradorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Tadqiqotda kapital tuzilmasining muhimligini ta’kidlanib, banklar o‘rtasida risklarni samarali boshqarish, shu bilan birga, yuqori samaradorlikka erishish uchun optimal kapital strukturasining qanday bo‘lishi kerakligi keltirilgan.

Tadqiqotda banklar samaradorligini tahlil qilishda "frontier efficiency" texnikasidan foydalanilgan bo‘lib, bu metod yordamida AQSh banklarining maksimal samaradorlik nuqtalari va bu nuqtalarga erishishda mavjud bo‘lgan resurslardan qanday foydalanishlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada portfel xavfi va kapital tuzilmasining o‘zaro bog‘liqligi regressiya tahlili orqali o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori samaradorlikka erishish uchun banklar kapital tuzilmasini optimallashtirish zarurligi, ayniqsa, yuqori xavfli portfellarga ega banklar uchun ahamiyatli ekani aniqlangan. Tadqiqot shuningdek, risklarni boshqarishda optimal kapital tuzilmasi banklar uchun mustahkamlik va samaradorlikni ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Atahau va Cronje (2019) ilmiy ishlarida banklar tomonidan kredit portfellari boshqaruvi va strategik fokusni o‘rganadi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi, banklar faoliyatining samaradorligini oshirishda strategik fokusning muhimligini

ta’kidlaydi. Fokus strategiyasi banklarning faoliyatini ma’lum bir segmentga yoki sohalarga yo‘naltirishni anglatadi, bu esa banklarga o‘z resurslarini va mahoratini bir nuqtada jamlash imkonini beradi. Ishda kredit portfellarini boshqarish jarayonida bu strategiyaning banklar samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Yondashuvda banklar o‘zining asosiy mijozlarini aniqlab, ularga maxsus xizmatlar ko‘rsatishga harakat qilishi kerakligi, natijada samarali portfel boshqaruvi va xavfni kamaytirish imkoniyatlarini yaratishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotda kredit portfellari samaradorligini tahlil qilishda statistik regressiya usullari va iqtisodiy model ishlab chiqilgan. Tadqiqotda Indoneziyaning yirik banklarining kredit portfellari tahlil qilinib, fokus strategiyasining samaradorligi o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, fokus strategiyasini qo‘llagan banklar o‘z portfellarida yuqori darajada ixtisoslashgan va kreditlarni boshqarishda yanada yuqori samaradorlikka erishgan. Banklar ma’lum sohalarga yoki mijoz segmentlariga e’tibor qaratgan holda, ularning xavf darajasini kamaytirib, investitsiya qaytarishlarining yaxshilanishiga erishgan. Shu bilan birga, fokus strategiyasini amalga oshirgan banklar umumiy bozor raqobatida ustunlikka ega bo‘lishgan va o‘z mijozlariga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsata olishgan.

Dang va Huynh (2018) tadqiqotda Vietnam banklarida kredit portfellari diversifikatsiyasining banklarning moliyaviy samaradorligiga ta’sirini o‘rganadi. Ishda kredit portfellari diversifikatsiyasining nazariy asoslari, uning xavfni kamaytirish va qaytish darajasini oshirishdagi roliga alohida e’tibor qaratiladi. Diversifikatsiya, ya’ni kredit portfellarini bir nechta turli sohalar va mijoz segmentlariga taqsimlash, banklarga riskni boshqarish va daromadlarni yaxshilashda yordam beradi. Tadqiqotda diversifikatsiyaning banklarning rentabelligiga ta’siri, shuningdek, ma’lum segmentlar yoki sohalarda markazlashgan portfellarga nisbatan qanday farqlar borligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotda iqtisodiy model va statistik usullar yordamida Vietnambanklarida kredit portfellari diversifikatsiyasining moliyaviy natijalarga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda panel ma’lumotlari va regressiya tahlili qo‘llanilgan bo‘lib, bu usul yordamida kredit portfellarining diversifikatsiyasi va banklarning rentabelligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kredit portfellarining diversifikatsiyasi Vietnambanklarining rentabelligini oshirgan va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Diversifikatsiya darajasini oshirgan banklar yuqori daromadlar va xavfning kamayishini kuzatgan. Tadqiqot shuningdek, diversifikatsiya strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun banklarning bozor sharoitlariga va iqtisodiy o‘zgarishlarga qanday moslashishlari kerakligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Venugopal, S. K. (2024). Loan Portfolio Management and Bank Efficiency: A Comparative Analysis of Public, Old Private, and New Private Sector Banks in India. *Economies*, *12*(4), 81.

2. Huynh, J., & Dang, V. D. (2021). Loan portfolio diversification and bank returns: Do business models and market power matter?. *Cogent Economics & Finance*, *9*(1), 1891709.

3. Ding, D., & Sickles, R. C. (2018). Frontier efficiency, capital structure, and portfolio risk: An empirical analysis of US banks. *BRQ Business Research Quarterly*, *21*(4), 262-277.

4. Atahau, A. D. R., & Cronje, T. (2019). Does focus strategy work? A study of bank loan portfolios in Indonesia. *Journal of Asia Business Studies*, *13*(3), 450-471.

5. Dang, V. D., & Huynh, J. (2018, November). The effects of loan portfolio diversification on Vietnamese banks' return. In *International Econometric Conference of Vietnam* (pp. 928-939). Cham: Springer International Publishing.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ибодуллаева Маърифат Тўлқин қизи

Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси доценти в.б., PhD

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг асосий мақсади иқтисодий ўсишни таъминлаш ва халқаро ҳамжамиятдаги ўрнини мустаҳкамлашдан иборат. Президент томонидан қабул қилинган 2017-2021 йилларда ривожланишнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришга қаратилган учинчи йўналиши доирасида муҳим чора-тадбирлар кўрилмоқда. 2019 йилда эса "2019 – 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида" Президент қарори қабул қилиниши ҳам иқтисодий ислоҳотларнинг янада ривожланаётганлигининг исботи ҳисобланади.

Хусусан, халқаро интеграция сифатини оширувчи валюта бозори борасида тўхталиб, миллий валюта барқарорлигини таъминлаш, валюта тартибини бозор механизмлари асосида ривожлантириш, шунингдек, нарх барқарорлиги ва тижорат банклари валюта операцияларини такомиллаштириш каби масалаларга алоҳида эътибор берилмоқда. Бу еса миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлаш ва халқаро иқтисодий муносабатларда мамлакатнинг нуфузини ошириш имкониятини беради.

Ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қошидаги "Ўзбекистон Республикаси Валюта биржаси" мамлакатнинг асосий валюта бозори ҳисобланади. У валюта савдосининг шаффофлигини таъминлаш, миллий валюта курсини бозор механизмлари асосида аниқлаш ва халқаро валюта савдоларида фаол иштирок етишни ташкил этиб келмоқда.

Аммо иқтисодий либераллашув жараёнларида халқаро молия бозорлари билан алоқаларни кенгайтириш, айниқса, валюта дилинги операцияларини амалга ошириш имкониятларини оширишни тақозо етмоқда. Валюта бозорларидаги муваффақиятли фаолият учун дилинг жараёнларида тўғри қарор қабул қилиш ва замонавий молиявий таҳлил воситаларидан фойдаланиш катта аҳамиятга ега. Бунда ноқонуний қарорлар иқтисодий субектларни ё'қотишларга олиб келиши мумкин, шу боис молиявий таҳлил ва

ахборотларни қайта ишлашнинг замонавий усуллари алоҳида аҳамият касб этади.

Иқтисодий глобализация шароитида, Ўзбекистонда валюта операцияларини такомиллаштириш долзарблиги ошмоқда. Бунинг сабаби, ташқи бозордаги рақобатбардошликни кучайтириш ва иқтисодий барқарорликни таъминлаш заруриятидир. Валюта курсларидаги ўзгаришларни олдиндан таҳлил қила билиш, самарали стратегияларни ишлаб чиқиш имконини беради ва бу эса иқтисодий барқарорликни сақлашда муҳим рол ўйнайди. Шу сабабли, валюта операцияларини янада такомиллаштириш Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланишида муҳим аҳамиятга эга.

Жаҳонда давом этаётган қаттиқ монетар шароит, асосий савдо ҳамкорлари миллий валюталарининг қадрсизланиши ва инфляция суръатларининг барқарорлашуви фонида 2023-йил август ойида сўмнинг реал самарали айирбошлаш курсининг сезиларли даражада мустаҳкамланиши кузатилди. Бу эса, ўз навбатида, турли валюта каналлари орқали ички валюта бозорида сўм курсининг маълум бир коррекциясига олиб келди.



1-расм. 2023 йилда АҚШ долларининг миллий валютага нисбатан алмаштириш курси динамикаси [2]

Ички валюта бозорида сўм курсининг фундаментал омиллар таъсирида ўзгариши реал самарали айирбошлаш курсининг узоқ муддатли тенденцияларга қайтишига олиб келди ва барча сегментларда хорижий валютага талаб ва таклиф мувозанати кузатилди. Бундай тузатиш орқали мослашувчан валюта курси ташқи зарбаларнинг ички иқтисодиёт учун юзага келиши мумкин бўлган салбий оқибатларини юмшатишга ёрдам берди.

2

0

2

-йил 2023-йилда Ўзбекистонда АҚШ долларига нисбатан операция ўтказилган

курсида қайд 10 263–12 390 сўм оралиғида шаклланиб, реал самарадан курс

барқарор сақланиб, йил бошига нисбатан 0,8 фоизга мустаҳкамланди.

чиқилган ИСДА бош келишуви имзоланди. 2022 йилга келиб, валюта фючерслари савдоси жорий етилди. Шу билан бирга, ички валюта бозорида мувозанатни таъминлаш мақсадида капитал ҳаракатида консерватив ёндашув сақланиб қолди.

2023-йилда ташқи савдонинг салбий салдоси жаҳон бозорида хомашё нархларининг арзонлашиши, експорт тушумларининг деярли ўзгармаслиги ва ички талабнинг юқори даражаси туфайли кенгайди, бу эса импорт товарларга бўлган талабни оширди.

Шунингдек, бир қатор мамлакатларда қатъий пул-кредит сиёсатининг давом эттирилиши натижасида Ўзбекистонга хорижий инвестицияларнинг соф оқими қисқарди, давлат ва корпоратив (хусусий) сектор корхоналарида давлат дастурлари ва инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш учун ташқи қарзлар кўпайди. Бу ҳолат мамлакатда валюта сиёсатини эҳтиёткорлик билан олиб боришни ва валюта операциялари устидан назоратни нисбатан кучайтиришни тақозо этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “2019 — 2030-йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПҚ-4477, 2019 йил.

Халқаро молия корпорацияси (ИФС) маълумотлари – яшил молиялаш ва инновацион технологиялар бўйича ҳисоботлар.

Harvard Business Review – “Digital Transformation for Sustainable Development” мақоласи, 2022 йил.

Blockchain for Green Finance (2021) – халқаро тажрибалар асосида екологик инвестициялар бўйича тадқиқотлар.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги – яшил иқтисодиёт ва инновациялар бўйича расмий маълумотлар.

РАҚАМЛИ ТЎЛОВ ТИЗИМЛАРИНИНГ “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ”НИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ

Рахимова Х. - ЎзР БМА доценти, PhD.

Азизов Х. - ЎзР БМА, магистранти

Замонавий рақамли трансформация жамиятнинг барча жабҳаларига, шу жумладан, молиявий секторга ҳам чуқур таъсир кўрсатмоқда. Рақамли тўлов тизимлари бугунги кунда нафақат молиявий операцияларни амалга оширишдаги қулайлик ва самарадорликни таъминлайди, балки уларнинг атроф-муҳитга ижобий таъсири туфайли “яшил иқтисодиёт”ни қўллаб-қувватловчи восита сифатида катта аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Бу тизимлар нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ва электрон технологияларга ўтиш орқали қоғоз маҳсулотлардан фойдаланишни қисқартириб, табиий ресурсларни тежаш, экологик мувозанатни сақлаш ва углерод изини камайтиришга ёрдам беради.

Иқлим ўзгариши, атроф-муҳитга зарарли таъсирларни камайтириш ва барқарор ривожланиш каби глобал муаммолар шароитида рақамли тўлов тизимларининг аҳамияти ошиб бормоқда. Хусусан, ушбу тизимлар атроф-муҳит муҳофазасини қўллаб-қувватлаш, ўрмонларни кесиш ҳажмини қисқартириш, аҳолини экологик маҳсулотлардан фойдаланишга рағбатлантириш ҳамда молиявий ресурсларни "яшил" лойиҳаларга йўналтириш имкониятини яратади.

Рақамли тўлов тизимларининг қоғоз маҳсулотлари истеъмолини қисқартиришдаги самарадорлигини алоҳида таъкидлаш жоиз. Бу жойларда қоғоз пуллар муомаласини қисқартириш, қоғоз чеклари ва ҳисобот ҳужжатларидан фойдаланишни минималлаштириш ҳисобига ўрмон хўжаликларига бўлган босим камаяди. Шунингдек, қоғоз ҳужжатларни сақлаш, ташиш ва қайта ишлаш билан боғлиқ сарф-харажатлар камаяди, бу эса молия тизимида экологик самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Рақамли тўлов тизимлар экотизимни ривожлантиришга бевосита таъсир этади, шу жумладан, коғоз маҳсулотларининг ишлатилишини қисқартириш экотизим учун улкан ижобий натижаларга олиб келади. Бугунги кунда қоғоз ишлаб чиқариш жараёни ўрмонларни кесиш, ҳаво фильтрацияси ва углеродни сўриш имкониятини камайтириш билан боғлиқ бўлиб, табиатнинг мувозанатини бузишда муҳим омилдир. Ушбу жараён ўрмонларнинг майдонини қисқартириб, ҳайвонлар ва ўсимликлар учун уй-жой вазифасини бажарадиган табиий муҳитни йўқотишга сабаб бўлади. Шу билан бирга, қоғоз ишлаб чиқариш токсик моддаларни ажратиш билан боғлиқ бўлиб, улар сувга тушади ва сув ресурсларининг сифатини ёмонлаштиради. Энергия ресурсларининг юқори сарфи ва парник газларининг кўпайиши эса экологик муаммоларни янада кучайтиради.

Шунингдек, ўрмонлар биорангбликни сақлашда марказий ўрин тутади. Ҳар бир дарахт кесилмаслиги кўплаб ўсимлик ва ҳайвон турларининг йўқолишининг олдини олади, бу эса барқарор ривожланишнинг муҳим қисми ҳисобланади.

Рақамли тўлов тизимларининг яшил лойиҳаларни қўллашдаги роли ҳам чексиз деб баҳоланади, чунки рақамли тўлов тизимлари яшил лойиҳаларни молиялаштириш ва ривожлантиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Масалан, **краудфандинг ва хайрия тадбирлар платформалари** ёрдамида **маблағ йиғиш** имкониятини яратади. Шу билан бирга, м**ониторинг ва шаффофликни таъминлайди**, бу эса сармоядорлар ва донорлар ўртасида ишончни оширишга ёрдам беради. Шунингдек, рақамли тўлов тизимлар экологик фондларни ташкил этишда катта кўмаклашади. Рақамли тўлов тизимлари орқали экологик маблағларнинг аниқ ва самарали сарфланиши, ижобий натижаларга эришишда катта аҳамият касб этади. Бу эса, нафақат атроф-муҳитни муҳофазалашга, балки жамиятнинг экологик маданиятини оширишга имкон беради.

Рақамли тўлов тизимлари ва “яшил иқтисодиёт” учун ҳамкорлик “Яшил иқтисодиёт”ни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга жиҳатлардан бири — экологик ташаббусларни қўллаб-қувватлайдиган компаниялар билан

ҳамкорликдир. Кўплаб рақамли тўлов тизимлари ана шундай компаниялар билан интеграция қилинади. Улар орқали экологик тоза маҳсулотлар учун бонуслар ёки чегирмалар таклиф қилинади, бу эса истеъмолчиларни экосознали харидлар қилишга ундайди.

Айрим тўлов тизимлари “яшил ташаббуслар”да иштирок этиш учун махсус бонусли дастурларини жорий қилмоқда. Бундай ташаббусларга жамоат транспортидан фойдаланиш ёки углерод изини камайтириш киради. Масалан, карталар ёрдамида кешбекларга эга бўлган Тошкент шаҳар транспорт тўлов тизимида хизмат кўрасатаётган “Uzum Bank”нинг “Humocard”лари бунга ёрқин мисол бўлади.

Шунингдек, рақамли тўлов тизимлари орқали ўрмонларни тиклаш, яшил энергетикани ривожлантириш ва бошқа экологик лойиҳаларга маблағ йўналтириш имконияти яратилмоқда. Бу тизимлар нафақат сармояларни жалб қилиш, балки уларнинг шаффофлигини таъминлаш, натижада сармоядорлар ва инвесторларни ишончини мустаҳкамлашда катта аҳамият касб этади.

Яшил иқтисодиётни ривожлантиришдаги самарали воситалардан бири “яшил карталар”ни жорий қилишдир. Бундай карталар:

- Экологик тоза маҳсулот ва хизматларни сотиб олишни рағбатлантиради;
- Олинган маблағларни қайта тикланадиган энергия манбалари, ўрмонларни тиклаш ва барқарор ривожланиш каби ташаббусларга йўналтиради;
- Фойдаланувчиларга ўзларининг экологик лойиҳаларга қўшган ҳиссаси ҳақида маълумот беради, бу эса экологик маданиятнинг тарқалишига ёрдам беради.

Шунингдек, ушбу карталар бонус ва лояллик дастурлари орқали фойдаланувчиларни углерод изини камайтириш, барқарор истеъмол тамойилларига амал қилиш каби ташаббусларга жалб қилади. Рақамли тўлов тизимлари компаниялар билан ҳамкорлик орқали янги иштирокчиларни жалб қилиш орқали экологик иқтисодиётни ривожлантиришда “синергетик эффект” яратади.

Хулоса қилиб айтганда, рақамли тўлов тизимлари қоғоздан воз кечиш, эскича ҳисоб-китоб тизимларини тарк этиш ва “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантиришда замонавий рақамли инструментлар ва механизмлардан фойдаланиш имкониятини беради.

Фойдалланилган адабиётлар:

Bank for International Settlements. (2021). *The role of digital payment systems in fostering green economy initiatives*. Retrieved from https://www.bis.org/

United Nations Environment Programme. (2019). *Green finance and the integration of digital solutions*. Retrieved from https://www.unep.org/

World Bank. (2020). *Sustainable development through digital payment technologies*. Retrieved from https://www.worldbank.org/

Zhang, Y., & Peterson, M. (2021). Advancing green initiatives through digital payment infrastructures. *Sustainability and Technology Journal, 10*(2), 112-130. https://doi.org/10.5678/stj.v10i2.3456

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ РОЛИ

Ибодуллаев Ш. - ***ЎзБМА доценти в.б.***
Жуманов Ж. - ***ЎзБМА магистранти***

Яшил иқтисодиётни ривожлантиришда тижорат банкларининг роли жуда муҳим, чунки улар молиявий ресурсларни йўналтириш, инвестицияни жалб қилиш ва барқарор ривожланишни қўллаб-қувватлаш орқали катта таъсир кўрсатади. Қуйида бу соҳада тижорат банкларининг асосий роллари келтирилган:

Яшил молиялашни таъминлаш – Тижорат банклари экологик тоза лойиҳаларни молиялаштириш орқали яшил иқтисодиётга ҳисса қўшади:

- Қуёш ва шамол энергияси каби қайта тикланадиган энергия манбаларини қўллаб-қувватлаш
- Кам углеродли транспорт воситаларини молиялаштириш
- Энергия тежовчи технологияларга инвестиция киритиш

Яшил қарз ва облигациялар чиқариш - Банклар мижозларга махсус яшил кредитлар ва "яшил облигациялар" таклиф қилиши мумкин. Бу молия воситалари:

- Экологик мақсадларга йўналтирилади
- Инвесторларга барқарорликни таъминловчи имкониятлар яратади

Экологик таваккалчиликларни баҳолаш – Тижорат банклари ўз мижозларини молиялаштиришда экологик таваккалчиликларини баҳолайди. Масалан:

- Корхона лойиҳаси атроф-муҳитга қандай таъсир кўрсатади?
- Қонунчилик талабларига мосми?

Бу ҳолат ESG (Environmental, Social, Governance) тамойилларини банк фаолиятига интеграция қилишни талаб қилади.

Мижозларни хабардор қилиш ва рағбатлантириш – Банклар мижозларга яшил лойиҳалар юзасидан маслаҳат бериши ва рағбатлантирувчи молиявий шартларни таклиф қилиши мумкин:

- Фоиз ставкасини пасайтириш
- Яшил сертификатлар бериш

Яшил иқтисодиётни молиялаштиришда банкларнинг роли жуда муҳим ҳисобланади. Чунки яшил иқтисодиёт — бу табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, экологик хавфни камайтириш ва барқарор ривожланишни таъминлашга қаратилган иқтисодий тизим бўлиб, уни амалга ошириш учун молиявий ресурслар зарур. Тижорат банклари эса ана шу ресурсларни тақдим этувчи асосий молия институтлари сифатида хизмат қилади.

Банклар яшил иқтисодиётга оид лойиҳаларни (масалан, қайта тикланадиган энергия манбалари, энергия тежовчи технологиялар, экологик тоза транспорт, чиқиндиларни қайта ишлаш) молиялаштириш учун мўлжалланган кредитлар

ва инвестиция имкониятларини таклиф этади. Улар яшил лойиҳаларни амалга ошириш учун имтиёзли шартларда кредитлар бериш, яшил облигациялар чиқариш, ҳамда экологик таваккалчиликни баҳолаш орқали молиявий хавфларни камайтиришга ҳисса қўшади. Шу билан бирга, ESG (атроф-муҳит, ижтимоий масъулият ва корпоратив бошқарув) мезонларини ҳисобга олган ҳолда лойиҳаларни саралаб молиялаштириш банклар фаолиятида тобора кўпроқ аҳамият касб этмоқда.

Банклар мижозларнинг экологик онгини ошириш, уларни яшил ташаббусларга жалб қилиш ва рағбатлантиришда ҳам фаол иштирок этади. Масалан, улар паст фоизли кредитлар, узоқ муддатли тўлов режалари ва махсус сертификатлаш хизматларини таклиф қилиш орқали мижозларни яшил лойиҳаларга қизиқтиради. Шу билан бирга, тижорат банклари давлат ва халқаро молия институтлари билан ҳамкорликда яшил молиялашни янада самарали ташкил этиш имкониятига эга бўлади. Бундай ҳамкорлик орқали банклар халқаро грантлар, субсидиялар ва техник ёрдам олиб, лойиҳаларни янада кенг кўламда амалга ошириш имкониятига эга бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, тижорат банклари яшил иқтисодиётни молиялаштиришда фаол иштирок этиш орқали экологик барқарорликка эришиш, янги иш ўринларини яратиш ва иқтисодий ўсишга туртки беришда муҳим ўрин тутади. Улар орқали молиявий ресурслар экологик тоза, самарали ва узоқ муддатли ривожланишни таъминловчи лойиҳаларга йўналтирилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Bank for International Settlements. (2021). *The role of digital payment systems in fostering green economy initiatives*. Retrieved from https://www.bis.org/

United Nations Environment Programme. (2019). *Green finance and the integration of digital solutions*. Retrieved from https://www.unep.org/

World Bank. (2020). *Sustainable development through digital payment technologies*. Retrieved from https://www.worldbank.org/

Smith, J., & Liu, H. (2022). The impact of digital payment systems on environmental sustainability. *Journal of Green Economics, 18*(3), 45-62. https://doi.org/10.1234/jge.v18i3.6789

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАНК КРЕДИТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Жавлонова Шахноза Джалолитдиновна

Иқтисод магистри

Жаҳондаги тараққий этган мамлакатлар тажрибасига кура, хўжалик юритувчи субьектлар ва жисмоний шахсларнинг фаолиятини молиялаштиришнинг асосий йўналиши тижорат банклари томонидан кредитлаш амалиёти хисобланади. Аксарият ривожланган мамлакатларда хўжалик юритувчи субьектлари томонидан кўрсатилаётган хизматларнинг ЯИМдаги улуши 70-75 фоизни ташкил этади. Иқтисодиётда банд бўлган аҳолининг асосий қисми ҳам ушбу соҳада банд бўлиб, улар Японияда 70 фоизни, АҚШда 80 фоиздан кўпроқни”, ташкил қилади. Хўжалик

юритувчи субьектлари фаолиятининг 90 фоизгача бўлган қисми эса тижорат банкларининг кредитлари хисобидан молиялаштирилади. Бугунги кунда тижорат банклари кредит бозорини ривожлантириш ҳамда кредит бозори бўйича илғор инновацион банк хизматларини кўрсатиш ва таклиф етиш борасида жадал рақобат муҳити такомиллашмоқда.

“Жаҳоннинг ривожланган ва ривожланаётган давлатларида тижорат банкларида кредит бозорига қўйилган талабларни такомиллаштириш борасида банк кредитлари сифатини ошириш, кредит рискларини камайтириш, мижозларнинг кредит қобилиятини обьектив баҳолаш усул ва механизмларини мукаммаллаштириш, кредит бозори банк учун энг мақбул бўлган даромадлилик стратегиясига айлантириш, банкларнинг молиявий барқарорлиги ва кредит бозори салоҳиятини ошириш бўйича илғор инновацион банк хизматлари ва маҳсулотларини жорий етиш сингари тадқиқот йўналишларига алоҳида эътибор берилмоқда”. Илғор хорижий мамлакатлар тажрибаси ҳамда банк тизими фаолиятининг стратегик мақсадларидан келиб чиққан ҳолда тижорат банклари томонидан кредит бозорига қўйилган талабларни такомиллаштириш, кредит ресурсларини самарали жойлаштириш, бошкариш ва таксимлаш, кредит бозори рискларини камайтириш, кредит бозорининг замонавий шаклларини тадқиқ қилиш, шаффоф ва мукаммал кредит бозорини шакллантириш сингари муаммоларнинг илмий асослари тадқиқ этилмоқда. Ҳозирги даврдаги энг долзарб вазифа эса, мана шу тижорат банклари томонидан кредит бозорига қўйилган талабларни яшил иқтисодиёт билан уйғунлигини таъминлаган ҳолатда такомиллаштиришдан иборатдир.

Яшил иқтисодиётда банк кредитларининг аҳамиятини ошириш, асосан, экологик барқарорликни таъминлаш ва яшил лойиҳаларни молиявий қўллаб-қувватлаш учун муҳим ҳисобланади. Банк кредитлари ушбу соҳадаги барқарор ўсишни ва ривожланишни таъминлаш учун марказий роль ўйнайди.

Қуйидаги омиллар яшил иқтисодиётда банк кредитларининг аҳамиятини оширишга асос бўлади:

Яшил инвестициялар учун молиялаштириш: Яшил иқтисодиётга ўтиш учун барқарор энергетика манбалари, атроф-муҳитга зарарсиз технологиялар ва табиатни муҳофаза қилишга қаратилган лойиҳаларга инвестициялар талаб этилади. Банклар ушбу лойиҳаларга кредит бериш орқали уларни молиялаштиради.

Яшил облигациялар ва қарзлар: Банклар яшил облигациялар ва махсус қарзлар ишлаб чиқариш ва тарқатиш орқали экологик барқарорликни таъминлашга қаратилган инвестициялар учун маблағлар жалб қилишда фаол роль ўйнашлари мумкин. Бу омил, яшил иқтисодиётнинг ривожланишини ва банк секторининг бу соҳадаги иштирокини кучайтиришга ёрдам беради.

Ҳукумат ва хусусий сектор ҳамкорлиги: Банклар яшил кредитлар учун махсус шартлар ва имтиёзлар (масалан, паст фоизли ставкалар) билан қарз беришни кўзда тутади, бу эса яшил лойиҳаларни молиялаштиришни осонлаштиради.

Барқарорликни таъминлаш учун технологиялар: Яшил иқтисодиётга

ўтишда янги, экологик тоза технологияларни жорий этиш муҳимдир. Банклар экологик технологияларни молиялаштириш орқали бу соҳадаги инновацияларни ривожлантиришга кўмаклашиши мумкин.

Барқарор ижтимоий ва иқтисодий ривожланиш: Яшил лойиҳалар кўпинча маҳаллий жамиятларга ва иқтисодларга ижобий таъсир кўрсатади. Банклар ушбу лойиҳаларни молиялаштириш орқали ижтимоий барқарорлик ва иш ўринларини яратишга ёрдам беради.

Экологик стандартлар ва регламентлар: Банклар яшил кредитлар беришда экологик стандартлар ва регламентларга риоя қилишни талаб қилишлари мумкин. Бу лойиҳаларнинг барқарор ва экологик тоза бўлишини таъминлашга ёрдам беради. Шунга кўра, банклар экологик рисколарни баҳолаш ва инвестицияларнинг экологик таъсирини ҳисобга олишда муҳим роль ўйнашади.

Экологик рисковлар ва бошқарув: Яшил лойиҳаларнинг молиялаштирилишида экологик рисковарни баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Банклар ушбу рисковларни ҳисобга олиш ва уларни бошқариш учун янги методлар ва инструментларни ишлаб чиқиши керак. Масалан, банклар яшил кредитлар беришда экологик рисковарга қарши сақлов қарзларини киритишлари мумкин.

Яшил кредитларнинг маркетинг ва илғор амалиётлар: Банклар яшил кредитлар беришда мижозларнинг экологик идорага бўлган қизиқишларини ривожлантириш ва ўзига жалб қилиш учун турли маркетинг стратегияларини қўллашлари мумкин. Бу, масалан, экологик имтиёзлар ёки бепул экологик дастурларни тақдим этиш орқали амалга оширилиши мумкин.

Яшил лойиҳалар учун узоқ муддатли молиялаштириш: Банклар яшил лойиҳаларни молиялаштиришда узоқ муддатли қарзлар ва йўналишларни тақдим этишлари керак. Бу, ўзига хос экологик лойиҳалар учун ишлаб чиқаришнинг узоқ муддатли натижаларини ҳисобга олган ҳолда, уларни молиялаштиришда самарадорликни оширишга ёрдам беради.

Қонунчилик ва ҳукумат сиёсати: Банклар яшил иқтисодиётда кўпроқ иштирок этишлари учун хўжалик субъектлари учун қулай ва тўғри қонунчилик муҳити зарур. Ҳукумат экологик лойиҳаларни қўллаб-қувватловчи субсидиялар, кредитлар ва имтиёзларни киритиш орқали банкларнинг бу соҳадаги фаолиятини рағбатлантириши мумкин.

Яшил иқтисодиётда банк кредитларининг аҳамиятини ошириш, кўп ҳолатларда, энг аввало экологик ва ижтимоий барқарорликни таъминлашга хизмат қилади, ва шу билан бирга иқтисодий ривожланиш ва янгиланувчан технологиялар ишлаб чиқаришда муҳим механизм бўлиб хизмат қилади.

Шунинг учун, банклар яшил иқтисодиётда муҳим молия манбаи бўлиб, уларнинг кредит сиёсатини шакллантиришда экологик, ижтимоий ва иқтисодий барқарорликни таъминлашга қаратилган ёндашувлар ҳамда қўллаб-қувватловчи механизмлар жуда муҳим.

Фойдалланилган адабиётлар:

Smith, J., & Liu, H. (2022). The impact of digital payment systems on environmental sustainability. *Journal of Green Economics, 18*(3), 45-62. https://doi.org/10.1234/jge.v18i3.6789

Bank for International Settlements. (2021). *The role of digital payment systems in fostering green economy initiatives*. Retrieved from https://www.bis.org/

United Nations Environment Programme. (2019). *Green finance and the integration of digital solutions*. Retrieved from https://www.unep.org/

World Bank. (2020). *Sustainable development through digital payment technologies*. Retrieved from https://www.worldbank.org/

БАНК ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШ АСОСЛАРИ

Сайфуллаев Ж. Х. - ЎзБМА магистранти

Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида тижорат банклари ресурсларини самарали бошқаришнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлили кўрсатишича айнан рақамли хизматлар кўламини кенгайтириш, риск ва фойда ўртасидаги ўзаро муносабатларни самарали ташкил этиш, узоқ муддатли ва барқарор ресурслар билан таъминлаш ҳамда вужудга келиши мумкин бўлган рисклар даражасини пасайтириш каби долзарб масалалар ётади. Бизнинг назаримизда, бунинг асосий сабаблари сифатида дунё иқтисодиётининг глобаллашуви, молиявий воситачилик хизматларининг рақамлашуви ва электрон тўловларнинг ривожланиши, истеъмол ва молия бозорларида баҳоларнинг тебраниши, бундан ташқари мамлакатлар ўртасида юз бераётган геосиёсий вазиятларнинг таранглашуви каби жараёнларни келтириш мумкин.

Жаҳон бўйлаб молиявий иқтисодий тизимининг асосий тармоғи ҳисобланадиган банк тизими фаолияти хизматлари сони кундан кун кўпайиб, ортиб бормоқда. Анъанавий банк хизматлари бўлмиш депозит жалб қилиш, тўловларни амалга ошириш, кредит ажратиш хизматларининг бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда таклиф этиш имкони яратилганлиги банклар учун янги даврни бошлаб берди.

Бугунги кунда ўзгаришлар тез бўлаётган бир вақтда банк хизматлари бозори Ўзбекистон молия бозоридаги энг яхши ривожланаётган фаолият эканлиги яққол намоён бўлмоқда.

Билл Гейтс 1990 йилда «Банк иши керак, банклар керак эмас» деган эди. Қарийб 30 йил олдин башорат қилинган ҳолат, бугунги кунда янги рақамли тўловларни тартибга солувчи ва электрон тўловлар бозорида бурилиш нуқтаси бўлган янги даврни белгилаб бермоқда. Буни Ўзбекистонда рақамли технологияларга асосланган замонавий электрон банклар Анорбанк ва ТБС банкларнинг самарали фаолияти ҳам кўрсатиб турибди.

Билл Гейтс томонидан эътироф этилган юқоридаги фикр нафақат тижорат банклари, балки суғурта компаниялари, Финтеч, телекоммуникацион компанияларгача бўлган барча тўлов хизматларини етказиб берувчиларга қаратилган. Демак, тижорат банклари ўз мижозлари бўлган ҳам жисмоний, ҳам юридик шахсларга ўз маблағларини масофадан тез, тежамкор ва аниқса

самарали бошқариш учун шароитлар яратиб беради. Маблағларни масофадан бошқариш инновация сифатида ўз ижобий ва самарали жиҳатлари билан ажралиб туради. Бу тезлик ва хавфсизлик кафолатларида, айниқса, ўзини яхши томондан кўрсатди.

Техник жиҳатдан рақамли банк хизматлари амалий дастурлаш интерфейси, дастурий таъминот иловаларига бир хилда бир-бири билан мулоқот қилиш ва мижозларга йўналтирилган хизматларни яратиш учун асосий хизматлардан фойдаланиш имконини берувчи расмийлаштирилган буйруқлар тўплами бўлиб, аста-секин банк секторидаги инновацияларнинг асосий ёрдамчиларидан бирига - очиқ банк ва Финтеч таянч нуқтасига айланади. Очиқ банк - бу банкларнинг мижозлар маълумотларини учинчи томон компаниялари ёки иловалари билан хавфсиз ва реал вақт режимида алмашиш жараёни бўлиб, асосий мақсад инновацион ва тобора шахсийлаштирилган хизматларни тақдим этишдир. Жумладан, банк ахборот-коммуникацион технологиялар орқали мижозлар дўконларда нақд тўлашдан смартфондан фойдаланган ҳолда мобил илова орқали тез ва осон тўлашларига шароит яратмоқда. Айнан рақамли тўлов тизимлари ва воситалари банк операциялари ҳамда банк концепциясини ўзгартирган ҳолда ўзи тўловлар ва транзакцияларни амалга ошириш учун фойдаланиладиган алоқа нуқталарига айланмоқда. Мазкур тизимнинг ривожланиши мижозларга ноёб, интуитив, тезкор, оддий тажрибаларни таклиф қила оладиган бир қатор платформаларнинг ривожланиши орқали жадал кечмоқда.

Маълумки, банклар томонидан кўрсатилаётган хизматлари назарияси тарихи қатор босқичларни босиб ўтган. Банк хизматлар назарияси ривожланишини бошланғич босқичида Х.Дуглас ва Г.Брайаннинг илмий ишлари банклар хизмати бозори ҳамда унинг банк хизматлари сегментини ўрганишга бағишланган. Иккинчи босқичда, мамлакатларнинг иқтисодиёт тизимлари фаолиятини хусусиятларини ҳамда бошқа омилларнинг банк хизматлари бозорига таъсирини тадқиқ этишга бағишланган Ф.Дерек, О.Доннел, Е.Балларин илмий ишларида акс этади. Кейинги 3-босқичда “Молиявий супермаркет” ғояси бўйича фикрлар илгари сурилган.

Маҳаллий олимларимиздан проф. Ш.З.Абдуллаеванинг рақамли банк хизматлари тўғрисидаги фикрларига эътибор қаратадиган бўлсак, улар авваламбор электрон пуллар ҳисобини амалга ошириш имкониятига эга бўлаётганлигига, мамлакатимиз тижорат банкларида банк ҳисобварақларини масофадан туриб бошқаришни ривожлантириш куннинг муҳим масалаларидан бири эканлигига эътибор қаратган.

Пластик карточкалар билан муносабатларни ривожлантириш ва такомиллаштириш мақсадидаги чора-тадбирлар натижасида 2022 йил бошига кўра, пластик карточкаларнинг умумий сони ўтган йилнинг бошига нисбатан 1,3 миллионга ортиб, 27,1 миллион пластик карточкалар муомалага чиқарилган.



1-расм. Муомаладаги пластик карточкалар сони тўғрисида маълумот

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, ўрганилган давр оралиғида муомаладаги банк пластик карточкаларининг сони ўсиш тенденциясига эга. Айниқса бу кўрсаткич сўнги йилларда сезиларли ўсиш кўрсаткичини кўрсатиб бермоқда. Бунинг асосий сабабларидан бири тариқасида эса банк мижозлари томонидан банкларнинг мобил иловалари орқали пластик карточкага ариза қолдириш ҳисобига ҳам банклардан пластик карточкаларни олганликларини мисол қилиб айтишимиз мумкин.

Алоҳида олинган тижорат банклари мисолида муомалага чиқарилган пластик карточкалар тўғрисидаги маълумотларни кўриб чиқсак. Бунда биз томонимиздан Республикамиздаги йирик тижорат банкларидан Ўзсаноатқурилишбанк ҳамда Ипотекабанкларнинг муомалага чиқарилган пластик карточкаларининг амалдаги ҳолатини ўргандик.

1-жадвал

Ўзсаноатқурилишбанк томонидан чиқарилган (муомаладаги) пластик карточкалар тўғрисида маълумот (мижозлар кесимида)

№	Кўрсаткичлар	01.01.2018	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022
Жами карталар сони		**1 091 874,0**	**801 344,0**	**984 888,0**	**1 294 279,0**	**1 555 564,0**
Шу жумладан:						
1	Жисмоний жахслар	1 079 158	783 990	965 803	1 275 535	1 534 539
2	Юридик жахс ва ЯТТлар	12 716	17 354	19 085	18 744	21 025

Ўзсаноатқурилишбанк томонидан 2022 йил 1 январь ҳолатига 1,56 млн. дона пластик карточка муомалага чиқарилган бўлиб, бу ўтган йилга нисбатан 261,3 мингтага ёки 20,2 фоизга ошган. Хусусан, бунда жисмоний шахслар

учун банк томонидан 2022 йил 1 январь ҳолатига 2017 йилга нисбатан 42,2 фоиз кўп пластик карточка муомалага чиқарилган бўлиб, бу кўрсаткич 1,5 млн. донани ташкил этган. Банкнинг юридик шахс ва ЯТТлар бўлган мижозлари учун эса банк томонидан 21 минг донадан ортиқ пластик карточкалар муомалага чиқарилган.

Рақамли банк хизматларини кўрсатишда банк мобил иловалари асосий аҳамият касб этувчи тармоқ ҳисобланади. Банк мобил иловаси орқали мижоз ўз маблағларини доимо мониторинг қилиш имконига эга бўлади. Мана шундай мобил иловаларнинг яратилиши мижозлар вақтини ва маблағларини тежалишига ва банкларга янада кўпроқ янги мижозлар жалб қилинишига замин яратади. Шу боис, банклар ҳар доим ўзларининг мобил иловаларини такомиллаштириб боришлари ҳамда мобил иловаларни мижозларнинг барча қатламлари учун қулай бўлишини таъминлаб боришлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикасининг “Марказий банки тўғрисидаги” ЎРҚ-582-сонли Қонуни. (Янги таҳрири) 2019 йил 11 ноябр.

Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-580-сонли Қонуни. (Янги таҳрири) 2019 йил 5 ноябр.

Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Дарслик 1 ва 2 қисмлар. Т.: “Иқтисод-Молия” 2019. 534 б.

Дерек Ф. Глобальная стратегия банков. - М.: Экономика и финансы, 1990. – 385 с.

http://www.worldbank.org - Жаҳон банкининг расмий веб-сайти.

http://www.sqb.uz - АТБ Саноатқурилишбанкнинг расмий веб-сайти.

РОЛЬ СНИЖЕНИЯ ДОЛЛАРИЗАЦИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКО-ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА НА ПУТИ К ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Мырзанов Бердак Жолдасбаевич-PhD, проф.
Каракалпакский государственный университет
Мырзанов А.Б. - Магистрант, БФА РУз.

В современных условиях развития мировой экономики вопросы устойчивости финансовых систем приобретают особую значимость. Для Узбекистана, находящегося на этапе активного перехода к зеленой экономике, обеспечение стабильности банковско-финансовой системы становится ключевым фактором устойчивого развития. Одним из вызовов, сдерживающих финансовую устойчивость, является высокий уровень долларизации экономики, который ограничивает эффективность денежно-кредитной политики, повышает уязвимость к внешним шокам и снижает доверие к национальной валюте.

Долларизация оказывает прямое влияние на финансовую стабильность, увеличивая риски валютных дисбалансов и ограничивая возможности центрального банка в управлении денежной массой. В условиях перехода к зеленой экономике, которая требует значительных инвестиций и устойчивого

финансового планирования, снижение уровня долларизации становится важным направлением экономической политики.

Переход к зеленой экономике подразумевает не только развитие экологически чистых производств, но и создание устойчивой финансовой системы, способной поддерживать экологические инициативы и стимулировать внутренние инвестиции. В этом контексте снижение долларизации способствует укреплению национальной валюты, повышению инвестиционной привлекательности и усилению контроля над финансовыми потоками.

Долларизация экономики – это явление международного денежного рынка, на котором иностранная валюта (чаще всего доллары США) широко используется для расчетов внутри страны или отдельных отраслей ее экономики, даже в некоторых случаях полностью заменяя национальную валюту. Основной внутренней причиной долларизации является нарушение макроэкономического баланса, что означает резкое изменение ключевых экономических показателей. В период частичной долларизации экономики центральные банки сохраняют способность управлять денежно – кредитной политикой в стране, а в случае полной долларизации денежно – кредитная политика становится полностью зависимой от деятельности эмитента иностранной валюты. Влияние долларизации на денежно – кредитную сферу можно описать следующим образом:

- настолько велика долларизация в стране, настолько велико будет ее влияние на инфляцию;
- национальная валюта не в полной мере выполняет функции оценки товаров и услуг, она лишь официально выполняет функции средства обращения, а также обслуживает бюджет страны и частично население;
- долларизация меняет функцию спроса на деньги, то есть спрос на деньги будет сильно зависеть от динамики валютного курса;
- управление денежно – кредитной системой со стороны Центрального банка становится все более трудным, усложняется динамика депозитов в иностранной валюте и контроль за массой наличной иностранной валюты;
- увеличивается волатильность валютного курса, покупка валюты осуществляется, во – первых, для внешнеэкономических расчетов, а во – вторых, для «внутренних нужд». В результате валютный курс меняется чаще, в зависимости от двух изменений спроса. Это приводит к дальнейшей эскалации финансовых кризисов в странах с высоким уровнем долларизации;
- высокая долларизация кредитов в стране резко увеличивает кредитный риск банковской системы в период сильной девальвации. Это, в свою очередь, приводит к системным финансовым кризисам.

Снижение долларизации в экономике, в частности в банковской системе, является областью научного, теоретического и практического интереса ряда зарубежных (включая стран СНГ) и отечественных ученых и экспертов (смотрите Рис.1). Ниже мы дадим краткий обзор их выводов на этот счет.

Американские эксперты Майкл Бромберг, Кэти Миллер и Сюзанна Квилхог пришли к выводу, что, страны, стремящиеся уменьшить влияние

доллара на свою экономику, могут применять различные подходы. Чтобы выйти из – под влияния доллара, Центральным банкам нужна альтернативная резервная валюта, которая по – прежнему позволить им поддерживать местную финансовую систему и участвовать в международной торговле. По их мнению, тогда возникает ключевой вопрос: какие другие валюты, если таковые имеются, подходят центральным банкам для хранения в качестве официальных резервов? Традиционными альтернативами доллару являются евро, йена и британский фунт стерлингов. Однако, как они отмечают, эти валюты не увеличили долю в резервных ассигнованиях пропорционально снижению курса доллара[1].



Рис.1 – Основные тезисы представителей различных школ по снижению долларизации

По словам бразильского эксперта Пауло Ногейры Батисты: “Дедолларизация или снижение долларизации стало актуальной темой с 2022 года, когда Соединенные Штаты и европейцы решили заблокировать значительную часть международных резервов России в ответ на вторжение в Украину. Западные официальные лица и эксперты традиционно читают лекции развивающимся странам о необходимости проведения политики “укрепления доверия” и уважения прав собственности. Оглядываясь назад, можно сказать, что это действительно удивительно. Замораживание российских активов и недавние угрозы перейти к прямой конфискации являются серьезными шагами по “подрыву доверия”, которые наносят огромный ущерб доллару США и евро. Эти действия вызвали тревогу у таких стран, как Китай, являющийся крупным держателем облигаций в долларах

США как части своих международных резервов. Любая страна, испытывающая конфликты с США и остальным Западом, немедленно осознавала, что необходимы шаги по снижению зависимости от доллара США и западной финансовой системы. Во многих частях мира активизировались усилия по использованию национальных валют в международных транзакциях, по созданию или укреплению альтернативных платежных систем, по большей опоре на китайский юань и даже по созданию новой базовой валюты БРИКС. Бесспорно, то, что мы видели, является серъёзным ударом, нанесенным самим себе США и Европой”[2].

По словам Российских ученых Хоботовой С. Н. и Долгоноса И. Н., в условиях глобализации валютная политика и определенный уровень долларизации отдельных государств и интеграционных объединений играют важную роль, оказывая влияние на развитие национальной экономики, инфляции, структурқ платежного баланса, внешней торговли, других аспектов макроэкономики и результатов деятельности интеграционных союзов, в частности ЕАЭС. Им было выяснено, что к основным факторам, влияющим на уровень долларизации национальных экономик, в том числе в странах – членах ЕАЭС, можно отнести: не всегда контролируемы и высокий уровень инфляции; сложившиеся различие в процентных ставках по депозитам и кредитам в национальной и иностранной валюте; волатильность валютного курса; недостаточная развитость финансового рынка, его инфраструктуры и институтов; низкая диверсификация экономик и неоптимальная структура товарных и инвестиционных потоков; политическая нестабильность в ряде стран и девальвационные ожидания агентов рынка[3].

По мнению Беларусского ученого Теляка Оксаны, среди негативных причинно – следственных связей, сопровождающих долларизацию, можно выделить следующие: невозможность обеспечить полный финансовый суверенитет страны; отсутствие контроля за денежным обращением и денежной массой; сложности проведения суверенной монетарной политики и снижению эффективности ее инструментов; отсутствие стабильности на финансовом рынке страны; общая экономическая и монетарная нестабильность; нарастание инфляционных и девальвационных тенденций, в негативном варианте формирующихся в инфляционно – девальвационную спираль; рост теневого сектора экономики (который составляет около трети ВВП Республики Беларусь по внешним и внутренним экспертным оценкам); снижение доверия экономических агентов к проводимой государством экономической политике, финансово – банковской сфере; валютное таргетирование (фиксированный обменный курс национальной валюты на иностранную); слабость национальных институтов и т.п [4].

По словам Тимура Ишметова, местного эксперта (первого заместителя советника Президента Республики Узбекистан), долларизация в экономике является результатом прежней экономической политики, отсутствия доверия населения по отношению к национальной валюте. Он подчеркивает, “что многочисленные валютные ограничения, в целом ограничения на обращение денег, привели к тому, что все экономические агенты максимально

накапливали деньги в долларах, привлекали долларовые долги и осуществляли операции в долларах. Причина в том что это надежно и удобно". Тимур Ишметов сделал вывод, что высокая инфляция стимулирует бизнес и население проводить расчеты в иностранной валюте[5].

Подводя итог, из взглядов и подходов зарубежных и отечественных ученых и экспертов можно понять, что долларизация может в некоторой степени ограничить суверенитет экономики стран, и поэтому важно сосредоточиться на её снижении.

Снижение уровня долларизации является важным условием обеспечения устойчивости банковско-финансовой системы Узбекистана на пути к зеленой экономике. Это позволит повысить эффективность денежно-кредитной политики, укрепить доверие к национальной валюте и создать благоприятные условия для привлечения внутренних инвестиций. Комплексный подход к снижению долларизации способствует формированию более стабильной и устойчивой финансовой среды, необходимой для успешного перехода к экологически ориентированной экономике.

Список литератур

Michael Bromberg, Katie Miller & Susanne Kvilhaug. De - dollarization: What Is It, and Is It Happening? August 16, 2023. www.investopedia.com

Paulo Nogueira Batista Jr. The BRICS and the Challenge of De – Dollarization // A Journal of Contemporary Chinese Thought "Wenhua Zongheng". The BRICS and De – Dollarization: Opportunities and Challenges. May 2024 | Vol. 2, No. 1. Pages 4 – 8.

Хоботова С. Н., Долгонос И. Н. Проблемы расчета и инструменты снижения долларизации в государствах – членах ЕАЭС // Вестник Омского университета. Серия «Экономика», - 2021. – Т.19, №1. – С. 20 – 31.

Теляк Оксана. Дедолларизация экономики как одна из важнейших задач финансовой политики Республики Беларусь. // Материалы международной научно – практической конференции «Финансовая политика регионального развития: отечественный и зарубежный опыт». 10 - 11 октября 2019 г. Житомир: Житомирский национальный агроэкологический университет, 2019. Стр. 62 – 65.

Тимур Ишметов. Иқтисодиётдаги долларлашув аввалги иқтисодий сиёсатнинг натижаси. 7 октябрь 2023 йил. www.zamin.uz

БАНК - МОЛИЯ ТИЗИМИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Хайитматов У.Т. – КМОСТИ доценти
Собиров А.А. – ИСФИ декани, доценти
Азаматов А.Х. – ИСФИ доценти

Сунъий интеллект (СИ) банк соҳасида транзакцион харажатларни камайтириш ва оптималлаштириш, мижозлар ва сотувчиларни жалб қилиш,

сотишни кўпайтириш, реклама ва маркетингни яхшилаш учун ишлатилади. СИ турли хил тизимларнинг автоматлаштирилган ишлашини таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Банк сохасидаги сунъий интеллект тизимларининг учтасини кўриб чикамиз: чат-ботлардан тортиб то тўлиқ рақамли банкларга қадар, тавсиялар этиш тизимлари ва аудит тизимлари.

Нима учун банк тизимларига сунъий интеллектни қўллаш керак деган савол туғилади. Банк сохасига сунъий интеллектни (аниқроғи машинали ўқитиш усулларини) қўллаш бир нечта сабабларга эга. Буларга қуйидагилар киради:

* Банк операцияларининг тезлиги ва аниқлиги
* Капитал рентабеллилигини ошириш учун операцион харажатларни камайтириш
* Банклар 24/7 режимида ишлаши

Фойдаланувчилар тизимда бўлганлиги сабабли, ўзларининг шарҳларини қолдиради, маълум бир хизматлардан фойдаланишади, бу эса керакли маълумотларни тўплашга ва шу билан банк тизимининг ишини яхшилашга ёрдам беради.

Сунъий интеллект соҳасидаги ютуқлар туфайли кўплаб банклар ўз сафларини чат-бот билан тўлдирмоқдалар. Чат-ботларнинг мулоқот услуби тобора кўпроқ ҳақиқий инсон қандай ёзишига ўхшаш бўлиб бормоқда. Чат-ботлардан фойдаланишнинг афзаллиги шундаки, банклар узоқ вақт давомида қўшимча вақтларсиз, яъни йил давомида 24/7 режимида ишлаши мумкин. Яна бир ижобий жиҳати шундаки, чат-ботлар бир вақтнинг ўзида бир нечта мижозлар маълумотларини бир хил аниқлик билан қайта ишлашлари мумкин.

OSP ички аудит учун тезроқ ва самаралироқ ишлайдиган "аудиторлик ечимларида СИ" махсус дастурини ишлаб чиққан. Уларнинг ақлли ёрдамчиси бухгалтерия ҳужжатлари учун бир қатор вазифаларни бажаради. Бу вазифалар ўз ичига аудит ҳисоботларни, аудитни режалаштириш тизимларини, интеллектуал маълумотлар ва ҳисоботларни текширишни олади.

Яна бир қизиқарли "банкларни келишиш булути" деб номланган инструментни HighRadius томонидан таклиф қилинган. У банк операцияларини операцион ва операцион бўлмаган пул тоифаларига автоматик равишда таснифлаш орқали ҳисобларнинг кунлик ёпилиши аудитини олиб боради. Ушбу интеллектуал ёрдамчи SAP, Oracle, MS Dynamics ва бошқалар каби ERP тизимлари билан интеграцияни қўллаб-қувватлайди.

Тавсия этиш тизимлари. Сунъий интеллект банкларга шахсий таклифларни шакллантиришга ёрдам беради. Банклар жисмоний шахслардан тортиб то ташкилотгача бўлган кўплаб мижозлар билан ишлайди. Анъанавий банклар хусусий мижозларини йўқотмоқдалар, чунки жисмоний шахсларнинг сармоя имкониятлари камайиб бормоқда ва пандемия пайтида тобора кўпроқ инсонлар сармоя киритишни бошладилар.

Уларнинг асосий муаммоси шундаки, банкда юз минглаб мижозлар бўлиши мумкин ва индивидуал таклифларни тайёрлаш кўп вақт талаб қиладиган ва қиммат ёндашувдир. Аммо сўнгги технологиялар туфайли банклар энди ҳар бир мижознинг молиявий хатти-ҳаракатларини таҳлил

қилиш учун сунъий интеллект имкониятларидан фойдаланишади.

Маълум бир компаниялар маълумотларга асосланган шахсий таклифларни қидиришда банкларга ёрдам беришади. Мисол учун, CrayOnData - бу банкларга шахсий таклифлар учун платформаларни ишлаб чиқишда ёрдам берадиган бир компанияга мисол. Бундан ташқари, Optimizely ва Maya AI компаниялари ҳам бор, улар ҳам бу масалани ечишга катта ҳисса қўшмоқдалар.

Айтиш мумкинки, Python сунъий интеллект тизимларини яратиш ва Data Science масалаларини ечишда энг машҳур дастурлаш тилларидан бири хисобланади. Python - бу ўзининг чат-ботлари, аудит ва тавсиялар тизимларини ёзиш учун кўплаб машинали ўқитиш кутубхоналарига эга бўлган осон ўрганиладиган тил ҳисобланади.

Банкларда сунъий интеллект қандай қўлланилади? Маълумки стандарт банк хизматлари банк ташкилотлари мижозлари орасида камроқ оммалашмоқда. Унинг ўрнига депозитлар, кредитлар ва бошқалар бўйича индивидуал таклифлар киритилмоқда. Бу вазифани сунъий интеллект ёрдамисиз амалга ошириш жуда қийин. Рақамли фикрлаш ёрдамида баъзи банклар битта маҳсулот учун 20 дан ортиқ таклифларни ишлаб чиқишга муваффақ бўлишди. Агар дастлаб профессионал ходимларнинг бутун жамоаси ривожланиш билан шуғулланган бўлса, энди СИ бу вазифани бажаради. Натижада ижро муддатлари сезиларли даражада қисқаради, меҳнат ва молиявий харажатлар тежалади.

Статистикага кўра, бугунги кунда деярли ҳар бир инсон ижтимоий тармоқларда бир нечта аккаунтларга эга. Сунъий интеллектдан фойдаланиш фойдаланувчининг шахсий маълумотларини таҳлил қилишга ва тўпланган маълумотлар асосида маълум бир ноёб таклифни ишлаб чиқишга ёрдам беради. Ривожланишнинг ушбу босқичида мавжуд потенциалнинг 10% дан кўп бўлмаганидан фойдаланилганига қарамай, яқин келажакда банк тизимларининг ишлаши юкни сезиларли даражада камайтириши мумкин.

Баъзи банк тузилмалари томонидан чат-ботлардан фойдаланиш ёрқин мисолдир. Агар илгари, муаммоли вазиятларда мижоз банкка қўнғироқ қилиши ва ходимлар билан шахсан мулоқот қилиши керак бўлса, энди робот билан алоқа ўрнатиш орқали ўзларининг қизиқарли саволларига тўлиқ жавоб олиши мумкин. Сунъий интеллект фойдаланувчига керакли маълумотларни тақдим этади, ҳисобнинг ҳолати, давом этаётган акциялар ва фойдали таклифлар тўғрисида маълумот беради. Бундай алоқа нафақат телефон орқали, балки СМС-ёзишмалар, онлайн чат, мессенжер орқали ҳам амалга оширилиши мумкин.

Замонавий жаҳон иқтисодиётида бизнес янада технологик бўлиб бормоқда, бизнес жараёнларини автоматлаштириш ва роботлаштиришга талаб ортиб бормоқда. Молиявий соҳада ушбу тенденциялар аниқ намоён бўлади. Мижоз учун курашда банклар ўз хизматлари ва маҳсулотларини мижоз учун иложи борича мослаштирилган ва қулай қилишга интилишади ва сунъий интеллект эса бу каби муаммоларни ҳал қилиш учун мўлжалланган технология хисобланади. Шунинг учун яқин келажакда ушбу технология банк

секторида бошқариш ва фаолият кўрсатиш тамойилларини тубдан ўзгартириши кутилмоқда. Ривожланишнинг ҳозирги босқичида сунъий интеллект нафақат тилни тушунишни, балки ўрганиш ва фикрлаш қобилиятини ҳам ўз ичига олиши мумкин.

Инсон онгининг сунъий интеллект билан глобал интеграциясининг универсал кенг кўламли жараёнига етиб келиши, суньий интеллект чексиз тезликка ва эволюция кўламига, жуда катта миқдордаги маълумотлар билан тезда ишлашга, мукаммал хотира ва кўп вазифаларни бажариш қобилиятига қодирдир.

Бугунги кунга келиб сунъий интеллект технологиялари анча олдинга қадам қўйишга муваффақ бўлди. Сунъий интеллект – бу ўзига хос хусусиятга эга бўлган бир қатор алгоритмлар ва дастурий таъминот тизимлари бўлиб - улар баъзи муаммоларни ҳал қилиш ҳақида ўйлайдиган инсон бажарадиган ишларни ҳал қилиш қобилиятига эга. Шуни таъкидлаш керакки, ахборот ва интеллектуал технологиялар жиҳатидан юқори даражада ривожланган ҳар қандай давлатнинг молиявий-иқтисодий соҳаси анъанавий равишда нафақат маълумотларнинг катта массивларига, балки уларни юқори аниқликдаги қайта ишлаш имкониятларига ҳам таянади.

Банк муҳитида сунъий интеллектдан фойдаланиш истиқболлари қуйидагиларда намоён бўлади: молиявий ва иқтисодий тизимларда, хусусан банк соҳасида иштирок этадиган сунъий интеллект- бу интеллектуал тизим, банк соҳасида рақамли маълумотларнинг махсус воситаси бўлиб, унинг якуний мақсади - бу замонавий сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали банк бизнеси самарадорлигини ошириш имкониятидир.

Бугунги кунда сунъий интеллект энг истиқболли молиявий технологиялардан бири хисобланади. Мутахассисларнинг фикрига кўра, кейинги беш йил ичида сунъий интеллект тизимларининг жорий этилиши туфайли банк хизматларида кенг кўламли ўзгаришлар юз беради. Сунъий интеллект банкларга жараёнларни автоматлаштиришга ва мижозларга хизмат кўрсатиш сифатини яхшилашга ёрдам беради, шунингдек инсон омилининг таъсирини ва йўл қўйилган хатолар сонини минималга олиб келади; сунъий интеллект ёрдамида амалга ошириладиган технологик жараёнлар харажатларнинг пасайишига олиб келади.

Албатта, инсонни тўлиқ алмаштириш мумкин бўлмайди ва яқин келажакда биз бутунлай сунъий интеллект назорати остида бўлган банк тизимларини кутмаслигимиз керак. Ҳозирги вақтда молиявий, иқтисодий ва банк муҳитида иштирок этадиган сунъий интеллект соҳасида муҳокама қилинадиган мавзулардан бири чат-ботларни ёки маслаҳатчи-ботларни тадбиқ қилиш хисобланади. Бир неча йил олдин, банк мижози, муаммоли вазият юзага келганда, қўнғироқ қилиб банк ходими билан ўзини қизиқтирган масалалари бўйича мулоқот қилган. Аммо бугунги кунда ҳаммаси бошқача, кўплаб молия -кредит ташкилотлари чатбот тизимига ўтишни бошладилар.

Мижоз, шунингдек, тегишли телефон рақами орқали тижорат ташкилотига қўнғироқ қилади, аммо фақат барча керакли маълумотлар хамда хизматлар тўғрисида айтиб берадиган робот билан алоқа амалга оширилади.

Юқорида айтиб ўтилган чат-ботларни тизимга киритган биринчи компания Barclays Africa эди. Ушбу чат-бот фойдаланувчиларнинг банк ва унинг хизматлари ҳақидаги саволларига жавоб бера олади. Ҳозирги вақтда замонавий Россия банк тизими мижозлар билан ўзаро алоқада бўлиш ва истеъмолчилар эҳтиёжларига мослашиш учун сунъий интеллектдан фойдаланадиган ўз банк дастурларини ишга тушириш билан тавсифланади.

“Сбербанк” Давлат Акциядорлик Компанияси (ДАК) фаолияти катта эътиборни жалб қилади. Сбербанк ўзининг ҳар бир жараёнига сунъий интеллектни қўллашга интилмоқда, шунингдек ушбу технологияни бизнеснинг барча соҳаларига тарқатишни режалаштирмоқда. Бундан ташқари, банк раҳбарияти 2018 йилдан Сбербанкдаги жисмоний шахсларга бериладиган кредитларнинг аксарияти сунъий интеллект ечимлари асосида берилишини амалга оширмоқда. Ушбу мақсадлар учун синов ўтказилади, унинг доирасида инсонлар машинанинг ишлаш сифатини баҳолаш учун қарорлар қабул қилишади. Сбербанк бошқа банклардан кўп жиҳатдан, айниқса рақамли соҳада фарқ қилади.

Замонавий банк соҳасида сунъий интеллектдан фойдаланиш имконияти, маълум тўсиқларнинг мавжудлиги билан ажралиб туради, бу биринчи навбатда амалдаги қонунчилик доирасида истеъмолчиларнинг ишонч даражаси ва сунъий интеллект доирасини тартибга солиш даражасини ўз ичига олиши керак. Бироқ, ушбу тўсиқларни енгиб ўтиш мумкин: амалдаги қонунчиликнинг меъёрий-ҳуқуқий базаси статик бўлиб қолмайди, у ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий - молиявий фаолиятнинг барча янги соҳаларига мослаштириб ўзгартирилмоқда.

Сунъий интеллектдан фойдаланувчи банк тизимларининг якуний маҳсулотига истеъмолчиларнинг ишонч даражасига келсак, шуни таъкидлаш керакки, тижорат банклари бундай маҳсулотларни аста-секин жорий этадилар; якуний истеъмол бозорига чиқишдан олдин бундай хизмат батафсил синовдан ўтказилади ва ундаги хатолар текширилади. Турли хил молиявий воситаларни банк муҳитининг охирги фойдаланувчисининг афзалликларига мослаштиришга ёрдам берадиган мижозларга хизмат кўрсатиш сунъий интеллектни нафақат банк ва молиявий муҳитда, балки молиявий ва иқтисодий соҳаларда ҳам қўллашнинг асосий йўналишларидан биридир.

Айтиш мумкинки, ҳозирги вақтда банклар энг замонавий илғор технологияларни ўзлаштиришга мажбур бўлмоқдалар, уларнинг асосийси сунъий интеллектдан фойдаланишдир. Ушбу технологияни ўзлаштириш ва уни қўллаш харажатлари юқори бўлишига қарамай, тижорат банкининг стратегик ривожланиш тизимида зарурий йўналиш ҳисобланади. Замонавий технологиялар жадал ривожланмоқда, шунинг учун бу йўналишдаги ишлар келажакда рақобатбардошликнинг зарур даражасини таъминлайди.

IHS Markit ҳисоботига кўра " банк фаолиятида сунъий интеллект" учун харажатлар ўсади ва 2030 йилга келиб 300 млрд.долларга етади, деб прогноз қилинмоқда. Бу шуни кўрсатадики, сунъий интеллект молия секторида қўллаш учун арзон ва самарали бўладиган даражага етди. Тадбиркорлар янги молиявий технологиялар ҳақида қанчалик кўп билишса, улар банк соҳасидаги

даромадли инвесторлар ва харидорларни жалб қилиш учун мўлжалланган технологик стартапларни яратишга тайёр бўлишади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда банк сохасида Россиянинг “СБЕР” гуруҳи билан сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича ҳамкорлик йўлга қўйилмоқда. Хусусан, фуқароларга мобил телефонлар орқали масофавий хизматларни олиш имконини берадиган овозли биометрия технологиясини жорий этиш режалаштирилмоқда. Бундан ташқари, юз орқали (Face ID) биометрик идентификацияни жорий этиш ҳам режалаштирилган. Сунъий интеллект кредит рискларини таҳлил қилишга ва банк хизматлари сифатини яхшилашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Салаев Р. (2024). Исследование развития цифровых валют центральных банков: анализ мирового опыта и прогнозы. Молия ва банк иши, 10(2), 1-6.

Салаев Р. (2024). Исследование предоставление займов под залог криптовалюты и перспективы их запуска банками. Молия ва банк иши, 10(2), 64-68.

Салаев, Р. Ш. (2024). Цифровой сум необходим для контроля бюджета и предотвращения нецелевого расходования государственных средств. Рақамли иқтисодиёт (Цифровая экономика), (8), 632-640.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ ИНВЕСТИЦИОН СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА БАНКЛАРНИНГ ЎРНИ

Кодирова Ш.М.

ЎзР БМА, магистранти

Дунё бўйича рўй бераётган глобал иқлим ўзгаришлари, ҳаво ҳароратининг кўтарилиши, Орол денгизининг қуриши, салбий метеорологик жараёнларнинг такрорланиши, ер ҳамда сув ресурсларни танқислиги, биологик хилма-хилликнинг қисқариши, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси генофондининг ёмонлашуви – булар барчаси иқтисодиётда саноат ва маиший чиқиндиларнинг кўпайиб бориши, таъбий ресурслардан самарасиз фойдаланиши экологик муаммоларнинг кундан-кунга чуқурлашиб бораётганлигидан далолат бермоқда.

Мамлакатда экологик хавфсизликни таъминлаш, юзага келаётган экологик муаммоларни изчиллик билан ҳал этиш ҳамда иқтисодий тараққиётни таъминлашда жамиятнинг барча кучларини бирлаштиришга йўналтирилган давлат сиёсатини ва шу билан бирга инвестицион сиёсатни банкларнинг фаол иштироқида амалга ошириш долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев - «Бутун дунёда бўлгани каби мамлакатда ҳам экологик муаммолар кўпаймоқда. Бунга баъзан табиий омиллар, кўп ҳолларда эса инсоннинг ўзи сабабчи бўлмоқда» - дея таъкидлади. Масалан, сўнгги тўрт йилда саноат корхоналарининг сони икки бараварга ортиб, шаҳарларда чанг-газ миқдори меъёрдан тўрт баравар ошган.

«Юртимиз ҳудудларида яшил майдонлар 3-4 бараварга қисқариб кетган. Сув камайиб, ер ости суви сатҳи ҳам пасайганлигини» алоҳида таъкидлаш жоиз (Мирзиёев, 2021)

«2020 йилда Ўзбекистонда атмосферага чиқарилган ифлослантирувчи моддалар миқдори 924,4 минг тоннани ташкил этди. Энг юқори улуш Тошкент ва Қашқадарё вилоятларига тўғри келган»лигини кузатиш мумкин (ДСА, 2021).

Юқорида билдириб ўтилган фикрлар шуни асослайдики, давлат томонидан олиб борилаётган сиёсатни янада кучайтириш ва бу соҳага киритиладиган молиявий ресурсларнинг хажмини ва самарасини ошириш зарурлигини билдиради. Маълумки, яшил иқтисодиётни ривожлантиришга қаратилган амалий ва илмий фаолиятни самарали молиялаштириш молиявий институтларнинг молиявий-техник имкониятларига, шу жумладан тижорат банкларнинг фаол иштироқигқ боғлиқ ҳисобланади.

Барча илғор мамлакатлар қаби, Ўзбекистон ҳам келгуси авлод учун экологияни сақлаб қолиш мақсадида “2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси”ни тасдиқлаш тўғрисидаги № 4477-сонли Ўзбекистон Республика Президентининг Қарори қабул этилди.

Ўзбекистоннинг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясида мамлакатни 2030 йилгача бўлган даврда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бошқа истиқболли масалалрни изчилик билан амалга ошириш ва амалиётга жорий этишни қўллаб-қувватлашга қаратилган.

Regulatory Reforms: Adopt a Green Loan Classification System (mirroring EU Taxonomy) by 2025. Mandate annual sustainability reports for banks with >$50 million in assets. Capacity Building: Launch a Green Finance Training Hub with World Bank support, targeting 1,000 bankers by 2026. Incentivize Investment: Offer 5-year tax holidays for green bond issuances and state-backed loan guarantees for SMEs. Pilot Projects: Scale blended finance in cotton farming, leveraging the World Bank's $80 million Sustainable Cotton Initiative (Karimov, 2023).

Conclusion

The World Bank's green project management strategies offer a comprehensive roadmap for Uzbekistan's transition to a sustainable economy. By leveraging innovative financial instruments, digital tools, and multi-stakeholder collaborations, Uzbekistan's banking sector can play a crucial role in fostering green investments. However, challenges remain, including regulatory ambiguities, limited institutional expertise, and market hesitancy toward green projects. To address these issues, a well-structured policy framework is necessary.

Uzbekistan's policymakers should prioritize regulatory reforms, including standardized green finance taxonomies and mandatory sustainability disclosures. Commercial banks must engage in capacity-building initiatives to strengthen ESG compliance and risk assessment expertise. Furthermore, strategic public-private partnerships and digital solutions, such as blockchain-based transparency mechanisms, can ensure accountability and efficiency in green financing. By implementing these recommendations, Uzbekistan can align its financial sector with global sustainability trends, attract international investments, and establish itself as a leader in green finance within Central Asia. The World Bank's experiences serve as a valuable guide, offering insights into best practices that can be adapted to Uzbekistan's unique economic and environmental context.

References:

- Asian Development Bank (ADB) (2023) Green Growth and Finance Strategies in Asia. Manila: ADB.

- Central Bank of Uzbekistan (2022) Annual Report on Banking Sector Capacity. Tashkent: Central Bank of Uzbekistan.
- European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (2023) Sustainable Finance in Emerging Markets. London: EBRD.
- Global Climate Fund (GCF) (2020). *Strengthening Institutional Capacity for Green Projects.* Seoul: GCF Reports.
- Government of Uzbekistan (2021) Uzbekistan Strategy 2030: Sustainable Development Goals. Tashkent: Ministry of Economic Development.
- International Finance Corporation (IFC) (2022) Climate Investment Funds: Impact and Outcomes. Washington, DC: IFC.

INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH

Qodirova Halimaxon Farhodbek qizi,
"Axborot tizimlari va texnalogiyalar" 3-kurs,
Talaba,Andijon Davlat Texnika Instituti

XXI asrda raqamli texnologiyalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, moliya va boshqa sohalarga jadal suratda kirib kelmoqda. Global ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot — resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga minimal zarar yetkazish va barqaror rivojlanishni ta’minlashni nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni jadallashtirishda muhim vosita bo‘lib, ularning samaradorligi turli mamlakatlarning tajribasi orqali isbotlangan.

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va yashil moliyalash tizimini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu tadqiqotda innovatsion texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi o‘rni va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash istiqbollari tahlil qilinadi.

Zamonaviy dunyoda innovatsion texnologiyalar va yashil iqtisodiyot bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot natijasida insoniyat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik muammolarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yashil iqtisodiyot esa barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ushbu maqsadlarga erishish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda eng asosiy vazifa energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishdir. Bu jarayonda sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things – narsalar interneti), blokcheyn, aqlli tarmoqlar, raqamli moliyalash platformalari va boshqa innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynamoqda.

Birinchi navbatda, **raqamli texnologiyalar orqali energiya samaradorligini oshirish** masalasi muhim ahamiyatga ega. Hozirda ko‘plab davlatlarda sanoat korxonalari va uy xo‘jaliklarida aqlli energiya tizimlari joriy etilmoqda. Bu tizimlar IoT texnologiyalari orqali real vaqt rejimida energiya iste’molini kuzatib borish, ortiqcha sarfiyatning oldini olish va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Masalan, zamonaviy “aqlli elektr tarmoqlari” (smart grids) elektr energiyasining yetkazib berilishini avtomatlashtiradi va iste’molni talabga mos ravishda taqsimlash orqali samaradorlikni oshiradi. O‘zbekistonda ham energiya ta’minoti tizimida bunday innovatsion texnologiyalarni qo‘llash istiqbollari mavjud bo‘lib, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishda ularning ahamiyati katta.

Ikkinchidan, **blokcheyn texnologiyasi yashil iqtisodiyotda shaffoflik va ishonchlilikni ta’minlash vositasi sifatida e’tirof etilmoqda**. Mazkur texnologiya ekologik loyihalarni monitoring qilish, uglerod kreditlari tizimini rivojlantirish va yashil investitsiyalarni jalb etishda qo‘llanilishi mumkin. Blokcheyn asosida yaratilgan platformalar investorlar va iste’molchilarga loyihalarning real natijalari haqida aniq ma’lumot taqdim etib, korruptsiyaning oldini oladi va ekologik tashabbuslarni rag‘batlantiradi. Xususan, AQSh va Yevropa davlatlarida yashil obligatsiyalar bozori blokcheyn asosida yuritilayotgani bu sohadagi ilg‘or tajribalardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, **sun’iy intellekt va IoT texnologiyalari resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi**. Sun’iy intellekt algoritmlari orqali sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya sarfini optimallashtirish mumkin. Masalan, aqlli sensorlar yordamida suv ta’minoti tizimlarida suv sizib chiqishining oldini olish yoki qishloq xo‘jaligida suvni faqat zarur bo‘lgan joylarga taqsimlash orqali tejamkorlikka erishish mumkin. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishida chiqindilarni qayta ishlash va uglerod chiqindilarini kamaytirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, **aqlli shahar konsepsiyasi yashil iqtisodiyotga asoslangan infratuzilmani rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi**. Aqlli shaharlar ekologik toza transport tizimlari, energiya tejamkor binolar va avtomatlashtirilgan chiqindi boshqarish tizimlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda ham Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarni aqlli shahar modeliga o‘tkazish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, zamonaviy transport tizimlarida elektr avtobuslar va elektrokarlarni kengaytirish orqali atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda.

Beshinchidan, **raqamli moliyalash tizimlari yashil investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi**. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash juda muhim bo‘lib, bu jarayonda fintech kompaniyalari va raqamli bank xizmatlari o‘ziga xos rol o‘ynamoqda. Raqamli platformalar orqali yashil kreditlar ajratish, ekologik loyihalarga investitsiyalar jalb qilish va yashil obligatsiyalar chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda. O‘zbekistonda ham moliya institutlari tomonidan yashil loyihalarni moliyalashtirishga oid mexanizmlar ishlab chiqilmoqda va bu sohada xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda.

Umuman olganda, innovatsion texnologiyalar va yashil iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi omillar bo‘lib, ularning uyg‘unligi kelajak iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash orqali bu jarayonni tezlashtirish mumkin. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin. Raqamli texnologiyalar energiya samaradorligini oshirish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni optimal boshqarish imkonini beradi. Shu bois, O‘zbekiston hukumati va biznes subyektlari innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha strategik dasturlarni ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” – 2023 yil.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ma’lumotlari – yashil moliyalash va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha hisobotlar.

Harvard Business Review – “Digital Transformation for Sustainable Development” maqolasi, 2022 yil.

Blockchain for Green Finance (2021) – xalqaro tajribalar asosida ekologik investitsiyalar bo‘yicha tadqiqotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.

IMPROVEMENT OF THE REMOTE BANKING SYSTEM THROUGH THE DEVELOPMENT OF RETAIL OPERATIONS IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Quybaqova Mohiniso Zokirjon qizi
Master of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

In the following years, commercial banks of the republic, developing retail operations, are trying to increase the range of services provided to their clients and diversify their activities. To this end, banks are actively implementing electronic service technologies such as remote management of their accounts through ATMs, mobile phones and the Internet. By introducing remote banking services, the credit institution, in addition to traditional operations, introduces new banking products that more fully and efficiently meet the needs of customers. But this is not enough, because in the era of rapid development of information technologies of the 21st

century, there are a number of problems related to real-time banking operations that are still waiting to be solved.

The current offer of banking services does not lag behind other types of services, such as increased access to financial information, increased transparency, fast transaction processing, provision of remote services, reliable identification methods and better services to meet the needs of customers for the convenience of their lives. This is stated in the decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 12, 2020 №.PF-5992 "on the strategy for reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025". Improving the efficiency of the banking system through the modernization of banking services, the creation of effective infrastructure and automation of banks, as well as the phased abolition of functions not inherent in banking, the comprehensive transformation of commercial banks with a state share, the introduction of modern banking standards, information technology and software products, the introduction of remote banking services for the public and small businesses. widespread introduction of services, development of a network of inexpensive service points, as well as, to increase the popularity and quality of financial services by creating favorable conditions for the formation and development of non-bank credit institutions as a complementary part of the unified financial system of the republic, it is planned to develop a strategy for reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025.

The number of banking services, which are the main branch of the economic system, is growing day by day. The availability of remote provision of traditional banking services has opened a new era for banks to provide modern services. Currently, the banking services market functions as the best developing market in the financial market of Uzbekistan. The efficiency and competitiveness of banks' activities largely depend on the introduction of new banking products and services. Currently, there is not enough clear definition of the concept of "retail banking services market" in the modern economic literature. For example, authors such as S.V.Bichik and A.S.Damoratskaya argue that the "service market" refers to a market based on commodity-money relations for the sale of retail services.

The author A.N.Azrilian assumes that the market of services to the population is a set of relations (socio–economic, legal, material, financial) that arise between service providers-sellers, consumers and buyers. In the Belarusian economic literature, the concepts of "banking service" and "banking operation" often do not differ. For example, the following definitions are given: banking services - banking operations carried out on behalf of the client; banking services - direct banking operation for customer service (Azrillian, 2004).

Following M.S.Maramygin and A.V.Povarov, we understand retail banking as "a form of manifestation of banking services in specific product offerings on the market." Retail banking has a number of specific features: it functions as a process in which all participants of the retail banking market interact; the service shows the inseparability of production from consumption; is characterized by a long time; uses monetary and financial resources; requires a certain cultural and educational level of customers, and therefore additional targeted actions by banks in the form of their training.

The digitalization of financial institutions has fundamentally changed the ways we manage our financial transactions in personal and professional environments.

Also known as internet banking, online banking services are facilitated via mobile banking apps downloaded from your device's app store, or the bank's website.

You can perform the same actions than you would at a physical bank branch, including:

- View account information and bank statements
- View current account balance
- Transfer money to internal or external bank accounts
- Pay bills, manage direct debits
- Send money internationally
- Deposit checks

For those who travel frequently or live abroad, there are exclusively online banks with benefits like international flexibility, no fees on currency conversion or ATM withdrawals, and 24/7 online customer service.

As with traditional banks, most American online banks offer FDIC-insured checking accounts and savings accounts some with incentives like higher interest rates.

As a result of the work carried out to reform this area over the past three years, the capital of banks has increased 1.8 times, and the volume of annual lending has increased 2 times. 4 banks issued "Eurobonds" for the first time, which brought in $1 billion of resources from international capital markets. Mortgage Bank has attracted a strategic foreign investor. 13 new private banks have been created, and prestigious banks in Hungary, Kazakhstan and Georgia have started their activities in our country. The volume of online banking services has increased 2.7 times.

At the same time, competition in the banking sector is growing, and the demand of the population and entrepreneurs for banking services is growing. Accelerating the transformation processes in this area requires setting priorities for the coming years. In particular, proposals were made to prepare banks with a state share for privatization, issue their securities for an “IPO”, and attract experienced foreign specialists to the industry.

In conclusion The number of banking services, which are the main branch of the economic system, is growing day by day. The availability of remote provision of traditional banking services has opened a new era for banks to provide modern services. Modern banking services currently used in world practice are divided by their nature into credit, operational, investment, in addition, there are factoring services, leasing services, trust services, consulting and consulting services and information services. Remote banking is a set of services through which the bank's customers can perform the necessary operations in harmony, communicating through various means of communication, which allows them to be carried out without visiting the bank's office.

A number of banking products and services of banks can be distinguished from retail banking services. According to scientists, among them are transactions with personal accounts, lending, bank cards, various transfers, work with safe deposit

boxes, work with precious metals, work with foreign currency, preferential maintenance of utilities.

References

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 12, 2020 " On the strategy for reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025"No. PF-5992

S.V Bichik, A.SDamoratskaya. Dictionary of economic terms. - Mn.: University, 1998. 237p.-237p

Lukyanenko V.Z. Banking services for everyone // Banking Bulletin. - 2004. - No.13. - pp.10-13.

M.S Maramygin, A.V.Povarov The concept of a retail banking product URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-roznichnogo-bankovskogo-produkta.

MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA TIJORAT BANK SEKTORINING TABIATGA TA'SIRI

Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna
Oriental universiteti
Moliya va menejment kafedrasi dotsenti

Hozirgi kunda insoniyatning muammosi tabiatga mos kelajakni yaratishdir. Jahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2014-2023 yillar so'nggi 174 yil ichida kuzatilgan eng issiq yil bo'ldi . Iqlim o'zgarishi "inqiroz multiplikatori" bo'lib, qurg'oqchilik, suv toshqini va yong'in kabi ekstremal ob-havo hodisalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insoniyat jamiyatiga halokatli ta'sir ko'rsatadi va global iqtisodiyotning zaifligini oshiradi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun barcha manfaatdor tomonlar yashil, past uglerodli va barqaror rivojlanish yo'lidan borish uchun harakat qilishlari kerak. Ushbu o'tish jarayonida bank sektori ajralmas bo'lib, iqlim va tabiat kun tartibini ilgari surish uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilish vazifasi yuklatilgan. Biroq, ikkita muhim muammo saqlanib qolmoqda:

Muvofiqlashtirish talab etiladi. Barqarorlik va atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv maqsadlariga nisbatan siyosiy munosabatlar hali ham umumiy asosga erishilmagan, bu esa asosiy tafovutlarga olib keladi.

Barqaror o'tish uchun mablag' yetarli emas. Xalqaro moliya instituti ma'lumotlariga ko'ra, global hamjamiyat emissiyani nolga tenglashtirish uchun har yili 8 trillion dollar sarmoya kiritishi kerak, ammo o'tgan yilgi ko'rsatkich atigi 2 trillion dollarni tashkil etdi . Davlat sektori tafovutni bartaraf etish va xususiy sektor investitsiyalari uchun etakchilik qilishi kerak, moliya sanoati esa ko'proq resurslarni jalb qilishi kerak.

Iqlim o'zgarishining ta'siri kuchayib borar ekan, qazib olinadigan yoqilg'i loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq risklar ortib bormoqda. Tijorat banklari jiddiy risklarga duch kelishi mumkin:

Moliyaviy riskni ta’riflashda, “mohiyat” va “muhim xususiyat” kategoriyalari o‘zaro muqobil tushunchalar sifatida talqin etilmoqda, biroq ular o‘zaro aynan bir mazmun-mohiyat kasb etmaydi, bunday yondashuv ular bilishning o‘ziga xos turli darajalarda joylashganligi bilan izohlanadi. Hodisaning muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish ko‘pincha bilish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishning zaruriy dastlabki komponenti bo‘lib, bu formal mantiq qonuniyatlaridan foydalanishda o‘ziga xos daxldordik doirasini belgilash imkon beradi.Shu bois, “mohiyat” va “muhim xususiyat” kategoriyalarining etimologik jihatdan lingvistik o‘xshashligi asosida qat’iy xulosalar chiqarish mumkin emas. Hozirgi vaqtda risk iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida maqsadli o‘rganilmoqda. Shu nuqtai nazardan, riskning quyidagi ta’riflari mavjudligini keltirib o‘tish mumkin:

risk - bu potensial jihatdan ehtimollikka ko‘ra, yo‘qotish, xususan, loyiha(lar)ni amalga oshirish jarayonida voqea(hodisa) yuzaga kelishi oqibatida ehtimollikka ko‘ra, miqdoriy o‘lchash mumkin bo‘lgan noaniqlik sifatida tavsiflanadi.

i

s

k

sk-menejment bunday holatda moliyaviy risklarni har tomonlama baholash va ular bilan uzviy bog‘liqlik bo‘lgan hodisalar yuz berishi ehtimoliga ko‘ra, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar bartaraf etilishini ta’minlaydigan muyyan qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish hamda amalga oshirish metodlari va tamoyillari tizimini o‘zida aks ettiradi. Aynan shu samara teskari aloqani keltirib chiqaradi, bunda risk – menejmentning oste’moli, umuman, bir vaqtni o‘zida uni yangi darajada ishlab chiqarishning boshlanishi sanaladi, ya’ni bu o‘rinda yo‘qotishlarni minimallashtirish risklarni

lmiy tadqiqotlar tahlili, xususan, moliyaviy risklarni baholashda ko‘plab nazariy-metodologik muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Hozirga kunga qadar moliyaviy riskni umumiy va turg‘un tushunish, unga oid nazariy qoidalar aynan “risk” yaxlit, keng qamrovli aks ettirgan umumiy talqin yaratilmaganligi aniqlandi. Qator amaliy tadqiqotlarda mavzuning ma’lum bir jihatlari tadqiqi amalga oshirilgan bo‘lsada, amaliy jihatdan “moliyaviy risk” kategoriyasini baholashning yaxlit tizimli

- Korxonalar va jismoniy shaxslarni moliyalashtirishning asosiy ta'minlovchilari sifatida tijorat banklari iqtisodiyot ustidan sezilarli ta'sirga ega va ko'p jihatdan yanada barqaror kelajakka o'tishga yordam berishi mumkin:
- ***Qayta tiklanadigan energetika loyihalarini moliyalashtirish*** : shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirishni ta'minlash.
- ***Yashil kreditlar*** : energiya tejaydigan binolar va elektr transport vositalari kabi barqaror texnologiyalarga sarmoya kiritayotgan korxonalar va jismoniy shaxslarga kreditlar beradi. Ushbu kreditlar barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va qazib olinadigan yoqilg'iga bo'lgan talabni kamaytirishga yordam beradi.

- ***Innovatsiyalar*** : qazib olinadigan yoqilg'idan uzoqlashishni qo'llab-quvvatlaydigan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish. Masalan, banklar barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan yashil obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarni ishlab chiqishi mumkin.
- ***Risklarni boshqarish*** : iqlim bilan bog'liq risklarni risklarni boshqarish tizimlariga integratsiyalash va banklarni ham xuddi shunday qilishga undash. Bu banklarning kreditlash va investitsiya faoliyatida iqlim risklarini munosib baholashi va boshqarishiga yordam berishi mumkin.
- ***Tadqiqot va ma'lumotlarni o'rganish*** : iqlim o'zgarishining moliyaviy tizim va iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borish.
- ***Mavjud imkoniyatlarni oshirish*** : banklar va boshqa moliya institutlariga barqaror moliyaga o'tish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam berish uchun texnik yordam va salohiyatni oshirishda yordam ko'rsatish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida tijorat bank sektorining tabiatga ta’siri markaziy va tijorat banklaridan hamkorlik va innovatsiyalarni talab qiladi. Ilg‘or tajriba almashish va me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish orqali markaziy banklar tijorat banklarini barqaror moliyalashtirishga o‘tishda qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi, shuningdek, moliya institutlarini rag‘batlantiradi. Birgalikda ishlash orqali kutilayotgan moliyaviy risklarni boshqarishi, salohiyatni oshirishi va mintaqada barqaror rivojlanishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirzayarovich, M.M., & Shavkatovich, S.R. (2024). Tijorat banklarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish istiqbollari. International journal of scientific researchers (IJSR) Indexing, 5(2), 558-562.

S.V Bichik, A.SDamoratskaya. Dictionary of economic terms. - Mn.: University, 1998. 237p.-237p

Lukyanenko V.Z. Banking services for everyone // Banking Bulletin. - 2004. - No.13. - pp.10-13.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish eng asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Bu bo‘yicha ekologik tamoyillar asosida davlat xizmatlaridan foydalanish yo‘llari belgilangan va ulardan samarali foydalanishda banklar tomonidan iste’mol kreditini olishda chegirmalar taqdim etiladi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston - 2030 strategiyasini amalga

oshirish asosi bo‘lib hisoblanadi. Xususan, qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Farmonining 48-maqsadi sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solishga bag‘ishlangan. Unga asosan, “yashil energiya” sertifikatlarining emissiya hajmini 400 mingga yetkazish hamda korxona va banklarda “uglerod izi”ni qisqartirish bo‘yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali ishlab chiqarilgan har bir 1000 kVT/s elektr energiyasi uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, jumladan davlat ishtirokidagi korxona va banklarga “yashil energiya” sertifikatlarining emissiya hajmini 400 mingtaga yetkazish belgilangan [1].

Darhaqiqat, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari alohida o‘rin tutadi va bu borada ularning kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Kreditlardan foydalanishda ularning mijozi iste’molchilar bo‘lib hisoblanadi. Bu borada moliyaviy texnologiyalar qo‘shimcha tavakkal qilmasdan kam ta’minlangan iste’molchilarga kredit olish imkoniyatini kengaytirishga imkon berishi mumkin. Buning uchun kredit berish uslubi shaxsiy kreditlar samaradorligini tijorat banklari tomonidan olingan o‘xshash kreditlar bilan taqqoslashga asoslanadi [2].

Yashil iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun tijorat banklaridagi barcha muammolar bartaraf etilishi lozim. Xususan, bu borada tijorat banklari kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muammoli kreditlarni bartaraf etish lozim bo‘lib, bu orqali risklarni yashirish tadbirlarining oldi olinadi. Unga asosan, kredit ishi noto‘g‘ri tashkil etilgan va kreditga layoqatlilik tahlili samarasiz bo‘lsa, qarz oluvchining aybi yoki bankning aybi bilan muammoli kredit paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu kreditlar tashqi majburiyatlar, masalan, makroiqtisodiy beqarorlik, kontragentlar tomonidan shartnoma shartlarini bajarmaslik va hokazolar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Tijorat banklarida kreditlar bilan ishlash bankdagi kredit ishining barcha bosqichlarida, ya’ni qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish va kredit bo‘yicha oxirgi to‘lovni amalga oshirishgacha bo‘lgan bosqichlarda xodimlardan alohida yondashuvni talab qiladi.

Kreditlar bilan samarali ishlash muhim unsuri kreditlar bilan bog‘liq bo‘lgan xavflar yuqori miqdorini hisobga olgan holda mijozning kredit qobiliyatini tahlil qilishga asoslanadi. Kredit berilgandan so‘ng, qarz oluvchilar va ularning to‘lov intizomini kuzatib borish, kredit berish shartlari o‘zgarishi, kreditni yangilash amaliyoti, qarz oluvchi moliyaviy barqarorligining pasayishi, sotish hajmining noqulay o‘zgarishi, asosiy faoliyatdan pul oqimlari yetishmasligi, oylik to‘lovlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, tijorat banklarining kredit qarzlari bilan ishlash bo‘limi faoliyati kreditni to‘lashning eng samarali usulini tanlash mezoni bo‘lib hisoblanadi [3]. Tijorat banklarida kreditlarni to‘lashning eng ko‘p qo‘llaniladigan usullari samarali bo‘lmasligi mumkin. Ular tarkibiga kreditlarni autsorsingga kollektor agentligiga o‘tkazish yoki qarz oluvchilarga kredit talablarini sotish shaklida qayta qurish, qayta moliyalashtirish va kollektor agentliklari bilan hamkorlik qilish kabilar kiradi. Muddati o‘tgan kreditni to‘lashning ushbu usullari samara bermasa, kredit tashkiloti qarzni majburiy undirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni shakllanish taraqqiyotida tijorat

banklari kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun uning tarkibidagi muammolarni bartaraf qilish hisobiga qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu chora-tadbirlar banklar, kredit oluvchilar va davlat tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

Tijorat banklari uchun quyidagi yo‘nalishlardagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi:

1) Kreditlash jarayonini takomillashtirish:

- risklarni baholashning ilg‘or usullarini joriy etish: Ya’ni, kredit qobiliyatini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birgalikda biznes istiqbollari, sohadagi o‘zgarishlar va boshqa noaniq omillarni ham hisobga olish zarur.

- kredit monitoringini kuchaytirish: Kredit berilgandan so‘ng, mijoz faoliyatini muntazam ravishda kuzatib borish, moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni aniqlash va muammoli vaziyatlarda o‘z vaqtida choralar ko‘rish lozim.

- kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish: Turli mijozlar segmentlari va ehtiyojlariga moslashuvchan kredit mahsulotlarini taklif etish, masalan, startaplar uchun imtiyozli kreditlar, kichik biznes uchun mikrokreditlar, yirik korxonalar uchun investitsion kreditlar berish talab etiladi.

- raqamli texnologiyalarni joriy etish: Kreditlash jarayonini avtomatlashtirish, onlayn ariza topshirish va kredit olish imkoniyatini yaratish, mijozlar bilan masofaviy xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish lozim.

2) Xodimlar malakasini oshirish:

- kreditlash bo‘yicha mutaxassislarni o‘qitish: Risklarni baholash, moliyaviy tahlil, kredit monitoringi va muammoli kreditlar bilan ishlash bo‘yicha treninglar tashkil etish lozim.

- bank xodimlarining axborot savodxonligini oshirish: Zamonaviy texnologiyalar, raqamli banking va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirish kerak.

3) Shartlarni soddalashtirish va oshkoralikni ta’minlash:

- kredit shartlarini tushunarli tilda bayon etish: Mijozlar uchun murakkab moliyaviy terminlardan foydalanmasdan, oddiy va tushunarli tilda kredit shartlarini tushuntirish lozim.

- yashirin to‘lovlar va komissiyalarni bekor qilish: Kreditning haqiqiy narxini oshkor qilish, mijozlarni chalg‘itadigan yashirin to‘lovlardan voz kechish talab etiladi.

Shuningdek, kredit oluvchilar uchun quyidagi yo‘nalishlardagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi:

1) Biznes-rejalashtirish:

- puxta biznes-reja tuzish: Kredit mablag‘larini qanday ishlatish, qanday daromad olish va kreditni qanday qaytarish rejasini batafsil ishlab chiqish lozim.

- moliyaviy hisobotlarni yuritish: Daromad va xarajatlarni muntazam ravishda hisobga olish, moliyaviy ahvolni tahlil qilish va kelajakni prognoz qilish talab etiladi.

2) Moliyaviy savodxonlikni oshirish:

- kredit olishdan oldin o‘z moliyaviy imkoniyatlarini baholash: Kreditni qaytarishga qodir ekanlikka ishonch hosil qilish, oylik to‘lovlar biznes daromadi

qismini tashkil qilmasligiga e’tibor berish kerak.

- kredit shartlarini diqqat bilan o‘rganish: Foiz stavkasi, to‘lov muddati, penaltilar va boshqa shartlarni tushunish talab etiladi.

3) Kreditdan oqilona foydalanish:

- kreditni maqsadli ishlatish: Kreditni biznesni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ishlatish lozim.

- kreditni muddatida qaytarish: To‘lovlarni kechiktirmaslik va kredit tarixini buzmaslik kerak.

Xulosa shuki, yuqori tavsiyalarni amalga oshirish tijorat banklari kreditlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va aholining farovonligini oshirishga imkon beradi. Natijada, kreditlar bilan bog‘liq vaziyatni haqiqiy yaxshilash muddati o‘tgan qarzlar bilan ishlash usulini tanlash amalga oshiriladi. Bu bo‘yicha ushbu banklarda qarorlarni qabul qilish kredit portfelining muvozanatli tuzilishini ta’minlash va risklarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu esa yashil iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/7369703

Joseph P. Hughes, Julapa Jagtiani, Choon-Geol Moon. Consumer lending efficiency: commercial banks versus a fintech lender. // Hughes et al. Financial Innovation (2022), 8:38. – pp. 1-39.

Никифорова В.Д., Коваленко А.В., Никифоров А.А. Теоретические и практические аспекты работы коммерческих банков с проблемными кредитами. // Научный журнал НИУ ИТМО, Серия Экономика и экологический менеджмент, №3, 2019. - с. 99.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BANK TIZIMINING ISHTIROKI: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

Eshbekov Murodjon Uktamovich
Buxoro Davlat Universiteti talabasi

Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish global kun tartibining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga, iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy institutlar, xususan, tijorat banklari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bank tizimi yashil moliyalashtirish vositalari orqali ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Shunga qaramay, yashil moliyalashtirishning rivojlanishida qator muammolar mavjud bo‘lib, ular qatoriga huquqiy asoslarning to‘liq shakllanmagani, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi hamda ekologik loyihalarning uzoq muddatli daromadliligi bilan bog‘liq tavakkallar kiradi.

Ushbu maqolada bank tizimining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni, yashil moliyalashtirishning dolzarb muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot asosida taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Tahlil va natijalar

Yashil moliya jahon iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashuvchi asosiy vositalardan biri sifatida tan olinmoqda. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 1,6 trillion AQSh dollariga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 50% o‘sishni ko‘rsatadi . Ushbu obligatsiyalar asosan qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotida yashil moliyaviy mexanizmlarning qo‘llanilishi hali dastlabki bosqichda. 2022-yilda mamlakatda umumiy qiymati 500 million AQSh dollari bo‘lgan birinchi yashil obligatsiyalar chiqarildi. Bu loyihalar, asosan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishga yo‘naltirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu obligatsiyalar xalqaro investorlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi, chunki ularning rentabellik darajasi yuqori bo‘lib, ekologik ta’siri sezilarli.

Shuningdek, yashil moliyaning asosiy muammolari aniqlangan:

1. **Huquqiy va institutsional muhitning zaifligi** – ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda yashil moliyani rivojlantirish uchun zarur qonunchilik bazasi mavjud emas.
2. **Moliyaviy vositalar bozorining cheklanganligi** – yashil obligatsiyalar va kreditlar asosan yirik korxonalar uchun mo‘ljallangan, kichik va o‘rta biznes uchun bu imkoniyatlar cheklangan.
3. **Ma’lumotlarning yetishmasligi** – moliyaviy institutsiyalar ko‘pincha ekologik loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlarga ega emas.

O‘zbekistonda yashil moliya sohasidagi dastlabki qadamlar so‘nggi yillarda tashlandi. Hukumat tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) bilan hamkorlikda umumiy qiymati 300 million AQSh dollari bo‘lgan yashil obligatsiyalar chiqarishni boshladi. Ushbu mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya manbalari, xususan, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi uchun yo‘naltirildi.

- 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 4 ta yirik quyosh elektr stansiyasi va tonnadan ortiq karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining kamayishiga yordam beradi (O‘zbekiston Energetika vazirligi, 2023).

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi qaroriga binoan, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya tasdiqlandi. Ushbu hujjatda yashil moliya orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida qayta tiklanadigan energiya ulushini 30% ga yetkazish maqsadi belgilangan.

Keyingi grafikda (1-rasm) O‘zbekistonda 2022-2026 yillarda yashil obligatsiyalar ajratilishi va ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan mablag‘larning ta’siri ko‘rsatilgan. Grafikda:

• **Yashil obligatsiyalar ajratilishi** (Million AQSh dollari) ko‘k chiziqda tasvirlangan. Bu yil sayin o‘sishi kutilmoqda.

• **Karbonat angidrid chiqindilari kamayishi** (Million tonna) yashil loyihalar orqali ta’sir ko‘rsatib, yashil energiya loyihalarining ekologik natijalarini ko‘rsatadi, bu esa yashil moliyaviy vositalarning samaradorligini ko‘rsatadi.



1-rasm. O’zbekistonda yashil moliyashtirish loyihalari bo’yicha ma’lumot. Manba : www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

O'zbekiston miqyosida yashil moliya va barqaror rivojlanishga oid trendlarga asoslanadi:

1-jadval: Yashil moliya va barqaror rivojlanish bo'yicha raqamli ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar			
Yashil moliyaga yo'naltirilgan bank krediti			
Ekologik risklarni boshqarish bo'yicha investitsiyalar			Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun investitsiyalar
Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun sarflangan mablag'lar			
Yashil energiya manbalaridan foydalanish ulushi			

Yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan davlat dasturlari			Yashil iqtisodiyotga o'tishning jadal rivojlanishi

Manba : www.worldbank.org ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yashil moliya va barqaror rivojlanish bo'yicha taqdim etilgan raqamli ma'lumotlar juda ahamiyatli va zamon talablariga javob beradi. Ushbu ko'rsatkichlar, ayniqsa, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun amalga oshirilayotgan global va mahalliy tashabbuslarni aks ettiradi.

Takliflar:

1. **Yashil moliya bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish:** Mamlakatimizda yashil moliya bo'yicha qonunlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarur. Bu, davlat tomonidan yashil investitsiyalarni rag'batlantirish va ekologik loyihalarga moliyaviy yordam ko'rsatishni osonlashtiradi.

ashil obligatsiyalarni rivojlantirish: Yashil obligatsiyalar va boshqa yashil m o l s M x y a m l v iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimi muhim moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etib, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga moliyalashtirishga yo‘naltirilishi zarur.

instrumentlar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini k m Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, banklar ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda turli muammolarga duch kelmoqda. Xususan, huquqiy asoslarning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va uzoq muddatli daromadlilik masalalari bu sohadagi asosiy to‘siqlar hisoblanadi.

- Yashil moliyalashtirishning huquqiy bazasini takomillashtirish va tijorat banklari uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish.
- Ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar va investitsiyalarni jalb qilish.
- Bank tizimida yashil moliyaviy mahsulotlar, jumladan, yashil kreditlar va obligatsiyalarni kengaytirish.
- Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bank mutaxassislarini tayyorlash va ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

United Nations Development Programme. “The Role of Green Finance in Sustainable Development.” UNDP Report, 2023.

World Bank. “Green Finance: Opportunities and Challenges.” World Bank Publications, 2022.

Turobova, Hulkar, and Murodjon Eshbekov. "Development of Entrepreneurial Skills of Farmers." Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress 2.4 (2023): 13-17.

https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12837_1_7CDF1DC25A68BCDE242301C4BF6FDDC8DC7E54D4.pdf

Turobova, H. R., and M. U. Eshbekov. "Improve children online safety." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3.3 (2023): 130-134. https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/190

Murodjon Eshbekov, Iroda Saidmuratova, Turobova H. R. Ways To Ensure The Safety Of Agro-Food In Uzbekistan. https://ilmiyanjumanlar.uz/co_view.php?id=6605

Эшбеков М.У. ЦИРКУЛЯРНАЯ ЭКОНОМИКА: КАК ЭФФЕКТИВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ БЕЗОТХОДНОГО ПРОИЗВОДСТВА. https://cyberleninka.ru/article/n/tsirkulyarnaya-ekonomika-kak-effektivnoe-napravlenie-bezothodnogo-proizvodstva

Turobova H R Qishloq xo’jaligi chiqindilarini qayta ishlash va rivojlantirishni ahamiyati. AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR Ilmiy-amaliy electron jumal 74-78-b https://tdau.uz/static/media/D4PktLJDc_iRKBYQUJKFbGd4G7nSC2kqqHA

O`ZBEKISTONDA KRIDIT BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYA VA ISTIQBOLLARI

Sulaymonov Azamat Sodikovich
O`zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun kredit bozorining ahamiyati beqiyosdir. Kredit tizimi nafaqat banklar va moliya institutlari o‘rtasida, balki iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasida samarali moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida kredit bozorining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki aholi farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va investitsiyalarni jalb qilish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tezisda O‘zbekiston kredit bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilinadi. O‘zbekiston kredit bozorining rivojlanishining hozirgi holati, asosan, bank tizimiga bog‘liq bo‘lib, mamlakatda 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat ko‘rsatmoqda. Kreditlash jarayoni turli sohalarda amalga oshirilmoqda: korporativ sektor, kichik va o‘rta biznes, ipoteka, shaxsiy kreditlar va boshqa. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari va bozordagi o‘zgarishlar, shuningdek, xalqaro

integratsiya jarayonlari kredit bozorining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda kredit bozori iqtisodiyotni rag‘batlantirish, aholi va korxonalar ehtiyojlarini qondirish, yangi investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda kredit bozorining rivojlanishi, shu jumladan, kreditlash tizimi va banklar faoliyatining samarali tashkil etilishi, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Kredit bozorining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar, jumladan, iqtisodiy liberallashtirish, bank tizimining zamonaviylashtirilishi, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajriba o‘zgarishlari kreditlar shartlari va ularni olish imkoniyatlarini yaxshilashga yordam bermoqda. Aholi va kichik va o‘rta biznesning kreditlashga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir paytda, banklar o‘z faoliyatini optimallashtirish, yangi mahsulotlar taklif etish va mijozlarga qulay shartlar yaratishga intilmoqda. Kredit bozorining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi omil bo‘lib, ayni paytda banklar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklar, to‘lov qobiliyatining pasayishi va iqtisodiy noaniqliklar kredit tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, kredit bozorini rivojlantirishda risklarni boshqarish va barqaror iqtisodiy o‘sish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Kredit bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalari. O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda tub o‘zgarishlarga yuz tutgan.

Banklar orasida raqobat oshgani sayin, ular yangi xizmatlar va mahsulotlar taklif etish orqali o‘z mijozlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga harakat qilishmoqda. Shuningdek, banklar turli sohalar uchun maxsus kredit mahsulotlarini ishlab chiqishmoqda, jumladan, kichik va o‘rta biznes uchun, qurilish sektori uchun, agrobiznes uchun, shuningdek, iste’mol kreditlari bo‘yicha ham yangi imkoniyatlar yaratilgan. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet xizmatlarining kengayishi kredit bozoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va fintech platformalarining joriy etilishi kredit olish jarayonini soddalashtirish, vaqtni tejash va yangi mijozlarni jalb qilish imkonini berdi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar va texnologiyaga qiziqqan aholi qatlamining ehtiyojlarini qondirishda muhim omilga aylangan. O‘zbekiston aholisi va kichik biznes sektorining kreditlashga bo‘lgan talabining ortishi kredit bozorining rivojlanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, fuqarolar uchun iste’mol kreditlari, avtomobil va uy-joy kreditlari, shuningdek, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan kreditlar miqdori ortgan. Ushbu sektorlar mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etganligi sababli, ularning rivojlanishi kredit bozorining o‘sishiga yordam beradi.

Kredit bozorini yanada rivojlantirish uchun moliya bozorining infratuzilmasi mustahkamlanishi kerak. Bunga kreditning yangi turlarini joriy etish, investorlar uchun xavfsizlikni ta’minlovchi kafolat mexanizmlarini yaratish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kiradi. O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, «yashil» va ijtimoiy mas’uliyatli kreditlar, ekologik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan dasturlar kredit bozorini diversifikatsiya qilishda katta yordam beradi. Kredit bozorining rivojlanishi bilan birga, kredit tashkilotlarining to‘lov qobiliyatini baholash va risklarni boshqarish

tizimlariga e’tibor kuchaymoqda. O‘zbekistonning bank tizimi kreditlarning qaytarilmasligi va boshqa moliyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish uchun yangi usullarni ishlab chiqmoqda. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni saqlash va kredit bozorining uzun muddatli rivojlanishiga yordam beradi.

O‘zbekistonning kredit bozori o‘sib borayotgan iqtisodiyot va kengayib borayotgan moliya tizimi bilan o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, aholi va biznes sektori ehtiyojlariga moslashgan yangi kredit mahsulotlarining ishlab chiqilishi, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi tendensiyalar kredit bozorining rivojlanishida ijobiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik va risklarni boshqarish mexanizmlarini yaxshilash orqali kredit tizimi yanada samarali va xavfsiz bo‘lishi kutilmoqda. O‘zbekistonda kredit bozorining rivojlanishi, uning istiqbollarini yanada kengaytirish uchun bank tizimi va moliya infratuzilmasining zamonaviylashtirilishi, yangi kredit mexanizmlari va xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurdir. Bu esa mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. O'zbekistonda kredit bozorining rivojlanishi so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida islohotlar amalga oshirilayotgani, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi yangilanishlar kredit bozorini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi va biznes sub'ektlariga keng miqyosda moliyaviy resurslarni taqdim etish orqali, iqtisodiy faollikni oshirishga erishilmoqda. Kreditlash jarayonining raqamlashtirilishi, banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi va moliyaviy mahsulotlarning diversifikatsiyasi kredit bozorining samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kreditlashning risklarni boshqarish va ta'minotlarni diversifikatsiya qilish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuningdek, kredit bozorining o'sishiga davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosati hamda kredit tizimini raqamlashtirishni yanada rivojlantirish zarur. Davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga qaratilgan dasturlar, shuningdek, kredit olishning shartlarini soddalashtirish bo'yicha ko'rsatilgan choralar bozorni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud tizimda shaffoflikni oshirish, xatarlarga qarshi samarali choralar ko'rish va kreditlashning qator yuridik muammolarini hal qilish talab etiladi. Kelajakda kredit bozorini yanada diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat tomonidan islohotlarni davom ettirish orqali O'zbekistonda kredit bozorining salmoqli o'sishini kutish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun (1996 yil);

"Kredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonun (1999 yil);

"Iqtisodiy islohotlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" (2017 yil);

O'zbekiston Respublikasining Kredit bozorini tartibga solish to'g'risida"gi qonun (2019 yil);

Turaeva N. (2018). "O'zbekistonda kredit bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari";

Juraev M. (2020). "Banklar va moliyaviy xizmatlar: Teoriya va amaliyot";

"The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" by Frederic S.

Mishkin (2015).

ISLOMIY BANKLARNING AKTIV OPERATSIYALARI.

Kaxarova Zura Apsalamovna.
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistratura tinglovchisi

Islom banki, islomiy moliya (arabcha: إسلامية مصرفية), yoki Shariatga muvofiq moliya – bu shariat (Islom qonunlari) va uni islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo'llashga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati. Islomiy bank yoki moliyaning ba'zi usullari orasida Mudarabah (foydani taqsimlash va zarar ko'rish), Vadiya (xavfni saqlash), Musharaka (qo'shma korxona), Murabaha (narx-plyus) va Ijara (lizing) kiradi.

Mushoraka arab tilidan olingan bo'lib, «sherikchilik qilish» degan ma'noni bildiradi. Biznes va savdoda esa barcha sheriklar olingan foyda va zararni taqsimlovchi sherikchilik faoliyatini anglatadi.

Foiz qarzdorning foyda yoki zarar ko'rishidan qat'i nazar, qarz beruvchiga kredit uchun oldindan qat'iy belgilangan foiz ko'rsatkichiga asosan to'lanadi. Mushorakada esa daromad ko'rsatkichi oldindan qat'iy belgilanmaydi, balki u sherikchilik tijorati tomonidan erishilgan foydaga qaratilgan hamda zarar ham shunday taqsimlanadi.

«Muzoraba» sherikchilikning maxsus turi bo'lib, unda sherik ikkinchi tomonning tijoratiga sarmoya kiritish maqsadida pul berib sherikchilik qiladi. Sarmoya kiritish «Rabbul mol» deb ataluvchi birinchi sherik tomonidan amalaga oshirilsa, ish yuritish «muzorib» deb nomlanuvchi ikkinchi tomonning majburiyati hisoblanadi.

Rabbul mol muzorib uchun muayyan tijorat turini belgilab, sarmoya faqat o'sha tijoratga kiritilishini aytsa, bunday sherikchilikka muzoraba al-muqayyadah, ya'ni cheklangan muzoraba deyiladi. Biroq rabbul mol sarmoya kiritishni muzorib ixtiyoriga qoldirsa, unda muzorib o'zi to'g'ri dib bilgan har qanday tijoratga sarmoya kiritishi mumkin. Ushbu turdagi muzoraba cheklanmagan bo'lib, muzoraba al-mutlaqah deyiladi.

«Murobaha» fiqhiy tushuncha bo'lib, ma'lum narsani sotishda qo'llaniladigan shartnomadir. Sotuvchi ma'lum tovarni tannarxining ustiga ma'lum foyda qo'yib xaridorga sotishni kelishadi. Sotuvchi savdo molining tannarxini va kutilayotgan ustamani xaridorga bildiradi.

Murobaha savdosining zaruriy shartlaridan biri- mol uchinchi shaxsdan sotib olinishi kerak. Molni «qayta sotib olmoq» kelishuvi asosida mijozni o'zidan sotib olish shariy jihatdan mumkin emas.

Sotib oluvchi belgilangan muddatda molning narxini to'lay olmasa, ya'ni defolt holati yuzaga kelsa, narx oshirilmaydi.

«Ijara» fiqhiy atama hisoblanib, lug'aviy ma'nosi «Bir narsani ijaraga berib turish». Ijara qonun qoidalari lizing sifatida ko'p jihatdan savdo qonun qoidalariga o'xshab ketadi. Shartnoma imzolanayotganda ijara haqi butun lizing muddati uchun

aniqlashtirilgan bo'lishi shart. Shartnoma imzolanayotganda kelishib olish sharti bilan lizing muddatini turli davrlari uchun turli xil ijara haqlarining o'rnatilishi joizdir. Ijara aslida moliyalashtirish vositasi emas.

Salam shunday oldi-sotdi shartnomasiki, unda sotuvchi muayyan bir mahsulotni xaridorga kelishuv vaqtida to'lanadigan narx evaziga kelajakdagi ma'lum bir sanada yetkazib berish majburiyatini zimmasiga oladi. Ushbu savdoda narx naqd to'lanadi, sotilgan mahsulot esa keyinroq yetkazib beriladi. Arab tijoratchilari ayrim mahsulotlarni eksport qilish va ayrim mahsulotlarni chetdan o'z yurtlariga import qilish bilan ham shug'ullanadilar. Salam savdosi sotuvchi uchun u narxni oldindan oladi, xaridor uchun ham qulay, chunki salam oldi berdilarida narx odatdagi savdodan arzonroq bo'lardi. Salam savdosiga kelajak sanaga bog'langan oldi-sotdilarni taqiqlovchi qonunlarga istisno ravishda ruxsat berilgan.

Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom ko'rporatsiyasi (ICD) va London fond birjasi guruhi (LCEG) jahonda Islom moliyasi rivojlanishiga oid o'zining yillik hisobotini e'lon qildi. Hisobotga ko'ra jahon islom moliyasi aktivlar hajmi 2023-yilda 4.9 trln AQSh dollariga yetgan hamda o'tgan yilga nisbatan 11% ga o'sish qayd etilgan. Sohalar bo'yicha olganda islom bankchiligi aktivlar qiymati 863 mlrd AQSh dollariga(18%) yetgan. Aktivlarning qolgan qismi islomiy fondlar (5%.), takoful (2%) va boshqa islom moliya institutlari (3%) hissasiga to'g'ri keladi.

Undan tashqari hisobotda Islom moliyasi rivojlanish ko'rsatkichlari (IFD) bo'yicha davlatlar reytinglari ham e'lon qilingan. Ushbu ko'rsatkichlar moliyaviy faoliyat, boshqaruv, barqarorlik, bilim va xabardorlik kabi yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, 2023yilgi reytingda Malayziya 1-o'rinni olgan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda esa mos ravishda Saudiya Arabistoni va BAA davlatlari egallagan.
Ushbu hisobot har yili e'lin qilinib, unda keying 5 yil uchun islom moliyasi aktivlar hajmi prognoz ham qilinadi. Bu yilga hisobotga ko'ra butunjahon islom moliyasi sanoati aktivlar hajmi 2028 yilga borib 7.5 trln AQSh dollaridan oshishi bashorat qilingan.

Islom banklari aktivlari

1-Jadval

Bank nomi	**Joylashgan Davlati**	**Fitch Rating**	**Moody's Rating**	**S&P Rating**	**Umumiy aktivlari (mln AQSh dollari)**	**Hisobot sanasi**
Abu Dhabi Islamic Bank	BAA	A+	A2	NR	52,502	12/31/23
Qatar Islamic Bank	Qatar	A	A1	NR	51,952	12/31/23
Boubyan Bank	Quvayt	A	A2	A	27,356	12/31/23
Al Rajhi Bank	Saudiya Arabistoni	A-	A1	A-	215,493	12/31/23
Kuwait Finance House	Quvayt	A	A2	NR	123,710	12/31/23
Dukhan Bank	Qatar	A	A2	NR	31,425	12/31/23

Qatar International Islamic Bank	Qatar	A	A2	NR	16,930	12/31/23
Dubai Islamic Bank	BAA	A	A3	NR	85,580	12/31/23
Bank AlJazira	Saudiya Arabistoni	A-	Baa1	NR	34,547	12/31/23
Warba Bank	Quvayt	A	Baa2	NR	15,738	12/31/23

1-jadval ma’lumotiga ko’ra 2023-yil Islom banklari aktivlari o’sib bormoqda hamda reytinglari ham yuqori natijalarni ko’rsatmoqda. Saudiya Arabistoni banki aktivlar bo’yicha yetakchilardan bo’lib kelmoqda.

Eslatib o’tamiz, bugungi kunda musulmonlar dunyo aholisining taxminan 24 foizini tashkil etadi, lekin islom bank-moliya tizimi aktivlarining jahon bank moliya tizimidagi ulushi esa turli hisob-kitoblarga ko’ra 2% yoki 3% ga teng.

Islom moliyasining o’ziga xos xususiyati shundaki, barcha G’arb moliya tizimi umum qabul qilingan foizlarga asoslangan. Bu tijorat qarzalarini umum xayr saxovatga berilayotganligini anglatmaydi. Kapital egasini ozgina haq olishi oldindan belgilangan summani to’lash shaklini olmasligi kerak, agar u foiz bo’lsa, ana shunday holat sodir bo’ladi. Islom e’tiqodi me’yorlariga asosan adolatlilik va haqqoniylik shundaki, boylikning manbai, eng avvalo bandaning mehnati esa egasining ishbilarmonlik harakati hamda meros yoki taqvodorlik bo’lishi mumkin. Bundan tashqari foyda qilingan risk uchun olingan xayr-in’om hisoblanadi.

Islom iqtisodchilari sudxo’rlik foizini taqiqlash uchun har xil asoslangan ratsional dalilar keltiriladi, ya’ni foiz undirish usuli bilan o’zga insonni ekspluatatsiya qilishga imkon beriladi va bank tizimida esa iqtisodiy inqirozlarni kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Islom ta’limoti bilan pul resursalrini jalb qilish, shu jumladan banklar uchun ham ulushbay moliyalashtirish hisoblanadi, ya’ni sarmoyadorni aksioner kapitalga ishtirok etish hisobidan mablag’lar jalb etiladi. Kapitalni o’sishi yoki ko’payishi pul aylanishi sohasida sodir bo’lishi mumkin emas, uni asosida tovarlar va xizmatlarga real taalluqli bo’lgan kelishuvlar yotishi kerak.

Ko’pgina iqtisodchilar ulush-bay moliyalashtirishda afzaliklari bor deyishadi. G’arb iqtisodiyotida ssuda foizining miqdori, o’z navbatida, Markaziy bankni hisob stavkasini beligilanishiga bog’liq, ammo real sektorni rivojlantirish uchun ham qaratiladi. Islom moliya tizimida omonatlar bo’yicha daromad olish yoki olmaslik, bank tomonidan omonatchining kapitali qo’yilgan kompaniyani aksiyasini foyda olish yoki olmasligiga bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ye.Baydalet.(2019) Islomiy moliya asoslari. Toshkent. O‘zbekiston NMIU-23-bet.

Ahmed El-Ashker Rodney Wilson. M.(2006). Islamic Economics a short History, Iqtisodiyot va ta’lim – 431 B.

Ali Muazzam.(1988). A Framework of Islamic Banking. In Directory of Islamic Financial Institutions, edited by John R. Presley. London (UK): Iqtisodiyot va ta’lim –112B

Siddiqi Muhammad Iqbal.(1986). Model of an Islamic Bank. Lahore (Pakistan): Kazi Publications.

Al-Zuhaili,Wahbah(2003).Financial Transactions in Islamic Jurisprudence. Vol. 1. Translated by Mahmoud A. El-Gamal. Beirut (Lebanon): Dar al-Fikr, 294B.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BANK-MOLIYA TIZIMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Abdikarimova Dinara Rustamxanovna
i.f.d., professor., O‘zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi, “Biznesni boshqarish” kafedrasi mudiri

XXI asrning ikkinchi yarmi global miqyosda iqtisodiy o‘sishning yangi konseptual asoslarini shakllantirish davri bo‘ldi. Iqlim o‘zgarishining kuchayishi, atrof-muhitning degradatsiyasi, tabiiy resurslar tanqisligi kabi muammolar natijasida jahon hamjamiyati an’anaviy sanoat va moliyaviy modeldan ekologik barqaror, resurslarni tejovchi, ijtimoiy mas’uliyatli rivojlanish modeliga o‘tish zaruratiga duch kelmoqda. Ushbu model - **yashil iqtisodiyot** konsepsiyasi - nafaqat iqtisodiy o‘sishni saqlab qolishga, balki tabiat bilan uyg‘un holda iqtisodiy faoliyat yuritishga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish - bu oddiy ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash emas, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror yo‘nalishga yo‘naltirishdir. Bu jarayonda hal qiluvchi rolni bank-moliya tizimi o‘ynaydi. Chunki moliyaviy vositalar - kreditlar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari - orqali kapital oqimlari qanday loyihalarga yo‘naltirilishi butun iqtisodiy muhitni belgilab beradi. Ayni paytda jahon amaliyotida banklar, markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar yashil moliyalashtirish mexanizmlarini faol joriy etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda “Yashil rivojlanish strategiyasi – 2030”, “Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy dasturi” va boshqa strategik hujjatlar orqali yashil iqtisodiyot konsepsiyasini iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Ammo ushbu strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun etarli moliyaviy mexanizmlar, xususan, bank sektori tomonidan ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari hali to‘liq shakllanmagan.

O‘zbekistonda moliyaviy tizim asosiy e’tiborni an’anaviy investitsiyaviy loyihalarga qaratib kelmoqda. Tijorat banklari kredit portfellarining asosiy qismi ishlab chiqarish, savdo va qurilishga yo‘naltirilmoqda, ekologik loyihalar esa, yuqori xavfli va kam rentabelli deb baholangan holda, ko‘pincha chetda qolmoqda. Natijada yashil iqtisodiyotga zarur bo‘lgan moliyaviy oqimlar sust kechmoqda. Shu bilan birga, mavjud qonunchilikda “yashil kredit”, “yashil obligatsiya”, “ESG-baholash” kabi moliyaviy vositalarning huquqiy maqomi aniq belgilanmagan.

Bu esa, nafaqat ekologik barqarorlikka putur etkazmoqda, balki bank-moliya tizimining transformatsion qobiliyatini ham cheklamoqda. Yashil iqtisodiyotga samarali o‘tish uchun banklar kredit risklarini baholashda ESG mezonlarini inobatga

olishi, kapital ajratishda ekologik loyihalarga ustuvorlik berishi, uzoq muddatli moliyalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishi zarur. Shu o‘rinda xalqaro tajribani o‘rganish, masalan, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribalarini lokal sharoitlarga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bank-moliya tizimining yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi o‘rni ikki yo‘nalishda ko‘rinadi: birinchidan, tijorat banklari ekologik loyihalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kredit ajratish orqali, ikkinchidan esa, obligatsiyalar, moliyaviy instrumentlar va moliyaviy bozor mexanizmlari orqali kapital bozorlarida yashil loyihalarni moliyalashtirishda vositachilik qilishi orqali. Shu bois, bu tizimni takomillashtirish, moliyaviy regulyatorlar faoliyatini ekologik mezonlar bilan uyg‘unlashtirish, tijorat banklarining ekologik xavflar bo‘yicha risk baholash salohiyatini oshirish zarur.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni o‘zaro uyg‘unlashtirgan iqtisodiy model sifatida talqin qilinadi. Mazkur modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi moliyaviy tizim, xususan bank-moliya sektorining yangi funksional yondashuvlarga moslashuvchanligini talab etadi. Xalqaro amaliyotda bu jarayon “yashil moliyalashtirish” tushunchasi orqali ifodalanadi va u moliyaviy vositalar yordamida ekologik jihatdan ustuvor loyihalarni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi [1].

Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank tizimi etakchi rol o‘ynaydi. Masalan, Janubiy Koreyada Green Financing Guidelines orqali tijorat banklariga ekologik loyihalarni kreditlash uchun soliq imtiyozlari va foiz subsidiyalari taqdim etiladi [2]. Yevropa Ittifoqida esa yashil obligatsiyalar va barqaror rivojlanish fondlari orqali moliyaviy resurslar qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash kabi loyihalarga yo‘naltiriladi [3].

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yashil obligatsiyalar bozori 2023-yilga kelib 540 milliard AQSh dollaridan oshgan, bu esa global moliya bozorlarida ekologik loyihalarga sarmoya kiritish qamrovining kengayganini ko‘rsatadi [4]. Xuddi shunday, IFC (International Finance Corporation) tahlillarida yashil moliyalashtirishning iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’siri haqida fikrlar ilgari surilgan [5].

Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, bu jarayonni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda bank-moliya tizimi muhim o‘rin tutadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda ushbu yo‘nalishda muayyan strategik hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda yashil moliyaviy vositalarning joriy etilishi sust kechmoqda. Xususan, yashil kreditlar, obligatsiyalar va ESG-mezonlarga asoslangan risk baholash tizimlari bank amaliyotiga hali etarli darajada tatbiq etilmagan.

Ushbu holat yashil iqtisodiyotning moliyaviy asoslarini kuchaytirish uchun bank tizimida institutsonal islohotlarni jadallashtirish, regulyativ mexanizmlarni takomillashtirish, bank xodimlarining ekologik moliya sohasidagi salohiyatini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, xalqaro tajribaga asoslangan holda, moliyaviy sektorni ekologik loyihalarga faol jalb etish uchun bozor mexanizmlarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. (2020). *Developing Sustainable Finance Definitions and Taxonomies*. Paris: OECD Publishing.
2. Kim, J., & Lee, S. (2017). *Credit Guarantee Schemes and Green SME Finance in South Korea*. *Asian Development Review*, 34(2), 54–78.
3. European Investment Bank. (2021). *Green Bond Impact Report*. Luxembourg.
4. World Bank. (2021). *Green Finance and Sustainable Development: Global Trends*. Washington, DC.
5. International Finance Corporation (IFC). (2022). *Greening Financial Systems: Tools and Case Studies*. Washington, DC.

ЗЕЛЁНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩНОГО ХОЗЯЙСТВА

Ахмедов Омонуллохон Мидхадович
к.э.н., доцент, доцент кафедры «Управление бизнесом»
Банковско-финансовой академии
Республики Узбекистан

Обеспечение устойчивого развития неразрывно связано с внедрением «зелёных инноваций», способствующих переходу отраслей селского хозяйства на новые условия хозяйствования, адекватных требованиям охраны окружающей среды и цифровой экономики. Все болше оказывают вызовы, связанные с сокращением выбросов парниковых газов, сокращение исползования химических удобрений, производство органической и качественной продукции и сохранение биоразнообразия в местах массового производства селскохозяйственной продукции.

Прежде всего следует отметит о значимости зелёных технологий, которых часто принято отожествлят с экологическими технологиями (по англ. греен течнологй- греентеч, енвиронментал течнологй) представляющих технологии или производственные процессы и цепочки поставок, отличающих от традиционных технологий экологической полностю или менее безвредностю по сравнению с традиционными способами производства. Иногда эти технологии называют еще «чистыми технологиями» или же «полностю замкнутые технологии», в которых производственные циклы исключают выбросы отходов, полностю перерабатывают исползуемые ресурсы (воду, газы, масло, химические реактивы и другие вредные вещества). Эти технологии отличаются своей уникалностю, безотходностю и в то же время сравнително высокой стоимости по сравнению с традиционными массовыми технологиями. К их числу можно отнести биологическая очистка воды, очистка выделяемого газа в результате производственных процессов, утилизатсия отходов, рекуператсия органических отходов и т.д.

Как отмечают болшинства учёных, появление зелёных технологий начинают свой этап с применением алтернативных источников

электроэнергии и поиском новых, алтернативных источников, позволяющих значително сократит исползование ископаемых топливных ресурсов. Процессный подход, позволивший по-новому, то ест бережливого относится к производственным процессам (англ. Леан продустион) еще раз потребовал пристално исследоват каждый этапы производственных систем и цепочку создания ценности. Исползование безотходных-зелёных технологий и неустанная забота о сохранении чистоты окружающей среды в 1970-х годах позволили формироват новый взгляд к формированию «экологической этики» ведения бизнеса.

В последствии, усиление значимости сохранения чистоты окружающей природной среды, сокращение выбросов парниковых газов и борба с истощением полезных ископаемых, лесного фонда, перстной воды и других не возобновляемых ресурсов в мире привели к тому, что будущее развитие невозможно без учёта экологических норм и требований в промышленном производстве, в селском хозяйстве и в других сферах жизнедеятелности.

Как известно, наиболее значимыми зелеными технологиями и процессами, способствующими формироват селское хозяйство более экологически устойчивым, являются: возобновляемые источники энергии, нулевая обработка почвы, биотехнологии, органическое земледелие, вертикалное земледелие, орошение, интегрированная борба с вредителями, дроны и цифровые датчики.

Опыт болшинство стран Европейского Союза (ЕС) показывает, что исползование зеленых технологий в селском хозяйстве очен важно, посколку они уменшают ущерб окружающей среде, производят менше ископаемого топлива в качестве побочных продуктов и помогают в устойчивом селскохозяйственном развитии. Поэтому, со стороны ЕС созданы специалные фонды, составляются разнообразные инновационные программы, проекты по применению зелёных технологий.

Что касается «зелёных инноватсий», то это по сути разработка более современных и новых технологий, бизнес процессов, методов, которые являются экологически чистыми и устойчивыми. К их числу можно отнести новые способы и методы создания и исползования материалов, сыря, новых ископаемых ресурсов, металлов и других веществ, которые являются «дружелюбными к окружающей среде».

Сравнителный анализ мнений учёных и экспертов показывает, что зелёные инноватсии дополняют «зелёные технологии» и отличаются тем, что они направлены на решение комплекса экологических, социалных и управленческих (по англ. Энвиронментал, Сосиал, анд Говернансе- ЭСГ) задач. Зачастую данный подход ЭСГ в последствии ставший стратегией стал неотъемлемой частю формирования и развития компаний, фирм в различных сферах деятелности. Это относително новый подход к развитию как фирмы, так и отрасли в целом. Но основании этого подхода строится будущее развитие отраслевых кластеров, регионов различных стран.

Одним из таких отраслей является, плодоовощной комплекс, который охватывает производство, заготовки, переработку и организатсию торговли

этими товарами. Важност присталного поиска и глубокого анализа вопросам далнейшего развития плодоовощного комплекса продиктовано тем, что болшинство стран становятся более зависимыми от импорта важнейших видов продоволствия и неуклонно снижается уровен самообеспеченности стран свежими плодами и овощами.

24 октября 2019 года утверждена «Стратегия развития селского хозяйства Республики Узбекистан на 2020- 2030 годы», в котором определены стратегические приоритеты: обеспечение продоволственной безопасности населения; создание благоприятного агробизнес-климата и цепочек добавленной стоимости; снижение роли государства в управлении сферой и повышение инвестиционной привлекателности; обеспечение ратсионалного исползования природных ресурсов и охрана окружающей среды; развитие современных систем государственного управления; поэтапная диверсификатсия государственных расходов в поддержку сектора; развитие науки, образования, систем информатсионных и консултатсионных услуг в селском хозяйстве; развитие селской местности; разработка прозрачной системы отраслевой статистики99. В соответствии со Стратегией развития селского хозяйства Узбекистана предусматривается довести к 2030 году объем переработанной продукции на 30% и объемы экспорта до 20 млрд. долларов.

Если учест требования продоволственной безопасности стран в условиях изменчивой мировой конъюнктуры и перехода всей цепочки создания ценности на зелёные технологии, то становится очевидным необходимост присталного анализа текущей ситуатсии на международном плодоовощном рынке.

С появлением новых методов создания интенсивных садов, «овощных фабрик» на закрытом грунте и формирования надлежащей инфраструктуры хранения, логистики, плодоовощной комплекс испытывает серёзные преобразования во многих странах. В этом отношении страны Европейского Союза добилис болших успехов в формировании и реализатсии долгосрочной стратегии развития производства и рынка многих отраслей экономики в целях обеспечения конкурентоспособности100.

Наращивание производства и укрепление конкурентоспособности плодоовощного комплекса имеет особое значение для Узбекистана. В условиях перехода всех бизнес-процессов на адекватные условия цифровой экономики, требуется более комплексно рассмотрет основные тенденции побуждающие к переходу плодоовощного комплекса на новые условия взаимоотношений с партнерами по формату B2B.

Международные организатсии в лице WTO, УНСТАД, ИТС WБ гроуп всячески усиливают предоставления информатсионных и справочных услуг на цифровом и диалоговом формате. Так, например, на веб-странице Международного Торгового Центра функционирует специалные инструменты

[99] УП Республики Узбекистан. Об утверждении Стратегии развития Узбекистан на 2022-2030 годы. https://lex.uz/ru/docs/4567337

[100] Европейский союз в мировом хозяйстве: проблемы конкурентоспособности. Под общей редакцией Е.С. Хесина / Отв. ред. – Ю.Д. Квашнин, М.В. Клинова, А.А. Невская, Е.С. Хесин. – М.: ИМЭМО РАН, 2020.

для анализа данных, собранная аналитическая информатсия о состоянии торговли по многим товарным группам и регионам мира, а также программы обучения для молодых фермеров, трейдеров и специалистов в области логистики, поставок. В отчете ИТС за 2024 год подчеркивается стратегия организатсии- ИТС Нехт: «ИТС Нехт фокусируется на построении структурной конкурентоспособности посредством гибких, устойчивых и эффективных цепочек поставок. Бренды ИТС мирового класса получают конкурентную силу не толко за счет высококачественных и дифференцированных предложений, но и за счет обширных селскохозяйственных цепочек создания стоимости ИТС, которые приносят ползу миллионам фермеров, а так же современной, цифровой обогощенной производственной и распределителной инфраструктуры»101

Для комплексного решения вопросов формирования деловой среды для всех участников плодоовощного рынка стран Восточной Европы, Централной Азии и Кавказа создана платформа ЭастФруит.Сом, предоставляющая информатсию о рынке плодов, овощей, ягод и орехов на 4 языках, включая и узбекский язык. Информатсионные потоки распространяются и на социалных сетях Twиттер, Инстаграм, Фасебоок, Ёутубе, что позволяет быстро распространят важную информатсию всем участникам рынка плодоовощей. Помимо этого, на платформе можно размещат рекламу, предложения по продвижению продукции и нахождение партнеров по осуществлению различных проектов, включая экспортно-импортные оператсии.

Узбекистан последовательно продолжает повышение экспортного потенциала плодоовощного комплекса. По результатам за 2024 год Узбекистан экспортировал плодоовощную продукцию на сумму более 1,5 млрд.$, в физическом выражении более 2,0 млн. тыс. тонн., что на 31,2 % болше чем за 2023 год в денежном выражении. Объем экспорта плодов и овощей составляет в среднем за год около 5-8% общего объема экспорта. Произведенный анализ мировых цен на плоды и овощи показывает, что цены на органическую продукцию в 2-3 раза выше чем на традиционную продукцию. Следовательно, предстоит увеличит экологическую и органическую плодоовощную продукцию на основе зелёных технологий, методов выращивания и подготовки их к экспорту.

Итоги анализа экспортного плодовощной приходится на Россию, на долю которой пришлос 42,1% от общего объема экспорта. Далее следуют Казахстан (12,7%), Пакистан (12,6%), и Афганистан (8%). Самыми продаваемыми оказалис виноград ($186,2 млн), персики ($96,9 млн), черешня ($70,3 млн), абрикосы ($62,2 млн), лук ($76,3). Среди востребованной плодоовощной продукции также капуста ($49,8 млн), виноград сушеный ($79,5 млн), чернослив ($39 млн), морков ($31,7 млн) и другие фрукты и овощи102.

В ноябре 2024 года состоялос совещание по анализу состояния дел по организатсии и поддержки экспорта плодоовощной продукции с участием

[101] ITC Limited Report and Accounts 2024 p.5.
[102] По данным https://agroworld.uz

Президента Республики Узбекистан. Было отмечено, что в Узбекистане имеется 3,2 млн гектаров орошаемых земел, которые исползуются как для выращивания продоволствия, так и для получения сыря для промышленности. В последние годы 260 тысяч гектаров земел, ранее занятых под хлопок и зерно, были выделены для возделывания населением, а в будущем планируется выделение еще 104 тысяч гектаров.

Изученный анализ состояния дел в области данных перехода к зелёным инноватсия в плодоовощном хозяйстве показывает, что нужны системные меры по поддержке производителей по получению сертификатов «Органис», «Глобал Гап», «Ҳалал» и других международных стандартов для расширения географии и структуры экспорта. Это позволит в ближайшем будущем занят достойное место в создании цепочки ценности на мировом рынке плодоовощей.

РОЛЬ ИСЛАМСКОГО БАНКИНГА В РАЗВИТИИ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Исаев Ойбек Бахрамович
Секретарь Совета
Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

В процессе научного изучения, анализа и исследования темы использовались такие методы, как систематический анализ и статистический анализ. В статье рассмотрены необходимые аспекты **цифровизации** при внедрении услуг исламских финансов в Узбекистане. Использовались изучение существующих научных исследований по внедрению исламских финансов, сравнение разного опыта, изучение статистических данных и экономическое сравнение и анализ, логическое мышление, научная абстракция, методы группировки информации.

Президент Шавкат Мирзиёев в обращении к парламенту 29 декабря 2020 года заявил о том, что в Узбекистане пора ввести исламские финансовые услуги[1031], и в результате 20 апреля 2022 года был принят Закон Республики Узбекистан «О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности». Благодаря этому Закону, впервые в Узбекистане понятие «исламское финансирование» получило правовую основу. Учреждениям микрофинансирования по Закону разрешено предоставлять услуги исламского финансирования. Некоторые коммерческие банки Республики Узбекистан ведут работы по открытию исламских окон, средства международных исламских финансовых организаций целенаправленно финансируются методом мурабаха.

Так, некоторые коммерческие банки предлагают исламские продукты, как метод кредитования (финансирования) проектов бизнес сфер. Финансовые

[103] https://president.uz/ru/lists/view/4057

услуги, основанные на принципах исламского финансирования (продажи товаров и услуг с рассрочкой – мурабаха, а также исламский лизинг - иджара).

Сегодня исламские финансы нередко позиционируются в мире, как система только для мусульман. На самом же деле, доступ к инструментам исламских финансов открыт для всех. Достаточно отметить, что одним из мировых лидеров по объёму эмиссии исламских облигаций является Ирландия. 3,4 трлн долларов - совокупная стоимость активов под управлением исламской финансовой системы на конец 2020 года, по данным Глобального отчета по исламской экономике 2023 года [2, с. 2].

Как было сообщено на заседании МВФ и групп Всемирного банка, по данным опросов 38 процентов хозяйствующих субъектов и 56 процентов физических лиц не обращаются в традиционные банки, так как опираются на исламские правила и не желают пользоваться процентами, кредитами и подобными банковскими услугами[104]. Небанковскими организациями, в том числе FinTech компаниями Узбекистана и стран Централной Азии предлагаются услуги по исламскому финансированию. Это станет большим толчком для дальнейшего роста экономики Узбекистана и полного использования внутренних инвестиционных возможностей, которые еще не используются полностью.

Как мы знаем, привлечение дополнителных иностранных инвесторов в Узбекистан имеет большое значение. Одним из важных аспектов для привлечения иностранных инвесторов (особенно из стран, где исламское финансирование имеет большое значение), создание правовой базы для исламского финансирования и наличие банков (филиалов) и финансовых учреждений, работающих на принципах исламского финансирования в Узбекистане. Банки, работающие на основе механизмов исламского финансирования, должны действовать на основе определенных правил исламского финансирования, но при этом должны быть предельно удобны и понятны в использовании их мобильных приложений.

Одним из основных критериев широкого внедрения услуг исламских финансов в Узбекистане является, внесение изменений и дополнений в Закон “О Централном банке Республики Узбекистан”, Закон “О банках и банковской деятельности”, налоговый и гражданский Кодексы, а также бухгалтерский и аудиторский учет.

В сотрудничестве с международными исламскими финансовыми организациями, предоставляющими услуги исламского финансирования в зарубежных странах, проводится большая работа по широкому внедрению услуг исламских услуг в Узбекистане. В последние 20-25 лет исламские финансы быстро развивались, и в ходе этого развития в последние 10 лет было создано множество компаний в области исламского финансирования. Основное различие между исламскими финансами и традиционными финансами заключается в том, что исламские финансы включают в себя

[104] https://www.reuters.com/business/finance/global-islamic-finance-forecast-grow-main-markets-recover-sp-2023-05-03/

разделение прибыли и убытков и финансирование на основе реальных активов. Другими словами, исламское финансирование основано на партнерстве и сотрудничестве. Следовательно, исламские банки могут построить объект, закупить оборудование, товары, сырье или арендовать их по желанию клиента. Финансирование основано на практике продаж. Деньги рассматриваются как средство обмена, а это означает, что запрещено давать деньги взаймы под проценты или для какой-либо выгоды.

Шесть ведущих рынков по финтех ОИС (Организации Исламского Сотрудничества) по объему транзакций для исламских финтех – это Саудовская Аравия, Иран, Малайзия, ОАЭ, Турция и Индонезия. В совокупности на 6 крупнейших рынков приходится 81% размера рынка исламских финансовых технологий ОИС, что указывает на два доминирующих регионалных центра, возникающих среди стран ОИС для исламских финансовых технологий.



Рисунок 1. Размер мирового рынка исламских финансовых услуг[105]

Фин-тех Хабы: Малайзия, ОАЭ и Индонезия являются центрами лидеров, а Саудовская Аравия переходит из категории развивающихся в категорию лидеров. Бахрейн, Бангладеш, Египет, Иран, Иордания, Кувейт, Нигерия, Оман, Пакистан, Катар и Турция развиваются с меньшей склонностью к исламскому финтеху, но демонстрируют относительно высокий рост на внутреннем уровне по размеру рынка. Чтобы узнать мнения участников рынка в секторе исламских финансовых технологий по ряду вопросов, было проведено два опроса: один среди профессионалов отрасли исламских финансовых технологий и один среди центров исламских финансовых технологий. Респонденты выделили самые большие препятствия на пути к обучению клиентов, доступу к капиталу, регулированию, поиску лучших специалистов и стоимости привлечения клиентов. Между тем, респонденты считают платежи, депозиты и кредитование и привлечение

[105] Global Islamic Fintech Report - https://www.dinarstandard.com/post/global-islamic-fintech-report-2022

средств самыми быстрорастущими сегментами в 2022 году.

Первый в мире Цифровой Исламский банк открылся в ОАЭ в апреле 2021 году[106]. Rezq/Baraka, первый цифровой банк, соответствующий исламским законам намерен предоставлять свои услуги практически в Ближневосточном регионе. В дальнейшем данный цифровой банк планирует наладить сотрудничество с финансовыми институтами Индии, Азербайджана, Индонезии, Малайзии, Великобритании, Австралии, Бразилии, Мавритании, Африки и Узбекистана. Банк является дочерней компанией Zurich Capital Funds Group.

Цифровые банковские услуги данного Банка доступны только через мобилные телефоны и компютеры. Приложение доступно в Apple Store, Google Play, а также на многих сайтах для общения и в социальных сетях. Ожидается, что данный банк станет первым в мире цифровым банком, полностью соответствующим законам ислама, что откроет возможности обслуживания в новом формате для других исламских банков.

Глобализация приводит к изменениям финансовых рынков по всему миру. В условиях финансовой глобализации и повсеместной цифровизации рынок капитала также стал более взаимосвязанным. Более того, в будущем цифровые технологии будут приобретать все большее значение для производственных процессов и торговли. Поэтому со временем производственные процессы будут все больше зависеть от капитала и технологий не только в развитых странах, но и во всем мире. Рост капиталоемкости и технологичности производства оказывает влияние на международную конкурентоспособност всех стран мира.

Исламские финансовые институты располагают огромным количеством возможностей для достижения своих стратегических целей, таких как финансовая доступность, ориентированные на клиента финансовые услуги, операционное совершенство и конкурентные преимущества.

В мире насчитывается около 93 исламских компаний[107], 65 из которых используют одноранговые технологии для предоставления доступа к финансам потребителям и предпринимателям, а 14 исползуют технологии блокчейн для открытия депозитов и проведения переводов. Самое большое число стартапов исламского финтеха приходится на Индонезию, США, ОАЭ и Великобританию.

В области регулирования правительства формируют стратегии развития и рекомендации[108]. Например, Малайзия разработала «Рамочную программу по регуляторным песочницам в финтехе» (отдельное внимание уделяет исламским финансам) и «Руководство по цифровой исламской экономике»[109]. В Абу-Даби запустили цифровую регуляторную песочницу, где могут участвовать и исламские проекты[110].

---

[106] https://gulfnews.com/business/banking/another-digital-bank---rezqbaraka---plans-to-go-live-in-uae-and-based-on-sharia-1.1618992901892

[107] https://salaamgateway.com/reports/islamic-fintech-report-2018-current-landscape-and-path-forward

[108] http://www.gifr.net/gifr2017/ch_17.pdf

[109] https://mdec.my/islamicdigitaleconomy/

[110] https://www.adgm.com/setting-up/fintech-digital-lab/overview

Исламское финансовое регулирование в мусульманских странах уже существует и поддерживается. Однако исламский FinTech находится на стадии развития. Ему требуется регулирование для обеспечения возможностей для развития финансовых инноваций в соответствии с исламскими ценностями.

Ряд учреждений высшего образования исламского финансирования в Малайзии проводят углубленные исследования в области исламского банкинга и исламских финансов с практикой, а также предоставляют необходимые консултации на национальном уровне. Работа исламских филиалов обычного банка должна быть приведена в соответствие со стандартами, установленными международными исламскими организациями.

Если смотреть исламские финансы, в том числе FinTech как отдельную науку, в современный период, исламские финансы – важный раздел финансовой науки, которая изучает особые специфические отношения, связанные с функционированием кредита, страхования, лизинга, ценных бумаг и фондовых бирж и др. [2, с. 5] Основы исламских финансов необходимо изучать как специалистам финансово-кредитной системы, так и финансовым менеджерам, руководителям предприятий, юристам и просто физическим лицам. Знание основ исламских финансов позволяет более качественно строить взаимоотношения банков с клиентами, улучшает партнерство и способствует использованию альтернативных финансовых инструментов.

В Узбекистане частные финансовые организации, включая FinTech компании, предлагают через свои специальные мобильные приложения финансовые услуги, основанные на принципах исламского финансирования (мурабаха, мудараба), однако отсутствие законодательства в области исламского финансирования, в том числе исламских FinTech услуг в Узбекистане, и наличие несоответствий в действующем законодательстве по функционированию этой системы являются препятствием для широкого внедрения исламского финансирования в нашей стране. В широком внедрении исламских финансов в Узбекистане большую пользу может принести использование опыта Малайзии по согласованию и разработке новых нормативных документов и использование самых передовых программных продуктов, ведь на сегодняшний день Малайзия является одной из самых передовых стран в этой сфере.

Работа исламских филиалов обычного банка, а также всех финансовых организаций, которые осуществляют или будут осуществлять услуги по исламскому финансированию в Узбекистане, должна быть приведена в соответствие со стандартами, установленными международными исламскими финансовыми организациями.

В широком внедрении исламских финансов в банковской системе Узбекистана большую пользу может принести использование опыта Малайзии по согласованию и разработке новых нормативных документов и использование самых передовых программных продуктов, ведь на

сегодняшний день Малайзия является одной из самых передовых стран в этой сфере.

В сотрудничестве с международными исламскими организациями при внедрении исламских услуг **в банках и других финансовых организациях основано на важности привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана и необходимости использования стандартов международных исламских организаций в широком применении всех видов услуг исламских финансов.**

При осуществлении исламского финансирования, в том числе при решении вопроса внедрения исламских банковских услуг в Узбекистане необходимо обратить внимание на следующее:

1. Для резкого увеличения инвестиций в Узбекистане и привлечения крупных инвесторов (местных и зарубежных), необходимо принять стандарты и законодателство в области исламских финансовых услуг.

2. Для удобства работы финансовых компаний исламского, необходимо изменить систему налогов Узбекистана в соответствие с рекомендациями международных исламских организаций.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

“LANDSCAPING ANALYSIS OF ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN UZBEKISTAN” (https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/ UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf),

Основы этических (исламских) финансов: учебное пособие / под редакцией Е.А. Байдаулет, – Павлодар, 2014. – 325 с. ISBN 978-601-7205-96-6. В ...323стр.

State of the Global Islamic Economy Report 2023 (Finance / Food / Fashion / Travel / Cosmetics / Media and Recreation / Pharmaceuticals) – DinarStandard in partnership with SalaamGateway, 2023

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK ORQALI O‘ZBEKISTONDA YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Yakubova Samira Sabitdjanovna
Ph.D, dots. Bank-moliya akademiyasining
“Investitsiyalar va kapital bozori” kafedrasi dotsenti

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va barqaror o‘sish yo‘nalishida yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhitni himoya qilishni birlashtiruvchi tizim bo‘lib, u bugungi kunda dunyo bo‘ylab ko‘plab mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan resurslardan samarali foydalanish, qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishning o‘rni katta.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni turli strategiyalarni va mexanizmlarni talab etadi. Ushbu jarayonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSh)ning o‘rni nihoyatda muhimdir. Davlat-xususiy sherikchilik, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydigan, uzoq muddatli investitsiya va innovatsiyalarni jalb qilish imkonini beruvchi tizimdir. Aynan shu mexanizm orqali O‘zbekiston yashil innovatsiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va sanoatni ekologik jihatdan toza qilish bo‘yicha katta natijalarga erishishi mumkin.

Yashil innovatsiyalar, asosan, atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi texnologiyalarni, amaliyotlarni va tizimlarni anglatadi. Bular qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish kabi sohalarda o‘z aksini topadi. O‘zbekistonda yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilikning roli ayniqsa katta, chunki u xususiy sektorning moliyaviy va texnologik resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi va shu orqali samarali yashil loyihalar amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat-xususiy sherikchilikni kengaytirish va optimallashtirish zarurati mavjud. Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun, davlat tomonidan ishlab chiqiladigan siyosatlar, xususiy sektorni jalb qilish bo‘yicha samarali mexanizmlar va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiya strategiyalari zarur. Shu bilan birga, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining samarali ishlashi uchun regulyator tizimlarining takomillashuvi, ekologik qonunchilikning mustahkamlanishi va yashil loyihalar uchun alohida moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi muhimdir.

Yashil iqtisodiyot va davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar so‘nggi yillarda kengayib bormoqda. Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni hisobga olgan holda tashkil etishni anglatadi. Yashil innovatsiyalar, asosan, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq. Atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning bunday yondashuvi, ilgari rivojlangan davlatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan va ularning iqtisodiyotlarida yangi o‘sish nuqtalarini yaratgan [1]. O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalari jiddiy muhokama qilinmoqda, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhim o‘rin tutadi.

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlab, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik loyihalarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Davlat-xususiy sherikchilik orqali davlat xususiy sektorga investitsiya va texnologik resurslar ajratishi, shu bilan birga, xususiy sektor ekologik va iqtisodiy foydalarni maksimal darajada olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. DXSh mexanizmining samarali ishlashi uchun yaxshi rejalashtirilgan regulyator tizimi,

moliyaviy stimullar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan yondashuvlar zarur [2].

Hodge va Greve 2005-yilda davlat-xususiy sherikchilik orqali yashil innovatsiyalarni rivojlantirishning imkoniyatlari va muammolarini o‘rganishdi. Ular DXSh loyihalarini ekologik va ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish uchun zarur bo‘lgan shartlarni belgilab, xususiy sektorning texnologik va moliyaviy resurslaridan qanday foydalanish mumkinligini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda, DXShning to‘g‘ri qo‘llanilishi, ayniqsa, yashil energiya va ekologik loyihalarda, barqaror rivojlanishga erishish uchun samarali mexanizm hisoblanadi [3].

Yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilikning moliyaviy mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Yashil loyihalar, ayniqsa, energetika va sanoat sohalarida, yuqori boshlang‘ich sarmoyalarni talab qiladi. Shu bois, davlat-xususiy sherikchilik orqali ushbu loyihalarga investitsiya jalb qilishda xususiy sektorni rag‘batlantirish muhimdir. DXSh mexanizmlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun, davlat tomonidan yashil investitsiyalar uchun alohida subsidiyalar va soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur [4]. Shuningdek, yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatning ilg‘or moliyaviy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlar, samarali mexanizm sifatida ishlatilishi mumkin.

Scherer 2011-yilda yashil moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini o‘rganar ekan, DXSh orqali yashil investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, davlat tomonidan yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan xususiy sektorga rag‘batlantiruvchi siyosatlar, shu jumladan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar, o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlashga yordam beradi [5].

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri - bu davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining joriy etilishi hisoblanadi. O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalariga, ayniqsa, quyosh va shamol energiyasiga bo‘lgan salohiyati katta. DXSh mexanizmi orqali xususiy sektorni jalb qilish, davlatning ekologik siyosatini qo‘llab-quvvatlash va yashil loyihalarni moliyalashtirish mumkin. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida DXShning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu mexanizm orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ekins, P. (2000). *A Handbook of Sustainable Energy: A New Perspective*. London: Routledge.

2. Hodge, G. A., & Greve, C. (2005). *The challenge of public-private partnerships: Learning from international experience*. Public Administration Review, 65(3), 345-352.

3. Pearce, D. W. (2006). *The Economics of Sustainable Development*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.

4. Scherer, L. (2011). *Green financial instruments: Theory and practice*. Journal of Sustainable Finance & Investment, 1(1), 23-45.

5. Tondel, M. (2004). *Public-private partnerships in the energy sector: Opportunities and challenges*. Energy Policy, 32(10), 1787-1795.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA KORXONALARNING INVESTITSIYA FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Irgashev Aziz Abduqayumovich
Mustaqil tadqiqotchi, “O‘zmetkombinat” AJ
G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i

So‘nggi yillarda global miqyosda barqaror taraqqiyot konsepsiyasi asosida iqtisodiyotni ekologik, ijtimoiy va institutsional mezonlar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi omillar natijasida butun dunyoda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan rivojlanish modeli shakllanmoqda. Bu model iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish bilan uyg‘unlashtirgan holda, jamiyat farovonligini uzoq muddatli istiqbolda ta’minlashni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish esa moliyaviy tizimdan boshlab, real sektor korxonalarigacha bo‘lgan barcha iqtisodiy subyektlarning tubdan islohot qilinishini talab etadi.

Yashil iqtisodiy modelda korxonalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan ular ishlab chiqarish, texnologik yangilanish, resurslardan foydalanish va sarmoya jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Shu bois, korxonalar darajasida moliyaviy va investitsiyaviy siyosatni yashil tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni ularning investitsiya faoliyatida ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli yondashuvlarni tatbiq etish — zamon talabi hisoblanadi. Biroq, mavjud iqtisodiy muhitda korxonalar uchun yashil investitsiyalarni amalga oshirish oson emas. Bu bir tomondan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ikkinchi tomondan, ekologik me’yorlarga mos innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi yuqori xarajatlar bilan bog‘liq.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning uzoq muddatli investitsion salohiyatini saqlab qolish va uni kengaytirish imkonini beruvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida esa moliyaviy barqarorlik nafaqat foyda va likvidlik darajasi bilan, balki ekologik xavflar, resurslardan foydalanish samaradorligi, karbon izi, ESG-mezonlarga rioya qilinishi kabi ko‘rsatkichlar orqali ham belgilanadi. Shu jihatdan qaralganda, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash — bu faqat moliyaviy hisobotlar va balanslar darajasidagi masala emas, balki kompleks strategik yondashuvni talab qiluvchi, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli masaladir.

O‘zbekiston misolida metallurgiya sohasi iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yirik metallurgiya korxonalari va yangi sanoat

3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2008). Financing Patterns Around the World: Are Small Firms Different? *Journal of Financial Economics*, 89(3), 467-487.

4. Green, R. C. (2007). Presidential Address: Issuers, Underwriter Syndicates, and Aftermarket Transparency. *The Journal of Finance*, 62(4), 1529-1550.

5. De Fiore, F., & Uhlig, H. (2015). Corporate Debt Structure and the Financial Crisis. *Journal of Money, Credit and Banking*, 47(8), 1571-1598.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КРЕДИТОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА С ИНТЕГРАЦИЕЙ ЗЕЛЕНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Абдурахим Гапуров,
Руководитель Управления по работе с государственными программами, Главное управление «Ўзмиллийбанк» по г. Ташкенту

Современное развитие мировой экономики всё более тесно связано с необходимостью реализации принципов устойчивого развития, где особое внимание уделяется экологическим, социальным и управленческим аспектам (ESG). В условиях глобального потепления, истощения природных ресурсов и ухудшения экологической ситуации ведущие страны мира делают ставку на развитие «зеленой» экономики как нового вектора экономического роста. В этой связи важнейшую роль начинает играть система зеленых финансов — механизмов, направленных на перераспределение финансовых ресурсов в пользу экологически безопасных и устойчивых проектов.

В то же время малый бизнес, являясь одной из ключевых основ рыночной экономики, предпринимательской инициативы и занятости населения, сталкивается с многочисленными барьерами при доступе к финансовым ресурсам. В большинстве стран, в том числе и в Узбекистане, малые предприятия испытывают трудности в привлечении традиционного банковского кредитования из-за повышенных рисков, отсутствия достаточного обеспечения, а также ограниченных возможностей подготовки экологически ориентированных инвестиционных проектов.

Интеграция зеленых финансовых инструментов в систему кредитования малого бизнеса представляет собой перспективное направление, способное одновременно решать задачи финансовой инклюзивности и экологической устойчивости. Такие инструменты, как зеленые кредиты, гарантии для устойчивых проектов, налоговые льготы, специализированные субсидии и программы рефинансирования, способствуют повышению доступности финансирования для субъектов малого предпринимательства, особенно в

сферах, связанных с энергосбережением, возобновляемыми источниками энергии, переработкой отходов и экологически чистыми технологиями.

Тем не менее, практическое применение зеленых финансовых инструментов в секторе малого бизнеса остаётся ограниченным. Это обусловлено как отсутствием соответствующей нормативно-правовой базы и финансовой инфраструктуры, так и недостаточной осведомленностью предпринимателей о возможностях «зеленого» финансирования. Кроме того, банки и иные кредитные организации пока не обладают должными методологиями оценки экологических рисков и проектной эффективности в сфере устойчивого развития.

Исследование системы кредитования малого бизнеса опирается на богатую академическую базу, объединяющую финансовую теорию, институциональную экономику и поведенческие подходы. Первым фундаментальным подходом является теория асимметрии информации, разработанная Акерлофом (Akerlof, 1970). Она объясняет, почему банки сталкиваются с трудностями при кредитовании малого бизнеса: недостаток прозрачной финансовой информации о предприятиях приводит к повышению воспринимаемых рисков и, как следствие, к завышенным процентным ставкам или отказам в кредитовании. Эта идея была развита Стиглицем и Вейсом (Stiglitz & Weiss, 1981), которые показали, что асимметрия информации может приводить к кредитному рационированию, особенно для малых предприятий с ограниченной кредитной историей. Их работа подчеркивает необходимость альтернативных механизмов оценки рисков, таких как использование нестандартных данных (например, анализа транзакций или социальных сетей).

Дополнительный слой анализа привносит теория финансового посредничества (Diamond, 1984), которая объясняет роль банков как посредников, снижающих информационные и транзакционные издержки между кредиторами и заемщиками. Для малого бизнеса это означает, что банки могут играть ключевую роль в преодолении барьеров, если будут использовать инновационные подходы, такие как цифровые платформы или скоринговые модели на основе больших данных. Современные исследования, например, Berger и Udell (2006), подтверждают, что внедрение технологий значительно повышает доступность кредитов для МСП, особенно в условиях ограниченных ресурсов.

Эффективная организация системы кредитования представляет собой не просто инструмент преодоления финансовых барьеров для малого бизнеса, но и стратегический механизм, способный трансформировать его роль в экономике. Проведенное исследование демонстрирует, что целенаправленное сочетание государственных интервенций, банковских инноваций и кооперативных подходов создает синергетический эффект, устраняя структурные ограничения, такие как асимметрия информации, высокие транзакционные издержки и институциональная инертность. Эти выводы подтверждают гипотезу о том, что кредитная система, адаптированная к специфическим потребностям малого бизнеса, может выступать

катализатором его устойчивого роста, повышая конкурентоспособность и способствуя макроэкономической стабильности.

Список использованной литературы:

1. Akerlof, G. A. (1970). Рынок “лимонов”: Неопределенность качества и рыночный механизм. *Quarterly Journal of Economics, 84*(3), 488-500.

2. Diamond, D. W. (1984). Финансовое посредничество и делегированный мониторинг. *Review of Economic Studies, 51*(3), 393-414.

3. North, D. C. (1990). Институты, институциональные изменения и экономическая эффективность. Cambridge University Press.

4. OECD (2022). *Финансирование малого и среднего бизнеса: Тенденции и вызовы*. Организация экономического сотрудничества и развития.

5. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Кредитное рационирование на рынках с несовершенной информацией. *American Economic Review, 71*(3), 393-410.

KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI YASHIL LOYIHALAR DOIRASIDA ISLOM MOLIYASI VOSITALARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Atabekova Shaxnoza Ashrabbek qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi magistranti

Hozirgi davrda global iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish kabi ustuvor maqsadlar asosida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi shakllanmoqda. Ushbu yondashuv atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishishni ko‘zda tutadi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) asosida iqtisodiy va moliyaviy tizimlarning transformatsiyasi kun tartibiga chiqmoqda.

Shu bilan birga, bu jarayonda kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarining o‘rni ham beqiyosdir. Chunki ular nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki hududiy bandlik, innovatsiyalar va ijtimoiy farovonlikning ham asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, ekologik jihatdan samarali loyihalarni amalga oshirish uchun KOB subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari ko‘pincha cheklangan bo‘ladi. Ayniqsa, an’anaviy moliyaviy institutlar tomonidan bunday loyihalar yuqori xavfli, uzoq muddatli yoki past daromadli deb baholanishi natijasida ularni moliyalashtirish sust amalga oshadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda islom moliyasi vositalari muqobil echim sifatida ilgari surilmoqda. Islom moliyasi - bu foizdan (riba) voz kechish, shariatga muvofiq, riskni taqsimlash va real iqtisodiyotga bog‘liqlik kabi tamoyillarga asoslangan moliyalashtirish tizimidir. Ayniqsa, islomiy moliyaviy vositalar (musharaka, mudaraba, ijara, sukuk va boshqalar) orqali tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yuqori. Ushbu vositalarning o‘ziga xos jihati - ular real aktivlarga asoslangan, spekulyativ xarakterga ega emas, va eng

muhimi, ijtimoiy hamda ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlikda faoliyat yuritishni rag‘batlantiradi.

Islom moliyasi va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqida xalqaro miqyosda ko‘plab tadqiqotlar mavjud. So‘nggi yillarda Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda “yashil sukuk” (green sukuk) amaliyoti keng joriy etilib, qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa ekologik loyihalarni moliyalashtirishda muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda. Islom moliyasining shariatga asoslanganligi va ekologik barqarorlikni e’tiborga olishi tufayli u yashil iqtisodiyotga moliyaviy poydevor bo‘la oladi.

Kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarining yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi o‘rni va ularga nisbatan samarali moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish so‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tadqiqotlarning diqqat markaziga aylangan. Shu jihatdan qaraganda, KOB faoliyatini ekologik loyihalar doirasida moliyalashtirishda muqobil yondashuvlardan biri sifatida islom moliyasi vositalaridan foydalanish masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Islom moliyasi tizimi foizdan (riba) voz kechish, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, risk va foydani taqsimlash, shuningdek, ijtimoiy adolatga urg‘u berish kabi tamoyillarga asoslangan bo‘lib, uni ekologik barqarorlik konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish tabiiy jarayon sifatida talqin qilinmoqda [1]. Bu borada Chapra va Siddiqi kabi mualliflar islomiy moliya va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi bevosita aloqani asoslab berganlar [2].

So‘nggi yillarda islom moliyasi doirasida joriy etilgan green sukuk (yashil sukuk) vositalari ekologik loyihalarni moliyalashtirishda innovatsion echim sifatida ko‘rilmoqda. Malayziya, Indoneziya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarda green sukuk’lar orqali qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda [3]. Ahmed va Hanifa (2020) o‘z tadqiqotida islomiy moliyaviy vositalarning yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi ustunliklarini tahlil qilgan holda, ularni kichik biznes sektoriga moslashtirish mumkinligini ta’kidlaydi [4].

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 2022-yilgi hisobotlarida qayd etilishicha, islom moliyasining barqarorlik tamoyillari — “haram” faoliyatdan chetlashish, ijtimoiy samaradorlikka urg‘u berish, aktivga asoslanganlik va noaniqlik (gharar)dan voz kechish — uni yashil moliyalashtirishda keng qo‘llash uchun asos yaratadi [5].

Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kichik va o‘rta biznes subyektlarini samarali moliyalashtirish O‘zbekistonning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda islom moliyasi vositalaridan — xususan, musharaka, mudaraba va yashil sukuk kabi shariatga asoslangan mexanizmlardan foydalanish ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda muqobil va adolatli echim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda islomiy moliyaviy vositalarni milliy moliya tizimiga moslashtirish, banklar va regulyatorlar salohiyatini oshirish, hamda yashil moliyalashtirish infratuzilmasini shakllantirish zarur. Ushbu mexanizmlarning joriy etilishi nafaqat KOB subyektlarining

investitsion faolligini, balki yashil iqtisodiyotning moliyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. El-Gamal, M. A. (2006). *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. Cambridge University Press.

2. Chapra, M. U., & Siddiqi, M. N. (2000). *Islamic Economics and Finance: A Historical Perspective*. Islamic Development Bank.

3. World Bank & Malaysia Securities Commission. (2019). *Green Sukuk: How to Build a Green Islamic Finance Market*. Kuala Lumpur.

4. Ahmed, H., & Hanifa, M. A. (2020). *Islamic Finance and the SDGs: The Role of Green Sukuk in Sustainable Development*. *Journal of Islamic Finance*, 9(1), 45–60.

5. OECD & UNDP. (2022). *Shariah-Compliant Finance and the 2030 Agenda for Sustainable Development*. Paris: OECD Publishing.

MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA ESG MEZONLARI ASOSIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH USULLARI

Iskandarova Dilorom Xayrullayevna
Mustaqil izlanuvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning tugab borishi kabi dolzarb masalalar insoniyat oldida yangi iqtisodiy rivojlanish modellarini qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi jahon hamjamiyati tomonidan barqaror rivojlanishga erishishning eng muhim yondashuvlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) esa mamlakatlar uchun innovatsion g‘oyalarni sinab ko‘rish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda MIZlarni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida transformatsiya qilish, ularda ekologik toza ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni tatbiq etish global trendga aylanmoqda. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, ularning 10%dan ortig‘ida yashil iqtisodiyot elementlari faol joriy etilmoqda [1]. Shu sababli, maxsus iqtisodiy zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini qo‘llashning xalqaro tajribalarini o‘rganish, ularning yutuqlarini tahlil qilish va eng yaxshi amaliyotlarni milliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalarning yashillanishi ularda an’anaviy iqtisodiy faoliyatdan barqaror va ekologik toza faoliyatga o‘tishni anglatadi. Bu transformatsiya jarayoni global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga, “Parij iqlim bitimi” va “Yashil kelishuv” (Green Deal) kabi xalqaro hujjatlardagi

majburiyatlarni bajarishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha, yashil MIZlar nafaqat ekologik samaradorlikni oshiradi, balki yangi bozorlarni o‘zlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini ham yaratadi. Misol uchun, UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, yashil texnologiyalar bozorining global hajmi 2020-yilda 4.2 trillion dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 12 trillion dollarga etishi kutilmoqda [2]. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalarning yashillanishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham juda istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ko‘plab mamlakatlar MIZlarni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida qayta qurishga katta e’tibor qaratmoqda va bu sohadagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini qo‘llash turli mamlakatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xitoyda “Eko-sanoat parklari” va “Kam uglerodli zonalar”, Yevropada “Yashil innovatsiya zonalari”, Janubiy Koreyada “Smart Green Industrial Complexes”, Singapurda “Eko-biznes parklari” kabi yashil MIZ modellari keng tarqalgan [3]. Bu modellarning har biri o‘ziga xos yondashuv, mexanizm va instrumentlarga ega bo‘lib, ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy-huquqiy muhiti, bozor shartlari va ekologik vaziyatiga bog‘liq. Masalan, Xitoyning Suzhou sanoat parki yashil MIZning eng muvaffaqiyatli misollaridan biri hisoblanadi, u erda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarsiz ishlab chiqarish (zero-waste production) va resurslardan samarali foydalanish tamoyillari to‘liq joriy etilgan. Dubai’dagi “Toza energiya zonasi” esa qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish uchun maxsus sharoitlar yaratilgan yashil MIZ misolidir [4]. Bu tajribalarni o‘rganish, ularning mustahkam va zaif tomonlarini tahlil qilish va milliy sharoitlarga moslashtirish zamonaviy iqtisodiyot uchun juda muhimdir.

O‘zbekistonda ham maxsus iqtisodiy zonalar tizimi faol rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatda 23 ta erkin iqtisodiy zona va 300 dan ortiq kichik sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda, ularning eksport salohiyati va investitsion jozibadorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Biroq, bu zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish hali ham boshlang‘ich bosqichda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yashil iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan [5]. Bu dasturiy hujjatlarda qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, "yashil" transport, ekologik barqaror qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda qator vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish, bu boradagi xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning xalqaro “yashil” qiymat zanjirlariga integratsiyalashuviga, eksport salohiyatining oshishiga va global raqobatbardoshligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi [6].

Maxsus iqtisodiy zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini qo‘llashning

xalqaro tajribalarini o‘rganish nafaqat ekologik va iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, yashil MIZlar munosib “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, global miqyosda 2030-yilga borib yashil iqtisodiyot sohasida 24 million yangi ish o‘rni yaratilishi mumkin [7]. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalarni yashillashtirish orqali nafaqat ekologik barqarorlikka, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ham erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalarda yashil iqtisodiyot elementlarini qo‘llash mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish, chekka hududlarni innovatsion rivojlantirish va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [8]. Bu jihatlarni hisobga olgan holda, mazkur mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va milliy iqtisodiyot uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalarda ESG mezonlari asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari[111]

ESG komponenti	Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi	Amaliy instrumentlar	Xalqaro namunalar	Samaradorlik ko‘rsatkichlari
Ekologik (E)	Ekologik infratuzilmani yaratish	Yashil binolar Qayta tiklanuvchi energiya inshootlari, Smart-grid tizimlar Chiqindilarni qayta ishlash zanjiri	Singapur Jurong Eko-Biznes Parki, Daniya Kalundborg Sanoat Simbiozi	CO_2 emissiyasini 30-50% kamaytirish Energiya samarador-ligini 40% oshirish Chiqindilarni 80% qayta ishlash
Ekologik (E)	Yashil preferensiyalar tizimi	Ekologik sertifikatlashgan kompaniyalarga soliq imtiyozlari, Subsidiyalar, Yashil kreditlar Yashil bojxona preferensiyalari	Xitoy Suzhou Sanoat Parki, Janubiy Koreya Incheon Erkin Iqtisodiy Zonasi	Yashil investitsiyalar ulushining 25% oshishi Investitsiya oqimining 40% ko‘payishi
Ijtimoiy (S)	Malakali kadrlar bazasini yaratish	Yashil ko‘nikmalar markazlari ESG bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari STEM-laboratoriyalar Industirya-universitet hamkorligi	Irlandiya Shannon Erkin Zonasi, Janubiy Koreya Incheon Bilimlar Shahri	Yashil ko‘nikmalarga ega kadrlar soni 200%ga oshishi Innovatsion startaplar soni 150%ga oshishi
Ijtimoiy (S)	ESG egalari uchun qiymat zanjirini yaratish	ESG-muvofiq xomashyo etkazib beruvchilar tarmog‘i, Yashil hamkorlik platformasi, ESG sertifikatlangan mahsulotlar uchun eksport preferensiyalari	BAA Dubai Multi Commodities Centre, Hindiston Gujarat International Finance Tec-City	Xalqaro ESG-orientir kompaniyalar soni 3 barobar oshishi Global yashil qiymat zanjirlariga integratsiya darajasi 45% oshishi
Boshqaruv (G)	Boshqaruv tizimlarini takomillashtirish	ESG-kompetensiyalarga ega direktorlar kengashi Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari MIZ boshqaruvida stakeholderlar ishtiroki	Singapur Jurong Innovatsiya Distrikti, Finlandiya Espoo Innovatsiya Vodiysi	Korrupsiya indeksining 40% yaxshilanishi Boshqaruv samarador-ligining 35% oshishi Stakeholderlar mamnunligi darajasining oshishi
Boshqaruv (G)	Risklar boshqaruvi tizimini yaratish	ESG-risklar boshqaruvi Iqlim risklar bo‘yicha stress-testlar ESG-kompliensni boshqarish	Shveytsariya Crypto Valley, Yaponiya Tokio Bay Innovation City	Risklar tufayli yo‘qotishlarning 50% kamayishi Investitsion xavfsizlikning oshishi Uzoq muddatli

[111] Muallif tomonidan tayyorlandi.

				investitsiyalar ulushining oshishi

Maxsus iqtisodiy zonalarda ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari kompleks va ko‘p qirrali tizimni tashkil etadi. Jadvalda ko‘rsatilganidek, ESG-ning uch komponentiga muvofiq ravishda turli mexanizmlar qo‘llaniladi: ekologik (E) yo‘nalishda – ekologik infratuzilmani yaratish, yashil preferensiyalar tizimini joriy etish va iqlim menejmentini rivojlantirish; ijtimoiy (S) yo‘nalishda – malakali kadrlar bazasini yaratish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va ESG egalari uchun qiymat zanjirini shakllantirish; boshqaruv (G) yo‘nalishida esa – ESG-transparentlik tizimini yaratish, boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va risklar boshqaruvi tizimini joriy etish kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mexanizmlarning har biri o‘ziga xos amaliy instrumentlar, samaradorlik ko‘rsatkichlari va xalqaro namunalarga ega. Masalan, ekologik komponenti doirasida Singapur Jurong Eko-Biznes Parki va Xitoy Suzhou Sanoat Parki tajribalari namunali hisoblanib, ular CO_2 emissiyasini 30-50% kamaytirish, energiya samaradorligini 40% oshirish va yashil investitsiyalar ulushini 25% orttirish kabi ko‘rsatkichlarga erishgan.

ESG investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur bo‘lib, bu jarayon tayyorgarlik bosqichi (6-12 oy), pilot joriy etish bosqichi (12-18 oy), kengaytirish bosqichi (18-36 oy) va barqarorlashtirish bosqichi (36-60 oy) kabi davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalarda ESG infratuzilmasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, yashil energetika, suv resurslari, chiqindilarni boshqarish, “yashil” transport, ESG axborot va ESG innovatsiya infratuzilmalari tizimlarini shakllantirish zarur. Bu infratuzilmalarning har biri investorlar uchun o‘ziga xos afzalliklarni ta’minlaydi va turli darajadagi investitsion jalb qilish potensialiga ega. Masalan, yashil energetika infratuzilmasi (yillik ROI 12-15%) va ESG innovatsiya infratuzilmasi (yillik ROI 15-20%) eng yuqori jalb qilish potensialiga ega. Bunday tizimli yondashuv maxsus iqtisodiy zonalarning raqobatbardoshligini oshiradi, global ESG yo‘nalishdagi investitsiyalarni jalb qiladi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tizimini rivojlantirish jarayonida ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarini joriy etish mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va global yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 23 dan ortiq erkin iqtisodiy zona va 300 ga yaqin kichik sanoat zonalari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida ESG mezonlari to‘liq joriy etilmagan, yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari etarli darajada rivojlanmagan. Jadvalda ko‘rsatilgan xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston MIZlarida ekologik komponenti doirasida yashil infratuzilmani yaratish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va resurs tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish; ijtimoiy komponenti bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyatli biznes muhitini yaratish; boshqaruv komponenti doirasida esa ESG-transparentlik tizimini joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurashish va risklar boshqaruvi tizimini yaratish zarur.

O‘zbekiston MIZlarida ESG mezonlari asosida investitsiyalarni jalb qilish uchun bosqichma-bosqich yondashuv qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Dastlab, “Angren”, “Navoi” va “Jizzax” kabi yirik erkin iqtisodiy zonalarda ESG bo‘yicha pilot loyihalarni amalga oshirish, keyin esa bu tajribani boshqa zonalarga tarqatish zarur. Bu jarayonda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, EBRD) va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro ESG standartlari va sertifikatsiya tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2030 yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish strategiyasi MIZlarda ESG mezonlari asosida investitsiyalarni jalb qilish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu yo‘nalishda tizimli islohotlarni amalga oshirish, maxsus normativ-huquqiy bazani yaratish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi.

ESG mezonlari asosida investitsiyalarni jalb qilish O‘zbekiston MIZlari uchun qator ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin: xalqaro investorlar uchun jozibadorlikni oshirish, global yashil qiymat zanjirlariga integratsiyalashish, eksport geografiyasini kengaytirish, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, energiya va resurs xarajatlarini kamaytirish, mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta’minlash kabilar. Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha, ESG mezonlariga asoslangan maxsus iqtisodiy zonalar an’anaviy zonalarga nisbatan o‘rtacha 15-25% ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish, 20-30% kamroq energiya va resurs sarflash, 30-40% ko‘proq innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish, 25-35% yuqori eksport ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatiga ega. Bu esa O‘zbekiston uchun MIZlarni ESG tamoyillari asosida transformatsiya qilishning muhim iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNCTAD. (2023). “World Investment Report 2022: Special Economic Zones and Green Economy”. United Nations Conference on Trade and Development.

2. UNCTAD. (2022). “Green Economy Transition: The Role of Special Economic Zones”. United Nations Conference on Trade and Development.

3. World Bank. (2023). “Greening Special Economic Zones: International Best Practices”. World Bank Group, Washington, D.C.

4. UNIDO. (2022). “Eco-Industrial Parks: Models for Sustainable Development in Developing and Emerging Economies”. United Nations Industrial Development Organization.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-4477-son, 2019-yil 4-oktyabr.

6. Asian Development Bank. (2023). “Special Economic Zones in Central Asia: The Role of Green Innovation”. ADB Working Paper Series.

7. ILO. (2023). “World Employment and Social Outlook 2023: Greening with Jobs”. International Labour Organization, Geneva.

8. OECD. (2023). “Green Special Economic Zones: A Tool for Sustainable Industrial Development”. Organisation for Economic Co-operation and Development, Paris.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIKKA QARSHI RAQAMLI KURASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Gadayev Ismat Yadgarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi global iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarida barqarorlik tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi yashil iqtisodiyot modeli yetakchi paradigma sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu model nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki moliyaviy resurslarni atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi, ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Bunda davlat va xususiy sektor ishtirokida keng ko‘lamli yashil moliyalashtirish mexanizmlari - jumladan, yashil obligatsiyalar, grantlar, subsidiyalar, karbon kreditlar - joriy etilmoqda. Ushbu yangi moliyaviy oqimlarning hajmi kengayib borar ekan, ularni boshqarish, monitoring qilish va ularning maqsadga muvofiqligini baholash jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlik talablari yanada keskinlashmoqda.

Ammo yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining faollashuvi, ayni paytda moliyaviy firibgarlik xavflarining murakkab shakllarda ko‘payishiga ham zamin yaratmoqda. Yashil yuvish (greenwashing), ekologik hisobotlarni soxtalashtirish, resurslarni noto‘g‘ri yo‘naltirish va boshqa shunga o‘xshash sxemalar orqali moliyaviy resurslarning maqsadsiz sarflanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, davlat budjeti va xalqaro donorlar tomonidan ajratilayotgan ekologik yo‘naltirilgan mablag‘lar firibgar subyektlar uchun nisbatan oson nishonga aylanishi mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki yashil iqtisodiyotga nisbatan jamoatchilik va investorlar ishonchiga jiddiy putur yetkazadi.

Mazkur tahdidlarning oldini olishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va tarmoq analitikasi vositalari asosidagi real vaqtli monitoring, audit va xavf baholash tizimlarining roli alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu texnologiyalar nafaqat firibgarlik holatlarini aniqlash, balki ularni bashorat qilish va profilaktika qilish imkonini ham yaratadi. Shu bois, yashil iqtisodiyotni firibgarlik tahdidlaridan himoya qilishda raqamli yondashuvlarga asoslangan kompleks boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bugungi davrning dolzarb ilmiy vazifasiga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda global darajada iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, barqaror energiya resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan ilg‘or iqtisodiy model sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq, ushbu modelni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan moliyalashtirish mexanizmlari (yashil obligatsiyalar, grantlar, subsidiyalar va kreditlar) firibgarlik tahdidlariga nisbatan sezgir ekanligi ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlangan [1].

Moliya sektorida firibgarlik hodisalari iqtisodiy tizimning barcha tarkibiy qismlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, davlat va xalqaro donorlar tomonidan moliyalashtiriladigan yashil loyihalar doirasida resurslarning noto‘g‘ri yo‘naltirilishi, ataylab soxta hisobotlar taqdim etilishi va korrupsiya risklarining kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi [2]. Transparency International ma’lumotlariga ko‘ra, barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan grant va subsidiyalarning muayyan qismi maqsadsiz sarflanishi yoki manfaatdor guruhlar tomonidan noqonuniy o‘zlashtirilish xavfiga duchor bo‘lmoqda [3].

Firibgarlik tahdidlariga qarshi samarali kurashishda raqamli texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Jumladan, sun’iy intellekt (AI) asosida ishlovchi avtomatik monitoring tizimlari real vaqt rejimida moliyaviy operatsiyalarni kuzatish, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash va ular bo‘yicha tavsiyalar berish imkonini beradi. Shu bilan birga, “Big data” analitikasi orqali katta hajmdagi moliyaviy va ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va firibgarlikka oid anomaliyalarni ilgari surish mumkin.

So‘nggi yillarda keng tatbiq etilayotgan blokcheyn texnologiyasi ham shaffoflikni oshirish, tranzaksiyalarni o‘zgarmas va kuzatuvchan holatda saqlash orqali firibgarlikka qarshi samarali vosita sifatida ko‘rilmoqda. Christidis va Devetsikiotis (2016) ta’kidlaganidek, blokcheyn orqali moliyaviy ma’lumotlarning markazlashtirilmagan holda saqlanishi korrupsiya va manipulyatsiya holatlarini keskin kamaytirishga xizmat qiladi [5]. Ayniqsa, smart-kontraktlar yordamida davlat xarajatlari yoki grant ajratmalarini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish orqali inson omiliga bog‘liq risklar minimallashtiriladi.

Yashil iqtisodiyotni moliyaviy firibgarlikdan himoya qilishda raqamli texnologiyalarni kompleks asosda joriy etish strategik zaruratga aylanmoqda. Shu bois, eng avvalo, raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy monitoring, audit va risklarni baholash tizimlarini yashil moliyalashtirish jarayonlariga integratsiya qilish zarur. Bunda sun’iy intellekt, blokcheyn va big data vositalari orqali real vaqtli tranzaksiya tahlili, grant va subsidiyalarning maqsadliligini avtomatik baholovchi algoritmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, smart-kontraktlar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish inson omiliga bog‘liq risklarni kamaytiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlashdan iborat. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, raqamli audit jarayonlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, raqamli dalillar asosida firibgarlikni aniqlash va javobgarlik mexanizmlarini belgilovchi qonunchilikni ishlab chiqish zarur. Bu esa, nafaqat texnologiyaning huquqiy maqomini mustahkamlaydi, balki ularning samarador ishlashiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, texnologik salohiyatni rivojlantirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida ixtisoslashtirilgan raqamli moliya platformalarini yaratish, ular doirasida ekologik loyihalarning shaffofligi, moliyaviy oqimlar kuzatuvchanligi va avtomatik tekshiruv imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish uchun yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar

kesishmasida mutaxassislar tayyorlash dasturlarini joriy etish, akademik va amaliy hamkorlik platformalarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations Environment Programme (2020). *Green Economy Progress Measurement Framework*. UNEP.
2. OECD (2021). *Illicit Financial Flows in Developing Countries: Governance and Monitoring Mechanisms*.
3. Transparency International (2022). *Corruption Risks in Climate Finance*.
4. Albrecht, C. C., Albrecht, W. S., & Albrecht, C. O. (2019). *Fraud Examination and Prevention with AI Tools*. Journal of Forensic & Investigative Accounting.
5. Christidis, K., & Devetsikiotis, M. (2016). *Blockchains and Smart Contracts for the Internet of Things*. IEEE Access, 4, 2292-2303.

YASHIL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ORQALI AXBOROT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Kadirov Alisher Ismailovich
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy munosabatlarning tobora raqamli shakllanishi, texnologik transformatsiyaning jadalligi va sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), tarmoqli tizimlar (IoT) kabi ilg‘or texnologiyalarning keng joriy etilishi global iqtisodiy modelni tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Shu jarayonda raqamli iqtisodiyot - nafaqat yangi iqtisodiy aloqalar tizimi, balki axborotga asoslangan bilimga tayanuvchi samarali boshqaruv modeliga aylanib bormoqda. Mazkur sharoitda axborot resurslari, ularni himoya qilish, uzatish va saqlash tizimlari eng muhim strategik aktivlar qatoridan joy olmoqda. Ayniqsa, moliyaviy sektor, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va logistika sohalarida axborot xavfsizligining kafolatlangan darajasini ta’minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir.

Blokcheyn texnologiyasi dastlab moliyaviy sektor, xususan, kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib uning qo‘llanish doirasi keskin kengayib, huquqiy hujjat aylanishi, identifikatsiya tizimlari, intellektual shartnomalar (smart contracts), ta’minot zanjiri, tibbiyot, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalarni ham qamrab olmoqda. Aynan raqamli iqtisodiyot sharoitida blokcheyn texnologiyasining transformatsion kuchi uni axborot xavfsizligi strategiyalarining ajralmas qismiga aylantiradi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi axborot xavfsizligini ta’minlashga doir yondashuvlarning tubdan yangilanishini talab qilmoqda. An’anaviy markazlashgan tizimlar hozirgi kunda global miqyosdagi kiberxavflar, ma’lumotlar oqimining ko‘pligi va ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish holatlariga qarshi kurashishda

yetarli darajada samaradorlikni ta’minlamayapti [1]. Shu bois, zamonaviy axborot xavfsizligi konsepsiyasida blokcheyn texnologiyasi strategik innovatsion vosita sifatida qaralmoqda.

Blokcheyn texnologiyasi dastlab Satoshi Nakamoto tomonidan 2008-yilda taklif etilgan bo‘lib, u Bitcoin kriptovalyutasining asosini tashkil etgan [2]. Biroq bugungi kunga kelib, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalar doirasidan chiqib, ma’lumotlar almashinuvi, autentifikatsiya, intellektual shartnomalar (smart contracts), kiberxavfsizlik va davlat boshqaruvi sohalariga keng tatbiq qilinmoqda [3]. Blokcheyn texnologiyasining asosiy afzalliklari sifatida uning markazsizlashtirilganligi, kriptografik himoya, shaffoflik va o‘zgarmaslik tamoyillari ko‘rsatiladi [4].

Bir qator tadqiqotlarda blokcheynning axborot xavfsizligiga ta’siri tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan. Xususan, Christidis va Devetsikiotis (2016) blokcheyn texnologiyasining ishonch muhitini yaratishdagi rolini tahlil qilib, uni kiberxavfsizlik siyosatining muhim elementi deb baholaydi [5]. Ularning fikricha, blokcheyn orqali har qanday axborot birligi (data asset) kriptografik tasdiqlov bilan bog‘lanadi va bu axborotga har qanday ruxsatsiz o‘zgarishni deyarli imkonsiz holatga keltiradi.

Kiberxavfsizlik kontekstida blokcheynning eng muhim jihatlaridan biri - bu markazlashmagan tarmoq modelidir, ya’ni yagona serverga bo‘lgan bog‘liqlik mavjud emas. Bu xususiyat tizimni DDoS (Distributed Denial-of-Service) kabi hujumlardan himoya qilish imkonini beradi. Shuningdek, ma’lumotlar bo‘yicha barcha o‘zgarishlar tarmoqdagi barcha tugunlar (nodes) tomonidan tasdiqlanadi, bu esa noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilishining oldini oladi [6].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashda blokcheyn texnologiyasining salohiyatidan to‘laqonli foydalanish uchun bir nechta kompleks va tizimli choralarni amalga oshirish zarur. Avvalo, davlat darajasida blokcheyn texnologiyasi uchun maxsus normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va takomillashtirish muhimdir. Bu qonunchilik blokcheyn asosida ishlovchi tizimlar, smart-kontraktlar, raqamli shaxsni identifikatsiyalash mexanizmlari, ma’lumotlar maxfiyligi va ularni saqlash tartiblariga oid aniq va aniqlashtirilgan huquqiy me’yorlarni o‘z ichiga olishi lozim. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida raqamli hujjat aylanishi, elektron reyestrlar va davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish uchun blokcheynga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, texnologiyani amaliyotga tatbiq etish uchun raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, yuqori hisoblash quvvatlariga ega tarmoq markazlari, xavfsiz ma’lumotlar markazlari va tarqatilgan saqlash tizimlarini joriy etish talab etiladi. Shu bilan birga, blokcheyn asosidagi konsensus algoritmlarining (Proof-of-Stake, Proof-of-Authority va boshqalar) o‘ziga xos jihatlarini hisobga olib, ularni O‘zbekistonning iqtisodiy va texnologik sharoitlariga moslashtirish orqali energiya samaradorligini ta’minlovchi modellarni joriy etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD (2020). *Digital Security Risk Management for Economic and Social Prosperity*. OECD Publishing.

2. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System*.

3. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World*. Penguin.

4. Swan, M. (2015). *Blockchain: Blueprint for a New Economy*. O'Reilly Media.

5. Christidis, K., & Devetsikiotis, M. (2016). *Blockchains and Smart Contracts for the Internet of Things*. IEEE Access, 4, 2292-2303.

6. Conti, M., Kumar, S., Lal, C., & Ruj, S. (2018). *A survey on security and privacy issues of blockchain technology*. IEEE Communications Surveys & Tutorials, 21(2), 1-29.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA YASHIL ENERGIYA YECHIMLARNING AHAMIYATI

G‘iyosova Nodiraxon Jamoliddin qizi
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti II- bosqich magistratura talabasi

Ishlab chiqarish sanoati azaldan energiyani ko‘p talab qiladigan tarmoq ekanligi hech kimga sir emas. Qazib olinadigan tabiiy resurslar uzoq vaqt davomida asosiy energiya manbai bo‘lib kelgan. Tabiiy gaz va boshqa turdagi yoqilg‘ilarni yoqish natijasida atmosferaga juda ko`p zaxarli moddalar ajralib chiqadi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqchi bo`lgan har bir mamlakat cheklangan resurslarni tejash va ularni kelgusi avlod uchun ham asrab qolishni, atmosferani zararlanishiga qarshi chora tadbirlar ko`rish zaruratini o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Yashil energiya echimlari esa bu borada har ikki dolzarb muammoning mukammal echimi bo`lib xizmat qiladi hamda kelajakda ko`zda tutilgan barqarorlikka erishishga yordam beradi.

Ho`sh, aslini olganda yashil energiya manbai nima? Yashil energiya bu shamol, suv va quyosh kabi qayta tiklanadigan manbalardan foydalangan holda sanoat va boshqa sohalarga kerak bo`ladigan energiya manbaaini ishlab chiqarishdir. Bu energiya manbalarining avzalliklari shundaki ular yoqilganida atrof-muhitni ifloslantirmaydi va bu yashil energiyaning barqaror kelajak uchun maqbul tanlov ekanligini ko`rsatadi. [112] Ishlab chiqarish tarmoqlarida energiya talabining uchdan ikki qismini issiqlik energiyasi tashkil qiladi. Yirik ishlab chiqarish korxonalari bo`lsa arzon va mahalliy qayta tiklanadigan biomassa kabi muqobil energiyadan foydalanadi. An`anaviy qayta tiklanmaydigan energiya narxlarining doimiy oshib borishi ishlab chiqaruvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy [113]

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llash orqali ishlab chiqarish kompaniyalari barqaror va kamxarj energiya xarajatlarini ta’minlab, ishlab chiqarish samaradorligi va barqarorligini oshirishlari mumkin.

[112] Polojenseva Yu., Klevsova S. 2021.
[113] Qurbonov J.Q. 2017.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni sanoatda ko`p va uzluksiz energiya talab qiladi. Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish tarmoqda uzulishlar kuzatilish xavfini kamaytiradi va ishlab chiqaruvchi kompaniyalar qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish orqali an'anaviy energiya manbalari bilan bog‘liq bo`lgan byudjet va ekologik muammolardan halos bo`lishadi. Ko‘pgina yirik sanoat obyektlari elektr energiyasi tanqisligi xavfini kamaytirish uchun muqobil energiya ishlab chiqarishga, xususan, shamol va quyosh energiyasiga invistitsiyalar jalb qilmoqda. Bu usul yirik ishlab chiqarish tarmoqlaridan sement, kimyoviy vositalar, temir va po‘lat, engil sanoat tarmoqlari, keramika sanoati, qog‘oz, shakar sanoati va yarimtayyor oziq ovqat ishlab chiqarish sanoati kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda.[114]

Yashil energiya echimlarini qo`llash orqali ishlab chiqarish tarmoqlari barqarorlik tashabbuslariga hissa qo‘shishi mumkin. Havoni zaxarlantiruvchi uglerod chiqindilari energiya ta’minoti uchun qazib olinadigan yoqilg‘ining eksporti va importi natijasida hosil bo‘ladi. Sanoat korxonalari yashil energiya echimlariga o‘tish orqali bunday chiqindilarni kamaytirishiga erishish mumkin.

Ishlab chiqarish tarmoqlari elektr ta’minotiga katta ehtiyojga ega bo`lgan uzluksiz ta’minot zanjiriga ega. Yashil energiya manbalari bilan uzluksiz elektr energiyasini ta`minlashga erishiladi. Shamol, suv va quyosh energiyasiga asoslangan yashil energiya echimlari bu vazifasini bajarmoqda mukammal va benuqson tarzda. Tarmoqli akkumulyator texnologiyasining evolyutsiyasi bilan ishlab chiqarish kompaniyalari yashil energiya ishlab chiqaradigan elektr energiyasini uzoq muddatga saqlashlari mumkin bo‘ladi. Ushbu saqlangan elektr energiyasi qayta tiklanadigan energiya o`rnida ishlatilishi mumkin.

Qayta tiklanmaydigan yoqilg‘i energiyasi narxini oldindan aytib bo‘lmaydi va narxlar istalgan vaqtda ko‘tarilishi mumkin. Lekin yashil energiyaga sarmoya kiritish orqali ishlab chiqarishda barqaror o‘sishni ta’minlashi mumkin [Ortiqov A.2009].

Yashil energiya sektori texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar jadal rivojlanmoqda. Quyosh Gidroenergetika ishlab chiqarishda foydalaniladigan turbinalardagi yangi termoplastik material yana bir yangilikdir. Ushbu material an'anaviy materialga qaraganda kamroq xarajat talab etadi. Bunday texnologik yutuqlar yashil energiya ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bumday innovatsion texnologiyalardan har bir yirik tarmoq kelajakda foydalanish mumkun.

Yashil energiyalar inson salomatligi va xavfsizligini ham ta’minlamoqda. Tabiiy yoqilg‘ilarni yoqish zararli moddalar bilan zaxarli chiqindilarni atmosferaga chiqaradi. Ammo yashil energiya echimlari bundan mustasnodir. O‘zbekistonda ayrim ishlab chiqarish korxonalari aholi punktlariga yaqin joyda joylashgan. Ba’zi oilalar zavodga juda yaqin masofada yashaydi. Yashil energiya echimlarini tanlash sanoatga xavfsizroq ish muhitini ta’minlash orqali aholining farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish imkonini beradi.

[114] Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Avazov N.R.2020

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tish joizki, yashil energiya echimlari ishlab chiqarish tarmoqlariga ko‘p jihatdan ta’sir qiladi. Uning asosiy afzalliklari iqtisodiy samaradorlik, ishonchlilik, samaradorlik, va sog‘liq uchun foydalarni o‘z ichiga oladi. Yashil energiya ishlab chiqarish kompaniyalariga yashil energiyani moqbil energiya manbai sifatida qabul qilishga yordam beradi. Yashil energiyaga o‘tish barqaror ishlab chiqarish, eksport va importni rivojlantirishning bir usuli hisoblanadi. Ishlab chiqarish sanoatining keyingi avlodi ishlab chiqarish sohasida qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Polojenseva.Yu., Klevsova.S. (2021). Transformatsiya razvitiya promishlennogo kompleksa v usloviyax sifrovoy ekonomiki // Vestnik B.142.

Qurbonov J.Q. (2017) Sanoatni modernizatsiyalash O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish vositasi sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali.

Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Avazov N.R.(2020) Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish. Monografiya. B.135.

Ortiqov A.(2009) Sanoat iqtisodi. Darslik. B.25.

EKOLOGIK HAVFSIZLIK VA BARQAROR EKSPORT AMALIYOTLARI

Ibadullayeva Hayotxon Erkinboy qizi
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti II- bosqich magistratura talabasi

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan dunyo iqtisodiyoti va xalqaro savdo-aloqalar zaminimiz asosi bo‘lgan ekologiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayabdi. Iqtisodiyotning asosi bo‘lmish, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va sanoat tarmoqlari mamlakatlarning eksport-import va butun bir er yuzining ekologiyasi, iqlimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Ya’ni sanoat tarmoqlarida faoliyat olib borayaotgan deyarli barcha zavod va fabrikalardan chiqayotgan chiqindilar va gazlar ekologiya uchun havflidir. Bundan tashqari xalqaro tashish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida ham ekologiya uchun zararli bo‘lgan texnika texnologiyalar, avtomobil va tashish vositalaridan foydalanish er yuzi iqlimining o‘zgarib ketishiga ya’ni sovuq o‘lkalarning haddan ortiq isib ketishiga, daryo va dengizlarning qurib borishiga, issiq mamalakatlarning sovub ketishiga, bir so‘z bilan aytganda butun bir er yuzidagi iqlimning o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lyabdi. Shu bilan birga, bu jarayon ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan er yuzida mavjud bo‘lgan kam sonli mavjudodlarning ham kamayib ketishiga, ularning yashashi va ko‘payishi uchun zarur bo‘lgan ekologik muhitning buzilishiga yokida umman bu muhitning yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lyabdi. Shu sababli har bir mamalakat nafaqat o‘z yurtining ekologik havsizligi balki butun duyoning ekologik havsizligi uchun qayg‘urishi zarur. Chuki jahon iqtisodiyoti er

sharimizdagi barcha mamlaktlarning iqtisodiy, ijtimoiy jihatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Ekologik xavfsizlik – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar etkazmaslik va kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta’minlash jarayonidir. Ushbu tamoyil ekologik muammolarni bartaraf etish, iqlim o‘zgarishining oldini olish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Ekologik xavfsizlik nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqdir. Barqaror eksport amaliyotlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Ekologik toza ishlab chiqarish** – eksport qilinadigan mahsulotlar ekologik talablarga javob berishi kerak.
2. **Xalqaro ekologik standartlarga moslashish** – ISO 14001, Ozon qatlamini himoya qilish bo‘yicha Monreal protokoli va boshqa xalqaro hujjatlarga rioya qilish.
3. **Energiya va resurslarni tejash** – ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.
4. **Uglerod izini kamaytirish** – mahsulot ishlab chiqarish va etkazib berish jarayonida chiqindilar miqdorini kamaytirish.
5. **Yashil logistika** – transport va logistika tizimlarini ekologik jihatdan barqaror shaklda tashkil etish.

Ekologik xavfsizlik va barqaror eksport o‘rtasidagi bog‘liqlik. Barqaror eksport ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan uzviy bog‘liq. Atrof-muhitga zarar etkazmaydigan mahsulotlar xalqaro bozorda yuqori talabga ega bo‘lib, ekologik sertifikatlangan tovarlar eksportni rag‘batlantiradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlar ekologik talablarni qat’iy belgilagan bo‘lib, ushbu talablar bajarilmasa, mahsulotlarni eksport qilish qiyinlashadi. Shu sababli, ekologik xavfsizlik tamoyillariga rioya qilish eksportni barqaror amalga oshirish imkonini beradi.

Barqaror eksportni rivojlantirish strategiyalari. Barqaror eksportni rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

- **Ekologik innovatsiyalarni joriy etish** – ishlab chiqarish jarayonlarida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish.
билан бирга, чегирмалар ва бошқа чекловлардан фойдаланиш суғурта ставкасининг пасайишига олиб келади. Қоида тариқасида, суғурта қопламаси хавфли воқеа содир бўлганда зарарларнинг фақат бир қисмини қоплайди. Аммо зарарларнинг бир қисмини қоплайдиган суғурта тўлови ҳам қарз олувчининг молиявий ҳолатини яхшилашга ёрдам беради ва унинг мажбуриятларини тўлаш ва кутилмаган вазиятларни энгиш қобилиятини оширади.

Суғурта соҳасида тадқиқотлар олиб борувчи ва йирик суғурта компанияси ҳисобланган Awисс Ре Гроуп нинг таркибига кирувчи Cwисс Ре Институте фикрига кўра, микросуғурта ўзининг атрибутив хусусиятлари орқали аниқланиши мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, микросуғурта уни анъанавий суғуртадан ажратиб турадиган ўзига хос хусусиятларга ҳам ега:

1. Юкни минималлаштириш принципи. Етарли даражада паст нархни сақлаб қолиш учун маъмурий ва иқтисодий харажатларни ва агентларнинг иш ҳақини камайтириш чораларини кўриш керак. Микромолия ташкилотлари арзон нархлардаги тарқатиш каналларидан биридир.

2. Камроқ муҳим рискларни эътиборсиз қолдириш шароитида энг долзарб принципга мувофиқ суғурта хавфини танлаш. Кичик корхоналар, қоида тариқасида, чекланган молиявий ресурслар шароитида фаолият юритиши ва захира фондлари кўпинча йўқлиги сабабли, юқори рискли ишни амалга ошириш улар учун йирик тадбиркорлик субъектларига қараганда оғирроқ оқибатларга олиб келади. Шу сабабли, суғурта учун оғир оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган хавфларни танлаш – даромадни йўқотиш ёки ҳатто ҳалокатли оқибатлар – капитални йўқотиш.

3. Суғурта қилдирувчилар ва суғурталовчилар ўртасидаги ўзаро ишонч принципи. Ўзаро суғурта компаниялари фаолиятининг маҳаллий табиати, компания аъзоларининг раҳбарият томонидан қабул қилинган бошқарув қарорларини назорат қилиш имконияти тадбиркорларга рискларни бошқаришнинг самарали механизми сифатида суғуртага ишончсизликни енгишга имкон беради.

4. Инновация принципи. Микросуғурта - бу Ўзбекистон суғурта бозори учун янги маҳсулот.

Микросуғуртанинг ривожланиши кичик бизнеснинг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш учун суғурта механизмидан фойдаланиш имконини беради. Суғурта маҳсулоти учун паст тўлов микробизнес вакиллари, бошланғич тадбиркорлар учун суғурта мавжудлигини таъминлайди. Замонавий рақамли технологиялар микросуғурта маҳсулотларини тарқатишнинг янги каналларини шакллантиришга имкон беради. Рақамли платформалар ҳудудий узоқлиги, суғурта маҳсулотларининг арзонлиги ва бошқалар туфайли кириш қийин бўлган мижозлар учун микросуғурта полисларини онлайн сотиш жараёнини ташкил қилиш имконини беради. Микросуғурта маҳсулотларининг ўзи электрон тизимларни ишлаб чиқувчилардан келиб чиқадиган талабларга энг мослашувчан бўлиб бормоқда ва электрон платформада турли компаниялар маҳсулотларининг

мавжудлиги нафақат рақобатбардош маҳсулотни аниқлайди, балки суғурта шартномаси нархини таққослайди, зарарни қоплаш сифатини баҳолайди. Замонавий рақамли технологияларнинг ривожланиши суғурта компаниясининг мижозини масофадан аниқлаш имконини беради, бу эса суғурталовчиларнинг суғурта қилдирувчиларнинг шахсий маълумотларини тўплаш ва таҳлил қилиш харажатларини сезиларли даражада камайтиради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Малое и среднее предпринимателство: некоторые факты за 6 лет. [Малое и среднее предпринимателство: некоторйе фактй за 6 лет.] URL: http://government.ru/info/32155/ (accessed: 10.01.2018).

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.

Грубенкова Д.О. Предпринимателство в теориях Р. Кантилона, Маркса, Веблена и Шумпетера: сравнителный анализ // Международный студенческий научный вестник. 2016. № 2.

Иленкова Н.Д. Развитие теории предпринимателского риска в трудах выдающихся ученых прошлого // Транспортное дело России. 2016. № 3. С. 47–49.

Иванова О.М., Козлова Е.И., Новак М.А. Генезис теории риска // Инноватsiонная экономика перспективы развития и совершенствования. 2018. № 3 (29). С. 46–52.

Najt F.H. [Risk, neopredelennost i pribyl [Pod red. Grebennikova V.G. [Moscow: Izdatelstvo «DELO», 2003. 360 p].

Пинковецкая Ю.С. Рисковая деятелност субъектов малого и среднего предпринимателства // Современная конкуренция. 2016. № 4 (58). С. 26-39.

Parasolov V.I., Gashokov H.I. [Predprinimatel'skie riski malogo biznesa [Uspehi sovremennoj nauki i obrazovanija. 2017. vol. 5. no 4. pp. 111–116].

Сайфулина Р.Р. Применимост методов оценки рисков на предприятиях малого бизнеса в России // Вестник Южно-Уралского государственного университета. Серия Экономика и менеджмент. 2016. № 2. С. 76-83.

OILAVIY TADBIRKORLIKNI STRATEGIK BOSHQARISH TAMOYILLARI

Ermatov Nosir Toxirovich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy omillaridan biri oilaviy tadbirkorlikdir. Oilaviy tadbirkorlik dastlab hayot ehtiyojlarini qondirish uchun daromad olishni xohlaydigan shaxslar yoki oilalar tomonidan quriladi. O‘z rivojlanishida, faqat o‘z oilasi uchun daromad olish maqsadida qurilgan kompaniya yirik kompaniyaga aylanib, katta aktiv va daromadga ega bo‘lishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlik - bu kompaniyaning mulki va faoliyatida oila a’zolari bevosita ko‘rinadigan

kompaniyadir. Oila a’zolari kompaniyaning rivojlanishi uchun uning kundalik faoliyatida birgalikda ishtirok etadilar.

Oilaviy tadbirkorlik uning asoschisi va egasi tomonidan e’lon qilingan qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ustunlik qiladi va unga aloqador bo‘lgan barcha oila a’zolari hamda xodimlar uchun asosiy tamoyilga aylanadi. O‘z tarixida oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari ta’sischilarning ruxsati bilan ishonib topshirilgan shaxslar qo‘liga oladi. Bir nechta oila a’zolari kompaniyani boshqarishda yoki kompaniya faoliyatining yakuniy qarorlarini qabul qilishda ishtirok etadilar (1-rasm).



1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikda ishtirok etuvchi uchta tizimning bog‘liqligi[115]

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida kichik biznesning aksariyat qismi oilaviy korxona shaklida ish yuritmoqda. Yevropa davlatlari yalpi milliy mahsulotining 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oilaviy biznes ishlab chiqaradi. AQSH iqtisodiyotida uning ulushi 95 foizdan ziyod miqdorni tashkil etadi. Iqtisodi rivojlangan ko‘plab mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi va oilaviy korxonalarning faoliyat ko‘rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar mavjud. Bunday yondashuv aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy an’analarni, oilaviy tadbirkorlar sulolasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Oilaviy tadbirkorlikning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi;
- oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin;
- korxona 50 foizdan ortiq umumiy ulushga ega bo‘lgan yagona dominant oilaviy guruhga tegishli;
- eng ko‘p aksiyalarga ega bo‘lgan oilalardan chiqqan odamlar tomonidan boshqariladi.

[115] Muallif ishlanmasi

Respublikamizda 2024-yilning 1-yanvar holatiga jami 44 935 ta oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Oilaviy tadbirkorlik korxonasidagi asosiy lavozimlarni kuchli oila a’zolari egallaydi va kompaniyaning barcha operatsiyalarini nazorat qiladi. Mutaxassislar faqat oila tomonidan yoki kompaniya rivojlanishi kontekstida hal qila olmaydigan muayyan sohalarda yordam berish uchun jalb qilinadi. Korxona egasi sifatida oila professionallarga ishonch bag‘ishlashlari va faqat korxonaning to‘g‘ri ishlashi va kutilgan foyda olish uchun zarur bo‘lgan nazoratni amalga oshirishlari mumkin.

Strategik menejment - bu tashkilotga o‘z maqsadlariga erishishga imkon beradigan funktsiyalarni tashkil qilish, amalga oshirish va qaror qabul qilish san’ati va fanidir. Kompaniya maqsadlariga erishish uchun turli tadbirlar, jumladan, boshqaruv strategiyalarini amalga oshirish orqali oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish mumkin. Strategik menejment tashkilot maqsadlarini belgilash, tashkilot maqsadlariga erishish uchun siyosat va rejalarni ishlab chiqish va tashkilot maqsadlariga erishish uchun tegishli resurslarni taqsimlashda qo‘llaniladi (2-rasm).

Strategik menejment bir butunlikda amalga oshiriladi va tashkilot maqsadlariga erishishda samarali ishlashi uchun o‘zaro funktsional hamkorlikni talab qiladi. Strategik menejment tashkilotning keng qamrovli yo‘nalishini ta’minlaydi va tashkilotning xatti-harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, barqaror va hozirgi va kelajakdagi sharoitlarga muvofiq zarur bo‘lgan o‘zgarishlarga moslasha oladigan tashkilotlarda qarorlar qabul qilishda asos va yo‘l-yo‘riq beradi. Boshqaruv strategiyasini amalga oshirish kompaniyaning qadriyatlari, kompaniyaning qarashlari va missiyasi hamda kompaniya erishmoqchi bo‘lgan maqsadlardan boshlanadi, keyin u haqiqiy siyosat va faoliyatda amalga oshiriladi.

Ushbu maqoladagi muhokama uning faoliyatida strategik menejmentni amalga oshirish orqali oilaviy korxona faoliyatni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida bo‘lib, strategik boshqaruvni amalga oshirish korxonaning yaxshi ishlashi hamda korxonaga foyda keltirishi va jamiyat farovonligini oshirishga hissa qo‘shishi uchun juda zarur.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar bilan birgalikda kompaniyaning kelajakdagi rivojlanishi haqidagi fikrlar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalariga asoslangan tavsifiy tahlillar natijasida oilaviy tadbirkorlikda strategik boshqaruvni amalga oshirish bo‘yicha mualliflik qarashlarini shakllantirishga erishdik (2-rasm).



2-rasm. Oilaviy tadbirkorlikda strategik boshqaruvni amalga oshirish[116]

Strategik rejalashtirish oilaviy korxona faoliyatining aniq va mas'uliyatli yo‘nalishiga ega bo‘lishi uchun amalga oshirilishi kerak. Strategik rejalashtirish kompaniyaning rentabelligini ta'minlaydigan o‘sishini amalga oshirish uchun ichki va tashqi tomondan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning bir qismidir. Bunda amalga oshirish mumkin bo‘lgan ba'zi jihatlar quyidagilardir:

1. Kompaniya qadriyatlarini shakllantirish - kompaniya qadriyatlari kompaniyaning umumiy faoliyati uchun asosdir. Kompaniya faoliyatida ishtirok etayotgan har bir kishi ushbu qadriyatlarga ishonishi va ularni to‘g‘ri amalga oshirishi kerak. Yaxshi qadriyatlar oilaviy kompaniyani muvaffaqiyatli kompaniyaga olib kelishi va katta foyda keltirishi mumkin. Shuning uchun qadriyatlarni tayyorlash oilaviy kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan birinchi qadamdir. Kompaniyaning qadriyatlari, shuningdek, ularni amalga oshirish va ularga erishish tartib-qoidalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak, shunda ular nafaqat shior, balki kompaniya faoliyatining asosiga ham aylanadi.

2. Oilaviy tadbirkorlikning qarashlari va missiyasini shakllantirish - belgilangan qadriyatlar kompaniya erishmoqchi bo‘lgan qarash va missiyaga kiritilishi mumkin. Vizyon va missiya kompaniya faoliyatining yo‘nalishini aniqlash uchun juda muhim bo‘lib, kompaniya uchun foyda olish mumkin, bu esa kompaniyaga jalb qilingan har bir kishining farovonligini yanada oshiradi.

3. Strategik maqsadlar va maqsadlarni ishlab chiqish - oilaviy tadbirkorlikning strategik maqsadlari va kompaniya faoliyati orqali erishiladigan vazifalari bo‘lishi kerak. Asosan, kompaniyalar strategik maqsadlar va maqsadlarni ma'lum bir davr mobaynida bosqichma-bosqich belgilashlari mumkin. Ushbu strategik maqsad va vazifalar kompaniya biznesini rivojlantirish va rivojlantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Masalan, inson resurslarini rivojlantirish sohasidagi maqsadlar, texnologiya, kompaniyaning operatsion qamrovi, maqsadli bozor segmenti, erishilishi kerak bo‘lgan xizmat darajasi va boshqalar.

4. Agar kerak bo‘lsa, oilaviy korxonada biznes maslahatchisini tayinlash - vaqti-vaqti bilan oilaviy kompaniyada barcha muammolarni faqat kompaniya egasi hal qila olmaydi. Shu bois, oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs tomonidan ham boshidan o‘ylab, ushbu oilaviy tadbirkorlik maslahatchisini aniqlash

[116] Muallif ishlanmasi.

kerak. Biznes-maslahatchilar biznesni rivojlantirish, inson resurslarini rivojlantirish, biznes kapitali va biznes qonunchiligining aspektlari, biznes sheriklik jihatlari va soliqqa tortish aspektlari kabi boshqa jihatlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni taqdim etishda juda muhimdir.

Oilaviy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishiga, ish o‘rinlari yaratishga, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo‘shayotgan sohalardan biridir. Biznesni rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiq strategik boshqaruvni amalga oshirish va texnologik o‘zgarishlarni kuzatish orqali professional va zamonaviy oilaviy biznes boshqaruvi kompaniya faoliyatini yaxshilashi mumkin. Oilaviy korxonalar o‘zaro kelishilgan qadriyatlar asosida o‘z faoliyat ko‘rsatkichlarini yaxshilashda davom etishlari, sifatli kafolatni amalga oshirishlari va iste’molchilar, hamkorlar va barcha manfaatdor tomonlarga mukammal xizmat ko‘rsatishlari kerak. Oilaviy biznesning asoschisi va bosh menejeri sifatida egasining roli tegishli mutaxassislar tomonidan yordam berishi mumkin, bu esa kompaniyaning kelgusida rivojlanishi uchun foydalanish uchun foyda keltirishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, oiladagi mulkidan daromad olishga uringan oilalarning aksariyati o‘z faoliyatlarini muvaffaqiyatli deb hisoblashadi. Bundan tashqari, o‘z mulkini kapitalga aylantirishni istagan oilalarning 50 foizi buning uchun mablag‘ga muhtoj emasligini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, ko‘pgina oilalar o‘z mulkidan haligacha to‘g‘ri foydalanishmayapti. So‘ralgan oilalar ichida oila resurslari bazasida oilaviy tadbirkorlikni tashkil qilish istagida bo‘lganlar buni amalga oshirganlarga qaraganda ikki baravar ko‘pni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan eng asosiysi moliyaviy hamda boshqaruv faoliyati omilidir. Demak, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda mikrokredit uyushmalarining rolini hamda samarali boshqaruvni tashkil etish bo‘yicha konsalting markazlari faoliyatini amalga oshirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Longenecker, L.G. (2001). Kewirausahaan (Manajemen Usaha Kecil), Buku Jakarta: Salemba Empat.

Gedeon, S. (1990). What is entrepreneurship? Entrepreneurial Practice Review, 1(3), 16-352323

Say, J. B. (2010). Entrepreneurs, high growth entrepreneurs, and managers: Contrasting and overlapping motivational patterns. Journal of Business Venturing, 5(4), 221- 234.

Smith, A. (1759/1989). The theory of moral sentiments. London–Edinburgh: A. Millar, A. Kincaid & J. Bell. [Polish translation: Teoria uczuć moralnych. Warsaw: Państwowe Wydawnictwo Naukowe].

Hayton, J. C., George, G., & Zahra, S. A. (2002). National culture and entrepreneurship: A review of behavioral research. Entrepreneurship Theory and Practice, 26(4), 33-52.

O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni (2012-yil 26-aprel).

YASHIL IQTISODIYOTNI ELEKTRON HUKUMAT LOYIHALARI ASOSIDA SAMARALI BOSHQARISH VA ELEKTRON HUKUMAT LOYIHALARI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ATROF-MUHITNI ASRASHDAGI ROLI

Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Loyiha boshqaruvi yo‘nalishi tinglovchisi

Hozirgi kunda deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar miqyosida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni har bir jabhada qo‘llash va yanada samaradorligini oshirish bo‘yicha bir necha ishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida ham aynan yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarga bo‘lgan e‘tibor kuchli hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilishi va bu bilan ushbu yo‘nalishda ham keng ko‘lamli ishlarning O‘zbekiston Respublikasida yanada jadalroq amalga oshirilishida zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yashil iqtisodiyot faqat ekologik muammolarni hal qilish vositasi emas, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va xalqimizning farovonligini oshirishning samarali yo‘lidir. Shu asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni tasdiqlandi. Davlat dasturiga ko‘ra, mahallalarning ekologik manzarasini yaxshilash, aholining ekologik turmush tarzini shakllantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash, aholi farovonligini oshirish va boshqa ko‘plab masalalar mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari deb belgilab olindi.

Qolaversa, ushbu dastur asosida xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning bandligini ta’minlash maqsadida ularga subsidiyalar, kreditlar, erlar ajratish va bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish bo‘yicha ham qator vazifalar belgilab berildi.

Davlat dasturida ko‘rsatib o‘tilgan ishlarni to‘g‘ri boshqarish, adolatli amalga oshirish va ularni yanada samarali qilish uchun elektron hukumat loyihalari va raqamli texnologiyalarni ushbu dasturda belgilab ko‘rsatilgan vazifalarning tatbiqida qo‘llash lozimdir.

Umuman olganda, elektron hukumat loyihalarining asosiy maqsadi bu davlat xizmatlarini raqamli shaklda fuqarolarga taqdim etish va boshqaruv jarayonlarini samarali qilishdan iboratdir. Raqamli texnologiyalar va elektron hukumat loyihalari fuqarolar, biznes subyektlari va davlat o‘rtasidagi aloqalarni soddalashtiradi, xizmatlar tez va qulay tarzda ko‘rsatiladi, bu esa boshqaruv jarayonlarini optimallashtiradi. Elektron hukumat shuningdek, davlatning shaffofligini oshiradi,

korrupsiyaga qarshi kurashishga yordam beradi va fuqarolarni davlat ishlari haqida ma’lumot bilan ta’minlaydi.

Elektron xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat tashkilotlariga ko‘rsatiladi.

Elektron davlat xizmatlari 3 turga bo‘linadi bular:

1. Axborot turdagi xizmatlar
2. Interaktiv xizmatlar
3. Tranzaksion xizmatlardir

Axborot turdagi xizmatlar – bu davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlarni fuqaro yoki tashkilotlarga taqdim etish uchun mo‘ljallangan elektron xizmatlar turidir. Ushbu xizmatlarning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga kerakli ma’lumotlarni tez va samarali taqdim etishdir. Axborot turdagi xizmatlar fuqarolar va tashkilotlarga davlat tomonidan taqdim etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar, qonunlar, qarorlar, reglamentlar, statistik ma’lumotlar, davlat xizmatlarining ro‘yxati, shuningdek, boshqa foydali axborotlarni olish imkonini beradi.

Interaktiv xizmatlar – bu fuqarolar yoki tashkilotlar bilan davlat organlari o‘rtasida ikki tomonlama aloqani talab qiladigan elektron xizmatlar turidir. Interaktiv xizmatlar yordamida fuqarolar davlat organlariga so‘rovlar yuborishlari, ma’lumotlarni yangilashlari yoki boshqa turdagi o‘zaro aloqalarni amalga oshirishlari mumkin. Bu xizmatlar, odatda, davlat tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar bilan cheklanmay, ularni fuqarolar va tashkilotlarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Tranzaksion xizmatlar – bu fuqarolar yoki tashkilotlar bilan davlat organlari o‘rtasida moliyaviy yoki huquqiy bitimlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan elektron xizmatlar turidir. Bu turdagi xizmatlar yordamida fuqarolar yoki tashkilotlar nafaqat so‘rovlar yoki arizalar yuborish, balki turli to‘lovlarni amalga oshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek, davlat organlari bilan turli huquqiy bitimlarni bajarish imkoniga ega bo‘ladi.

Umumiy ma’noda, elektron hukumat loyihalari davlatning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yordamida fuqarolar va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirishga asoslanadi. Bunday texnologiyalar davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishga, shu bilan birga atrof-muhitni asrashga katta hissa qo‘shishi mumkin.

Birinchi navbatda, elektron hukumat loyihalarining atrof-muhitni asrashdagi roli quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rinadi:

Qog‘oz ishlatilishini kamaytirish: Elektron hukumat loyihalarining eng sezilarli yutuqlaridan biri qog‘oz ishlatilishini kamaytirishdir. Onlayn xizmatlar, raqamli arxivlar va elektron hujjatlar orqali qog‘oz ishlatishning kamayishi faqat iqtisodiy foyda keltirib qolmay, balki resurslarning tejalishiga va o‘rmonlarning saqlanishiga olib keladi. Elektron imzo va raqamli hujjat almashinuvi orqali davlatning hujjat yuritish tizimlari ekologik jihatdan samaraliroq bo‘ladi.

Transport va energiya iste‘molini kamaytirish: Elektron hukumat loyihalari masofaviy xizmatlar, videokonferensiyalar, onlayn uchrashuvlar kabi texnologiyalarni joriy etish orqali transport harakatlarini kamaytirishi mumkin.

Bunday tadbirlar nafaqat vaqtni tejaydi, balki atmosferaga chiqayotgan zararli gazlarni kamaytiradi. Elektron hukumat loyihalari davlat va jamoat xizmatlarining samaradorligini oshiradi, shu bilan birga energiya sarfini kamaytiradi. Elektron tizimlar yordamida davlat xizmatlari, masalan, aholini ro‘yxatga olish, soliqlarni yig‘ish va boshqalar avtomatlashtiriladi va raqamlashtiriladi. Bu esa energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash va ekologik ta’sirni kamaytirishga yordam beradi.

Elektron hukumat va raqamli texnologiyalar atrof-muhitni asrash va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy yo‘nalishi: ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot elektron hukumat loyihalari va raqamli texnologiyalar yordamida uyg‘unlashtirilishi mumkin.

Ekologik barqarorlik: elektron hukumat loyihalari va raqamli texnologiyalarning asosiy maqsadi atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, resurslarni samarali boshqarish va energiya tejashdir. Elektron tizimlar va aqlli texnologiyalar yordamida esa ekologik monitoring tizimlari yaratilib, atrof-muhitning holati kuzatiladi. Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish, suvni tejash va havo sifatini yaxshilash borasida yangi texnologiyalarni joriy etish ham mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik: elektron hukumat loyihalarining samarali ishlashi davlat va xususiy sektorda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Raqamli texnologiyalar orqali esa xizmatlar tezroq va arzonroq taqdim etiladi, bu esa davlat xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratib, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Ijtimoiy barqarorlik: elektron hukumat va raqamli texnologiyalar fuqarolarga yanada qulay va samarali davlat xizmatlarini taqdim etishga yordam beradi. Elektron hukumat loyihalari ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish orqali aholining barcha qatlamlariga xizmat ko‘rsatishni osonlashtiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholining ekologik ongini oshirishga yordam beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan fikrlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda mavjud bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligining hukumat portalini atrof-muhitni asrash va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishdagi o‘rnini ham keltirib o‘tish lozim deb hisoblayman. Ushbu hukumat portalida vazirlikning tuzilmalari, faoliyati, axborot xizmatlari, me‘yoriy hujjatlari va ushbu vazirlik bilan bog‘lanish imkoniyatlari ochiq ravishda ko‘rsatib o‘tilgan. Qolaversa, ushbu elektron portal orqali suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste‘mol qilishga ruxsatnoma berish, oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlar tashkil etish uchun ariza berish, erlarning o‘rmon fondiga kirish yoki kirmasligini tekshirish va shu kabi 20 dan ortiq elektron interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish ishlari olib borilmoqda. Qolaversa, aynan shu hukumat portali orqali atrof-muhitni asrash va yashil texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha o‘tkazdirilishi ko‘zda tutilgan tenderlar ham ochiq holatda e‘lon qilib borilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, atrof-muhitni asrash va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda elektron hukumat loyihalari va raqamli texnologiyalarning roli beqiyosdir. Elektron hukumat loyihalari orqali davlat va

fuqarolar o‘rtasida ekologik masalalarda hamkorlikni yanada osonlashtirish mumkin. Elektron hukumat loyihalari va raqamli texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib, jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Shu sababli, barqaror rivojlanishning asosiy elementlari bo‘lgan ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasida muvozanatni yaratish uchun elektron hukumat loyihalarini va raqamli texnologiyalarni yanada keng miqyosda joriy etish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risigi PF-16-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘RQ-395-son qonuni.

https://e-gov.uz

https://lex.uz

https://davlat.uz

https://gov.uz/oz/soliq/pages/elektron-hukumat

INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ULARNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASIDAGI O‘RNI

Abdulla Ibragimov *– Bank moliya akademiyasi dotsenti, DSc*
Nargiza Davletova *– Bank moliya akademiyasi magistranti*

Barchamizga ma’lumki 2019 yilda yurtimizda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” qabul qilinib, ushbu jarayonlarni 2030 yilgacha yakunlash maqsad qilib olingan. Shu sababli ham har bir sohani rivojlantirishda bevosita ushbu strategiyada ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi shart va zarurdir. Xususan, bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida katta ahamiyatga ega faktorlardan biri bo‘lib, investitsiyalarni jalb qilish, xususan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri ekanligi hech kimga sir emas.

Shu sababli ham yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan[117].

[117] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-sonli qarori

Mazkur qarorda belgilangan vazifalarning ijrosi esa mamlakat miqyosida, xususan har bir hudud kesimida investitsion muhitni yaxshilash, mavjud sharoitlarni yanada takomillashtirish, investitsion muhitga ta’sir etuvchi barcha omillarni ijobiy tomonga o‘zgartirish borasida samarali ish tashkil etishni talab etadi.

Albatta buning uchun dastavval investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhitni takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlab olib, mamlakatimizning “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” bilan mutanosib ravishda rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun esa, quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, investitsion muhitni belgilovchi asosiy omillardan biri bu albatta mamlakatdagi **huquqiy tizim**ning barqarorligni ta’minlashdir. Investorlar sarmoya kiritishda o‘zlarining huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi aniq huquqiy normalar mavjudligiga katta ahamiyat qaratishadi.

Investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishda huquqiy tartib-taomillarning shaffofligi, qonun ustuvorligi va mulkni himoya qilish kafolatlariga rioya qilish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli huquqiy barqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga kapitalning sezilarli oqimi kuzatiladi. Biroq, huquqiy tizimni takomillashtirish doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot” strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarga zid bo‘lgan huquqiy normalarni joriy etilishini oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, investorlar **infratuzilma**ning rivojlanish darajasini biznes yuritish samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy element sifatida ko‘rishadi. Shu sababli yuqorida sanab o‘tilganidek, bu boradagi yana bir muhim omil - infratuzilmani, jumladan, transport, energetika va raqamli tarmoqlarni rivojlantirish hisoblanadi. Zamonaviy transport tizimlariga kirish, ishonchli elektr ta’minoti va raqamli aloqa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Biroq, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini infrastrukturani rivojlantirish orqali amalga oshirish uchun asosiy e‘tibor iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini kamaytirishga qaratilishi zarur. Bunda tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda zamonaviy innovatsion echimlarni tatbiq etish ustuvor vazifa etib belgilab olinishi lozim.

Uchinchidan, investorlarni jalb qilishdagi yana bir muhim jihat - **malakali ishchi kuchi**ning mavjudligidir. Kompaniyalar o‘z ixtiyorida zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ishlashga qodir yuqori malakali mutaxassislarga ega bo‘lishga intiladi. Ta’lim tizimini rivojlantirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uzoq muddatli investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi.

Bu borada ham “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”da tegishli topshiriqlar ko‘zda tutilgan. Misol uchun, ta’lim tizimiga investitsiyalar kiritish orqali ilg‘or xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yangi darajaga olib chiqush orqali mehnat bozori uchun zarur kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish rejalashtirilgan.

To‘rtinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik, jumladan, past inflyatsiya, milliy valyuta barqarorligi va mutanosib soliq siyosati ham xuddi shunday muhim

jihatdir. Iqtisodiy noaniqlik va valyuta kurslarining keskin o‘zgarishi investitsion jozibadorlikka salbiy ta’sir qiladi, chunki investorlar kapitalning mumkin bo‘lgan yo‘qotishlari bilan bog‘liq potensial risklarni baholaydilar. Shu munosabat bilan investitsiyalarni jalb qilishda bashorat qilinadigan makroiqtisodiy muhit va oqilona soliq tizimini tartibga solishni ta’minlovchi mamlakatlar ustunlikka ega.

Shuni inobatga olib, “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish orqali **makroiqtisodiy** maqsadlarga erishish belgilab qo‘yilgan.

Beshinchidan, investitsion muhitni shakllantirishda **davlat boshqaruvi samaradorligi** ham katta rol o‘ynaydi. Shaffof va tushunarli ma’muriy tartib-qoidalarning mavjudligi, byurokratik to‘siqlarning kamayishi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi investorlar tomonidan ishonch darajasini oshirmoqda. Korrupsiya va ma’muriy to‘siqlar investitsiyalarni jalb qilishda jiddiy to‘siqdir, shuning uchun ularni minimallashtirish davlat organlari uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi yuqori darajada bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sish va investitsiya faolligining yaxshi ko‘rsatkichlarini namoyish etadi. Biroq, ushbu vazifalarning ijrosini ta’minlash borasida ham “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlarni inobatga olish talab etiladi.

Oltinchidan, sarmoyani jalb qilish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish - bu **investitsion imtiyozlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashdir**. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grant dasturlari iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlarini rag‘batlantirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Xususan, yuqori texnologiyali sohaga yo‘naltirilgan investorlarga imtiyozlar berish innovatsion rivojlanishga ko‘maklashmoqda va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, davlat kafolatlari va investitsiyalarni sug‘urtalash mexanizmlari potensial risklarni kamaytirish va biznes muhitining jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Shu sababli strategiyada **“Yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun** fiskal siyosatdan foydalanish va davlat tomonidan «yashil» iqtisodiyotning barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

Yettinchidan, investitsion muhitni shakllantirishda **moliyaviy qulaylik** ham muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan bank tizimi, foydalanish mumkin bo‘lgan kredit resurslari va venchur moliyalashtirish tadbirkorlikni faol rivojlantirish va tashqi kapitalni jalb qilishga yordam beradi.

Albatta, samarali moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlarga chiqish imkonini berishi hech kimga sir emas.

Bu borada strategiyaning 21- bandida **«Yashil» investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, xususan:**

– “yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish;

– “yashil” fondlar, energiya tejamkorligi maxsus fondlari va boshqa xuddi shunday mexanizmlar yaratish;

– “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, shuningdek, “yashil” investitsiyalarga nisbatan bank tizimini rag‘batlantirish[118] belgilab olingan.

Sakkizinchidan, **xalqaro reytingov tashkilotlari** investorlarga ma’lumot berish bilan birga, mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy ahvolini baholashini barchamiz bilamiz. Xususan, bu borada Standard & Poor's (S&P), Moody's Investors Service, Fitch Ratings, Jahon banki (World Bank), Jahon iqtisodiy forumi (WEF), Transparency International, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Xalqaro valyuta fondi (MVF), Heritage Foundation, Global Innovation Index (GII), Berne Union, Doing Business, Ease of Doing Business kabi xalqaro tashkilotlar bilan ish olib borish tizimini yo‘lga qo‘yish katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadlarda xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan konferensiyalarda O‘zbekiston nufuzini yanada oshirishga yo‘naltirishgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va bunda “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, sanab o‘tilgan omillardan tashqari texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish borasidagi masalalar, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha islohotlarni olib borish masalalari hamda mamlakatdagi ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari ham aksariyat holatlarga investorni jalb qilish borasida katta ahamiyat kasb etib qoluvchi asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Shu sababli, “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da ko‘zda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, samarali ijrosini ta’minlash barchamizning ustuvor vazifamiz bo‘lib qolishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Sh. Mirziyoyev “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o`tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar to`g`risida” gi qarori, PQ-436.

Climate Bonds Initiative (CBI). (2021). *Green Bond Market Summary 2021*. Retrieved from www.climatebonds.net

Sachs, J. D., Woo, W. T., Yoshino, N., & Taghizadeh-Hesary, F. (2019). Role of Green Finance in Achieving Sustainable Development Goals and Energy Security. Energy Policy.

Torre, M. L., Mango, F., Cafaro, A., & Leo, S. (2022). Does Greenwashing Evidence from the ESG Reputational Risk. Corporate Social Responsibility and Environmental Management.

[118] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-sonli qarori

http://lex.uz, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

IQTISODIYOTDA TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MUHIM AHAMIYATI

G‘iyosov Otabek Alisher o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi “Biznesni boshqarish” mutaxassisligi magistratura II-bosqich tinglovchisi

Iqtisodiyotda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning zarurati eng avvalo insoniyatning hayot faoliyatiga, xususan uning resurslar bilan ta’minlanish, atmosfera ekotizimi va resurslarni o‘zlashtirish qobiliyatiga birinchi navbatda bog`liqdir. Eng muhimi, Yer insoniyat hayot faoliyati uchun muhim bo`lgan tizimni ta`minlab iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini shakllantiradi. Albatta, ba’zi qayta tiklanmaydigan resurslar, jumladan, ko‘plab metallar va minerallar uchun ta’minot xavfsizligi ya`ni ularning cheklanganligi bu tizimni qayg`uga soladi. Tabiiy boyliklarni er shakli sifatida ham ko‘rish mumkin. Agar biz tabiiy erimizni saqlab qolsak, u bizga javoban juda qimmatli qayta tiklanadigan resurslar va ekotizim xizmatlarini taqdim etadi. Ammo tabiiy boyliklarimizdan samarasiz ko`r ko`rona foydalanadigan bo`lsak, masalan, juda ko‘p resurslarni qazib olish yoki ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarish kabi hatti-harakatlarni amalga oshirishga yo`l qo`yadigan bo`lsak bu bizga kelgusida juda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkun.

Tabiiy boyliklarning cheklanganligini oddiy qilib aytadigan bo`lsak, insoniyat atrof-muhitda mavjud tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqara olmasligi uning cheklanganligini bildiradi. Iqtisodiyot orqali resurslar oqimi o‘zining maksimal barqaror chegarasiga etganidan so‘ng (ko‘pchilik adabiyotlarda insoniyat bu nuqtadan o‘tib ketdik, deb ta’kidlanadi), uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishni saqlab qolishning yagona yo‘li resurslardan samaraliroq foydalanish hamda muqobil alternativ energiya manbaalarini ishlab chiqish deb hisoblaydi. Resurs samaradorligini ta`minlash juda muhim vazifa chunki u barqaror iqtisodiy o‘sish uchun zarurdir. Atmosferaga arof-muhit zaxarlanishi ta’sirni kamaytirish bozor iqtisodiyotidan tashqari aholi farovonligiga, xususan, sog‘lom muhitda yashashdan kelib chiqadigan hayot sifatiga ham hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, resurslar samaradorligini oshirish sanoatning raqobatbardoshligini oshirishi, ish o‘rinlari yaratishi, innovatsiyalarni rag‘batlantirishi, qayta ishlash va resurslarni qayta ishlash kabi tarmoqlarni rag‘batlantirishi hamda asosiy resurslarning aholi va ishlab chiqarish tarmoqlariga xavfsiz ta’minlanishiga yordam beradi.

Ushbu ko‘plab afzalliklarni hisobga olgan holda, resurslar samaradorligi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun asosiy ustuvor yo‘nalishga aylangani ajablanarli emas. Xususan, mamlakatimizda resurslar samaradorligini amalga oshirish chora tadbirlari doirasida aqlli, barqaror va inklyuziv o‘sish

bo‘yicha asosiy tashabbuslardan biri sifatida belgiladi. Resurslardan foydalanishni baholash va boshqarish Resurs samaradorligi tushunchasini chuqur anglagan holda tushunilsa, resurslar samaradorligini amalga oshirishga intilayotgan mamlakatimiz iqtisodchi olimlari katta bilim va turli to`siqlarga ro`baro kelishlari aniq.

Resurs samaradorligi darajasini baholash va aniqlash uchun birinchi navbatda resurslarning hajmi va tabiati hamda ularning global miqyosda, milliy miqyosda va alohida tarmoqlar kabi ishlab chiqarishning kichikroq miqyoslarida iqtisodiy natijalar bilan aloqasi ko‘rsatkichlarini aniqlash lozim. Mahsulotlar va xizmatlarning butun hayoti davomida foydalaniladigan resurslarni o‘lchaydigan iste'molga yo‘naltirilgan ko‘rsatkichlar, ayniqsa, xalqaro savdoga kiritilgan resurslardan foydalanish siyosatini tushunishlik ishlab chiqish uchun ham qimmatlidir.

Xulosa o`rnida, resurslardan foydalanish iqtisodiyot uchun juda katta va muhim vazifa bo`lib kelmoqda. Jahon globallashuv tendentsiyalari va omillariga qarasak, siyosatchilar resurslar samaradorligini oshirish yo‘llarini yangi texnologiyalar yordamida bir muncha oson ishlab chiqishmoqda. Lekin buning o`zi muammoni echish uchun etarli bo`lmayapti sababi, muammoning juda katta va og`riqli qismi shundaki ayrim sanoat va yirik ishlab chiqarish sohalarida yashil energiyaning jalb qilinishi, uning samarali yo`lga qo`yilishi borasida hali ham beparvolik yoxud tabiiy resurslarning muqobil variyantlaridan foydalanishga nisbatan jur`atsizlik qaror qabul qilishda mujmallik holatlari uchrab turibdi. An`anaviy resurslardan foydalanish oqibatida atmosfera havosi juda ko`p miqdorda zaxarli chiqindilar bilan zararlanmoqda. Buning oqibatida aholining qimmatli sog`lig`ida muammolar kelib chiqishi, turli xil kuchli virusli infeksiyalar oson va tez tarqalishi natijasida aholi turmush sifati kundan kunga pasayib ketayotganini kuzatish achinarli holat. Kuni kecha Toshkent shahridagi havo tarkibidagi zaxarli moddalar hajmi dunyo bo`yicha eng yuqori natijani ko`rsatib turgani ham buning isboti. Mamlakatimiz havosi Hindiston, Xitoy kabi yirik sanoat zo`nalari joylashgan mamlakatlardan ham yomonroq ko`rsatkichni ko`rsatib turgani albatta eng qayg`uli holatdir. Mamlakatimizdagi yirik sanoat ishlab chiqarish tarmoqlariga chiqindilarni minimallashtirish bilan birga resurslardan ko‘proq qiymat olish uchun iqtisodiyotda (milliy, mintaqaviy va boshqa miqyoslarda) qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan siyosat, vositalar va texnologiyalarni tezlikda joriy etish va qo`llash bo`yicha chora-tadbirlar o`tkazish zarurati har bir iqtisodchi, siyosatchi, oddiy fuqaroning ham oldidagi buyuk vazifasi desak xato bo`lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-yashil-energetika-tizimini-yaratishdagi-muammolarni-aniqlashda-sifat-tadqiqot-usullaridan-foydalanish

Paul Gipe. „100 Percent Renewable Vision Building “. Renewable Energy World (4-aprel 2013-yil). 6-oktabr 2014-yilda asl nusxadan arxivlang

https://uz.wikipedia.org/wiki/Energetika_sanoati

Ortiqov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009.

THE ROLE OF DIGITALIZATION IN REDUCING TAX LIABILITIES

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li
Independent researcher of Kimyo International University in Tashkent
Doctor of philosopy (PhD) in economical sciences

Today, along with supporting business entities in the further development of our country’s economy and ensuring macroeconomic stability, the measures being implemented in the field of digitalization of the tax system, in particular tax administration, are of great importance.

The tax system is one of the oldest means of ensuring fiscal, economic and social functions of the state and based on the specific characteristics of taxpayers, it is required to constantly make changes, clarifications and additions. The expansion and complexity of economic relations requires tax administration in the country to be in line with the realities of the modern economy, to clearly regulate taxation, and at the same time to be transparent. In particular, the head of our state said, “You are all aware of the sharp processes taking place in the world today. The complex geopolitical situation in the world, the shortage of energy resources is increasing, the need for food is increasing, and financial resources are becoming more expensive. In such a situation, no matter how difficult it may be, we will resolutely continue economic reforms, fully mobilize domestic capabilities, and further develop the private sector. For this, first of all, we will speed up reforms to improve the business environment.”

In fact, the consistent continuation of economic reforms means tax reforms, including reducing the tax burden, simplifying the taxation system, unifying tax types, and at the same time controlling the revenue of taxes on time and, as a result, ensuring economic development. Speaking about tax revenues, we should first emphasize that tax control activities are considered the most important function of tax authorities. After all, it is possible to achieve all the goals and tasks set by the state only by effective and complete collection of taxes and fees and reduction of tax debt, as a result of which it is possible to ensure progress in the path of economic development. Everyone knows that the priority areas of reforming the tax system, the development of an effective organization of tax administration in our country with the wide use of modern methods and forms is one of the urgent tasks of our time. In particular, a consistent reduction in the tax burden, simplification of the tax system and digitalization of tax administration are the most important conditions for rapid economic development and increasing the country’s investment attractiveness. [1]

In order to improve the mechanism for collecting tax debts in our country, it is important to properly organize tax administration, digitize the tax sector, develop secondary legislation, i.e. regulations, procedures or instructions, in accordance with the norms established in tax legislation, and most importantly, ensure that the tax legislation being developed is transparent and fair. At the same time, studying and implementing the effective experiences of developed countries, including artificial intelligence information systems introduced in the tax sector, will also play a positive role in further improving the mechanism for collecting tax debts.

Priorities for improving tax administration in the country, including the amount of tax and fee arrears, as well as some issues of reducing them, were studied in their scientific works by a number of foreign and domestic scientists. In particular, according to foreign economist M. Orlova, “the concept of tax debt” is defined differently in different sources. Today, tax arrears include unfulfilled obligations for taxes and fees, insurance payments and accrued interest (penalties), as well as financial penalties for violating tax laws. Based on the norms set out in the Tax Code of the Russian Federation, tax arrears are divided into 2 groups:

- current tax obligations;
- tax debt identified as a result of tax audits. [2]

In addition, I.G. Vinokhodova also notes in her scientific work that increasing the process of seizing assets from business entities with tax debts is effective in collecting tax debts. [3]

In addition to the opinions of the above-mentioned economists regarding tax arrears and their occurrence, it should be mentioned that reducing the human factor in collecting tax arrears, that is, digitalization of all aspects of the tax sphere, will also lead to a decrease in tax arrears in the country. Also, political instability in a country can destabilize its economy, and during economic cycles, there is a high probability that tax debt will increase even during "economic downturns" or crises. In addition, it is natural for tax debt to arise due to lack of knowledge of business operations and understanding of corporate tax management, as well as lack of education and knowledge among entrepreneurs.

In practice, individuals are only sent payment notices by the tax authority regarding the payment of tax debt, as we can see from the image below.

Table 1.

Analysis of payment notices issued by tax authorities to collect property and land tax debts from individuals. [4]

T/r	Indicators	Quantity
1	Average number of individuals paying property and land taxes	9 600 000
2	Average number of payment notices issued by the tax authority during the ear	9 000 000
	of which: average number of payment notices printed on paper	9 000 000
3	Average number of employees in tax authorities engaged in tax debt collection	675
4	According to the Tax Code, the average number of days during the ear for submitting payment notices	60
5	Average number of payment notifications submitted by one employee per day	220

Analyzing the data in the image above, it is possible that not all of the 9,000,000 payment notices issued by the tax authority reach the taxpayer for objective or subjective reasons. The reason is that in practice, it is physically

impossible for one employee to distribute 220 payment notifications in one working day. In addition, the taxpayer's absence at their residence address also prevents payment notices from being delivered in the prescribed manner. As a result, there is a possibility that tax authorities will be unable to fully fulfill their assigned duties and will artificially be held responsible for the failure to collect taxes on time. In addition, this situation also leads to a delay in the payment of tax debts. Of course, nowadays, payment notifications for property and land tax arrears of individuals are sent from mobile phone as SMS. This practice is very convenient for both the tax authority and the taxpayer. The reason is that this saves tax authority employees' working time, reduces unnecessary costs (paper consumption, transportation costs, etc.), and does not cause undue inconvenience to individuals. However, it should also be remembered that this, in turn, cannot be a complete solution to the issue studied above. Because, the Tax Code stipulates that "Tax payment notices shall be delivered by tax authorities to taxpayers with a signature or in another manner confirming the receipt of the payment notice and the date of receipt no later than March 1 of each ear." [5]

In the author's opinion, the following proposals would be effective in reducing the share of tax arrears in the country:

- Establishing a system for sending notifications of tax arrears to individuals only electronically and establishing the legal basis for this in tax legislation will increase tax revenues to the budget. In addition, this practice saves tax officials working time.
Yashil iqtisodiyot tamoyillari bank sektoridagi stressni kamaytirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Banklar ekologik barqarorlikni qoʻllab-quvvatlovchi moliyaviy mahsulotlar, yashil obligatsiyalar va energiya tejamkor echimlarga investitsiyalar orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki stress darajasini pasaytirishga ham hissa qoʻshishi mumkin. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekologik jihatdan barqaror kompaniyalarda ishlovchi xodimlar koʻproq motivatsiyaga ega boʻlib, ularning stress darajasi past boʻladi. Yashil bank xizmatlari innovatsion texnologiyalar va masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirish orqali xodimlarning ish yuklamasini kamaytiradi va stress omillarini minimallashtiradi.

Shuningdek, yashil bank amaliyotlari orqali ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish rahbarlar hamda xodimlar orasida barqaror rivojlanish maqsadlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Masalan, O‘zbekiston banklarida yashil kreditlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik loyihalarga investitsiyalar oshgani sari xodimlarning stress darajasi pasayib, ularning ishga bo‘lgan sadoqati ortgan. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan bank tizimi uzoq muddatda barqaror rivojlanish va xodimlarning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida banklarning energiya samaradorligi strategiyalarini ishlab chiqishi nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki ish joyidagi ekologik barqarorlikni oshirish orqali xodimlarning psixologik farovonligini ham yaxshilaydi. Masalan, ekologik toza ofis binolari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va qog‘ozsiz ishlov tizimlarini joriy etish stressni kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday choralar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi, balki bank sektorida ishlovchi mutaxassislarning kasbiy qoniqishini oshirishga ham imkon beradi.

Psixologik va ijtimoiy usullar jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish, stressga chidamlilik va nizolarni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish, shuningdek, qo‘llab-quvvatlash va hurmatga asoslangan korporativ madaniyatni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Xodimlarga psixologik yordam ko‘rsatish, shu jumladan, professional murabbiylik va psixoterapiyaga kirish imkoniyati stress darajasini kamaytirishda samaradorligini isbotlagan. Harvard Business Review ma’lumotlariga ko‘ra, xodimlarning ruhiy salomatligi bo‘yicha dasturlarga sarmoya kiritgan kompaniyalar xodimlarning ish unumdorligini 23% ga oshirish va ishga kelmaslik holatlarining 19% ga pasayishini kuzatgan.

Biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy IT-tizimlar va xavflarni bashorat qilish vositalaridan foydalanish ham stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt tizimlari kredit xavflarini baholash jarayonini avtomatlashtirishga imkon beradi, bu esa xodimlarning yuklamasini kamaytirish va tahlilning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy CRM-tizimlari mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarishga yordam berib, nizolarni minimallashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga hissa qo‘shadi. Bu texnologiyalar nafaqat stress darajasini kamaytiradi, balki bankning bozor raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi.

Rahbarlarning shaxsiy rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi, bu vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rganish, hissiy intellektni rivojlantirish va ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlashni o‘z ichiga oladi. Moslashuvchan ish grafigi, masofaviy ish imkoniyatlari va ish-hayot muvozanatini saqlash dasturlarining joriy etilishi stress darajasini pasaytirish va xodimlarning qoniqish darajasini oshirishga imkon beradi. Rahbarlarni kognitiv-xulq-atvor terapiyasi va meditatsiya hamda nafas olish mashqlari kabi stressni kamaytirishga qaratilgan texnikalar bilan tanishtirish muhimdir, chunki bu usullar tashvish darajasini kamaytirish va kognitiv funksiyalarni yaxshilashda samarali ekanligi isbotlangan.

Shunday qilib, bank boshqaruvida stressli holatlarning oldini olish tashkiliy, psixologik, texnologik va yashil iqtisodiyot yondashuvlarini o‘z ichiga olgan

kompleks strategiyalarni talab qiladi. Stressni samarali boshqarish rahbarlar va xodimlarning ish unumdorligini oshiradi hamda bank tashkilotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Yashil iqtisodiyotga asoslangan moliyaviy amaliyotlar nafaqat ekologik ta’sirni kamaytiradi, balki bank tizimida ishlovchi mutaxassislarning ruhiy salomatligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНОН САВДО ТАШКИЛОТИГА АЪЗОЛИГИ ВА УНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ, ИННОВАЦИЯЛАР ВА ТАШҚИ САВДОГА ТАЪСИРИ

Ўринбаева Нигина Аловидин-қизи
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси
MBA (GENERAL) талабаси

Ўзбекистон Республикаси иқтисодий ислоҳатлар сиёсатини ривожлантира бориб, ўзининг ташқи иқтисодий фаолиятида истиқболли имкониятларини очадиган Жаҳон Савдо Ташкилотига *(матн давомида-ЖСТ)* аъзо бўлишга фаол интилмоқда. Нозирги замонавий шароитда ЖСТга аъзолик - жаҳон иқтисодиёти интеграtsiялашувига интилаётган ҳар қандай мамлакат учун муҳим қадамдир. Шу билан бирга, мамлакат барқарор ривожланиш, шу жумладан яшил иқтисодиётга ўтиш чораларини кўриб чиқмоқда. Жаҳон иқтисодиётига интеграtsiялашувнинг замонавий шароитида барқарор ривожланиш ҳар бир мамлакат учун асосий устувор вазифалардан бирига айланмоқда. Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилотига (ЖСТ) аъзо бўлиши иқтисодиёт учун янги истиқболларни, жумладан, ташқи савдо алоқаларини мустаҳкамлаш, халқаро инвестицияларни жалб етиш ва илғ‘ор технологияларни жорий этишни очиб беради. Шу билан бирга, глобал барқарор ривожланиш кун тартиби яшил инноватsiялар ва рақамли технологияларни фаол жорий этишни талаб қилади, бу еса миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омилига айланмоқда. Ушбу тезисда Ўзбекистоннинг ЖСТга аъзолиги, яшил иқтисодиётни ривожлантириш ва инноватsion рақамли ечимларни жорий етиш ўртасидаги муносабатлар кўриб чиқилган. Ушбу икки жараён ўзаро боғ‘лиқ: глобал савдо занжирларига интеграtsiя экологик стандартларга риоя қилишни талаб қилади ва барқарор ривожланиш тамойилларини жорий этиш маҳсулотларнинг жаҳон бозорида рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Намда ушбу тезисда ЖСТга аъзо бўлиш ташқи савдо, молиявий воситалар ва технологик базани модернизатsiя қилиш орқали мамлакатнинг барқарор иқтисодий ривожланишга ўтишига қандай ҳисса қўшиши мумкинлиги таҳлил қилинади.

Ўзбекистоннинг ЖСТга аъзо бўлиши халқаро иқтисодий алоқаларнинг кенгайишига, ишлаб чиқариш ва савдо стандартларига талабларнинг ошишига олиб келади. Хусусан, бу экологик стандартларга риоя қилиш ва яшил

иқтисодиётга ўтиш билан боғлиқ. ЖСТнинг барқарор ривожланиш учун асосий афзалликлари:

- Халқаро яшил молиявий воситалардан фойдаланиш-ЖСТга аъзо бўлиш Ўзбекистонга барқарор ривожланиш лойиҳаларини молиялаштиришни таъминлайдиган Жаҳон банки ва глобал атроф-муҳит объекти каби халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиш имкониятларини очиб беради.
- Яшил маҳсулотларнинг экспорт салоҳиятини ошириш-экологик тоза технологиялардан фойдаланадиган корхоналар халқаро бозорларга осонроқ киришлари мумкин, чунки экологик стандартлар рақобатбардошликнинг муҳим мезонига айланмоқда.
- Илғор экологик тоза технологиялар импорти-бозорнинг очилиши энергия самарадорлигини ошириш, чиқиндиларни қайта ишлаш ва қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланишни тарғиб қилувчи технологиялар импортининг кўпайишига олиб келади.

Барқарор ривожланишнинг асосий йўналишларидан бири атроф-муҳитга таъсирини минималлаштирадиган ва корхоналарнинг иқтисодий самарадорлигини оширадиган яшил инновatsiялар ва рақамли ечимларни жорий этишдир.

ЖСТга аъзо бўлиш яшил технологиялар соҳасида халқаро стандартларни жорий етишга ёрдам беради, бу еса Ўзбекистон корхоналарини жаҳон бозорида рақобатбардош қилади.

Барқарор иқтисодий ўсиш шароитида ташқи савдо фаолиятида ЖСТга аъзо бўлиш ташқи савдо сиёсатини либераллаштиришга олиб келади, бу товарлар ва хизматлар бозорига, шу жумладан яшил иқтисодиёт соҳасига таъсир қилади. Ташқи савдо таркибида ўзгаришлар бўлиб ўтади : Барқарор ривожланиш инфратузилмасига (энергетика, транспорт, қишлоқ хўжалиги) инвестицияларнинг кўпайиши олиб келади, экологик тоза маҳсулотлар ишлаб чиқарилишига шу билан экпортнинг ўсишига тўртки бўлади. Экспорт қилинадиган товарларни сертификатлаш ва сифатига қўйиладиган талабларни оширадиган савдода экологик стандартларни жорий етиш. Натижада халқаро ҳамжамият билан иқтисодий интеграtsія Ўзбекистон корхоналарини атроф-муҳитни модернизatsія қилиш учун раг‘бат бўлади.

Хулоса қилиб айтиб ўтиш жоизки, Ўзбекистоннинг Жстга аъзолиги мамлакатнинг жаҳон бозоридаги мавқеини мустаҳкамлаш, иқтисодиётнинг барқарорлигини ошириш ва яшил инновatsияларни жорий етиш йўлидаги муҳим қадамдир. Жаҳон савдо тизимига интеграtsія рақамлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнларини модернизatsія қилиш ва экологик стандартларга мослашиш учун янги имкониятлар яратади. Шундай қилиб, Жстга аъзо бўлиш ва яшил иқтисодиётнинг ривожланиши бир-бири билан чамбарчас боғлиқ: рақамли технологиялар ва инновatsіялар барқарор иқтисодий ўсиш воситасига айланмоқда ва халқаро савдо шартномаларида иштирок етиш уларни амалга ошириш учун ресурслардан фойдаланиш имкониятини очмоқда. Ўзбекистонда яшил ўсиш тамойиллари ва замонавий рақамли ечимлар асосида рақобатбардош, барқарор иқтисодиёт яратиш учун ноёб имкониятлар мавжуд.

INNOVATIVE SOLUTIONS OF CIRCULAR ECONOMY WITHIN SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH AND THEIR INTEGRATION INTO INDUSTRIAL SECTORS

Nazira Xodjaraxmanova
Master's Student at Tashkent State University of Economics

In recent ears, Uzbekistan has been actively progressing towards a green economy, recognizing its crucial role in ensuring sustainable economic growth and environmental protection. The increasing urgency of addressing environmental challenges, such as air pollution, resource depletion, and inefficient waste management, underscores the need for innovative solutions. To accelerate this transition, the government has introduced strategic regulatory measures, including Decree of the presidential DP-4477 (dated October 4, 2019), which outlines the "Green Economy Transition Strategy for 2019–2030."[1] This policy framework aims to optimize resource utilization, promote eco-friendly technologies, and enhance energy efficiency across various economic sectors. In alignment with this strategy, researchers and young scholars are actively engaged in scientific exploration to develop and implement sustainable economic models.

One of the most essential components of the green economy is the circular economy, which has gained significant attention as an alternative to the conventional linear economy model. The traditional approach-"take, make, dispose"-relies on excessive resource consumption and generates vast amounts of waste, leading to environmental degradation. In contrast, the circular economy is based on the 3R principles: Reduce, Reuse, and Recycle, promoting resource efficiency and sustainability [2]. By adopting circular production models, industries can minimize waste, extend product life cycles, and establish closed-loop supply chains, ultimately reducing environmental impact.

The implementation of circular economy principles in Uzbekistan is becoming increasingly important, not only to support environmental sustainability but also to enhance economic efficiency and industrial competitiveness. The shift towards a circular economic model requires a comprehensive approach, integrating technological innovation, policy reforms, and cross-sectoral collaboration. Given the growing global emphasis on sustainability, Uzbekistan's commitment to circular economy development is a crucial step towards achieving long-term ecological balance and economic resilience.

In recent ears, Uzbekistan has experienced significant growth in the number of industrial enterprises. As of February 1, 2024, there were 68 691 industrial enterprises operating in the country, with the highest concentration in Tashkent, which accounted for 11 930 enterprises [3]. By July 1, 2024, the total number of industrial enterprises had increased to 111 968, reflecting a 3,6% rise compared to the same period in 2023 [4]. Such rapid industrial growth is accompanied by increased production and consumption, leading to higher environmental pressure and depletion of natural resources. Integrating circular economy principles into Uzbekistan's traditional economic model is a crucial step toward ensuring

sustainable development. The circular economy emphasizes waste reduction, material reuse, and resource recycling, which helps mitigate environmental impact while improving production efficiency [5]. Implementing circular practices will not only enable Uzbek enterprises to reduce costs associated with raw materials but also enhance their competitiveness in the global market, where sustainability and environmental responsibility are increasingly prioritized. Thus, integrating circular economy principles into Uzbekistan's industrial sector is a strategically important direction for achieving long-term economic growth and maintaining ecological balance [6].



Figure 1. Industry's share of Uzbekistan's GDP has risen, while agriculture's share has declined [7]

From the figure, we can observe that Uzbekistan's industrial sector is experiencing steady growth, while the share of agriculture in the economy is gradually declining. This shift indicates an ongoing structural transformation, where industrial development is gaining priority over traditional agricultural activities. Such a trend reflects the country's efforts to modernize its economy, enhance industrial production capabilities, and integrate more advanced technologies into manufacturing sectors. At the same time, the decreasing share of agriculture suggests a transition towards more diversified and value-added economic activities, aligning with global trends in economic development.

To achieve this goal, it is essential to develop and implement innovative solutions that facilitate an effective transition to a sustainable economy. One of the key challenges in implementing new policies is the lack of public and business awareness regarding government strategies and initiatives. This lack of understanding reduces stakeholder engagement and slows down the adaptation process to new economic conditions. To address this issue, the primary task is to increase awareness among various sectors of society and enterprises about the proposed changes, as well as to create mechanisms that support their effective implementation. One potential solution is the development of a digital platform designed for the industrial sector. This platform would serve multiple critical functions:

First, it would establish a collaboration network for industrial enterprises, enabling more efficient resource utilization. Through this platform, waste from one

enterprise could be repurposed as raw material for another, thereby fostering closed-loop production cycles and minimizing waste emissions. Such a mechanism would ensure the efficient redistribution of resources, reducing environmental impact and promoting corporate environmental responsibility.

Second, the platform would integrate economic benefit assessment tools, providing enterprises with analytical insights into the potential profitability of adopting circular business models. This aspect is crucial for the industrial sector, as economic feasibility remains a top priority in decision-making processes. The use of digital technologies for modeling and forecasting economic impact would allow companies to make more informed decisions when integrating sustainable practices into their operations.

Thus, the development and implementation of such a digital platform would not only serve as a tool for enhancing industrial production efficiency but also represent a significant step in advancing the circular economy. It would provide informational, technological, and analytical support to businesses, encouraging them to transition toward more sustainable business models. Ultimately, this initiative would contribute to shaping a new economic paradigm based on resource conservation, cooperation, and environmental responsibility.

The transition to a circular economy presents a significant opportunity for Uzbekistan to achieve sustainable economic growth while addressing pressing environmental challenges. As the industrial sector continues to expand and the share of agriculture declines, it becomes increasingly important to implement resource-efficient and waste-reducing economic models. The integration of circular economy principles, such as reduce, reuse, and recycle, will not only enhance industrial efficiency but also minimize environmental impact and strengthen economic resilience. Developing a digital platform to facilitate industrial collaboration and resource optimization will play a crucial role in this transition. By enabling closed-loop production cycles, assessing economic benefits, and fostering intersectoral cooperation, such a platform will provide practical solutions for businesses seeking to adopt sustainable practices. Ultimately, shifting towards a circular economic model will support Uzbekistan’s long-term economic stability, improve industrial competitiveness, and contribute to global efforts in environmental conservation. The successful implementation of these strategies will not only enhance economic productivity but also position Uzbekistan as a leader in sustainable industrial development.

REFERENCES

Decree of the presidential DP-4477 (dated October 4, 2019) “Green Economy Transition Strategy for 2019–2030.” URL: https://lex.uz/docs/-4539502

Manickam, Parthiban, and Gopalakrishnan Duraisamy. "3Rs and circular economy." *Circular economy in textiles and apparel*. Woodhead Publishing, 2019. 77-93.

“O‘zbekiston sanoat korxonalari soni 68 mingdan oshdi.” UPL.uz, 1 Feb. 2024, upl.uz.

“Kolicestvo promyslennyh predpriatij v Uzbekistane prodolzaet rasti.” Daryo.uz, 18 July 2024, daryo.uz.

Geissdoerfer, Martin, et al. “The Circular Economy – A New Sustainability Paradigm?” Journal of Cleaner Production, vol. 143, 2017, pp. 757-768.

Kirchherr, Julian, et al. “Barriers to the Circular Economy: Evidence from the European Union.” Ecological Economics, vol. 150, 2018, pp. 264-272.

OECD (2023), Financing Uzbekistan’s Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance, Green Finance and Investment, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/27d2489d-en.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Xudayarova Maftuna Shavkatovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali tayanch doktoranti

Xizmat ko‘rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini baholash oz moxiyatiga ko‘ra bir qator ko‘rsatkichlardan tarkib topadi. Bunday yondashuv uslubi aholining tadbirkorlik faolligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqishda muhim mezon bo‘lishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida “Yagona yo‘limiz – tadbirkorlar sonini ko‘paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish!”[127] deb ta’kidlab o‘tdilar.

Ma’lumki, «O‘zbekiston - 2030» strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadlar va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari ham belgilab qo‘yilgan. Jumladan, strategiyaning barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish kabi asosiy maqsadlar qo‘yilgan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish borasidagi vazifalarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13-oktyabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862 – son qarori o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Yoqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot ishimizda xizmat ko‘rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimini tadqiq etish vazifasini qo‘ydik. Bizningcha ular tarkibi va tavsifi quyidagilardan iborat (1-jadval):

1-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning tavsifi[128]

[127] http://uza.uz/posts/33461

[128] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

№	Ko‘rsatkichlar	Tavsifi
1.	xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlari soni	umumiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar ulushi
2.	xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholining ulushi	umumiy mehnat bozori tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotganlarning foizi
3.	yangi ochilgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalari soni	muayyan vaqt davomida tashkil etilgan xizmat ko‘rsatish subyektlari
4.	xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi	xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini baholovchi indikator;
5.	aholining xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlikka moyilligi	ushbu sohada biznes boshlashga bo‘lgan qiziqish va tayyorlik darajasini aks ettiruvchi so‘rovnoma natijalari
6.	tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi	xizmatlarning umumiy qiymati va tarmoq bo‘yicha taqsimoti
7.	xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari	sohadagi tadbirkorlik faoliyatining bandlikka ta’sirini o‘lchash mezoni
8.	raqamli xizmatlar, elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi subyektlar soni	xizmat ko‘rsatishning zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkich
9.	tadbirkorlik faoliyaytini kreditlash va sohaga kiritilgan investitsiyalar hajmi	xizmat ko‘rsatish sohasidagi biznes subyektlari uchun ajratilgan moliyaviy resurslar hajmi
10.	aholining tadbirkorlik daromadlari	oila daromadlari tarkibida mulk va tadbirkorlik hisobiga olingan daromadlarning hissasi
11.	xizmatlar eksporti va xalqaro bozorga chiqish ko‘rsatkichi	mahalliy xizmat ko‘rsatish korxonalarining xalqaro miqyosda faoliyat yuritish darajasi

Bizningcha ushbu ko‘rsatkichlar xizmat ko‘rsatish sohasida aholining tadbirkorlik faolligini baholash mezonlari bo‘la oladi.

Uslubiy yondashuvimizga ko‘ra, yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlardan xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlari soni, xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholi ulushi, xizmat ko‘rsatish sohasining YaHMdagi ulushi, axolining tadbirkorlik daromadlari ulushi, prognoz parametrlarini hisoblashning trend modellari ishlab chiqildi. Hisob-kitoblar ushbu ko‘rsatkichlarning 2015-2023 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida “Excel” dasturida hisoblandi. Bunda prognoz uchun eng qulay funksiyalar statistik baholash mezonlari (R^2)ni solishtirish asosida tanlandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida. 2023-yil 11-sentyabr, PF – 158-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862 – son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev. “Yagona yo‘limiz – tadbirkorlar sonini ko‘paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish!”(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning nutqi. http://uza.uz/posts/33461).

Shadieva G.M., Quvandiqov S.O. Hududlar rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini baholashda “Mahallabay” yondashuvi. Iqtisodiyot: tahlil va prognoz. 2021 (3): 122-6.

O‘ZBEKISTONDA METAN GAZDA YURADIGAN AVTOMOBILLARNING FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

Zokirov Farruxbek Zoirbek o‘g‘li
“Sanoat Energetika Guruhi” MCHJ QK,
neft tayyorlash va tashish bo‘limi,
1-toifali muhandis

Barqaror iqtisodiy o‘sish bugungi kunda barcha rivojlanayotgan davlatlarning oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar yordamida avtomobil oqimini optimallashtirish, yoqilg‘i sarfini va havo ifloslanishini kamaytirish mumkin.

Bizga ma’lumki, biz ko‘rib, turgan metan gazli avtomobillarga yoqilg‘i quyish uchun ishlatiladigan gaz iste'molchiga etib borgunicha juda ko‘p bosqichlardan o‘tadi. Qisqaroq qilib aytganda, tabiiy gaz 7000 metrgacha bo‘lgan chuqurlikdagi er osti konlaridan qazib olinadi. So‘ngra u dastlabki tayyorlash jarayonlaridan o‘tadi, zavodlardagi mavjud qurilmalarda qayta ishlanib, gazning sifat ko‘rsatkichlari standart talablariga muvofiq ta’minlanadi. Har bir jarayon o‘zi aslida juda murakkab jarayon hisoblanib, loyihalashtirishdan boshlab toki foydalanishgacha bo‘lgan jarayonda juda katta mablag‘ sarflaydi. Bir dona quduqni burg‘ulashni ta’kidlaydigan bo‘lsak, 1 million dollardan 20 million dollargacha pul mablag‘i sarflashini aytishimiz mumkin. Vaholanki, quduqni burg‘ulashdan tashqari, gazni dastlabki tayyorlash qurilmalari, zavodlar va hokazo, zavodlarni qurish esa milliard dollar mablag‘ talab etishini gapirmasak ham bo‘ladi. Keyin u magistral quvurlar orqali "Hududgazta’minot" AJga etkaziladi. "Hududgazta’minot" AJ esa uni aholiga, gaz quyish shoxobchalariga va sanoat korxonalariga etkazib beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, gaz bizgacha etib kelgunicha juda ko‘p jarayonlardan o‘tadi va katta mehnat hamda mablag‘ sarflanadi. Biz tabiiy gazni har bir kubigacha isrof qilmaslikka va bizdan keyingi avlodga etkazishga harakat qilishimiz zarur.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda metan gazida harakatlanadigan avtomobil haydovchilarining eng katta muammolaridan biri - metan gaz quyish shoxobchasining ochiq yoki yopiqligini bilmaslikdir. Buning natijasida ko‘plab haydovchilar gaz quyish shoxobchasining ochiq yoki yopiqligini bilmay boradilar.

Yopiq bo‘lgan taqdirda, ular vaqtlarini va avtomobildagi mavjud metan gazini behuda sarflaydilar, shuningdek, yo‘llarda ortiqcha harakat vujudga keladi va buning natijasida yo‘llarda tirbandlik hosil bo‘ladi. Agar ular oldindan qaysi metan gaz quyish shoxobchasi ochiqligini bilishganida, vaqtlarini ham, avtomobildagi gazni ham oqilona sarflagan bo‘lardilar. Va albatta, buning natijasida atrof-muhitga ham avvalgiga nisbatan kamroq issiqxona gazlari chiqar edi.

Buning echimi va mening taklifim quyidagicha: Hammamizga ma’lumki, hozirgi kunda O‘zbekistonda yoshu qari uchun eng qulay bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlardan biri - Telegram messenjeridir. Undan foydalanishning qulayligi jihatidan, Telegram messenjerida Telegram bot yaratish orqali metan gaz quyish shoxobchalarini onlayn monitoring qilish mumkin bo‘ladi. Ya’ni, Telegram botda O‘zbekistonda ishlayotgan har bir metan gaz quyish shoxobchasi haqida ma’lumot bo‘ladi. Bu ma’lumotlarga metan gaz quyish shoxobchasining joylashgan joyi, mo‘ljal manzili, telefon raqamlari va albatta ochiq yoki yopiqligi kiritiladi. Bunday imkoniyat yaratishimiz natijasida xalqimiz uchun juda katta qulaylik yaratgan bo‘lamiz. Shuningdek, davlatimiz taraqqiyoti uchun o‘zimizning kam bo‘lsa-da hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz va albatta, insonlar roziligiga erishamiz.

Yuqorida keltirgan taklifimning echimi quyidagicha: Men taklifni joyiga chiqib o‘rgandim, bir nechta metan quyish shoxobchalariga borib joyida o‘rgandim. Qachon ochiq bo‘lishi, qachon yopiq bo‘lishi, qanday omillar ta’sir qilishi va nimalar sabab bo‘lishini tahlil qildim. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan g‘oyani amalga oshirish uchun, ya’ni telegram bot yaratish uchun IT mutaxassislari bilan hamkorlikda va Metan quyish shoxobchalariga etkazib beruvchi "Hududgazta’minot" AJ bilan hamkorlikda amalga oshirsa bo‘ladi.

Sababi, "Hududgazta’minot" AJ metan gaz shoxobchalariga yuboradigan gaz quvuri liniyalaridagi gaz bosimining holatiga va gaz oqimiga qarab, qaysi vaqtlarda ochishni, qaysi vaqtlarda yopishni aytar ekan, ya’ni "Hududgazta’minot" to‘liq nazorat qilar ekan. Bu shuni ta’kidlaydiki, faqatgina "Hududgazta’minot" bilan O‘zbekistondagi barcha metan quyish shoxobchalarining holatini bilish mumkin, ya’ni har bitta metan quyish shoxobchasi bilan gaplashib o‘tirmasdan, faqatgina asosiy ta’minotchi bo‘lgan "Hududgazta’minot" AJ orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Bir nechta IT mutaxassislari biriktiriladi, doimiy ravishda "Hududgazta’minot" AJ tomonidan berilgan ma’lumotni telegram bot bazasiga kiritib borishadi va tezkor ravishda telegram bot foydalanuvchisi xabardor bo‘ladi.

Shuningdek, ta’kidlashim joizki, server ham kerak bo‘ladi. Serverda telegram botdagi kiritilayotgan ma’lumotlar saqlanib turadi va bu tezkor xabar berish uchun telegram bot foydalanuvchilariga.

Ko‘rib turibmizki, bitta shu taklif ortidan:

- Metan gazi ortiqcha isrofini kamaytirish;
- Havoning ifloslanishi ko‘rsatkichini kamaytirish;
- Tirbandlikning oldini olish;
- Haydovchilar vaqtini behuda sarflamaslik;
- IT mutaxassislarini jalb qilib ortiqcha ish o‘rni yaratish;
- Insonlar roziligini olish.

Va shuni ham ta’kidlashim joizki, bu telegram bot doimiy ravishda takomillashib boradi, talab va takliflarni o‘rgangan holda.

Bundan tashqari, ikkinchi variant ham mavjud, ya’ni sarmoya jalb qilgan holda har bir metan gaz quyish shoxobchasiga aqlli kameralar o‘rnatish. Sun'iy intellekt yordamida metan quyish shoxobchasidagi kameralar o‘sha joydagi holatni bazaga darhol avtomatik kiritishi va IT mutaxassislarisiz ma’lumotlar joylab borilishi ta’minlanadi. Va albatta, metan gaz avtomobilida yuruvchi haydovchilarni reklamalar orqali yoki har bir metan zapravkaga reklama qog‘ozlarini yopishtirish orqali xabardor qilsak bo‘ladi. O‘ylaymanki, insonlarga tarqatish, ommalashtirish muammo emas.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР ОРҚАЛИ БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ЭРИШИШ ЙЎЛЛАРИ

Каландаров Р.А.
ТДИУ доценти, PhD доцент

Жаһон мамлакатларида амалга оширилаётган институционал ўзгаришлар мавжуд институтларни давр заруриятидан келиб чиқиб янгиланишини жараёнидир. Эски институционал тизим иқтисодий ўсиш суръатларини секинлаштиради ва ҳатто ривожланишни бутунлай тўхтатишига олиб келиши мумкин. Истиқболли барқарор ривожланиш йўли муқобил институционал ёндашувни вужудга келтириш ва фойдаланишга имконият бермайди. Жараённинг якунланиши институционал тизимнинг имкониятларининг камайиши ҳамда институтлар ўзини-ўзи таъминлаш ва барқарорлиги хусусиятларига ҳаддан зиёд кучайиши билан боғлиқ. Жумладан, Ўзбекистонда 2019 йилгача амалда ишлаб турган Иқтисодиёт вазирлиги давр талаби туфайли уч карра ўзгаришига сабаб бўлган. Биринчиси, бу 2019 йил Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги ПҚ-4105-сон “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва саноат вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори билан, иккинчиси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПҚ-4653-сон “Ўзбекистон Республикаси иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг ташкилолари фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги” Қарори билан амалга ошди. Мамлакатимиз Президентининг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида Ўзбекистонда ихчам ва самарали давлат бошқарув тизимини жорий этиш таклифига асосида Ўзбекистон Республикаси иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш ҳамда Молия вазирликлари бирлаштирилиб Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ташкил этилди.

Ўзбекистонда 2016 йил ҳолатига кўра жамият ва иқтисодиётнинг реал секторидаги мавжуд вазият маълум даражада институционал ўзгаришларни амалга оширишни тақозо этди. Қишлоқ хўжалигидаги паст самарадорлик ва тадбиркорлик фаолиятини юритиш мотиватsiясининг сустлиги, валюта

муносабатларидаги хуфёна иқтисодиётнинг гуллаб-яшнаши, коррупция даражасининг нисбатан юқорилиги, кредитлаш тизимининг қамрови камлиги каби муаммолар мавжуд эди. Ш.М.Мирзиёевнинг мамлакатимизда президентликка сайланиши билан иқтисодий ислоҳотларнинг йўналишлари белгилаб олинди, институционал ўзгаришларнинг янги даври бошланди.

Амалга оширилган институционал ўзгаришлар қисқа вақтда ўз самарасини бера бошлади. Улар инсонлар фаолиятининг маҳсули бўлиб, ушбу фаолият доимий равишда турли институтларни қўшилиши ва лойиҳаланиши жараёнидир. Янги пайдо бўлган институционал ўзгаришлар мавжуд жамиятдаги муаммоларни ҳал қилишга олиб келса улар жамоат онгида мустаҳкамланиб, меъёр мақомига эга бўлиб қолади. Ушбу ҳолат меъёр меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ёки давлатнинг тегишли тузилмаси билан мустаҳкамланган ва назорат қилинадиган қоидаси сифатида талқин қилинади.

Институционал ўзгаришлар назарияси нуқтаи-назаридан қараганда янги меъёрларни ишлаб чиқиш жараёни очиқ ёки яширин фаолият асосий институтлар табиати билан боғлиқдир. Унга мос келадиган меъёрлар илдиз отади, ишлайди ва ривожланади, мос келмайдиганлари эса вақтинчалик характерга эга бўлади.

Институционал тузилмаларнинг барқарорлиги ижтимоий ҳаёт шаклларининг ўзгармаслигини англатмайди. У нафақат ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ўзгаришларнинг объектив чегараларини, балки институционал ўзгаришларнинг йўналиши ва мантиғини ҳам белгилайди. Шу билан бирга институтларнинг ўзига хос хусусиятларига асосланиб, уларнинг субъектив томонга эгалигини ва шунга мос равишда уларни лойиҳалаш ҳамда мақсадли шакллантириш лозим. Институционал ўзгаришлар иқтисодий тизимларнинг чуқурлаштирадиган манфаатлари асосида шакллантирилади. Жумладан, АҚШда Рокфеллерлар иқтисодий манфаати туфайли бир қатор институтлар шаклланганлигини биламиз. Иқтисодиётдаги бундай институтлар иқтисодий тизим субъектлари ўртасидаги алоқа шакллари - шартномалар, режалаштириш механизми, иқтисодий соҳада фаолият юритаётган корхоналарнинг ҳуқуқий шакллари, нархларни белгилаш тартиби ва шу кабилар асосида шаклланишини кўрамиз.

Сиёсий соҳада институтлар қабул қилинган ҳудудий тузилиш тамойиллари, турли хил сайлов тартиб-қоидалари, марказлаштирилган ҳокимиятни бошқариш усуллари, давлатнинг бошқарув органларининг турли тузилмалари ва ҳоказоларда намоён бўлади. Мафкуравий соҳада институтлар муайян миллий ғоялар, баъзи таълимотлар, илмий концепциялар, фалсафий назариялар кабиларни ўз ичига олади.

Институтлар жамиятнинг муайян институционал муҳитини шакллантиради, улар ўзгарувчан характерга эга, доимий равишда янгиланиб турилади. Бу шуни англатадики, асосий институтлар жамиятдаги реал сектор фаолиятининг асосий соҳалари ўртасидаги муҳим бўғин сифатида ўз мазмунини сақлаб қолса ҳам, уларнинг ўзгарувчан ҳарактери туфайли ҳаётда доимо ривожланиб боради.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда амалга оширилаётган институционал ислоhотлар иқтисодиётни модернизатsiя қилиш, бошқарув тизимини такомиллаштириш ва аholи турмуш даражасини юксалтиришга қаратилган бир қанча муҳим йўналишларни қамраб олди. Мана уларнинг асосийлари:

Иқтисодий ислоhотлар:

Иқтисодиётни либераллаштириш: бизнес юритиш шартларини соддалаштириш, маъмурий тўсиқларни камайтириш, хусусий секторни қўллаб-қувватлаш.

Иқтисодиётни диверсификатsiя қилиш: хомашёга қарамликни камайтириш ва IT, туризм ва қишлоқ хўжалиги каби янги тармоқларни ривожлантириш.

Давлат бошқаруви:

Давлат аппаратини ислоh қилиш: давлат органлари тузилмасини оптималлаштириш, уларнинг самарадорлиги ва шаффофлигини ошириш.

Марказсизлаштириш: бошқарувни яхшилаш ва маhаллий манфаатларни hисобга олиш учун ваколатларни маhаллий даражага ўтказиш.

Нуқуқий ислоhот:

Нуқуқий муҳитни такомиллаштириш: янада прогноз қилинадиган ва барқарор hуқуқий тизимни яратиш, мулк hуқуқи ва инвестицияларни hимоя қилиш.

Коррупцияга қарши кураш: коррупцияга қарши чора-тадбирларни амалга ошириш ва давлат хизматчилари масъулиятини ошириш.

Ижтимоий ислоhотлар:

Таълим ва соg‘лиқни саqлаш тизимини такомиллаштириш: таълим муассасаларини модернизатsiя қилиш, тиббий хизмат сифатини ошириш.

Ижтимоий hимоя: аholининг ижтимоий hимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлаш бўйича дастурларни ишлаб чиқиш, жумладан, пенсия ислоhоти.

Инвестицион сиёсат:

Хорижий инвесторларни жалб қилиш: қулай инвестиция муҳитини яратиш, хорижий инвесторлар учун тартибларни соддалаштириш.

Инфратузилмани ривожлантириш: иқтисодий ўсишни қўллаб-қувватлаш учун транспорт, энергетика ва бошқа муҳим соhаларга инвестициялар.

Экологик ташаббуслар:

Барқарор ривожланиш: экологик тоза технологияларни жорий этиш, атроф-муҳитни муhофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш.

Бу йўналишлар янада очиқ, раqобатбардош ва барқарор иқтисодиётни яратиш, шунингдек, Ўзбекистон фуқароларининг hаёт сифатини оширишга қаратилган.

Шундай қилиб, институционал ўзгаришлар йўли - бу янги ўзгарувчан шароитда ўтмишнинг ижобий ва салбий тажрибасини hисобга олган hолда иқтисодиёт ва жамиятнинг ўзини-ўзи ангилаш жараёнидир. Институционал ўзгаришлар жараёни тасодифий ва кўр-кўрона, синовлар ва хатолар

натижасида содир бўлиши ёки ижтимоий тараққиётни акс таъсирига, илмий асосга таяниши мумкин.

Институционал ўзгаришлар тегишли манбаларга ham эга. Институционал ўзгаришларнинг биринчи манбаи барча иқтисодий субъектларнинг ижтимоий ва иқтисодий тараққиётдаги тўсиқларни онгли равишда енгиб ўтишга интилишидир. Бу жараёнда иқтисодий секторнинг hap бир гуруhи ўз манфаатини кўзлайди. Фаолият натижалари доимий ўзаро таъсир жараёнида бир-бири билан солиштирилади. Маълум иқтисодий гуруh ва умуман жамият манфаатлари ўртасида оқилона ечимга эришилган ташкилий қарорлар ва шакллар барқарорлик хусусиятига эга бўлади, амалга тадбиқ этилади. Бошқача қилиб айтганда, институционал ўзгаришлар жамиятнинг иқтисодий тузилишидаги мураккаб, кўп қиррали гуруhлараро ва субъектив ўзаро таъсирлар натижасидир.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Baltashev Jursinbay Muratbaevich
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “agrobiznes va buxgalteriya hisobi” kafedra i.f.f.d (PhD)

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo‘yicha choralar qabul qilindi [1]. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod

etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlari va rentabelligini ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o‘tkazish taqiqlandi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalar xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma’muriy reglament to‘liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta’minlanmagan ko‘plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda [2]. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo‘yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo‘lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta’minlash maqsadida [3]:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha byurokratik to‘siq va g‘ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funktsiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan turli ruxsat berish me’yorlari hamda cheklash tartiblarini keskin qisqartirish;

tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat boshqaruvi idoralari, soliq va nazorat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika idoralariga hisobotlarni topshirish mexanizmini ularni elektron tizim bo‘yicha taqdim etishga bosqichma-bosqich o‘tish orqali tubdan soddalashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to‘lovlar bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal

rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko‘maklashadigan qo‘shimcha imtiyoz hamda preferentsiyalar berish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko‘paytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish, eksport shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma’muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish [4].

Davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash maqsadida 2024 yil 1 iyuldan boshlab:

kredit ajratishning barcha bosqichlari (arizani ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va kredit ajratish) raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi;

kredit ta’minotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni taqiqdan to‘liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinadi;

axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritishi, pul oqimlari va boshqa ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlarni oldindan aniqlash mexanizmi amaliyotga kiritiladi;

davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

Xulosa qilish mumkinki, 2024 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvarga qadar davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so‘mgacha qiymatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Бородин Д.В. Совершенствование организационно-экономического механизма хозяйствования предприятий рыбной промышленности. Автореф.дисс.на соис.уч.степ. к. э.н. М.:– 2012

Бутикова Н.Ю. Становление и развитие предпринимателской деятелности в рыбохозяйственном комплексе магаданской области. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н. СПб 2013.

Чернявский И.А.Повышение экономической эффективности производства товарной рыбы (на материалах Новосибирской области). дисс.на соис.уч.степ. к.э.н. Новосибирск 2016.

Calayev C.K. Kichik biznec rivojlanish tendensiya-larini modellashtirish va bashoratlash (O‘zbekicton Recpublikaci micolida). i.f.d. dicc. T.TDIU 2008.

HUDUDNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI “YASHIL” IQTISODIYOT ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI
(Surxondaryo viloyati misolida)

Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti

Global miqyosda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning tobora dolzarb tus olayotgani “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda barqarorlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish hududlarning kelajakdagi farovonligini ta’minlashning muhim omiliga aylanadi.

Mamlakatimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid davlat siyosatini izchil olib borish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy resurslari va ekologik muammolari inobatga olingan holda, hududda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari, dasturlar va strategiyalar chuqur o‘rganiladi. Tahlil natijalari Surxondaryo viloyati misolida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini “yashil” iqtisodiyot asosida shakllantirish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, asosan, “yashil” iqtisodiyotning nazariy asoslari, uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qaratilgan. Ammo ushbu yo‘nalishda qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar tahliliga ko‘p jihatdan alohida e’tibor berilmagan. Ushbu maqola yozish mobaynida 2019-yil 16-aprelda qabul qiligan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston

Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrda PF-2020-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa ko‘plab hujjatlar tahlil qilingan.

Ushbu maqola doirasi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini “yashil” iqtisodiyot asosida shakllantirishning me’yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi hududda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari, dasturlar va strategiyalarni kompleks o‘rganish orqali ularning samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratildi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonun hujjatlari, qarorlar, dasturlar va strategiyalar batafsil tahlil qilindi. Bu hujjatlarning mazmuni, tuzilishi, maqsadlari, vazifalari va ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrda PF-2020-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonga ko‘ra mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishga doir biznes loyihalarining jozibadorligini oshirish orqali sohaga xususiy investitsiyalarni kengroq jalb qilish hamda quyosh va shamol elektr stansiyalari hamda kichik gidroelektr stansiyalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida qabul qilingan. Shuningdek, quvvati 5 MVtgacha bo‘lgan gidroelektrstansiyalarni qurish bo‘yicha loyiha tashabbuskorlari Energetika vazirligi buyurtmasi asosida “E-AUKSION” elektron savdo maydonchasida o‘tkaziladigan elektron auksion natijalari asosida aniqlanadi va elektron auksion g‘olibi bo‘lgan tadbirkorlik subyektiga uzoq muddatli ijara huquqi asosida taqdim etiladi.

1-jadval

Xususiy investorlarga quvvati 500 kVtgacha bo‘lgan mikro gidroelektrstansiyalarni qurish uchun taklif etilayotgan loyihalar (maydonlar) RO‘YXATI[129]

T/r	Maydon joylashgan hudud va suv manbai nomi	Quvvati kvt	Yillik o‘rtacha ishlab chiqarish ming kv soat
Surxondaryo viloyati			
1	Qiziriq tumani tumanlararo Isfara kollektorida mikro GES-1	310	1 116,0

[129] https://www.lex.uz/uz/docs/-6303230 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-220-son Farmoni.

2	Qiziriq tumani tumanlararo Isfara kollektorida mikro GES-2	280	1 008,0
3	Qiziriq tumani tumanlararo Isfara kollektorida mikro GES-3	370	1 332,0
4	Qiziriq tumani tumanlararo Isfara kollektorida mikro GES-4	500	1 800,0
5	Qiziriq tumani yuqori suv kanalida mikro GES	250	900,0
6	Denov tumani Xazarbog‘ kanalida mikro GES-1	370	1 332,0
7	Denov tumani Xazarbog‘ kanalida mikro GES-2	370	1 332,0
8	Denov tumani Xazarbog‘ kanalida mikro GES-4	360	1 296,0
9	Sariosiyo tumani Nilusoyda mikro GES	250	900,0
10	Sariosiyo tumani Qoplonsoy mikro GES	100	360,0
11	Sariosiyo tumani O‘ng qirg‘oq kanalida mikro GES	400	1 440,0
12	Sariosiyo tumani Damariqda mikro GES	130	561,6
13	Sariosiyo tumani To‘polang-qora tog‘ kanalida mikro GES -1	500	1 800,0
14	Sariosiyo tumani To‘polang-qora tog‘ kanalida mikro GES -2	500	1 800,0
15	Sariosiyo tumani Sangardak daryosida mikro GES-1	200	720,0
17	Sariosiyo tumani Sangardak daryosida mikro GES-3	100	360,0
18	Sariosiyo tumani Obizarang daryosida mikro GES	180	648,0
19	Sariosiyo tumani Chinor daryosida mikro GES	150	540,0
Jami:		5 320	19 245,6

Ushbu qarorning uchinchi ilovasida keltirilgan xususiy investorlarga quvvati 500 kVt gacha bo‘lgan mikro gidroelektrstansiyalarni qurish uchun taklif etilayotgan loyihalar (maydonlar) ro‘yxatida O‘zbekiston bo‘yicha jami 200 ta maydonlar ko‘rsatilgan bo‘lib, shundan 19 ta loyiha Surxondaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ushbu qarorning 4-ilovasidagi quvvati 5 MVt gacha bo‘lgan gidroelektrstansiyalarni qurish bo‘yicha xususiy investorlarni jalb qilish va ularning biznes loyihalarini moliyalashtirish sxemasiga ko‘ra ushbu loyihalar ketma-ket bajariladigan 12 bosqichda amalga oshiriladi.

Ushbu sohada qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlardan yana biri 2019-yil 16-aprelda qabul qiligan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunidir. Ushbu qonun hujjati 7 bob 28 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Unga ko‘ra quyidagilar ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida qabul qilingan:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash, yoqilg‘i-energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalarni, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirishni, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirishni va mahalliylashtirishni rag‘batlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning sinab ko‘rilgan texnologiyalari asosida energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga tadbirkorlik subyektlarini jalb etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

“yashil energiya” sertifikatlari tizimini rivojlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish[130];

Shuningdek, ushbu sohada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchilarga qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalar belgilangan. Unga ko‘ra quyidagilar belgilangan:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo‘lgan) o‘rnatganlik uchun mol-mulk solig‘ini to‘lashdan hamda ushbu qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha er solig‘ini to‘lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran o‘n yil muddatga ozod etiladi;

amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan yashash uchun mo‘ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar egaligidagi mol-mulkka qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i solinmaydi;

amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan yashash uchun mo‘ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga er solig‘idan ozod etiladi[131];

Bundan tashqari, ushbu qonunning 15-moddasida elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, unga ko‘ra qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali hosil qilingan elektr energiyasidan shaxsiy ehtiryojlar uchun foydalanilganda hech qanday ruxsat beruvchi huquqiy hujjat talab qilinmasligi belgilangan. Shuning bilan birga, quvvati 300 kv/soat va undan yuqori

[130] https://lex.uz/uz/docs/-4346831 21.05.2019-yildagi O‘RQ-539-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
[131] https://lex.uz/uz/docs/-4346831 21.05.2019-yildagi O‘RQ-539-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali generatsiya qilingan elektr energiyasini yagona elektr energiya tizimiga ulash faqat ushbu manbalar maxsus vakolatli davlat organida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyingina amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish hamda “yashil” o‘sishni ta’minlash sohasida qabul qilingan me’yoriy huquqiy hujjatlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bo‘lib, ushbu Qaror tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keng joriy etish, energiya samaradorligni oshirish orqali Respublika hududlarida energiya taqchilligini qoplanishini ta’minlash hamda bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, investorlar uchun qulay sharoit va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadlarini o‘z ichiga oladi[132].

Ushbu qarorning 1-ilovasida 2023-yilda davlat xususiy sherikchilik asosida O‘zbekiston bo‘ylab yirik quvvatli quyosh (FES) va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan va amalga oshiriladigan istiqbolli jami 11 ta loyiha keltirilgan. Ushbu loyihalarning xorijiy kompaniyalar, xususan, Masdar (BAA), ACWA Power (Saudia Arabistoni), Gezhouba (Xitoy), Tepelen Group AG (Shvetsariya) ishtirokida qurish rejalashtirilgan.

Shuningdek, ushbu Qarorning 1a-ilovasida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini elektr uzatish tarmoqlariga ulash bo‘yicha loyihalarning manzilli ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, shamol va quyosh elektr stansiyalari bo‘yicha O‘zbekiston bo‘ylab jami 15 loyiha xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlat xususiy-sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh hamda shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarining Surxondaryo viloyatidagi manzilli ro‘yxati[133]

2-jadval

T/r	**Stansiya joylashuvi**	**Investorlar**	**Loyiha qiymati, (mln doll.)**	**Stansiya quvvati, MVt**		**Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln kvt/soat)**	
				Jami	Shundan, 2023-yilda ishga tushiriladigan	Jami	Shundan, 2023-yilda
1	Surxondaryo viloyati Sherobod tumani FES	Masdar (BAA)	260	457	100	1188	21

[132] https://www.lex.uz/docs/-6385716 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son Qarori.

[133] https://www.lex.uz/docs/-6385716 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son Qarori.

Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini elektr tarmoqlariga ulash bo‘yicha loyihalarning Surxondaryo viloyatidagi manzilli ro‘yxati[134]

3-jadval

T/r	Loyiha nomi	Tashabbuskor	Loyiha qiymati (mlrd so‘m)	Moliyalashtirish manbalari
Quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish loyihalari				
1	Surxondaryo viloyatida quvvati 450 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish loyihasi doirasida 220/35 kV PS va kuchlanishi 220 kV uzunligi 117 km bo‘lgan elektr uzatish tarmog‘ini qurish	Masdar (BAA)	822	“Masdar” kompaniyasining o‘z mablag‘lari

Yuqoridagi 1.3 va 1.4-jadvallardan ko‘rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida boshqa viloyatlarga nisbatan “yashil” energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, hozircha faqatgina Sherobod tumanida BAAning “Masdar” kompaniyasi ishtirokida quyosh (foto) elektr stansiyasini qurib, ishga tushirish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu qarorning 2-ilovasida ijtimoiy soha obyektlari va va davlat idoralarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurulmalarini o‘rnatish rejasi tasdiqlangan bo‘lib, ushbu rejada Surxondaryo viloyatining 14 ta tumani va Termiz shahridagi obyektlarga o‘rnatish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish bo‘yicha Surxondaryo viloyati rejasi[135]

4-jadval

T/r	Hudud nomi	Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida o‘rnatiladigan qurilmalar			
		Obyekt soni	Tom sathi (ming kv.m)	Quyosh panellari quvvati, jami (MVt)	2023-yilda elektr energiya hajmi (mln. kV/soat)
Surxondaryo viloyati		**682**	**102,4**	**20,5**	**23,9**
1	Angor tumani	38	5,7	1,1	1,3
2	Bandixon tumani	27	4	0,8	0,9
3	Boysun tumani	28	4,3	0,9	1
4	Denov tumani	20	3	0,6	0,7
5	Jarqo‘rg‘on tumani	57	8,7	1,7	2

[134] https://www.lex.uz/docs/-6385716 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son Qarori.

[135] https://www.lex.uz/docs/-6385716 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son Qarori.

6	Qiziriq tumani	33	5	1	1,7
7	Qumqo‘rg‘on tumani	40	6	1,2	1,4
8	Muzrabot tumani	46	7	1,4	1,6
9	Oltinsoy tumani	36	5	1	1,2
10	Sariosiyo tumani	54	8,1	1,6	1,9
11	Termiz tumani	73	11	2,2	2,6
12	Termiz shahri	88	13,2	2,6	3,1
13	Uzun tumani	45	6,8	1,4	1,6
14	Sherobod tumani	53	8	1,6	1,9
15	Sho‘rchi tumani	44	6,6	1,3	1,5

Yuqoridagi 1.5-jadvalga ko‘ra Surxondaryo viloyatidagi jami 102,4 ming kv.m tom sathiga ega 682 ta obyektga o‘rnatiladigan quyosh panellari orqali umumiy hajmda 20,5 MVt elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shundan, eng ko‘p elektr energiyasi hosil qilish viloyatning janubiy hududlari Termiz shahri hamda Termiz tumaniga to‘g‘ri kelib, mos ravishda 2,6 va 2,2 MVt elektr energiyasi hosil qilish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ-539-son Qonuni, https://lex.uz/uz/docs/-4346831

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. lex.uz/docs/6600413

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-2020-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, https://www.lex.uz/uz/docs/-6303230

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, https://www.lex.uz/docs/-6385716

URGUT TUMANINING TURISTIK-REKREATSION SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Toyirova Shohista Bobobekovna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti doktoranti

Turizm industriyasi ko‘plab hududlarda keng ko‘lamli infrastruktura ishlarini olib borishi natijasida turizmning rivojlanishi sabab kichik maydonga ega hududlarda turli muammolar yuzaga kelmoqda. Muammolar asosan hududning tabiiy resurslari va mahalliy madaniyatga ta’sir etishi bilan bog‘liq. Sohadagi keskin o‘zgarishlar ekologik muvozanatni saqlab turish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Ba’zi hududlarda bu hol endemik turlarning butunlay yo‘qolib ketish

darajasiga kelib qolmoqda va muammoning echimi sifatida ekologik turizm tanlanmoqda. Tabiiy resurslar, madaniy yodgorliklar va atrof-muhitda bo‘layotgan salbiy munosabatlar ekologik turizmning ahamiyatini yanada oshiradi. Ekoturizm sabab tabiiy resurslarga salbiy ta’sir etmasdan moddiy daromad ko‘rish imkoniyatini beradi. Ushbu yo‘nalish hududning tabiiy va madaniy xususiyatining saqlab qolinishining ijobiy echimidirTurizm resurslari rekreatsion, madaniy va ilmiy jihatlarga qaratilgan bo‘lib, hududning tabiiy va madaniy xususiyatlari esa turizm rivojlanishida muhim ahamiyatga ega[136].

Hududning tabiiy resurslar taqsimoti o‘sha hudud iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Hududlardagi resurslarning notekis taqsimoti tabiiy va geografik xususiyatlariga asoslanadi. Tabiiy resurslar hududning imkoniyatlar darajasini ko‘taradi va rivojlanish jarayonida bevosita mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarishda va bilvosita ishlab chiqarish tijoratchilarning jalb qilishda ishtirok etadi. “Tabiiy boylik” sifatida qaraluvchi hududning tabiiy resurslari ish o‘rinlarini yaratish va moddiy manfaat ko‘rish vositasi hisoblanadi. Hududning rivojlanishi ko‘p jihatdan tabiiy resurslarga bog‘liq bo‘lsa-da, undan to‘g‘ri foydalanib moddiy foyda olishga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham bo‘lib, ulardan biri hudud aholisining zichlik ko‘rsatkichidir. Odatda, turistik manzillar iloji boricha aholi kam istiqomat qiladigan hududlar tashkil etiladi[137].

Tadqiqotimizning asosiy e’tiborini Urgut tumanining ma’lum nuqtalariga qaratdik. Tumandagi barcha hududlarda ham ekologik turizmni tashkil etishning imkoniyati yo‘qligini (aholi sonining ko‘pligi, infrastrukturaning yo‘lga qo‘yilmaganligi, kadrlar tayyorlash masalasi va b.) hisobga olib, tashkil etish imkoniyati mavjud hududlarni saralab oldik. Bundan tashqari, odatda, ekologik turizmni tashkil etishda tabiiy resurslardan foydalaniladi. Urgut tumanida faqat tabiiy resurslardan foydalanib ushbu sohani rivojlantirish cheklanganligi sabab, hududlardagi madaniy resurslardan foydalanib imkoniyat darajasini ko‘tarishimiz mumkin. Urgut tumanida resurslar taqsimoti bir xil emas. Ekologik turizmni tashkil etish imkonini tug‘diruvchi tog‘li va xushmanzara joylar hududning shimoliy-g‘arbiy, shimoliy va janubiy-g‘arbiy hududlarida joylashgan.

[136] Qiang H.,LAnqian X., Aiwen L., Yingyue H., Yunchuan D. Exploring the spatial configuration of tourism resources through ecosystem services and ethnic minority villages. Ecological informatics. Elsevier. 2024

[137] Polyzos S., Arabatsiz G. Spatial distribution of natural resources and their contribution to regional development. the case of Greece. Environmental management. 2019



1-rasm. Urgut tumanining geografik joylashuvi[138]

Tumandagi 120ta MFYlarining katta qismida turistlar uchun juda qiziq bo‘lgan madaniy meros shakllari hozirgi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Tumanning aholisi zich joylashganligini, aynan ekologik turizmga tegishli mashg‘ulotlarning hali to‘laligicha yo‘lga qo‘yilmaganligini hisobga olib va o‘tkazilgan SWOT tahlili natijalariga tayanib turizmni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda hududdagi mavjud resurslarning jamlanmasidan foydalanish, bizningcha, eng to‘g‘ri echimlardan bo‘la oladi. Biz ushbu holatda 2012-yildan buyon Birlashgan Millatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinayotgan eko-madaniy turizm (eco-cultural tourism) yo‘nalishini taklif qilamiz. Ushbu yo‘nalish hududning atrof-muhitini asrab-avaylash barobarida tumanda barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. U mahallalar o‘rtasidagi tabiiy va madaniy merosning hurmat qilinishi va asrab qolinishini ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalish asosan ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lib, sayohatdan oldin, sayohat davomida va sayohat yakunlangach ham ma’lumotlar taqdim etiladi. Bugungi kunda yangi trend sifatida sayyohlar orasida keng ommalashayotgan jamiyatga asoslangan ekoturizm (Community-based ecotourism) tushunchasi biror hududdagi qisqa muddatdagi yuqori sifatli turizm amaliyotini taqdim etishni anglatadi. Turizmning ushbu yo‘nalishining asosiy maqsadi moddiy daromad emas, balki tabiiy va madaniy muhitni asrab qolishdir. Uning o‘ziga xosligi shundan iboratki, iqlim o‘zgarishi va global iqtisodiy jarayonlardagi muvozanatning buzilish holatlarini engillashtirish imkoniyatini bera oladi. jamiyatga asoslangan ekoturizm yo‘nalishi turizm agentliklarining yuklamalari, manzilning sig‘im masalasi va iqtisodiy hamda atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanat kabi jihatlarni jamlagan mahalliy barqaror reja ishlab chiqilishini talab qiladi.

Ahamiyatli jihati shundan iboratki, biz tomondan taklif etilayotgan hududlarda turistik faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi ma’lum bir hududda boshlang‘ich holatdan ekoturistik faoliyatni ishga tushirishdan birmuncha osonroq va samaraliroq bo‘ladi. Taklif etilayotgan hududlardan turistik qishloq sifatida foydalanilib, mahalliy aholini sohaga jalb qilish va har tomonlama daromad ko‘rish mumkin. Urgut tumanining Navbog‘, O‘ramas, Etak Beshkapa, Beshkon va Uzunsoy kabi

[138] Muallif ishlanmasi

mahallalari tanlab olindi. Ularning tanlab olinishiga bir qator sabablar keltirib o‘tamiz:

* Har bir hudud ma’lum bir mashg‘ulot turiga moslashgan;

* Aholi uzoq yillardan beri ushbu mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib keladi;

* Mashg‘ulotlar bir biridan farq qiladi va turistlarda o‘zgacha qiziqishga sabab bo‘la oladi;

* Bu hududlardan ekoturistik faoliyat sifatida foydalanish tabiatga ziyon keltirmaydi, aksincha undan tushadigan daromadning ma’lum qismi tumandagi milliy tabiat bog‘ining samarali faoliyat yuritishi uchun yo‘naltirish orqali tabiatga foyda olib keladi;

* Tanlangan hududlarda turistik faoliyatning yuritilishi atrofdagi boshqa mahallalarning ham faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

* Ushbu hududlar va unga tutash hududlarda istiqomat qiluvchi aholida turizm sohasiga doir bilimlar va ko‘nikmalar paydo bo‘ladi;

Hududning madaniy resurslari yaxshi saqlangan hududlarning soni anchagina bo‘lsa-da, tarqoq joylashganligi biroz muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo, bu holatdan turistlarning tumanda qolish muddatlarini uzaytirish uchun foydalanishimiz mumkin. Hududning ekoturistik imkoniyatlarini kengaytirish uchun infratuzilmani yaratish, mahalliy aholini o‘qitish, turizm xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgatirish imkoniyati mavjud. Bunda quyidagi jihatlar ahamiyatli:

a) Turizm siyosati va rejalashtirish.

b) Turizmni rivojlantirishda marketing va mahalliy mahsulotlar rivojiga e’tibor qaratish zarur; muhofaza qilinadigan hududlarda kichik tijoratchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash; talab va taklifni o‘rganish zarur;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Qiang H.,LAnqian X., Aiwen L., Yingyue H., Yunchuan D. Exploring the spatial configuration of tourism resources through ecosystem services and ethnic minority villages. Ecological informatics. Elsevier. 2024

Polyzos S., Arabatsiz G. Spatial distribution of natural resources and their contribution to regional development. the case of Greece. Environmental management. 2019

Urgut tumani mahallalar pasportlari. 2023

Sohara M. Community based ecotourism: A potential solution for protecting the Sundarbans. 2022

TURIZM INDUSTRIYASIDA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHDA DAVLATNING ROLI VA AHAMIYATI

Yo‘ldosheva Latofat Tolib qizi
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti doktoranti

Davlat tashkilotlari hududda barqaror turizm rivojlanishi uchun ma’sul hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, turistik tashkilotlar faoliyatini barqaror turizm shartlariga moslashtirish, ular yaratayotgan va xaridorlarga taklif etayotgan turistik mahsulotlarning barqarorlik darajasini oshirish turistlarning turistik maskan tanlash jarayoniga bevosita ta’sir etadi. Ekologiya va Taraqqiyot Jahon Tashkilotining xulosasiga ko‘ra, barqaror rivojlanish-kelajak avlodning ehtiyojlarini cheklab o‘tmasdan, bugungi davrning zaruriyatlarini ado etishdir. Turizm sohasining etakchi olimlari Page va Connellning ta’kidlashicha, turizm industriyasida mazkur barqaror rivojlanishga erishish uchun davlat ba’zi rag‘batlantiruvchi va cheklovchi vositalardan foydalangan holda mahalliy aholi va biznes vakillari bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Quyida ushbu vositalar keltirilgan:Javobgarlikka tortuvchi qonunlar; turistik manzillarni barpo qilishni rejalashtirish bosqichida ekologik ta’sirini aniqlashning aniq shartlari; noto‘g‘ri tarzda tashkillashtirilgan ko‘ngilochar sayohatlarni oldini olish uchun tizimli himoya; ekologiyaga zarar etkazadigan faoliyat turlariga solinadigan davlat soliqlari va jarimalari (aeroport solig‘i, turistlarga solinadigan soliq); turizm faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bosqichida yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida ajratilgan subsidiyalar, grantlar va kreditlarni taklif etadigan loyihalar.

Turizm sohasida o‘z faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan biznes vakillari Ekologik Akkredatsiya talablari bo‘yicha sinovdan o‘tishadi. Mazkur Akkredatsiya elementlari quyidagilardan iborat:



1-rasm Ekologik Akkredatsiyaning asosiy elementlari

Turizm sohasida infrastrukturani rivojlantirish uchun ko‘chalar, aeroportlar,dam olish maskanlari, turizm qishloqlari, keng miqyosdagi turizm maskanlari uchun Ekologik Ta’sirni Baholash mezonlari joriy etilgan. Jahon miqyosida AQSH mamlakati 1970-yillarda eng birlamchi o‘rinlarda ETB mezonlarini qabul qildi, Koreya va Avstraliya davlatlarida ham taklif qilinadigan turizm rivojlanish loyihalari, avvalo ETB mezonlari bo‘yicha baholanadi. Asosan, katta hajmdagi turizm loyihalari ushbu talablar bo‘yicha tekshiriladi. ETB faqatgina yangi loyihalar uchun amal qilib, ilgari ishga tushirilgan turizm loyihalari bundan mustasno hisoblanadi. Yangi loyihani taklif qilayotgan subyekt o‘z taklifi bo‘yicha ekologik ma’lumotlarini jamlab taqdim etganidan so‘ng, ushbu ma’lumotlarning to‘g‘riligi maxsus tashkilot tomonidan tekshiriladi.

UNWTO tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, turizm barqaror rivojlanish maqsadlariga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Davlat hukumati ushbu maqsadlarning ikki tomonlama ta’sirini baholagan holda turizm industriyasini boshqarishning aniq strategiyalarini ishlab chiqishi lozim.

1-jadval

Barqaror rivojlanish maqsadlarining turizm industriyasi bilan bog‘liqligi

Barqaror Rivojlanish Maqsadlari	Turizm sohasi bilan ijobiy aloqasi	Turizm sohasi bilan salbiy aloqasi
Qashshoqlikning past darajasi	Turizm orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish mumkin, misol uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish imkoniyati mavjud.	Turizmning yangi loyihalarini bunyod etish uchun aholi yashash maydonlari tozalanishi mumkin, bu esa kambag‘allik sur’atini ma’lum darajada oshiradi.Turizm industriyasi taklif etadigan aksariyat ish o‘rinlari past qiymatga ega.
Ochlikning bartaraf etilishi	Kichik hajmdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mahalliy oziq-ovqatga ehtiyoji bor turizm obyektlariga etkazilib berilishi, umumiy olganda, barqaror turizm rivojlanishi orqali mahsulotlar ko‘proq sotiladi, bu esa kichik fermerlarning daromadini oshiradi.	Turizm industriyasining ma’lum turlari rivojlanishi uchun unumdor erlar safarbar etiladi, buning natijasida mahalliy aholi o‘zini etarli darajada oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlay olmaydi. Misol uchun, golf kurslarini tashkil etish katta er maydonlarini talab etadi.
Soglik va Farovonlik	Turizm faoliyat turlariga solinadigan soliqlardan tushadigan daromad mahalliy aholining sog‘lig‘ini asrash va farovon yashashini ta’minlash masalalariga yo‘naltirilishi mumkin.	Ko‘p hollarda davlatlar soliq tushumlarini eng dolzarb ehtiyojlarga sarflaydi. Sog‘likni saqlash masalasi esa ikkinchi darajada ko‘rilishi holatlari ko‘p uchraydi.
Sifatli ta’lim	Turizm sohasida ish faoliyatini olib borish uchun ta’lim va tajriba berish dargohlari rivojlantiriladi.	Maktablar o‘qitish tizimiga turizm ta’limini kiritish uchun avvalo turizm kasblarining oyligi arzirli darajada oshirilishi lozim.
Gender tenglik	Ayol tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan kichik bizneslarning ko‘payishi	Biroq, ko‘pgina davlatlarning turizm industriyasida ayollarning ish haqi pastroq vazifalarga tayinlanish holatlari ko‘p ko‘zga tashlanadi.
Toza suv va sanitariya	Turistik maskanlar uchun toza suv ta’minotini uzluksiz yo‘lga quyish ishlariga ajratiladigan sarmoya va suvning ifloslanishi ustidan monitoring nazorat.	Turizm infrastrukturasini yaxshilashga ajratiladigan investitsiya aholi manfaatlarini hisobga olmaydi. Maxsus dam olish resortlarini faqat o‘zini rivojlantirish uchun erosti suvini tortib chiqarish infrastrukturasi o‘rnatiladi.
Arzon va ekologik toza energiya manbalari	Havo tarkibida zaharli gazlarni kamaytirish uchun yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish	Mahalliy aholida yashil energiya uchun sarflanadigan uzoq muddatga etadigan sarmoya yaratish uchun etarlicha resurslar mavjud bo‘lmasligi mumkin.
Ajoyib ish va iqtisodiy o‘sish	Yangi ish o‘rinlarini yaratadi, biznes shakllarini va ta’minot bazalarini rivojlantiradi	Turizm industriyasi yangi ish o‘rinlarini katta miqdorda taklif etishi mumkin, ammo ularning sifati va qiymati esa hamon so‘roq ostida.
Sanoa, innovatsiya va infrastruktura	Turizm daromadi qishloq xo‘jaligiga asoslangan mamlakatlarga iqtisodiy daromadning yangi eshiklarni ochish va aholisini turizm bilan bog‘liq ish o‘rinlari bilan band qilgan holda yaxshi yashash sharoitlarini berish borasida ko‘mak beradi.	Agar rivojlanishning ijtimoiy innovatsion modeli tanlanmasa, yangi ish o‘rinlarini yaratadigan har qanday yangi innovatsiya loyihasining asosiy manfaatdorlari faqat tadbirkorlar bo‘lishadi.

Tengsizlikning kamaytirilishi	Mahalliy aholiga iqtisodiyoti yuqori sur'atlarda rivojlangan hududlarga ketmasdan turib daromad topish imkoniyatini beradigan mahalliy rivojlanish strategiyasini ta'minlaydi.	Ko‘pgina holatlarda tengsizlikni namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.
Barqaror shaharlar va jamiyatlar	Madaniy merosni qayta yaratish va asrash harakatlarini kuchaytiradi. Transport tizimining ekologik ifloslanish darajasini kamaytirish uchun tikilgan sarmoya turizm rivojiga ham ijobiy ta'sir etadi.	Turistlar tabiiy resurslarni iste'mol qilib, qo‘shimcha ifloslanishlarga sabab bo‘ladi.
Ma'suliyatli iste'mol va ishlab chiqarish	Barqaror rivojlanish va noto‘g‘ri ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyalarining natijalaridan ommaviy xabardorlik darajasining oshishi biznes faoliyat shakllarini va nazorat vositalarini yanada takomillashtirdi	Ilg‘or jamiyatlarda turizm faoliyat yo‘nalishlari nazoratga olinishi va odamlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z sayohatlarining iqlim o‘zgarishiga ta'siri haqida ma'lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Har bir sayohat ma'lum darajada turistik hududga ta'sir qiladi.
Ekologik harakat	Turizm industriyasi o‘z zaharli gazlarini va chiqindilarini kamaytirishi lozim: muqobil energiya variantlari ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim	Sayohat insonning asosiy ehtiyoji emas, uning iqlim o‘zgarishidagi hissasi aniq belgilangan bo‘lib, ushbu ta'sirni kamaytirish harakatlari boshlanishi lozim
Suv ostidagi hayot	Turizm suv ostidagi resurslardan zararsiz foydalanish g‘oyasini ilgari surib, sog‘lom suvosti muhitiga asoslanib o‘z faoliyatini olib boradi.	Turizm sohilbo‘yi atrof-muhiti ifloslanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir etib, suv osti muhitiga bilvosita salbiy ta'sir ko‘rsatadi.
Yerdagi hayot	Agar turizm industriyasi menejmentida atrof-muhit himoyasi to‘g‘ri tashkil etilsa, yog‘ochsozlik sanoati singari yanada vayronkor sanoat turlariga muqobil variant sifatida turizm daromad manbayi bo‘lib xizmat qiladi.	An'anaviy tarzda tashkil etilgan turizm rivojlanish loyihalari katta hajmga ega bo‘lib, kichik miqyosdagi ekologik rivojlanish dasturlari kamroq ulushga ega, ta'sir doirasi ham cheklangan.
Tinchlik, adolat va birdamlik	Turizm faoliyati turli xil madaniyat va kelib chiqishga ega xalqlar o‘rtasida yuzaga kelib, birdamlik va hamkorlikni kuchaytiradi.	Turizmning ijtimoiy-madaniy ta'siri salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.
Maqsadlar mushtarakligi	Turli xil hissadorlarning davlat hokimiyati tomonidan tartibga solingan yakdil taraqqiyot yo‘lida birlashishiga yordam beradi.	Ko‘pgina hollarda, turizm real guruhlar va jamiyat harakatlarini o‘zida mujassamlashtirmaydi, natijada barqaror rivojlanish yo‘lidagi haqiqiy hamkorlik faqat g‘oyalardan iboratligicha qoladi.

Bugungi davrda ekologik muammolarga befarq bo‘lmagan turistlarni hududga ko‘proq jalb etish va mahalliy aholining ekologik xavfsizligini saqlash uchun Samarqand viloyatidagi nafaqat joylashtirish vositalarining, balki vositachilik tashkilotlarining ham(tur operator, tur agentlik va boshqalar) websaytlarida barqaror sayohat xususiyatlari havolasi bo‘lishligi va unda barqaror sayohat tashkil qilish darajasi yuqori bo‘lishi davlat tashkilotlari tomonidan nazorat ostiga olinishi muhim omil sanaladi. Bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishga chuqur siyosiy-iqtisodiy yondashuv hudud turizm siyosatining ajralmas qismidir. Barqaror turizm bilan bir qatorda hududda mas'uliyatli turizmni ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada vositachi turistik tashkilotlar o‘zlarining turistlar bilan tuzadigan shartnomalariga hudud ekologiyasi va madaniy merosiga hurmat va mas'uliyat bilan yondashishlari lozimligi to‘g‘risidagi bandni kiritishi tashabbusi ilgari surilishini tavsiya etamiz. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra hududlarda

tashkil etiladigan mas’uliyatli turizmni takomillashtirish yo‘lidagi bunday tashabbuslar tashrif buyuruvchilar miqdorining o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

World Commission on Environment and Development (1987) Our Common Future.Oxford University Press.

Page,S.J, Connell.J.(2020).Tourism: A Modern Synthesis.5th edition.New York.Routhledge.

Page,S.J, Connell.J.(2020).Tourism: A Modern Synthesis.5th edition.New York.Routhledge

UNWTO http://tourism4sdgs.org/tourism-for-sdgs/;Intergovernmental Panel on Climate Change (2018).

GREEN INNOVATIONS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ERA OF SUSTAINABLE ECONOMY

Juraeva Sarvinoz Bakhtiyor kizi
Student of TSUE

In the modern world, the need for sustainable economic growth has never been more urgent. As we face challenges such as climate change, resource depletion, and environmental degradation, it is essential to rethink traditional growth models. The rise of green innovations and digital technologies offers a unique opportunity to foster economic development while simultaneously addressing environmental concerns. This article explores the role of these transformative forces in promoting sustainable economic growth and examines how their development can lead to a more resilient, efficient, and inclusive global economy.

Sustainable economic growth is a multidimensional concept that involves the ability to expand the economy without depleting natural resources or causing long-term environmental harm. It emphasizes the balance between economic development, social inclusion, and environmental protection. In contrast to traditional growth models that focus solely on economic output, sustainable growth advocates for long-term stability that aligns with ecological limits. This approach requires innovations that reduce environmental impact, enhance resource efficiency, and promote social well-being. To achieve sustainable economic growth, governments, businesses, and individuals must embrace new technologies and business models that support environmental sustainability. Among the most promising solutions are green innovations and digital technologies, which can work synergistically to create a more sustainable, equitable, and economically viable future.

Green innovation refers to the development of new products, processes, or technologies that significantly reduce negative environmental impacts. These innovations can span a wide range of sectors, including energy, transportation,

manufacturing, agriculture, and waste management. The primary goal of green innovation is to promote sustainability through the reduction of resource consumption, carbon emissions, and ecological degradation while simultaneously improving economic performance.

One of the most significant areas of green innovation is in renewable energy. Solar, wind, hydro, and geothermal energy technologies have advanced dramatically in recent ears, providing viable alternatives to fossil fuels. The cost of renewable energy sources has decreased substantially, making them competitive with traditional energy sources in many parts of the world. As these technologies become more widespread, they contribute to sustainable economic growth by reducing reliance on finite and polluting energy resources. In addition to providing clean energy, renewable energy technologies stimulate job creation in manufacturing, installation, and maintenance. For instance, the solar and wind industries employ millions of people worldwide, creating economic opportunities and fostering energy independence. Moreover, the integration of renewable energy into power grids leads to more resilient energy systems that can withstand disruptions caused by climate change.

Another key area of green innovation is sustainable construction. Green building practices, such as the use of energy-efficient materials, renewable energy integration, and water-saving technologies, are becoming more prevalent. These innovations contribute to environmental sustainability by reducing the carbon footprint of buildings and improving energy efficiency. The development of energy-efficient buildings also has economic benefits. For example, energy-saving technologies such as LED lighting, smart HVAC systems, and insulation materials reduce operational costs for businesses and homeowners. Furthermore, the green building sector has seen substantial growth, creating new opportunities in construction, design, and urban planning.

Green innovations are also revolutionizing agriculture. Techniques such as precision farming, vertical farming, and the use of bio-based fertilizers are helping to reduce resource use and environmental impact while maintaining productivity. These technologies enable farmers to grow more with less, minimizing the environmental footprint of agriculture and improving food security. The circular economy model, which promotes the reuse and recycling of materials, is another critical component of green innovation. By closing the loop on production and consumption, businesses can reduce waste, lower costs, and conserve natural resources. Digital technologies play a significant role in enabling circular economy practices, such as waste tracking, material recovery, and product life-cycle management.

While green innovations are crucial to achieving sustainable economic growth, digital technologies are playing an increasingly important role in enhancing the effectiveness of these innovations. Digitalization encompasses a broad range of technologies, including artificial intelligence (AI), the Internet of Things (IoT), blockchain, big data analytics, and cloud computing. These technologies enable businesses and governments to optimize processes, improve efficiency, and foster innovation in ways that were not previously possible.

One of the most significant contributions of digital technologies to sustainable growth is their ability to optimize resource use. Through IoT and big data analytics, industries can monitor and manage energy consumption, water usage, and material flows in real time. This data-driven approach allows for more efficient use of resources, reducing waste and lowering operational costs. For example, in manufacturing, smart sensors and AI algorithms can detect inefficiencies in production lines, allowing businesses to reduce energy consumption and material waste. Similarly, in the agricultural sector, IoT-enabled devices can help farmers monitor soil moisture, crop health, and weather conditions, allowing for more precise use of water and fertilizers, which minimizes environmental impact.

Digital technologies also play a crucial role in integrating renewable energy into existing energy systems. Through advanced forecasting techniques, AI can predict energy demand and supply fluctuations, making it easier to balance renewable energy generation with grid requirements. Smart grids, which rely on IoT and AI, enable real-time monitoring and dynamic adjustments to energy distribution, ensuring efficient use of renewable sources. Blockchain technology also holds promise in the energy sector. It can be used to create decentralized energy markets, enabling individuals and businesses to buy and sell renewable energy directly from one another. This reduces reliance on centralized energy providers and promotes the use of locally sourced renewable energy, further contributing to sustainability.

Digital technologies also facilitate the transition to a circular economy by enabling better waste management, product tracking, and resource recovery. Blockchain, for instance, can be used to track the lifecycle of products, ensuring that materials are reused or recycled when products reach the end of their life. AI-powered systems can optimize recycling processes, identifying valuable materials that can be extracted from waste streams more efficiently.

The intersection of green innovations and digital technologies creates powerful interconnections that drive sustainable economic growth. By combining green technologies with digital tools, businesses can achieve higher levels of efficiency, reduce their environmental impact, and enhance their competitiveness. For instance, a company using AI to optimize its energy consumption while adopting renewable energy sources can significantly reduce its carbon footprint and operational costs, thereby contributing to both environmental sustainability and profitability. Governments can also play a pivotal role in fostering these interconnections by creating policies that incentivize both green innovation and digital transformation. For example, tax incentives for companies that invest in renewable energy technologies or digital platforms that promote sustainability can stimulate investment and innovation. Additionally, policies that encourage research and development in both green technologies and digital solutions can accelerate the pace of innovation and lead to more widespread adoption of sustainable practices.

In conclusion, the integration of green innovations and digital technologies presents a transformative opportunity to foster sustainable economic growth. As the world faces increasingly urgent challenges such as climate change, resource depletion, and environmental degradation, the convergence of these two forces offers a path toward a more resilient, efficient, and inclusive global economy. Green

innovations, such as renewable energy technologies, sustainable agriculture, and circular economy practices, are central to reducing environmental impact and ensuring that economic growth does not come at the cost of future generations. Meanwhile, digital technologies play an indispensable role in optimizing resource use, improving efficiency, and facilitating the integration of renewable energy into existing systems. The interconnection between green innovations and digital technologies is a key driver of sustainability. Businesses can leverage digital tools like AI, IoT, and big data to enhance the performance of green technologies, reduce waste, and streamline operations, ultimately leading to a more sustainable and profitable business model. Furthermore, governments play a critical role in supporting this transition by enacting policies that incentivize both green innovations and digital transformation, creating an environment where innovation can thrive. As we look toward the future, the combined efforts of governments, businesses, and individuals will be essential in realizing the full potential of green innovations and digital technologies. By embracing these transformative solutions, we can create a sustainable economic model that balances environmental stewardship with economic prosperity. The path to a greener, more sustainable future is not only achievable but necessary for the well-being of our planet and future generations. Together, green innovations and digital technologies will help pave the way for a thriving, sustainable global economy.

As for Uzbekistan, it's at a critical juncture in its development, as it seeks to balance rapid economic growth with environmental sustainability and social inclusion. The country is making significant strides in diversifying its economy, improving its infrastructure, and leveraging green innovations and digital technologies to enhance productivity and sustainability. With continued investment in education, digitalization, and green technologies, Uzbekistan has the potential to become a model for sustainable development in Central Asia. The country's efforts to modernize its energy systems, promote efficient resource management, and integrate digital solutions into governance and business processes are crucial steps in achieving long-term, sustainable economic growth.

REFERENCES

Aigner, D. J., & Yellen, J. L. Sustainable Growth and the Role of Innovation. Journal of Environmental Economics.

Cohen, M. J., & Voss, T. The Role of Green Innovations in Sustainability and Economic Growth. Sustainability Journal.

Kleindorfer, P. R., Singhal, K., & Van Wassenhove, L. N. Sustainable Operations Management. Production and Operations Management.

Liu, Y., & Li, Y. Exploring the Synergy Between Digital Technologies and Green Innovations. Journal of Technological Innovation.

Anderson, M. A., & Tushman, M. L. Disruptive Innovations and the Green Economy: Understanding the Interplay Between Digital Transformation and Sustainability. Business & Environment Journal.

ECOS (European Commission for Sustainability). Green Technologies and Digital Transformation: Pathways for Sustainable Growth in Europe. ECOS Research Report.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MONETAR SIYOSAT INSTRUMENTLARI ORQALI TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI

Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali faoliyati bevosita pul-kredit siyosatining to‘g‘ri yuritilishiga bog‘liq. Ayniqsa, tijorat banklari likvidliligining barqarorligini ta’minlash moliyaviy tizimning ishonchliligi va iqtisodiy subyektlarning uzluksiz kreditlash imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Markaziy banklar ushbu jarayonda turli monetar siyosat instrumentlaridan foydalanib, banklararo bozorda likvidlikni tartibga solish, zaxira talablarini belgilash va qayta moliyalashtirish stavkalarini boshqarish orqali moliyaviy tizimni muvozanatda ushlab turishga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham tijorat banklari likvidliligini ta’minlash va yashil iqtisodiyotni mustahkamlash maqsadida pul-kredit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish, majburiy zaxira siyosatini optimallashtirish va bank tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali likvidlikni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida tijorat banklari kreditlash faoliyatining uzluksizligi ta’minlanib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratilmoqda.

Kelajakda monetar siyosat instrumentlarini yanada takomillashtirish, likvidlikni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish va bank tizimining mustahkamligini oshirish orqali O‘zbekiston moliya bozorining barqarorligini yanada mustahkamlash imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida bank tizimini raqamlashtirish va elektron moliyaviy xizmatlarni kengaytirish belgilangan. Bu esa, tijorat banklari likvidliligini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beruvchi yangi texnologik vositalarni joriy qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchilar bank likvidligiga, odatda, deyarli bir xil ta’rif berishadi. Faqat likvidlilik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan: T.U.Kox tomonidan bank likvidliligiga “bankning vakil-banklardan va Federal Rezerv tizimidan naqd pullarni jalb qila olish qobiliyati bo‘lib, bu jarayonga o‘z potentsial likvid aktivlarni sota olish, yangi depozit sertifikatlarini, aksiyalarini, evrodollarni va qarz majburiyatlarini muomalaga kiritish qobiliyati kiradi”[139] shaklida ta’rif berilgan.

[139] Тимоти У. Кох. Управление банком. Пер. с. анг. В 5-ти книгах, 6-ти частях. -Уфа. “Спектр”, 2003. -190 с.

Iqtisodchi V.Ivanov bank likvidliligiga “oʻz vaqtida va eng kam xarajat bilan bankning oʻz majburiyatlarini va mijozlarning kredit boʻyicha talablarini bajarish qobiliyatidir” shaklida taʼrif beradi.[140]

O.Zaxarova esa bank likvidliligiga “bankning qarz, moliyaviy va balansdan tashqari majburiyatlarini bajara olish qobiliyati” deb taʼrif beradi.

Taniqli iqtisodchi olim J.Sinkining fikricha, likvidlilik tijorat banklari uchun depozitlarning qaytarilishiga va kreditga boʻlgan talabni qondirishga tayyor turish uchun muhim sanaladi. Ayni paytda, kutilmagan pul oqimi bilan bogʻliq oʻzgarishlar bank likvidliligiga tahdid soladi.[141]

S.P.Rouz bank likvidliligi tushunchasiga yanada kengroq yondashgan holda, “qulay bahoda, talab qilingan miqdorda va kerakli vaqtda likvid aktivlarni topa olish qobiliyati” deb taʼrif beradi.[142]

Bank likvidligining turli taʼriflari banklar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar keng doirasini koʻrsatadi. Bank likvidligi bankning zarurat tugʻilganda va etarli miqdorda likvid aktivlarni olish qobiliyati sifatida taʼriflanishi mumkin, bu esa unga darhol va kelajakdagi moliyaviy majburiyatlarni qondirishga va isteʼmolchi kredit ehtiyojlarini samarali ravishda hal qilishga imkon beradi.

Bugungi kunda, Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida bank tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida, 2025-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining likvidlik darajasiga taʼsir koʻrsatgan asosiy omillardan biri depozitlar hajmining yuqori oʻsish surʼatlari boʻldi. Natijada, bank tizimining umumiy oʻrtachalash talabi 13,9 trln. soʻmni tashkil etdi. Shu bilan birga, banklarning vakillik hisobvarag‘ida 2,9 trln. soʻmlik qoʻshimcha likvidlik shakllanib, toʻlovlar uzluksizligini taʼminlashda muhim rol oʻynadi.

Shuni taʼkidlash joizki, bank tizimining umumiy likvidligi profisiti 2025-yil 1-yanvar holatiga 17,4 trln. soʻmga etdi. Bu koʻrsatkich byudjet amaliyotlarining oshiruvchi taʼsiri hisobiga 2024-yil sentyabr oyidagi kunlik oʻrtacha 12,1 trln. soʻmdan dekabr oyida 18,5 trln. soʻmgacha oshdi. Bank tizimidagi likvidlik profisitining moliya bozoridagi foiz stavkalariga, inflyasiya darajasiga va ichki valyuta bozoriga boʻlgan bosimlarini yumshatish maqsadida, avgust-sentyabr oylarida 8,5 trln. soʻmlik Markaziy bank obligasiyalari muomalaga chiqarildi.

Bank tizimi likvidligiga muomaladagi naqd pullar hajmidagi mavsumiy oʻzgarishlar ham sezilarli taʼsir koʻrsatgani oʻz ahamiyatiga ega. Xususan, 2025-yil 1-yanvarga kelib, muomaladagi naqd pullar hajmining qisqarishi bank tizimi likvidligining qoʻshimcha 1 trln. soʻmga oshishiga xizmat qildi. Bu oʻz navbatida Yashil iqtisodiyotni rivojlanishiga sezilarli darajada hissa qoʻshdi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shuningdek, ushbu tendensiyalar tijorat banklari likvidligini tartibga solishda monetar siyosat instrumentlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatmoqda.

---

[140] Иванов В.В., [и др.]. Банки и банковские операции: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Юрайт, 2021. – 458 с.

[141] Sinki J. Financial management in a commercial bank and financial services. M.: Alpina Publishing House, 2017. 493 p.

[142] Роуз П.С., Хаджинс С.С. Управление банком и финансовые услуги : учебник / пер. с англ. — 9-е изд. — М. : McGraw-Hill, 2012. — 740 с.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidligini tartibga solish muhim o‘rinni egallaydi. Bank tizimining likvidligini mustahkamlash nafaqat iqtisodiy faoliyatning doimiyligi, balki kreditlash jarayonlarining barqarorligiga, mamlakatda naqd pullar kamayishi hisobiga naqdsiz pullar hajmining oshishi va investitsion ishonchning shakllanishiga ham bevosita ta’sir qiladi.



1-rasm. Bank tizimidagi umumiy likvidlik holati, trln. so‘m[143]

Markaziy bank ma’lumotlarining 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, hukumat operatsiyalarining bank tizimi umumiy likvidligiga oshiruvchi ta’siri 2024-yil 3-chorak bilan solishtirganda 21,5 foizga oshib, 21,5 trln. so‘mni tashkil etgan. Bu jarayonda operatsiyalarning mavsumiy xarakterga ega ekanligi ham kuzatiladi.

Ushbu likvidlik harakatining tarkibida ikki asosiy omil mavjud:

1) Qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi operatsiyalari – 2024-yilda g‘alla va paxta hosili uchun ajratilgan qisqa muddatli kreditlarning qaytarilishi natijasida, ushbu operatsiyalar likvidlikka 0,3 trln. so‘mga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa, monetar siyosatning mavsumiy o‘zgarishlarga qanday javob berishini ko‘rsatadi.

2) Byudjet hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar – Byudjet tashkilotlarining ish haqi, nafaqa va pensiya xarajatlari bilan birga, yil yakunida qo‘shimcha shakllangan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining auksion asosida tijorat banklariga depozitlar shaklida joylashtirilishi orqali, likvidlik 21,5 trln. so‘mga oshgan.

Bundan tashqari, hukumatning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi tafovut, asosan, chorak davomida jalb etilgan tashqi qarz mablag‘lari orqali moliyalashtirilgani sababli, ichki bozordan qarz jalb etish hajmlari biroz pasayib, bu bank tizimining mustaqil ravishda resurslar yig‘ishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani likvidlilik monetar instrumentlar orqali samarali boshqarilayotgani o‘z isbotini topadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, 2024-yilning 4-choragida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan jami 3,7 trln. so‘mlik davlat qimmatli qog‘ozlari muomalaga chiqarilgan va ularning qoldig‘i 2025-yil 1-yanvar holatiga 32,9 trln. so‘mni tashkil etdi. Ushbu

[143] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari www.cbu.uz

instrumentlar moliya bozorining strukturaviy barqarorligini ta’minlashda, shuningdek, tijorat banklari likvidligini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.



2-rasm. Hukumat operatsiyalarining likvidlikka ta’siri, trln. so‘m[144]



3-rasm. Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalari, trln. so‘m[145]

Kelgusida monetar siyosatning turli instrumentlari – hukumat operatsiyalari, byudjet orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar va davlat qimmatli qog‘ozlarining bozor muomalasi – bank tizimining likvidlik holatini yanada mustahkamlash hamda moliya bozorining barqarorligini ta’minlash istiqbollarini kengaytirishda asosiy omil sifatida ko‘riladi. Ushbu chora-tadbirlar, iqtisodiy sharoitlarni doimiy tahlil qilish va zarur hollarda siyosiy yo‘nalishlarni o‘zgartirish orqali, bank sektorining barqarorligi va moliyaviy ishonchning oshishiga xizmat qiladi.

Prognozlarga ko‘ra, 2025-yilning I choragida ham byudjet operatsiyalarining likvidlikka oshiruvchi ta’siri saqlanib qoladi. Davlat qimmatli qog‘ozlari emissiyasining davom etishi esa birlamchi va ikkilamchi obligatsiyalar bozori hamda banklararo REPO bozorining faollashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tijorat banklari likvidliligini boshqarishda monetar siyosat instrumentlarining rolini yanada oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidliligi borasidagi tahlillarga asoslanib quyidagi takliflar shakllantirildi:

- tijorat banklarining joriy va lahzali likvidlikni uzluksizligini ta’minlash maqsadida oddiy aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida joylashtirish taklif etiladi;

- monetar siyosatning instrumentlaridan foydalanish orqali tijorat banklari likvidliligini oshirishda bankdagi resurslarning asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirib, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini chet el kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan ta’minlash taklif etiladi;

- tijorat banklari resurslari tarkibida bir yildan kam bo‘lmagan muddatga jalb qilingan muddatli depozitlar va kredit liniyalarining ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish likvidlilikni me’yorda saqlashga xizmat qiladi;

- tijorat banki filiallari uchun likvidlik ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha kunlik normativlarni mustaqil belgilash likvidlilikni mustahkamlashda asosiy

[144] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari www.cbu.uz
[145] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari www.cbu.uz

instrument sifatida ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yashil iqtisodiyot rivojlantirishda monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidliligi tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Agar likvidlilik belgilangan miqdordan oshsa, bu bank mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarishga ta’sir qilishi ilmiy va amaliy tomondan isbotlangan. Shuningdek, Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimi likvidliligini me’yorda saqlash zarurligi o‘z ahamiyatga ega.

O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA «YASHIL IQTISODIYOT»NING ROLI

Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovich
O‘zbekiston – Finlyandiya Pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish zaruriyati haqida gap ketganda mamlakatlarning ishlab chiqarish salohiyati, va samaradorligini, raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularning zamonaviy va sifatli texnik bazasini yangilanishi bilan bir qatorda hayot sifati va yashash muhiti ko‘rsatkichlarini yaxshilovchi yangi texnologik tuzilmaga va modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o‘tishni talab etmoqda. Xorijiy mamlakatlarda bunga o‘tishni amalga oshiruvchi 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan “Yangi 10 yillik harakati”; Barqaror va “yashil iqtisodiy o‘zgarishni tezlashtirish” nomli strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining besh tashkiloti – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), BMT taraqqiyot (UNDP), BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) va BMTning Ta’lim va Tadqiqot Instituti (UNITAR) tomonidan qabul qilingan[10]. Bundan tashqari, 2015- yilda butun dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanish bo‘yicha 2030- yilgacha bo‘lgan strategiyasi va uning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qildilar.[8] Bu maqsadlar dunyoda qashshoqlikka barham berish bo‘yicha iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi strategiyalar bilan birga olib borilishi, shu bilan birga ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish o‘rinlarini yaratish kabi turli ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish va iqlim o‘zgarishlarga qaratilgan. Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik va iqtisodiy tizimlar o‘rtasida haqiqiy aloqani o‘rnatadi. Ular, shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish, ya’ni yanada barqaror ishlab chiqarish va iste’mol usullaridan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019- yil 4-oktyabrida tasdiqlangan 2019-2030- yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi muhim dasturiy amal bo‘lib hisoblanadi.[1] Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning quvvat samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va

moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030- yilgacha bo‘lgan davrda mazkur strategiyani amalga oshirish jarayonida ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010- yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanishlari 100 foizga qadar ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi[2].

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog‘liq iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, “yashil iqtisodiyot” deganda inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi[3].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston jahonshumul energetika ko‘rsatkichlariga, xususan, yuqori quvvat va uglerod intensivligi nuqtayi nazaridan javob berishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu shartlar mamlakatning tashqi savdo siyosati va uglerod chegaralarini to‘g‘rilash soliqlar oldida zaif holga keltiradi. Biroq, O‘zbekiston umumbashariy yashil o‘tish jarayonini o‘zlashtirib, atrof-muhit va iqlim siyosatini kuchaytirish orqali bu muammoni imkoniyatga aylantirishi mumkin[4].Ko‘p mamlakatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun past uglerodli siyosatni qo‘llayotganligi sababli, uglerodni ko‘p iste’mol qiladigan mahsulotlarga jahonshumul talab o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda kamayadi. Bu O‘zbekistonning ko‘p karbon eksportiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti va farovonligiga ta’sir qilishi mumkin. Turli siyosiy ssenariylarga ko‘ra, 2050 -yilga kelib O‘zbekiston iqtisodiyotiga nafaqat tabiiy gaz va neft, balki uglerodni ko‘p iste’mol qiladigan mahsulotlar eksporti ham ta’sir qilishi mumkin, jumladan, ko‘p miqdorda uglerodli mahsulotlar uchun chegara soliqlariga ega bo‘ladiganlar ham bundan mustasno emas.Keyinchalik undan voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiya va tizimlarga yopishib qolmaslik uchun O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini darhol boshlashi kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o‘tishda davom etayotgan sa’y-harakatlarning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa yashil choralar ham O‘zbekistonga yaqin muddatli foyda keltirishi mumkin.Biroq, mamlakat yashil iqtisodiyotga o‘tishning jamiyatga ta’sirini ham hisobga olishi kerak. Yashil sektorlar‖ni qo‘llab-quvvatlash va uglerod va resurslarni ko‘p talab qiladigan faoliyatdan voz kechish, sarmoyalar va ish o‘rinlari yaratish sxemasini o‘zgartirib, g‘oliblar va yutqazuvchilarni yaratadi. Eng ko‘p zarar ko‘rgan jamoalarga yordam ko‘rsatish juda muhimdir. Bu qadriyatlar adolatli o‘tish yo‘lidagi sa’y-harakatlar

markazida turadi[5] O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi zaruriyati milliy iqtisodiyotda iste’mol qilinayotgan quvvatning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur’atlarda rivojlanishi oqibatida atrof muhitning ifloslanishi, suvning tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi.[6] O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlar uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va jahonshumul jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.[1]

2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining " yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ularda asosiy e’tibor quvvat samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini o‘zlashtirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan[1.3]. Mazkur Strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo‘nalish bo‘yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida quvvat samaradorligini 2030 -yilga qadar 2 baravar oshirish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, ushbu maqsadga sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga quvvat samaradorligini 20%dan kam bo‘lmagan miqdorda oshirish, motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni quvvat samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash, elektr transportini rivojlantirish hisobiga erishish rejalashtirilgan (1-jadval)[6].

Mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda quvvat resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi quvvat manbalaridan foydalanishni ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini o‘zlashtirish, binolarni qurish va ulardan foydalanish, transport sohasi hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarishda quvvat iste’molini diversifikatsiyalash muhimdir.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash muammolarini qamrab oladi. Suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish hamda Orol bo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralari mazkur yo‘nalishning maqsadli ko‘rsatkichlari bo‘lib hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish “Yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan bo‘lib, “yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot” sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, quvvat samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilish, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish uchun salohiyatni oshirish va qulay muhit yaratish. “yashil sarmoyalar”ni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarni qamrab oladi[4].

Strategiyaning muhim vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari milliy, tarmoq, soha rejalari va rivojlanish strategiyalarida belgilangan tadbirlar vositasida amalga oshiriladi[2].

“O‘zbekiston- 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1. Respublikada “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay sharoitlarni yaratish va " yashil " quvvat manbalari salmog‘ini oshirish maqsadida:

A) “yashil quvvat” sertifikatlari aylanmasini bozor tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yish; xalqaro issiqxona gazi savdosi bo‘yicha loyihani amalga oshirish tartibini tasdiqlash;

B) iqlim o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi va ma’lumotlar bazasini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish;

C) xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan, Navoiy va Samarqand viloyatlarida umumiy quvvati 2700 mvt bo‘lgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirishni ta’minlash.

2. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi doirasida:

A) 2025- yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, respublikada 444 ta yashil bog‘lar barpo etishni davom ettirish;

B) suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga davlat byudjetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m mablag‘lar doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlarini yakunlash choralarini ko‘rish.

3. Mamlakatimizda chang bo‘ronlariga qarshi va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish doirasida:

A) hududlarda chang bo‘roni sodir bo‘layotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqori bo‘lgani aniqlanganda aholini ogohlantirish, yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklariga chalingan hamda sog‘lig‘i havoning ifloslanishiga ta’sirchanligi yuqori bo‘lgan boshqa fuqarolarni zarur profilaktik choralar to‘g‘risida doimiy xabardor qilishni amaliyotda yo‘lga qo‘yish;

B) o‘lchami 500 metr kvadrat va undan ortiq bo‘lgan qurilish maydonlarida, unga kirib-chiqish yo‘llarida chang va qum zarralarini havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha majburiy talablarni joriy etish;[3]

4. Keng jamoatchilik vakillari va ekofaollarning ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta’sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan avtomobilsiz kun jamoatchilik loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifini ma’qullash va bunda, binosi Toshkent shahrida joylashgan barcha Respublika va

hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining jamoat transportlarida ish joyiga kelishi orqali namuna koʻrsatib borish va shu kabi qator maqsadlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda Oʻzbekiston oʻzining hozirgi rivojlanish modeli boʻyicha oʻsish chegaralarini engib oʻtish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor boʻlib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yoʻlidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, oʻz iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish oʻrinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan moslashuvchan, inklyuziv, barqaror va samarali foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli yashil oʻsish modeli sari yoʻlni belgilash boʻyicha qadamlar tashlamoqda.Lekin, yanada barqaror va "yashil iqtisodiyot"ga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy oʻsishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak.

Yashil iqtisodiyot inson va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol oʻynaydi, iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy adolatga barqaror yondashuvni ta'minlaydi. Bu erda uning ta'sirining bir necha asosiy jihatlari mavjudligini koʻrishimiz mumkin.

Tabiiy resurslarni saqlash: yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tiklashga qaratilgan boʻlib, bu ularning kamayishiga toʻsqinlik qiladi va ekotizimlarni saqlashga yordam beradi. Bu kelajak avlodlar uchun barqaror kelajakni ta'minlash bilan bogʻliq. Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, yashil texnologiyalarga oʻtish issiqxona gazlari chiqindilarini va atrof-muhitga boshqa salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. Bu havo va suv sifatini yaxshilashga, shuningdek, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishga yordam beradi.[7]

Ish oʻrinlarini yaratish: yashil texnologiyalarni rivojlantirish va barqaror amaliyotga oʻtish qayta tiklanadigan quvvat, ekoturizm, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror qishloq xoʻjaligi kabi sohalarda yangi ish oʻrinlarini yaratishga olib kelishi mumkin. Bu, oʻz navbatida, turmush darajasini yaxshilash va ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Aholi salomatligini yaxshilash: ifloslanishni kamaytirish va ekotizimlarni yaxshilash inson salomatligiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi, kasallanishni kamaytiradi va umumiy farovonlikni yaxshilaydi.

Iqtisodiy barqarorlik: yashil iqtisodiyot iqtisodiy manbalarni diversifikatsiyalashga yordam beradi va qazilma resurslarga bogʻliqlikni kamaytiradi. Bu iqtisodiyotning tashqi zarbalar va iqlim oʻzgarishiga chidamliligini oshiradi. Ijtimoiy tenglik: yashil tashabbuslar aholining barcha qatlamlari, shu jumladan zaif guruhlar uchun yashil texnologiyalar va resurslardan foydalanishni ta'minlash orqali resurslarni yanada teng taqsimlashga hissa qoʻshishi mumkin.

Ta'lim va xabardorlik: yashil iqtisodiyot tamoyillari aholining atrof-muhit va barqaror rivojlanish masalalari toʻgʻrisida xabardorligini oshirishga, bu esa oʻz navbatida ekologik tarbiyani yanada mas'uliyatli xatti-harakatlariga yordam beradi. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy oʻsishga yordam beradigan, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarni ham hisobga oladigan, uni yanada barqaror va adolatli kelajak uchun muhim boʻlgan modeldir.[6]

Shuningdek, yuqorida keltirilgan maqsadlarga qoʻshimcha qilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, elektromobillar soni ortishi va elektrobuslar kabi jamoat

transportlarining ko‘payishi bir necha o‘n million kub metr tabiiy gaz tejalishiga zamin yaratadi va atmosferaga zararli gazlar chiqishining oldini oladi. Bu o‘z navbatida aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr quvvatiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashning yanada yaxshilanishiga sababchi bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida davlat boshqaruvi sifatini oshirish, “yashil davlat” xaridlari siyosatini olib borish va buning natijasida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, milliy iqtisodiyotning quvvat salohiyatini oshirishda “yashil” texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu qatorda, yashil texnologiyalarni yaratish bo‘yicha loyihalarni maksimal darajada moliyalashtirish va yashil infratuzilmaga sarflanadigan davlat sarmoyalarining hajmini oshirish lozim.Yuqorida sanab o‘tilgan maqsadlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajak avlodlar uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta’minlashga erishamiz.

Xulosa o‘rnida davlatimiz rahbarining 2021- yilda Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik 2030” ikkinchi xalqaro sammitida so‘zlagan nutqidagi quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Bugun yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”. Inson va jamiyat taraqqiyotining dolzarb masalalarida “yashil” iqtisodiyotning roli juda keng va murakkab mavzudir. O‘zbekistonda 2025-yil atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili deb e'lon qilindi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20- noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida so‘zlagan nutqida ma’lum qildi. Davlatimiz rahbarining ta’kidlashicha, bugungi kunda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ham sezilmoqda, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, shuningdek, qazib olinadigan yoqilg‘idan nazoratsiz foydalanish olamshumul isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga va atrof-muhit va aholi salomatligiga jiddiy zarar etkazmoqda.[8] Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari, O‘zbekiston ham iqlim o‘zgarishi ta’siriga qarshi himoyasiz.Ushbu tadqiqotning maqsadi – “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasiga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qilish, konsepsiyaning rivojlanish evolyutsiyasining qisqacha sharhi, “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish va barqaror rivojlanish tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash orqali rivojlanishni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘gsida‖gi PQ-4477-son Qarori[1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 800-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4447-sonli Qarorining 1-ilovasi [3].

Pirs D. Yashil iqtisodiyot //Ekologik qadriyatlar 1 - 1992. - No1. – B.3–13. DOI: 10.3197/096327192776680179 [4].

Shermuhamedov A.T. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish. A.Shermuhamedov, B. M. Xolboyev // progressiv texnologiyalar va jarayonlar: [5].

Vaxabov A. V, Xajibakiev Sh. X. Yashil iqtisodiyot. -T. 2006 [6].

Semin A. N. axborot portal UGGU. Yashil iqtisodiyot nima? [Elektron resurs]. Kirish rejimi: http://pressa. ursmu.ru/2287.html/ [7].

Yadgarov Y.S. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi: darslik. - M.: INFRA-M, 2009. – 480 b. *Rim Klubining* O‘sish chegaralari [Elektronresurs] URL:https://clubofrome.org/publication/the-limits-to-growth (sana Apellyatsiya 06.09.2020) [8].

https://uza.uz/uz/posts/O‘zbekiston-2030-strategiyasini yoshlar biznesni qollab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid-davlat-dasturi-togrisida_570596 [9].

BMTning Barqaror va “yashil iqtisodiy o‘zgarishni tezlashtirish” nomli strategiya 2021-yil 18-noyabr [10].

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Babayeva Umida Abduqayumovna
TDIU iqtisodiyot fakulteti
II-bosqich magistratura talabasi

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar butun dunyo iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida, raqamli texnologiyalarning ahamiyati yanada oshmoqda. Ular nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratishda va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda, balki ijtimoiy va ekologik masalalarni hal etishda ham katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Raqamli texnologiyalar “dunyo bo‘ylab ma’lumot va bilimlarni tezkor almashish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar” Ular insonlarning o‘zaro aloqalarini, biznes jarayonlarini, va kundalik hayotini tubdan o‘zgartiradi.[146]

Raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiyotning global raqobatbardoshligi oshadi, xarajatlar kamayadi va yangi bozorlar ochiladi. Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu resurslarni tejash, ijtimoiy farovonlikni ta’minlash va ekologik barqarorlikni saqlashga asoslangan rivojlanishdir. Raqamli texnologiyalar ushbu maqsadlar sari katta yordam berishi mumkin.

Raqamli transformatsiya - kompaniyalar va davlatlar raqamli texnologiyalarni o‘z ish jarayonlariga joriy etish orqali samaradorlikni oshiradi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishga olib keladi. Raqqamli transformatsiya, ayniqsa, kichik va o‘rta bizneslar uchun juda muhimdir, chunki ular raqamli vositalar yordamida yangi

[146] **Eric Schmidt (Google kompaniyasining sobiq bosh director.**

bozorlarni zabt etishlari, xarajatlarni kamaytirishlari va samaradorlikni oshirishlari mumkin.

Ish o‘rinlari yaratish - yangi texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt, blokcheyn va IoT (Internet of Things) kabi innovatsion sohalar, yangi ish o‘rinlari yaratadi. Bu sohalarda mutaxassislar va texnologik xizmatlarni taqdim etuvchi kompaniyalar kerak bo‘lib, iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Blockchain biznes va boshqa inson faoliyati uchun juda jozibador bo‘lishining asosiy sabablaridan biri markazsizlashtirish va shaffoflikdir. Blokcheyn markazsizlashtirilgan tarmoqdan ko‘proq narsadir. An'anaviy markazlashtirilmagan tarmoqdan farqli o‘laroq, hali ham ma’lum birlashtiruvchi nuqtalar mavjud bo‘lib, blokcheyn barcha ishtirokchilar bir-biriga bevosita bog‘langan taqsimlangan reestrdir.[147]

Yashil texnologiyalar va ekologik barqarorlik - Raqamli texnologiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishda ham muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, energiya

samaradorligini oshiruvchi va tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytiradigan texnologiyalarni ishlab chiqish orqali, raqamli texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy ta’siri. Raqamli texnologiyalar shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ularning ta’sirini quyidagi asosiy sohalarda ko‘rish mumkin:

Ta’lim va malaka oshirish - Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim tizimi yanada samarali bo‘ldi. Onlayn kurslar, virtual darslar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari orqali ko‘plab odamlar o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin. Bu esa, mehnat bozorida talab etilayotgan yangi malakalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Sog‘liqni saqlash - Raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash sohasini ham yaxshilaydi. Telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash tizimlari va sun'iy intellekt asosida ishlovchi diagnostik vositalar yordamida kasalliklar tezroq aniqlanadi va davolash samaradorligi oshadi.

Samarali boshqaruv va davlat xizmatlari - Raqamli texnologiyalar davlat va xususiy sektorda boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Elektron hukumat tizimlari, raqamli xizmatlar va ma’lumotlar bazalari fuqarolarga tez va oson xizmatlar ko‘rsatish imkonini yaratadi. Bu esa davlatning samarali ishlashiga va resurslarning tejamkor foydalanilishiga imkon yaratadi.

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiy barqarorlik. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda juda muhim omil hisoblanadi. Ular quyidagi tarzda iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi:

1. Xarajatlarni kamaytirish - Raqamli vositalar yordamida kompaniyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishlari mumkin. Sun'iy intellekt, big data va avtomatizatsiya texnologiyalari kompaniyalarga samaradorlikni oshirishga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiyotda o‘sishni ta’minlaydi.

2. Global raqobatbardoshlik - Raqamli texnologiyalar global bozorga chiqish va yangi bozorlar yaratish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Internet orqali

[147] Koller, M., & Garcia, M. (2019). *Blockchain and the Digital Economy: How Blockchain Technology is Shaping the Future of the Digital Economy*. Springer

global tarmoqdan foydalangan holda, kichik va o‘rta bizneslar ham o‘z mahsulotlarini butun dunyoga tarqatishlari mumkin. Bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi.

3. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish - Raqamli texnologiyalar innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Yangi texnologik echimlar va mahsulotlar, shuningdek, innovatsion biznes modellari orqali iqtisodiyotda yangi o‘sish nuqtalari paydo bo‘ladi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi va biznes sohalarida innovatsiyalar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun, davlatlar va kompaniyalar raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishning barqaror va uzoq muddatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society, and Culture, Volume I*. Wiley-Blackwell.

Shannon, C.E., & Weaver, W. (1949). *The Mathematical Theory of Communication*. University of Illinois Press.

Friedman, T.L. (2005). *The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century*. Farrar, Straus and Giroux.

Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.

Allman, D.V. (2019). *Digital Technologies and Their Impact on Economic Growth and Development*. Springer.

Schmidt, E., & Rosenberg, J. (2014). *How Google Works*. Grand Central Publishing.

Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.

World Economic Forum (2020). *Shaping the Future of Digital Economy and Society*. Retrieved from www.weforum.org.

OECD (2017). *The Digital Transformation of Industries*. OECD Publishing.

United Nations Development Programme (UNDP) (2020). *Digital Transformation for Sustainable Development*. UNDP.

World Bank (2021). *The Role of Digital Technologies in Achieving Sustainable Development Goals*. World Bank Group.

Davenport, T.H., & Westerman, G. (2018). *Reengineering the Corporation: A Manifesto for Business Revolution*. Harvard Business Review Press.

Porter, M.E., & Heppelmann, J.E. (2014). *How Smart, Connected Products Are Transforming Competition*. Harvard Business Review.

Koller, M., & Garcia, M. (2019). *Blockchain and the Digital Economy: How Blockchain Technology is Shaping the Future of the Digital Economy*. Springer.

Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World*. Penguin.

PwC (2018). *The Impact of Digital Technology on Economic Growth and Productivity*. PwC Report.

FINTECH FOR GREEN FINANCE: HOW DIGITAL INNOVATION SUPPORTS SUSTAINABLE INVESTMENT IN UZBEKISTAN

Sarvar Umarhonovich Rejabbaev
Lecturer in Department of Finance and Financial Technologies

Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna, student
(Tashkent State University of Economics)

Fintech – short for financial technology – refers to innovative financial services enabled by digital technologies like mobile apps, blockchain, and AI.[1] Green finance, on the other hand, encompasses financial instruments and investments designed to deliver environmental benefits and foster sustainability. [2] In essence, *green fintech* is the convergence of these two domains: leveraging digital financial innovation to fund and support environmentally sustainable projects. This synergy is increasingly viewed as critical for driving sustainable investment in emerging markets. Digital innovation can mobilize capital more efficiently, enhance transparency, and broaden access to green projects, thereby accelerating progress towards climate goals.[3]

Uzbekistan offers a compelling context to examine fintech's role in green finance. The country has embarked on ambitious renewable energy targets – planning 4 GW of solar and 4 GW of wind capacity by 2026, with prospects of raising 2030 targets to 7 GW solar and 5 GW wind.[4] Achieving these goals requires significant investment in sustainable infrastructure, from solar plants in the Samarkand deserts to energy-efficient buildings in Tashkent. Traditionally reliant on public funds and development banks, Uzbekistan is now tapping global capital markets and tech-driven solutions for its green transition. In 2021, it became one of the first nations in Central Asia to issue a Sovereign Sustainable Development Goals (SDG) Bond on the London Stock Exchange[5], signaling openness to innovative financing. Concurrently, Uzbekistan's fintech sector is booming – fueled by widespread smartphone adoption, supportive government policies, and nearly universal usage of digital payments (which made up 97% of transaction value in 2021) [6]. The government's "Digital Uzbekistan 2030" strategy has mandated online channels for public payments and nurtured a vibrant fintech ecosystem. These parallel trends suggest that fintech-driven green finance could be a key enabler of Uzbekistan's sustainable development. This introduction has outlined the definitions and importance of fintech and green finance, as well as provided an overview of Uzbekistan's landscape where digital innovation and sustainability ambitions are increasingly intersecting.

Despite Uzbekistan's commitment to a green economy, traditional financing mechanisms face challenges in meeting the country's sustainable investment needs. One major hurdle is the limited scale of private capital in green projects. Uzbekistan's green transition has a large funding gap that public budgets and multilateral loans alone cannot fill.[7] Local banks and investors often lack experience with green financial products, leading to cautious lending for renewable energy or energy-efficiency projects. Additionally, the country's capital markets are still developing; until recently there were no domestic green bonds or carbon trading platforms, limiting avenues for mobilizing funds. This has resulted in *inefficiencies in the green economy*: promising projects (e.g. solar farms, clean water infrastructure) may be delayed or pay higher financing costs due to perceived risks and lack of investor awareness.

Another challenge in traditional green financing is transparency and trust. Investors, especially international ones, require assurance that funds are used for genuine environmental impact. Historically, tracking the use of proceeds from loans or bonds in Uzbekistan relied on manual reporting, which can be slow and prone to information gaps. The Deputy Minister of Finance noted during the SDG bond issuance that beyond raising funds, Uzbekistan must "increase transparency, efficiency and accountability of the allocation of proceeds" through better reporting of impacts. [8] Without robust data and monitoring, there is risk of *greenwashing* or ineffective allocation, which undermines confidence in green finance.

Digital financial solutions have the potential to address these inefficiencies in Uzbekistan's green finance landscape. Blockchain and distributed ledgers can introduce end-to-end transparency for green funds – for example, tracking each dollar from a green bond into the specific solar plant or building retrofit it finances, with records that are immutable and visible to stakeholders. This kind of system could significantly boost investor trust and streamline verification that environmental goals are met. Likewise, fintech platforms lower barriers for investors, enabling new participants such as retail investors or diaspora to contribute to sustainable projects via crowdfunding or tokenized assets. By cutting out intermediaries and automating processes, fintech can reduce transaction costs and processing times compared to traditional bank loans or grants. In short, the research problem centers on how Uzbekistan can overcome traditional green financing challenges – limited private sector involvement, underdeveloped financial instruments, and transparency issues – by harnessing fintech innovations to unlock more capital and manage it more effectively for sustainable development.

Key Fintech Innovations in Uzbekistan's Green Finance Sector

Blockchain & Smart Contracts for Green Bonds and Carbon Trading

One of the most transformative fintech tools for green finance is smart contracts – self-executing code on a blockchain – are especially promising for carbon credit trading. They can automatically execute trades or retire carbon credits when predefined conditions are met, without need for manual intervention. This could support Uzbekistan in building a carbon market (for example, trading credits earned from planting trees around the Aral Sea or cutting factory emissions). Earth.Org notes that smart contracts are *"unchangeable and traceable, making them perfect*

for holding people accountable for their climate impact", with all information about carbon credit owners and sellers publicly viewable. [9] In practice, this means a company in Tashkent buying a carbon offset could trace its origin (say, a reforestation project in Samarkand region) instantly on-chain. Blockchain-based carbon platforms also make credits more accessible: tokenized carbon credits can be bought in small fractions, opening the market to new investors globally.[10] While Uzbekistan's regulators (notably the National Agency for Perspective Projects, NAPP) are still formulating rules for digital assets, there is clear potential to leverage blockchain for *greening* the financial system. The technology could underpin a national registry for green projects or even a regional Central Asian carbon exchange, ensuring trust and efficiency as this new market develops.

Decentralized Finance (DeFi) for Climate-Friendly Projects

Decentralized Finance, or DeFi, refers to financial services carried out on blockchain networks without traditional intermediaries like banks. While still in its early days, DeFi holds intriguing possibilities for funding climate-friendly projects in new ways. One opportunity is peer-to-peer lending or investing for renewable energy. Imagine a solar farm in rural Uzbekistan being financed by thousands of individual investors around the world through a decentralized platform – each investor buys tokens that represent a share of future energy revenues or carbon credits from that project. This is becoming feasible as blockchain platforms enable trustless, cross-border transactions. By removing intermediaries and using automated smart contracts, DeFi can lower the cost of capital and democratize access to sustainable investments. For example, a platform called ClimateTrade has used blockchain to connect investors with carbon offset projects, *offsetting 5.5 million tons of emissions with over 3,000 users* by 2019 through an easy online marketplace. [11] A similar model could help fund Uzbekistan's numerous solar and wind projects by attracting bite-sized contributions from eco-conscious investors globally.

Another DeFi application is in carbon credits trading, complementing the earlier discussion on blockchain. Traditional carbon markets involve brokers and can be slow in matching buyers and sellers. In contrast, DeFi exchanges can enable instantaneous trading of tokenized carbon credits 24/7. Singapore's AirCarbon Exchange, one of the first regulated crypto carbon exchanges, demonstrates how a DeFi-like platform can bring liquidity and transparency, predicting the voluntary carbon market will skyrocket by 2030. If Uzbekistan tokenized its future carbon credits (e.g., from restoring the Aral Sea delta or modernizing industry), these could potentially be listed on such exchanges, injecting foreign investment into local climate projects. DeFi could also facilitate innovative financial products like yield-bearing green tokens – where returns for investors are linked to the performance of a climate index or the achievement of emission reduction milestones.

However, it is worth noting that current DeFi infrastructure has challenges, including high energy usage in some blockchain networks and security concerns. Early cryptocurrencies using Proof-of-Work consensus (like Bitcoin) are energy-intensive, which ironically contributes to emissions. The good news is that newer blockchain protocols and Ethereum's shift to Proof-of-Stake are reducing this footprint, making DeFi more sustainable. Security frameworks and regulatory

oversight (which NAPP in Uzbekistan is working on for crypto generally) will be needed to protect participants from fraud and cyber threats. With these caveats addressed, DeFi stands as a frontier innovation that could channel global capital into Uzbekistan's green projects in a decentralized et reliable manner – a complement to more institutional green finance channels.

Green Digital Banking & Mobile Apps for Eco-Conscious Consumers

Fintech's impact on sustainable finance is perhaps most visible to everyday consumers through digital banking and mobile applications that promote green behavior. In Uzbekistan, an increasing share of the population uses mobile banking apps for daily transactions, presenting an opportunity to weave sustainability into personal finance. One approach is through carbon footprint tracking in banking apps. Several international banks have rolled out features where users can see the estimated CO_2 emissions of their spending – for example, ING's mobile app in the Netherlands now shows customers the carbon impact of their purchases and offers tips to reduce it. [12] If Uzbek banks integrate similar tools (potentially via partnerships with fintech providers), users could become more aware of how their utility payments or fuel purchases translate to emissions. This awareness can nudge more eco-friendly choices and also highlight green alternatives (e.g. suggesting an electric vehicle loan or solar panel financing through the app if someone's fuel footprint is high).

Fintech also enables green savings and investment products targeted at retail customers. Digital-only banks can offer options like sustainable investment funds or "green deposits" where funds are pledged to environmentally friendly loans. For instance, *TBC Bank Uzbekistan*, the country's first fully digital bank, is leveraging its fintech platform to support ESG goals. TBC has attracted impact investment through a $10 million credit line from an international Green Climate fund to grow its microlending in Uzbekistan. [13]

This demonstrates how a digital bank can align its business with green finance – the funds it on-lends (via its app-based services) are partly designated for sustainable projects and small businesses, blending financial inclusion with climate action. TBC's parent group is recognized for strong ESG performance (MSCI ESG Rating 'AA'), and such credibility can translate into customer-facing initiatives. We might soon see TBC or other Uzbek banks introducing green loyalty rewards (like planting a tree for every X transactions made cashlessly, similar to Ant Group's Ant Forest in China) or providing preferential rates for electric car loans via their apps.

Uzbekistan's Sovereign SDG Bond (Blending Traditional and Digital Finance)

In August 2021, Uzbekistan made headlines by issuing a Sovereign Sustainable Development Goals (SDG) Bond – the first of its kind in the region – on the London Stock Exchange.[14] This bond, totaling $870 million across two tranches (including one denominated in Uzbek soums), was a traditional debt instrument with a very modern twist. It was explicitly tied to funding progress in priority SDG areas: education, clean water, healthcare, green transport, pollution control, natural resource management, and renewable energy. The innovation lay in how the bond blended conventional finance with *outcome-based digital reporting*.

The Ministry of Finance partnered with UNDP to ensure that the SDG bond would not only raise funds, but also track and report on the development impacts in a transparent way. This required setting up new data collection and IT systems across various ministries to monitor metrics like number of schools upgraded (for education SDG) or tons of CO_2 reduced (for green energy SDG) – a significant move towards digitizing public finance management. Odilbek Isakov, Deputy Minister of Finance, highlighted that the SDG bond would increase transparency and accountability of spending through detailed impact reporting. [15] In practice, this meant that investors receive annual reports (and potentially online dashboards) showing exactly which projects their money went to and what results were achieved. Such a framework can be seen as *fintech-assisted*, because it leverages modern information systems and possibly blockchain-based verification in the future to give investors confidence. The success of this SDG bond (which was oversubscribed, indicating strong investor appetite) demonstrated that Uzbekistan could meet international disclosure standards with the help of digital solutions and technical assistance. It set the stage for more theme-based bonds and showed domestic officials the importance of capacity building in project selection, monitoring, and reporting as Isakov noted. The SDG bond case illustrates a hybrid approach: using the credibility of traditional capital markets while embracing digital innovation for transparency and impact, ultimately making investors part of Uzbekistan's development story through real-time data.

To fully capitalize on fintech's potential in green finance, Uzbekistan's government and stakeholders should consider several policy measures:

Incentivize Fintech-Driven Green Investments: The government can use fiscal and regulatory incentives to stimulate both supply and demand of green fintech solutions. For example, providing **tax breaks or subsidies** for startups that build platforms for solar crowdfunding or carbon trading would lower their development costs. Similarly, offering income tax deductions or credits to individuals who invest in certified green projects (via approved fintech apps) can encourage public participation. Uzbekistan has precedent in supporting tech innovation through its IT Park and tax perks for software exports – extending such support specifically to *green fintech* could spur a new wave of entrepreneurship. By calibrating these incentives carefully, policymakers would signal that **profit and purpose can align,** accelerating the flow of private capital into Uzbekistan's green economy.

Public-Private Partnerships to Build the Green Fintech Ecosystem: Collaboration between government agencies, financial institutions, and tech companies is essential to create an ecosystem where green fintech can thrive. One recommendation is to establish a **Green Fintech Innovation Hub –** perhaps under NAPP or the Ministry of Innovative Development – that brings together banks, startups, and development organizations to pilot new solutions. Public-private partnerships (PPPs) could focus on shared infrastructure, such as a national platform for climate data or a blockchain-based registry for green assets, which private fintech firms could then use to build services. For instance, a partnership between the Ministry of Energy and a fintech firm could result in a platform that aggregates

small-scale renewable energy projects seeking funding, performing initial vetting (public side) and then opening them to investors (private side).

Strengthen Regulatory Frameworks for Digital Sustainable Finance: A conducive regulatory environment is the backbone of scaling green fintech. Uzbekistan should build on recent successes (like the green bond regulations) and develop comprehensive guidelines that cover emerging areas such as crowdfunding, peer-to-peer lending for green projects, crypto-assets in climate finance, and open banking for ESG data. For example, crafting **crowdfunding regulations specific to renewable energy** would protect investors while allowing platforms to solicit funds for vetted solar/wind projects (Kazakhstan's 2019 framework can serve as a reference. [15]

5. **Зеленый дизайн и архитектура:** В области зеленого дизайна и экологической архитектуры молодеж может развиват бизнесы, ориентированные на создание энергоэффективных и экологически чистых зданий и инфраструктуры. Создание зеленых зданий, эффективное исползование природных ресурсов и экономия энергии — это важные направления для молодежных предпринимателей.

6. **Экологическое образование и консалтинг:** Молодеж может занимается экологическим консалтингом и обучением, предоставляя

консултатсии компаниям и организатсиям по внедрению принципов зеленой экономики и устойчивого развития.

Молодежное предпринимателство и зеленая экономика играют важную рол в обеспечении экологической устойчивости и экономического роста. Бизнесы, основанные на принципах зеленой экономики, не толко способствуют защите окружающей среды, но и вносят значителный вклад в экономическое и социалное развитие общества. Молодеж активно участвует в создании экологически чистых технологий, возобновляемых источников энергии и других инновацонных решений, которые помогают достигат устойчивого развития.

Кроме того, молодеж может создават новые рабочие места и привлекат внимание к важности экологической ответственности через предпринимательскую деятельности. Зеленая экономика предоставляет молодым людям возможности для реализатсии экологически безопасных и экономически выгодных бизнес-идей, способствуя улучшению состояния окружающей среды и экономической ситуатсии в стране.

Таким образом, молодеж играет ключевую рол в развитии зеленой экономики и экологического предпринимателства. Они имеют уникалную возможност исползоват инновационные подходы и технологии для решения экологических проблем и создания новых бизнесов. Это не толко способствует устойчивому развитию, но и создает новые возможности для создания рабочих мест и улучшения состояния окружающей среды.

СПИСОК ИСПОЛЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Кузовков В. (2015). *Зеленая экономика: основные принципы и тенденции*. Москва: Изд-во "Эко-Пресс".

Шах А. & Кан М. (2020). *Молодежное предпринимателство в зеленой экономике*. Журнал устойчивого развития, 10(4), 123-139.

Дей М. (2019). *Рол зеленой экономики в развитии предпринимателства*. Устойчивый бизнес и развитие, 15(3), 45-58.

Мирзаева А. (2018). *Зеленая экономика и молодежное предпринимателство*. Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.

Балдвин Р. (2016). *Зеленое предпринимателство: новая экономическая революция*. Издателство Рутледж.

БАНКРОТЛИК ЭҲТИМОЛИНИ У. БИВЕР МОДЕЛИ БЎЙИЧА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Дусмуратов Раджапбай Давлатбаевич

Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Бухгалтерия ҳисоби кафедраси, и.ф.д.,

Ўзбекистон Республикасида иқтисодиёт ривожланишининг ҳозирги босқичи динамик ўзгарувчанлиги билан тавсифланади. Бундай шароитда айрим хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий ночор корхоналар

қаторига кириб қолишлари ҳамда ўз фаолиятларини тугатишлари табиий ҳол ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Статистика портали маълумотларига кўра 2023 йилда Ўзбекистон Республикасида 31 295 та корхона ва ташкилотлар фаолияти тугатилган бўлиб, уларнинг фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотларга нисбати 6,45%ни ташкил қилади[1].

Иқтисодий-ҳуқуқий ҳодиса сифатида тўловга қобилиятсиз (банкрот) корхона турли даражадаги муаммоларни вужудга келтиради. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида кўриб чиқилаётган тўловга лаёқатсизлик тўғрисидаги ишлар сони ошиб бормоқда[2].

Демак, корхоналар банкротлигининг олдини чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, замонавий таҳлил услубларини қўллаш алоҳида долзарлик касб этмоқда. Мамлакатимизда молиявий таҳлил методологияси, хусусан банкротлик таҳлили бўйича маълум ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, булар М.Қ.Пардаев, Ж.И.Исроилов, Б.И.Исроилов[3], М.Ю.Рахимов, Н.Н.Қаландарова[4], Б.А.Хасанов, М.Ю.Рахимов, А.И. Аликулов ва б. [5], А.В.Вахобов, Н.Ф.Ишонқулов, А.Т.Иброхимов[6], Р.Д.Дусмуратов, А.С.Болтаев[7] ва бошқалар томонидан олиб борилмоқда. Мавзуга оид илмий, ўқув-услубий манбалар ҳамда норматив ҳужжатларни илмий шарҳлаш шуни кўрсатдики, корхоналарнинг иқтисодий ночорлиги(банкротлик ҳолати)ни аниқлаш усуллари ва уларни туркумлашга ёндашувлар хилма-хил. Ушбу манбаларда бакротликни прогнозлаш услубларига маълум ёндашувлар шакллантирилган. Лекин, банкротлик таҳлили бўйича эътироф этилган хорижий моделларнинг ҳар бири тизимли ва тўлиқ ўрганилмаган. Хусусан, уларни Ўзбекистоннинг норматив ҳужжатлари талабларига услубий жиҳатдан мослаштириш, маълумот манбаларини шакллантириш, бевосита таҳлил ҳисоб-китобларини амалга ошириб, хулосалар, таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш масалалари, шунингдек афзалликлари ва камчиликлари етарлича ёритилмаган. Шу жумладан, У. Бивернинг банкротликни прогнозлаш модели.

Америкалик иқтисодчи Уильям Бивер 1966 йилда чоп этган илмий ишида биринчи марта компаниялар банкротлигини прогнозлаш учун молиявий коэффициентлардан фойдаланган. Бунинг учун АҚШнинг 1954-1964 йилларда банкрот бўлган 79 та танлаб олинган. Банкрот бўлган ҳар бир компания учун танловга мувофиқлик принципи бўйича битта молиявий аҳволи барқарор компания қўшилаган[8].

Ушбу модель тўловга қобилиятсизликни прогнозлаш мақсадида корхонанинг молиявий аҳволини баҳолаш учун кейинчалик Бивер модели деб номланган коэффициентлар тизимини таклиф этган (1-жадвал).

1-жадвал. У. Бивернинг муваффақиятли ва молиявий ночорлик эҳтимоли бўлган корхоналарни аниқлаш бўйича молиявий коэффициентлари[8]*

К ў р с а т к и ч –		*Ҳисоблаш*	*1-гуруҳ.*	*Молиявий нобарқарор:*

л а р	*Ҳисоблаш формуласи*	*усули*	*Барқарор корхона*	*2-гуруҳ. Банкротликка 5 йил қолган*	*2-гуруҳ. Банкротликка 1 йил қолган*
1.Бивер коэффициенти	(Соф фойда + Аморт-я) : Жами мажбуриятлар	2-ш. 270 сатр + 1-ш. 011 сатр : 1-ш. 770 сатр	0,17 дан катта	0,17дан - 0,15гача	- 0,15 дан кичик
2.Активлар рентабеллиги, %	Соф фойда : Жами активлар	2-ш. 270 сатр : 1-ш. 400 сатр	8 дан катта	4 дан 6 гача	4 дан кичик
3.Молиявий дастак (левирж)	Жами мажбуриятлар : Жами активлар	1-ш. 770 сатр : 1-ш. 400 сатр	0,37 дан кичик	0,37 дан 0,5 гача	0,8 дан катта
4. Активларни ўз айланма актив-лари билан қопла-ниш коэфф.	(Хусусий капитал – Узоқ МА) : Жами активлар	(1 ш. 480 – 1 ш. 130 сатр) : 1ш. 400 сатр	0,4 дан катта	0,3дан 4 гача	0,3 дан 0,06 гача
5. Жорий ликвид-лик коэффи-циенти	Жорий активлар : Жорий мажбуриятлар	1-ш. 390 сатр : 1-ш. 600 сатр	2,0 дан 3,2 гача	1,0 дан 2,0 гача	1,0 дан кичик

***Эслатма**: Ушбу моделга мувофиқ коэффициентларни ҳисоблаш тартибини Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2014 йил 8 октябрдаги 181-сон буйруғи билан тасдиқланган «Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш муддатлари ҳамда уларнинг таркиби ва мазмуни тўғрисидаги Низом»[9] талабларига мос ҳолда шакллантирамиз (1-жадвалга қаранг).*

У. Бивер ўзининг моделида қуйидаги коэффициентлар тизимини қўллаган: 1. Бивер коэффициенти;

2. Активлар рентабеллиги;

3. Молиявий дастак (левирж);

4. Активларнинг ўз айланма маблағлари билан қопланиш коэффициенти;

5. Жорий ликвидлик коэффициенти.

Модель компаниянинг молиявий ҳолатини унинг келажакда банкрот бўлиши ёки бўлмаслиги нуқтаи назаридан баҳолашга имкон беради. Коэффициентлар тизимини ҳисоблаш учун зарур кўрсаткичлар молиявий ҳисоботнинг 1-шакли «Бухгалтерия баланси» ва 2-шакли «Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот»дан олинади.

Сўнгра мазкур кўрсаткичлар тизимини ҳисоб-китоб қилиш учун «ТСТ Fish Cluster» МЧЖнинг 2022, 2023 ва 2024 йил учун молиявий ҳисоботлари: «Бухгалтерия баланси» (1 ш.) ва «Молиявий натижалар тўғрисида ҳисобот» (2 ш.) асосида бирламчи маълумотларни шакллантирамиз (2-жадвал).

2-жадвал. «ТСТ Fish Cluster» МЧЖнинг молиявий ҳисоботларига асосан тўловга қобилиятсизлик эҳтимоли таҳлили учун бирламчи маълумотлар(минг сўм)**

№	***К ў р с а т к и ч л а р***	*Манбаси*	*2023 й.*	*2024 й.*	*2025 й.*
1	Амортизация	1ш. 011	30 341 845,4	34 501 471,6	62 180 611,5

2	Узоқ муддатли активлар	1ш. 130	37 924 102,4	34 821 415,0	30 307 008,9
3	Жорий активлар	1ш. 390	65 307 446,6	72 803 723,8	81 361 762,8
4	Жами активлар	1ш. 400	103 231 459,0	107 625 138,8	111 668 771,7
5	Хусусий капитал	1ш. 480	54 252 917,0	46 870 959,8	42 164 453,4
6	Жорий мажбуриятлар	1ш. 600	30 716 190,0	43 677 829,0	59 753 382,97
7	Жами мажбуриятлар	1ш. 770	48 978 632,0	60 754 178,9	69 504 318,3
8	Соф фойда (зарар)	2ш. 270	(2 236 771,2)	(7 381 957,2)	(4 706 506,44)

*****Эслатма:** Бухгалтерия баланси кўрсаткичлари йил бошига олинган.*

Бирламчи маълумотлар асосида У.Бивер модели бўйича тўловга қобилиятсизликни баҳоловчи хусусий кўрсаткичларни ҳисоб-китоб қиламиз ва уларнинг ҳар бирини тавсифлаймиз (3-жадвал).

3-жадвал. «ТСТ Fish Cluster» МЧЖнинг тўловга қобилиятсизлик эҳтимолини

У. Бивер модели асосида прогнозлаш натижалари

№	*К ў р с а т к и ч л а р*	*2023 й.*	*гуруҳ*	*2024 й.*	*гуруҳ*	*2025 й.*	*гуруҳ*
1	Бивер коэффициенти	0,574	1	0,446	1	0,827	1
2	Активлар рентабеллиги	- 0,022	3	- 0,068	3	- 0,042	3
3	Молиявий дастак (левирж)	0,4764	2	0,564	3	0,622	3
4	Активларни ўз айланма активлари билан қопланиш коэффициенти.	0,158	3	0,112	3	0,106	3
5	Жорий ликвидлик коэффициенти	2,126	1	1,667	2	1,362	2
Банкротлик эҳтимоли гуруҳи		Банкротликка 5 йил қолган		Банкротликка 1 йил қолган		Банкротликка 1 йил қолган	

Хулосалар ва таклифлар. Хулосалар:У.Бивер моделининг банкротлик таҳлилида қўлланувчандигини тадқиқ қилиш натижаларини иккита тоифага ажратиш мумкин. *Биринчидан,* моделни қўллаш айрим афзалликлар ва камчиликларига эга. Хусусан, унинг *афзалликлари:* ҳисоб-китобларнинг соддалиги; активлар рентабеллиги кўрсаткичидан фойдаланиш ва тўловга қобилиятсизликнинг вужудга келиш муддатларини прогнозлаш.

Моделнинг *камчиликлари:* кам сонли кўрсаткичлардан фойдаланилади ва интеграль (умумлаштирувчи) баҳолаш кўрсаткичининг мавжуд эмаслиги; молиявий ҳолатни ҳар бир кўрсаткич бўйича алоҳида аниқлаш субъектив бўлиб, умумий интуитив хулосага олиб келади; коэффициентлар кўрсаткичларининг фарқ қилиши оқибатида субъектив хулосалар қилинади; тўловга қобилиятсизлик кўрсаткичининг якуний кўрсаткичи йўқ бўлиб, бу натижаларнинг талқин қилинишини мураккаблаштиради, шунингдек корхона фаолиятининг тармоқ ва минтақавий хусусиятлари ҳисобга олинмайди.

Иккинчидан, бевосита тадқиқот натижалари асосида қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1) Бивер коэффициентининг ўзи ва жорий ликвидлик коэффициентига кўра корхона молиявий ҳолати барқарор гуруҳга тегишли. Лекин активлар рентабеллиги, молиявий дастак (левириж) ва активларнинг ўз айланма маблағлари билан қопланиш коэффициенти бўйича корхона банкрот ҳолатига тушиб қолган. Фикримизча, бу коэффициентни ҳисоблашда суратда тўпланган амортизация келтириш ўринсиз. Чунки, асосий воситаларининг катта қисми эскириб, қолдиқ қиймати пасайиб кетган корхонада коэффициент юқори чиқиши мантиқсиз ҳолат;

2) Ушбу мрдел таҳлил қилинаётган корхонанинг тармоқ ва ишлаб-чиқариш технологик хусусиятларини ҳисобга олиш имконига эга эмас. Хусусан, балиқчиликда биологик активларнинг биотрансформацияланиш босқичлари бўйича ишлаб чиқариш харажатлари, тугалланмаган ишлаб чиқариш қолдиғи, сотиш жараёни кабиларни инобатга олиш имкони йўқ.

3) тўлиқ тизимли ҳовуз балиқчилиги учун технологик карталар (такрор ишлаб чиқариш участкаси учун технологик карта; балиқлантириш материаллари (личинкалар, бир йилликлар, икки йилликлар)ни парваришлаш учун технологик карта; товар балиқ ишлаб чиқариш участкаси учун технологик карта) ишлаб чиқилмаган. Натижада, ишлаб чиқариш-технологик жараёнлар бўйича самарали бошқариш, назорат ва таҳлил таъминланмаган.

4) корхонада ички хўжалик молиявий-иқтисодий механизми ва менежмент издан чиққан, тўлов қобилиятини тўлиқ йўқотган.

Таклифлар: 1) Корхонани сақлаб қолиш учун махсус санация комиссияси ташкил этиш, ташқи бошқарув тайинлаш ва камида икки йилга мўлжалланган санация дастури ишлаб чиқиш лозим;

2) ишлаб чиқариш харажатларининг барча турлари бўйича норма ва нормативларни қайта кўриб чиқиш ҳамда ички хўжалик норматив базасини шакллантириш лозим;

3) ишлаб чиқариш харажатларининг барча турлари бўйича илмий норма ва нормативлар ишлаб чиқиш, улар асосида ҳаққоний технологик карталар ва бизнес режа тузишни, тезкор таҳлил ва самарали бошқаришни йўлга қўйиш;

4) балиқмаҳсулдорлигини ошириш, ишлаб чиқаришни интенсивлаштириш ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмини кўпайтириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш;

5) инновацияларни жорий этиш ва технологик жараёнларни жадаллаштириш(интенсивлаштириш), тугалланмаган ишлаб чиқаришни пасайтириш;

6) транспорт-логистика ва таъминот жараёнини яхшилаш, ҳисоб-китоб ва молия интизомини мустаҳкамлаш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston Respublikasining statistika portali, 2024. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (yillik). https://siat.stat.uz/reports-filed/256/table-data

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди статистик маълумотлари. https://stat.sud.uz/iib.html

3. М.Қ.Пардаев, И.И.Исроилов, Ж.И.Исроилов. Иқтисодий таҳлил. Ўқув қўлланма. -Т. 2017. 534 б.

4. M.Y. Raximov, N.N.Kalandarova. Moliyviy tahlil.Darslik, -T.:“Iqtisod-Moliya”, 2019.-736 b.

5. B.A. Xasanov M.Y. Raximov, A.I. Aliqulov va b. Moliyviy tahlil. Darslik, -T.: TDIU, 2022. -584 b.

6. A.V.Vahobov, N.F. Ishoqulov, A.T.Ibrohimov. Moliyviy va boshqaruv tahlili. Darslik, -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2013. -600 b.

7. R.D.Dusmuratov, A.S. Boltayev. Moliyviy tahlil. Darslik, -T.:“Iqtisod-Moliya”,2020. - 454 b.

8. Модель Бивера. https://ru.wikipedia.org/wiki.

9.Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2014 йил 8 октябрдаги 181-сон буйруғи билан тасдиқланган «Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш муддатлари ҳамда уларнинг таркиби ва мазмуни тўғрисидаги Низом». https://lex.uz/uz/docs/7194594

INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA YASHIL INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Aminov Farrux Farxadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish va ularning iqtisodiyotga integratsiyasini ta’minlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarur. Ushbu jarayonda an’anaviy moliyalashtirish vositalari – bank kreditlari, venchur kapital, davlat grantlari va subsidiyalar bilan bir qatorda, yashil moliyaviy instrumentlarning ahamiyati ortib bormoqda. Dunyo bo‘ylab barqaror rivojlanish tamoyillariga e’tibor kuchaygani sari, ekologik va ijtimoiy jihatdan foydali innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil moliyalashtirish – bu ekologik va ijtimoiy jihatdan foydali bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan investitsiya va kreditlash tizimi bo‘lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini kamaytirishga qaratilgan. Bunday moliyalashtirishning asosiy maqsadi – barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish va ekologik muammolarning oldini olishdir. Hozirda turli davlatlar va xalqaro moliya institutlari yashil obligatsiyalar, uglerod kreditlari, ESG investitsiyalari, qayta tiklanadigan energiya investitsiyalari va barqaror rivojlanish fondlari kabi moliyaviy vositalarni faol joriy etmoqda. Ushbu moliyaviy instrumentlar nafaqat ekologik loyihalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlaydi, balki innovatsion startaplar va korporatsiyalar uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini ham yaratadi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yashil instrumentlarning o‘rni ortib borayotgani zamonaviy iqtisodiyotning ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari asosida rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonda davlat sektori, xususiy investorlar, moliyaviy institutlar va startaplar o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yashil instrumentlardan foydalanish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga, balki yangi texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Yashil moliyaviy instrumentlar innovatsion biznes subyektlariga uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va investitsiyalar jalb qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ayniqsa, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, uglerod neytralligiga erishish kabi sohalarda ushbu instrumentlarning qo‘llanilishi sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Ushbu yo‘nalishda davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratilayotgan grant va kreditlar hamda xususiy investorlarning ekologik loyihalarga bo‘lgan qiziqishi yashil moliyaviy instrumentlarning istiqbollarini yanada kengaytiradi. Xususan, Yevropa Ittifoqining “Yashil Bitim” (Green Deal) dasturi, BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari va

boshqa xalqaro tashabbuslar ushbu jarayonni tezlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yashil instrumentlardan foydalanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ular iqlim o‘zgarishiga moslashish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu moliyalashtirish mexanizmlarining o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, yashil moliyaviy instrumentlar ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Masalan, yashil obligatsiyalar va uglerod kreditlari chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va iqlim o‘zgarishini cheklashga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Moliyaviy resurslar ekologik innovatsiyalarni joriy qilish va ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Masalan, quyosh panellari, shamol energetikasi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari kabi sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar yangi texnologik yutuqlarga zamin yaratadi.

Yashil instrumentlarning afzalliklaridan ya’na biri, yashil moliyaviy instrumentlar barqaror rivojlanishga asoslangan biznes modellarini yaratishga yordam beradi. ESG investitsiyalar tobora ko‘proq investorlarning e’tiborini tortmoqda, chunki ular ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalarni afzal ko‘rishmoqda. Shu sababli, yashil instrumentlar moliyaviy bozorlarda yangi sarmoya yo‘nalishlarini ochadi. Ko‘plab davlatlar yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar taqdim etadi. Bunday imtiyozlar korxonalar va startaplar uchun moliyaviy bosimni kamaytiradi va ularning bozorda barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Yashil moliyalashtirishdan foydalanuvchi kompaniyalar ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga asoslangan korxona sifatida e’tirof etiladi. Bu esa ularning jamoatchilik oldidagi obro‘sini oshiradi va mijozlar hamda investorlar orasida ishonch uyg‘otadi. Ko‘plab mamlakatlarda yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari joriy qilingan. Masalan, qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshiruvchi kompaniyalarga davlat tomonidan beriladigan subsidiya va soliq chegirmalari investorlar uchun katta rag‘bat hisoblanadi.

Shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yaxshil instrumentlardan foydalanish bir qator kamchiliklari mavjud. Jumladan, ba’zi yashil texnologiyalar katta boshlang‘ich investitsiyalarni talab qiladi. Masalan, quyosh panellarini o‘rnatish yoki energiya samaradorligi tizimlarini ishlab chiqish uchun katta miqdorda mablag‘ talab etiladi. Bunday xarajatlar startaplar va kichik bizneslar uchun jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Ba’zi yashil loyihalar qisqa muddatda yuqori daromad keltirmaydi. Masalan, energiya tejovchi tizimlarning iqtisodiy samaradorligi yillar davomida sezilarli bo‘lib boradi. Bu esa investorlarning tezkor daromad olish istagiga to‘g‘ri kelmaydi va moliyalashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Ba’zi holatlarda yashil texnologiyalar an’anaviy texnologiyalar bilan solishtirilganda raqobatbardoshlik jihatidan zaifroq bo‘lishi mumkin. Masalan, an’anaviy yoqilg‘i resurslaridan foydalanish hozircha ba’zi mamlakatlarda arzonroq variant hisoblanadi. Shu sababli, yashil texnologiyalarni keng joriy qilish vaqt talab etadi.

Hali ham ko‘plab mamlakatlarda yashil moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy

normalar yetarlicha rivojlanmagan. Yashil obligatsiyalar, uglerod kreditlari va ESG investitsiyalariga oid qonunchilikni to‘liq shakllantirish jarayoni davom etmoqda. Shu sababli, investorlar va tadbirkorlar uchun huquqiy xavflar mavjud.

Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil moliyaviy bozorlarga kirish imkoniyati cheklangan bo‘lib, ushbu moliyalashtirish vositalari faqat yirik xalqaro fondlar yoki rivojlangan davlatlar moliyaviy institutlari tomonidan taklif etiladi. Bu esa kichik va o‘rta biznes uchun ushbu mablag‘lardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Ba’zi kompaniyalar yashil moliyalashtirish vositalaridan foydalangan holda, o‘z loyihalarini ekologik deb ko‘rsatishadi, lekin aslida ularning atrof-muhitga ta’siri katta bo‘lishi mumkin. Ushbu amaliyot “greenwashing” (yashil yuvish) deb nomlanib, moliyaviy bozorlarda yashil instrumentlarga bo‘lgan ishonchni kamaytirishi mumkin.

1-jadval

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yashil moliyaviy instrumentlar[155]

Instrumentlar	Tavsifi	Imkoniyatlari
Yashil Obligatsiyalar[156]	Ekologik va barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan obligatsiyalar.	Barqaror loyihalar uchun uzoq muddatli va barqaror investitsiyalarni jalb qilish.
ESG Investitsiyalar[157]	Ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar.	Korporativ mas’uliyatni oshirish va ijtimoiy jihatdan samarali investitsiyalarni rag‘batlantirish.
Uglerod Kreditlari[158]	Korxonalarning uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha majburiyatlarini ifodalovchi kreditlar.	Korxonalarning uglerod chiqindilarini kamaytirish orqali ekologik mas’uliyatini oshirish.
Yashil Kreditlar[159]	Banklar va moliyaviy institutlar tomonidan ekologik innovatsiyalar uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar.	Ekologik startaplar va korxonalarga imtiyozli shartlarda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.
Barqaror Rivojlanish Fondlari[160]	Xalqaro moliya institutlari va xususiy fondlar tomonidan ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan fondlar.	Ekologik va ijtimoiy jihatdan foydali loyihalarni barqaror rivojlantirish uchun grant va investitsiyalar taqdim

[155] Muallif tomonidan tayyorlandi.
[156] https://treasury.worldbank.org/en/about/unit/treasury/ibrd/ibrd-green-bonds
[157] https://www.cfainstitute.org/insights/articles/what-is-esg-investing
[158] https://carboncredits.com/
[159] https://www.worldbank.org/en/news/feature/2021/10/04/what-you-need-to-know-about-green-loans
[160] https://www.sdgfund.org/programmes

		etish.
Yashil Sug‘urta Mahsulotlari[161]	Ekologik xavflarni kamaytirish va tabiiy ofatlarga chidamlilikni oshirish uchun taqdim etiladigan sug‘urta mahsulotlari.	Tabiiy ofatlar va ekologik xatarlarni minimallashtirish orqali kompaniyalarning barqarorligini oshirish.
DeFi va Blokcheyn Asosida Moliyalashtirish[162]	Blokcheyn texnologiyalari yordamida yashil obligatsiyalarni tokenizatsiya qilish va uglerod kreditlarini raqamlashtirish.	Moliyalashtirish jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflashtirish orqali yashil loyihalarga investitsiya jalb qilish.

Yashil moliyaviy instrumentlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu instrumentlar orqali erishiladigan natijalar keng qamrovli bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim sohalarga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar va uglerod kreditlari yordamida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi natijalarga erishish mumkin. Ushbu moliyalashtirish mexanizmlari ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirish, korxonalarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va global miqyosda yashil iqtisodiyotni shakllantirishga yordam beradi.

Yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalar orqali erishiladigan asosiy natijalardan biri – ekologik infratuzilmani rivojlantirishdir. Ushbu moliyalashtirish vositalari yirik energetika loyihalari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha dasturlarni moliyalashtirish imkonini beradi. Jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini tashkil etish va ekologik transport tizimlarini joriy qilish ushbu instrumentlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Natijada, ekologik muhit yaxshilanib, uglerod chiqindilari sezilarli darajada kamayadi, bu esa iqlim o‘zgarishining oldini olishga xizmat qiladi.

Uglerod kreditlari va yashil kreditlar korxonalarning ekologik mas’uliyatini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish borasida katta natijalarga olib keladi. Ushbu moliyalashtirish mexanizmlari korxonalarga uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq majburiyatlar yuklaydi va ularni energiya samaradorligini oshirishga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, uglerod kreditlari korxonalar uchun qo‘shimcha daromad manbai ham bo‘lishi mumkin, chunki kam uglerod chiqindisi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘z kreditlarini bozorda sotish orqali foyda oladilar. Natijada, ekologik jihatdan toza texnologiyalar keng tarqaladi va sanoat korxonalari energiya tejovchi usullarga o‘tishga majbur bo‘ladilar.

Barqaror rivojlanish fondlari va yashil sug‘urta mahsulotlari yordamida

[161] https://www.pwc.com/ng/en/assets/pdf/green-products-next-step-for-insurers.pdf
[162] https://ieeexplore.ieee.org/document/9842637

erishiladigan natijalardan biri – tabiiy ofatlar va ekologik xavflarni minimallashtirishdir. Ushbu fondlar orqali iqlim o‘zgarishidan aziyat chekayotgan hududlarda atrof-muhitni himoya qilish, suv resurslarini boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan loyihalar moliyalashtiriladi. Yashil sug‘urta mahsulotlari esa tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Masalan, qurg‘oqchilik yoki suv toshqinlari natijasida zarar ko‘rgan hududlarga sug‘urta kompensatsiyalari taqdim etilishi mumkin, bu esa tabiiy ofatlarga qarshi kurashish tizimini mustahkamlaydi.

DeFi va blokcheyn asosida yashil moliyalashtirish vositalari moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish, yashil loyihalarga sarmoya jalb qilish va global investitsiya oqimlarini tartibga solish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida yashil obligatsiyalarni tokenizatsiya qilish, uglerod kreditlarini raqamlashtirish va barqaror rivojlanish loyihalariga moliyaviy resurslarni tezkor va samarali yo‘naltirish mumkin. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari investorlar uchun investitsiya jarayonlarini oshkora va xavfsiz qilish orqali yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Bu esa kelajakda yashil iqtisodiyotni yanada keng rivojlantirish va ekologik innovatsiyalarni global miqyosda qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash va ekologik muammolarga samarali yechim topish maqsadida yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda sanoatning rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi ekologik barqarorlikni ta’minlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar, uglerod kreditlari va yashil kreditlar kabi moliyaviy vositalarni keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Quyida ushbu instrumentlarning samarali qo‘llanilishini ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar chiqarish va ularni kapital bozoriga jalb qilish orqali ekologik loyihalar uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar yaratish lozim. Hukumat tomonidan yashil obligatsiyalar bo‘yicha imtiyozli soliq stavkalari va subsidiya mexanizmlarini joriy qilish ushbu bozorda investorlar ishtirokini oshiradi. Shuningdek, davlat tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun milliy darajada yashil obligatsiyalar fondini tashkil etish va u orqali ekologik infratuzilmani rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadga muvofiqdir.

Xususiy kompaniyalar va korporatsiyalarni ESG tamoyillariga mos ravishda ishlashga rag‘batlantirish uchun maxsus soliq imtiyozlari va kredit resurslarini taqdim etish lozim. ESG investitsiyalar uchun maxsus huquqiy va tartibga solish tizimini yaratish orqali mahalliy hamda xorijiy investorlarning ekologik va ijtimoiy barqaror loyihalarga jalb qilinishiga sharoit yaratish mumkin. Bunda korporativ barqarorlik hisobotlari (CSR) va ESG reyting tizimlarini yo‘lga qo‘yish O‘zbekiston kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston uglerod chiqindilarini kamaytirishga yo‘naltirilgan uglerod kreditlari tizimini joriy qilish orqali ekologik mas’uliyatni oshirish va xalqaro karbon bozorlari bilan integratsiyalashuvni ta’minlashi mumkin. Hukumat

tomonidan chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha kvotalar tizimini joriy qilish va uglerod kreditlarini sotish imkoniyatlarini yaratish korxonalarni ekologik toza texnologiyalarga o‘tishga rag‘batlantiradi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ekologik jihatdan barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bank-moliyaviy tizimida yashil kreditlash dasturlarini joriy etish va ekologik innovatsiyalar uchun maxsus imtiyozli kredit liniyalarini yaratish lozim. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport vositalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari va davlat fondlari orqali maxsus moliyaviy resurslar ajratish muhimdir. Xususan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda yashil kreditlarni ajratish mexanizmlarini ishlab chiqish O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga turtki beradi.

O‘zbekistonda yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni shakllantirish va milliy darajada yashil moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Hukumat tomonidan ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan maxsus qonunlar va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim. Davlat-xususiy sheriklik asosida yashil moliyalashtirish loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali yashil iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtirish mumkin.

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish va rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni oshirish, iqtisodiyotning uglerod neytralligiga o‘tish jarayonini tezlashtirish va xalqaro moliyaviy bozorlarga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish natijasida O‘zbekiston ekologik innovatsiyalar sohasida ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirib, yashil iqtisodiyotni shakllantirishga katta qadam qo‘yishi mumkin.

Яшил иқтисодиёт шароитида ижара фаолиятининг моҳияти

Бахадиров Алишер Комилович,
УзБМА “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси доценти

Ўзбекистонда хўжалик юритувчи субъектларнинг асосий фаолияти бўйича узлуксиз шуғулланиши учун асосий фондлар билан таъминланиши зарур, бунга лизингга оид муомалалари ҳисоби ва аудитини самарали ташкил этиш орқали эришиш мумкин. Шунга кўра, корхоналар ўз экспорт салоҳиятини янада оширишда молиявий ижарага олишни йўлга қўядилар, бу эса, хўжалик юритувчи субъектларда қўшимча бизнес юритишга ва даромадлилик даражасини оширишга хизмат қилади. Республикамизда лизинг бозорида 150 тага яқин лизингга берувчи фаол иштирокчилар мавжуд, улардан 30 таси тижорат банклари ҳисобланади. 2016-2021 йиллар оралиғида лизингга берувчи корхоналар сонинг ўсиши туфайли лизинг бозори мустаҳкамланиб борди ва йирик лизингга берувчилар портфелининг ўсиши иқтисодий соҳаларни ривожланишига олиб келди. Шу боисдан, лизинг муомалалари ҳисоби ва аудитини халқаро стандартлар асосида замон талабига мувофиқ такомиллаштириш зарурати мазкур йўналишдаги илмий тадқиқотлар

кўламини янада кенгайтиришнинг долзарблигини белгилайди.

Ўзбекистонда яшил иқтисодиёт шароитида кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятларини тез суръатлар билан ривожлантириш, бир томондан замонавий ускуна ва технологияларни қўллашни, иккинчи томондан эса зарур бўлган молиявий ресурсларни излаб топишни талаб этади. Замонавий янги техника, ускуна ва технологиялар ишлаб чиқарувчилар, молиявий ресурсларга эга бўлган ва бу маблағларни самарали жойлаштириш мақсадларида фаолият юритувчилар, ҳамда, кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолияти соҳиблари ўзаро манфаатли муносабатларни йўлга қўйишида ижаранинг ўрни беқиёс бўлиб ҳисобланади. Сабаби, кичик бизнес ва тадбиркорлик асосий фаолияти бўйича шуғулланиши учун асосий воситалар билан таъминланиши муаммо бўлиб ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда, ушб корхоналар экспорт фаолиятини янада оширишда молиявий ижарага олишни йўлга қўядилар, ҳамда катта харажатларни ўзининг асосий бизнесига қаратиш имконига эга бўлади.

Республикамизда лизинг бозорида 150 тага яқин фаол иштирокчилар мавжуд, шу жумладан 30та тижорат банклари ҳисобланади. 2019 йилга нисбатан лизинг берувчилар сони 27,6% га ошди. Шу билан бирга, 2016-2019 йилда лизинг берувчи корхоналари сони ўсиши туфайли лизинг бозори мустаҳкамланди ва йирик лизинг берувчилар ўсиши иқтисодий соҳаларни ривожланишига олиб келди. Ушбу иқтисодий соҳаларидан асосийлари қишлоқ хўжалиги техникалари, транспорт воситалари, ишлаб чиқариш ускуналари ва қурилиш техникалари учун лизинг бериш жуда оммалашиб бормоқда.

Лизинг бозори иштирокчилари ўртасида лизинг битимларининг ҳажми

Йиллар	Лизинг корхоналари		Банклар		Жами
	мулк қиймати.	улуши %	мулк қиймати.	улуши %	
2019	630,8	64,8%	342,3	35,2%	**973,1**
2020	963,8	62,0%	589,8	38,0%	**1 553,6**
2021	1 912,2	72,6%	722,2	27,4%	**2 634,4**
2022	2 539,4	90,8%	256,6	9,2%	**2 795.9**
2023	1 035,2	88,8%	131,0	11,2%	**1 166,2**

Ушбу жадвалдан кўриниб туриптику, 2023 йилда лизинг битимларининг ҳажми тижорат банклари ва лизинг корхоналари ўртасидаги улушлари таҳлил қилинган вақтда, йиллар ўтган сари лизинг корхоналари лизинг шартномаларини тижорат банкларига қараганда анча юқори даражада эгаллаб турмоқда. Лизинг бозорининг ўзаро тақсимлаш тенденцияси лизинг берувчилар бир хил даражада қолди - бозорнинг 89% лизинг корхоналарга тегишли. Тижорат банклари эса, натижалари билан таққослаганда 2023 йилда тақдим этилаётган лизинг хизматлари ҳажми бирмунча ошди ва уларнинг бозордаги улуши 11% ни ташкил этди.

Жаҳон илмий-технологик тараққиёти даврида иқтисодий ўсишга таъсир этган фаол омил бу - саноат тармоқларини лизинг асосида техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозланишидир.

Янги Ўзбекистон тараққиётида лизинг муомалалари муҳим аҳамият касб этади. ҳозирги вақтда Хўжалик юритувчи субъектларда лизинг муомалаларини кенг йўлга қўйилиши республикамизда лизинг бозорини изчил ривожлантиради ва ўсиш тенденциясига кўмаклашади.

Шунга асосан, яшил иқтисодиёт шароитида акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди. Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунга келиб кўпгина лизинг корхоналари йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган ва 2021 йилдан йирик лизинг ташкилотлари молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида юритиши ўз ишини бошланган.

Олий таълим ташкилотларида яшил иқтисодиётни жорий этиш: қайта тикланувчи энергия манбаларида ишлаб чиқарилган энерго ресурслар ҳисобига даромадларни ошириш йўналишлари ва уни бухгалтерия ҳисобига акс эттириш

Ибрагимов Иномжон Илҳомович
БМА мустақил тадқиқотчиси

Мамлакатимизда сўнги йилларда яшил иқтисодиётга ўтиш, қайта тикланувчи энергетика соҳасини ривожлантириш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Соҳанинг ташкилий-хуқуқий асослари яратилиб, мустаҳкамланиб келинмоқда. Бу борада Президентимизнинг қатор фармон ва қарорлари, давлат дастурлари қабул қилинмоқда. 2019 йилда Ўзбекистон Республикасининг “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди.

«Ўзбекистон — 2030» стратегиясида қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни кенгайтириш асосий стратегик вазифа деб белгиланган. Ўзбекистонда 2019-2030 йилларда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш концепцияси бу борада қатор вазифаларни ўз ичига олган.

«Яшил иқтисодиёт»га ўтиш, унинг асоси бўлган қайта тикланувчи энергиядан фойдаланиш кўрсаткичларини кескин ошириш: қайта тикланувчи энергия манбаларини 25 минг МВт ҳамда жами истеъмолдаги улушини 40 фоизга етказиш мақсад қилинган.

Президентимиз томонидан Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2024 йил 20 ноябрдаги навбатдаги мажлисида 2025 йил юртимизда “Атроф-муҳитни асраш ва “яшил” иқтисодиёт йили” деб эълон қилинди. «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури ишлаб чиқилган бўлиб, 2025 йилда қайта

тикланувчи энергия манбаларини 5 525 минг МВт ва истеъмолдаги улуши 26 фоизга етказилиши белгиланган.

2023 йилда республикамиз давлат олий таълим муассасаларида йиллик эҳтиёжни тўлиқ қоплаш мақсадида жорий йилда 44,8 МВт қуёш панеллари ўрнатиш бўйича Дастур тасдиқланган. Ушбу дастур асосида давлат олий таълим муассасаларида жами 50 МВт дан зиёд қуёш панеллари ўрнатилиб, “Яшил энергия” ахборот тизимига киритилган. Бундан ташқари, қуёш сув иситиш қурилмалари ва қуёш панелли қуёш ёритиш чироқлари ўрнатиш ишлари амалга оширилган.

Натижада ўртача йиллик 140,0 - 150,0 млн квт/соат электр энергияси муқобил энергия манбалари ҳисобидан ишлаб чиқарилишига эришилган. Олий таълим муассасаларида йиллик 150,0 млрд сўмга яқин маблағ яшил иқтисодиёт ҳисобидан шаклланади. Ушбу маблағ олий таълим муассасалари жами даромадларининг ўрта ҳисобда 0,8 - 1,2 фоизини ташкил этмоқда.

Ушбу ишлар изчил давом эттирилмоқда, олий таълим муассасаларида яшил иқтисодиёт улушини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда олий таълим муассасаларида яшил иқтисодиёт улуши ошиб бормоқда. Табиийки яшил иқтисодиёт ҳисобини ҳам юритишда алоҳида эътибор қаратиш, ҳисоб-китобларни бирламчи ва йиғма ҳисоботларда тўғри ва аниқ акс эттириш талаб этилади.

Муқобил энергия манбалари ҳисобидан ишлаб чиқарилган энергия ресурсларни олий таълим муассасалари ўзларининг эҳтиёжлари учун фойдаланиши, шунинг натижасида умуммиллий ишлаб чиқариладиган энерго-ресурслардаги юкини камайтиришга хизмат қилади.

Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатган жисмоний ва юридик шахсларга бир қатор имтиёзлар жорий қилинган, жумладан, ушбу қурилмалар бўйича мол-мулк солиғи, қурилмалар билан банд бўлган участкалар бўйича ер солиғи ҳамда юридик шахслар томонидан умумий тармоққа сотган электр энергияси учун олган фойдасидан ҳисобланадиган фойда солиғини тўлашдан улар фойдаланишга топширилган пайтдан эътиборан уч йил муддатга, ўрнатилаётган қуёш панелларининг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини сақлаш тизими билан ўрнатилган бўлса — ўн йил муддатга озод этилиши белгиланган.

Қайта тикланувчи энергия манбаларида ишлаб чиқарилган электр энергиясини давлат органига ва (ёки) ҳудудий электр тармоқларига ўрнатилган тарифларда, бошқа истеъмолчиларга ўзаро келишилган нархларда тўғридан-тўғри тузилган, шу жумладан узоқ муддатли шартномалар асосида сотиш мумкин.

Юридик шахслар ягона энергетика тизимидан олган электр энергияси учун амалда белгиланган тарифлар асосида «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ

билан ҳисоб китобни амалга оширади, ўз навбатида ушбу истеъмолчилар объектларида жорий этилган қайта тикланувчи энергия манбаларидан ишлаб чиқарилган ва эҳтиёжидан ортган қисмини II тариф гуруҳи истеъмолчилари учун белгиланган тарифнинг 80 фоизи миқдорида «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖга сотади.

Олий таълим муассасаларида қайта тикланувчи энергия манбаларида ишлаб чиқарилган электр-энергияси ҳисобини юритиш бўйича қуйидаги бухгалтерия операция (проводка) лари амалга оширилади:

Бухгалтерия операцияларининг мазмуни	Дебет	Кредит
Олий таълим муассаса (бюджет ташкилот)ларида ўз эҳтиёжи учун сарфланган электр-энергияси ҳисобининг бюджет маблағларидан ҳисобланган ҳақиқий харажатларда акс эттирилиши	710000(231) Бюджет маблағларидан ҳисобланган ҳақиқий харажатлар	341900(159) Бюджет ташкилотларининг бошқа турдаги ҳисоб-китоблардан кредитор қарзлари
Олий таълим муассаса (бюджет ташкилот)ларида ўз эҳтиёжи учун сарфланган электр-энергияси ҳисобининг ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган тушумлар ҳисобидан амалга оширилган ҳақиқий харажатларда акс эттирилиши	730000(251) Таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган тушумлар ҳисобидан амалга оширилган ҳақиқий харажатлар	341900(159) Бюджет ташкилотларининг бошқа турдаги ҳисоб-китоблардан кредитор қарзлари
Олий таълим муассаса (бюджет ташкилот)ларида эҳтиёжи учун сарфланган электр-энергияси ҳисобининг ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан амалга оширилган ҳақиқий харажатларда акс эттирилиши	741000(261) Бюджет ташкилотларининг ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан амалга оширилган ҳақиқий харажатлар	341900(159) Бюджет ташкилотларининг бошқа турдаги ҳисоб-китоблардан кредитор қарзлари
Сотиш учун ишлаб чиқарилган, шу жумладан, қисман олий таълим муассасасининг ўз эҳтиёжлари учун фойдаланиладиган электр-энергиясининг кирим қилиниши	163000(050) Тайёр маҳсулот	180000(090) Товарларга (ишларга хизматларга) харажатлар
Олий таълим муассасаларида қайта тикланувчи энергия манбаларидан ишлаб чиқарилган ва эҳтиёжидан ортган қисмини белгиланган тарифнинг 80 фоизи миқдорида «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ га ёки бошқа юридик шахсга тузиладиган шартномада кўрсатилган миқдорларда асосида сотилиши	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	163000(050) Тайёр маҳсулот
Сотилган электр-энергиясининг таннархини ҳисобдан чиқарилиши	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	163000(050) Тайёр маҳсулот
Бажарилган ишлар ва хизматларнинг таннархини ҳисобдан чиқарилиши	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	180000(090) Товарларга (ишларга хизматларга) харажатлар
«Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ ёки бошқа юридик шахс томонидан ҳисобварақ-фактура ва бажарилган ишлар далолатномаси асосида қабул қилиб олинган ҳамда ишлаб чиқарилган электр-энергияси, буюртмачиларга жўнатилганда	151200(152) Бюджет ташкилотларининг ҳақдор ва буюртмачилар билан ҳисоб-китоблар бўйича дебитор қарзлари	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси
Олий таълим муассасаларида қайта тикланувчи энергия манбаларидан ишлаб чиқарилган, эҳтиёжидан ортган ва реализация қилинган қисмининг ҳақиқий таннархини ҳисобдан чиқарилиши	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	163000(050) Тайёр маҳсулот

Бажарилган ишлар ва кўрсатилган хизматлар ҳақиқий таннархини ҳисобдан чиқарилиши	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	180000(090) Товарларга (ишларга хизматларга) харажатлар
Олий таълим муассасаларида қайта тикланувчи энергия манбаларидан ишлаб чиқарилган, эҳтиёжидан ортган қисмини реализация натижалари (фойда)	911200(200) Маҳсулот (иш, хизмат)лар реализацияси	520310(262) Бюджет ташкилотларининг ривожлантириш жамғармаси бўйича ҳисобланган даромадлари

Олий таълим ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритиш жараёнида амалга оширилган бухгалтерия операциялари асосида йиғма ҳисоботлар шакллантирилади. Ҳар бир ҳисобот даври якунида ушбу маълумотлар умумлаштирилиб, молиявий ҳисоботларда акс эттирилади. Мазкур ҳисоботлар ташкилотнинг молиявий ҳолатини аниқлаш, молия маблағларидан мақсадли ва самарали фойдаланишни таҳлил қилиш, шунингдек, бюджет ижросини баҳолаш учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 2013 йил 26 декабрь, ЎРҚ–360–сон.

2. Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ–360–сон.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил 21 май, ЎРҚ-539-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “”Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.

5. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги Йўриқнома (2010 йил 22 декабрь, 2169–сон).

6. Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг стандарти (1–сонли БҲС) “Ҳисоб сиёсати” (2016 йил 27 декабрь, 2853–сон).

7. Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг стандарти (2–сонли БҲС) “Ягона счётлар режаси” (2018 йил 20 октябрь, 3078–сон).

8. Меҳмонов С. ва Убайдуллаев Д. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: ―Сано - стандарт. 2013. 454 б.

9. "UzASBO" – Бюджет ташкилотлари учун махсус ишлаб чиқилган автоматлаштирилган бухгалтерия дастури.

10. Молия вазирлиги расмий сайти – www.mf.uz.

11. Lex.uz – Қонун ва норматив ҳужжатлар маълумотлар базаси.

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA YASHIL MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR QO‘LLANILISHI

Ro’zimurodova Charos O’ral qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi assistenti,

Bugungi kunda global miqyosda atrof-muhit muhofazasi va barqaror iqtisodiy rivojlanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar yashil iqtisodiyot va yashil moliya tizimini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Davlat xaridlari tizimi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun davlat xaridlari tizimiga yashil moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Yashil moliyaviy instrumentlar – bu ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy vositalar bo‘lib, ular quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larning samaradorligini oshirish.
- Iqlim o‘zgarishiga moslashish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash.
- Innovatsion va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

Asosiy yashil moliyaviy instrumentlar:

1. Yashil obligatsiyalar – ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan davlat yoki xususiy sektor obligatsiyalari.
2. Yashil kreditlar – davlat tomonidan ekologik loyiha va korxonalarni rag‘batlantirish maqsadida beriladigan imtiyozli kreditlar.
3. Yashil grantlar – atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan loyihalar uchun moliyaviy yordam shakli.

Dunyo miqyosida AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoyda yashil moliyaviy instrumentlardan keng foydalanilmoqda.

Davlat xaridlari tizimida yashil moliyaviy instrumentlarni qo‘llash iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi sababli yashil iqtisodiyotga o‘tish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, davlat xaridlari tizimi orqali yashil moliya instrumentlarini joriy etish ekologik barqarorlikni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, iqtisodiy samaradorlikka ham xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar mamlakat iqtisodiyotining muhim qismidir, chunki u budjet mablag‘larining samarali taqsimlanishi va ekologik toza mahsulotlarning bozorga chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari yashil davlat xaridlari tamoyillarini qo‘llash orqali iqtisodiyotni ekologik barqarorlik yo‘nalishida rivojlantirmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida yashil davlat xaridlari siyosati ekologik mezonlar asosida shakllangan bo‘lib, davlat xaridlari jarayonida mahsulot va xizmatlarning energiya samaradorligi, uglerod chiqindilari darajasi va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish darajasi hisobga olinadi. Xitoy esa yashil obligatsiyalar bozorini jadal rivojlantirib, davlat xaridlari tizimida ushbu moliyaviy vositalarni keng qo‘llashga harakat qilmoqda. AQSh va Yaponiya esa davlat xaridlarida ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishmoqda. Ushbu ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyaviy

instrumentlardan foydalanish iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish bilan birga, ekologik muammolarni hal etishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu hujjatda barqaror moliya tizimini shakllantirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shunga qaramay, yashil moliyaviy instrumentlarning davlat xaridlari tizimiga integratsiya qilinishi hali to‘liq amalga oshirilmagan. Buning asosiy sabablari sifatida huquqiy bazaning yetarlicha rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikning sustligi keltirilishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida yashil davlat xaridlarini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish talab etiladi. Davlat xaridlari tizimiga ekologik talablarni majburiy joriy etish va yashil obligatsiyalar hamda yashil kreditlar bo‘yicha maxsus qonunlar qabul qilish ushbu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish yoki yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus grant va subsidiyalar ajratish davlat xaridlari tizimini ekologik barqaror qilishga yordam beradi.

Yashil davlat xaridlarini rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari yashil loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston ushbu institutlarning moliyaviy resurslaridan foydalanish orqali yashil davlat xaridlarini kengaytirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish va davlat xaridlari jarayonida yashil obligatsiyalarni qo‘llash investitsiyalarni jalb qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ham yashil davlat xaridlari tizimini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Elektron tender tizimiga ekologik sertifikatsiyalash va yashil mezonlarni kiritish davlat xaridlarining shaffofligini oshirish va ekologik talablarni samarali nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, O‘zbekistonda elektron davlat xaridlari platformasini yanada takomillashtirish orqali yashil loyihalarni rag‘batlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari tizimida yashil moliyaviy instrumentlarni joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki davlat byudjetidan samarali foydalanish, xususiy sektorni rag‘batlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi. Shunday ekan, O‘zbekistonda yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish va ularni davlat xaridlari tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha tizimli yondashuv zarur. Ushbu yo‘nalishda qonunchilik bazasini takomillashtirish, moliyaviy mexanizmlarni

rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat xaridlarining samaradorligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga zamin yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO’YICHA YILLIK HISOBOT (2024 yil yakuni bo‘yicha)
3. https://unece.org/green-economy-3 - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi rasmiy veb sayti.
4. UNEP (2022). *Green Economy and Sustainable Procurement Policies.* United Nations Environment Programme.

YASHIL MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR VA FRANCHAYZING BIZNESIDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR VA GLOBAL TAJRIBALAR.

Xodjayev Anvar Rasulovich

Buxoro Davlat universiteti; Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsion yondashuvlar, shuningdek, ularning global miqyosdagi tajribalari ko‘rib chiqilgan. Yashil moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil investitsiyalar) atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Franchayzing biznesida esa ekologik franchayzing, barqaror franchayzing modellari va texnologik innovatsiyalar kabi yangicha yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Maqolada Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy kabi mamlakatlarning yashil moliya va franchayzing sohasidagi muvaffaqiyatli tajribalari ham taqdim etilgan. Kelajakda yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsiyalarning tobora keng tarqalishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: Yashil moliyaviy instrumentlar; Yashil obligatsiyalar; Yashil kreditlar; Yashil investitsiyalar; Franchayzing; Ekologik franchayzing.

Zamonaviy dunyoda atrof-muhit muammolari tobora keskinlashib, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik inqirozlar insoniyat oldida jiddiy tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global haroratning ko‘tarilishi, o‘rmonlarning kesilishi, suv resurslarining tanqisligi va ifloslanish kabi muammolar nafaqat tabiatga, balki iqtisodiyot va jamiyatning barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tushunchalari dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etib, davlatlar, bizneslar va xalqaro tashkilotlar tomonidan faol qo‘llanilmoqda. Ushbu jarayonda yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsion yondashuvlar atrof-muhit muammolariga yechim topishda muhim vosita sifatida alohida o‘rin tutmoqda.

Yashil moliyaviy instrumentlar atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan moliyaviy mexanizmlardir. Bularga yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish uchun kreditlar va uglerod emissiyasi savdosi kabi tizimlar kiradi. Masalan, yashil obligatsiyalar orqali jamlangan mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya tejamkor infratuzilmalar yoki chiqindilarni qayta ishlash kabi ekologik maqsadlarga yo‘naltiriladi. Dunyo Banki va Yevropa Investitsiya Banki kabi tashkilotlar bu sohada yetakchilik qilib, milliardlab dollarlik yashil obligatsiyalarni muvaffaqiyatli chiqargan. Shu bilan birga, xususiy sektor ham ushbu jarayonga qo‘shilib, kompaniyalar o‘z faoliyatini barqarorlik standartlariga moslashtirishga intilmoqda. Bu nafaqat atrof-muhitga foyda keltiradi, balki investorlar uchun ham uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. So‘nggi 15 yil ichida dunyoda sayyoramizdagi ekologik muammolarni hal etish yoki kamaytirishni ko‘zda tutuvchi investitsiyalarni kiritishning yangi mexanizmlari hamda vositalari ishlab chiqildi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) dunyo va O‘zbekistonda ana shunday “yashil” loyihalarning moliyalashtirilishini tahlil qildi.

Global Landscape of Climate Finance e’lon qilgan so‘nggi hisobotga ko‘ra, 2019-2020-yillarda iqlim bilan bog‘liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Buning 321 milliard dollari jamoatchilik manbalari hisobidan, 310 milliard dollari esa xususiy manbalar tomonidan moliyalashtirilgan.

“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishning muhim vositalari:

1. “Yashil” kreditlar
2. “Yashil” obligatsiyalar
3. “Yashil” investitsiya fondlari
4. Aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar (ABS)
5. Uglerod birjalari



1-rasm. Yashil moliyalashtirish vositalari.

Ayni chog‘da O‘zbekistonda “yashil” moliyalashtirish faolligining ortishi qayd etilmoqda. Agar u ilgari xalqaro moliya institutlarining alohida loyihalari va grantlari ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda moliyalashtirishning “yashil” kreditlar va obligatsiyalar kabi boshqa vositalari ham tatbiq etilmoqda. Hukumat MDH doirasida birinchi va dunyoda birinchilardan bo‘lib Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat obligatsiyalari - Sovereign SDG Bonds ni 2021-yil iyul oyida London fond birjasiga joylashtirdi. Hajmi 2,5 trillion so‘mni (235 million AQSH dollari atrofida) tashkil qiluvchi 14 foizli ushbu obligatsiyalar 3 yil muddatga chiqarildi. Olingan mablag‘lar 9 ta aniq milliy barqaror rivojlanish maqsadiga erishishni ko‘zda tutuvchi tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. [6]

Yashil moliyaviy instrumentlar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Yashil banklar, kreditlar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari, uglerod birjalari va qimmatli qog‘ozlar kabi mexanizmlar orqali ekologik loyihalar moliyalashtirilib, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim yutuqlarga erishilmoqda. Kelajakda ushbu instrumentlarning yanada keng tarqalishi va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishi insoniyatga barqaror va yashil kelajakni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.

Franchayzing biznesidagi innovatsiyalar esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Franchayzing modeli kichik va o‘rta bizneslarga global brendlarning tajribasi va resurslaridan foydalanish imkonini beradi. So‘nggi yillarda ekologik jihatdan mas'uliyatli franchayzing tarmoqlari ko‘payib bormoqda. Masalan, organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kafe va restoran tarmoqlari yoki qayta tiklanadigan energiya uskunalari sotuvchi kompaniyalar franchayzing orqali o‘z faoliyatini kengaytirmoqda. Bunday tarmoqlar nafaqat daromad keltiradi, balki mahalliy jamoalarni barqaror turmush tarziga undaydi. Misol uchun, AQSh va Yevropada “zero waste” (chiqindisiz) do‘konlar tarmoqlari franchayzing modeli asosida muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, bu esa plastik ifloslanishni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Global tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzingning integratsiyasi atrof-muhit muammolariga samarali yechim bo‘la oladi. Masalan, Skandinaviya davlatlari yashil moliyaviy instrumentlar orqali qayta tiklanadigan energiya sektorini moliyalashtirib, uglerod emissiyasini sezilarli darajada kamaytirdi. Shu bilan birga, franchayzing orqali barqaror mahsulotlar va xizmatlar kengroq auditoriyaga yetib bormoqda. Xitoyda esa yashil texnologiyalar bo‘yicha startaplar franchayzing modeli orqali global bozorga kirib, elektr transport vositalari va quyosh panellari kabi mahsulotlarni ommalashtirmoqda. Yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsiyalar zamonaviy dunyoning ekologik muammolariga qarshi kurashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu yondashuvlar nafaqat atrof-muhitni asrashga xizmat qiladi, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ham ta’minlaydi. Kelajakda ushbu sohalarga

investitsiyalarni ko‘paytirish va global hamkorlikni mustahkamlash orqali barqaror dunyoni qurish mumkin. Insoniyatning kelajagi esa aynan shunday mas'uliyatli va innovatsion yechimlarga bog‘liqdir.[1]

Yashil moliyaviy instrumentlar atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik jihatdan toza texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlatiladigan moliyaviy vositalardir. Ular orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarga sarmoya kiritiladi. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil investitsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar quyidagilar jumlasidandir:

- Yashil obligatsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi, toza suv ta’minoti va chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalar yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtiriladi. Yashil obligatsiyalar chiqaruvchilari mablag‘larning qanday yo‘nalishlarda sarflanganligi haqida hisobot berishlari shart.
- Yashil kreditlar banklar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida beriladi. Masalan, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qurilish loyihalari yoki elektr transport vositalarini sotib olish uchun beriladigan kreditlar yashil kreditlar hisoblanadi. Yashil kreditlar orqali kompaniyalar va shaxslar ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.
- Yashil investitsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan kompaniyalar va loyihalarga sarmoya kiritishni nazarda tutadi. Masalan, quyosh va shamol energiyasi, ekologik qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga investitsiyalar yashil investitsiyalar hisoblanadi. Yashil investitsiyalar orqali investorlar nafaqat moliyaviy daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo‘shishadi.[2]

Franchayzing biznesi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, dunyo bo‘ylab tobora keng tarqalmoqda. Ushbu model orqali kompaniyalar o‘z brendlarini kengaytirish, yangi bozorlarda faoliyat yuritish va global miqyosda o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Franchayzingning afzalligi shundaki, u kichik va o‘rta tadbirkorlarga tayyor biznes modeli, brend tan olinishi va marketing strategiyalaridan foydalanishga yordam beradi. Biroq, dunyoda atrof-muhit muammolari keskinlashib borayotgan bir paytda, franchayzing biznesida ham barqarorlik va ekologik mas'uliyat masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ushbu sohada innovatsion yondashuvlar joriy etilib, biznesning tabiatga ta’sirini kamaytirish va ijtimoiy foyda keltirishga qaratilgan yangi strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Franchayzingning an’anaviy modelida asosiy e’tibor daromad olish va bozor ulushini kengaytirishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda barqarorlik bu jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsion yondashuvlar orqali franchayzing tarmoqlari atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shuvchi yangi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olmoqda. Masalan, “yashil” franchayzing tushunchasi paydo bo‘lib, unda ekologik jihatdan mas'uliyatli mahsulotlar va xizmatlar taqdim etiladi. Bunday tarmoqlarga organik oziq-ovqat mahsulotlari sotuvchi restoranlar, qayta

ishlanadigan materiallardan foydalanadigan do‘konlar yoki energiya tejovchi texnologiyalarni targ‘ib qiluvchi kompaniyalar kiradi. Ushbu innovatsiyalar nafaqat tabiatga foyda keltiradi, balki iste’molchilar orasida ham yuqori talabga ega bo‘lib, brend imidjini mustahkamlaydi.

Barqarorlikka qaratilgan innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim jihati – resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirishdir. Masalan, ko‘plab franchayzing tarmoqlari “zero waste” (chiqindisiz) siyosatini qo‘llashga o‘tmoqda. Bu jarayonda qadoqlash materiallari qayta ishlanadigan yoki biologik parchalanadigan moddalardan tayyorlanadi, energiya tejamkor uskunalar ishlatiladi va suv resurslari isrof qilinmaydi. AQShda mashhur bo‘lgan “The Coffee Bean & Tea Leaf” kabi franchayzing tarmoqlari qahva stakanlarini qayta ishlash dasturlarini joriy qilib, ekologik izni kamaytirishga harakat qilmoqda. Shu kabi yondashuvlar Yevropa va Osiyo bozorlarida ham keng tarqalmoqda.

Bundan tashqari, franchayzing biznesida texnologik innovatsiyalar ham barqarorlikni ta’minlashda katta rol o‘ynamoqda. Masalan, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yordamida resurslardan foydalanish optimallashtiriladi, logistika jarayonlari yaxshilanadi va uglerod emissiyasi kamaytiriladi. Elektr transport vositalarini yetkazib berish xizmatlarida qo‘llash yoki quyosh energiyasidan foydalanish kabi amaliyotlar franchayzing tarmoqlari uchun yangi standartlarga aylanmoqda. Bunday innovatsiyalar nafaqat atrof-muhitga foyda keltiradi, balki operatsion xarajatlarni kamaytirib, uzoq muddatli iqtisodiy samara beradi.

Shu sababli, franchayzing biznesida innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda.

- Ekologik franchayzing atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan franchayzing modellarini nazarda tutadi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, toza energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish kabi loyihalar franchayzing orqali amalga oshiriladi. Ekologik franchayzing orqali franchayzerlar nafaqat moliyaviy daromad olishadi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo‘shishadi.
- Barqaror franchayzing modellari franchayzing biznesida barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Masalan, franchayzing shartnomalarida ekologik talablar qo‘yilishi, franchayzerlar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi kabi shartlar nazarda tutiladi. Barqaror franchayzing modellari orqali franchayzing biznesi atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan global sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.
- Franchayzing biznesida texnologik innovatsiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalar franchayzing biznesida qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali franchayzerlar o‘z faoliyatini samaraliroq tashkil etish, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.[3]

Yashil moliyaviy instrumentlar atrof-muhitga foyda keltiruvchi loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan mexanizmlardir. Yashil obligatsiyalar orqali qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya tejamkor infratuzilmalar yoki chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalar uchun mablag‘ jalb qilinadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Xalqaro Moliya Korporatsiyasi kabi tashkilotlar yashil obligatsiyalar chiqarish orqali milliardlab dollarlarni ekologik

loyihalarga yo‘naltirmoqda. Yashil kreditlar esa bizneslarga va shaxslarga barqaror texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli shartlarda moliyaviy yordam beradi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar xususiy sektorning atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuvini rag‘batlantirib, uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi. Bu instrumentlar davlatlar va kompaniyalar uchun ekologik maqsadlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning samarali usuliga aylanmoqda.[4]

Franchayzing biznesidagi innovatsion yondashuvlar esa barqarorlikni ta’minlashda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ekologik franchayzing modellari orqali kompaniyalar o‘z faoliyatini atrof-muhitga moslashtirib, barqaror mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilmoqda. Masalan, organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi restoran tarmoqlari, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanadigan do‘konlar yoki energiya tejovchi uskunalarni sotuvchi brendlar franchayzing orqali kengaymoqda. Barqaror franchayzing modellari esa chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va uglerod izini qisqartirish kabi prinsiplarga asoslanadi. AQShda “Patagonia” kabi brendlar ekologik mas'uliyatni o‘z biznes strategiyasining asosiy qismiga aylantirib, franchayzing orqali global miqyosda ta’sir ko‘rsatmoqda.

Dunyo bo‘ylab muvaffaqiyatli tajribalar ushbu yondashuvlarning samaradorligini isbotlamoqda. Masalan, Shvetsiya va Daniya kabi Skandinaviya davlatlari yashil moliyaviy instrumentlar yordamida qayta tiklanadigan energiya sektorini rivojlantirib, uglerod emissiyasini sezilarli darajada kamaytirdi. Xitoyda esa yashil texnologiyalar bo‘yicha franchayzing tarmoqlari elektr transport vositalari va quyosh panellarini ommalashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Yevropada “zero waste” do‘konlar tarmoqlari franchayzing modeli asosida kengayib, plastik ifloslanishni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzingning sinergiyasi global ekologik muammolarni hal qilishda katta salohiyatga ega.[5]

Kelajakdagi istiqbollar nuqtai nazaridan, yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsion yondashuvlar tobora keng tarqalishi kutilmoqda. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro kelishuvlar, masalan, Parij kelishuvi, davlatlarni va xususiy sektorni barqarorlikka yo‘naltirilgan strategiyalarni qo‘llashga undamoqda. Shu bilan birga, iste’molchilarning ekologik jihatdan mas'uliyatli mahsulotlarga bo‘lgan talabi ortib bormoqda, bu esa franchayzing tarmoqlarini yangi innovatsiyalarni joriy etishga majbur qilmoqda. Kelajakda ushbu sohalarga investitsiyalar ko‘payishi va texnologik yutuqlar tufayli yanada samarali yechimlar paydo bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil moliyaviy instrumentlar va franchayzing biznesidagi innovatsion yondashuvlar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vositalar sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlamoqda. Dunyodagi muvaffaqiyatli tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuvlar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham foyda keltiradi. Kelajakda ushbu strategiyalarning kengroq qo‘llanilishi insoniyatga barqaror va sog‘lom dunyoni meros qoldirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Hartman, C. L., & Stafford, E. R. (1997). Green alliances: building new business with environmental groups. Long range planning, *30*(2), 184-149.
2. Weybrecht, G. (2010). The Sustainable *MBA:* The manager's guide to green business. John Wiley & Sons.
3. Jun, L. (2013). Enlightenment of International Experience in the "Green Economy" Transformation for Developing Countries. In *Innovative Management in Information and Production* (pp. 171-179). New York, NY: Springer New York.
4. Blöndal, J. R. (2005). *International experience using outsourcing, public-private partnerships, and vouchers*. Washington, DC: IBM Center for the Business of Government.
5. Haney, A. B., Jamasb, T., & Pollitt, M. G. (2009). Smart metering and electricity demand: Technology, economics and international experience.
6. Sayyorani qutqarishning "yashil" dastaklari; https://yuz.uz/uz/news/sayyorani-qutqarishning-yashil-dastaklari

METHODOLOGY OF IMPROVING FOREIGN EXCHANGE OPERATIONS AND THEIR ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS

Bahodirova Mohidil Shuhrat qizi
Bank – moliya akademiyasi tinglovchisi

Abstract. Realization of foreign exchange operations in commercial banks is of urgent importance. Transactions with foreign currency are carried out within the framework of the trade of goods and services between countries, and the issue of currency transactions in commercial banks and the improvement of its accounting has taken place in this scientific thesis.

Keywords: banking system, currency transactions, currency transaction account, exchange rate

The correct conduct of currency transactions and their accounting in commercial banks requires constant awareness of current legislation, decisions and news in the field. In addition to this, during the research, an attempt is made to study the research works of scientists in this topic.

The volume and structure of operations used by banks to effectively manage risks and optimize profitability cannot be imagined without methods for analyzing the profitability and efficiency of resource use, as well as risk management. In the course of the research, it was determined that commercial banks, in order to attract customers and provide them with high-quality service through foreign exchange operations, should set the process in the banks correctly and operate within the framework of legal documents.

Types of foreign exchange transactions in commercial banks have the following content (figure 1):



Figure1. Types of foreign exchange transactions in commercial banks.

The composition of foreign exchange transactions carried out in commercial banks is as follows (figure 2):



Figure2. The composition of foreign exchange transactions carried out in commercial banks.

The above-mentioned structural form and types of foreign exchange transactions provided to clients by commercial banks of our country demonstrate the urgency of further improving and modernizing the processes of foreign exchange transactions and accounting for foreign exchange transactions in a more convenient manner.

According to the Law of the Republic of Uzbekistan On Amendments and Additions to the law of the Republic of Uzbekistan "On currency regulation", currency control bodies in the Republic of Uzbekistan shall be the Central Bank, the Chamber of Accounts, the Ministry of Finance, the State Tax Committee and the State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan[163].

By studying the research work of local scientists, we can gain an understanding of how the activities of commercial banks within the framework of the law can reduce a number of risks in conducting foreign exchange transactions. If we observe the work of foreign specialists in order to observe the scientific studies in the field of study, we can witness some relevant opinions. In the book "Comparative International Accounting"[164], the views of the researchers on currency transactions carried out in commercial banks are aimed at reducing the complexity of the sector through international standards, while in the book "Financial and Managerial Accounting"[165], we can see that a number of other researchers put forward the idea of reducing the risks that can be observed through changes in exchange rates through the application of IFRS rules on the accounting of currency transactions.

The above considerations show that the strength of the current regulatory legal framework, that is, awareness of the legislation, study of international experiences, and in parallel, it is necessary to pay serious attention to the adjustment of the calculation of currency operations to international standards, IFRS.

The role of commercial banks in the economy is significant, especially since the volume of foreign exchange transactions in our country is constantly increasing, which indicates that the accuracy of foreign exchange transactions and their accounting is one of the main factors. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4611 dated February 24, 2020 "On additional measures for the transition to international financial reporting standards"[166] demonstrates the relevance of using foreign standards in improving the accounting of currency transactions. As a conclusion, conducting activities in this area within the framework of established requirements and in accordance with international financial reporting standards (IFRS) strengthens the position of banks in the international market. It can be one of the factors that not only increases the efficiency of the banking system, but also ensures its international competitiveness.

References

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, "On additional measures for the transition to international financial reporting standards", https://lex.uz/docs/-4746047

[163] Law of the Republic of Uzbekistan, On amendments and additions to the law of the Republic of Uzbekistan "On currency regulation", https://lex.uz/docs/5515844

[164] "Comparative International Accounting" by Christopher Nobes Robert B Parker, https://thelib.net/1116094-comparative-international-accounting.html

[165] "Financial and Managerial Accounting" by Needles, Belverd E. Powers, Marian Crosson, Susan V., https://lib.hpu.edu.vn/handle/123456789/27885

[166] Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, "On additional measures for the transition to international financial reporting standards", https://lex.uz/docs/-4746047

2. Law of the Republic of Uzbekistan, On amendments and additions to the law of the Republic of Uzbekistan "On currency regulation", October 22, 2019, No. LRU-57, https://lex.uz/docs/5515844

3. “Comparative International Accounting” by Christopher Nobes Robert B Parker, https://thelib.net/1116094-comparative-international-accounting.html

4. “Financial and Managerial Accounting” by Needles, Belverd E. Powers, Marian Crosson, Susan V., https://lib.hpu.edu.vn/handle/123456789/27885

ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ АСОСИЙ ҚОИДАЛАРИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ

Кулибоев Азамат Шоназарович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори в.б., PhD.

Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, юритиш ва ҳисоботни тузиш Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси ва бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ҳамда юритишга доир норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги барча давлат тиббиёт ташкилотлари бухгалтерия ҳисобини миллий валюта–сўмда юритади ва молиявий ҳисоботларни тақдим этади. Бухгалтерия ҳисобида чет эл валютасида ифодаланган актив ва мажбуриятларнинг қийматини молиявий ҳисоботларда акс эттириш учун сўмда қайта ҳисоблаш лозим.

Давлат тиббиёт ташкилотларига тегишли бўлган мол–мулк ташкилот тасарруфидаги бошқа юридик шахсларнинг мол–мулкидан алоҳида ҳисобга олинади.

Бухгалтерия ҳисоби давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан юридик шахс сифатида рўйхатдан ўтказилган пайтдан бошлаб амалдаги норматив–ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган тартибда қайта ташкил этилгунга ёки тугатилгунга қадар доимий равишда юритилади.

Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби хўжалик муомаласини бухгалтерия ҳисобининг камида иккита счётида бир вақтда ва ўзаро боғлиқ ҳолда пулда баҳолаб акс эттириш йўли билан иккиёқлама ёзув усулида юритилади.

Давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан ҳисоб юритишда фойдаланиладиган ишчи счётлар режаси Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг стандарти (2–сонли БҲС) “Ягона счётлар режаси” асосида

тасдиқланади. Мазкур ишчи счётлар режаси ҳисоб сиёсатига илова тарзида тақдим этилади.

Давлат тиббиёт ташкилотларининг аналитик ҳисоб маълумотлари айланма қайднома ва синтетик счётдаги қолдиқлари билан бир хиллиги таъминланиши зарур. Шунингдек, хўжалик муомалаларининг барча фактлари ва инвентаризация натижалари бухгалтерия ҳисобида ҳеч қандай камчилик ва ўчиришларсиз ўз вақтида рўйхатга олиниши керак.

Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботда акс эттириш учун давлат тиббиёт ташкилотларининг активлари, мажбуриятлари, молиялаштириш манбалари (бюджет ва бюджетдан ташқари), даромадлари, харажатлари ва хўжалик фаолиятининг бошқа муомалалари пул кўринишида баҳоланиши керак.

Бухгалетрия ҳисоби маълумотлари ва молиявий ҳисоботларнинг ишончлилигини таъминлаш учун давлат тиббиёт ташкилотлари мол–мулк ва мажбуриятларини инвентаризация қилишлари шарт, натижада ҳисоб объектларининг ҳақиқатда мавжудлиги, ҳолати ва баҳоси текширилади ва ҳужжатлаштирилади.

Инвентаризация қилиш ҳолатлари, муддатлари ва тартиби, шунингдек, инвентаризация қилинадиган объектлар рўйхати давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (19–сонли БҲМС) “Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш”га мувофиқ белгиланади.

Давлат тиббиёт ташкилотлари фаолият йўналишларини инобатга олиб, амалдаги бюджет ва бухгалтерия ҳисобига оид норматив–ҳуқуқий ҳужжатларга амал қилган ҳолда, бухгалтерия ҳисобини юритиши учун ўзларининг ҳисоб сиёсатини мустақил равишда шакллантирадилар.

Ҳисоб сиёсати давлат тиббиёт ташкилоти раҳбарининг буйруғи билан тасдиқланади ва йилдан–йилга изчил қўлланилади. Бюджет ҳисобини тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган ҳолларда, шунингдек давлат тиббиёт ташкилоти қайта ташкил этилганда ҳисоб сиёсатига ўзгартиришлар киритиш мумкин.

Бухгалтерия ҳисоби маълумотларини солиштиришни таъминлаш мақсадида ҳисоб сиёсатига ўзгартириш ва қўшимчалар молия йили бошидан, агар давлат тиббиёт ташкилоти қайта ташкил этилаётган бўлса уни қайта ташкил этилган санадан киритилади.

Давлат тиббиёт ташкилотларининг ҳисоб сиёсати қуйидаги тамойилларга жавоб бериши керак (1–расм).



1–расм. Давлат тиббиёт ташкилотлари ҳисоб сиёсати тамойиллари[167]

Давлат тиббиёт ташкилотларининг ҳисоб сиёсати қуйидагиларни ўз ичига олади:

– ташкилотнинг бухгалтерия хизмати ташкилий тузилмасини;

– ташкилотда инвентаризация ўтказишнинг тартиби ва муддатларини;

– ташкилот томонидан фойдаланиладиган ва унда синтетик ва аналитик счётлар рўйхати бўлиши лозим бўлган ишчи счётлар режасини;

– ҳужжатлар айланмаси графигини;

– ҳисоб маълумотларини қайта ишлаш усулларини;

– намунавий шакллари назарда тутилмаган, хўжалик операцияларини қайд қилиш учун қўлланиладиган бирламчи ҳисоб ҳужжатларининг шаклларини;

– асосий воситаларнинг инвентарь рақами тузилмасини;

– бирламчи ҳисоб ҳужжатларига имзо қўйиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар рўйхатини;

– асосий воситаларни қайта баҳолаш услубларини;

– инвентаризация қилишда (ортиқча ёки камомадда) мулкни баҳолаш услубларини;

– ташкилотнинг ҳисобот тақдим этиш муддатларини;

– тиббий хизматлар калькуляциясини шакллантириш тартибини.

Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритишда юқоридаги ҳисоб сиёсатининг тамойилларидан ташқари яхлитлик, автономия, ташкилотнинг узлуксизлиги, холислик, даврийлик, махфийлик ва ноаниқлик

[167]Муаллиф томонидан 1–сон БҲСга асосан тузилган

тамойилларига риоя қилиш керак деб ҳисоблаймиз. Бу тамойиллар давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни тузиш жараёнида ягона тизимни ифодалайди, ташкилотнинг ўз фаолиятини тўхтатмасдан, услуксиз ишлаши учун замин яратади. Шунингдек, ҳисоб ишларининг ташкилий, услубий ва техник жиҳатдан тўғри юритилишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 2013 йил 26 декабрь, ЎРҚ–360–сон.
2. Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ–360–сон.
3. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги Йўриқнома (2010 йил 22 декабрь, 2169–сон).
4. Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг стандарти (1–сонли БҲС) “Ҳисоб сиёсати” (2016 йил 27 декабрь, 2853–сон).
5. Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг стандарти (2–сонли БҲС) “Ягона счётлар режаси” (2018 йил 20 октябрь, 3078–сон).
6. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (19–сонли БҲМС) “Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш” (2024 йил 12 август, 3548–сон).
7. Кулибоев А.Ш. Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ҳамда молиявий назорат: назария ва амалиёт. Монография–Т.:«Iqtisod–Moliya», 2023. –236 б.
8. Kuliboyev A.Sh. Budjet tashkilotlari jamg‘armalari hisobi. Darslik–T.:«MAKON ZIYO NURI», 2024. –290 b.

MAHSULOT TANNARXINI REJALASHTIRISH VA TAHLIL QILISH USULLARINI SAMARALI QO’LLASH MASALALARI

Ibragimov Abdugafur Karimovich- *Bank Moliya Akademiyasi*
“*Buhgalteiy hisobi va audit kafedrasi” professori*
gafuribragimov@mail.ru, *+998903485649*

Ibragimova Iroda Rashid kizi –*Toshkent Davlat Iqtisodiyt Universiteti "Audit" kafedrasi dozenti +998903485649*

Iqtisodiyot tarmoqlarida sanoat sohasi ancha yirik sohalar turiga kiradi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik va biznes vakillari, albatta daromadini maksimallashtirib, biznesni yanada kengaytirishga intiladilar. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar mikrodarajada umumiy iqtisodiy rivojlanishga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar. Ishlab chiqarishning marjinal rentabelligini oshirish uchun esa, albatta, mahsulot tannarxini samarali rejalashtirib, xarajatlar va resurslar sarfi nazoratini to'g'ri tahlil qilib borish katta ahamiyatga ega. Tannarx to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish korxonasining foydasiga ta'sir etadigan iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichdir. Tannarx bu - sanoat korxonasida har bir ishlab chiqarilgan mahsulotga sarflangan barcha xarajatlar yig'indisi. Mahsulot tannarxini rejalashtirish - mahsulotning maqsadli narxini aniqlash, ishlab chiqarish rentabelligini va marjasini baholash, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Tannarxni tahlil qilish – xarajatlarni kamaytirish zahiralarini topish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, tannarxga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, rejadagi ko'rsatkishlardagi farqlar bo'yicha choralar ko'rishga yordam beradi. Bugungi kunda tannarxni belgilashda Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Nizomi huquqiy-me'yoriy asos xujjat qilib olinadi va mamlakatdagi barcha sanoat korxonalari shu xujjat asosida mahsulotlarining tannarxini hisoblaydi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish keng qamrovli yo'nalish bo'lib, bir necha asrlardan buyon iqtisodiy maktablar davridan rivojlanib kelgan. Adam Smit va David Rikardo kabi olimlar qiymat nazariyasining asoslarini tuzganlar. Bu nazariya tannarx tushunchasining bazaviy asosidir. Alfred Marshall nisbiy naflilik nazariyasini yoritib bergan, bu nazariya tannarxni shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Rus olimlaridan A.S.Borodkin, K.F.Luchenko, A.I.Minevskiy kabi iqtisodchi olimlar tannarxning nazariy va amaliy asoslari kabi ilmiy ishlar olib borishgan. Mamlakatimizda Sh.Sh.Shodmonov, D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov, A.Ibragimov kabi iqtisodchi olimlar iqtisodiyot haqida oliy ta'lim uchun darsliklar tayyorlashgan. Darslikda korxonalar iqtisodiyotini ham o'z ichiga olgan ma'lumotlar, xususan, mahsulot tannarxini rejalashtirishga doir ma'lumotlar keltirilgan. O.K.Xonto'rayev o'zining "Mahsulot tannarxini hisoblashni amalda qo'llanilayotgan usullari tahlili" nomli maqolasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mahsulot tannarxiga ta'siri haqida tadqiqotida ko'rib chiqqan. X.S.Asatullayev va B.O.Tursunovning "Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi" kabi ilmiy ishlarida xarajatlarni tejash va samaradorligini oshirish yo'llari, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va tannarxni kamaytirish imkoniyatlari haqida tadqiqotlari bilan bu mavzuga katta hissa qo'shganlar.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish va xarajatlarni ratsional sarflashning hozirgi kunda horij tajribasida yangi zamonaviy metodlarining tendensiyalari mavjud: Target Costing, Direct Costing, Standard Costing, ABC – Costing, ERP-

tizimlar, Raqamli modellashtirish, AI dan foydalanish, Kaizen, Just-in-Time, Tejamli mahsulot, Six Sigma. Rejalashtirish va tahlil qilishning quyidagi metodlari bugungi kunda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Bunga misol keltirib, Standard Costing, ABC-Costing, Just-in-Time kabi metodlar AQSH va Yevropada keng tarqalgan. Target Costing, Tejamli mahsulot va Kaizen Costing metodlari Yaponiyada keng qo'llaniladi.

Xalqaro savdoda ham mahsulot tannarxi muhim faktor hisoblanadi. Tannarxni boshqarish sanoat korxonalariga raqobatbardoshligini oshirib, xalqaro bozorga mahsulotini eksport qilishiga katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida sanoat korxonalarinig eksport salohiyatini oshirish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Aytish joizki, tannarx mahsulotning eksport narxi shakllanishining asosidir. Global raqobat sharoitida sanoat korxonalari mahsulotlari tannarxini sifatga ta'sir ko'rsatmagan holda pasaytirishga erishish va raqobatdosh eksport narxini belgilash choralarini ko'rish talab etiladi. Jahon Savdo Tashkiloti xalqaro savdoga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Bu tashkilot a'zo mamlakatlari uchun ularning jahon bozoriga chiqishda teng huquqli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan qoidalar va mexanizmlarni ishlab chiqqan.

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlardan quyidagi natijalarni berdi. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini rejalashtirishdan maqsad uning xarajatlari qiymatini pasaytirish bilan bog'liq. Korxonalar mahsulot tannarxini pasaytirishda bir qancha muammolarga duch kelishmoqda:

- Import xomashyo va materiallar narxining oshib borishi
- Valyuta kursi o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy risklar
- Mahalliy xomashyo va materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalarning yetarli emasligi
- Transport va logistika xarajatlari (ham eksport, ham importda)

Ushbu masalalarning yechimi sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- ❖ mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xomashyo va materiallarni imkon qadar mahalliy yetkazib beruvchilardan harid qilish zarur. Bu o'z navbatida import qilinadigan moddiy xarajatlarni ulushini kamaytiradi, natijada valyuta kursi bilan bog'liq risklarni pasaytirishga erishiladi. Chunki, valyuta kursi oshib borishi oqibatida, sotib olinadigan import materiallarning narxi tobora oshib boradi va mahsulot tannarxini bor-yo'g'i valyuta kursining oshishi hisobiga ko'tarilishiga sabab bo'ladi
- ❖ Xarajatlar me'yorini va smetasini qayta ko'rib chiqish mumkin, ba'zi materiallarni mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda nisbatan arzonroq alternativ turiga almashtirish, shu bilan birga, xarajatlar me'yoridagi materiallar va komponentlar hajmini va o'lchamini ham qayta ko'rib chiqib, optimal variantlarni sinovdan o'tkazib ko'rish taklif etiladi.

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida xulosa qilib aytganda, horijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagicha ilmiy takliflar va tavsiyalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ✓ Kaizen
- ✓ Tejamli mahsulot
- ✓ ERP-tizimlar

- ✓ Raqamli modellashtirish

AI dan foydalanish kabi tizimlarni mamlakatimiz sanoatiga joriy qilish, mehnat unumdorligini va samaradorligini oshishiga ko'maklashadi. Bugungi kunda global darajada iqtisodiyotga yashil innovatsilarni va ekotizimlarni, raqamli texnologiyalarni joriy qilish jadal suratlar bilan boshlab yuborilgan. Yashil innovatsiyalar ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish natijasida tabiiy resurslarning tejalishi, ekologiyaga zararlilik ta'sirini kamaytirish bilan birga xarajatlarni optimallashtirishga, samaradorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi. Bu tizimlarning istiqbollari va imkoniyatlarini kengroq yoritib berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Energiya samaradorli texnologiyalar joriy etilishi elektroenergiya iste'molini kamaytirib, mahsulot tannarxini pasayishiga ijobiy ta'sir qiladi
- Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish avvalgi an'anaviy qimmat bo'lgan energiya turlaridan foydalanishni kamaytiradi
- Yashil innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonini optimizatsiya qiladi, natijada mehnat unumdorligiga va bir birlik mahsulotni xarajatini kamaytirradi
- Ekologiya me'yorlariga amal qilinish ham korxonani jarima va ekologik to'lovlardan, moliyaviy cheklovlardan asraydi
- Ekologik toza texnologiyalarga investitsiya kiritilishi natijasida soliq imtiyozlari va Davlat rag'batlariga erishiladi
- Iste'molchilar hozir ko'proq ekologik toza mahsulotlarga moyillik ko'rsatmoqdalar, shu sababli ham korxonada ekotizimlar joriy etilishi korxona obro'yiga va raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir etadi
- Ekotizimlarni joriy etgan korxonalarga investorlar va hamkorlarni jalb qilish oson bo'ladi.

Bu o'z navbatida, mamlakatimiz hozirgi global sharoitda aktual bo'lgan "industriya 5" davriga o'tadi. "Industriya 4" da avtomatlashtirish va robotizatsiya jadal rivojlangan bo'lsa, endi markazga inson kapitali chiqdi. Inson va robot mashinalarning hamkorlikda ishlashi yo'lga qo'yilmoqda. Natijada, mamlakatimizda innovatsion yangi yo'nalishlar va tizimlar: yashil iqtisodiyot, ekotizimlar jadal rivojlana boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sanoat ishlab chiqarishini xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 10.12.2020. №4919//lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 08.01.2014. №5.//lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori 01.05.2019. №4302//lex.uz

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori. 28.10.2024 №712 //lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2024 yillardagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir qaror va farmonlari //lex.uz
6. Asatullayev,X. Tursunov, B. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi, Darslik. Toshkent T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019.-206b
7. Ibragimov A.K Tijorat banklarida ichki auditida muhimlik va auditor riskini masalalari.// Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт журнали. Махсус сони. 2024 йил Май. .// 50-57 бетлар.Самарканд.2024.
8. Ибрагимов А.К.,Ибрагимова И.Р. Особенности перехода на международные стандарты финансовой отчётности в коммерческих банках Республики Узбекистана. //Учёт, анализ и аудит: состояние и перспективы развития: материалы VII Международной научно-практической конференции, г. Луганск, 08 декабря 2023 г. – Луганск: ИП Орехов Д.А., 2024. – 415 с.
9. Ибрагимов А.К., Шарахметов Ш. Методологические аспекты организации кассовых операций в коммерческих банках.// "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali № 5 2024. (https://e-itt.uz/index.php/eitt/index)Май 2024**.**
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligining mahsulot tannarxini rejalashtirish bo’yicha tahliliy nashrlari va statistik ma’lumotlari
11. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik.//Sh.Sh.Shodmonov.T.:LESSON PRESS,2021.-46-325b

HISOB AMALIYOTIDA XALQARO STANDARTLARNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI

Aralov Sobir Javli o‘g‘li
Bank moliya akademiyasi tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda hisob tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida hisob amaliyotidagi yangi o‘zgarishlar, xususan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini hisob amaliyotida qo‘llash istiqbollari va imkoniyatlari xususida so‘z yuritiladi. Bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash hamda joriy hisob standartlarining ayrim jihatlariga va ularning yechimiga qaratilgan fikrlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobot shakllari hamda ularga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat ahamiyatiga ega tashkilot, moliyaviy hisobotning milliy standarti, barqarorlik standartlari, yashil buxgalteriya, yagona hisobotlar tizimi

So‘nggi yillarda buxgalteriya hisobi va audit sohasida, xususan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, shu bilan birgalikda, MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash hamda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va yengilliklar yaratish maqsadida jahon tajribasini o‘rgangan holda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot shakllari hamda ularga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida amaliy ishlar jadal ravishda olib borilmoqda. Xususan, yaqinda buxgalteriya hisob tizimini tubdan takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga o‘tkazishning muhim ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tkazishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror loyihasi (id-101485) ishlab chiqildi.

Bunda quyidagi ayrim muhim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi:

1. MHXSni tatbiq etadigan tashkilotlarni sifat mezonlariga asoslangan aniq sinflarga bo‘lish: **Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar** (JAET, Public-interest entities (PIE) tushunchasini huquqiy maqomini belgilash va ular ro‘yxatini shakllantirish. Ushbu tashkilotlarni 2026-yil 1-yanvardan boshlab Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasidagi barcha tashkilotlar to‘liq MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy hisobotlarni tuzishi va ularning auditorlik xulosalari bilan birgalikda e’lon qilinishini tashkil etishini belgilash.
2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish: Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini unifikatsiya qilish orqali MHXSga uyg‘unlashgan **Moliyaviy hisobotning milliy standartlari** (MHMS) ishlab chiqish va uni tadbirkorlik sub’yektlari (MHXSga o‘tishi belgilangan tashkilotlar bundan mustasno) faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish.
3. Tadbirkorlik sub’yektlarini MHXSni qo‘llay oladigan kadrlar bilan ta’minlash va MHXS bo‘yicha o‘qitish xarajatini qoplash tartibini takomillashtirish: Buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasini yanada kengaytirish, MHXSga o‘tadigan tashkilotlarni salohiyatli kadrlar bilan ta’minlash maqsadida amaldagi tartib bilan birgalikda o‘ttiz besh yoshdan oshmagan barcha fuqarolarga dastlabki ro‘yxatdan o‘tish va imtihon topshirish xarajatlarini imtihondan muvaffaqiyatli o‘tganda qoplab berish. Shuningdek, ushbu amaliyotni 2027-yil 31-dekabrga qadar uzaytirish;
4. MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash masalalari: Hisobot yili davomida MHXS tayyorlovchi tashkilot toifasiga kiritilgan, MHXSni birinchi marta qo‘llayotgan yuridik shaxslarni qo‘llab quvvatlash, xarajatlarni tejash, hamda MHXSga o‘tish bo‘yicha yo‘l xarita va hisob siyosatini o‘zgartirish uchun imkoniyat yaratish maqsadida MHXSga o‘tish sanasi hisobot davridan keyingi davrning boshi – 1-yanvar etib belgilanmoqda.
5. Buxgalteriya hisobi sohasidagi xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlarini va ilg‘or tajribasini o‘rganish natijalari asosida yangi tahrirdagi “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini shuningdek, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini 2025–2030-yillarga rivojlantirishga doir konsepsiyalarini ishlab chiqish belgilanmoqda.

6. Buxgalteriya hisobi, jumladan, MHXS hamda auditga doir masala va muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish maqsadida vazirlik huzurida malakali mutaxassis va amaliyotchilar, ilmiy pedagoglar, xorijiy ekspertlardan iborat buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo‘yicha ekspert guruhini (Kengash) tashkil etish.

Shuningdek, buxgalterlarni sertifikatlashtirishning milliy tizimini yaratishga hamda buxgalterlar va auditorlar kasbining huquqiy maqomi va nufuzini mustahkamlashga doir bir qator takliflar ishlab chiqildi. Bunda:

- professional buxgalterlar uchun ta’limning xalqaro standartlariga muvofiq, darajali va modulli yondashuvga asoslangan milliy sertifikatlashtirishning yangi tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- investorlarning qarorlar qabul qilishda foydali bo‘lgan, global miqyosda taqqoslanadigan barqarorlik bilan bog‘liq ma’lumotlarni olishlari uchun investor va kompaniyalar o‘rtasida munosabatlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan MHXS Barqarorlik standartlarini (IFRS Sustainability Standards) joriy qilish;
- iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini o‘lchash va hisobot berish usuli hisoblangan “yashil buxgalteriya”ga (Green accounting) o‘tish;
- respublika hududida buxgalterlar va auditorlar uchun XBFning Professional buxgalterning xalqaro odob-axloq kodeksini keng targ‘ib etish nazarda tutilmoqda.

Bu jarayonda MHXSga muvofiq namunaviy moliyaviy hisobot shakllari va hisobvaraqlarni ishlab chiqish; moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi monitoringini o‘tkazish va ko‘rib chiqish tartibini ishlab chiqish va o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish; moliyaviy hisobotlarni yig‘ishni va saqlashni ta’minlaydigan Yagona hisobotlar tizimi bazasida moliyaviy hisobotlar bazasini shakllantirishi hamda doimiy ravishda yuritilishini ta’minlash vazifalari oldinga qo‘yilgan.

Yuqorida vazifalardan anglash mumkinki, yaqin kelajakda O‘zbekistonda 2 toifadagi buxgalteriya hizob tizimi amal qilishi mumkin. Ya’ni yuqorida keltirilgan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladigan barcha tashkilotlar to‘liq MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi belgilanadigan bo’lsa, ushbu toifaga kiritilmagan boshqa tadbirkorlik sub’yektlari uchun buxgalteriya hisobi milliy standartlarini unifikatsiya qilish orqali Moliyaviy hisobotning milliy standartlariga uyg‘unlashgan buxgalteriya hisobi yuritilishini bilib olishimiz mumkin. U holda, biz Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiruvchi tashkilotlarni qanday aniqlab olamiz, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Bunda biz Moliya va iqtisodiyot vazirligi bergan ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, bu toifaga kiruvchi tashkilotlar quyidagi sxema orqali yanada aniqroq tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin.



1-sxema. muallif ishlanmasi.

Ushbu sxemada banklar va sug‘urta tashkilotlari PQ-4611 sonli prezident qarorida nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu qarordagi yirik soliq to‘lovchi toifasiga kiritilgan tashkilotlar va aksionerlik jamiyatlari esa tarkiblashtirilgan. Ya’ni, yuqorida ko‘rsatilgan yirik tashkilotlar, listing tashkilotlari va davlat ulushi 50% bo'lgan tashkilotlar tarkibida tasniflangan deyish mumkin. Shuningdek, yirik tashkilotlar tarkibi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish lozim. Chunki, bu yangi toifa hisoblanadi va qamrovi jihatdan MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tuzuvchi tashkilotlar sonini sezilarli oshiradi. Yirik tashkilotlar quyidagi asoslarga ko‘ra ajratilishi mumkin:

- aktivlari 200 ming BXM dan ko‘p;
- realizatsiyasi 500 BXM dan ko‘p;
- xodimlar soni 250 dan ortiq.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa chiqarishimiz mumkinki, tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy jihatdan 3 toifaga bo‘ladigan bo‘lsak va ularning buxgalteriya hisobini yuritishni yuqoridagi asoslarga ko‘ra farqlasak, O‘zbekistonda yaqin kelajakda mavjud bo‘ladigan dual hisob tizimini quyidagi sxema orqali yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin bo‘ladi.



2-sxema. muallif ishlanmasi.

Demak, endilikda ham yirik tashkilotlar uchun ham o‘rta va kichik tashkilotlar uchun hisob tizimini yangilash va xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi milliy standartlarini tartibga solish masalalarini hal qilishimiz kerak bo‘ladi.

Yuqorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini hisob amaliyotida qo‘llash istiqbollari haqida so‘z yuritgan bo‘lsak, endi xalqaro standartlarni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash hamda joriy hisob standartlarining ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘tgan davr mobaynida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan bir qancha yangi tahrirda Buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqib tasdiqlandi. Ularni quyidagi jadval orqali umumlashtirishimiz mumkin.

			16-sonli BHMS “Buxgalteriya balansini tuzish sanasidan keyin xo‘jalik faoliyatida yuz beradigan hodisalar va nazarda tutilmagan holatlar” (2024-yil
	1-sonli BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” (2024-yil 6avgust, r/r.		17-sonli BHMS “Kapital qurilishning pudrat shartnomalari” (2024-yil 23-iyul, r/r. 3533);
	2-sonli BHMS “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan daromadlar” (2024-yil 5 avgust, r/r. 3542);		19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” (2024-yil 12-
	5-sonli BHMS “Asosiy vositalar”, (2024yil 9-avgust, r/r. 3546);		21-sonli BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” (2024-yil 27-
	7-sonli BHMS “Nomoddiy aktivlar” (2024-yil 9-avgust, r/r. 3547);		22-sonli BHMS “Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi” (2024-yil 19dekabr, r/r. 3587);
	8-sonli BHMS “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi” (2024-yil		23-sonli BHMS “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish” (2024yil 2-avgust, r/r.
	9-son BHMS “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” (2024-yil 27-dekabr, r/r. 3592);		Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risidagi Nizom
	10-sonli BHMS “Davlat yordamining hisobi va u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berish” (2024-yil 24-iyul, r/r. 3534);		Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (2024-yil 5-avgust, r/r. 3543);

	11-sonli BHMS “Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari b o		Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom (2024-yil
	12-sonli BHMS “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” (2024-yil 18iyul, r/r. 3531);		Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona to‘lovlari va yig‘imlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom

3-jadval. muallif ishlanmasi.

Ushbu standartlar xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan bo‘lsada, lekin to‘liqligicha uyg‘unlashgan deya olmaymiz. Ushbu standartlar avvalida aytib o‘tganimizdek o‘rta va kichik kompaniyalar hisob tizimi uchun amal qiladi deyish mumkin. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, bu hisob amaliyotida qilingan yaqin yillardagi katta qadamlardan biri bo‘ldi.

Shuningdek, ushbu jarayonda 4 ta BHMS Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) uyg‘unlashtirildi. Ularni quyidagi qiyosiy jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan BHMS	MHXSga uyg‘unlashtirilgan standartlar
• 1-sonli BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” (2024-yil 6-avgust, r/r. 3544); • 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar”, (2024-yil 9-avgust, r/r. 3546); • 22-sonli BHMS “Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi” (2024-yil 19-dekabr, r/r. 3587); • 9-son BHMS “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” (27.12.2024-yil, r/r. 3592)	• 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” (IAS (IFRS) • 16-son “Asosiy vositalar” (IAS (IFRS) • 21-son “Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari” (IAS (IFRS) • 7-son “Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot” (IAS, (IFRS)

4-jadval. muallif ishlanmasi.

Ushbu MHXS ga uyg‘unlashtirilgan standartlar esa jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladigan tashkilotlar yani yirik tashkilotlarning hisob amaliyotida qo‘llash uchun ishlab chiqilgan.

Xulosa. O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishga doir keng ko‘lamli amaliy ishlar jadallik bilan amalga oshirilayotganli yuqoridagi tahlillardan bilib olishimiz mumkin. Ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, shu bilan birgalikda, MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash hamda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va yengilliklar yaratish maqsadida jahon tajribasini o‘rgangan holda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot shakllari hamda ularga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish borasidagi ishlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin.

Birinchidan, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladigan barcha tashkilotlar to‘liq MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi belgilanadigan bo’lsa, ushbu toifaga kiritilmagan boshqa tadbirkorlik sub’yektlari uchun buxgalteriya hisobi milliy standartlarini unifikatsiya qilish orqali Moliyaviy hisobotning milliy standartlariga uyg‘unlashgan buxgalteriya hisobi yuritilishi uchun huquqiy asoslar yaratilishi zarur. Bunda albatta, buxgalteriya hisobi sohasidagi xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlarini va ilg‘or tajribasini o‘rganish natijalari asosida yangi tahrirdagi “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida”gi Qonun hamda bir qator normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi monitoringini o‘tkazish va ko‘rib chiqish tartibini ishlab chiqish va o‘zaro axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, moliyaviy hisobotlarni yig‘ishni va saqlashni ta’minlaydigan yagona hisobotlar tizimi bazasida moliyaviy hisobotlar bazasini shakllantirishi hamda doimiy ravishda yuritilishini ta’minlash vazifalari tezroq hal etilishi ham tashqi foydalanuvchilar ham ichki foydalanuvchilar uchun foydali ekanligini takidlaymiz.

Uchinchidan, Professional buxgalterning xalqaro odob-axloq kodeksini keng targ‘ib etish, xususan, yangi tahrirdagi buxgalteriya hisobi milliy standartlari va MHXS ga uyg‘unlashtirilgan standartlarni hisob amaliyotida qo‘llash tartiblari va tamoyillarini jamoatchilikka, xususan amaliyotchi buxgalter va auditorlarga taqdimotlar, ilmiy uchrashuvlar va tadbirlar tashkil qilish hamda masofaviy shaklda o‘rganishga qulay bo‘lgan video qo‘llanmalar orqali tushuntirishlar olib borilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, buxgalteriya hisobi sohasini yanada takomillashtirish va tizimlashtirish, MHXSga o‘tishni rag‘batlantirish va qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish bilan birhalikda buxgalterlar va auditorlar kasbining huquqiy maqomi va nufuzini mustahkamlash, xususan, ushbu xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida ta’minlashi hamda sohani raqamlashtirish orqali rivojlantirish masalalariga ham chuqur yondoshish kerakligini takidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 404-sonli qaroriga asosan yangi tahrirdagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun
2. “Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tkazishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror loyihasi
3. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, Darslik, - T.:2021, 332 b.
4. https://regulation.gov.uz/oz/d/101485
5. https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/buxgalteriya-hisobi-tizimi-va-uni-xalqaro-standartlarga-otkazishning-muhim-ustuvor-yonalishlari-belgilandi
6. https://lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar ichki auditini takomillashtirish

k
O‘zRBMA, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi dotsenti
a

Byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari daromadlari hamda xarajatlari nazoratini tashkil etish muhim faoliyat turlaridan hisoblanib, bunda

l
amadovich

1. Byudjet tashkilotlarining quyidagi daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi yuritilishi tartibga solinadi:
yudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;
ibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;
Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar.

2. Yuridik shaxs bo‘lgan byudjet tashkilotlari uchun quyidagi hisobvaraqlar (shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari) ochiladi:

a) banklar tomonidan (g‘azna ijrosiga o‘tmagan byudjet tashkilotlari uchun): byudjet mablag‘lari bo‘yicha hisobvaraqlar, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvaraqlar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hisobvaraqlar.

b) moliya organlari tomonidan (g‘azna ijrosiga o‘tgan byudjet tashkilotlari uchun): byudjet mablag‘lari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari.

3. Byudjet tashkilotlarining moliya yilida foydalanilmay qolgan byudjetdan tashqari mablag‘lari keyingi moliya yiliga o‘tadi hamda ulardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi. O‘tgan moliya yilida foydalanilmay qolgan byudjetdan tashqari mablag‘lar keyingi moliya yilida qayta taqsimlanmay o‘sha maqsadlarda foydalaniladi.

4. Byudjet tashkiloti qayta tashkil etilgan (qo‘shib yuborilgan, qo‘shib olingan, o‘zgartirilgan) hollarda, byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvaraqlaridagi (shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridagi) qoldiq mablag‘lar qayta tashkil etilgan byudjet tashkiloti tasarrufida qoladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5. Byudjet tashkiloti bo‘lish yoki uning tarkibidan bir yoxud bir necha byudjet tashkilotini ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvaraqlaridagi (shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridagi) qoldiq mablag‘lar qayta tashkil etilgan byudjet tashkilotlari bo‘yicha mutanosib ravishda taqsimlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6. Byudjet tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlash xarajatlari to‘xtatilgan hollarda, byudjetdan tashqari mablag‘lar qoldig‘i mazkur tashkilot tasarrufida qoladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Tugatilgan byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvaraqlaridagi (shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridagi)

mablag‘lar qoldig‘i belgilangan tartibda tegishli byudjet daromadlariga o‘tkaziladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar ichki auditini o‘tkazishda kvantitativ ma'lumotlar yordamida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, moliyaviy hisobotlar va statistik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida ichki auditning muntazamligi, samaradorligi, muammolarni aniqlash va ularga qo‘llanilgan yechimlar kabi asosiy ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqiladi.

Ichki auditning muntazamligi va samaradorligi, tashkilotlarda ichki nazorat tizimlarining qanchalik tez-tez va qat'iylik bilan tekshirilishini ifodalaydi. Bu ikki tushuncha ichki audit tizimining samarali ishlashini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Quyida ushbu ko'rsatkichlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Ichki auditning muntazamligi, tashkilot ichida ichki nazorat tizimlarining qanchalik tez-tez tekshirilishini ifodalaydi. Bu, tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatiga qo'yiladigan nazoratning sifatini va samaradorligini ta'minlaydi.

Davlat maktablari: Bu tashkilot turi yiliga ikki marta ichki auditdan o'tadi. Bu, maktab moliyasini boshqarishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlash tashkilotlari: Sog'liqni saqlash sohasida ichki audit yiliga uch marta o'tkaziladi. Bu tizimli nazorat sog'liqni saqlash tashkilotlarining moliyaviy operatsiyalarini doimiy ravishda kuzatib borish va potentsial muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

Mahalliy hukumatlar: Mahalliy hukumat tashkilotlari eng kam ichki audit muntazamligiga ega, yiliga faqat bitta audit o'tkaziladi. Bu, resurslarning cheklanganligi yoki moliyaviy operatsiyalarning nisbatan past darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ichki auditning samaradorligi, audit jarayonlarining tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'lchaydi. Bu, ichki audit tomonidan aniqlangan muammolarga qo'llanilgan yechimlar samaradorligi va tashkilotning umumiy ish faoliyatini yaxshilash qobiliyati bilan belgilanadi. Samaradorlik, ichki auditning tashkilot ichida qabul qilinish darajasiga va uning tavsiyalarining amalga oshirilishiga bog'liq.

. Davlat maktablari: Ichki auditlar orqali aniqlangan mablag'lar sarflashdagi qoidabuzarliklar tez va samarali tarzda bartaraf etiladi, bu esa maktabning moliyaviy shaffofligini oshiradi.

1-jadval.

Ichki auditning samaradorligi

Tashkilot Turi	Aniqlangan muammolar	Qo'llanilgan yechimlar	Samaradorlik bahosi
Davlat maktablari	Mablag'lar sarflashdagi qoidabuzarliklar	Qoidabuzarliklarni bartaraf etish, jarimalar	Yaxshi (85/100)
Sog'liqni saqlash tashkilotlari	Dori-darmon taqsimotidagi noqonuniy harakatlar	Taqsimot tizimini qayta ko'rib chiqish, xodimlarni qayta o'qitish	A'lo (90/100)

Mahalliy hukumatlar	Moliyaviy hisobotlardagi xatolar	Hisobot tizimini yaxshilash, xato tuzatish	Qoniqarli

2. Sog'liqni saqlash tashkilotlari: Ichki audit tufayli aniqlangan dori-darmonlarni xarid qilish va taqsimlashdagi noqonuniy harakatlarga qarshi chora-tadbirlar samarali amalga oshiriladi, bu esa sog'liqni saqlash tashkilotining umumiy samaradorligini yaxshilaydi.

3. Mahalliy hukumatlar: Ichki auditlar orqali aniqlangan moliyaviy hisobotlardagi xatolar tuzatiladi, bu esa mahalliy hukumatning umumiy boshqaruv sifatini oshiradi.

Bu ma'lumotlar ichki auditning samaradorligini aniqroq tushunishga yordam beradi va tashkilotlarga ichki audit tizimlarini yaxshilash bo'yicha yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Misollar:

uammolarni aniqlash: Ichki auditorlar tomonidan aniqlangan xatolarni tuzatish bo'yicha takliflar, muammolarni oldini olish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan katta yo'qotishlarning oldini oladi.

aror qabul qilish: Audit hisobotlari asosida qabul qilingan strategik qarorlar, tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va rivojlanishini rag'batlantiradi.

arayonlarni optimallashtirish: Ichki audit jarayonlari doirasida aniqlangan va amalga oshirilgan yaxshilanishlar, tashkilotning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ichki auditning muntazamligi va samaradorligi, tashkilotning ichki nazorat tizimlarining qanchalik yaxshi ishlashini va moliyaviy hamda operatsion risklarni qanchalik samarali boshqarishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali tashkilotlar o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirish yo'llarini topishi mumkin.

Mablag‘larni boshqarishdagi shaffoflik darajasi

Mablag‘larni boshqarishdagi shaffoflik darajasi, tashkilotning moliyaviy operatsiyalari va hisobotlarining ochiqligini va tushunarli ekanligini o'lchaydi. Bu ko‘rsatkich, moliyaviy jarayonlarda korruptsiya va suiiste'mol holatlarini kamaytirish, hamda ishonchli va adolatli moliyaviy boshqaruvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy misollar

1. Davlat maktablari: Maktablarda yiliga ikki marta o'tkaziladigan ichki auditlar natijasida moliyaviy hisobotlarning to'liqligi va aniqligi ta'minlanadi. Masalan, maktab byudjetidan xarid qilingan jihozlar va materiallar haqida to'liq va aniq ma'lumotlar taqdim etiladi, bu esa ota-onalar va jamoatchilikning maktab moliyasiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

2. Sog'liqni saqlash tashkilotlari: Sog'liqni saqlash tashkilotlarida muntazam ravishda o'tkaziladigan ichki auditlar dori-darmonlarning xaridi va taqsimoti jarayonlarini nazorat qiladi. Bu jarayonlar haqida ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi, bemorlar va ularning oilalari uchun tashkilotning xizmatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

3. Mahalliy hukumatlar: Mahalliy hukumatlar tomonidan yillik moliyaviy hisobotlar ochiq e'lon qilinadi, bu esa soliq to'lovchilar va mahalliy aholi uchun hukumatning moliyaviy faoliyatini kuzatib borish imkonini beradi. Shuningdek, bu

hisobotlar mahalliy hukumatning loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishdagi shaffofligini ta'minlaydi.

Ichki audit jarayonida turli muammolar aniqlanadi va ularni hal etish uchun tegishli yechimlar qo'llaniladi. Ushbu qismda turli tashkilot turlarida ichki audit tomonidan aniqlangan muammolar va ularga qo‘llanilgan yechimlar tahlil qilinadi.

1. Davlat muassasalari:



2-rasm. Davlat muassasalarida ichki audit jarayonida turli muammolar aniqlash.

Sog'liqni saqlash tashkilotlari:



3-rasm. Sog'liqni saqlash tashkilotlarida Ichki audit jarayonida turli muammolar aniqlash.

Mahalliy hukumatlar:



4-rasm. Mahalliy hukumatlar ichki audit jarayonida turli muammolar aniqlash.

Grafik tavsifi

Grafikda turli tashkilot turlarida ichki audit tomonidan aniqlangan muammolar soni va qo‘llanilgan samarali yechimlar soni solishtiriladi. Jadval shaklida:

- Davlat Maktablari 12 ta muammo aniqlangan, 10 ta samarali yechim qo‘llanilgan.
- Sog'liqni Saqlash Tashkilotlari 20 ta muammo aniqlangan, 18 ta samarali yechim qo‘llanilgan.
- Mahalliy Hukumatlar 8 ta muammo aniqlangan, 6 ta samarali yechim qo‘llanilgan.



5-rasm. Ichki audit tamonidan aniqlangan muammolar va ularga qo’llanilgan yechimlar.

Bu ma'lumotlar grafik orqali taqdim etilgan bo‘lib, grafikda muammolar va yechimlar soni ko‘rsatilgan barlar mavjud. Har bir tashkilot turining ustunlari ranglar bilan ajratilgan, aniqlangan muammolarni ko‘k rangda, qo‘llanilgan

yechimlarni yashil rangda ko'rsatilgan. Har bir bar ustida tegishli sonlar yozilgan bo‘lardi.

Bu grafik va tavsiflar ichki auditning samaradorligini va muammolarga qarshi qo‘llanilgan yechimlarning natijadorligini ko'rsatishga yordam beradi. Agar siz grafikni ko'rish yoki boshqa ma'lumotlarni olishni istasangiz, iltimos, menga xabar bering.

Ichki audit tizimni takomillashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilar:

Texnologiyalarni joriy etish: Texnologiyalarni joriy etish, ichki audit tizimini samarali va shaffof qilishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida audit jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish, shuningdek, moliyaviy va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish mumkin.

Ichki audit jarayonlarini yaxshilash bo'yicha takliflar

Kvalitativ ma'lumotlar tahlili, ichki auditorlar, moliyaviy menejerlar va boshqa kalit xodimlar bilan o'tkazilgan chuqur intervyular va fokus guruhlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu ma'lumotlar orqali aniqlangan asosiy takliflar quyidagilardir:

1. Avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari: Auditorlar va menejerlar bir ovozdan, hisobot tizimlarining avtomatlashtirilishi ichki audit jarayonlarini ancha tez va samarali qilishini ta'kidlaydilar. Masalan, moliyaviy operatsiyalar va hisobotlar real vaqt rejimida kuzatilishi, bu esa xatolar va noaniqliklarni tezda aniqlash imkonini beradi.

2. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili: Sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalari, katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib, muhim moliyaviy tendentsiyalarni va potentsial muammolarni aniqlashda yordam beradi. Fokus guruhlari, bu texnologiyalarning joriy etilishini ichki auditning samaradorligini oshirishda kalit omil sifatida ko'rsatmoqda.

Texnologiyalarni joriy etish orqali audit jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari

Texnologiyalarni joriy etish, ichki audit jarayonlarini quyidagi yo'llar bilan avtomatlashtirish imkoniyatini yaratadi:

Davriy auditlar uchun avtomatik eskizlar: Davriy auditlar uchun avtomatik eskizlar tuzish, ichki auditorlarga muntazam ravishda kerakli ma'lumotlarni to'plashda yordam beradi. Bu jarayon, auditning tezkorligini va samaradorligini oshiradi va auditorlarga ko'proq murakkab tahlillarga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Ushbu texnologiyalar va yondashuvlar orqali O‘zbekistondagi byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini yaxshilash va samaradorligini oshirish mumkin. Xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarni to'g'ri joriy etish va ularni audit jarayonlariga moslashtirish, tashkilotlar uchun katta foyda keltiradi.

Xorijiy tajribalardan foydalanish: ichki auditni takomillashtirish

Xorijiy tajribalar, O‘zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qimmatli yondashuvlar va texnologiyalarni taqdim etadi. Quyida ba'zi xorijiy mamlakatlarda ichki audit jarayonlarini yaxshilashda qo‘llanilayotgan texnologiyalar va yondashuvlar misollar keltirilgan:

Avstraliya: Raqamli audit platformalari

- Tajriba: Avstraliyada davlat sektori ichki auditini takomillashtirish uchun keng qo‘llaniladigan raqamli platformalar mavjud. Masalan, "AuditBoard" kabi platformalar, ichki auditorlarga audit jarayonini boshqarish, hisobotlarni avtomatik ravishda tuzish va audit dalillarini saqlash imkoniyatini beradi.

- Afzalliklari: Bu yondashuv, audit jarayonining tezkorligini va samaradorligini oshiradi, shuningdek, hisobot berish jarayonini standartlashtiradi va xatolarni kamaytiradi.

Germaniya: Sun'iy intellektga asoslangan tahlil

- Tajriba: Germaniyada ko‘plab yirik tashkilotlar sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalaridan foydalanishadi. Bu texnologiyalar, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi va auditorlarga muhim moliyaviy tendentsiyalarni va potentsial muammolarni tezda aniqlashga yordam beradi.

- Afzalliklari: AI asosidagi tahlil vositalari, ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish imkonini beradi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini yaxshilaydi va ichki auditni yanada samarali qiladi.

Buyuk Britaniya: Ichki audit standartlari

- Tajriba: Buyuk Britaniyada ichki audit standartlari juda qat'iy, bu standartlar ichki auditorlarning mustaqilligini va ob'ektivligini ta'minlashga qaratilgan. Misol uchun, "The Chartered Institute of Internal Auditors" tomonidan belgilangan standartlar.

- Afzalliklari: Bu qat'iy standartlar tufayli, ichki audit tizimi ishonchli va adolatli bo‘lib, tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ushbu xorijiy tajribalar O‘zbekistondagi ichki audit tizimini takomillashtirishda foydali bo‘lishi mumkin, chunki ular zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qonunchilikni yaxshilash, ichki auditorlarning malakasini oshirish va audit jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

0
2
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi PF-5147-son «O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz
‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori/ www.lex.uz
1
1
-
e
n
t
brdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni

YASHIL INVESTITSIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING SHAFFOFLIGI: IFRS ASOSIDA TAHLIL

Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Yashil iqtisodiyotga o‘tish global miqyosda ekologik muammolarga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda yashil investitsiyalar – qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza texnologiyalar va uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan loyihalarga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar – asosiy o‘rin tutadi. Ushbu investitsiyalarning samaradorligi va ishonchliligini ta’minlashda moliyaviy hisobotning shaffofligi muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bu borada asosiy vosita sifatida ko‘riladi. Ushbu maqolada yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda IFRS asosida moliyaviy hisobot shaffofligining roli, uning afzalliklari va amaliy misollar statistika ma’lumotlar bilan tahlil qilinadi.

Yashil investitsiyalar va moliyaviy shaffoflik zarurati. Yashil investitsiyalarning o‘sishi global iqtisodiyotda muhim tendensiyaga aylandi. Masalan, Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda global miqyosda qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar 435 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2021 yilga nisbatan 16% ga yuqori. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda sezilarli o‘sish kuzatilmoqda: 2023 yilda “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga 1,2 milliard dollar investitsiya jalb qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 2023).

Lekin yashil investitsiyalarning murakkab tabiati – uzoq muddatli foyda, yuqori boshlang‘ich xarajatlar va ekologik ko‘rsatkichlarga bog‘liqlik – investorlardan yuqori darajadagi ishonch va shaffoflikni talab qiladi. Moliyaviy hisobotning shaffofligi investorlarga loyihalarning moliyaviy samaradorligi, xavflari va ekologik ta’sirini baholash imkonini beradi. IFRS standartlari esa bu ma’lumotlarning xalqaro miqyosda tushunarli va taqqoslanadigan bo‘lishini ta’minlaydi.

IFRS va yashil investitsiyalar: asosiy tamoyillar. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (International Financial Reporting Standards, IFRS) kompaniyalarga moliyaviy ma’lumotlarni ochiq, aniq va standartlashtirilgan shaklda taqdim etishni talab qiladi. Yashil investitsiyalar kontekstida IFRS ning muhim elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. IFRS 7 – Moliyaviy instrumentlar: oshkor qilish. Yashil obligatsiyalar (green bonds) yoki qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga qaratilgan kreditlar kabi moliyaviy instrumentlarning xavflari va daromadliligini ochiq ko‘rsatish.
2. IAS 1 – Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish. Kompaniyalarning ekologik loyihalarga ajratilgan mablag‘lari va ularning moliyaviy natijalari haqida batafsil ma’lumot berish.

3. IFRS 13 – Odilona qiymatni o‘lchash. Yashil aktivlar (masalan, shamol elektr stansiyalari yoki quyosh panellari) qiymatini aniq baholash.

IFRS yashil investitsiyalarning ekologik va moliyaviy ta’sirini birlashtirishga yordam beradi. Masalan, 2022 yilda Yevropa Ittifoqida yashil obligatsiyalar bozori 500 milliard yevroga yetdi, bu esa asosan IFRS ga asoslangan shaffof hisobot tizimi bilan ta’minlandi (European Commission, 2023).

O‘zbekistonda yashil investitsiyalar va IFRS: amaliy tahlil. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha 2019-2030 yillar strategiyasi qabul qilingan (PQ-4477, 04.10.2019). Ushbu strategiyada qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2030 yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishning 25% ga yetkazish maqsad qilingan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 12% ga yetdi (O‘zbekiston Energetika vazirligi, 2023), bu esa yashil investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda IFRS ni qo‘llash 2004 yildan boshlab joriy etilgan bo‘lib, 2021 yildan to‘liq kuchga kirdi (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2021). Bu kompaniyalarga yashil loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro investorlar ishonchini oshirish imkonini berdi. Masalan, 2022 yilda “Uzbekhydroenergo” AJ tomonidan 300 million dollarlik yashil obligatsiya chiqarildi, bu loyihaning moliyaviy hisoboti IFRS ga asoslanib tayyorlandi va xorijiy investorlardan (xususan, Yevropa tiklanish va rivojlanish banki – EBRD) ijobiy baho oldi.

Statistikaga ko‘ra, 2023 yilda O‘zbekistonda yashil investitsiyalarning umumiy hajmi 1,5 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 60% xorijiy investorlar hissasiga to‘g‘ri keladi (O‘zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, 2023). IFRS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar ushbu investorlarga loyihalarning shaffofligini ta’minlashda muhim o‘rin tutdi.

Afzalliklar:

1. Ishonch oshishi: IFRS shaffoflikni ta’minlab, xorijiy investorlarni jalb qilishni osonlashtiradi. Masalan, 2022 yilda global yashil obligatsiyalar bozorida IFRS qabul qilgan kompaniyalar 80% ga yaqin o‘sish ko‘rsatdi (Climate Bonds Initiative, 2023).
2. Xavflarni kamaytirish: Moliyaviy ma’lumotlarning aniqligi investorlar uchun xavflarni baholashni osonlashtiradi.
3. Xalqaro integratsiya: IFRS kompaniyalarning ma’lumotlarini global standartlarga moslashtirib, eksport va xamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muammolar:

1. Joriy etish qiyinchiliklari: O‘zbekistonda ko‘plab kichik va o‘rta korxonalar (KO‘K) IFRS ni to‘liq qo‘llash uchun yetarli resurslarga ega emas. 2022 yilda KO‘Klarning faqat 35% IFRS ga o‘tdi (O‘zbekiston Moliya vazirligi, 2022).
2. Ekologik ko‘rsatkichlarning cheklanganligi: IFRS hozircha uglerod emissiyasi kabi ekologik omillarni to‘liq aks ettirish uchun maxsus standartlarni ishlab chiqmagan.

Xulosa va takliflar

Yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy hisobotning shaffofligi, ayniqsa IFRS asosida, muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bu standartlarning qo‘llanishi xorijiy kapitalni jalb qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishda samarali vosita bo‘lmoqda. 2023 yilda yashil

investitsiyalarning 1,5 milliard dollarga yetishi va ularning 60% xorijiy investorlar tomonidan moliyalashtirilishi bunga misoldir.

Takliflar:

1. IFRS ni kichik va o‘rta biznesga moslashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish (masalan, treninglar va subsidiyalar).
2. Yashil investitsiyalar uchun ekologik ko‘rsatkichlarni (uglerod izi, energiya samaradorligi) hisobga olishga qaratilgan maxsus IFRS modullarini joriy etish.
3. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yashil loyihalarning shaffof moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish.

IFRS asosidagi shaffof moliyaviy hisobot yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi va O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu imkoniyatdan foydalanish strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. IRENA (2023). "Renewable Energy Investment Report 2022".
2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2023). "O‘zbekistonda yashil energiya loyihalari bo‘yicha yillik hisobot".
3. European Commission (2023). "Green Bond Market Analysis".
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2021, 2022). "IFRS joriy etish bo‘yicha milliy strategiya".
5. O‘zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (2023). "Investitsiyalar bo‘yicha yillik statistika".
6. Climate Bonds Initiative (2023). "Global Green Bonds Report".

ВНЕДРЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ И НЕОБХОДИМОСТЬ КЛИМАТИЧЕСКОЙ МАРКИРОВКИ БЮДЖЕТА

Тохиров Зиёдилла.
Студент 3-курса направления бакалавриата «Международные валютно-кредитные отношения»,ТГЭУ.
Нурмухамедова Барно Исмаиловна.
Доцент кафедры «Финансы и финансовые технологии», ТГЭУ

В условиях глобальных климатических изменений и усиления экологических вызовов все больше стран пересматривают свои бюджетные политики, внедряя принципы зеленого бюджетирования и климатической маркировки бюджета. Узбекистан, как страна с уязвимой экосистемой и растущей экономикой, также сталкивается с необходимостью адаптации к новым реалиям. Участие страны в международных климатических инициативах, таких как Парижское соглашение, требует пересмотра подходов к распределению бюджетных средств с учетом экологических приоритетов.

Анализ расходов государственного бюджета Республики Узбекистан за 2022–2024 годы позволяет выявить, насколько эффективно государство финансирует «зеленые» проекты и насколько готово к внедрению климатической маркировки. Это особенно важно в контексте бюджета на 2025 год, который должен стать важным и решающим шагом к устойчивому развитию.

Зеленое бюджетирование – процесс использования инструментов формирования бюджетной политики для достижения экологических и климатических целей, что включает в себя оценку воздействия бюджетной и налоговой политики на окружающую среду и оценку ее согласованности с выполнением национальных и международных обязательств.

Чтобы лучше интегрировать экологические вопросы в управление государственной политикой, «зеленый бюджет» фактически является новым инструментом, который будет обновляться и углубляться каждый год.

Это новая классификация бюджетных и налоговых расходов в зависимости от их воздействия на окружающую среду и определение государственных ресурсов экологического характера. Это позволяет оценить совместимость бюджета с обязательствами Франции, такими как Парижское соглашение (2015).

При зеленом бюджетировании необходимо учитывать воздействие государственных доходов и расходов, как положительные, так и отрицательные, в отношении 6 экологических Целей Устойчивого Развития:

- борьба с изменением климата;
- адаптация к изменению климата и предотвращение природных рисков;
- управление водными ресурсами;
- экономика «замкнутого цикла», переработка отходов и предотвращение технологических рисков;
- борьба с загрязнением воздуха;
- сохранение биоразнообразия и охрана природных, сельскохозяйственных и лесных территорий.

Узбекистан относится к числу стран, наиболее уязвимых к изменению климата, что предопределяет необходимость формирования и реализации последовательной климатической политики. В соответствии с принятыми в 2021 году обязательствами, Узбекистан намерен усилить меры и действия по борьбе с изменением климата, повысить в течение последующих 5-ти лет энергоэффективность экономики на 20 процентов, а также увеличить долю возобновляемых источников энергии до 25 процентов и тем самым снизить удельные выбросы парниковых газов на единицу ВВП на 35 процентов к 2030 году от уровня 2010 года.

С целью стимулирования интеграции климатических вопросов в бюджетное планирование и бюджетный процесс Министерством экономики и финансов Республики Узбекистан при поддержке Программы развития ООН и Агентства Франции (АТС) был реализован проект «Анализ государственных расходов и институциональная оценка в области изменения климата» (CPIER),

а также разработана методология идентификации расходов, связанных с климатом.

CPEIR является диагностическим инструментом, который позволяет проводить качественный и количественный анализ связи государственных бюджетных расходов с изменением климата, стратегическими планами в области климата и институциональной основой. Он дает возможность оценить потенциал и недостатки интеграции проблем, связанных с изменением климата, в процесс планирования и использования республиканского и местных бюджетов.

Далее в сотрудничестве с ПРООН и АТС была разработана методология «зеленой классификации» государственных бюджетных расходов в Узбекистане. В рамках исполнения Государственного бюджета за 2023 год классификация расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования осуществлялась с использованием данной методологии.

Под классификацией государственных бюджетных расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования понимается оценка государственных бюджетных расходов с точки зрения их воздействия на климат, изменения окружающей среды и в соответствии с бюджетной классификацией по принципам «зеленого» бюджетирования.

При классификации расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования в первую очередь определяются мероприятия, оказывающие положительное или отрицательное влияние на изменение климата и окружающую среду.

Мероприятия, оказывающие влияние на изменение климата и окружающую среду, делятся на три основные группы:

- мероприятия по смягчению последствий изменения климата;
- мероприятия по адаптации к изменению климата;
- прочие воздействия, связанные с вопросами окружающей среды.

Таблица 1

Разделение расходов по их влиянию на изменение климата и окружающую среду

Смягчение последствий	Расходы на предотвращение факторов, оказывающих негативное влияние на климат – финансирование мероприятий, направленных на сокращение выбросов парниковых газов.
Адаптация	Расходы на адаптацию к изменению климата – расходы, направленные на своевременную адаптацию к неизбежным последствиям изменения климата с целью предотвращения/минимизации возможных потерь и ущерба в национальной экономике и социальной сфере.
Смешанные расходы	Расходы на смягчение последствий изменения климата и адаптацию к ним.

Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №257 от 1 мая 2024 года утверждены «Меры по внедрению механизмов маркировки государственных бюджетных расходов в соответствии с Национальными Целями Устойчивого Развития и их влияния на изменение климата».

Данным постановлением утверждена Концепция маркировки государственных бюджетных расходов в соответствии с Национальными Целями Устойчивого Развития и их влияния на изменение климата.

Концепция разработана для определения концептуальных подходов к внедрению порядка маркировки государственных бюджетных расходов с точки зрения их соответствия национальным целям устойчивого развития и влияния на изменение климата.

Данная концепция охватывает следующие основные направления:

– охват, объект и уровень классификации;
– определение расходов;
– обеспечение соответствия мероприятий бюджетным данным;
– интеграция в бюджетные процессы;
– краткосрочные и долгосрочные меры по внедрению классификации расходов с точки зрения климата;
– классификацию расходов на основе национальных целей устойчивого развития.

Классификация расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования может рассматриваться как продолжение и расширение классификации расходов по их влиянию на климат. Для внедрения и применения классификации расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования предлагается поэтапный подход на основе следующих условий.

На втором уровне функциональной классификации, если невозможно напрямую определить влияние каждой бюджетной статьи на цели в области окружающей среды, используются дополнительные сведения о составе этих бюджетных статей.

Таблица 2

Этапы классификации расходов на основе принципов «зеленого» бюджетирования[168]

Первый этап	**Второй этап**
Каждая бюджетная статья оценивается с точки зрения ее влияния на цели в области окружающей среды, в том числе:	Бюджетные статьи группируются по следующим категориям:
– Расходы, оказывающие положительное влияние хотя бы на одну цель в области окружающей среды и не имеющие отрицательного воздействия; – Расходы, имеющие как положительное, так и отрицательное влияние на цели в области окружающей среды; – Расходы, оказывающие отрицательное влияние хотя бы на одну цель в области окружающей среды и не имеющие положительного воздействия.	

Далее приводится группировка расходов при их классификации на основе принципов «зеленого» бюджетирования.

[168] Информационное издание Министерства экономики и финансов «Бюджет для граждан - 2025 год». Источник: openbudget.uz

Категория «A»	Расходы, оказывающие положительное влияние хотя бы на одну цель в области окружающей среды и не имеющие отрицательного воздействия
Категория «B»	Расходы, имеющие как положительное, так и отрицательное влияние на цели в области окружающей среды
Категория «C»	Расходы, оказывающие отрицательное влияние хотя бы на одну цель в области окружающей среды и не имеющие положительного воздействия
Категория «D»	Расходы, оказывающие нейтральное влияние на все цели в области окружающей среды

Таблица 3

Классификация показателей расходов государственного бюджета за 2023-2025 годы на основе принципов «зеленого» бюджетирования, трлн сум[169]

Классификация	**2023 г. (исполнение)**	**%**	**2024 г. (утверждено)**	**%**	**2025 г. (прогноз)**	**%**
Всего	**281,1**	**100**	**312,9**	**100**	**344,6**	**100**
Категория «A»	39,1	13,9	32	10,2	26,4	7,7
Категория «B»	7,2	2,6	7,4	2,4	8,5	2,5
Категория «C»	0,9	0,3	2,4	0,8	1,3	0,4
Категория «D»	233,9	83,2	271,4	86,7	308,4	89,4

Анализ классификации расходов за 2023-2025 годы показывает, что основная часть бюджетных затрат относится к категории «D», то есть нейтральных по влиянию на климат, с долей более 80% ежегодно. При этом расходы по категории «A» (положительное влияние на климат) демонстрируют тенденцию к снижению: с 13,9% в 2023 году до 7,7% в 2025 году. Доля категорий «B» и «C» остается относительно стабильной и не превышает 3%. Это указывает на необходимость усиления мер по увеличению доли экологически ориентированных расходов для достижения устойчивого развития.

В результате проведенного анализа внедрения принципов «зеленого» бюджетирования и необходимости климатической маркировки бюджета в Узбекистане были выявлены ключевые тенденции и особенности финансирования, направленного на смягчение последствий изменения климата и адаптацию к ним. Основные результаты показывают, что в последние годы наблюдается рост объемов государственного финансирования климатически значимых расходов, однако их доля в общем бюджете остается ограниченной. Анализ структуры бюджетных расходов показал, что наибольшая часть средств направляется на нейтральные с точки зрения климата сферы (категория «D»), тогда как доля расходов с положительным воздействием (категория «A») остается сравнительно низкой. Введение климатической маркировки бюджета позволило детально классифицировать государственные расходы с точки зрения их влияния на устойчивое развитие и изменение климата.

[169] Бюджет для граждан 2025 год

Среди важных выводов можно отметить необходимость дальнейшей интеграции климатических приоритетов в бюджетное планирование с учетом международных стандартов «зеленого» бюджетирования. Введение системы климатической маркировки бюджета является важным шагом для повышения прозрачности государственных расходов и эффективности климатической политики.

Несмотря на положительные изменения, требуется совершенствование нормативно-правовой базы для более точного определения климатически значимых расходов. Также, нужно добиваться увеличения финансирования проектов, направленных на сокращение выбросов парниковых газов и адаптацию к изменению климата, разработку более детализированных методик учета климатически значимых расходов в государственном бюджете, усиление межведомственного сотрудничества в вопросах зеленого бюджетирования для повышения эффективности распределения средств, а также активное привлечение международных финансовых институтов и инвесторов для реализации климатических программ и проектов.

Список использованной литературы

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 1 мая 2024 года № 257 «О мерах по внедрению механизмов маркировки государственных бюджетных расходов в соответствии с национальными целями устойчивого развития и воздействием на изменение климата».
2. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Отчет по анализу государственных расходов в сфере изменения климата, 2024.
3. Всемирный банк. Зеленое финансирование и устойчивое развитие: международные практики и рекомендации. – Вашингтон, 2022.
4. Беленчик А. В. Зеленое бюджетирование: мировой опыт – URL: https://www.nifi.ru/images/FILES/NEWS/2021/Belenchyk_89042021.pdf.
5. Информационное издание Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан. Бюджет для граждан: исполнение за 2024 год.
6. Информационное издание Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан. Бюджет для граждан - 2025 год.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ochilov Farxodjon Shavkatjon o’g’li
“Audit”kafedrasi dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

So’nggi yillarda global ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning tugashi kabi xavf-xatarlar tobora ortib bormoqda. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotni barqaror va ekologik

jihatdan do'stona rivojlantirish zaruriyatini anglab yetmoqda. O'zbekistonda ham bu masalalar juda muhim bo'lib, “yashil iqtisodiyot” kontseptsiyasi asosida rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ushbu jarayonning muhim komponentlaridan biri "yashil buxgalteriya hisobi" (YBH) hisoblanadi. O'zbekistonda uni tatbiq qilishning asosiy omillari bilan tanishilmoqda. “Iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini o’lchash va hisobot berish usuli hisoblangan “yashil buxgalteriya” ga (green accounting) o’tish [1]”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida bosqichma bosqich amalga oshirish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Birinchi, yashil buxgalteriya hisobi tushinchasiga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, bu korxonalar va tashkilotlarning faoliyatida ekologik jihatlarni inobatga olgan holda moliyaviy hisobotlarni yuritish tizimi. Bu tizim korxonalarning ekologik ta'sirini baholash, tabiiy resurslardan foydalanishni kuzatib borish, chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish va hisobot berish maqsadini o'z ichiga oladi. YBH orqali tashkilotlar o'z faoliyatlarini ekologik standartlarga moslashtiradi va ekologik javobgarlikni oshiradi. Ushbu muqaddima O’zbekiston Respublikasida tabiiy resusrlar va ekotizim xizmatlarini iqtisodiy nuqtai nazardan hisoblash va baholashga qaratilgan yashil buxgalteriya hisobini yoritib beradi.

Bir qator rivojlangan davlatlar bu tendensiyalarni bosib o’tgan bo’lsa, boshqa davlatlarda hali hamon davom etib kelmoqda. Bunga butun dunyoni diqqatini tortayotgan Xitoy va Yaponiya davlatlarini misol qilishimiz mumkin. Aholi zichligi bo’yicha boshqa davlatlarga qaraganda yetakchi o’rinlarni egallaydi. Xitoy hukumatining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari doirasida yashil buxgalteriya joriy etilgan. Bu strategiyalar tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash, ekologik zararni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Davlat tashkilotlari va kompaniyalar uchun yashil hisobotlarni tayyorlash va moliyaviy hisobotlarida ekologik ko‘rsatkichlarni kiritish majburiyati belgilangan. Yashil buxgalteriya tizimlari tabiiy resurslar va ekologik kapitalning qiymatini hisoblashga qaratilgan. Bu tizimlar orqali o‘rmonlar, suv resurslari, havoning sifati va boshqa tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymati aniqlanadi. Ekologik zararlarni moliyaviy hisobotlarga kiritish orqali iqtisodiy faoliyatlarning salbiy ta'sirini hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Yashil buxgalteriya tizimlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Ma'lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va hisobotlarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar qo‘llaniladi. Yashil buxgalteriya jarayonlarida energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan innovatsiyalar keng qo‘llaniladi.

Atrof-muhitga ta'sirni moliyaviy baholash: Bu yo'nalishda korxonalarning atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirlari, masalan, chiqindilar, atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar va boshqa ekologik zararlar moliyaviy qiymatga ega bo'lib, buxgalteriya hisobotlariga kiritiladi.

Resurslardan foydalanishni tahlil qilish: Bu yo'nalishda korxonalar tabiiy resurslardan qanchalik samarali foydalanayotganini tahlil qiladi va bu resurslarning iqtisodiy jihatdan qayta tiklanishini hisoblab chiqadi.

Yashil buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash muhimdir. Bu

yo'nalishda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlari orqali maxsus kurslar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Yashil buxgalteriya hisobi atrof-muhitga oid xarajatlar va imtiyozlarni o'z ichiga olgan holda tadbirkorlik yoki iqtisodiy faoliyatining to'liqroq ko'rinishini ta'minlashga qaratilgan. Yashil buxgalteriya hisobining ayrim o'ziga xos xususiyatlari quyidagi rasmda yoritib berilgan (1-rasm).



1-rasm. Yashil buxgalteriya hisobining o’ziga xos xususiyatlari[170]

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko’rishimiz mumkinku, yashil buxgalteriya hisobi iqtisodiy va atrof-muhit salomatligi o'rtasidagi muhim bog'liqlikni tan olish orqali xo’jalik yurituvchi subyektlar boshqaruviga yanada barqaror yondashuvni ta’minlab beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo’jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilishga qaratilgan chora-tadbirlar qamrovini yanada kengaytirish natijasida moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasini yanada oshirish imoniyatlari paydo bo’ladi.

1. Yashil buxgalteriya hisobini yuritish davomida atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni hamda ularni qayta tiklash bilan bog'liq xarajatlarni muntazam kuzatib borish, masalan, ifloslanish, resurslarning kamayishi va chiqindilarni boshqarish kabilarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yashil buxgalteriya hisobida turli atrof-muhit bilan bog’liq jarimalar, tozalash xarajatlari yoki atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari bilan bog'liq xarajatlar kabi kelgusidagi potentsial baholangan majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy hamda shaffof yoritib berishga xizmat qiladi.

2. Yashil buxgalteriya hisobi qayta ishlash, ekologik toza mahsulotlarni sotish va yashil texnologiya kabi ekologik jihatdan foydali faoliyatdan olingan daromadlar

[170] Muallif ishlanmasi

hisobini ham yuritishni taqozo qiladi. Shu bilan birga yashil buxgalteriya hisobi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga berilgan subsidiyalarning, soliq imtiyozlarning va ekologik amaliyotlar uchun kreditlarning buxgalteriya hisobini oqilona yuritishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi "Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategiyasi" (2022).
2. Paul Ekins, "Policies for low-carbon 'green' growth", Environmental Scientist (2012),7 29-35.
3. Robert G. Eccles, Ioannis Ioannou, and George Serafeim "The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance", Management Science (2014), 23, 2835-2857
4. Robert Repetto,William Magrath, Michael Wells, Christine Beer, Fabrizio Rossini "Wasting Assets: Natural Resources in the National Income Accounts" (1989).
5. Xalilov Sherzod Axmatovich, Green Accounting In Uzbekistan: Necessity, Challenges, And Opportunities, Scientific Journal of "International Finance & Accounting" (2024)
6. https://uzbekistan.unfpa.org.
7. https://www.worldbank.org.

MOLIYAVIY INSTRUMENTLARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti PhD.

Qishloq xo'jaligi har qanday davlat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun samarali moliyaviy mexanizmlar zarur. So'nggi yillarda dunyo bo'ylab yashil moliyalashtirish instrumentlari qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston ham resurslarni tejash, ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish maqsadida xalqaro moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

An'anaviy qishloq xo'jaligini moliyalashtirish usullari ko'pincha yuqori kredit foizlari, kapital yetishmovchiligi va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bunday sharoitda yashil moliyalashtirish instrumentlari sifatida yashil obligatsiyalar, imtiyozli yashil kreditlar, xalqaro grantlar, karbon kreditlari, xususiy investitsiyalar va ekologik sug'urta tizimlari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu instrumentlar orqali resurslarni tejash, qishloq xo'jaligidagi

uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishni modernizatsiya qilish jarayonida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, sug‘urta va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi sohasi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi har qanday davlat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun samarali moliyaviy mexanizmlar zarur. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab yashil moliyalashtirish instrumentlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston ham resurslarni tejash, ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish maqsadida xalqaro moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

An’anaviy qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish usullari ko‘pincha yuqori kredit foizlari, kapital yetishmovchiligi va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Bunday sharoitda yashil moliyalashtirish instrumentlari sifatida yashil obligatsiyalar, imtiyozli yashil kreditlar, xalqaro grantlar, karbon kreditlari, xususiy investitsiyalar va ekologik sug‘urta tizimlari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu instrumentlar orqali resurslarni tejash, qishloq xo‘jaligidagi uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishni modernizatsiya qilish jarayonida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, sug‘urta va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi sohasi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yashil moliyalashtirish deganda ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o‘zgarishlari ta'sirini yumshatish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiruvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan moliyaviy instrumentlar tushuniladi. Qishloq xo‘jaligi sohasida bunday yondashuvning joriy etilishi nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilashga, balki fermerlar va agrobiznes vakillari uchun yangi imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qiladi.

Yashil moliyaviy instrumentlarning qishloq xo‘jaligiga tatbiq etilishi soha taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab beradi. Bu jarayonda yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish uchun kreditlar, karbon bozori mexanizmlari, maxsus ekologik fondlar va boshqa innovatsion moliyalashtirish usullari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu

instrumentlar orqali qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishning an'anaviy tizimidan ekologik barqarorlikni ta'minlovchi zamonaviy yondashuvlarga o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Yashil moliyalashtirish – bu ekologik jihatdan foydali va barqaror loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Global miqyosda bu tendensiya Parij iqlim bitimi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog'liq. 2015-yildan so‘ng jahon moliya bozorida yashil moliyaviy instrumentlarga qiziqish sezilarli darajada ortdi.

Xalqaro moliya institutlari, xususan Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki va Yevropa Investitsiya banki kabi tashkilotlar qishloq xo‘jaligida yashil moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligida yashil moliyalashtirish hajmining yildan-yilga o‘sib borishiga olib kelmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-2024 yillar davomida global yashil obligatsiyalar bozori hajmi ikki baravarga oshgan. Bu tendensiya qishloq xo‘jaligi sektorida ham kuzatilmoqda, bunda barqaror fermer xo‘jaliklari, organik qishloq xo‘jaligi va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish loyihalari asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi(1-rasm).



1-rasm. Yashil obligatsiyalar chiqarilishi (mlrd AQSh dollari)[171]

Ushbu ma’lumotlar global yashil obligatsiyalar bozori 2020-yildan boshlab barqaror o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. 2021-yilda yashil va ijtimoiy obligatsiyalar chiqarilishi 859 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, ekologik muammolarni hal qilish va yashil energetikaga sarmoya kiritishga yo‘naltirilgan. 2022-yilda esa yashil obligatsiyalar chiqarilishi 1,100 milliard AQSh dollariga yetdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1,500 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda, 2024-yil uchun esa 1,700 milliard AQSh dollari prognoz qilinmoqda(*2024-yil hisobotlari hali e’lon qilinmadi*).

Shu o‘rinda Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq xo‘jaligini yashil moliyaviy instrumentlarni yordamida moliyalashtirish tajribalarini

[171] https://treasury.worldbank.org/en/about/unit/treasury/impact/impact-report

tahlil qilsak:

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan subsidiyalar, grantlar va kreditlar orqali amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqi yashil moliyalashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy mexanizmlarni qo‘llaydi:

Yashil subsidiyalar – Fermerlar ekologik toza dehqonchilik texnologiyalaridan foydalanishi uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, organik dehqonchilik, qayta tiklanadigan energiya, suv tejovchi texnologiyalar va tuproqni barqaror boshqarish usullari bo‘yicha subsidiyalar mavjud.

Grant dasturlari – Yevropa Ittifoqi 2021-2027 yillar uchun “Common Agricultural Policy” (CAP) dasturi doirasida ekologik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun 387 milliard yevro miqdorida moliyaviy yordam ajratgan. Bu mablag‘ fermerlarga innovatsion ekologik texnologiyalarni joriy qilish va uglerod neytralligiga erishish uchun taqdim etilmoqda.

Past foizli yashil kreditlar – Fermerlar ekologik barqaror loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kreditlardan foydalanishi mumkin. Masalan, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda banklar fermerlar uchun suvni tejash, energiya tejovchi texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish kabi loyihalar uchun yashil kreditlar ajratadi.

AQShda qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar va uglerod kreditlari tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu moliyaviy instrumentlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini barqaror energiya manbalaridan foydalanishga va chiqindilarni kamaytirishga rag‘batlantiradi.

Yashil kredit dasturlari – AQSh qishloq xo‘jaligi departamenti (USDA) tomonidan Quyosh panellari, shamol energiyasi, energiya tejovchi sug‘orish tizimlari va chiqindisiz ishlab chiqarish loyihalari uchun maxsus kreditlar ajratiladi.

Uglerod kreditlari bozori – Fermerlar o‘rmonlarni muhofaza qilish, organik dehqonchilik, biogaz ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlash orqali uglerod chiqindilarini kamaytirib, uglerod kreditlari orqali qo‘shimcha daromad oladi.

Yashil obligatsiyalar – AQShda barqaror qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish uchun ko‘p yillik yashil obligatsiyalar chiqariladi. Ushbu mablag‘lar fermerlarning barqaror suv ta’minoti va ekologik texnologiyalarni joriy qilishiga yordam beradi.

Yaponiyada ekologik va texnologik qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga katta e’tibor qaratiladi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar, subsidiyalar va texnologik grantlar ajratiladi.

Qishloq xo‘jaligida robototexnika va avtomatlashtirish – Yashil obligatsiyalar orqali fermerlar aqlli issiqxonalar, gidroponika va tomchilatib sug‘orish tizimlari kabi texnologiyalarni joriy etadi.

Uglerod chiqindilarini kamaytirish dasturlari – Fermerlar organik o‘g‘itlar va biologik himoya vositalaridan foydalanishi uchun moliyaviy rag‘batlantirishga ega.

Ekologik dehqonchilik grantlari – Yaponiyada ekologik toza qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qaytarib berilmaydigan grantlar beriladi.

Hindistonda kichik fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun mikromoliyalashtirish tizimi rivojlangan. Fermerlar ekologik toza texnologiyalarni

joriy etish uchun kichik miqdordagi yashil kreditlar va subsidiyalar oladi.

Mikrokredit dasturlari – Hindistonning National Bank for Agriculture and Rural Development (NABARD) orqali fermerlarga energiya tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish tizimlari va ekologik o‘g‘itlar xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar beriladi.

Agrobank grantlari – Fermerlarga organik dehqonchilik va agroforestriyani rivojlantirish uchun qaytarilmaydigan grantlar ajratiladi.

Keniyada mobil banking va iqlim sug‘urtasi orqali fermerlar ekologik qishloq xo‘jaligi loyihalariga moliyaviy yordam oladi.

Mobil banking orqali yashil kreditlar – Keniyada qishloq xo‘jaligi moliyalashtirishining 70% mobil ilovalar orqali amalga oshiriladi.

Iqlim sug‘urtasi – Fermerlar qurg‘oqchilik yoki haddan tashqari yog‘ingarchilik tufayli hosil yo‘qotishlarining oldini olish uchun maxsus sug‘urta tizimidan foydalanadi.

Braziliyada qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish agroforestriya, ekologik himoya va chiqindisiz texnologiyalarga asoslangan.

Yashil kredit dasturlari – Fermerlarga o‘rmonlarni saqlash, bioyoqilg‘idan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash uchun yashil kreditlar beriladi.

Ekologik qishloq xo‘jaligi investitsiyalari – Davlat va xalqaro investorlarga barqaror qishloq xo‘jaligi loyihalariga sarmoya kiritish uchun imtiyozli shartlar yaratadi.

Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish dunyo miqyosida turli xil moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar barqaror yashil obligatsiyalar, iqlimga mos kreditlar va subsidiyalar orqali qishloq xo‘jaligidagi ekologik loyihalarni moliyalashtirsa, rivojlanayotgan mamlakatlar asosan mikrokreditlar, mobil moliyalashtirish va xalqaro grantlardan foydalanadi. Ushbu mamlakatlar tajribasini o‘rganish O‘zbekiston uchun ham kelajakda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishda yashil moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligini yashil moliyalashtirish turli moliyaviy mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yashil obligatsiyalar, uglerod bozorlari va davlat subsidiyalarini rivojlantirgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar mikrokreditlar, mobil banking va agrobank tizimlari orqali yashil moliyalashtirishni rivojlantirishga harakat qilmoqda. O‘zbekiston ushbu tajribalardan o‘rganib, yashil kreditlar, xalqaro grantlar va uglerod bozorlari orqali qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Операцион аудитнинг стратегик модели

Якубов Матрасул Мавлонбердиевич
“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси катта ўқитувчиси, БМА

Турли хил мулкчилик шаклига эга бўлган хўжалик юритувчи субъектларни операцион аудитдан ўтказишни режалаштиришнинг мантиқий

якуний босқичи шундай турдаги аудиторлик топшириқнинг стратегик моделини, шунингдек, ўтказиладиган аудиторлик текширувининг тўлиқ цикли учун жорий режа ва дастурларини ишлаб чиқиш ҳисобланади (1- расм).



1-**расм Операцион аудитнинг стратегик модели**

Операцион аудитнинг стратегик модели таркибига аудиторлик ташкилотлари томонидан аудиторлик топшириғини бажариш учун тайёрланган режалар, дастурлар ва услубий воситалар тўплами киради. Бошқача айтганда, стратегик режалаштириш босқичида аудиторлик ташкилоти яратадиган стратегик модел текшириладиган ташкилот фаолиятининг мақсадли йўналишига ёки операцион аудитни режалаштиришнинг дастлабки босқичида аниқланган муаммо бўйича қабул қилинган аниқ аудиторлик топшириқига мувофиқ келадиган бутун аудиторлик текширувининг умумий стратегик режаси ва тадқиқот воситасини ўз ичига олади.

Ушбу босқичдаги асосий жиҳат шундан иборатки, операцион аудит тадқиқотлари биринчи навбатда аудиторлик текширувидан ўтадиган ташкилот фаолиятининг самарали ривожланишининг узоқ муддатли истиқболига йўналтирилганлиги ва бунинг натижасида, унинг давомийлиги аудит натижалари асосида ишлаб чиқилган бошқарув тавсияларини жорий

қилишдан олинадиган натижага эришилгунча бўлган даврга қадар давом этади.

Операцион аудитнинг натижага асосланган таркибий қисми маълум даражада, аудит қилинаётган хўжалик юритувчи субъектнинг мақсадли йўналишлари ёки ўтказилиши мўлжалланган аудит топшириғига мос келишини ҳисобга олади ҳамда уларга тадбиркорлик субъекти томонидан эришиш самарадорлигини оширади. Шу сабабдан, операцион аудитнинг стратегик моделигини ўринли равишда ишлаб чиқиши учун стратегик режалаштириш босқичида аудитор текширилаётган субъектнинг мақсадли йўналишини баҳолаши лозим.

Бундай тадқиқотлар натижасида олинган маълумотлар кутилаётган аудитнинг асосий йўналишларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, шунингдек тўлиқ аудит даврини қамраб олувчи батафсил тадқиқот жараёнинг услубий ёндашувларни ишлаб чиқишга имкон беради.

Юқорида таъкидлангандан келиб чиқиб, стратегик режалаштириш босқичида аудиторлик ташкилоти амалга ошириладиган аудит тадқиқотининг стратегик моделини ишлаб чиқиш жараёнига алохида эътибор бериши лозим, тадқиқот, биринчи навбатда, хўжалик юритувчи субъектининг мақсадли йўналишларига ёки аниқ бир аудит топшириқларига асосланган бўлиши керак. Шу билан бирга, аудит натижалари асосида ишлаб чиқилган ташкилот бошқарувига доир келгусида бажарилиши лозим бўлган тавсияларни амалда қўллаш имкониятлари шу текширувдан ўтган (аудитланган) субъект томонидан ўринли равишда бахоланмаса келтирилган тавсиялардан кутилган натижага эришиш имконияти пасаяди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қиладиган бўлсак, текширилаётган корхонанинг мақсадли иерархик моделини ўрганиш натижалари келгусидаги аудит ишининг энг муаммоли ва муҳим йўналишларини аниқлаш имконини беради. Бу, ўз навбатида, аудиторлик ташкилотига бутун аудит даврининг мақсадли иерархик моделини аниқлаш ва тасдиқлаш имконини беради.

Шундай қилиб, стратегик режалаштириш босқичида олиб бориладиган аудит ишларининг такомиллаштирилиши, аудиторга бажарилган топшириқнинг аниқ тадқиқот йўналишларига ва уни бажариш муддатига бўлиб, бутун аудит даврини оптималлаштиришга имкон беради. Шу билан бирга, стратегик режалаштириш босқичида, шунингдек, аввалги босқичларда олинган барча маълумотлар тегишли равишда расмийлаштирилиши ва келгусида операцион аудит учун объектлар ва предметлар бўйича таснифланиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Hernan Murdock. Operational Auditing, Second Edition Principles and Techniques for a Changing World. Second edition published 2022 by CRC Press. p. 379

2. Аудит Монтгомери/Ф.Л.Дефлиз, Г.Р.Дженик, В.М.О` Рейлли, М.Б.Хирш: пер. с анг.; под ред. Я.В.Соколова. М: ЮНИТИ, 1997. -24 с

3. Alvin A. Arens, Randal J. Elder, Mark S. Beasley. Auditing and Assurance Services: an integrated approach. – 14 ed., 2012. – 850 p.

4. Робертсон Дж. Аудит. Перев. С англ. –М.: KPMG, Аудиторская фирма «Контакт», 1993. – 496 с.

5. Ситнов А.А. Операционный аудит: теория и организация: учебная пособие. – 2-е изд., испр. и доп. – М., 2017. – 240 с.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida amortizatsiya ajratmalarni audit qilish zaruriyatlari

Xatamov Kobil Xayriyevich
“International School of Finance Technology and Science” Instituti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasining v.b. professori, PhD,

Korxonalarda asosiy vositalarni doimiy modernizatsiya qilib borish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada O‘zbekistonda ma’lum ishlar amalga oshirilgan, shu jumladan, Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish borasida muhim vazifalar belgilangan.

Modernizatsiyalash sharoitida mahsulotlarni tannarxini, shuningdek, tashkilotning moliyaviy natijalarini to‘g‘ri va ishonchli aniqlash uchun amortizatsiya ajratmalarini hisoblashni va hisobga olishni to‘g‘riligi ustidan nazoratni muntazam ravishda, amalga oshirish lozim. Ushbu nazorat ham tashqi, ham ichki auditorlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, tegishli operatsiyalar bosh buxgalter va ushbu uchastkaga javobgar shaxslar tomonidan nazorat qilinadi.

Tayyorgarlik bosqichida tekshirish rejasi va dasturi tuziladi.

Rejaga quyidagi savollar kiritiladi:

- hisob siyosatini mavjudligi;
- asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini, shuningdek, aylanma mablag‘lar tarkibida buxgalteriya hisobiga qabul qilishda buyumlar qiymatining chegarasi hisob siyosatida aks ettirilishi;
- tekshirilayotgan davrda hisob siyosatida belgilangan amortizatsiya ajratmalari hisoblash usullariga, shuningdek, amortizatsiya summasi hisob-kitob qilish tartibiga rioya qilishi;

- amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda barcha obyektlar hisobga olinganligi;
- buxgalteriya hisobi maqsadlarida amortizatsiya ajratmalari hisoblashda 5-sonli BHMS ning 35-bandida nazarda tutilgan asosiy vositalar qo‘shilganligini. Yer uchastkalariga amortizatsiya hisoblanmaydi. Shuningdek, quyidagi asosiy vositalarga ham amortizatsiya hisoblanmaydi:
- mahsuldor hayvonlarga;
- kutubxona fondlariga;
- xokimiyat qaramog‘idagi shaharni obodonlashtirish inshootlariga;
- qonunchilikda belgilangan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalarga;
- muzey qiymatliklariga;
- arxitektura va san’at yodgorliklariga;
- to‘liq eskirish hisoblangan asosiy vositalarga.

Bundan tashqari, auditor asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalari hisoblash bo‘yicha tashkilotda mavjud bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlar va registrlar bilan tanishib chiqishi hamda tekshirishga taqdim etilgan boshlang‘ich xujjatlar, registrlarni buxgalteriya hisobi bo‘yicha me’yoriy xujjatlarga mos kelishini auditorlik hisobotida yozib o‘tishi kerak.

Tashkilotning ichki auditorlari va boshqa mas’ul shaxslar tomonidan amortizatsiya ajratmalarini hisoblanishining to‘g‘riligini tekshirish materiallari bilan tanishib chiqqan auditor asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash va hisobga olinishini ishonchliligi uchun tashkilotning mas’ul shaxslari va ichki auditorlari tomonidan zaruriy nazoratning mavjudligi yoki mavjud emasligini auditorlik hisobotida yozib o‘tishi zarur.

Hisobot davrida hisob siyosatining mavjudligi yoki mavjud emasligini auditorlik hisobotida yozib o‘tish zarur.

Hisob siyosatini tahlil qilishda, unda hisobot davrida asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini, shuningdek, aylanma mablag‘lar tarkibida buxgalteriya hisobiga qabul qilishda buyumlar qiymatining chegarasini aks ettirilganligini aniqlash lozim. Bundan tashqari, asosiy vositalarning aniq bir turlari va guruhlariga nisbatan hisob siyosatini tanlash va amortizatsiya hisoblash usullaridan foydalanishning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish lozim.

Amortizatsiya hisoblashda barcha obyektlar hisobga olinganligi to‘g‘risidagi savolni tekshirayotganda asosiy vositalar obyektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari yozuvlari obyektlarni hisobga olishning inventar kartochkalari yozuvlari bilan solishtiriladi, inventar kartochkalari yozuvlari esa asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash qaydnomasi yozuvlari bilan solishtiriladi. Asosiy vositalar soni ko‘p bo‘lganda yuqorida ko‘rsatilgan solishtirish tanlab olish usuli bilan amalga oshiriladi. Keyin qaydnoma bo‘yicha asosiy vositalarning balans qiymati Bosh kitobning asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) bo‘yicha qiymatlarni amortizatsiya hisoblanmaydigan asosiy vositalar qiymatiga kamaytirilgan holdagi ma’lumotlari bilan taqqoslanadi.

Amortizatsiya hisoblashda to‘liq eskirish (100 foiz eskirish) hisoblangan obyektlar hisobga olinmaganligi to‘g‘risidagi savolni tekshirayotganda obyektning boshlang‘ich qiymati hisoblangan amortizatsiya summasi bilan solishtiriladi, agar ularni qayta baholash amalga oshirilmagan bo‘lsa. Agar qayta baholash amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda uning summalarini hisobga olish lozim.

Xo‘jalik su’bektlaridagi asosiy vositalarga amortizatsiya to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki amortizatsiya xarajatlari mahsulotning tannarx xarajatlariga qo‘shilib boriladi. Auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga asosan auditor tekshirishlar jarayonida, asosiy vositalarni kirim va chiqimlarini tegishli xujjatlar bo‘yicha to‘g‘ri rasmiylashtirganligini tekshiradi. Shu bilan birgalikda, mavjud kamchiliklar o‘z vaqtida to‘g‘irlanishi uchun tegishli ko‘rsatmalarini berib o‘tadi. Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarga o‘z vaqtida to‘g‘ri amortizatsiya hisoblanganligini tekshirish hisob siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi” to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-404-sonli 2016-yil 13-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-677-sonli 2021-yil 25-fevral.
3. BHMS 5- sonli standarti
4. Mirziyoyev Sh.M.”Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026-yillar” PF 60-sonli 28.01.2022-yil.
5. www.lex.uz

BYUDJET XARAJATLARINI SAMARADORLIGINI BOSHQARISH IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.

Jo’rayeva Zebo
BMA mustaqil tadqiqotchisi

Byudjet xarajatlari davlatning turli sohalariga (ta’lim, sog’liqni saqlash, infratuzilma, xavfsizlik va boshqalar) yo’naltirilgan mablag’larning umumiy miqdorini tashkil etadi. Samarali boshqarish esa, bu mablag’larning optimal taqsimlanishini, ularning foydaliligini va iqtisodiy o’sish uchun imkoniyat yaratishni anglatadi. Byudjet xarajatlarini samarali boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xarajatlarni eng samarali va ehtiyojlarga mos ravishda taqsimlash.
- Korruptsiya va isrofgarchilikni oldini olish.
- Davlatning iqtisodiy resurslarini boshqarishdagi ishonchlilikni oshirish.

Davlat byudjeti iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo’lib, uning tarkibi va samarali boshqarilishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Xususan, ta’lim, sog’liqni saqlash va ijtimoiy sohalarga

ajratiladigan xarajatlar inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish maqsad qilingan.

O'zbekistonda davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Sattoriy (2024) tomonidan o'tkazilgan empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim xarajatlarining 1% ga oshishi YaIM ning 5,4% ga o'sishiga olib keladi, YaIM ning 1% ga o'sishi esa ta'limga sarflanadigan mablag'larni 3,5% ga oshiradi. Shuningdek, Abduraximova va G'ulomjonov (2025) davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tarkibi va dinamikasini tahlil qilib, soliqlar va boshqa tushumlarning diversifikatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag'larning o'sishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2000-2023 yillardagi yillik ma'lumotlari asosida ekonometrik tahlil o'tkazildi. Asosiy e'tibor ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarga ajratiladigan byudjet xarajatlari bilan YaIM o'rtasidagi bog'liqlikka qaratildi. Engle-Granger kointegratsiya testi yordamida o'zaro bog'liqlik va uzoq muddatli munosabatlar tahlil qilindi.

Engle-Granger kointegratsiya testi natijalari quyidagi koeffitsientlarni ko'rsatdi:

1-jadval: Engle-Granger kointegratsiya testi natijalari

O'zgaruvchilar	Koeffisient	Standart xato	t-statitika
Ta'lim xarajatlari	5.4	0.5	10.8
Sog'liqni saqlash xarajatlari	2.1	0.3	7.0
Ijtimoiy xarajatlar	1.8	0.2	9.0

• Ta'lim xarajatlari va YaIM o'rtasidagi bog'liqlik: Ta'lim xarajatlarining 1% ga oshishi YaIM ning 5,4% ga o'sishiga olib keladi.

• YaIM va ta'lim xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik: YaIM ning 1% ga o'sishi ta'limga sarflanadigan mablag'larni 3,5% ga oshiradi. Shuningdek, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarga ajratiladigan xarajatlar ham YaIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning ta'siri kichikroq bo'lib, tegishli koeffitsientlar 2,1 va 1,8 ga teng.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga asoslanib, byudjet xarajatlarining samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi:

1. Sog'liqni saqlash sohasiga qilingan davlat xarajatlari:
• 2020-yilda: 19 397,2 mlrd so'm
• 2021-yilda: 23 316,8 mlrd so'm
• 2022-yilda: 27 288,3 mlrd so'm
• 2023-yilda: 31 066,6 mlrd so'm
2. Yalpi ichki mahsulot (YIM):
• 2020-yilda: 511 838,4 mlrd so'm
• 2021-yilda: 734 587,2 mlrd so'm
• 2022-yilda: 907 595,8 mlrd so'm
• 2023-yilda: 1 189 708,3 mlrd so'm
3. Ta'lim sohasiga qilingan davlat xarajatlari:

• 2020-yilda: 34 000 mlrd so‘m
• 2021-yilda: 38 000 mlrd so‘m
• 2022-yilda: 42 000 mlrd so‘m
• 2023-yilda: 46 000 mlrd so‘m

Ushbu ma’lumotlar asosida byudjet xarajatlarining samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblandi. Quyidagi jadvalda ushbu korsatkichlar keltirilgan:

1-jadval: Sog’liqni saqlash va ta’lim sohasida YaIMning ulushi

Ko’rsatkichlar	2020	202	2022	2023
Sog’liqni saqlash xarajatlari (mld so’m)	19397.2	23316.8	27288.3	31066.6
Ta’lim xarajatlari (mld so’m)	34000	38000	42000	46000
YaIM (mld so’m)	511838.4	734587.2	907595.8	1189708.3
Sog’liqni saqlash xarajatlarining YaIM dagi ulushi %	3.97	3.17	3.01	2.61
Ta’lim xarajatlarining YaIM dagi ulushi %	6.64	5.17	4.63	3.87
YaIM o’sish surati %	-	43.53	23.55	31.06
Sog’liqni saqlash xarajatlarining o’sish sur’ati %	-	20.21	17.04	13.86
Ta’lim xarajatlarining o’sish sur’ati %	-	11.76	10.53	9.52
Sog’liqni saqlash xarajatlari samaradorlik koeffitsienti	-	2.15	1.38	2.24
Ta’lim xarajatlari samaradorlik koeffitsienti	-	3.70	2.24	3.26

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, byudjet xarajatlari o‘sishi YIM o‘sishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, ayrim yillarda xarajatlarning o‘sishi samaradorlikka salbiy ta’sir qilgan.

• Byudjet mablag‘larini samarador tarmoqlarga yo‘naltirish
• Xarajatlarni natijaga bog‘liq boshqarish tizimini joriy etish
• Davlat investitsiyalarining monitoring tizimini kuchaytirish.



1-grafik — Byudjet xarajatlari va YIM o‘sishi dinamikasi:

• Ko‘rinib turibdiki, sog‘liqni saqlash va ta’lim xarajatlari yildan yilga oshgan, shu bilan birga YIM ham sezilarli o‘sish ko‘rsatgan.

2-grafik — Sog‘liqni saqlash va ta’lim xarajatlarining samaradorlik koeffitsiyenti:

• 2021-yilda ikkala soha ham yuqori samaradorlik ko‘rsatgan, lekin 2022-yilda samaradorlik pasaygan. 2023-yilda esa biroz tiklanish kuzatilgan.

• Byudjet xarajatlarining YIMdagi ulushi: Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga qilingan xarajatlarning YIMga nisbati hisoblandi.
• Samaradorlik koeffitsiyenti: YIM o‘sish sur’ati va byudjet xarajatlari o‘sish sur’ati nisbatini ko‘rsatadi.
• Sog‘liqni saqlash xarajatlari: 2021-yilda samaradorlik koeffitsiyenti 2,15 bo‘lib, 2022-yilda 1,38 ga pasaygan, ammo 2023-yilda yana 2,24 ga oshgan. Bu sog‘liqni saqlash xarajatlarining YIM o‘sishiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.
• Ta’lim xarajatlari: Samaradorlik koeffitsiyenti 2021-yilda 3,70 bo‘lib, 2022-yilda 2,24 ga pasaygan, lekin 2023-yilda 3,26 ga oshgan. Bu ta’lim xarajatlarining YIM o‘sishiga sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi.
Byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish uchun sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga qilingan investitsiyalarni davom ettirish zarur. Ushbu sohalarga qilingan xarajatlar YIM o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, xarajatlarning samaradorligini doimiy monitoring qilib borish va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.
1. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga investitsiyalarni oshirish: Ushbu sohalarga qilingan xarajatlar iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shuning uchun ularni davom ettirish lozim.
2. Xarajatlarning samaradorligini oshirish: Resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarning natijadordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2023). O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. Manba (https://www.stat.uz/)
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Davlat byudjeti xarajatlari hisobotlari. Manba (https://www.mf.uz/)
3. Barro, R. J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. Journal of Political Economy, 98(5), S103-S125.
4. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill Education.
5. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94.
6. Samuelson, P. A. (1954). The Pure Theory of Public Expenditure. The Review of Economics and Statistics, 36(4), 387-389.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. (2022). “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi”. Manba (https://lex.uz/docs/5841063)

ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Абидов М.И.
ТДИУ мустақил изланувчиси

Молиявий назорат бошқарувнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Илмий адабиётларда молиявий назоратнинг моҳиятини ёритиш учун белгиланган нормалар ва қоидаларни ҳисобга олган ҳолда молиявий ресурсларни шакллантириш, тақсимлаш ва улардан фойдаланиш билан боғлиқ молиявий муносабатлар орқали кўриб чиқишга асосланган турли хил ёндашувлар келтирилган.

Хусусан, Н.С.Матвеева молиявий назорат хусусида тадқиқотлар олиб бориб, қуйидаги хулосага келган: “молиявий назорат давлат бошқаруви тизимининг муҳим қисмига айланди, янги назорат вазифалари пайдо бўлди. Бюджет маблағларидан мақсадли ва қонуний фойдаланилишини назорат қилиш билан бирга, маблағлардан фойдаланиш самарадорлиги ва уларни тақсимлашнинг асослилигини назорат қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратила бошланди”[172].

М.Х.Темиров ҳам мазкур соҳада тадқиқотлар олиб бориб, “мураккаб иқтисодий динамика ва ортиб бораётган ижтимоий мажбуриятлар шароитида молиявий назорат давлат молиясини самарали бошқаришнинг ажралмас қисмига айланади. Бу назорат нафақат молиявий барқарорликни таъминлайди, балки аҳоли турмуш даражасини ошириш, таълим ва соғлиқни сақлашни ривожлантириш, инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш каби стратегик мақсадларга эришишга ҳам хизмат қилади”,[173] деган хулосага келган.

Л.Н.Овсянников тадқиқотларида “молиявий назорат – давлат ва мулкдорлар томонидан ўрнатилган қонунчилик, меъёр ва қоидалар талабларига молиявий муносабатлар қатнашчиларининг амал қилишини махсус ваколатли органлар томонидан текширишни назарда тутиши келтириб ўтилган”[174].

Хулоса қилиб айтганда, давлат молиявий назорати молиявий ресурсларни яратиш, тақсимлаш ва ишлатиш жараёнларида қонунчилик талабларига риоя қилиниши устидан назоратдир.

Молия секторида рақамли назоратни амалга ошириш учун шарт-шароитларни таъминлаш органлар ва назорат объектлари ўртасидаги ўзаро таъсир жараёнларини рақамли муҳитга ўтказиш орқали амалга оширилади.

Фикримизча, бугунги кунда фаолиятнинг асосий иқтисодий кўрсаткичлари тўғрисида реал вақт режимида маълумотларни олишга имкон берадиган профилактик назоратни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир, бу назорат органларига ҳуқуқбузарликларнинг юзага келиши босқичида олдини

---

[172] Матвеева Н.С. Международный опыт осуществления государственного финансового контроля. //Финансовый журнал, №2 2020. Стр. 69-95.

[173] Temirov M.X. Davlat sektorida moliyaviy nazorat: muammolar va rivojlanish istiqbollari. //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil yanvar. 143-153-betlar

[174] Овсянников Л.Н. Игра без правил. // Финансы, 2001, №12. С.56-57.

олишга замин яратади. Жараёнларни автоматлаштириш, кўплаб назорат функцияларини автоматлаштирилган тизимларга, шу жумладан сунъий интеллектга асосланган тизимларга ўтказиш назоратчини бир қатор мунтазам вазифалардан озод қилиш имконини беради.

Ҳозирги кунда давлат бошқаруви соҳасида давлат функциялари ва хизматларини рақамлаштириш бўйича кенг кўламли лойиҳалар амалга оширилмоқда. Давлат бюджети маблағларидан мақсадли ва самарали фойдаланишни таъминлаш учун давлат молиявий назоратини янада кучайтириш, бюджет маблағларини тақсимловчи вазирлик ва идораларда ички аудит тизимини такомиллаштириш, шунингдек, жамоатчилик иштироки ва назоратини кенгайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 10 июлдаги “Бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан молиявий назоратни кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-100-сонли фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонда вазирлик ва давлат идораларида ички аудит тизимини такомиллаштириш, тизимни рақамлаштириш, консолидациялашган бюджет ижросини ташқи аудитдан ўтказиш каби вазифалар белгиланди.

Бугунги кунда Ҳисоб палатаси томонидан рақамли трансформация жараёни амалга оширилмоқда. “Масофавий аудит” автоматлаштирилган ахборот тизими жорий қилиниб, унга 34 та вазирлик ва идораларнинг маълумотлар базалари интеграция қилинган. Бундай амалга оширилаётган тизимли ишлар изчил давом эттирилиб, “Масофавий аудит” автоматлаштирилган ахборот тизимига 110 та вазирлик ва идоранинг маълумотлар базаси интеграция қилинииниши кўзда тутилган.

2024 йилда Ҳисоб палатаси томонидан мавжуд ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда вазирлик ва идораларнинг 9,2 триллион сўмлик самарасиз харажатлари мақбуллаштирилиб, 2,3 триллион сўмлик молиявий камчиликлар олди олинган. Шунингдек, яна бир молиявий назорат органи Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан ҳам бюджет қонунчилигига риоя этилиши юзасидан молиявий назорат тадбирлари ўтказилиб келинмоқда ва молиявий хатоликлар аниқланмоқда (1-расм).



1-расм. Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан 2019 йил ва 2023 йилда аниқланган молиявий хатоликлар динамикаси, млн. сўмда[175]

Рақамлардан кўришимиз мумкинки, хато ва камчиликлар аниқланган объектлар сони камайган бўлсада, 2023 йилда аниқланган хато ва камчиликлар суммаси 2019 йилга нисбатан 7 баробарга ошган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, молиявий назорат самарадорлигини ошириш мақсадида қуйидагилар таклиф этилади:

- турли даражадаги бюджетлар ва бюджетдан ташқари жамғармалар ижросини таъминлаш жараёнида қонун бузилиши ҳолатларига йўл қўйганлик учун мансабдор шахсларнинг жавобгарлигини кучайтириш ва аниқ белгилаш;
- назорат органларининг ҳаракатларининг такрорланишига йўл қўймаслик учун давлат молиявий назорат органлари ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик механизмини ишлаб чиқиш;
- бюджет соҳасида қоидабузарликларнинг ягона таснифини (классификатор) ишлаб чиқиш ва қабул қилиш;
- назорат соҳасига сунъий интелект ва блокчейн технологияларини жорий қилиш имкониятларини кенгайтириш.

БАНКЛАРДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ТАШҚИ АУДИТИНИ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Мадгазиева Динара Уткировна
Банк-молия академияси мустақил изланувчиси,
Муродова Муборак
Банк-молия академияси докторанти,

Ўзбекистон Республикаси банк тизимини халқаро интеграцияси жараёнида асосий эътибор тижорат банклари молиявий ҳисоботларини халқаро талаблар асосида шакллантириш масаласи ва унинг асосида тузилган ахборотларнинг инвесторлар томонидан бошқарув қарорларини қабул қилишга таъсирини ҳамда ушбу ахборотларнинг ишончлиги масаласи муҳим ҳисобланади. Чунки банк молиявий ҳисоботларини халқаро даражада ташкил қилиниши ва банк тизимини аудит қилинган молиявий ҳисоботларини кўрсаткичлари етарли даражада талабга мослаб ташкил қилиш банк аудити текширувларининг амалга оширилиши тамойиллари, ташқи банк аудитини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий базанинг халқаро талабларга етарли даражада жавоб бермаслиги сабабли ташқи банк аудитини амалга ошириш тартибининг ахборот-услубий таъминотини амалга ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини белгилайди.

Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида айниқса ташқи банк аудиторларини халқаро аудит компанияларидан жалб қилиш, шунингдек тижорат банкларининг ички аудит тизимини ва унинг бошқарув тизимини

[175] Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан эълон қилинган статистик маълумотлар асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

ишлаб чиқиш муаммоли масала ҳисобланади. Ушбу масала ва муаммоларнинг мавжудлиги сабабли банкларда молиявий ҳисоботни тузиш молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида тузилиши ва ташқи банк аудитини ўтказишда аудитнинг халқаро стандартлари асосида амалга оширилишини зарурияти келиб чиқади.

Банк тизимининг халқаро интеграцияси ва турли мамлакатларида иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида тижорат банкларида молиявий ҳисоботларини тузиш ва ташқи банк аудитини такомиллаштириш масаласига йўналтирилган илмий изланишларни амалга ошириш масаласига алоҳида эътибор берилмоқда. Тижорат банкларида молиявий ҳисобот аудитини тушунчасини шакллантиришда унинг асосини тушуниш учун 1-жадвалда ушбу берилган тушунчаларга берилган таърифларни таҳлил қилиш негизида асосий ёндашувларни кўриб чиқамиз.

1-жадвал

Банклар молиявий ҳисоботлари аудити бўйича ёндашувлар таҳлили

Муаллиф	Таъриф
1. Мустақил аудиторнинг асосий мақсадлари ва халқаро аудит стандартларига мувофиқ аудит ўтказиш (АХС 200).	(а) молиявий ҳисоботнинг барча муҳим жиҳатлари бўйича тузилганлиги тўғрисида аудиторга тегишли фикр билдириш имкониятини бериш учун, умуман олганда, молиявий ҳисоботда фирибгарлик ёки хатолик туфайли жиддий нотўғри маълумотлар йўқлиги тўғрисида асосли ишончни олиш; амалдаги молиявий ҳисобот тизимига мувофиқ; б) Халқаро аудит стандартлари талабларини инобатга олган ҳолда ва аудиторнинг хулосаларига мувофиқ молиявий ҳисобот бўйича хулоса тайёрлаш ва тақдим етиш.
2.«Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонун	Хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳисоботининг ва у билан боғлиқ молиявий ахборотининг аудиторлик текшируви текшириладиган молиявий ҳисоботнинг ҳамда у билан боғлиқ молиявий ахборотнинг ишончлилигини ва бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқлигини аниқлаш мақсадида аудиторлик ташкилоти томонидан ўтказилади. [32-модда]
2.Казимагомедов А.А.	Банк аудити - бу банкларни аудити бўйича ваколатга эга аудитор томонидан аудиторлик хулосасида ушбу маълумотларнинг белгиланган мезонларга мослиги даражасини аниқлаш ва ифодалаш учун миқдорий ва маълум бир иқтисодий тизим билан боғлиқ бўлган аудиторлик далилларини тўплаш ва натижасини баҳолаш асосида хулоса бериш жараёни[176] .
Еферемовой Л.С.	Банкларнинг молиявий ҳисоботлари аудитининг мақсади банк фаолияти тўғрисида банкнинг молиявий ахборотлари бўйича аниқ ва ишончли фикрни шакллантириш учун амаллар йиғиндисидир[177].
Куницына Н. Н.	Молиявий-хўжалик назорати шаклларидан бири сифатида банк аудитининг мазмуни бухгалтерия ҳисоби, баланс, ҳисобот, ички аудит бўйича банкнинг молиявий-хўжалик фаолиятини мустақил баҳолашидан иборат[178]

[176] Казимагомедов А.А.Основы банковского аудита:учебник.-М.: ИНФРА-М, 2020.-183с. С.25.
[177] Банковский аудит: Учебное пособие / под ред. Л. С. Ефремовой / Мн, БГЭУ, 2019 .-326 с С.45.
[178] Куницына Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке: Учебное пособие / Н.Н. Куницына, А.В. Малеева, Л.И. Ушвицкий. - М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2014. - 384 с.

А.Вазири, К.Азади	Банкнинг молиявий ҳисобот аудитининг мақсади текширув натижалари бўйича молиявий ҳисоботнинг яхлитлиги юзасидан профессионал фикр билдириб, унинг ишончлилигини тасдиқлашдан иборатдир[179]
Стародубцева Е.Б.	Банк аудити иқтисодий тизимлар - алоҳида банклар фаолиятининг тегишли жиҳатлари ҳолатини баҳолашга асосланади. Бу биринчи навбатда иқтисодий активларнинг ҳолати ва уларни шакллантириш манбалари тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган молиявий (бухгалтерия) ҳисоботларининг ишончлилигини баҳолашдан иборат[180]...
Заварихин Н.М Потехина Ю.В.	Аудит - бу ташқи омиллардан мустақил бўлган шахс ёки шахслар гуруҳи томонидан амалга ошириладиган назорат қилиш натижаларига асосланган, назорат жараёнида ташқи фойдаланувчиларга банк фаолияти ва унинг истиқболлари ҳақида тақдим этадиган ахборот бўйича стандартлар ва белгиланган мезонларга асосланган ўз фикри ва назорат натижаларини хабар қиладиган тизимли жараён[181]
А.А.Каримов, З.А.Муқумов, М.Ҳ.Ходжаева, А.З.Авлокулов	молиявий ҳисобот аудитининг мақсади бўлиб, аудиторга молиявий ҳисобот барча аҳамиятли жабҳалар бўйича молиявий ҳисоботни тақдим этишга оид белгиланган концептуал асосга мувофиқ тайёрланганлиги ҳақида ўз фикрини билдириш учун имконият яратишдир[182].
Н.Ш.Хажимуратов	молиявий ҳисобот аудитининг мақсади хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботининг амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида тайёрланганлигини ва молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги хусусида ҳаққоний фикрни шакллантиришдан иборатдир.
А.К.Ибрагимов ва бошқалар	Тижорат банкларида молиявий ҳисоботларнинг кўрсаткичларини холисона тасдиқловчи мустақил компания бўлиб аудит натижалари асосида аудиторлик хулосасини беради.[183]

Дарҳақиқат,банк аудитининг ўз мақсади, мантиқийлигига эга бўлган ва далилларни объектив олиш ва баҳолаш асосида аудиторлик қарорларини қабул қилишда тизимли ёндашувга асосланган тизимли жараёндир. Таърифда "аудиторлик далилларини объектив равишда олиш ва баҳолаш" маълумотларнинг ишончлилигини текшириш ва унинг натижаларини ушбу маълумотни тақдим этган шахс ёки субъект фойдасига ёки зарарисиз баҳолашни англатади.Моҳиятан, "ишончлилик" маълумотларни тегишли мезонлар билан солиштириш мумкин бўлган яқинликни англатади. Таққосланувчанлик миқдорий (масалан, моддий зарар миқдори бўйича) ва сифат жиҳатидан (барча муҳим жиҳатлар бўйича молиявий ҳисобот кўрсаткичларининг ишончлилик даражаси бўйича) баҳоланиши мумкин;

[179] Alireza Vaziri, Kayhan Azadi. The Impact of Audit Reports on Financial Information Content. // International Journal of Economics and Financial Issues, 2017, 7(3), 304-308

[180] Стародубцева Е. Б. Основы банковского дела: Учебник / Е.Б. Стародубцева. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИН-ФРА-М, 2015. - 288 с.С.45-46.

[181] Заварихин Н.М., Потехина Ю.В. Внутренний аудит в управлении коммерческими банками.//Аудит и финансовқй анализ. 2/2005. –С.156-162.

[182] Karimov A.A., Muqumov Z.A., Khodjaeva M.H., Avlokulov A.Z. Xalqaro audit. Darslik. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2020 yil.– 424 b. 155-betdan.

[183] Ибрагимов А.К. ва бошқалар. Тижорат банклариташқи аудитида халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методологияси. Ўқув қўлланма, -Т.: 2010. -188б. Б.45-46.

"мезонлар" стандартлар ва нормативлар бўлиб, улар билан таққослаш орқали натижалар баҳоланади ва хулосалар шакллантирилади.Шу билан бирга, барча таърифлар аудитжараёнининг ахборот моҳиятини таъкидлайди. Бизнинг фикримизча, банк аудитининг объекти тижорат банкларининг молиявий-иқтисодий фаолияти бўлиб, ахборот тадқиқотнинг предмети ҳисобланади. Банк аудитини молиявий ҳисоботларнинг ишончлилиги далилларини объектив равишда олиш ва баҳолаш жараёни сифатида таърифлаш унчалик тўғри эмас, чунки аудит жараёнида аудиторнинг шахсий касбий тажрибасига асосланган турли хил амаллар қўлланилиши сабабли далилларни баҳолаш ва олиш ҳар доим субъективдир.

ХУЛОСА

Ўзбекистон Республикасида ташқи аудит тизимининг ҳозирги ҳолати, айниқса молиявий ҳисоботлар аудитини ташкилий асослари, уларнинг ривожланиш тенденциялари ва истиқболларини ўрганиш трансформацион ўзгаришларнинг динамикаси нуқтаи назаридан халқаро стандартларга асосланган бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг халқаро стандартларига ўтиш, аудитнинг ҳолати, роли ва функциялари сезиларли ўзгаришларга дуч келаётганини аниқлашга имкон берди.

Қонунчилик ва норматив ҳужжатларни ўрганиш ва таҳлил қилиш Ўзбекистон Республикасидаги аудиторлик фаолияти ва уни тартибга солишнинг етарлилиги ва сифатини баҳолаш, молиявий ҳисоботлар аудитини норматив, ахборот, услубий ва ташкилий қўллаб-қувватлашдаги унинг имкониятларидан фойдаланишга тўсқинлик қиладиган ва шошилинч ечимларни талаб қиладиган баъзи бўшлиқларни аниқлашга имкон берди.Аудиторлик фаолиятини ривожлантиришда ижобий жиҳатлар билан бир қаторда ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқаришнинг ажралмас қисми сифатида аудитнинг ички тартибга солиш ва қонунчилик базасининг номукаммаллиги; бошқарув тизими сифатида аудитнинг мазмуни ва асосланишига муносабат аниқланмаганлиги каби бир қатор ноқулай тенденциялар мавжудлиги аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Kon Sik Kim. Transplanting Audit Committees to Korean Soil: A Window into the Evolution of Korean Corporate Governance. //Asian-Pacific Law and Policy Journal. №1 -2007. [Электронный ресурс] URL:http://blog.hawaii.edu/aplpj/files/2011/11/APLPJ_09.1_kim.

2. Statements of Korea Financial Standards. //Korean Accounting Standards Board Library. 2015 [Электронныйресурс]URL:http://eng.kasb.or.kr/

3. IFRS Adoption and Implementation in Korea, and the Lessons Learned. //IFRS Country Report. 31.12.2012. [Электронный ресурс] URL:http://www.iaasb.org/meetings/seoul-south-korea

4. Ибрагимов А.К.,Ибрагимова И.Р. Особенности перехода на международные стандарты финансовой отчётности в коммерческих банках Республики Узбекистана. **//**Учёт, анализ и аудит: состояние и перспективы развития: материалы VII Международной научно-практической конференции, г. Луганск, 08 декабря 2023 г. – Луганск: ИП Орехов Д.А., 2024. – 415 с.

5. Fisbein, Ariel va Dena Ringold “Benchmarking thr Governance of Tertiary Education Systems.” Washington DC: The World Bank 2012; Weber, Luc, J.Dudestatdt “Universty Research for Innovatio.” London: Economica 2010.
6. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 448 с.
7. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги ва ликвидлигини баҳолашни такомиллаштириш. Монография. Ибрагимов А.К., Ризаев Н.Қ., Кузиев И.Н., Бердияров Б.Т., Қаюмов Б.Т., Джураев К.Н.-Т.:Молия, 2014. -160б.
8. Ахмеджанов К.Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т. –2016 -48б.

АУДИТ ИШИ СИФАТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Қўшматов Отахон Қурбаналиевич
ТДИУ доценти, PhD

Мамлакатимизда ҳозирги даврда аудиторлик фаолиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонунга (янги таҳрири) мувофиқ «Аудиторлик фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида» Юртбошимизнинг Қарори тасдиқланди. Бунинг натижасида малакали аудиторларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ҳамда аудиторлик фаолиятини амалга оширишда жиддий ўзгаришлар содир бўлди. Бу ўз навбатида аудиторлар ва аудиторлик ташкилотларини ҳуқуқ ва масъулиятларини янада оширди ва улар ўртасида рақобат кучайди.

Республикамизда бугунги кунда бундай ташкилот ва корхоналарнинг сони 60 мингдан ортиқ бўлиб, камида 3 мингга яқин аудиторларни аудиторлик текширишда қатнашишини талаб қилади. Демак, шу бугунги кунда қўшимча 2000 тага яқин малакали аудиторларни тайёрлаш вазифаси турибди.



1-расм. Мижозларни ўз ташаббусларига кўра аудиторлик текширувидан ўтишига асослар.

Ташкилий жиҳатдан аудиторлик текширишлари мажбурий ва ихтиёрий тарзда ўтказилади. Ҳозирги пайтда аудиторлик ташкилотларининг

мижозлари аудиторларнинг фикр билдириш вазифасига муҳим эҳтиёж сезиб, ўз ташаббуслари билан текшириш ўтказишга қарор қабул қилмоқда. Мазкур хўжалик юритувчи субъектлар аудиторлик ташкилотлар мижозларнинг барқарор қисмини ташкил этади. Санаб ўтилган ва мижозлар аудитоларлардан ёрдам сўрайдиган бошқа вазиятларда профессионал касб эгалари кўпинча уларга ўз компаниясининг молиявий аҳволини тўғри тасаввур қилиш, молиявий бошқаришнинг самарали тизимини, мижознинг иқтисодий жихатдан хавфсизлигини таъминлаш имконини берадилар (3.1-расм).

Ўтган йиллар давомида аудит ўтказишга таклифларнинг ярмидан кўпроғи ва айрим ҳолларда учдан икки қисми қонунга мувофиқ аудиторлик текширишидан ўтиши лозим бўлган ташкилотлардан туша бошлади. Қонунчиликнинг ўзи бозор иқтисодиётига ўтган сари ўзгариши, такомиллашуви ва янгиланиши лозимлиги тушунарлидир. Иқтисодий субъектларни мажбурий тарздаги аудиторлик текшириш учун низомлар кенгайиши ёки торайиши лозим. Жаҳон тажрибасини ҳисобга олиб мезонларни кенгайтириш афзалроқ эканлиги мақсадга мувофиқ.

Республикамизда ҳозирги вақтда бундай шартларни аниқлаш зарурлиги биринчи марта «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида» Қонунчилик бўйича ҳар йилги муқаррар аудиторлик текширишни асосий мезонлари бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи ҳисобланади. Мазкур қонунда хўжалик юритувчи субъектнинг бухгалтерия ҳисоботи ишончлилигини тасдиқлайдиган аудиторлик хулосаси, агар хўжалик юритувчи субъект қонунга мувофиқ мажбурий аудит ўтказиладиган тоифалар таркибига кирса, унинг бухгалтерия ҳисоботи таркибига кириши аниқ ёзиб қўйилган.

Ҳозирги вақтда бухгалтерия ҳисоботини аудиторлик текшириши мажбурийлиги ҳукумат қарори билан эмас, қонун билан тартибга солинади. Кўп ҳолларда мамлакатимизда (қимматли қоғозлар, акциядорлик жамиятлари, хорижий инвестициялар бўйича) бундай қонунлар амал қилмоқда. Бу Солиқ кодексининг иккинчи қисмига, хўжалик юритишнинг бошқа асосларига ҳам киритилиши зарур.

Шундай бўлсада, хорижий инвестициялар иштирокидаги йирик хўжалик юритувчи субъектлар, энг йирик тижорат банкларида (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида ҳам), суғурта ва инвестиция компанияларида, инвестиция фондларида мажбурий аудитни йирик ғарб аудиторлик фирмалари, жумладан йирик аудиторлик фирмалари томонидан ўтказмоқда. Улар хизматлари эвазига катта миқдордаги валюта маблағларини олмоқдалар.

Ўзбекистон Аудиторлар палатаси экспертлари аудиторлик ташкилотларида ташқи сифат назоратини ва ўтказаётган аудитнинг ички сифат назорати тизимини ўргандилар. Аудиторлар томонидан аудиторлик фаолиятига оид қонунчилик актлари, аудиторлик фаолияти миллий стандартлари ва Ўзбекистон Аудиторнинг профессионал этика кодекси талабларига риоя этишларини текшириш ички сифат назорати тизимини текширишдаги биринчи даражали вазифалардан бири ҳисобланади.

ЧЕТГА ҚАЙТА ИШЛАШГА БЕРИЛГАН МАТЕРИАЛЛАРНИ ҲИСОБГА ОЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Розиқов Жалил Жалолович
ТДИУ доцент в/б

Қачонки корхонада материалларга ишлов бериш имконияти бўлмаса, улар чет ихтисослашган корхоналарга ишлов бериш учун жўнатилади ва четга қайта ишлов беришга берилган материаллар таркибида қуйидаги ёзув билан ҳисобга олинади:

Дебет № 1070 «Четга қайта ишлашга берилган материаллар»

Кредит № 1000 «Материалларни ҳисобга олувчи ҳисобварақалар».

Материалларни ҳисобга олувчи бошқа ҳисоб варақаларда материалларнинг қолдиғи корхона омборларида ва хўжалик бўлинмаларидаги мавжудлигини билдирса, № 1070 «Четга қайта ишлашга берилган материаллар» ҳисобварағидаги материаллар қолдиғи уларни чет корхоналарга берилганлиги тўғрисидаги тегишли ҳужжатларнинг мавжудлигидан далолат беради.

Чет корхонада бу материалллар довал хомашё ва материаллар ҳисобланади ва тегишли кирим ҳужжатлари билан расмийлаштирилиб балансдан ташқи № 003 «Қайта ишлов беришга қабул қилинган материаллар» ҳисобвароғида ҳисобга олинади.

Буюртмачи (харидор) корхона билан материалларга ишлов берувчи (мол етказиб берувчи, пудратчи) корхона ўртасида тузилган шартномага кўра, буюртмачи, ишлов берувчи корхонага шартномада келишилган, материалларга ишлов бериш хизмати қийматини тўлайди. Хомашё ва материалларга ишлов беришда юзага келган қимматли чиқитлар ишлов берадиган корхонада қолдирилса, ҳисоблашишда, ишлов бериш хизмати қийматидан баҳоланган суммасига чегириб қолинади ва мол етказиб берувчининг балансига тайёрлаш ва сотиш харажатлари чегирилиб кирим қилинади.

Буюртмачи корхонада № 1070 «Четга қайта ишлашга берилган материаллар» ҳисобварағида, шунингдек материалларга қайта ишлов бериш бўйича тўлов харажатлари ҳисобга олинади. Бажарилган буюртма туркумланишига кўра асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш материали, бутловчи қисмлар, хўжалик инвентарлари ва жиҳозлар, асосий воситалар таркибига кирувчи: асбоб ускуналар, қурилмалар, иншоотлар ва бинолар ҳам бўлиши мумкин. Агарда ишлов берувчи корхона томонидан қимматли чиқитлар буюртмачи корхонага қайтарилса, қайтариладиган чиқитлар ҳам тегишли қиймати бўйича буюртмачи балансига кирим қилинади.

Мол етказиб берувчи (пудратчи)нинг кўрсатган хизматлари ва бажарган ишларининг шартнома қийматига, қуйидаги ёзувлар амалга оширилади, кирим қилинган материалларга:

Дебет № 1010 «Хомашё ва материаллар»,

Дебет № 1020 «Сотиб олинган ярим тайёр маҳсулотлар ва бутловчи буюмлар»,

Дебет № 1040 «Эҳтиёт қисмлар»,

Дебет № 1050 «Қурилиш материаллари (қурилмалари)»,

Дебет № 1060 «Идиш ва идишбоп материаллар»,

Дебет № 1080 «Инвентар ва хўжалик жиҳозлари»,

Кредит № 6010 «Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоблашиш» ёзувлари билан,

четга қайта ишлов беришга берилган материаллар ҳисобига:

Дебет № 1010 «Хомашё ва материаллар»,

Дебет № 1020 «Сотиб олинган ярим тайёр маҳсулотлар ва бутловчи буюмлар»,

Дебет № 1040 «Эҳтиёт қисмлар»,

Дебет № 1050 «Қурилиш материаллари (қурилмалари)»,

Дебет № 1060 «Идиш ва идишбоп материаллар»,

Дебет № 1080 «Инвентар ва хўжалик жиҳозлари»,

Кирим қилинган қимматли чиқитлар қийматига

Дебет № 1090 «Бошқа материаллар»

Кредит № 1070«Четга қайта ишлашга берилган материаллар» ёзувлари билан ҳисобга олинади.

Худди шу тартибда довал хомашё ва материаллар ҳисобига ишлаб чиқарилган асбоб – ускуналар, қурилма ва бунёд этилган иншоот ва бинолар асосий воситалар таркибига капитал қўйилмалар орқали ҳисобга олинади. Яъни, Мол етказиб берувчи ва пудратчи корхоналар кўрсатган хизмат ва бажарган ишларининг қийматига капитал қўйилмаларнинг вужудга келиши:

агарда пудратчи томонидан бино ва иншоотлар довал қурилиш материаллари ҳисобига бунёд этилса,

Дебет № 0810 «Тугалланмаган қурилиш»

агарда саноат корхоналари томонидан асбоб - ускуналар, ишчи машиналар довал материаллар ҳисобига ишлаб чиқилса,

Дебет № 0820«Асосий воситаларни харид қилиш»

агарда саноат корхоналари томонидан ўрнатиладиган ускуналар довал материаллар ҳисобига ишлаб чиқилса,

Дебет № 0710 «Ўрнатиладиган асбоб – ускуналар -маҳаллий»

Кредит № 6010 «Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоблашиш» ёзувлари билан;

четга қайта ишлов беришга берилган материаллар ҳисобига капитал қўйилмаларнинг вужудга келиши:

пудратчилар томонидан бунёд этилган бино ва иншоотларга тегишли қисми бўйича,

Дебет № 0810 «Тугалланмаган қурилиш»

саноат корхоналари томонидан ишлаб чиқарилган асбоб - ускуналар, ишчи машиналарга тегишли қисми бўйича,

Дебет № 0820 «Асосий воситаларни харид қилиш»

чет корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган ўрнатиладиган ускуналарга тегишли қисми бўйича,

Дебет № 0710 «Ўрнатиладиган асбоб – ускуналар - маҳаллий»

Кредит № 1070 «Четга қайта ишлашга берилган материаллар» ёзувлари билан ҳисобга олинади.

Пудратчи корхоналарга тўланган капитал қўйилма тўловлари ҳисобига бино ва иншоотларнинг кирим қилиниши:

Дебет № 0120 «Бино ва иншоотлар»

Кредит № 0810 «Тугалланмаган қурилиш» ёзувлари билан ҳисобга олинади.

Саноат корхоналарига тўланган капитал қўйилма тўловлари ҳисобига асбоб – ускуналар ва ишчи машиналарнинг кирим қилиниши:

Дебет № 0130 «Машина ва ускуналар»

Кредит № 0820«Асосий воситаларни харид қилиш» ёзувлари билан ҳисобга олинади.

Четга қайта ишлов беришга берилган материалларнинг капиталлашиши ҳисобига бино ва иншоотларнинг кирим қилиниши:

Дебет № 0120 «Бино ва иншоотлар»,

Кредит № 0810 «Тугалланмаган қурилиш»,

Четга қайта ишлов беришга берилган материалларнинг капиталлашиши ҳисобига асбоб – ускуналар ва ишчи машиналарнинг кирим қилиниши:

Дебет № 0130 «Машина ва ускуналар»

Кредит № 0820 «Асосий воситаларни харид қилиш» ёзувлари билан ҳисобга олинади.

Четга ишлов беришга берилган материаллар билан боғлиқ бошқа хўжалик муомилаларини ҳам шу тарзда очиб бериш мумкин. Ҳисобнинг иккинчи очилмаган томони довал материаллардан фойдаланиш ҳисобини чет корхоналарда очиб беришдан иборат. Бу кейинги мақола ва тезислар бўйича чиқишларимизда ёритиб берилади.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АУДИТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

А.Н.Тўраев
TIFT университети профессори,иқтисод фанлари доктори
Д.А.Тошмуродов
TIFT талабаси

Аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари таркиби билан ушбу ташкилот кўрсатаётган аудит хизматларининг сифати ўртасида маълум бир боғлиқлик мавжуд. Европа Парламенти ва Кенгашининг 2006 йил 17 майда қабул қилинган 2006/43/ЕК сонли “Йиллик ва консолидациялашган ҳисоботларни

мажбурий аудиторлик текшируви тўғрисида”ги Директивасига асосан аудиторлик ташкилотининг устав капиталидаги улушларнинг ярмидан кўпи аудиторлик ташкилотига ёки тегишли малака ва амалий тажрибага (аудитор малакасига) эга бўлган мутахассисларга тегишли бўлиши шарт.

Ушбу талаб аудит соҳасига тегишли бўлмаган таъсисчиларни аудиторлик фаолиятига аралашишига, фойда кетидан қувиб, ходимларни малакасини ошириш ва сифат назоратини таъминлаш бўйича харажатларни чеклашини олдини олишга ва албатта, аудиторлик ташкилотининг аудитор бўлмаган таъсисчилардан мустақиллигини таъминлашга қаратилган.

Республикамизда аудиторлик ташкилотининг таъсисчи (иштирокчи, муассис)лари таркибига бўлган талаб маълум бир эволюцион даврни бошидан ўтказяпти. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 09 декабрда №734-XII сон билан тасдиқланган “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонуннинг эски таҳририда аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари таркибига ҳеч қандай талаб қўйилмаган бўлиб, ушбу қонуннинг 2-моддасида “аудиторлик фирмаси юридик ёки жисмоний шахс томонидан тузилиши” мумкинлиги кўрсатилган эди.

Таъсисчилар таркибига дастлабки талаб 2000 йил 26 майда 78-II-сон билан янги таҳрирда қабул қилинган “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонунда киритилди ва “вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралари ҳамда бошқа давлат ва хўжалик бошқарув органларига” аудиторлик ташкилотини таъсис этиш маън этилди. Аудиторлик ташкилотларининг сони 2000 йил охирига келиб 490 тага етди.

2002 йил 13 декабрда қабул қилинган 447-II-сон қонунда аудиторлик ташкилотининг мулкчилик тузилмасига қўшимча талаб қўйилди. “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 5 моддасига янги 4 қисм қўшилди ва “давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг мансабдор шахслари, шунингдек қонун ҳужжатларига мувофиқ тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши тақиқланадиган бошқа шахсларга” аудиторлик ташкилотининг таъсисчиси бўлиш тақиқланди.

“Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонунни қабул қилинганидан кейин ўтган 15 йил мобайнида республикада аудиторлик фаолиятини амалга ошириш учун зарур қонуний-ҳуқуқий база шакллантирилди, лицензиялар бериш тизими сезиларли даражада соддалаштирилди ва либераллаштирилди. Бунинг натижаси ўлароқ, республикада аудитор ташкилотларининг сони 2007 йилнинг 1 январь ҳолатига 565 тани ташкил этди.

Шу билан бирга аудит тизимидаги ишлар ҳолати ошган талабларга жавоб бермай қўйди, аудит бизнес самарадорлигини реал баҳолашнинг амалий воситаси бўла олмади. Аудиторлик текширувлари кўп ҳолларда юзаки ва паст профессионал даражада ўтказилаётганлиги сабабли, аудит тизими молия бозорида етарлича ишонч қозона олмади.

Шу сабабли 2007 йилнинг 12 февралида бўлиб ўтган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг йиғилишида республика аудит бозорининг аҳволи танқидий кўриб чиқилди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисининг 12.02.2007 йил "2006 йилда республикани

ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2007 йилда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишлари тўғрисида"ги қарорининг 21 бандига биноан Молия вазирлигига “аудиторлик фаолиятидаги ишларнинг аҳволини, шунингдек умуман молиявий инфратузилмани ривожлантириш самарадорлигини танқидий баҳолаш ва бир ой муддатда Вазирлар Маҳкамасига фаолиятни янада такомиллаштириш ва тадбиркорлик тузилмаларига хизмат кўрсатиш сифатини ошириш юзасидан аниқ таклифлар киритиш” вазифаси юклатилди.

2007 йилнинг бошида Молия вазирлигининг тегишли буйруғига биноан республика аудит бозорини ўрганиш бўйича идоралараро махсус комиссия ташкил этилди. Комиссия ўз фаолияти давомида республикада фаолият кўрсатаётган барча аудиторлик ташкилотларининг фаолияти билан танишиб чиқди. Иш давомида аудит соҳасида мавжуд бўлган баъзи бир муаммолар аниқланди:

- аудиторлик хулосасини аудиторлик ҳисоботига тўғри келмаслиги;
- аудиторлик ҳисоботи ёзилмасдан хулоса берилганлиги;
- аудиторнинг иш ҳужжатларини шакллантирилмаслиги;
- аудиторларни ўз вақтида малака оширмагани;
- олий маълумотга эга бўлмаган шахсларнинг аудитор малака сертификатига эга эканлиги;
- ижобий хулоса асосида банк кредитини олган хўжалик субъектлари кредитни қайтара олмаганлиги;
- устав капиталини турли-туман, аудиторлик фаолиятида ишлатиб бўлмайдиган, мол-мулк билан шакллантирилгани;
- аудиторни бир йўла бир нечта аудиторлик ташкилотларида ишлаши;
- аудиторни турли аудиторлик ташкилотларида таъсисчи эканлиги.

Республикамизда мустақил аудит тизимини янада ривожлантириш, аудиторлик хизматлари сифатини ошириш, аудиторлик ташкилотлари фаолиятини самарали бошқариш усулларини қўллаш, аудиторлик текширувларининг натижалари ва холислиги учун уларнинг жавобгарлигини кучайтириш, шу орқали тадбиркорлик тузилмалари томонидан уларга нисбатан ишончни ошириш мақсадида 2007 йил 4 апрелида Ўзбекистон Республикаси Президентининг №615-сонли “Аудиторлик ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш ҳамда улар кўрсатаётган хизматлар сифати учун жавобгарлигини ошириш тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Ушбу қарор билан тасдиқланган “Аудиторлик ташкилотлари тўғрисида”ги Низомда аудиторлик ташкилотининг мулк тузилмаси таркибига янги талаблар киритилди.

Низомнинг 10 бандига асосан “аудиторлик ташкилоти устав капиталининг камида 51 фоизи мазкур аудиторлик ташкилотининг штатидаги аудитор (лар)га тегишли бўлиши ва аудитор фақат битта аудиторлик ташкилотининг таъсисчиси бўлиши мумкин”лиги белгиланди.

Ушбу Низом талаблари 2007 йил 17 сентябрда қабул қилинган 110-сонли қонун биноан “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 5 моддаси матнига киритилди. Шу билан биргаликда қонуннинг 5 моддасига қўшилган

янги хат бошига биноан чет эллик аудиторлик ташкилотига ўзининг филиали ёки шуъба корхонасини тузишга, истесно тартибида, рухсат берилди. Шу тариқа республикамизда фаолият юритаётган халқаро аудиторлик ташкилотларининг фаолияти учун ҳуқуқий замин яратилди.

Қонунга киритилган ўзгаришлар натижасида, Молия вазирлигининг маълумотларига кўра, республикада фаолият кўрсатаётган аудиторлик ташкилотларининг сони 561 тадан (2007 йилнинг 1 апрель ҳолатига) 79 тагача камайди (2008 йилнинг 1 апрель ҳолатига).

“Аудит-рейтинг” МЧЖ шаклидаги рейтинг компаниясининг маълумотларига кўра 2007 йилда аудиторлик хизматларининг ҳажми 8 253 млн сўм бўлган бўлса, 2008 йил натижалари бўйича ушбу кўрсаткич 15 318 млн сўмга кўтарилди, ўсиш суръати 185,6%ни ташкил этди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 02 июлдаги №ПҚ-907 сонли “Аудиторлик ташкилотларининг молиявий барқарорлигини ошириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори билан аудиторлик ташкилотининг нафақат мулкий тузилмаси таркибига, балки устав капиталига киритиладиган мулкни кўринишига ҳам алоҳида талаб белгиланди. Қарорга кўра “2008 йилнинг 1 августидан бошлаб аудиторлик ташкилоти устав капиталининг камида эллик фоизи таъсисчиларнинг пул маблағларидан, қолган қисми эса аудиторлик фаолиятини амалга оширишда бевосита фойдаланиладиган моддий бойликлардан шакллантирилиши” шарт этиб белгиланди.

Устав капиталига киритиладиган мулкка бўлган янги талабни белгиланиши аудит бозорини таркибига жиддий таъсир кўрсатмади. 2008 йилнинг ўзида ой ўтган сари лицензия олган аудиторлик ташкилотларининг сони кўпая бошлади. Мисол учун, 2008 йилнинг 1 августидан 1 октябрига қадар республикада аудит бўйича лицензияга эга бўлган ташкилотлар сони 129 тадан 134 та етди.

Кейинчалик 2013 йил 30 апрелда қабул қилинган 352-сонли қонунга асосан “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 5 моддаси қисман ўзгартирилади ва “аудитор фақат ўзи ишлайдиган битта аудиторлик ташкилотининг таъсисчиси” бўлиши шартлиги талаби киритилди.

Акциядорлик жамиятларининг ташкилий-ҳуқуқий шаклларига талаб ўзгаргани муносабати билан (2014 йил 06 майдаги №ЎРҚ-370), 2014 йил 14 майда қабул қилинган 372-сонли қонунга биноан “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг 5 моддасидан аудиторлик ташкилоти таъсисчисининг “акциядор” бўлиши мумкинлиги тўғрисида сўз олиб ташланди.

Республикамизда аудит соҳасини тубдан ўзгартиришга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги №ПҚ-3946-сонли “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида устав капиталига киритиладиган мулкни кўринишига бўлган талаб сақлаб қолиниб, “аудиторлик ташкилотининг устав капитали аудиторлик ташкилоти фаолиятини амалга оширишда бевосита фойдаланиладиган мол-мулкдан, шу жумладан, пул маблағларидан шакллантирилиши” белгиланди.

Лекин бу билан қарор билан эволюция жараёни тўхтамади, 2019 йилнинг март ойида “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг янги таҳрирдаги лойиҳаси ишлаб чиқилди.

Хорижий экспертларнинг тавсияларига биноан қонун лойиҳасининг 26 моддасига аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари факат ушбу аудиторлик ташкилотининг штатидаги аудиторлардан иборат бўлиши талаби киритилди.

Кўриниб турибдики, аудиторлик ташкилотининг таъсисчиларига бўлган талаб ўтган 25 йил мобайнида кучайиб борди ва ҳозир аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари фақат ушбу аудиторлик ташкилотида ишлайдиган аудитор(лар) гина бўлиши шартлиги белгиланяпти.

Аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари таркибига қўйилаётган талабларнинг ўзига хос замини бор. Талабларни ишлаб чиқишнинг асосий мақсади аудиторлик хизматининг сифатини оширишдир. Аудит сифатининг аудиторлик ташкилотининг мулкчилик таркиби билан қуйидаги ўзаро боғлиқликлари мавжуд.

удит сифатини оширишнинг йўналишларидан бири аудиторлик ташкилотининг мустақиллигини таъминлашдир. Аудиторлик ташкилоти давлат идора ва ташкилотлари ва уларнинг ходимларидан холис ва мустақил бўлиши лозим. Бугунки кунда ҳеч ким бу талабга эътироз билдирмаган.

Аудиторлик ташкилотининг таъсисчиси унинг штатидаги аудитор бўлиши шарти. Бу талаб сабабли аудитор ўзи таъсисчи бўлган ташкилотнинг аудиторлик хизматларини сифатини таъминлашга эътибор беради деган фикр бор.

Аудиторлик ташкилотини таъсисчиларининг таркиби ва устав капитали миқдорига қўйилган талаблар аудиторлар таркибига ўз таъсирини кўрсатди

Ўтган йиллар мобайнида мамлакатимизда аудитнинг норматив-ҳуқуқий ва услубий базаси шакллантирилди, шунингдек, аудиторлик фаолиятини лицензиялашнинг соддалаштирилган ва муддатсиз тизими жорий этилди. Бу аудиторлик хизматлари бозорининг шаклланишига ва маҳаллий аудиторлик ташкилотларини аудиторлик компанияларининг йирик халқаро тармоқларига киришини таъминлашга имкон яратди.

Шу билан бирга, қатор муаммолар ва камчиликлар аудиторлик фаолиятининг янада ривожланишига, корпоратив бошқарув сифатини ошириш учун аудиторлик хизматларининг аҳамиятини оширишга тўсқинлик қилмоқда, хусусан:

биринчидан, аудиторлик ташкилотларига ишонч даражаси паст, шунингдек, аудиторлик текширувига молиявий ҳисоботнинг ҳаққонийлигини тасдиқлашнинг кафолати эмас, балки ортиқча ва малол келадиган маъмурий тартиб-таомил сифатида қаралмоқда;

иккинчидан, аудиторлик ташкилотларини танлаб олиш бўйича мавжуд чекловлар ва танловлар ўтказиш амалиёти кўп ҳолларда инсофсиз, шу жумладан, нарх борасида инсофсиз рақобатни келтириб чиқармоқда, бунинг оқибатида аудиторлик хизматлари сифати ва аудиторлик хулосаларининг ҳаққонийлиги пасаймоқда;

учинчидан, аудиторларни махсус тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишнинг амалдаги тизими юзаки тусга эга бўлиб, профессионал тайёргарликнинг ва аудиторлик хизматлари сифатининг зарурий даражасини, шу жумладан, аудиторлик фаолиятининг халқаро стандартларига мослигини таъминламаяпти, бу эса аудитор касби нуфузининг пасайишига олиб келмоқда;

тўртинчидан, аудиторлик ташкилотлари иши сифатини ташқи назорат қилишнинг самарали тизими мавжуд эмас, бу лицензияловчи органнинг ҳуқуқий таъсир чоралари чеклангани шароитида сифатсиз аудиторлик хизматларини кўрсатиш ҳолларига ва аудиторларнинг инсофсиз хатти-ҳаракатларига нисбатан тезкор чора кўриш имконини бермаяпти;

бешинчидан, аудиторлик фаолиятининг миллий стандартлари умумэътироф этилган халқаро аудит стандартларига тўлиқ мос эмас, бу эса хорижий инвесторларда маҳаллий корхоналар молиявий ҳисоботларининг ҳаққонийлигига ишонишни таъминламаяпти.

Аудиторлик хизматлари бозорининг ривожланиши учун шароитларни янада яхшилаш ва аудиторлик фаолиятини тартибга солишда халқаро стандартларга мувофиқ замонавий ёндашувларни жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги №ПҚ-3946-сонли “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди.

Ушбу қарорни бажариш доирасида аудит сифатини ошириш мақсадларида бир қатор чора-тадбирлар тайёрланди. Хусусан, ”Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг янги таҳририни лойиҳаси ишлаб чиқилди. Ушбу лойиҳада аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари фақат аудитор малака сертификатига эга бўлган шахслар бўлиши шарт деб кўрсатилган.

Аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари таркибини аудиторлик хизматларининг сифатига таъсири масаласи нафақат республикамизда, балки етакчи хорижий давлатларда ҳам долзарб масала ҳисобланади.

Мисол учун, республикамиздаги аҳвол. Молия вазирлигининг маълумотларига кўра, 2019 йилнинг 1 апрель ҳолатида республикада:

- аудиторлик ташкилотлари сони – жами 97 та;

- шу жумладан, барча турдаги аудиторлик текширувларини ўтказиш ҳуқуқига эга бўлган аудиторлик ташкилотлари сони – 76 та (78,3%);

- шу жумладан юридик шахслар иштирокида тузилган йирик аудиторлик ташкилотлари сони – 13 та (16,4%).

Йирик аудиторлик ташкилотларининг асосий қисми (63 та ёки 83,6%) фақат жисмоний шахслар иштирокида таъсис этилган бўлиб, уларнинг 34 тасида (60%) таъсисчилар сони битта ёки иккита жисмоний шахсдан иборат холос. Фақат бир оила аъзолари таъсисчи бўлган аудиторлик ташкилотлари сони ҳам кам эмас.

Кўриниб турибди, аудиторлик ташкилотларининг ярмидан кўпида таъсисчилари фақат аудитор сертификатига эга бўлган мутахассислардан иборат. Лекин, аудиторларнинг фақат ўзи таъсисчи бўлиши аудиторлик ташкилотининг аудит хизмати сифатини оширишга олиб келмади. Ўзбекистон

Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги №ПҚ-3946-сонли қарорини қабул қилинишига туртки бўлган сабаблардан бири ҳам шу масала, яъни аудит хизматларининг сифатини пасайиб кетиши бўлди.

Аудит бозоридаги рақобатни кучайтириш, бозорга янги фирмаларни кириб келишини осонлаштириш мақсадларида аудиторлик ташкилотининг таъсисчилари фақат аудиторлар бўлиши шарт деган талабни қайта кўриб чиқиш керак. Аудиторларга тегишли бўлган улушни 51% миқдорида қолдириб, аудитор бўлмаган таъсисчиларнинг аудит сифатига салбий таъсир кўрсатиш эҳтимоллигини камайтириш бўйича керакли чоралар кўрган маъқул.

Бу таклифнинг асосий мақсади йирик ташкилотларга аудиторлик хизматларини кўрсата олиш даражасида йирик ва кенг имкониятли фирмаларни аудит бозорига кириб келишини енгиллаштиришдир. Иккиламчи мақсад эса фаолият юритаётган аудиторлик ташкилотларини фаолиятларини кенгайтириб, рақобатдошлигини оширишдир.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, аудит бозорини барқарорлигини таъминлаш мақсадига икки йўл билан эришиш мумкин:

агар аудиторлик ташкилотининг мулк таркибига бўлган талаб пасайса, аудит бозорида кучли рақобатчилар пайдо бўлади, бу эса мижозларга ўзига маъқул келмаган аудиторлик ташкилотини алмаштириш имкониятини беради;

аудиторлик ташкилотини ташқаридан молиялаштириш анча осондир, партнерлардан қўшимча пул талаб қилгандан кўра.

Муҳими, биргаликда йирик корхоналар аудити бозорида ишончга сазовор рақобатчиларни пайдо бўлишига олиб келади. Бу эса аудит сифатига ижобий таъсир кўрсатади, бозорни барқарорлигини таъминлайди.

Мулк таркибига бўлган талабни пасайтириш аудит ташкилотига ташқаридан қўшимча инвестициялар олиб келиши мумкин. Бу эса аудиторлик ташкилотини салоҳиятини ошишига олиб келади, янги таъсисчилар янги инновацион ғоялар олиб келадики, булар аудит сифатига ва хизмат даражасига ижобий таъсир кўрсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири). 2000 йил 26 май. 78-II-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3946-сон Қарори. www.lex.uz .
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 майдаги “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-370-сонли Қонуни.
4. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари. 2012. 1 қисм, 3-жилд. -Т.: ЎБАМА, 2014.-1049 б.
5. Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт: монография. -Т: Молия нашриёти, 2007. -276 б.
6. Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат

банклари молиявий барқарорлиги ва ликвидлигини баҳолашни такомиллаштириш. Монография. –Т.:Молия, 2015.

7. Karimov A., Muqumov Z., Xodjayeva M., Avlokulov A. Xalqaro audit. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -348 b.

8. Қўзиев И.Н. Аудиторлик ҳисоботларини тузиш ва уларни умумлаштириш: назария ва методологик масалалар. Монография. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.

9. Международные стандарты аудита/Ж.А.Кеворкова. -М.: Юрайт, 2014.-458с.

10. Подольский В.И. Аудит. Учебник. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2016. –С-198.

11. https://www.aicpa.org -Америка дипломли жамоатчи бухгалтерлар институти расмий сайти.

12. https://www.ifac.org. – Халқаро бухгалтерлар федерацияси расмий сайт.

13. https://www.mf.uz. –Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий сайти.

14. https://www.stat.uz. – Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитасининг расмий сайти.

15. https://www.uzaudit.uz. – Ўзбекистон Республикаси Аудиторлар Палатасининг расмий сайти.

БАНК ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Абдусаматов Хусниддин Нуралиевич
Банк-молия академияси мустақил изланувчиси,
Султонов Аборбек
Ўзбекистон Республикаси Марказий банк департамент директори

Жаҳонда фаолият юритаётган турли банк тизими ва молия институтларининг фаолиятини ҳисобга олиш жараёнида асосий масала молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ҳисоб ва молиявий ҳисобот тизимини ташкил этиш ҳисобланади. “Бугунги кунда барча банк ва молия институтлари, 45 мингдан ортиқ трансмиллий корпорациялар ва йирик компаниялар ўзларининг 250 мингдан ортиқ шўъба ва бошқа боғлиқ компаниялари билан биргаликда МҲХСларига мувофиқ молиявий ҳисоботларни ихтиёрийлик асосда тузмоқдалар[184]. Шу сабабли жаҳонда МҲХСларини фаолияти жараёнида қўллайдиган ва уларни эътироф этувчи мамлакатлар сони ошиб бормоқда. Чунки бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни тузиш жараёнини молиявий ҳисоботни халқаро стандартлар талабларига мувофиқлаштириш, шу асосда молиявий

[184] https://www.ifrs.org/

ҳисоботнинг дунё миқёсида гармонизациясига эришиш, илғор тажрибалардан миллий даражада самарали фойдаланиш барча мамлакатлар учун энг долзарб масаладир. Демак банк тизимида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш ва молиявий ҳисоботларни шакллантириш жараёнида халқаро стандартларни жорий этишда умумбелгиланган тартибдан четга чиққан ҳолда банк хусусиятларини, айниқса банкларда молиявий ҳисоботлар масаласига катта эътибор қаратиш керак.

Тижорат банкларида молиявий ҳисоботларнинг шаффофлигини таъминлаш, ҳисоб тизимини халқаро стандартлар талаблари асосида юритилиши ҳисобот ахборотларининг ишончлилигини оширишда муҳим саналади. Ушбу масалада Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганидек, “акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди, қонун ҳужжатларида МҲХСга ўтишнинг эртароқ муддатлари назарда тутилган юридик шахслар бундан мустасно.”[185] Ушбу Фармонга кўра, акциядорлик жамиятлари 2021 йил 1 январдан бошлаб бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий хўжалик фаолиятига оид молиявий ҳисоботларни тайёрлаш МҲХСлари асосида амалга оширади.

Дунё тажрибасини ўрганиш натижаси шуни аниқлаш мумкинки, бирорта давлат тажрибасида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўзлари ҳоҳлаган шаклда ҳамда умуман дастлабки тайёргарлик кўрмасдан, ушбу молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига бевосита ўтиши ва ҳисоб тизими амалиётига қўллаб бўлмайди. Чунки тижорат банкининг молиявий ҳисоботини хусусиятларини инобатга олган ҳолда трансформация жадвалларини улар фаолиятига мослаб ишлаб чиқиш зарурияти вужудга келади ва ушбу жараённи инобатга олган ҳолда ҳам банк фолияти бўйича молиявий ҳисоботларни халқаро стандартига ўтиш кетма-кетлигини ишлаб чиқиш лозим ва банк фаолият бўйича халқаро стандартга мос молиявий ҳисоботларни шакллантириш керак. Чунки халқаро тажриба шуни кўрсатмоқдаки, банк тизимида МҲХСни қўллаш амалиётини 2 хил усулдан бири бўйича ташкил қилиниши керак. Биринчи усулда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини бириничи марта қўлланиши ёки иккинчи усулда миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни трансформация қилишдан олдин ушбу банкда маълум шарт-шароитларни яратишимиз, шу жумладан бухгалтерия ходимлари малакасини ошириш, молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мослаштириш учун тегишли шарт-шароит яратиш лозим.

Шундай қилиб юқоридаги масалаларнинг ечимини топиш ва МҲХСга ўтишнинг натижасида ва жаҳон тажрибасига асосланиб, қуйидаги хулосаларни келтиришимиз мумкин:

[185] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2020 йил 24 февраль, ПҚ-4611-сон Қарори.

Бухгалтерия ҳисобининг халқаро тизимини таҳлил қилиш жараёнида энг аввало, турли давлатларда ташкил этилган ҳисоб тизимига назар солиш талаб қилинади. Молиявий хисоботларни ҳалқаро стандартларга мослаштириш, компания ва фирмалар молиявий кўрсаткичларига баҳо бериш уларнинг ҳалқаро миқёсда ҳаракат қилишига шарт-шароит яратади. Хулоса шундаки, тижорат банклари молиявий ҳисоботларини халқаро стандартларга трансформация қилишда қуйидаги омиллар муҳим роль ўйнайди:

– Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тизими имкон қадар МҲХСларига уйғун бўлишини таъминлашимиз керак. Агар ўртада тафовут катта бўлса, трансформация жараёни қийинлашади ва бошланган иш кутилган натижани бермайди;

– бухгалтерия ҳисобини юритиш, ҳисоботни тузиш ва тақдим этишда “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонун ва бухгалтерия ҳисоби стандартлари бош ҳуқуқий-меъёрий ҳужжат бўлиши керак. Низом, йўриқнома ва қоидалар босқичма-босқич стандартларга киритилади;

– Ўзбекистон Республикасида профессионал бухгалтерлар институтини ташкил этиш, унинг ваколати доирасида сертификатли мутахассис ва аудиторлар малакасини ошириш, амалиётчи бухгалтерларнинг халқаро дастурларда ишлаш кўникмаларини шакллантириш лозим;

– Ўзбекистон Республикасидаги тижорат банклари бош бухгалтерларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ишлаётганлиги учун моддий рағбатлантириш;

Бухгалтерия ҳисобининг халқаро тизимини таҳлил қилиш жараёнида энг аввало, турли давлатларда ташкил этилган ҳисоб тизимига назар солиш талаб қилинади. Молиявий хисоботларни ҳалқаро стандартларга мослаштириш, компания ва фирмалар молиявий кўрсаткичларига баҳо бериш уларнинг ҳалқаро миқёсда ҳаракат қилишига шарт-шароит яратади. Хулоса шундаки, тижорат банклари молиявий ҳисоботларини халқаро стандартларга трансформация қилишда қуйидаги омиллар муҳим роль ўйнайди:

– Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тизими имкон қадар МҲХСларига уйғун бўлишини таъминлашимиз керак. Агар ўртада тафовут катта бўлса, трансформация жараёни қийинлашади ва бошланган иш кутилган натижани бермайди;

– бухгалтерия ҳисобини юритиш, ҳисоботни тузиш ва тақдим этишда “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонун ва бухгалтерия ҳисоби стандартлари бош ҳуқуқий-меъёрий ҳужжат бўлиши керак. Низом, йўриқнома ва қоидалар босқичма-босқич стандартларга киритилади;

– Ўзбекистон Республикасида профессионал бухгалтерлар институтини ташкил этиш, унинг ваколати доирасида сертификатли мутахассис ва аудиторлар малакасини ошириш, амалиётчи бухгалтерларнинг халқаро дастурларда ишлаш кўникмаларини шакллантириш лозим;

– Ўзбекистон Республикасидаги тижорат банклари бош бухгалтерларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ишлаётганлиги учун моддий рағбатлантириш.

Шундай қилиб юқоридаги келтирилган молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этишга доир фикрларни умумлаштириб қуйидаги асосий хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди:

1) МҲХС асосида ишлаётган тижорат банклари ҳисоб сиёсатини такомиллаштириш, унинг молиявий ҳисобот тамойилларига тўлиқ риоя қилинган ҳолда тузилиши, чинакам ҳисоб лойиҳасининг халқаро стандартлар талабларига мувофиқ ишлаб чиқилишига эришиш керак.

2) Келгусида банк тизмини МҲХСга мослаштиришда қуйидагиларга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир:

3) Ҳар бир тижорат банки асл ва сўнгги нусхадаги МҲХС тўпламини ёки Марказий банк ва бошқа ташкилот томонидан марказлашган ҳолда стандартлар тўпламини сотиб олиши ва тижорат банклари МҲХСга киритилаётган ўзгаришлар билан таъминланиб туриши лозим. Шунингдек, МҲХСнинг аслини инглиз тилида ўқиш ва ишлатиш малакасини ошириш учун банк ходимлари мунтазам равишда ўқитиб борилиши керак.

4) Тижорат банклари йиллик ҳисоботларини ўзлари мустақил равишда МҲХСга асосланган ҳолда тузишлари лозим, ташқи аудитор хизматидан фойдаланилган тақдирда ушбу ҳисоботни бошқа аудиторлик ташкилоти томонидан қайта текширилишини таъминлаши, банклар томонидан тайёрланаётган йиллик ҳисобот имкон қадар кенг таҳлилий маълумотларни қамраб олиши ва банк мижоз ва конрагентларининг тижорат сирларини ошкор қилмаслиги лозим. Бу борада иқтисодиёти ривожланган банкларнинг ҳисоботларидан ўрганиш ва андоза сифатида фойдаланиш зарур.

5) Тижорат банкларида ҳисоботларни МҲХСлари асосида шакллантириш имконини берувчи дастурий таъминот ишлаб чиқилиши лозим. Зеро, айрим ҳолларда инвестор ёки бошқа манфаатдор шахс учун нафақат якуний, балки йил ўртасидаги жорий маълумотлар керак бўлади. Тижорат банкларида МҲХСни мувофиқлаштириш бошқармаларини ташкил қилиш (банкнинг катта кичиклигидан келиб чиққан ҳолда департамент, бўлим ёки сектор) лозим.

6) Ҳисоботнинг шаффофлигини янада ошириш мақсадида МҲХСнинг қайси стандартлари айнан қабул қилинганлиги ва қайсилари ўзгартиришлар билан қабул қилинганлиги (ўзгартиришлар мазмуни ошкор қилинган ҳолда) Марказий банк ёки бошқа юқори ташкилот томонидан эълон қилиниши лозим. Қабул қилинмаган стандартнинг қабул қилиниши ва жорий қилиниши бўйича муддат белгиланиши керак. Шунингдек, Ўзбекистонда МҲХСлари бўйича етук мутахассис ҳисобланаётган ташқи аудиторлик ташкилоти ходимлари билан ўқув-амалий семинарларни ташкил этиш лозим. Ушбу ўқув амалий-семинарларни марказлашган тартибда Марказий банк, Молия вазирлиги ёки Банклар ассоциацияси томонидан ташкил қилиш ёки тижорат банки ва аудиторлик ташкилоти томонидан шартнома асосида, қўшимча хизмат сифатида ташкил қилиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Агеева О.А. Международные стандарти финансовой отчетности. Учебник для вузов. /О.А.Агеева, А.Л.Ребизова. – М.: Юрайт, 2013. – 447.
2. Бархатов А.П. Международные стандарти финансовой отчетности. Учебник. – М.: Дашков и К, 2012. – 484 с.
3. Ibragimov A.K. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. / A.K.Ibragimov, M.D.Marpatov, N.K.Rizaev. – T.: Moliya, 2016. 370 b.
4. Трофимова Л.Б. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник, Издательства “Юрайт” 2018., -242с. С.29-10.
5. Мислявская Н.А. Международные стандарти учета и финансовой отчетности. Учебник. / Н.А. Мислявская С.Н. – М.: Дашков и К, 2012. – 372 с
6. Ибрагимов А.,Очилов И, Қўзиев И.,.Ризаев Н., Молиявий ва бошқарув ҳисоби..- Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2008. Б. 263.
7. Чая В.Т., Чая Г.В. Международные стандарты финансовой отчетности. ISBN 978-5-4252-0182-9. – 368 с.

ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ИЛҒОР ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ

Суттибаев Бекзод Эшбоевич
ТДИУ мустақил изланувчиси

Давлат харидлари ҳар қандай мамлакат иқтисодиётида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, улар бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Ушбу жараён орқали давлат сектори турли товарлар, хизматлар ва ишлар билан таъминланади. Халқаро амалиётда давлат харидларини тартибга солиш ва самарали бошқаришнинг турли моделлари мавжуд. Масалан, АҚШда тендер жараёнлари рақамлаштирилган ва очиқ платформалар орқали амалга оширилса, Европа Иттифоқида экологик ва инновацион маҳсулотларни харид қилишга алоҳида эътибор қаратилади. Сингапурда эса марказлаштирилган электрон тизим орқали барча давлат харидлари назорат қилинади. Улар орасида рақамлаштириш, тендер жараёнларининг очиқлиги ва коррупцияга қарши чоралар муҳим ўрин тутади.

Жаҳонда давлат харидлари турли моделларга асосланиб ташкил этилади. Булардан энг кенг тарқалганлари марказлаштирилган давлат харидлари тизими, децентрализланган давлат харидлари тизими ва гибрид ёндашувлардир. Дунёнинг ривожланган давлатларида давлат харидлари тизими бюджет маблағларининг самарали сарфланишини таъминлаш мақсадида такомиллаштирилган. Масалан, АҚШда давлат харидлари “Federal Acquisition Regulation (FAR)” қоидалари асосида амалга оширилади. Электрон давлат харидлари платформаси (SAM.gov) орқали давлат ва хусусий сектор ўртасида шаффоф ҳамкорлик таъминланади. 2021 йилда АҚШ давлат харидлари бозори 665 миллиард доллардан ортиқни ташкил этди. Евроиттифоқда давлат харидлари “Public Procurement Directives”

асосида тартибга солиниб, электрон тендерлар орқали шаффофликни таъминлашга катта эътибор берилади.

Японияда давлат харидлари марказлаштирилган тизим асосида ташкил этилган бўлиб, мамлакат ялпи ички маҳсулотининг тахминан 16%ини ташкил этади. Электрон давлат харидлари учун махсус «Government Electronic Procurement System (GEPRO)» тизими ишлаб чиқилган. Бу тизим харид жараёнларини тезлаштириш ва коррупцияни олдини олишга ёрдам беради. Хитойда эса давлат харидлари 2013 йилда 150 миллиард долларни ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб бу рақам 530 миллиард долларга етган. Мамлакатда давлат харидларининг марказлашган тарзда амалга оширилиши бюджет маблағларининг тежалишига ҳамда давлат муассасаларининг эҳтиёжларини осон қондиришга имкон яратди. Сингапурда эса давлат харидлари «GeBIZ» электрон платформа орқали амалга оширилиб, тендерлар тўлиқ шаффоф ва рақобатбардош муҳитда ўтказилади.

Хорижий тажрибалар шуни кўрсатадики, давлат харидларини ривожлантириш ва шаффофлаштириш учун марказлаштирилган электрон тендер тизимини жорий этиш муҳимдир. Бундай ёндашув коррупция хавфини камайтириш, тендер жараёнларини шаффоф ва самарали ташкил этиш, шунингдек, давлат ресурсларидан оқилона фойдаланиш имконини беради.

1. **АҚШ тажрибаси** АҚШда давлат харидлари **Federal Acquisition Regulation (FAR)** асосида тартибга солинади. Электрон тендер платформалари (masalan, SAM.gov) орқали барча харидлар очиқ ва шаффоф равишда амалга оширилади. Ҳар бир харид жараёни бўйича ҳисоботлар эълон қилинади ва коррупцияга қарши қўшимча назорат тизимлари мавжуд, жумладан, давлат харидларини мониторинг қилиш учун махсус комиссиялар, аноним шикоятлар қабул қилиш платформалари ҳамда манфаатлар тўқнашувини текшириш механизмлари жорий этилган.

2. **Европа Иттифоқи тажрибаси** Европа Иттифоқи давлат харидларида рақамлаштириш ва шаффофликни таъминлашга катта эътибор қаратади. **TED (Tenders Electronic Daily)** платформаси орқали барча давлат харидлари бўйича маълумотлар очиқ эълон қилинади. Қонунчиликда «Грин Прокьюремент» механизми жорий этилган бўлиб, экологик тоза маҳсулот ва хизматлар афзаллантирилади.

3. **Сингапур тажрибаси** Сингапурда давлат харидлари **GeBIZ** (Government Electronic Business) тизими орқали марказлаштирилган тарзда амалга оширилади. Бу тизим барча тендер жараёнларини онлайн кузатиш ва уларда иштирок этиш имконини беради. Шу билан бирга, коррупцияга қарши кескин чоралар мавжуд.

4. **Хитой тажрибаси** Хитойда давлат харидлари ҳукумат томонидан қаттиқ назорат қилинади ва рақамли платформалар орқали амалга оширилади. Айниқса, «Бир макон, бир йўл» ташаббуси доирасида халқаро тендерлар шаффофликка катта эътибор қаратилади. Бу ташаббус халқаро савдони ривожлантириш, давлат харидларида иштирок этаётган компаниялар учун янги имкониятлар яратиш ва тендер жараёнларининг рақамлаштирилишига

туртки берди. Шунингдек, иштирокчи давлатлар ўртасида ягона стандартларни жорий қилиш ва харид жараёнларини мувофиқлаштириш орқали самарадорликни оширишга йўналтирилган.

1-жадвал

Илғор хориж тажрибалари асосида ривожланган мамлакатлар давлат харидлари тизимининг қиёсий таҳлили

Давлат	Назорат механизми	Электрон тизим	Шаффофлик чоралари	Экологик ёндашув
АҚШ	Federal Acquisition Regulation (FAR), махсус комиссиялар	SAM.gov	Барча тендерлар очиқ эълон қилинади	Йўқ
Европа Иттифоқи	Европа қонунчилигига асосланган назорат	TED (Tenders Electronic Daily)	Давлат харидлари маълумотлари очиқ	“Грин Прокьюремент” механизми
Сингапур	Давлат органлари томонидан қатъий назорат	GeBIZ	Барча жараёнлар онлайн кузатилади	Йўқ
Хитой	Ҳукумат томонидан қаттиқ назорат	Турли миллий платформалар	«Бир макон, бир йўл» ташаббуси орқали стандартлаштириш	Йўқ

Давлат харидлари давлат бошқаруви ва молия сиёсатида муҳим механизмлардан бири ҳисобланади. Ушбу жараён давлатнинг стратегик мақсадларини амалга ошириш, бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш, иқтисодиётда шаффофлик ва барқарорликни таъминлашда муҳим ўрин тутади. Жаҳон банки маълумотларига кўра, давлат харидлари дунёнинг кўпчилик мамлакатларида ялпи ички маҳсулотнинг 10-15%ини ташкил этади[186]. 2022 йилда Европа Иттифоқида давлат харидлари умумий ялпи ички маҳсулотнинг 14%ига[187], АҚШда эса 9.3%ига тенг бўлган[188].

Ўзбекистонда эса давлат харидлари ҳажми йилдан-йилга ортиб бормоқда. Масалан, 2021 йилда мамлакатда давлат харидлари ҳажми 46,8 трлн сўмни ташкил қилган бўлса, 2022 йилда бу кўрсаткич 51,4 трлн сўмга етган. Бундан ташқари, Ўзбекистон давлат харидлари ялпи ички маҳсулотнинг тахминан 12,5%ини ташкил этган[189]. Ушбу кўрсаткичлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, давлат харидлари иқтисодиётда катта улушга эга бўлиб, унинг самарали ва шаффоф бўлиши иқтисодий барқарорлик учун катта аҳамиятга эга.

Фикримизча, давлат харидлари давлат иқтисодиётининг муҳим воситаси сифатида қаралади ва унинг самарали ва шаффоф ташкил этилиши давлат

[186] Procurement By Sector // https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/procurement-sector?
[187] Regulation of Public Procurement // https://procurement.intosairussia.org/
[188] Doing Business With Us // https://www.federalreserveprocurement.org/
[189] Ўзбекистон Республикаси Давлат харидларининг махсус ахборот портали маълумотлари // https://xarid.mf.uz/

молиявий тизимининг барқарорлиги ва ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, давлат харидлари орқали давлат инфратузилмавий лойиҳаларни амалга ошириш, тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш ҳамда коррупцияга қарши курашиш имконияти яратилади. Халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, давлат харидлари тизимини ташкил этишга доир бир қатор таклфиларни шакллантиршимиз мумкин:

Биринчидан давлат харидлари тизимини ташкил этишда миллий қонунчилик ва халқаро стандартлар талабларига риоя қилишни кучайтириш. Харид жараёнларида шаффофликни таъминлаш ва тендерларда очиқ рақобат муҳитини яратиш учун қонунчилик базасини мунтазам такомиллаштириш зарур.

Иккинчидан – Барча давлат харидлари жараёнларини рақамлаштириш ва автоматлаштириш орқали коррупцияга қарши самарали курашиш. Электрон тендер платформаларининг имкониятларини кенгайтириш ва уларнинг ишончлилигини ошириш мақсадида халқаро тажрибалардан фойдаланиш керак.

Учинчидан – Давлат харидларида маҳаллий ишлаб чиқарувчилар учун имтиёзлар яратиш ва уларнинг иштирокини ошириш. Импорт товарлар ўрнига маҳаллий маҳсулотлардан фойдаланишга устуворлик бериш орқали миллий иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш механизмларини жорий этиш керак.

Тўртинчидан – Харид жараёнларида ҳисобдорлик ва жавобгарликни кучайтириш. Давлат харидлари натижаларини жамоатчилик назорати асосида баҳолаш тизимини жорий этиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш учун мониторинг механизмларини кучайтириш зарур.

Шундай қилиб, давлат харидлари давлат молиявий ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим воситаларидан биридир. Шу боис, унинг самарадорлигини ошириш учун илғор халқаро тажрибаларни ўрганиш ва миллий шарт-шароитларга мослаштириш лозим.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITI VA XALQARO STANDARTLARNING ROLI

Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich
Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti dekan muovini.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada uzoq muddatli aktivlar auditi korxonaning investitsion salohiyatini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda uzoq muddatli aktivlar auditini amalga oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari MHXS (IFRS) va auditning xalqaro standartlari (ISA) keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, MHXS (IFRS) 16 “Ijaralar”, BHXS (IAS) 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi” kabi standartlar uzoq muddatli aktivlarning auditi jarayonida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu borada sezilarli

islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yildan boshlab davlat tashkilotlari va yirik korxonalar bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga o‘tishni boshlagan.

Shu bilan birga, auditorlik tashkilotlari ham xalqaro standartlar asosida ish olib borishlari talab etilmoqda. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, uzoq muddatli aktivlar auditi rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy shaffoflikni oshirishda muhim vositalardan biri sifatida qaraladi. Bu borada AQShda Sarbanes-Oxley qonuni 2002 yil audit jarayonining qat’iy tartibga solinishiga sabab bo‘ldi, Yevropa Ittifoqida esa 2014-yildagi direktiva auditorlik faoliyatining mustaqilligini oshirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining rivojlanish sur’atlarini statistik ma’lumotlar orqali tahlil qilsak, 2018-yilda auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirilgan korxonalar soni 1 200 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1 800 taga yetdi, ya’ni 50% ga o‘sdi. Uzoq muddatli aktivlar auditining samaradorligi bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish zarurati ham ortib bormoqda. Germaniya va Buyuk Britaniyada audit tizimi mustaqil auditorlik qo‘mitalari orqali nazorat qilinadi. O‘zbekistonda ham shunday tizimni joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda. 2022-yilda O‘zbekistonda investitsiya kiritilgan asosiy kapital hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 34% ni tashkil etgan bo‘lsa, Germaniyada bu ko‘rsatkich 23%, AQShda esa 21% atrofida bo‘lgan. Bu esa uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar hajmining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Auditorlik jarayonining samaradorligini oshirish uchun raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. 2020-yildan boshlab Xitoyda sun’iy intellekt asosida moliyaviy audit tizimi ishga tushirildi, bu esa tekshiruvlarning aniq va tez amalga oshirilishiga yordam berdi. O‘zbekistonda uzoq muddatli aktivlar auditi bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro audit standartlarining joriy etilishi korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirish bilan bir qatorda, investitsion jozibadorligini ham kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro standartlarga mos keladigan hisob siyosatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli aktivlar auditi korxonalarning aktivlari samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash vositasi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari MHXS (IFRS) va auditning xalqaro standartlari AXS (ISA) uzoq muddatli aktivlarning audit jarayonini aniq va shaffof olib borishda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston va ayrim xorijiy davlatlar misolida uzoq muddatli aktivlar auditi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval.

O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda uzoq muddatli aktivlar auditi bo‘yicha taqqosiy tahlil[190]

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	AQSh	Germaniya	Buyuk Britaniya	Xitoy	Rossiya
Xalqaro audit standartlari joriy etilgan yil	2021	2002	2004	2006	2010	2009

[190] Muallif tomonidan tuzilgan.

Auditorlik tekshiruvlariga tortilgan korxonalar soni (2023)	1 800	5 600	4 200	3 900	7 500	2 800
Investitsiya hajmi (% YaIMga nisbatan, 2022)	34%	21%	23%	19%	42%	25%
Uzoq muddatli aktivlarning o‘rtacha baholash muddati (yil)	7	10	8	9	6	7
Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat	"Auditorlik to‘g‘risida" Qonun (2021)	Sarbanes-Oxley Qonuni (2002)	Germaniya buxgalteriya kodeksi	Buyuk Britaniya Audit Kodeksi	Xitoy Moliya Vazirligi nizomi	Rossiya Federatsiyasi Auditorlik Kodeksi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda auditning xalqaro standartlari 2021-yildan joriy etilgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon ancha oldin boshlangan. Xususan, AQShda 2002-yilda Sarbanes-Oxley qonuni qabul qilingan bo‘lib, audit jarayonining qat’iy tartibga solinishiga sabab bo‘lgan. Xitoy esa auditorlik faoliyatida raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda yetakchi hisoblanadi. O‘zbekiston uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha investitsiya hajmi yuqori bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lib, YaIMga nisbatan 34% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Xitoyda 42% bo‘lsa, AQShda 21% ni tashkil etadi.

Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning o‘rtacha baholash muddati O‘zbekistonda 7 yilni tashkil etadi, bu esa rivojlangan davlatlar bilan deyarli teng.

O‘zbekistonda uzoq muddatli aktivlar auditi jarayonida xalqaro standartlarga (MHXS va AXS) to‘liq moslashish hali ham dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatda auditorlik tashkilotlari va korxonalar xalqaro standartlarga mos ravishda faoliyat yuritishga harakat qilayotgan bo‘lsada, amaliyotda bu jarayon sekin kechmoqda. Sababi, buxgalteriya hisobi va audit sohasida ishlayotgan mutaxassislarning xalqaro standartlarni yetarli darajada bilmasligi va ularni qo‘llash bo‘yicha tajribaning yetishmasligidir.

Raqamlashtirish jarayonlari auditorlik tekshiruvlarining tezkor va aniq amalga oshirilishini ta’minlashi kerak. Biroq, O‘zbekistonda ko‘plab korxonalar va auditorlik firmalarida zamonaviy axborot tizimlari yetarlicha rivojlanmagan. Ko‘pgina kompaniyalar hali ham qo‘lda yoki eskirgan dasturlar orqali audit jarayonlarini olib boradi, bu esa xatoliklar va subyektiv baholash ehtimolini oshiradi.

Auditorlik tashkilotlarining mustaqilligi va ob’ektivligi audit jarayonining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ammo O‘zbekistonda ayrim auditorlik kompaniyalari mijozlar bilan yaqin hamkorlik qilishi natijasida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, auditorlik xizmatlariga bo‘lgan talab yuqori emasligi sababli, ayrim auditorlik firmalari mustaqil tekshiruvlar

o‘tkazish o‘rniga, mijoz korxonalarning manfaatlarini himoya qilishga moyil bo‘lib qolmoqda. Bu esa audit sifati va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda uzoq muddatli aktivlar auditi bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari[191]

Muammolar	Taklif va yechimlar
Xalqaro standartlarga to‘liq moslashish muammosi	- Auditor va buxgalterlar uchun xalqaro standartlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini kengaytirish. - Xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish va ulardan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. - MHXS (IFRS) va AXS (ISA) standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish.
Axborot tizimlarining yetarlicha rivojlanmagani	- Auditorlik faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish. - Korxonalarning buxgalteriya hisobi va audit jarayonlarida avtomatlashtirilgan dasturlardan foydalanishini rag‘batlantirish. - Davlat tomonidan auditorlik firmalariga axborot texnologiyalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun subsidiya va grantlar ajratish.
Auditorlik mustaqilligining yetarli darajada ta’minlanmagani	- Auditorlik firmalarining mustaqilligini oshirish maqsadida qonunchilik bazasini mustahkamlash. - Auditorlik faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil regulyator organ tashkil etish. - Auditorlar uchun axloqiy me’yorlarga rioya qilishni ta’minlovchi kodeks ishlab chiqish va uning ijrosini qat’iy nazorat qilish.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan muammolar va ularning yechimlari O‘zbekistonda uzoq muddatli aktivlar auditi sohasida islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Xalqaro standartlarga moslashish uchun auditor va buxgalterlarning malakasini oshirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda auditorlik mustaqilligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu taklif etilgan chora-tadbirlar audit jarayonining samaradorligini oshirish va xalqaro talablarga javob beradigan shaffof tizimni yaratishga yordam beradi.

O‘zbekistonda uzoq muddatli aktivlar auditi xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida muhim bosqichlarga yetib kelmoqda. Biroq, bu sohada hali ham qator muammolar mavjud bo‘lib, auditorlik faoliyatining to‘liq shaffofligi va samaradorligini ta’minlash uchun keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish talab etiladi. Xalqaro standartlarga moslashish jarayonini jadallashtirish uchun auditorlar va buxgalterlar malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Auditorlik jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish auditori tahlillarining tezkor va aniq amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shuning uchun raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan dasturlarni joriy etish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirish lozim. Bu esa audit natijalarining ishonchliligini oshirish bilan birga, moliyaviy shaffoflik darajasini ham yuqori bosqichga olib chiqadi.

Auditorlik mustaqilligining ta’minlanishi mamlakat iqtisodiyotida investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shuning uchun auditorlik faoliyatini tartibga

[191] Muallif tomonidan tuzilgan.

soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish, mustaqil nazorat organlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uzoq muddatli aktivlar auditi jarayonining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuvni jadallashtirishga yordam beradi.

ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИДА ПЕНСИЯ ҚАМРОВИНИ ОШИРИШ ОРҚАЛИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИККА ЭРИШИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Н.М.Рахмонов
БМА Молия ва молиявий технологиялар факультети декани (PhD)
Email: nraxmonov86@gmail.com

Пенсия тизими давлат ижтимоий сиёсатининг ажралмас қисми ҳисобланади. У меҳнат фаолиятини тугатган шахсларнинг ҳимояси, аҳоли даромадлари барқарорлиги, камбағалликни камайтириш ва ижтимоий тенгликни таъминлаш каби муҳим вазифаларни бажаради. Бугунги глобаллашган ва демографик босим кучайган даврда пенсия тизимларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш масаласи дунё миқёсида долзарб муаммолар қаторига кирди. Айниқса, сўнгги ўн йилликлардаги демографик тенденциялар — аҳолининг қариш жараёни, меҳнатга лаёқатли аҳолининг нисбий қисқариши, норасмий меҳнат бозори улушининг юқорилиги, ишсизлик даражаси, бюджет маблағлари танқислиги ва инфляция хавфлари пенсия тизимига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Бу омиллар Ўзбекистонда ҳам мавжуд бўлиб, ушбу муаммоларни тизимли равишда ҳал қилиш мақсадида пенсия тизимини молиялаштириш механизмларини қайта кўриб чиқиш тақозо этилмоқда.

Ушбу тизим фаолиятини сўнги йилларда такомиллаштириб бориш учун ўз навбатида бир нечта меёрий хужжатлар асосида тартибга солиб борилмоқда. Жумладан:

- ПФ-5723-сон Фармон (2019 йил) – “Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш концепцияси” билан пенсия тизимини молиялаштиришнинг янги йўналишлари белгилаб берилган, жумладан, хусусий пенсия жамғармалари, кўп манбали молиялаштириш ва инвестициявий фаолиятни кенгайтириш назарда тутилган;
- 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси – пенсия тизимини рақамлаштириш, электрон ахборот платформалари орқали автоматлаштириш, шаффофлик ва ҳисобдорликни ошириш вазифаларини ўртага қўйган.

Шу сабабдан бугунги кунда ушбу тизимнинг молиялаштиришнинг 3 та асосий манбаи мавжуд:

- ❖ Давлат бюджети маблағлари;
- ❖ Меҳнатга лаёқатли аҳолининг ижтимоий суғурта бадаллари;

❖ Пенсия жамғармалари маблағларини инвестиция қилиш натижасида олинадиган даромадлар.

Айни пайтда Ўзбекистонда пенсияларни молиялаштиришнинг катта қисми давлат бюджети ҳисобига тўғри келади. 2024 йил якунларига кўра пенсия жамғармаси тизимининг умумий маблағлар айланмаси 64.1 трлн сўмни, шундан 47.1 трлн сўм соликдан олинган тушумларни, 16,2 трлн сўм бюджетдан олинган трансфертларни ташкил этган. Бу эса асоссий сарф этилаётган маблағларнинг 23%дан ортиқроғи ижтимоий солиқ тўловлари орқали шаклланиб бораётганлигини кўрсатмоқда.

2015–2024 йиллар мобайнида пенсия харажатлари ва уларни молиялаштиришдаги манбалар динамикасига назар ташлайдиган бўлсак, пенсия харажатлари йил сайин ошиб бормоқда. 2015 йилда пенсия тизими учун давлат бюджети ҳисобидан 12.5 трлн сўм ажратилган бўлса, 2023 йилга келиб бу рақам 26.7 трлн сўмга етди. Суғурта бадаллари миқдори эса мос равишда 8.2 трлн сўмдан 11.9 трлн сўмгача ўсган. Бу ўсиш инфляция, аҳоли сони ортиши, яшаш давомийлиги ва пенсия миқдорларининг оширилиши билан боғлиқ. Бироқ бу ўсиш ички молиявий барқарорлик ҳисобига эмас, балки давлат томонидан қопланаётган харажатлар ҳисобига амалга оширилмоқда.



1-расм. Пенсия тизими харажатлари ва молиялаштириш манбалари (2015–2024)[192]

Ушбу диаграммадан шундан хулоса этиш мумкинки, суғурта принципига асосланган молиялаштириш механизми амалда етарлича ишламаяпти. Бу эса нафақат давлат молиявий юкламини ортишига, балки келгусида пенсия тизимининг барқарорлиги ва фуқаролар ишончининг пасайишига олиб келиши мумкин. Пенсия тизимидаги норасмий иш ўринлари улушининг юқорилиги ҳам суғурта бадаллари оқимининг чекланишига сабаб бўлмоқда.

Ҳозирда пенсия жамғармасининг ўз даромад манбалари чекланган. Суғурта бадалларининг йиғими норасмий меҳнат бозори ва маошларнинг камлиги сабабли етарли даражада эмас. Шу сабабли, пенсия тизимидаги дефицит миқдори йил сайин ортиб бормоқда. Бу, ўз навбатида, пенсия ёшини кечикиб белгилаш, пенсия миқдорларини секин ўсиши, пенсиядан

[192] *2015–2024 йиллар давлат статистика маълумотлари асосида тузиб чиқилди.*

фойдаланишда тенгсизликлар келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Янги давр пенсия тизимини рақамлаштиришни тақозо этмоқда. Бу фуқароларнинг ёшидан тортиб меҳнат стажигача бўлган маълумотларни ягона электрон базага жамлаш, автоматик ҳисоблаш тизимларини ишга тушириш, тўловларни реал вақтда амалга ошириш ва суиистеъмоллар эҳтимолини камайтиришни таъминлайди.

“E-pensiya” платформаси, “Ягона суғурта тўлови” тизими ва автоматлаштирилган электрон ҳисоботлар жорий этилмоқда, аммо бу етарли эмас. Тизимдаги рақамли жиҳатдан қопланмаган соҳа — бу хусусий жамғармаларнинг фаол иштирок этмаслиги ва тўлиқ рақобатли бозорнинг мавжуд эмаслигини англатмоқда. Бу шуни англатадики, бугунги кунда мамлакатимизда иқтисодий фаол бўлган қатламнинг 53.5% асосий меҳнат бозорида иштирок этаётган бўлса, қолган 46,5% норасмий секторларда фаолият олиб бормоқда. Бу эса улардан пенсия фондларига келиб тушадиган ягона ижтимойи тўловларни тўлиқ акс эттирмаслигини ва қамров даражасига бевосита таъсир этишини англатади. Шу сабабдан якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини олиб бораётган, деҳқон хўжалаги раҳбари ва аъзолари ҳамда бошқа кичик шаклда ўзини-ўзи банд этиш билан шуғулланаётган шахслар бугунги кунда белгиланган пенсия ҳисоблашининг баъзавий миқдоридан келиб чиқиб, йилда бир маротаба тўловларни амалга ошириб боришса, кексайганда ўзлари учун пенсияга чиқиш имкониятини таъминлайди, ҳамда жамғармаларнинг қамровларини ҳам ортиб боришига ҳизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 17-мартдаги ПҚ–2037-сон қарори. “Давлат пенсия тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”.

2. Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги (2023). Демографик ҳолат ва ижтимоий соҳа статистик кўрсаткичлари. Тошкент: Статистика агентлиги.

3. Юнусова, М. (2020). Ўзбекистон пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўллари. Тошкент: ТДИУ.

4. Аминов, Ш. анд Муродов, М. (2019). Пенсия тизимини рақамлаштиришнинг иқтисодий самарадорлиги. Иқтисодиёт ва молия, (4), пп.33–38.

5. World Bank (2024). Modernising Retirement Income Systems. Washington: World Bank.

6. https://www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлигининг расмий сайти.

7. https://www.worldbank.org – World Bank расмий сайти: глобал пенсия ислоҳотлари, молиявий таъминот ва демографик таҳлиллар.

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA XODIMGA TO‘G‘RI KELUVCHI FOYDA TAHLILI

PhD Xannayev Sherzod
Tashkent International University
https://orcid.org/0009-0004-0768-2814
Email: sherzod_khannaev@outlook.com

Tijorat banklarida samaradrolikni o‘lchashning bir qator metodlari hamda ko‘rsatkichlari mavjud. Shunday ko‘rsatkichlardan biri an’anaviy samaradorlik ko‘rsatkichi hisoblanib u bankdagi xodimlarda to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha foyda hisoblanadi. Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi foyda miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazkur bank shunchalik samarali faoliyat yuritayotgan bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich xodimlarning samaradorligini, ya’ni har bir xodim tomonidan keltirilgan sof foydani o‘lchaydi.

$$Har\ bir\ Xodimga\ Foyda\ = \frac{Sof\ Foyda}{Xodimlar\ Soni}$$

Quyidagi jadvalda Oz’bekiston hududida 2020-yil dekabr oyidan 2023-yil iyul oyigacha bo‘lgan davrda faoliyat yuritgan tijorat banklarining oylik ma’lumotlari asosida bir xodimga to‘g‘ri kelaidgan forda miqdori tasviriy statistikasi keltirilgan. Banklar mulkchilik shakliga ko‘ra 4 ta guruhga ajratilgan.

Jadval-1. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan foydaning tasviriy statistikasi

Mulkchilik shakli	Soni	O‘rtacha	Std.og‘	Min.	25%	50%	75%	Maks.
Xorijiy banklar	158	250.01	404.79	(1056.74)	0.00	248.54	438.75	1583.87
Aksiyadorlik tijorat banklari	355	147.87	299.67	(3391.66)	55.16	158.38	244.08	1063.89
Xususiy baknlar	366	153.63	236.94	(1482.98)	0.00	81.63	277.19	1470.19
Davlat banklari	96	130.57	126.20	(220.47)	32.41	123.35	168.27	480.55
Jami	975	164.88	288.25	(3391.66)	20.06	133.44	276.83	1583.87

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, davlat ulushi mavjud banklarda faoliyat yurituvchi xodimlarga to‘g‘ri keluvchi foyda xususiy yoki xorijiy banklar xodimlariga qaraganda kamroq ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, tahlil davrida xorijiy banklar xodimlari jami bank tizimi o‘rtachasidan yuroqiroq darajada foyda bankka jalb qilishgan. Kishi boshiga eng kam darajadagi foyda davlat bevosita egalik qiluvchi bank xodimlariga to‘g‘ri kelgan. Ammo, ushbu guruhdagi banklar standart og‘ishi eng past darajada bo‘lgan. Bundan kelib chiqadiku, vaqt o‘tishi bilan ushbu ko‘rsatkichning tebranishi kam bo‘lgan va davlat bevoista egalik qiluvchi banklarda kishi boshiga foyda keskin o‘zgarishlarga uchramagan.

Quyidagi rasmda oylar kesimida banklarning mulkchilik shakliga ko‘ra xodim boshiga to‘g‘ri keluvchi foyda miqdori trendi keltirilgan. Rasmdan ko‘rish mumkinki, xorijiy banklar faqat o‘rtacha olgandan emas, balki deyarli butun tahlil

davrida eng yuqori darajadagi foydaga erishgan. Bu xorijiy banklar foyda generatsiya qilishda xodimlardan samarali foydalanishini anglatadi.

Tahlil davri boshida sezilarli darajada xodim boshiga kamroq foyda topgan xususiy banklar tahlil davri oxiriga kelib xodim boshiga to‘gri keluvchi foyda bo‘yicha holatini yaxshilab olishgan. 2023-yil boshidan boshlab xorijiy banklar xodimi boshiga to‘g‘ri keluvchi foyda bo‘yicha shiddat bilan o‘sishga erishgan va boshqa guruhdagi banklar bilan orasida katta farq yuzaga kelgan.



Rasm – 1. Xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha foyda o‘zgarishi.

Xorijiy banklar bilan bunday katta bo‘shliqning paydo bo‘lishi bozorga yangi xorijiy o‘yinchilarning raqamli bank shaklida kirib kelishi va ularning mahalliy banklarga qaraganda tezroq raqamli transformatsiyani amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xorijiy banklar eng yuqori o‘rtachaga (240,4) ega bo‘lish bilan birga eng yuqori standart og‘ishga (392,7) ham ega bo‘lgan. Bu o‘z navbatiga turli xorijiy banklar xodimlari foydalilik bo‘yicha sezilarli darajada yuqori o‘zgaruvchanlikka ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, turli xorijiy banklar samaradorlik bo‘yicha turlicha operatsion jarayonlarga ega ekanligini ham anglatadi. Bundan tashqari, xorijiy banklar orasidan birining maksimum ekstrim qiymatga (1510,9) ega bo‘lishi, o‘rtachani o‘ngga siljitgan.

Davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari eng past darajadagi o‘rtachaga (129,3) ega bo‘lib, ularning o‘zgaruvchanligi ham nisbatan past (125,7) darajada bo‘lgan. Bu ushbu guruhdagi banklar izchil faoliyat yuritganligi, shu bilan birga doimiy past natijalar qayd etganligni anglatadi. Davlat bevosita egalik qiluvchi banklar o‘z ichki siyotsatlarini qayta ko‘rib chiqishlari, xarajatlar tuzilishini va mahsuldorlikni oshirish bo‘yicha strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishlari kerak hamda muvaffaqiyatli joriy qilingan xorijiy banklar strategiyalaridan foydalanishlari kerak.

Davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari bo‘yicha kuzatuvlar ekstrim manfiy qiymatni (-3391,7) qabul qilganligi uning o‘rtachasini sezilarli darajada chapga siljishiga olib kelgan (siljish: -7,60). Bu bir martalik katta yoqotish yoki samarasizlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va bunday holatlar takrorlanishini oldini olish bo‘yicha risk boshqaruvi amaliyotlarini joriy qilishni taqazo etadi.

Xususiy banklar o‘rtachasi (150,8) o‘rtacha faoliyat natijalarini taqdim etgan holda, siljish (0,5) ko‘rsatkichining past ekanligni ko‘rsatmoqda. Ammo, uning ekstsess (9,8) ko‘rsatkichi yuqori ekanligidan taqsimot chetida vazni yuqori ekanligni hamda ekstrim kuzatuvlar ko‘proq ekanligni anglatadi. Ya’ni, xususiy banklarning hammasi ham bir xil operatsion jarayonlarga ega emas va ulardagi samaradorlik ham turlicha. Past ko‘rsatkichli banklar ustidan ta’sirchan moliyaviy nazorat va potensial risklarni erta baholash ishlari usluksiz amalga oshirib borilishi lozim.

Mulkchilik shakli bo‘yicha barcha bank guruhlarining bir xodimga to‘g‘ri keluvchi foyda taqsimoti orasida turlicha siljish va chetki vaznlarga ega ekanligi ularning turli darajadagi normal bo‘lmagan taqsimotga mansub bo‘lganligini anglatadi. Bu o‘z navbatida banklar foydasiga strukturaviy yoki bozorga doir omillar ta’sir etayotganligini ko‘rsatadi. Ushbu omillarni dissertatsiyaning keyingi qismida ko‘rib chiqamiz.

Banklarning mulkchilik shakliga ko‘ra har bir xodimga to‘g‘ri keluvchi foyda miqdori statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq qilishini tekshirib ko‘rish uchun ANOVA testi amalga oshirildi. Test narijasiga ko‘ra, mulkchilik shakli o‘rtachalarning farqlanishiga statistik jihatdan muhim ro‘l o‘ynaydi va ular statistik jihatdan teng emas (F-statistik 4.48, p-qiymat 0.002 ga teng). Ushbu test qaysi mulkchilik shakllarida farq katta ekanligi yoki ayrimlari o‘zaro teng ekanligini soqit qilamydi. Bu holatlarni tekshirib ko‘rish uchun mulkchilik shakliga ko‘ra 4 ta bank guruhlaridan 6 ta juftliklar yaratildi va ular orasida farq statistik jihatdan farqliligi test qilib ko‘rildi. Quyidagi jadvalda ushbu test natijalari va juftliklar keltirilgan.

Jadval-2. Bank guruhlarining qiyosiy tahlili

Juftliklar		**Farq**	**p-qiymat**
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	-17.18	0.96
Aksiyadorlik tijorat banklari	Xorijiy banklar	93.93	0.00
Aksiyadorlik tijorat banklari	Xususiy banklar	4.33	1.00
Davlat tijorat banklari	Xorijiy banklar	111.11	0.02
Davlat tijorat banklari	Xususiy banklar	21.51	0.92
Xorijiy banklar	Xususiy banklar	-89.60	0.01

Test natijalariga ko‘ra davlat ulushi mavjud banklardagi har bir xodimga to‘g‘ri keluvhci foyda miqdori statistik jihatdan farqli emas. Ya’ni, ular statistik jihatdan o‘zaro teng aslida. Xuddi shunday holat xususiy banklar va davlat ulushi mavjud banklar bilan ham kuzatilgan. Boshqacha qilib aytganda, mahalliy banklarda faoliyat yurituvchi har bir xodimlar tomonidan generatsiya qilinayotgan foyda statistik jihatdan ahamiyatli darajada farqli emas. Ammo, xorijiy banklarda faoliyat yuritayotgan xodim tomonidan generatsiya qilinayotgan foyda mulkchilik shaklidan

qat’iy nazar mahalliy banklarda faoliyat yuritayotgan kasbdoshi generatsiya qilayotgan foydadan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekanligi empirik isbotlandi.

YASHIL MOLIYANI QO`LLAB-QUVVATLASHDA BLOKCHEYN HAMDA SUN`IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ZARURIYATI

Ko'chmuradov Zafar Ravshan o'g'li
"O'zmilliybank" AJ Guliston amaliyot BXM bosh buxgalter o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil moliya konsepsiyasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning, xususan, blokcheyn va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining o‘rni va zarurati chuqur yoritiladi. Yashil moliya nafaqat ekologik loyihalarni moliyalashtirish, balki moliyaviy qarorlarning barqarorlik tamoyillariga asoslanishini anglatadi. Maqolada blokcheyn orqali moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, sun’iy intellekt yordamida risklarni tahlil qilish, ekologik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish va barqaror investitsiyalarni boshqarish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yashil moliya, blokcheyn, sun’iy intellekt, ekologik investitsiya, raqamli transformatsiya, barqarorlik, moliyaviy texnologiyalar.

KIRISH

So‘nggi yillarda ekologik inqirozlar, global iqlim o‘zgarishlari va resurslar cheklanganligi fonida moliya dunyosida yangi yondashuv — yashil (barqaror) moliya tushunchasi tobora keng yoyila boshladi. Yashil moliya – bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydigan moliyaviy mexanizmlar to‘plamidir. Bu yo‘nalish investitsiyaviy oqimlarning energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni kamaytirish, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi loyihalarga yo‘naltirilishini nazarda tutadi.

Mazkur jarayonda texnologik innovatsiyalar, ayniqsa blokcheyn va sun’iy intellektning roli beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy tizimlar yanada shaffof, tezkor va mas’uliyatli holga keltirilmoqda. Aynan shu sababli, yashil moliyani qo‘llab-quvvatlashda bu ikki texnologiyaning integratsiyasi — nafaqat zamonaviy talab, balki global ekologik muammolarga barqaror yechim topish yo‘lidagi strategik vositadir.

ASOSIY QISM

Yashil moliya atamasi bugungi kunda xalqaro moliya institutlari, hukumatlar va xususiy sektor tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha asosida moliyaviy investitsiyalarni ekologik jihatdan foydali va ijtimoiy barqaror loyihalarga yo‘naltirish tamoyili yotadi. Xususan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDG) va Parij iqlim bitimi doirasida yashil moliyaviy mexanizmlar strategik ahamiyat kasb etmoqda [2].

Yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar, karbon kredit bozori, ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) ko‘rsatkichlari orqali investorlarga

ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilmoqda. Ammo bu jarayonni samara bilan boshqarish va audit qilish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarning jalb etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Blokcheyn texnologiyasi asosida ishlaydigan “yashil audit” tizimlari real vaqt rejimida loyihalarning karbon izlari, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari, energiya sarfi va chiqindilar hajmini shaffof qayd etish imkonini beradi. Bu tizimlar orqali nafaqat sarmoyadorlar, balki keng jamoatchilik ham moliyalashtirilayotgan har bir loyiha haqidagi ma’lumotlarni bevosita kuzatishi mumkin bo‘ladi. Bu esa raqamli ishonch muhitining mustahkamlanishiga, yashil loyihalarning jamoaviy nazorat ostida bo‘lishiga va ijtimoiy mas’uliyatli moliyaviy muhit yaratilishiga xizmat qiladi [3].

Shuningdek, AI asosidagi ishonch reyting tizimlari (trust scoring systems) orqali har bir loyiha yoki korxonaning ekologik faoliyati baholanadi. Bu reytinglar investorlarga eng ishonchli, ekologik mas’uliyatli hamkorlarni tanlashda muhim mezon vazifasini o‘taydi.

Sun’iy intellekt bugungi kunda moliya sohasida murakkab va o‘zgaruvchan investitsiya muhitini boshqarish uchun eng samarali vositalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, yashil moliyada risk omillari ko‘p, ekologik foyda darajasi murakkab bo‘lgani sababli, AI texnologiyasi ekologik investitsiya portfellarini tahlil qilish, real vaqt rejimida ma’lumotlarni sintez qilish va sarmoyalarni optimal yo‘naltirish imkonini beradi.

AI algoritmlari ekologik loyihalarning rentabellik prognozini turli indikatorlar asosida baholaydi — masalan, loyihaning energiya tejamkorlik darajasi, karbon gazlari chiqishi, atrof-muhitga ta’siri va ijtimoiy foyda ko‘rsatkichlari. Bu ma’lumotlar asosida sarmoyadorlar investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishi, ya’ni turli sohalarga tarqatib xavfni kamaytirishi mumkin [4].

Ayni paytda, sun’iy intellekt iqlim o‘zgarishi bo‘yicha sun’iy yo‘ldosh axborotlari, IoT sensorlaridan kelayotgan ma’lumotlar, davlat statistikasi va moliyaviy tahlillarni uzviy bog‘lab, kompleks bashorat tizimini yaratadi. Bu esa yashil loyihalarni uzoq muddatli, strategik jihatdan barqaror asosda boshqarish imkonini beradi.

Hozirda xorijiy davlatlarda “gov-tech” va “green-fintech” yo‘nalishlari shakllanmoqda. Bunda hukumatlar sun’iy intellekt asosida ekotizim modellarini ishlab chiqmoqda, blokcheyn orqali yashil bitimlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Estoniya, Shveysariya, Singapur kabi davlatlar ekologik loyiha monitoringini faqat sun’iy intellekt asosida olib bormoqda.

O‘zbekistonda ham Yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasida barqaror moliyaviy model yaratish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida raqamli innovatsiyalarni keng joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat tomonidan qulay me’yoriy-huquqiy maydon yaratilishi, texnologik infratuzilma qo‘llab-quvvatlanishi va ochiq moliyaviy axborotlar bazasi shakllanishi zarur.

Dunyo miqyosida ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida ko‘plab mamlakatlar “yashil iqtisodiyot” strategiyasini amaliyotga joriy etmoqda. Bu jarayonda nafaqat ekologik loyihalarni moliyalashtirish, balki texnologik transformatsiyani ham harakatlantiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa,

raqamli texnologiyalarning yashil moliyadagi ishtiroki rivojlangan davlatlarda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, Yevropa Ittifoqining EU Green Deal dasturida karbon neytrallikka erishish yo‘lida blokcheyn asosidagi karbon kredit birjalari, AI yordamida iqlim risklari monitoringi va ekologik loyihalarni moliyaviy raqamlashtirish kabi ilg‘or texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Singapur, Janubiy Koreya va Kanada kabi davlatlar sun’iy intellekt asosida milliy ESG reyting tizimlarini ishlab chiqib, yashil moliyaviy oqimlarni strategik tarzda boshqarishni yo‘lga qo‘ygan.

Shunday xalqaro tajribalardan kelib chiqib, O‘zbekiston ham o‘zining "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi" asosida raqamli texnologiyalarning ushbu sohadagi rolini aniqlab borishi zarur. Bu, bir tomondan, investorlar ishonchini oshiradi, ikkinchi tomondan esa xalqaro moliyaviy hamkorliklar uchun zamonaviy platforma yaratadi.

Yashil moliyani samarali yuritish uchun ESG — ya’ni ekologik (E), ijtimoiy (S) va boshqaruv (G) tamoyillariga asoslangan baholash mezonlari qo‘llaniladi. Biroq, an’anaviy usullarda ushbu mezonlar bo‘yicha monitoring yuritish, ma’lumotlar aniqligi va shaffofligini ta’minlash qiyin bo‘lib kelgan.

Blokcheyn texnologiyasi bu muammoni hal qilishda ishonchli yechim sifatida xizmat qiladi. U kompaniya yoki loyiha tomonidan ishlab chiqilayotgan ekologik hisobotlarni markazsizlashtirilgan tizimda doimiy saqlash imkonini yaratadi. Bu esa sun’iy ravishda ma’lumotni manipulyatsiya qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

Sun’iy intellekt esa ESG ko‘rsatkichlari asosida muayyan loyihaning ijtimoiy va ekologik xavf darajasini avtomatik tahlil qiladi. AI algoritmlari o‘zgaruvchan ekologik parametrlarni tahlil qilib, kompaniyalarga barqarorlik risklarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, O‘zbekistonda suv resurslari, iqlim xavfi va energiya samaradorligiga oid loyihalarda ushbu mexanizm yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin.

Raqamli transformatsiyaning o‘zi ijobiy natijalarga olib kelishi uchun u ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Ayniqsa, AI texnologiyalaridan foydalanishda sun’iy intellekt etikasi va algoritmik shaffoflik masalalari muhim hisoblanadi. AI algoritmlari noto‘g‘ri yoki biryoqlama ma’lumotlarga asoslangan holda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilmasligi uchun ularni jamiyat ehtiyojlari va adolat tamoyillariga mos tarzda loyihalashtirish lozim.

Bu yerda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy kontekst, aholi bandligi, energetika bilan bog‘liq ehtiyojlar va infratuzilma holati inobatga olinishi zarur. Yashil moliyaviy texnologiyalar faqatgina ekologik innovatsiyalar emas, balki ijtimoiy tenglik, hududiy adolat va texnologik inklyuziyani ham ta’minlashi zarur.

XULOSA VA MUNOZARA

Yashil moliyaning kelajakdagi muvaffaqiyati, uning samaradorligi va jamoatchilik ishonchiga sazovor bo‘lishi bevosita raqamli texnologiyalar — xususan, blokcheyn va sun’iy intellektning integratsiyasiga bog‘liq. Blokcheyn texnologiyasi orqali moliyaviy oqimlarning shaffofligi va ishonchliligi ta’minlansa, sun’iy intellekt orqali risklar, ekologik tahlillar va qarorlar samarali boshqariladi.

Bugun yashil moliyani qo‘llab-quvvatlash faqat ekologik yoki moliyaviy masala emas, balki bu butun jamiyatning kelajak barqarorligi, ijtimoiy adolat va

iqtisodiy mas’uliyatga asoslangan rivojlanish yo‘lidir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham yashil moliya siyosatiga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). Green Finance Progress Report.
2. World Bank. (2021). Blockchain for Sustainable Finance: A Strategic Overview.
3. International Monetary Fund. (2020). FinTech and the Future of Green Finance.
4. Zhang, Y., & Zhou, X. (2021). Blockchain Technology in Green Finance. Journal of Sustainable Finance & Investment, 11(4), 277–291.

Valyuta kursi va amaliyotlari hisobi va ularning tijorat bankiga ta’siri

Yaxshiboyev Akbar Ibrohimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy valyutaga nisbatan ayirboshlash juda o‘zgaruvchan bo‘lib qolganligi nafaqat bank faoliyatiga, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy holatiga ta’sir qilishi yoritib berilgan. O‘zbekistondagi tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanchi bo‘lsada, valyuta kursi moliyaviy ko‘rsatkichlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi va valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida tijorat banklari qanday foyda ko‘rishi yoki yo‘qotishi mumkinligini o‘rganishni talab qilishi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Valyuta kursi, tijorat banklari, valyuta riski, xorijiy valyutadagi operatsiyalar, tashqi savdo operatsiyalari.

Valyuta amaliyotlari tijorat banklari uchun daromad manbayi hisoblanadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, tijorat banklari valyuta bo‘yicha eksport, import, xalqaro pul o‘tkazmalari hamda valyutada beriladigan kreditlardan daromad orttiradi. Bank daromadining oshishi uning mikro va makro iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, valyuta amaliyotlari tijorat banklari va davlatning iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatib uning tashqi savdo operatsiyalari va davlatlararo savdo aylanmasini ko‘paytiradi.

Tijorat banklarida valyuta amaliyotlari hisobi va uning ta’siri yuzasidan ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuni aytish lozimki, tadqiqotlarning ko‘pi xalqaro akademik va tadqiqotchilarga tegishli. O‘zbekistondagi tijorat banklari va valyuta amaliyotlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri mahalliy tadqiqotchilar

tomonidan kam o‘rganilgan. Barcha mavjud tahlilar faqatgina ikkilamchi ma’lumotlarga, uning yuzaki tahlillarga asoslangan va hech qanday empirik tahlillar mavjud emas. Shuning uchun, mazkur qismda mavzu doirasida xalqaro tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan empirik tadqiqotlar tahlil qilindi.

Valyuta riski va uning tijorat banklariga ta’siri mavzusida Pradita va Geraldina (2019) ilmiy tadqiqot olib borgan. Ular Indoneziyadagi 29 ta tijorat bankini 5 yillik (2014-2018) ma’lumotlarga asoslanib tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar valyuta amaliyoti riski va valyuta ayirboshlash riskini tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichiga ta’sirini empirik jihatdan tahlil qilishgan. Moliyaviy ko‘rsatkich sifatida rentabellik olinib, tijorat banklarining hajmi, kapital adekvatlik, operatsion xarajatning operatsion foydaga nisbati, bank foizi qo‘shimcha ravishda bank ko‘rsatkichlari sifatida olingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, valyuta amaliyoti riski Indoneziyadagi tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichiga katta ta’sir ko‘rsatishi topilgan. Ammo valyuta ayirboshlash riskining tijorat banklariga hech qanday ta’siri yo‘qligi empirik tahlillar natijasida tasdiqlangan.

Ammo valyuta amaliyotlari o‘z navbatida tijorat banklarida valyuta kursi tavakkalchiligi va xavfini oshiradi. Valyuta amaliyotlari jarayonida milliy valyutani boshqa bir xorijiy valyuta turiga yoki xorijiy valyuta turidan milliy valyutaga almashtirishga to‘gri keladi. Bu esa o‘z navbatida amaliyotni bajarishda valyutaning qiymatini pasaytiradi yoki oshiradi. Ushbu holatda tijorat banklarida valyuta amaliyotlari jarayonida xorijiy valyuta xavfi (riski) oshib boradi. Tijorat banklari asosiy valyuta qimmatliklarini valyuta bozoridan sotib olganligi sababli valyuta bozoridagi xorijiy valyuta kursini keskin o‘zgarib borishi tijorat banklarining moliyaviy holati yoki ko‘rsatkichlariga katta ta’sir ko‘rsatadi (Ahmed, 2015).

Ongore va Kusalarning (2013) ta’kidlashicha, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda xorijiy valyuta kursi tashqi savdo va biznes o‘tkazmalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Erkin bozor sharoitida valyuta kursi doimiy ravishda o‘zgarib boradi va O‘zbekistondagi valyuta bozori ham bundan mustasno emas. Valyuta kursi barqarorligining yo‘qligi erkin bozor sharoitida xorijiy valyutadagi talab va takliflardan kelib chiqqan holda ta’sir o‘tkazadi. O‘tgan bir necha dekadalarda, biznes korxonalar va tijorat banklarining globallashuvi xorijiy valyutaga talabni keskin oshirib kelmoqda, bu esa o‘z navbatida valyuta kursi barqarorligiga, moliyaviy va operatsion faoliyatlarga ta’sir ko‘rsatadi (Farah, 2014).

Valyuta amaliyotlardan keluvchi xavf xalqaro miqyosda xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Global miqyosda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida valyuta kursining barqarorligi xizmat ko‘rsatilayotgan davlatda olingan daromadlarning milliy valyutaga almashtirilganida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, Choi va Meekning (2011) o‘rganishlariga ko‘ra, xalqaro buxgalteriya hisobotida xorijiy valyuta kursining oshishi yo kamayishi natijasida vujudga kelgan foyda yoki zarar valyuta xavfi (riski) sifatida moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi lozim.

Bu borada tijorat banklarida valyuta kursini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun bir turdagi valyuta (mahalliy) ikkinchi turdagi valyuta turiga aylantiriladi. Ushbu holatda valyuta balansini baholash uchun uch xil valyuta kursi ishlatiladi: joriy kurs, balans kursi va o‘rtacha kurs (Kamau, Inanga, Rwegasira, 2015). Shu

sababli valyuta amaliyoti hisoboti davrida funksional valyutada o‘zgarishlar yuz berganda, tijorat banklari o‘zgarish sanasidan boshlab yangi funksional valyutani o‘zgartirish tartibini istiqbolli ravishda qo‘llaydi va barcha kurs farqlari boshqa umumiy daromadda (other comprehensive income) aks ettiriladi (Pradita and Geraldina, 2019).

Bundan tashqari, Shaproning (2013) ta’kidlashiga ko‘ra, valyuta amaliyotlari bilan muntazam xizmat ko‘rsatayotgan tijorat banklari valyuta amaliyotlari risklari yoki xavfiga ham duch kelishadi. Valyuta amaliyotlari risklari yoki xavfini belgilashda tarixiy va istiqbolli jihatlarga qaraladi, chunki ushbu amaliyotni tahlil qilish yoki baholashda o‘tmishda sodir bo‘lgan va yaqin kelgusidagi valyuta amaliyotlariga asoslanadi. Demak, valyuta amaliyoti jarayonida talab qilinadigan valyuta almashtirishdan hosil bo‘lgan risklar tijorat banklarining xorijiy valyuta pozitsiyalarini qayta baholanishini va uni moliyaviy hisobotda aks ettirilishini talab etadi (Kamau, Inanga, Rwegasira, 2015).

O‘zbekistonda ichki valyuta operatsiyalari holati ko‘p jihatdan tijorat banklari tomonidan chet el valyutalarini jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutaga talabi va takliflaridan kelib chiqqan holda o‘zgarib boradi. 1-rasmda 2020-2021-yillarda O‘zbekistondagi tijorat banklari tomonidan xorijiy valyuta taklifi manbalari ko‘rsatilgan. Rasmga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan 2020-2021-yillarda ichki bozorda chet el valyutasining umumiy taklifi 1,6 barobarga oshgan. Tijorat banklariga chet el valyutasini yetkazib berish uch xil manbadan kelib chiqqan:

- Korporativ mijozlardan. 2021-yilda bu 689 million dollarni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 1,7 baravar ko‘p.
- Jismoniy shaxslardan. 2021-yilda bu 645 million dollarni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 1,5 baravar ko‘p.
- Davlat markazlashgan resurslari hisobidan sotilgan xorijiy valyuta miqdori 854 million AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1.8 barobar oshgan.

1-Rasm. Tijorat banklari tomonidan jami valyutaga bo‘lgan takliflarning manbalari (million AQSh dollarida)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, (2022)

Shuni aytib o‘tish kerakki, tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan xorijiy valyuta xizmatlari va ularning salmog‘i, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xorijiy valyutaga bo‘lgan talablardan kelib chiqadi. 2021-yil yanvar-iyun oylari davomida xorijiy valyutaga bo‘lgan mijozlar tomonidan jami talablar 11.3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan (2-rasm). Bu esa, o‘z navbatida, 2019 va 2020-yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 1.7 va 1.4 barobarga oshganligini anglatadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, xorijiy valyutadagi operatsiyalar dastlab amaldagi valyutada, operatsiyani amalga oshirish kunidagi valyuta kursi bo‘yicha konvertatsiya qilinadi. Chet el valyutasida ifodalangan pul aktivlari va majburiyatlari hisobot sanasidagi amaldagi valyuta kursi bo‘yicha qayta hisoblab chiqiladi. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni o‘tkazish natijasida olingan daromad va zararlar konsolidatsiyalangan foyda yoki zarar to‘g‘risidagi hisobotda valyuta operatsiyalari bo‘yicha sof foyda yoki zarar sifatida tan olinadi.

Muammoli kreditlarning O‘zbekistonda yashil o‘sish strategiyasiga ta’siri va ularni bartaraf etish yo‘llari

Mashhurbek Jalalov G’aybullo o’g’li, PhD

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan “yashil o‘sish” strategiyasini faol ravishda ilgari surmoqda. Ushbu strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida shakllantirilgan bo‘lib, unda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, va ekologik infratuzilmani rivojlantirish

asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ayniqsa, Aralbo‘yi hududidagi ekologik inqirozni yumshatish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar va iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralari yashil o‘sishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Biroq, ushbu maqsadlarga erishishda iqtisodiyotning moliyaviy sektori, xususan bank tizimining barqarorligi muhim rol o‘ynaydi. Afsuski, so‘nggi yillarda bank tizimida muammoli kreditlar (NPL — Non-Performing Loans) ulushi sezilarli darajada oshdi. Muammoli kreditlar — bu muddati o‘tgan, lekin qaytarilishi shubha ostida bo‘lgan qarzlar bo‘lib, ular banklar rentabelligini pasaytiradi, kreditlash faoliyatini susaytiradi va iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi. O‘zbekistonda ushbu holat ayniqsa qishloq xo‘jaligi va energetika sohalarida keskin sezilmoqda, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri yashil investitsiyalarning yetishmovchiligiga olib kelmoqda.

